O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIMI – INNOVATSION RIVOJLANISH YO‘LIDA

MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY VA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

2024 MAY

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

МИНИСТЕРСТВО ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ, НАУКИ И ИННОВАЦИЙ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН
КОКАНДСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ ИНСТИТУТ

MINISTRY OF HIGHER EDUCATION, SCIENCE AND INNOVATIONS OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN
KOKAND STATE PEDAGOGICAL INSTITUTE

“O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIMI – INNOVATSION RIVOJLANISH YO‘LIDA”

mavzusidagi xalqaro ilmiy va ilmiy-amaliy konferensiya
MATERIALLARI

МАТЕРИАЛЫ

международной научной и научно-практической конференции
“ВЫСШЕЕ ОБРАЗОВАНИЕ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН – НА ПУТИ ИННОВАЦИОННОГО РАЗВИТИЯ”

MATERIALS

of the international scientific and scientific-practical conference
“HIGHER EDUCATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN – ON THE PATH OF INNOVATION DEVELOPMENT”

Коканд, май 2024/Kokand, may 2024

Tashkiliy qo‘mita / Организационный комитет / Organization committee -
D.Sh. Xodjayeva, N.M. Babayeva, N.S.Jo‘rayev, M.M. Aminova, M.X. Rasulova,
Z.D. Boytemirova, D. B. O‘rinboyev, E.Sh. Oripov.

Mas’ul muharrir / Ответственныший редактор / Executive editor
B.J. Shamsiddinovich, A.N.Meliboyev.

Taxrir hay’ati / Редакционная коллегия / Editorial board
Z.D.Boytemirova, D.B. O‘rinboyev, J.M.A’zamov, M.M.Aminova,
J.A.Qurbonov.

“O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’limi - innovasion rivojlanish yo‘lida” mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. Ilmiy nashr. – 2024. 466 bet.

Mazkur xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya mustaqil O‘zbekiston taraqqiyotining yuksalish bosqichida oliy ta’lim tizimida olib borilayotgan islohotlar va ularning natijalari, global davr talablariga mos raqobatbardosh kadrlarni tayrlash borasidagi so‘nggi yillarda amalga oshirilishi zarur bo‘lgan vazifalar, bu boradagi ilg‘or xorij tajribalar va oliy ta’lim tizimidagi yutuqlarni xulosalash, mavjud muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish bo‘yicha zarur takliflar berish va innovasion tajribalarni ilgari surish maqsadida 2024 yil 24-25 may kunlari Qo‘qon davlat Pedagogika institutida “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’limi - innovatsion rivojlanish yo‘lida” mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya o‘tkaziladi.

Mazkur xalqaro konferensiya O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2024 yil 20 martdagi 762-sonli buyrug‘i bilan belgilangan «2024 yilda xalqaro miqyosda o‘tkaziladigan ilmiy va ilmiy-texnik tadbirlar rejasi» asosida (ro‘yxat raqami 80-64) o‘tkazilmoqda.

Материалы международной научно-практической конференции на тему «Высшее образование Республики Узбекистан – на пути инновационного развития». Научное издание. – 2024. 466 с.

Данная международная научно-практическая конференция подводит итоги проводимых реформ и их результатов в системе высшего образования на подъеме развития независимого Узбекистана, задач по подготовке конкурентоспособных кадров, соответствующих требованиям глобальной эпохи, обобщает передовой зарубежный опыт и достижения в системе высшего образования, в целях выявления существующих проблем и внесения необходимых предложений по их устранению, а также продвижения инновационного опыта 24-25 мая 2024 года в Кокандском государственном педагогическом институте состоится международная научно - практическая

конференция на тему “Высшее образование Республики Узбекистан - на пути инновационного развития”.

Данная международная конференция проводится на основе «плана научных и научно-технических мероприятий, проводимых на международном уровне в 2024 году» (регистрационный номер 80-64), установленного приказом министра Высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан от 20 марта 2024 года № 762.

Materials of the international scientific-practical conference on the topic “Higher education of the Republic of Uzbekistan - on the path of innovative development”. Scientific publication. – 2024. 466 p.

This international scientific and practical conference will focus on the reforms and their results in the higher education system at the stage of the rise of the development of independent Uzbekistan, the tasks that should be implemented in recent years to train competitive personnel in accordance with the requirements of the global era, to summarize the achievements in advanced foreign experience and higher education, in order to make the necessary proposals to identify and eliminate existing problems and promote innovation experiments, an international scientific and practical conference on the topic “Higher education of the Republic of Uzbekistan on the path of innovative development” will be held at the Kokand State Pedagogical Institute on may 24-25, 2024. This international conference is held on the basis of the “Plan of scientific and scientific and technical activities to be held internationally in 2024” (registration number 80-64), established by order of the Minister of Higher Education, Science and innovation of the Republic of Uzbekistan No. 762 of March 20, 2024.

O‘zbekiston Respublikasi Davlat Mustaqilligining 33 yilligiga bag‘ishlanadi

Посвящается 33 летию Государственной Независимости Республики Узбекистан

Dedicated to the 33rd anniversary of State independence of the Republic of Uzbekistan

УДК: 511.11 (571.7)
ББК: 72.017

ISBN 9789943-7221-8-7

© Qo‘qon davlat pedagogika instituti
© “Adabiyot uchqunlari” nashryoti

I Sho‘ba

Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish hamda ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha olib borilayotgan innavatsion tajribalar va ularning natijalari

I Section

Innovative experiments and their results carried out to improve the quality of education in higher educational institutions and ensure their active participation in the reforms carried out in the country

I Секция

Инновационные эксперименты и их результаты, проводимые в высших учебных заведениях по повышению качества образования и обеспечению их активного участия в проводимых в стране реформах

KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHNING QONUNIY ASOSLARI

Usmonov Ma’ruf Azamovich
Qo‘qon shahar xokimi, y.f.n.

Аннотация. Автор статьи раскрыл ущерб, который коррупция наносит всем сферам общественной жизни. Он также убидительно доказал, что всем необходимо вместе надо бороться с коррупцией. Анализируя Закон Республики Узбекистан «О противодействии коррупции», автор подчеркивает, что коррупция может быть устранена совместными усилиями по реализации этого закона.

Ключевые слова: коррупция, правовая культура, уголовно-процессуальный кодекс, коррупционное правонарушение, конфликт интересов.

Abstract. The author of the article revealed the damage that corruption causes to all spheres of public life. He also convincingly proved that everyone needs to work together to fight corruption. Analyzing the Law of the Republic of Uzbekistan “On Combating Corruption”, the author emphasizes that corruption can be eliminated by joint efforts to implement this law.

Key words: corruption, legal culture, criminal procedure code, corruption offense, conflict of interests.

Barchamizga ma’lumki, korrupsiya jamiyatni rivojlanishiga qarshi qaratilgan harakat bo‘lib, u hoh rifojlangan, hoh rivojlanayotgan mamlakatda albatta ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni keltirib chiqaradi. Korrupsiyani demokratik islohotlarga xalaqit beruvchi, bozor tamoyillarga to‘sqinlik qiluvchi, axolining olib borilayotgan davlat siyosatiga ishonchsizligiga sabab bo‘luvchi zararli xodisa deb baholash mumkin.

Ko‘pchilik olimlarning fikricha korrupsiya murakkab ijtimoiy hodisa sifatida jamiyatning paydo bo‘lishi bilan vujudga kelgan bo‘lib, uni tugatish qiyin. Lekin mamlakatimizning korrupsiyaga qarshi kurash tajribasi bu illatni bartaraf etish uchun olib borilayotgan xarakat kompleks-majmuaviy tarzda muntazam ravishda izchil amalga oshirilishi yaxshi natija berishi mumkinligini ko‘rsatmoqda.

Har bir davlat korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatining maqsadi va ob’yekti sifatida alohida olingan korrupsionerga emas, balki ushbu xatti- harakatlarni amalga oshirishga sharoit yaratib beruvchi holatlarni bartaraf qilish va profilaktik oldini olish choralarida namoyon bo‘ladi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarini tashkil etishda quyidagilarni inobatga olish lozim deb hisoblaymiz:

- har bir sohada korrupsiyaga qarshi kurashishda qonun hujjatlarini zamon va islohotlar talablari darajasida takomillashtirish;аҳолининг ҳуқуқий онги ва ҳуқуқий маданиятини юксалтириш, жамият аъзолари бўлган фуқароларимиз онгида коррупцияга нисбатан муросасиз муносабатни мунтазам равишда шакллантириб бориш;

- davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarida korrupsiyaning oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish va hayotga izchil tadbiq qilish;
- korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni o‘z vaqtida aniqlash, ularga barham berish va oqibatlarini keng jamoatchilikka tushuntirish, korrupsiyaga imkon bergan sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish;
- korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida tashkiliy choralarni ilmiy va amaliy jihatdan asoslangan holda tashkil etish, ilmiy tadqiqotlar o‘tkazish va bu sohada xalqaro hamkorlikni izchil yo‘lga qo‘yish.

Har qanday davlatda korrupsiyaning rivojlanishi davlatning ichki va tashqi siyosatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi, natijada jamiyat a’zolarini mazkur davlatning organlariga bo‘lgan ishonchiga putur yetkazishga olib keladi.

Jinoyat va Jinoyat prosessual kodekslarini rivojlangan davlatlar tajribasini o‘rganish, xalqaro ekspertlarni jalb qilish hamda bugungi kunda shiddatli ravishda amalga oshirilayotgan islohotlarni talablariga muvofiq Jinoyat va Jinoyat prosessual kodekslar loyihasi norma ijodkorligi asosida ishlab chiqish jamiyatda jinoyatlarni shu jumladan korrupsion jinoyatlarni oldini olishga qaratilgan normalarni mustahkamlash jamiyatda jinoyatlarni hamda korrupsion jinoyatlarni oldini olinishiga xizmat qiladi.

Hozirgi glabollashuv davrida yoki jarayonida korrupsiya muammosi jahonning deyarli har bir mamlakatida mavjudligini ko‘rish mumkin. Ammo bu - barcha davlatlarda ham korrupsiya bir xil degan ma’noni anglatmaydi. Ekspertlarning xulosasiga ko‘ra, korrupsiyaning vujudga kelish sabablari turli mamlakatlarda turli xil bo‘lib, tarixiy rivojlanish bosqichi hamda ijtimoiy-iqtisodiy muammolarning mavjudligi hamda taraqqiyot darajasi bilan belgilanadi.

Bir qator rivojlangan mamlakatlarda davlat boshqaruvi sohasida korrupsiyaning oldini olish va unga barham berishga qaratilgan ma’muriy normalar majmui ishlab chiqilgan.

XX asrning 90 yillaridan xalqaro va mintaqaviy doiralarda korrupsiyaga qarshi kurash bilan bog‘liq xalqaro shartnomalar qabul qilina boshlandi.

O‘zbekiston Respublikasi 2008 yil 7 iyuldagi O‘RQ-158-sonli qonuni bilan Birlashgan Millatlar Tashkilotining Korrupsiyaga qarshi konvensiyasiga (Nyu-York, 2003 yil 31oktyabr) O‘zbekiston Respublikasi qo‘shilgan.

Mamlakatimizda demokratik islohotlarni amalga oshirishning bugungi sharoitida korrupsiyaga qarshi murosasiz kurashish davlat va jamiyat oldidagi muhim va ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Mazkur vazifalarni amalga oshirish mustahkkam huquqiy asos va samarali huquqiy mexanizmni joriy etilishini talab etadi. Shu munosabat bilan 2017 yil 3 yanvardagi O‘zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi qonunining kuchga kiritilishi - Inson manfaatlari hamma narsadan ustun, - Xalq davlat idoralariga emas, davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak, degan ezgu g‘oyalarni jamiyat hayotiga tatbiq qilish hamda jamiyatda korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarini samarali tashkil qilish maqsadida qabul qilingan.

Mazkur Qonunning 3-moddasida korrupsiyaga oid tushunchalarga ta’rif berilgan:

Korrupsiya deganda – shaxsning o‘z mansab yoki xizmat mavqeidan shaxsiy manfaatlarni ko‘zlab moddiy yoki nommoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shunindek bunday nafni qonunga xilof raishda taqdim etish tushuniladi.

Korrupsiya oid huquqbuzarlik deganda – korrupsiya alomatlariga ega bo‘lgan, sodir etilganligi uchun qonun hujjatlarida javobgarlik nazarda tutilgan qilish tushuniladi;

Manfaatlar to‘qnashuvi deganda - shaxsiy (bevosita yoki bilvosita) manfaatdorlik shaxsning yoki xizmat majburiyatlarining lozim darajada bajarishiga ta’sir ko‘rsatayotgan yoxud ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan hamda shaxsiy manfaatdorlik bilan fuqarolarning, tashkilot-larning, jamiyatning yoki davlatning huquqlari va qonuniy manfaatlari o‘rtasida qarama-qarshilik yuzaga kelayotgan yoki yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan vaziyat tushuniladi [1].

2017 yil 2 fevraldagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining -Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi qonunining qoidalarini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida‖gi PQ-2752 qarorida Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha idoralararo komissiyasini tuzilishi, mazkur Komissiya to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlanishi, Mazkur Nizomda Komissiyaning asosiy vazifalari, huquq va majburiyatlari aniq belgilab qo‘yilganligi mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi kurashish hamda uning oldini olish ishlarini tizimli ravishda olib borilishiga shart-sharoitlar yaratadi va korrupsiyani oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar ijrosini samarali ta’minlanishga xizmat qiladi.

Mazkur Qonunning 8-moddasiga muvofiq: Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha respublika Idoralararo komissiyasining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat dasturlarining va boshqa dasturlarning ishlab chiqilishi hamda amalga oshirilishini tashkil etish;
- korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha faoliyatni amalga oshiruvchi va unda ishtirok etuvchi organlar hamda tashkilot-larning faoliyatini muvofiqlashtirish va hamkorligini ta’minlash;
- aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksal-tirishga, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirishga doir chora-tadbirlarning ishlab chiqilishi hamda amalga oshirilishini tashkil etish;
- korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarning oldini olishga, ularni aniqlashga, ularga chek qo‘yishga, ularning oqibatlarini, shuningdek ularga imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etishga doir chora- tadbirlar samaradorligi oshirili-shini ta’minlash;
- korrupsiyaning holati va tendensiyalari to‘g‘risidagi axborotni yig‘ish hamda tahlil etish;
- korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha chora-tadbirlar amalga oshirilishi yuzasidan monitoringni amalga oshirish, ushbu sohadagi mavjud tashkiliy-amaliy va huquqiy mexanizmlarning samarador-ligini baholash;

- korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini takomillashtirish va ushbu sohadagi ishlarni yaxshilash yuzasidan takliflar tayyorlash;
- korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha hududiy idoralararo komissiyalar faoliyatini muvofiqlashtirish [2].

Mazkur Qonunning 14-moddasida fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organlarining, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolarning korrupsiyaga qarshi kurashishda ishtirok etishi belgilangan bo‘lib, unga muvofiq, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolar:

- korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat dasturlarini va boshqa dasturlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirishda ishtirok etishi;
- aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishda, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirishda ishtirok etishi;
- korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risidagi qonun hujjatlarining ijro etilishi ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishi;
- korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risidagi qonun hujjat-larini takomillashtirish yuzasidan takliflar kiritishi;
- korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida davlat organlari va boshqa tashkilotlar bilan hamkorlik qilishi mumkin [3].

Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolar qonun hujjatlariga muvofiq boshqa tadbirlarda ham ishtirok etishi mumkin.

Nodavlat notijorat tashkilotlari ushbu moddada nazarda tutilgan tadbirlarni amalga oshirish maqsadida Idoralararo komissiya va hududiy idoralararo komissiyalar faoliyatida, shuningdek davlat organlari huzuridagi ishchi guruhlar, komissiyalar va jamoat-maslahat organlari faoliyatida qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ishtirok etadi.

Ushbu Qonunning 15-moddasiga binoan. ommaviy axborot vositalarining korrupsiyaga qarshi kurashishda ishtirok etishi quyidagi tarzda mustahkamlangan bo‘lib, unga ko‘ra ommaviy axborot vositalari:

- korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat dasturlarini va boshqa dasturlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirishda ishtirok etadi;
- korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatini amalga oshirishga, shu jumladan aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishga, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirishga qaratilgan tadbirlarni yoritadi;
- korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risidagi qonun hujjatlarining ijro etilishi ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshiradi;
- korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida davlat organlari va boshqa tashkilotlar bilan hamkorlik qiladi.

Ommaviy axborot vositalari qonun hujjatlariga muvofiq boshqa tadbirlarda ham ishtirok etishi mumkin [4].

Ekspertlarning fikricha qaysi sohada korrupsiyaga qarshi kurashish chora-tadbirlari tizimli ravishda yo‘lga qo‘yilmagan bo‘lsa, ushbu soha rivojlanmayotganligini ko‘rish mumkin.

Keyingi ikki yilda, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan korrupsiya illati yillar davomida tomir otganligi to‘g‘risida o‘zining chiqish va maruzalarida korrupsiyaga qarshi kurashish jamiyat va davlat oldida turgan dolzarb masala ekanligini takror-takror qayd etib kelmoqda.

Shu bois ham, davlatimiz rahbari o‘zining saylov oldi ma’ruzalaridan birida ushbu muammoga alohida e’tibor qaratib, “Bugungi kundagi yana bir ustuvor vazifamiz - mamlakatimiz rivojiga to‘siq bo‘layotgan yovuz illat, ya’ni korrupsiya va uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurashish, huquqbuzarlikni oldini olish masalalarini samarali hal etishdan iborat” deb ta’kidlagan edi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish va uni oldini olish davlat va jamiyat oldida turgan eng muhim masala sifatida hal etilishi lozimligi shundan iboratki, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning tarkibiy qismi sifatida mazkur vazifani yechimini topish davlat rahbari tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga Murojaatnomasida ham korrupsiyaga qarshi ta’sirchan mexanizmlarni qo‘llash muhimligi qayd etilgan edi.

Mamlakatimizda yurtboshimiz rahbarligida davlatning mazkur illatga qarshi kurashish ishlarini samarali tashkil etish bo‘yicha aniq vazifalar belgilangan bo‘lib, ularni real hayotga tatbiq qilish uchun tizimli ravishda ishlar davlat organlari tomonidan olib borilmoqda.

Bugungi kunda, xalqaro sub’yektlar hamda jamoaat arboblari tomonidan tan olingan mamlakatimizda tizimli ravishda amalga oshirilayotgan islohotlarning yo‘l xaritasi hisoblangan Harakatlar strategiyasida mazkur yo‘nalishda belgilangan vazifalarni amalga oshirish yuqorida qayd etilgan qonun va qonun ijrosini ta’minlashda fuqarolarning faol ishtirok etishini ta’minlash mamlakatimizda fuqarolik jamiyatni rivojlan-tirishga xizmat qiladi. Albatta, bugungi shiddat bilan rivojlanayotgan davrda jamiyatda korrupsiyaga qarshi kurashish va eng muhimi korrupsiyaning oldini olish ishlarini tashkil etishga qaratilgan mazkur maqsadlarni ro‘yobga chiqarish, korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini oshirish, fuqarolik jamiyati institutlari sifatida fuqarolarni o‘zini-o‘zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari-bilan davlat idoralari o‘rtasida hamkorlikni zamon talablari darajasida tashkil etish, huquqiy targ‘ibot samaradorligiga erishish, jamiyat a’zolarining huquqiy bilim va saviyalarini yanada oshirishni yo‘lga qo‘yish korrupsiyani oldini olishga qaratilgan chora- tadbirlarni ijrosini ta’minlashda yaxshi natijalarga erishish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasining - Korrupsiyaga qarshi kurash to‘g‘risidagi O‘RQ-419 sonli Qarori. 3, 8,14,15 moddasi Lex.uz
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasidagi nutqi.//Xalq so‘zi. 2017 yil 20 sentyabr

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida milliy g‘oyani rivojlantirish konsepsiyasini ishlab chiqishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5465-sonli farmoyishi //Xalq so’zi, 2019 yil 9-aprel
4. Митрохин В.И. Концептуальные основы стратегии национальной безопасности России.// Социально-политический журнал. – М.: 1995, № 6, С. 23
5. Otamurodov S. Globallashuv va milliy-ma’naviy xavfsizlik. – T.: O‘zbekiston, 2013, 4-bet.

КОНСТИТУЦИЯВИЙ ИСЛОҲОТЛАР: МОҲИЯТИ ВА УСТУВОР ЙЎНАЛИШЛАРИ

Ж.М.Азамов
Қўқон ДПИ доценти

Аннотация. Мақолада конституциявий ислоҳотларнинг зарурлиги, мазмун-моҳияти, тушунчаси, хусусиятлари ва асосий йўналишлари очиб берилган. Шунингдек, конституциявий ислоҳотлар категориясининг назарий – методологик жиҳатлари таҳлил этилган.

Таянч сўзлар: Конституция; конституциявий тизим, конституциявий ислоҳотлар, конституциявий ислоҳот назарияси, конституциявий макон, (муҳит).

Аннотация. В статье раскрываются необходимость, суть-содержение, понятие, особенности и основные направления конституционных реформ. А также анализируются теоретико – методологические аспекты конституционных реформ.

Ключевые слова: Конституция, конституционная система, конституционная реформа, теория конституционной реформы, конституционное пространство (режим).

Abstact. The article reveals the need, essence, concept, features and main directions of constitutional reforms. Theoretical and methodological aspects of constitutional reforms are also analyzed.

Key words: Constitution, constitutional system, constitutional reform, theory of constitutional reform, constitutional space (regime).

Конституция ва конституциявий қонунчилик мамлакатимиз ҳуқуқий тизимининг ўзагини ташкил этади. Шу боис Конституция ва конституциявий қонунчиликни ривожлантириш (такомиллаштириш) мақсадида амалга оширилатган конституциявий ислоҳотлар юртимизда авж олаётган ялпи ҳуқуқий ислоҳотларнинг устувор йўналишини, пойдеворини ташкил қилади, дейиш мумкин.

Қонун ижодкорлиги амалиётида ва ҳуқуқшуносликка оид илмий адабиётларда «Конституцияга қўшимча ва ўзгартишлар киритиш», «Конституцияни такомиллаштириш», «Конституцияни ва конституциявий қонунчиликни модернизация қилиш», «Конституцияни янада демократлаштириш» ва ҳ.к. термин (тушунча ва сўз бирикмалари) қўлланилиб келаётганлиги маълум.

Алоҳида эътибор қилсак, Ўзбекистоннинг Давлат раҳбари Ш.Мирзиёев 2021 йил 7 декабрда Ўзбекистон Республикаси Конституцияси қабул қилинганлигининг 29 йиллик тантаналарига бағишланган нутқида мамлакатимиз Конституциясининг янги лойиҳасини ишлаб чиқиб, қабул қилиш вақти-соати етганлигини, шу мақсадда туб конституциявий ислоҳотлар амалга оширилиши кун тартибидаги долзарб масала эканлигини таъкидлади.

Президент амалга оширилиши мўлжалланатган туб конституциявий ислоҳотларнинг бир қатор устувор вазифа ва йўналишларига урғу бериб ўтган эди. “Тараққиёт стратегиясида ўз аксини топган, адолатли ва халқпарвар давлат барпо этишда муҳим аҳамият касб этадиган вазифаларни амалга ошириш учун, аввало, янги конституциявий макон ҳамда янада мустаҳкам қонунчилик базаси керак. Шу маънода, Асосий қонунимизни жамиятдаги бугунги реал воқеликка, шиддатли ислоҳотларимиз мантиғига мослаштириш, Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси учун мустаҳкам ҳуқуқий пойдевор яратиш муҳим вазифага айланмоқда” [1].

Давлатимиз раҳбари 2022 йил 20 июнда Конституциявий комиссия [2] аъзолари билан учрашувда қуйидагиларни таъкидлади:

“Биз Конституцияни такомиллаштириш бўйича янги, ғоят масъулиятли босқичга қадам қўймоқдамиз. Фуқароларимиздан келиб тушаётган кўплаб таклифлар ҳам конституциявий ислоҳотлар объектив ҳатий зарурат сифатида кун тартибига чиқатганини яққол намоён этмоқда”.

Нима учун айнан бугун конституциявий ислоҳотлар ўтказиш зарурати туғилмоқда?

Тўғри, Конституциямиз хорижий илғор тажриба ҳамда халқаро стандарт ва талабларга ҳар томонлама мос келади. Бунга ҳеч қандай шубҳа йўқ. Бироқ, ҳозирги таҳликали замон, атрофимиздаги мураккаб вазият она Ватанимиз тақдирига янада улкан масъулият билан ндашиб, кечиктириб бўлмайдиган стратегик қарорлар қабул қилишни тақозо этмоқда.

Давлатимиз раҳбари “Инсон қадри учун” ғоясини Конституциямизнинг мазмун-моҳиятига чуқур сингдириб, амалий ҳатимизда бош қадриятга айлантиришимиз зарур. Яъни, инсоннинг қадр-қиммати, шаъни ва ғурури бундан бун барча соҳаларда биринчи ўринда туриши керак” [3] – деди.

Биринчидан, амалга оширилатган барча ислоҳотларимиз марказида инсон қадрини улуғлаш ғояси мужассам. Биз барпо этатган Янги Ўзбекистон учун инсон қадри ва халқ манфаати ҳамма нарсадан устундир. Шу боис инсон қадрини юксалтириш ҳақиқатда давлат ҳокимияти органларининг конституциявий бурчи ва устувор вазифаси бўлмоғи шарт. Шунингдек, шахсий ҳат дахлсизлиги ва унинг кафолатлари айнан Конституция даражасида

мустаҳкамланиши керак. Шундагина фуқароларимизнинг тинч ва хотиржам яшаши, давлатга ва қонунга ишончи, эмин-эркин ҳаракат қилишини кафолатли таъминлаган бўламиз.

Иккинчидан, Асосий қонунимизда "Ўзбекистон – ижтимоий давлат" деган тамойилни мустаҳкамлаш зарурати кун тартибига чиқди. Чунки, "инсон қадри" тушунчаси "ижтимоий давлат" тушунчаси билан чамбарчас боғликдир. Ушбу ғоянинг туб негизида ҳам аввало инсон қадрини улуғлаш, инсонга хизмат қилишдек олижаноб мақсад мужассамдир. Маълумки, ижтимоий давлат ҳар бир инсон учун ижтимоий тенглик ва адолат принциплари асосида муносиб яшаш шароитларини яратиб беради. У – ижтимоий тафовутларни камайтириш, муҳтожларга рдам бериш бўйича самарали сисат олиб борадиган давлат моделидир.

Учинчидан, Конституциямизда фуқароларимизнинг уй-жойга бўлган ҳуқуқларини ҳимоя қилиш, унинг дахлсизлигини кафолатлаш, аҳолининг барча қатламлари, айниқса, муҳтож тоифаларни уй-жой билан таъминлаш бўйича давлатнинг мажбуриятларини мустаҳкамлаш зарур – деди.

Тўртинчидан, Асосий қомусимизда хусусий мулк ҳимоясини таъминлаш учун зарур бўлган конституциявий кафолатларни кучайтириш лозим. Токи, катта-кичиклигидан қатъи назар, ҳар бир тадбиркор доимо давлат, Конституция, қонунлар ҳимоясида эканини амалда ҳис этсин.

Бешинчидан, Бош қомусимизда оила институтининг конституциявий асосларини ривожлантириш мақсадида «оила эркак ва алнинг ихтирий розилиги ва тенг ҳуқуқлилиги асосида шаклланиши», жамиятнинг табиий ва таянч бўғини, жамият ва давлатнинг алоҳида ҳимоясида эканини мустаҳкамлаб қўйилиши муҳим ҳисобланади.

Олтинчидан, инсоннинг меҳнатга ва муносиб ҳат шароитларига, ишсизликдан ҳимояланишга бўлган ҳуқуқларининг ишончли ҳимоясини таъминлаш, камбағалликни қисқартириш – конституциявий ислоҳотларнинг муҳим мақсадидир. Асосий қонунимизда ҳар бир шахснинг қулай меҳнат шароитида ишлаш, меҳнати учун муносиб ҳақ олиш ҳуқуқини мустаҳкамлаш, меҳнатга ҳақ тўлашнинг энг кам миқдори инсоннинг ўзи ва оиласининг ҳат кечириши учун етарли миқдорда бўлишини белгилаш зарур.

Еттинчидан, табиатдаги глобал иқлим ўзгаришлари, тобора кескин тус олатгани экологик хавфсизликни ғоят долзарб масалага айлантирди. Шу боис Конституциямизда ушбу йўналишга доир экологик-ҳуқуқий нормалар ўз ифодасини топиши муҳим.

Саккизинчидан, Асосий қонунимизда фуқаролик жамияти институтлари – маҳаллалар, сисий партиялар, ҳаракатлар, оммавий ахборот воситалари, касаба уюшмалари, жамғармалар ва бошқа жамоат бирлашмаларининг ўрни ва мақомини янада мустаҳкамлаш лозим.

Тўққизинчидан, Бош қонунимизда халқ ҳокимиятчилигини, ҳокимият тармоқларини бир-бирини тийиб туриш ва мувозанатда сақлаш механизмларини таъминлашни янада кучайтириш талаб этилади. Бунда, аввалambор, Ҳукуматни шакллантириш ва унинг самарали фаолият

юритишини таъминлашда Олий Мажлиснинг ваколатларини кенгайтириш бўйича тегишли қоидаларни Асосий қонунимизда белгилаш ҳам муҳим.

Конституциявий ислоҳот орқали Янги Ўзбекистонда инсон қадрини амалда энг олий қадрият даражасига кўтаришга қаратилган барча амалий ишларимизнинг мустаҳкам ҳуқуқий асосларини яратиб, эртанги кунимиз, келажагимиз қандай бўлишини белгилаб олишга эришишимиз мумкин. Бунинг учун фуқароларда конституциявий-ҳуқуқий маданиятни, конституциявий онгни ва Асосий қонунга ҳурмат ҳиссини шакллантириш лозим [4].

Яна бир муҳим масала – давлат органлари, айниқса, судлар ўз фаолиятида Конституцияга тўғридан-тўғри мурожаат қилиш, унинг нормаларига асосланиб иш кўриш кўникмаларини ўзида ҳосил қилиши шарт. Ҳар бир фуқаро кундалик ҳатида, ўз ҳақ-ҳуқуқларини амалга ошириш ва ҳимоя қилишда Конституциямиздан куч-қувват олиб ҳаракат қилиши, унга таяниши лозим [5].

Юқорида келтирилган туб конституциявий ислоҳотлар амалиётини илмий таҳлил этиш асосида мазкур категориянинг назарий-методологик жиҳатларини чуқурроқ талқин этиш мумкин. Ўз моҳият-эътибори билан “конституциявий ислоҳот” – мамлакатда мустаҳкам конституциявий тузум, мўътадил конституциявий муҳит демократик конституциявий тартиб-интизом яратиш мақсадида мамлакат сисий тизимида, давлат-ҳуқуқий тизимида амалга ошириладиган замонавий ўзгаришлар, уларни такомиллаштириш, самарали фаолият кўрсатишини таъминлашга йўналтирилган ташкилий, ҳуқуқий чора-тадбирлар кўрилишидир.

Назарий изланишлар натижасида «конституциявий ислоҳотлар» нинг илмий тавсифи, таърифи, тушунчаси, моҳияти ва ўзига хос хусусиятлари очилишига эришилади. Илмий изланишлар сиатшунослик ҳамда ҳуқуқшунослик фанлари доирасида “конституциявий ислоҳот назарияси” (илмий таълимот сифатида) ни яратиш имконини беради.

Ўзбекистон Республикасида конституциявий – ҳуқуқий макон яратишнинг муҳим омили – Конституциянинг тизимли хусусиятга эгалигидир. Тизимли ндашув конституциявий ислоҳотлар жараёнида муҳим аҳамият касб этиб, Асосий қонунимизда мустаҳкамланган ҳар бир тарбий элемент (яъни, конституциявий-ҳуқуқий институт) ни ўзаро мантиқий алоқадор ва узвийлик тарзида тадқиқ этиш имконини беради.

Тизимли таҳлил «конституциянинг ички тизими» ва «конституциявий тизим» деган категорияларга алоҳида-алоҳида воқеликлар сифатида қараш заруриятини яратади. Чамаси «конституциявий тизим» деганда, жамият ва давлат ҳатида мавжуд конституциявий мазмун-маъно касб этувчи барча конституциявий институтлар, воқеликлар, жараёнлар, муносабатлар, принциплар, қадриятлар, нормалар йиғиндиси тушунилиши мумкин [6].

Конституциявий ислоҳот қуйидаги хусусият (белги) лар билан тавсифланади: 1) ислоҳот учун зарурият, тегишли шарт-шароит мавжудлиги; 2) ислоҳот ўтказиш учун процессуал тартиб-таомиллар мавжудлиги; 3) сисий-ҳуқуқий мўлжал (мақсад), мазмун мавжудлиги; 4) Конституцияни қисман ки

тўла ўзгартириш мумкинлиги; 5) конституциявий ислоҳот асосида мамлакат бутун қонунчилигининг янгиланиши зарурлиги; 6) конституциявий ислоҳотлар замирида конституционализм таълимотининг янгиланиши [7]. Бугун юридик фанимиз олдида конституциявий ислоҳотлар ўтказишнинг ҳуқуқий механизмларини шакллантириш вазифаси турибди.

Шундай қилиб, юқорида тафсилоти келтирилган конституциявий ислоҳотлар Асосий қонунимизни давр талабларига мослаштиришга йўналтирилди; фуқароларнинг ҳуқуқ ва эркинликлари кафолатлари кучайтирилди; фуқаролик жамияти институтлари қонуний манфаатлари акс эттирилиб, уларнинг муҳофаза механизмлари мустаҳкамланди; давлат органларининг ваколатлари аниқлаштирилиб, масъулияти оширилди.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2021.
2. Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик палатаси ва Сенати Кенгашларининг 2020 йил 20 майдаги қўшма қарори билан тузилган комиссия.
3. Конституциявий ислоҳотларимизнинг бош мақсади – инсон қадри, халқ манфаатини амалда таъминлашдир. // “Янги Ўзбекистон” 2022 йил 21 июнь.
4. Одилқориев Х.Т. Конституция ва ижтимоий давлатчилик. Т., Юридик адабийтлар publisher. 2022. 403 б.
5. https://jizzax.uz/8553-konstituciyaviy-islootlarimizning-bosh-masadi-inson-adri-hal-manfaatini-amalda-taminlashdir.html.
6. Бутько Л.В. Конституционная реформа (теоретико-правовой анализ). – Автореф... д.ю.н. – СП б., 1998, с.15.
7. Киреев В.В. Теоретические проблемы реформирования Конституции РФ. – М. 2016, с.19.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA TA’LIM SIFATINI OSHIRISH MASALALARI VA ISTIQBOLLARI

O‘rinboyev Davlatjon Baxtiyorovich
Qo‘qon DPI f.f.b.f.d (PhD), dotsent

Аннотация. В статье представлена информация о реформах, которые проводятся для повышения качества образования в Республике Узбекистан, их значении сегодня и в будущем, требованиях к государственным стандартам образования, условиях, создаваемых для преподавателей и учащихся на местах. Показано, что при определении реформ в сфере образования важно учитывать процессы недавнего прошлого, а решения и указы, издаваемые

главой государства, имеют особое значение в определении целей в этом направлении.

Ключевые слова: качество образования, высшее образование, стратегические реформы, система образования, педагогические кадры, современное образование, образовательная политика, контроль качества

Abstract: The article provides information on the reforms that are being carried out to improve the quality of education in the Republic of Uzbekistan, their significance today and their future, requirements for state education standards, facilities created for teachers and students in the field. It has been shown that it is important to take into account the processes of the recent past when determining the reforms in education, and that the decisions and decrees issued by the state leader are of particular importance in determining the goals in this regard.

Key words: education quality, higher education, strategic reforms, education system, pedagogical staff, modern education, education policy, quality control

So‘ngi yillarda mamlakatimizda ta’limning barcha soxalarini rivojlantirish, ta’lim sifatni yangi bosqichga ko‘tarish, o‘zgaritirish ishlari jadal olib borilmoqda, bu borada mamlakatimizda sohani tubdan isloh qilish bo‘yicha yangi tizim shakllandi. Ta’lim sohasida jahon ta’lim standartlariga faol integratsiyalashuvini ta’minlash uchun oliy ta’lim muassasalarining ta’lim sifatini oshirish va innovasion rivojlantirishga qaratilgan ishlar amalga oshirildi. Kadrlar solohiyatini yuksaltirish masalari qaytadan ko‘rib chiqildi. Oliy ta’lim sifatini nozorat qilishni yanada takomillashtirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish choratadbirlari to‘g‘risida” 2017 yil 20 apreldagi PQ-2909-son qaroriga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazining Kadrlar tayyorlash sifatini nazorat qilish, pedagog kadrlar va ta’lim muassasalarini attestatsiya qilish boshqarmasi negizida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi tashkil etildi. Ta’lim sifatini nazorat qilish inspeksiyasining tashkil etilishi ta’lim tizimida o‘quv-tarbiya jarayonlari, professor-o‘qituvchilar tarkibi, kadrlar tayyorlash va ularning malakasini oshirish sifatini nazorat qilish, pedagog kadrlarga malaka toifalarini berish bo‘yicha davlat siyosatini amalga oshirish; idoraviy mansubligi va mulkchilik shaklidan qat’iy nazar, ta’lim muassasalarini attestatsiya va davlat akkreditatsiyasidan o‘tkazish; o‘quvchilar, talabalar va tinglovchilar bilimlarining O‘zbekiston Respublikasi davlat ta’lim standartlari, davlat talablari va malaka talablariga muvofiqligini tahlil qilish, ta’lim muassasalari reytingini aniqlash; O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Nodavlat ta’lim muassasalari faoliyatini lisenziyalash komissiyasining ishchi organi sifatida nodavlat ta’lim muassasalariga lisenziyalar berishni tashkil etish; xorijiy mamlakatlarda berilgan ta’lim to‘g‘risidagi hujjatlarni tan olish va nostrifikatsiyalashni tashkil etish ishlari amalga oshirilib borilmoqda [1].

Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasida ta’lim jarayonini sifat jihatdan mukammallashtirish ishlari tizimli amalga oshirilib kelinmoqda. Mazkur

islohotlarning natijasi so‘ngi yillarda chet ellardagi nufuzli oliy ta’lim muassasalari bilan hamkorlikda bir qator yangi universitet va inistitutlar hamda o‘z filiallarni tashkil etdi. Ta’lim yo‘nalishlari va unda o‘kitiladigan fanlar qayta ko‘rib chiqiladi. Mutaxassislikka aloqasi bo‘lmagan fanlar soni 2 barobar qisqartiriladi. Bu kabi, o‘zgarishlar respublikamizdagi OTMning barchasida qayta ko‘rib chiqildi va mutaxassislikka to‘g‘ri kelmagan fanlar tubdan qisqartirildi. Oliy ta’lim tizimida talabalarga hamda professor-o‘qituvchilarga har tomonlama qulaylik yaratish maqsadida yangi O‘zbekistonning ta’lim jarayoniga kredit-modul tizimi amaliyotga joriy etildi. 2021 yildan pedagogik ta’limning 6 ta yo‘nalishi bo‘yicha o‘qish muddati 3 yil qilib belgilanadi.

Professor-o‘qituvchilarimizni ortiqcha qog‘ozbozlikdan ozod qilish, ularning ilmiy-ijodiy ishlariga ko‘proq vaqt ajratishi, ustoz-shogird an’anasini davom ettirishi uchun bu kabi ijobiy o‘zgarishlar yaxshi ta’sir ko‘rsatadi va shaxsiy yuklamalarida belgilangan ishlarni mukammal darajada bajarishga ham imoniyat paydo bo‘ladi. Professor-o‘qituvchilar yillik yuklamalari taqsimotining bajarilishi O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2018 yil 10 oktyabrdagi “Oliy ta’lim muassasasi professor-o‘qituvchilar tarkibining o‘quv yuklamasi hamda o‘quv-uslubiy, ilmiy tadqiqot va “ustoz-shogird” ishlarini belgilash qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 20-2018-sonli buyrug‘i, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2006 yil 10 fevraldagi “Oliy ta’lim muassasalariga pedagog xodimlarni tanlov asosida ishga qabul qilish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 20-sonli qarori asosida Oliy ta’lim muassasalarining pedagog xodimlari faoliyatini o‘rganish mezonlarida ko‘rsatib o‘tilgan.

Bunday yangilanish jarayonlarida ustoz-murabbiylarimizning ishga, hayotga munosabati va mas’uliyati tubdan o‘zgarib, ularning doimiy izlanib, yangilikka intilib yashayotgani, ilg‘or ta’lim tehnologiyalari va metodikalarini puxta o‘zlashtirib borayotgani, hech shubhasiz, hal qiluvchi ahamiyat kasb etmoqda [3].

OTMda professor-o‘qituvchilarni ishga qabul qilish O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2006 yil 10 fevraldagi “Oliy ta’lim muassasalariga pedagog xodimlarni tanlov asosida ishga qabul qilish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 20-son qaroriga asosan tanlov orqali amalga oshirilish yo‘lga qo‘yilgan. Professor-o‘qituvchilar ishga qabul qilingandan keyin O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 23 sentyabrdagi “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 797-sonli qaroriga asosan har 3 yilda malaka oshirish kurslarida o‘qitiladi va muvaffaqiyatli tugatgandan so‘ng sertifikat beriladi. Kadrlar tayyorlash va ularning malakasini oshirish ta’lim jarayonining sifat ko‘rsatkichini kuchaytiradi. OTMda O‘zbekiston Respublikasi davlat ta’lim standartlari, davlat talablari va malaka talablariga muvofiqligini tahlil qilish, ta’lim muassasalari reytingini aniqlash yo‘lga qo‘yilgan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroriga asosan oliy ta’lim tashkilotlari o‘rtasida sog‘lom raqobat muhitini yaratish, ta’lim sifatini yanada yuqori bosqichga olib

chiqish va ularni xalqaro reytinglarga kirishiga har tomonlama ko‘maklashish maqsadida bugungi kunda Oliy ta’lim fan va innovatsiyalar vazirligi oliy ta’lim muassasalarining Milliy reytingi e’lon qilinib borilmoqda. Oliy ta’lim standartlarimiz ilg‘or xorijiy tajribalar asosida takomillashtirilmoqda. Har yili OTMning reytingi o‘rganilib chiqib, OAV shaffoflik va oshkorolik bilan xalqqa taqdim etilmoqda. Bu oliygohlar o‘rtasida raqobot muhitining shakllanishiga sabab bo‘ldi. Oliy ta’lim malakali kadrlar tayyorlash va ularni jamiyat hamda davlat ravnaqi uchun safarbar etishda hal qiluvchi o‘ringa ega.

Shu bilan birga OTMning halqaro darajadagi obrusini oshirish maqsadida o‘z yo‘nalishlari bo‘yicha dunyoning yetakchi ta’lim muassasalari bilan yaqin hamkorlik aloqalari o‘rnatish, o‘quv jarayoniga ilg‘or xorijiy tajribalarini joriy etish, ayniqsa, istiqbolli kadrlarning xorijiy yetakchi ilmiy-ta’lim muassasalarida stajirovkadan o‘tkazish, kadrlar tayyorlash mazmunini tubdan qayta ko‘rish, xalqaro standartlar darajasiga mos oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash uchun zarur sharoitlar yaratish va ularning malakasini oshirish borasida sezilarli va salmoqli ishlar olib borilayotganligini aloxida takidlash lozim.

Tizimdagi islohotlarning eng muhim jihatlaridan biri, oliy ta’lim bilan ishlab chiqarish o‘rtasidagi aloqadorlik integratsiyasini vujudga keltirish bo‘ldi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta’lim muassasalarini tizimli rivojlantirish va ularda boshqaruv faoliyatini takomillashtirish, ilg‘or xorijiy tajribalarni joriy qilgan holda zamonaviy ta’lim dasturlarini ishlab chiqish, yuqori malakali professional kadrlar tayyorlashni yangi bosqichga ko‘tarish, shuningdek, pedagogika sohasida ta’lim, ilm-fan va amaliyot uyg‘unligini ta’minlash maqsadida “Pedagogik ta’lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta’lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori qabul qilindi [4] . Ushbu qaror o‘z mohiyatiga ko‘ra oliy ta’lim tizimidagi islohotlarning yangi bosqichini ifoda etadi va respublikamizda malakali kadrlar tayyorlash yo‘nalishda o‘z yechimini kutayotgan muammolarni bartaraf etish imkoniyatlarini belgilab beradi.

Oliy ta’limning bugungi kundagi vazifasi talabalarni kun sayin takomillashib borayotgan axborot-ta’lim muhiti sharoitida mustaqil ravishda faoliyat ko‘rsata olishga, axborot oqimidan oqilona va o‘rinli foydalana olish ko‘nilmalarini shakllantirishdan iboratdir.

Buning uchun o‘quvchi-yoshlarga uzluksiz ravishda mustaqil ishlash imkoniyati va sharoitini yaratib berish zarur. O‘zbekiston Respublikasi demokratik xuquqiy va fuqorolik jamiyatini qurish yo‘lidan borayotgan bir paytda oliy ta’lim sohasidagi amalga oshirilayotgan islohotlarning bosh maqsadi va harakatga keltiruvchi kuchi har tomonlama rivojlangan barkamol insonni tarbiyalashni nazarda tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi ta’lim sifatini nazorat qilish davlat

inspeksiyasi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi 2017 yil 18 iyuldagi 515-son qarori

2. O‘RQ-637-son. O‘zbekiston Respublikasining Ta’lim to‘g‘risidagi Qonuni. 2020 yil 23 sentyabr. Manba: https://lex.uz/docs/5013007

3. “O‘zbekiston o‘qituvchi va murabbiylariga “Yangi O‘zbekiston” gazetasi №195 (451), 2021 yil 30 sentyabr, payshanba soni. 1-b

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2022 yil 21-iyundagi “Pedagogik ta’lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta’lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-289-sonli qarori.

ЎЗБЕКИСТОН ОЛИЙ ТАЪЛИМ ТИЗИМИДА АМАЛГА ОШИРИЛАТГАН СТРАТЕГИК ИСЛОҲАТЛАР

Ўринбоев Давлатжон Бахтирович
Қўқон ДПИ ф.ф.б.ф.д (PhD), доцент

Аннотация. В статье представлена информация о стратегических реформах, реализуемых в системе высшего образования Республики Узбекистан, и целях на будущее, проблеме охвата высшим образованием и возможностях, создаваемых для молодежи. Подчеркивается, что при определении стратегических целей важно учитывать исторические процессы недавнего прошлого, особенно важна роль руководителя государства в определении и реализации стратегических реформ.

Ключевые слова: Стратегия развития, высшее образование, стратегические реформы, политическая и социальная система, система образования.

Abstract. The article provides information about the strategic reforms implemented in the system of higher education in the Republic of Uzbekistan and the goal of the future, the issue of coverage of higher education and the opportunities created for young people. It is highlighted that it is important to take into account the historical processes of the recent past when defining strategic goals, and the role of the state leader in defining and implementing strategic reforms is particularly important.

Key words: Development strategy, higher education, strategic reforms, political and social system, education system.

Мамлакат тараққиёти амалга оширилатган ислоҳотларнинг кўлами ва унинг тасирчанглигига бевосита боғлиқ. Жамиятда қайси соҳа эътиборга муҳтожлигини илғаб, чуқур ва ҳар томонлама ўйланиб амалга оширилган стратегик ислоҳотларгина халқнинг мушкулини осон, оғирини енгил, турмушини фаровон қилади, муаммоларига ечим топиб беради. Бажарилатган

ишлар замирида бугунги муаммоларни ечиш билан бирга узоқ келажак ҳам кўзланган бўлиши лозим.

Жамият тараққиёти ҳамма вақт ҳам бир текисда ривожланмайди, чунки у ўз йўлида қарама-қаршиликларга, зиддиятларга бой бўлади, лекин ана шу зиддиятлар ва қарама-қаршиликларни мустаҳкам ирода ва матонат билан енгиб, ўзининг тараққиёт йўлини тўғри танлаб олишда мамлакат етакчиларининг роли ва ўрни катта бўлади.

Агар етакчи бурилиш палласини ҳис қила олмаса, жамият турғунликда қолиб кетади. Шунинг учун ҳам тарихчилар шахснинг тарихдаги ролини алоҳида эътироф этиб, уни алоҳида илмий мавзу сифатида ўрганади. Шу маънода халқимиз етакчи масаласида шукрона айтиб келмоқда. Ҳар қандай ютуқнинг гарови — бу тинчликдир. Шундай экан, жамиятимизнинг барқарор ривожланишида давлат етакчисининг хизматлари катта, буни халқимиз қадрлайди.

Таълим тизимида, жумладан, олий таълимда амалга оширилган ислоҳотлар натижасида юз берган ўзгаришлар ижтимоий-сисий, ҳуқуқий, иқтисодий ва маънавий жиҳатдан катта тарихий аҳамиятга эга. Амалга оширилган ислоҳотлар нафақат мамлакатимизда катта ижобий ўзгаришларга олиб келди, ҳатто халқаро майдонда ҳам мамлакатимиз обърў-эътиборини янги босқичга олиб чиқди. Бу борада қатор меърий ҳужжатлар қабул қилинди.

Олий таълим ислоҳотларининг маҳсули сифатида мамлакатимизда олий маълумот олмоқчи бўлган ҳар қандай фуқаро учун имкониятлар эшиги очилди. Аниқроқ айтганда, шидан қатъи назар, олий маълумотни кундузги, кечки ва ситқи таълим шаклида олишга шароит яратилди. Яъни мамлакатимизнинг ҳар бир фуқароси ши, миллати ва элатидан қатъи назар, ўзининг Конституцион ҳуқуқларидан тўлиқ фойдаланиш имкониятига эга бўлди. Бундан ташқари, меҳнат стажи, иш тажрибасига эга бўлган фуқаролар ўзлари ишлатган корхонанинг юқори ташкилотлари тавсияси билан имтиҳонсиз, суҳбат асосида олий ўқув юртига кириш имкониятини қўлга киритди. Жумладан, тавсия асосида иш стажига эга ходимларини давлат ОТМларининг сиртқи ва кечки таълим шаклига ўқишга ўқишга қабул қилиниши. Йўлланма асосид ишловчи ходимлар имтиҳонсиз, суҳбат натижаларига кўра, табақалаштирилган тўлов-контракт асосида ўқишга тавсия этилиш қоидасининг киритилиши халқимиз учун кутилмаган янгилик бўлди. Олий таълим ислоҳотининг бу қоидаси бозор муносабатларининг моҳиятига ҳам мосланди.

Олий таълим ислоҳотларининг муҳим қирраларидан яна бири шларимизнинг бир вақтда бир нечта олий ўқув юртига ҳужжат топшириш масаласи эди. Мамлакатимизда анча йиллардан бун фаолият юритатган хорижий олий таълим масканларининг қабул жараёнига ҳавас билан қараб келар эдик. Зеро, бир вақтнинг ўзида мамлакатимиздаги ҳамма хорижий олий ўқув юртларига ҳужжат топшириш мумкин эди. Бу ҳолат бизни ҳам ҳайратга солар, ҳам ҳавасимизни келтирган. Президентимиз айнан ана шу масалада “шларимизга бир вақтнинг ўзида бир нечта олий ўқув юртига ҳужжат

топшириш имкониятини беришимиз, ўйлайманки, уларнинг таълим олиш ҳуқуқларини кенгайтиришга хизмат қилади”, — деб таъкидлаган эди. Ҳеч қанча вақт ўтмай шларимиз шундай имкониятга эга бўлди.

Кейинги йилларда олий таълим тизимига нодавлат ва хусусий секторнинг, шунингдек, кўплаб хорижий олий ўқув юртлари ва филиалларининг кириб келиши ижобий ҳолат бўлди. Бир жиҳатдан олий таълимнинг қамрови кенгайса, иккинчидан, давлат ва нодавлат таълим муассасалари ўртасида ижобий маънодаги ўзаро рақобатни таъминлайди, тизимда бозор қонунлари ишлай бошлайди. Натижада рақобатбардош маҳсулот яратиш ҳар бир олий таълим муассасасининг асосий мақсадига айланади, натижа кутилганидек юқори бўлади. Шуларнинг ўзиқ таълимдаги ислоҳотлар чуқур ўйланган ҳолда олиб борилатганини англатади.

Тизимдаги ислоҳотларнинг энг муҳим жиҳатларидан бири, олий таълим билан ишлаб чиқариш ўртасидаги алоқадорлик интеграциясини вужудга келтириш бўлди.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг педагог кадрлар тайрловчи олий таълим муассасаларини тизимли ривожлантириш ва уларда бошқарув фаолиятини такомиллаштириш, илғор хорижий тажрибаларни жорий қилган ҳолда замонавий таълим дастурларини ишлаб чиқиш, юқори малакали профессионал кадрлар тайрлашни янги босқичга кўтариш, шунингдек, педагогика соҳасида таълим, илм-фан ва амалит уйғунлигини таъминлаш мақсадида “Педагогик таълим сифатини ошириш ва педагог кадрлар тайрловчи олий таълим муассасалари фаолиятини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Қарори қабул қилинди. Ушбу қарор ўз моҳиятига кўра олий таълим тизимидаги ислоҳотларнинг янги босқичини ифода этади ва республикамизда малакали кадрлар тайрлаш йўналишда ўз ечимини кутатган муаммоларни бартараф этиш имкониятларини белгилаб беради.

Дарҳақиқат, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 24 декабрдаги “Давлат олий таълим муассасаларининг академик ва ташкилий-бошқарув мустақиллигини таъминлаш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида” ги 60 сонли ҳамда “Давлат олий таълим муассасаларига молиявий мустақиллик бериш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 61 сонли қарорлари республикадаги олий таълим муассасаларининг академик ва молиявий мустақиллигини таъминлаб, таълим сифатини таъминлашда бевосита ваколатида бўлган муаммоларни ечишда айни муддао бўлди.

Олий таълим муассасасида малакали кадрлар тайрлашнинг долзарб муаммоларини ҳал этиш учун молиялаштиришни кўпайтириш, соҳадаги шериклик, масофавий таълим, умрбод ўқитиш, амалит ва ўқув дастурлари, мослашувчан ўқув дастурлари, самарали таълимни рағбатлантириш, технологиялардан фойдаланиш, муассасалар ўртасидаги ҳамкорлик, ижтимоий кўникмаларга эътибор бериш, хилма-хилликка эътибор бериш, қарор қабул қилиш каби масалаларни ўз ичига олган интеграциялашган ндашувни талаб қилади. Касбий стандартларни узвий равишда татбиқ қилиб бориш орқали олий таълим муассасалари битирувчиларининг зарурий

компетенциялар асосида ўқитилишини, зарур кўникмалар билан таъминланишини ва меҳнат бозорида муваффақиятга эришишга рдам беради.

Олий таълимнинг бугунги кундаги вазифаси талабаларни кун сайин такомиллашиб боратган ахборот-таълим муҳити шароитида мустақил равишда фаолият кўрсата олишга, ахборот оқимидан оқилона ва ўринли фойдалана олиш кўнилмаларини шакллантиришдан иборатдир.

Бунинг учун талабаларга узлуксиз равишда мустақил ишлаш имконияти ва шароитини яратиб бериш зарур. Ўзбекистон Республикаси демократик хуқуқий ва фуқоролик жамиятини қуриш йўлидан боратган бир пайтда олий таълим соҳасидаги амалга оширилатган ислоҳотларнинг бош мақсади ва ҳаракатга келтирувчи кучи ҳар томонлама ривожланган баркамол инсонни тарбиялашни назарда тутади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёевнинг 2022 йил 21 июндаги “Педагогик таълим сифатини ошириш ва педагог кадрлар тайрловчи олий таълим муассасалари фаолиятини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-289-сонли қарори.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 31 декабрдаги ПҚ-4939 сонли қарори
3. “Professional Ethics and Standards for the CFA Institute”. 2020 y/ CFA Institute // W. Brad Johnson and Nadine J. Kaslow. “The Handbook of Professional Ethics for Psychologists: Issues, Questions, and Controversies”. 2009 y.
4. “Professional Standards for Educational Leaders” / National Policy Board for Educational Administration (NPBEA). 2015 y.

MEDIA TA’LIM DOIRASIDA YOSHLAR MA’NAVIY XAVFSIZLIGINI TA’MINLASH

Zarina BOYTEMIROVA

Qo‘qon DPI “Milliy g‘oya, ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi ” kafedrasi katta o‘qituvchisi, falsafa fanlari nomzodi

Annotatsiya. Ushbu maqolada milliy ma’naviy xavfsizlik, xususan, yoshlar ma’naviy xavfsizligini ta’minlash bugungi kunning eng dolzarb va global muammosiga aylanib borayotganligi tahlil qilinib, yechimlar taklif etilgan.

Kalit so‘zlar: xavfsizlik, ma’naviy xavfsizlik, yoshlar ma’naviy xavfsizligi, ijtimoiy ong, axborot xurujlari, internet tarmog‘i, mafkuraviy tahdidlar, axborot almashinuvi, sog‘lom e’tiqod.

Аннотация. В данной стстье анализируется тот факт, что обеспечение национальной моральной безопасности, особенно моральной безопасности молодежи, становится сегодня наиболее актуальной и глобальной проблемой,и предлагаютсяпути ее решения.

Ключевые слова: безопасность моральная безопасность, моральная безопасность молодежи общественное сознание информационные атаки сеть Интернет идеологические угрозы информационный обмен здоровая вера.

Abstract. This article analyzes the fact that ensuring the national moral security, especially the moral security of youth, is becoming the most urgent and global problem today, and offers solutions.

Key words: security, moral security, youth moral security, social consciousness, information attacks, Internet network, ideological threats, information exchange, healthy belief.

Yer yuzining butun qismini qoplab olgan globallashuv hamda axborot asri deb nom olgan, shiddat bilan kechayotgan asrimizda insoniyatni, shubhasiz uning ulug‘ qadriyatlaridan biri bo‘lgan millatni, millat ma’naviyatini asrash har qachongidan ham muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Afsuski, millat bor ekan, milliy davlat bor ekan, uning mustaqilligi va erkinligiga, an’ana va urf-odatlariga tahdid soladigan, uni o‘z ta’siriga olish, uning ustidan hukmronlik qilish, uning boyliklaridan o‘z manfaati yo‘lida foydalanishga qaratilgan intilish va harakatlar doimiy xavf sifatida saqlanib qoladi.

Shu o‘rinda bugun axborot xuruji kechayotgan davrda millatni asrash, uning milliy ma’naviy qadriyatlari xavfsizligini ta’minlash – umumbashariyatning muammosi ekanligini alohida ta’kidlash zarur. Chunki, bugun butun dunyo miqyosida ma’naviy tahdidlarga ro‘baro‘ kelmayotgan biror bir davlat yoki millatni uchratish qiyin. Bugun biron-bir davlatni bosib olish uchun qurol-aslaha, katta qo‘shin talab qilinmayotgani, aksincha, bu uchun o‘sha davlat aholisining ongini zaharlash, mentalitet va milliy qadriyatlari uchun yot bo‘lgan g‘oyalarni singdirishning o‘zi kifoya qilayotgani bu muammoning barcha davlat va millatlar uchun birdek salbiy ta’sir ko‘rsatishiga zamin hozirlamoqda.

Yana shuningdek, bugungi tezkor davrda, ayniqsa, global internet tarmog‘i turli davlatlar va mintaqalar o‘rtasidagi chegaralarni ochib berayotgan bir paytda, ba’zi buzg‘unchi kuchlar bu imkoniyatlardan o‘z maqsadlari yo‘lida mafkuraviy qurol sifatida foydalanmoqda. Bu esa har qanday millat kelajagining davomchisi bo‘lgan yosh avlod tarbiyasiga o‘zining salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Shu bois, ong va mustaqil fikrga ega bo‘lgan shaxsni tarbiyalash masalasi nafaqat ma’naviy, kerak bo‘lsa, muhim siyosiy ahamiyatga molik masaladir. Aynan bugun yoshlarning ma’naviyati va dunyoqarashiga salbiy ta’sir ko‘rsatishga mo‘ljallangan axborot psixologik xurujlar va tahdidlar sonining kun sayin ortib borayotganligi tashvishlanarli holdir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev o‘zining Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasidagi nutqida dunyo hamjamiyatini bu borada yana bir karra ogohlantirarkan, “bugungi dunyo yoshlari –

son jihatidan butun insoniyat tarixidagi eng yirik avlod" ekanligini, "ular 2 milliard kishini tashkil" etayotganligini qayd etib, "sayyoramizning ertangi kuni, farovonligi farzandlarimiz qanday inson bo‘lib kamolga yetishi bilan bog‘liq" ekanligini alohida ta’kidladi [2].

Prezident Shavkat Mirziyoev haqli ravishda e’tirof etganidek, "bizning asosiy vazifamiz yoshlarning o‘z salohiyatini namoyon qilishi uchun zarur sharoitlar yaratish, zo‘ravonlik g‘oyasi "virusi" tarqalishining oldini olishdir" [2].

Demak, o‘sib kelayotgan yosh avlod ma’naviyatini asrash, ularning milliy ma’naviy xavfsizligini ta’minlash, dunyo yoshlarini tinchlik va barqarorlik uchun daxldorlik ruhida tarbiyalash ertangi tinch-totuv hayot, barqaror dunyo uchun qayg‘uradigan har bir insonning oliyjanob burchidir.

Gap umummillat ma’naviyatining xavfsizligi borasida borar ekan, so‘zni rus olimi V.I. Mitroxinning "xavfsizlik tushunchasi ostida shaxs, ijtimoiy guruhlar, davlat, jamiyat va umuman tsvilizatsiya qadriyatlari, sha’ni, qadr- qimmatining himoyalanganlik darajasini anglash lozim"ligi borasidagi fikri bilan boshlash o‘rinli [4].

Afsuski, bugun umumjahon svilizatsiya qadriyatlari, sha’ni, qadr-qimmatining himoyalanganlik darajasini qoniqarli deya olmaymiz. Negaki, dunyoning bir qator davlatlarida yadro quroli ishlab chiqarish bo‘yicha harakatlar davom etayotgan bo‘lsa, qaysidir mintaqada axborot xurujlarini uyushtirish ustida tinimsiz ish olib borilmoqda. Ayniqsa, ertangi kun egalari bo‘lgan yoshlar ongini egallashga qaratilgan ma’naviy tahdidlar kun sayin avj olmoqda. Ba’zi bir g‘arazli kuchlar tomonidan bu borada turli usul va uslublar qo‘llanilib, ma’naviy tahdidlarning yolg‘on axborot tarqatish, ijtimoiy ongni manipulyatsiya qilish, milliy-ma’naviy qadriyatlarni yemirish, mentalitetga mutlaqo yot bo‘lgan qadriyatlarni targ‘ib etish kabi turlari keng tarqalmoqda. Eng achinarlisi shuki, bularning barchasi millatlarning fojeasiga sabab bo‘lmoqda. Taniqli o‘zbek olimi Sa’dulla Otamurodov o‘zining "Globallashuv va milliy-ma’naviy xavfsizlik" kitobida haqli tarzda ta’kidlaganidek, "millat insonlar joni va qoni bilan yaratilgan oliy qadriyatlardan biridir, uning ma’nan o‘lishi esa muqarrar ravishda butun insoniyatning jismonan o‘lishiga ham olib keladi" [5].

Bugun dunyo yoshlari ma’naviyatiga tahdidning eng ommalashgan turi qaysi, – degan savolni berish o‘rinsiz. Chunki ma’naviy tahdidlarning eng asosiy maydoni – bu internet tarmog‘i ekanligi xech kimga sir emas. Bugungi kundagi media ta’lim jamiyat hayotining eng muhim qismi sifatida e’tiborga molik masaladir. Tabiiyki, yoshlar katta avlodga nisbatan internet tarmog‘ining eng ko‘p foydalanuvchi qatlamidir. Zamonaviy jamiyatda esa asosiy tarmoq hisoblangan ushbu vositadan voz kechish yoki uni umuman inkor etish mumkin emas. Dunyo bilan xamnafas bo‘lishimiz hamda yoshlarning intelektual salohiyatini oshirish maqsadida albatta yoshlarimiz internet tarmog‘i bilan xamohang bo‘lishlari kerak. Shu nuqtai-nazardan media olamda mafkuraviy jarayonlar kechayotgan davrda yoshlarimizda media ta’limni xam rivojlantirmog‘imiz lozim.

Hozirgi davrda internet saytlarida yoshlar dunyoqarashiga ijobiy ta’sir qiluvchi axborotlar oqimidan tashqari buzg‘unchi g‘oyalar asosida shakllantirilgan

materiallar ham uchrab turadi. Internet saytlarida yoshlarga kuchli ta’sir etuvchi axborotlarni quyidagicha tasniflash mumkin.

Birinchi toifadagi axborotlar sirasiga yot, buzg‘unchi g‘oyalar (diniy ekstremizm va terrorchilik g‘oyalari, millatchilik, irqchilik, sadizm kabilar)ni kiritish mumkin.

Ikkinchi toifadagi axborotlar g‘arb hayot tarziga xos, o‘zbek mentalitetiga zid odatlar va ko‘nikmalarni targ‘ib etadi. Bu ayniqsa, g‘arb yoshlarining kiyinishi, odatlarini targ‘ib qiluvchi maqolalar, kliplar, filьmlarda yaqqol namoyon bo‘ladi.

Uchinchi toifaga pornografik axborotlarni kiritish mumkin.

To‘rtinchi toifaga esa hali tekshirilmagan, o‘z isbotiga ega bo‘lmagan turli hujumkor axborotlarni kiritish mumkin.

Internet saytlaridan tarqatilayotgan bu kabi yot g‘oyalar va axborotlarni yoshlar tomonidan qabul qilinayotganligi va uning oqibatlari jahondagi barcha mamlakatlar xalqini ham tashvishga solmoqda.

Xullas, bugun biz axborot almashinuvi jadallashgan, tinimsiz yangilanib borayotgan davrda, ya’ni globallashuv sharoitida yashayapmiz. Globallashuv jarayoni ilm-fan, texnika taraqqiyoti bilan birgalikda inson ma’naviyatiga ham o‘zining sezilarli ta’sirini ko‘rsatmoqda. Ayniqsa madaniy qadriyatlarning globallashuvi shiddat bilan ro‘y berayotgan bugungi kunda asrlar osha o‘tmish ajdodlarimiz qadrlab kelgan va bizning milliy o‘zligimizni tashkil qiluvchi axloqiy qadriyatlarimiz taqdiri qanday kechadi, kabi savollar har birimizni o‘ylantirishi tabiiydir. Shunday ekan, globallashuv sharoitida ma’naviy meros va uning yoshlar dunyoqarashini shakllantirishdagi o‘rni ortib boraveradi.

Prezident Shavkat Mirziyoev ta’biri bilan aytganda “buyuk tarixda hech narsa izsiz ketmaydi. U xalqlarning qonida, tarixiy xotirasida saqlanadi va amaliy ishlarida namoyon bo‘ladi. SHuning uchun ham u qudratlidir. Tarixiy merosni asrab-avaylash, o‘rganish va avlodlardan avlodlarga qoldirish davlatimiz siyosatining eng muhim ustuvor yo‘nalishlaridan biridir. Yangi tahdidlar, jumladan, „ommaviy madaniyat“ xavfi va boqimandalik kayfiyati paydo bo‘layotgan, odob-axloq, qadriyatlarning yo‘qolish xavfi yuzaga kelayotgan hozirgi globallashuv sharoitida bu g‘oyat muhim ahamiyat kasb etmoqda” [1].

Yillar, asrlar isbotlagan bir haqiqat borki, u ham bo‘lsa har qanday qiyinchiliklarga, shafqatsiz sinovlarga qarshi o‘zining yuksak ma’naviyati va ma’rifati bilan javob bergan millatni hech kim,hech qachon yenga olmaydi. Aynan yuksak bilim, ma’naviyat va ma’rifatgina millatning zamon bilan hamnafas hayot kechirishini ta’minlab, millat taqdiri uchun xatarli vaziyatlarda qalqon bo‘la oladi.

Shu ma’noda yoshlar masalalari mamlakat taraqqiyoti va ravnaqi bilan bevosita bog‘liq ekan, ushbu muhim vazifalarni hal etish uchun yoshlarga yuksak ma’naviyat va ma’rifat asosida ta’lim va tarbiya berish, ularni turli hil ma’naviy, mafkuraviy tahdidlardan asrash lozim.

Afsuski, sayyoramizda tinchlik va osoyishtalikni saqlashdek oliyjanob maqsad yo‘lida qayg‘urayotgan ko‘pgina olimlar ta’kidlashayotganidek mafkuraviy va boshqa ko‘rinishlardagi tahdidlarga qarshi jahon miqyosida yakdillik va hamjihatlikning yo‘qligi bu nopok ish bilan shug‘ullanayotgan kuchlarning

tegirmoniga suv quymoqda. Bunga sabab esa avvalo, mafkuraviy tahdidlarni bartaraf etishda yagona kontseptsiyaning yo‘qligi va yondashuvlarning mushtarak emasligidir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 apreldagi F-5465-sonli “O‘zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida milliy g‘oyani rivojlantirish kontseptsiyasini ishlab chiqishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmoyishida qayd etilganidek, “dunyoda yuz berayotgan murakkab geosiyosiy va mafkuraviy jarayonlarning mazmun-mohiyatini anglash darajasining pastligi, bu boradagi yaxlit tushuncha va tasavvurlarning yetarlicha shakllanmagani terrorizm, diniy ekstremizm, aqidaparastlik, separatizm, odam savdosi, “ommaviy madaniyat”, narkobiznes kabi turli transchegaraviy tahdidlarga qarshi kurashishda milliy g‘oya omilidan samarali foydalanish imkoniyatini bermayapti” [3]. Ayni paytda mafkuraviy tahdidlarni bartaraf etishda ijtimoiy-siyosiy omilning unutib qoldirilayotganligini ham jiddiy sabab qilib ko‘rsatish o‘rinli deb o‘ylaymiz. Vaholanki, har qanday tahdidga, eng avvalo, g‘oyaviy jihatdan zarba berish maqsadga muvofiq.

Demak, yoshlar miliy ma’naviy xavfsizligini ta’minlashning yetakchi omili – ularni milliy g‘oya ruhida tarbiyalash, farzandlarimizda milliy g‘urur va milliy or-nomus shakllantirishdir. Zotan milliy g‘urur va milliy or-nomus milliy g‘oyaning tayanch nuqtalaridir. O‘g‘il qizlarimiz milliy yutuqlarimizdan, umum insoniyatga aloqadorligimizdan g‘ururlanmasa, o‘zgalarni buyuk hisoblab yuraveradi. O‘zimizdagi mavjud illatlardan or-nomus qilmasa, taraqqiy etish imkoniyatlarini yo‘qotaveradi.

Shu bois maktabgacha ta’lim muassaslaridan boshlab maktabdan tashqari ta’limgacha bo‘lgan uzluksiz ta’lim tizimida bolalar, o‘quvchi yoshlar, talabalar va tinglovchilarning yoshiga mos ravishda milliy g‘oyani singdirishimiz hamda defferentsial pedagogik-psixologik dasturini yaratish, ular ongida milliy g‘oya va milliy mafkurani shakllantirishni uzluksiz tarzda olib borish, yuqoridagi qarmoyishda belgilab qo‘yilganidek, “milliy g‘oya” turkumidagi fanlarni o‘qitishga nisbatan yangicha yondashuvlar, jumladan, maktabgacha ta’lim, umumiy o‘rta ta’lim, o‘rta maxsus va kasb-hunar ta’limi, oliy ta’lim va oliy ta’limdan keyingi ta’lim bosqichlari uchun mazmunan va shaklan mos bo‘lgan, bir-birini takrorlamaydigan ta’lim dasturlarini tayyorlab, amaliyotga joriy etish, bu jarayonda tarbiyalanuvchi, o‘quvchi va talabalarning yosh xususiyatlari, ma’naviy ehtiyojlari, iste’mol darajasi inobatga olingan holda o‘quv adabiyotlari, uslubiy qo‘llanmalar yaratish” [3], ularda milliy g‘oya va mafkuramizning mazmun mohiyati, asosiy tushunchalarini aniq ravon aks ettirish zarur.

Binobarin, XXI asrdagi insoniyat taraqqiyoti tajribasidan ko‘rinib turibdiki, u yoki bu davlatning xavfsizligi, barqarorligi, kelajagi son-sanoqsiz, ustuvor darajadagi yangi tahdidlar, xavf-xatarlar tizimini, birinchi navbatda uning “muhitiy omillari”ni idrok eta olish darajasiga borib taqalmoqda.

Bu borada oldimizda turgan vazifalar ko‘p. Mafkuraviy tahdidlarga qarshi kurashda asosiy maqsadimiz jamiyat ma’naviyatini yuksaltirish ekan, birinchi navbatda, milliy g‘oyani fuqarolar ongi va qalbiga chuqur singdirishga erishishimiz

kerak. Aholida, ayniqsa yosh avlodda sog‘lom e’tiqodni shakllantirish, ular orasida milliy va umuminsoniy qadriyatlarni uyg‘un ravishda targ‘ib etish ham muhim ahamiyatga ega. Umuman, fuqarolarning bilimi va tafakkurini yanada oshirish, huquqiy madaniyatini yuksaltirish ishlarini izchil amalga oshirib boraversak, har qanday tahdidlar bizga xavf sololmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Islom hamkorlik tashkiloti Tashqi ishlar vazirlari kengashining 43-sessiyasi ochilish marosimidagi nutqi.// Xalq so‘zi.2016 yil 19 oktyabrь.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasidagi nutqi.//Xalq so‘zi.2017 yil 20 sentyabrь.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida milliy g‘oyani rivojlantirish kontseptsiyasiii ishlab chiqishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi F-5465-sonli farmoyishi.//Xalq so‘zi, 2019 yil 9-aprel.
4. Митрохин В.И. Концептуальные основы стратегии национальной безопасности России.// Социально-политический журнал. – М.: 1995, № 6, С. 23.
5. Otamurodov S. Globallashuv va milliy-ma’naviy xavfsizlik. –T.:O‘zbekiston, 2013,4-bet.

ЭТНОЭКОЛОГИК МАДАНИЯТНИНГ ГЕОГРАФИК АСОСЛАРИ

Комилова.Н.Ў.

ФарДУ доценти в.б., география ф.ф.д. (PhD),

Аннотация. Ушбу маколада аждодларимиз ибтидоий жамият даврларидан бошлабоқ, табиий шароитга мослашиб, табиат билан хамоҳангликда ўзига хос хўжалик-маданий турларни яратганлар. Бундай ўзига ҳос ерга ишлов бериш инсонларнинг табиатга бўлган муносабатини, бун`дкорик ишларини амалга оширишга ундаб келмоқда.

Калит сўзлар: “сувли ер”, “тирама”ки “обикор”, “оби” “лалми” “баҳори” Фарғона водийсида яшаган элатлар тирама ерларни яна иккига бўладилар: эрта экиладиган “оқ” ва кечроқ ҳосил берадиган “кўк” экинлар.

Аннотация. В этой статье рассказывается, что наши предки со времен первобытного общества,приспосабливаясь к природным условиям, создавали в гармонии с природой своеобразные хозяйственно-культурные виды.Такая специфическая обработка земли стимулирует отношение людей к природе,к осуществлению своей созидательной работы.

Ключевые слова: “суккулентная земля”, “Тирама” или “обикор”, “Оби”, “лалми”, “весна”, элаты, жившие в Ферганской долине, делят землю тирамы еще на две части: “белые”, которые сеют рано, и “синие”, которые производят поздно.

Abstract. Our ancestors began from the Times of primitive society,adapting to natural conditions and creating unique economic-cultural species in harmony with nature.Such self-cultivation of free land has been encouraging people to carry out their attitude to nature, their creative work.

Keywords: “water land”, “tirama “or” obikor“, “Obi” “lalmi”, spring, “elates who lived in the Fergana Valley divide the tirama lands into two again: “White”, which is planted early, and “blue” crops, which yield later.

Ибтидоий даврда одамлар табиатда тайр мавжуд бўлган маҳсулотларни истеъмол қилиб келган. Масалан, Оси қитъасида қадимдан ввойи буғдой, Марказий Американинг кўлларида ввойи шоли ўсган. Африкада эса турли илдиз ва мевалар озиқ-овқат вазифасини бажарган. Аммо давр ўтиши билан аҳолининг кўпайиши натижасида табиий шароит инсон тирикчилиги учун камлик қила бошлади. Аста-секин одамлар ўз меҳнати билан зарур маҳсулотларни сунъий равишда, хонакилаштириб етказа бошлаган. Шу маънода қишлоқ хўжалигига асос солди.

Деҳқончилик ва бошқа хўжалик турларининг пайдо бўлиши муайян табиий шароитда юзага келган. Олимларнинг таъкидлашича, дастлабки деҳқончилик Ер куррасининг таҳминан 20-450 параллеллари оралиғида пайдо бўлган ва узоқ давр давомида ўзлаштирилиб, такомиллашиб келган. Деҳқончилик маданияти ибораси асли ерга ишлов бериш деган маънони англатиб, кейинчалик бошқа соҳаларга ўтган ва умумий тарзда маданият (ишлов бериш) яратиш сўзига айланган. Ерга ишлов бериш ва ўсимликларни парвариш қилиш маданияти туфайли инсон табиатнинг энг улуғ неъмати сифатида бундкорлик ишларини амалга ошириб келмоқда. Табиатда мавжуд юзлаб ўсимлик турларини сунъий равишда кўпайтириб, қишлоқ хўжалик маҳсулотига айлантирди. Оқибатда қадимий даврлардан бошлабоқ, буғдой, шоли, маккажўхори, жўхори каби ўсимликлар қуруқликнинг кўплаб қисмларига тарқалди.

Аждодларимиз ибтидоий жамият даврларидан бошлабоқ, табиий шароитга мослашиб, ўзига хос хўжалик-маданий типларини яратганлар. Асримиз бошларида ўзбек дирида анъанавий мазкур шароитга мослашган уч хил хўжалик-маданий типлари маълум бўлган: Воҳаларда яшовчи аҳолининг ўтроқ деҳқон хўжалиги; Дашт ва ярим даштларда қисман кўчманчи аҳолининг чорва хўжалиги; Воҳаларга яқин ва дар қуйи оқимида жойлашган аҳолининг чорва-деҳқончилик хўжалиги.

Бу ҳолат маҳаллий этносларнинг шаклланишига ҳам ўз таъсирини кўрсатган. Чунки табиий шароитнинг таъсир белгиларини этник маданиятнинг барча соҳаларида, ишлаб чиқариш соҳаларидан, айниқса меҳнат қуролларидан бошлаб маиший турмуш буюмлари ва ҳатто элатларнинг

номларигача сезиш мумкин. Масалан, табиий шароит ва иқлимга қараб одамларнинг моддий ва маънавий маданияти, қишлоқ хўжалик экин турлари, алоқа воситалари, ҳатто психологик хусусиятларини аниқлаш мумкин.

Маҳаллий тупроқ ва сув ресурсларига, табиий ўсимликлар, бошқа ер усти ҳамда ер ости бойликларига қараб турмуш тарзи ва маданияти характери, миллий ҳис-туйғулар ҳам шаклланади. Хўжалик-маданий типларнинг йўналишлари ўз навбатида теварак-атрофдаги табиий муҳит билангина эмас, балки майян этносларнинг ижтимоий-иқтисодий ривожи даражаси билан ҳам белгиланади.

Ўзбекистонда суғорма деҳқончилик эрамиздан олдинги III-II минг йилликларда кенг тарқала бошлаган. Ўша даврлардақ Зарафшон каби йирик дар соҳилларида, Хоразм воҳасида экин ерларнинг ўзлаштирилиши ривожланган. II-минг йиллик охирлари, I минг йиллик бошларида Фарғона водийси ўзлаштирила бошлади.

Асрлар оша маҳаллий деҳқончиликда ер унумдорлигини тиклаш ва агротехника усулларини такомиллаштириш, тупроқни ўғитлашнинг ҳар хил усуллари пайдо бўлди. Суғориш ва шўрни ювиш каби усуллар кенг жорий қилинди. Айниқса, эрамиздан аввалги I минг йилликда Хоразмда йирик магистрал каналлар қуриш ҳар хил сув тақсимлаш ва сув чиқариш иншоотларини барпо этиш ишлари такомиллашди. Қадимий Оқчадар ҳавзасида топилган суғориш иншоотлари, марзаланган далаларнинг излари қадимги Миср классик ҳавза деҳқончилигини эслатади.

Маҳаллий деҳқонлар маданий-этник анъаналар асосида далачилик, полизчилик ва боғдорчилик соҳаларида турли усул ва йўлларни ишлаб чиққанлар. Илк деҳқончилик даврларидақ, улар фойдали ўсимликларни, айниқса, донли ва полиз экинларини, боғдорчиликни ўзлаштирганлар.

Ўзбекистон ҳудудидаги деҳқончилик суғориш хусусиятлари ва экин турлари билан ҳам фарқланган. Масалан, суғорма деҳқончиликни маҳаллий аҳоли “сувли ер”, “тирама” ки “обикор”, “оби” ҳамда суғорилмайдиган ерларни “лалми” ки “баҳори” деб атаганлар. Фарғона водийсида яшаган элатлар тирама ерларни яна иккига бўладилар: эрта экиладиган “оқ” ва кечроқ ҳосил берадиган “кўк” экинлар. Хоразмда ҳам лалмикор ерлар “оқ ер” деб аталиб, ариқлардан ортган қуйи оқимдаги сувли ерларга шоли экилиб, унга “шоликор ер” деб ном берилган.Суғорма деҳқончилик асосан қадимий воҳаларда – Хоразм, Бухоро, Самарқанд, Тошкент воҳаларида, Қашқадар ва Сурхондар ҳавзаларида, Фарғона водийсида жойлашган.

Баҳори экинлар Тошкент воҳасида, Фарғона ва Зарафшон водийси, Қашқадар ва Сурхондар тоғ этаги минтақасида экилган. Экин ерларининг ишлатилишига қараб иккала хўжаликларда ҳам деҳқончиликнинг ҳар хил усуллари – қўриқ, партов ки бўз ва дам берилган шудгор ерлар ва пайкалли ерларга бир хил экиш усуллари қўлланилган. Кўп жойларда қурилиш материаллари етказиш мақсадида деҳқончилик кўчат ўтказиш билан бирга олиб борилган. Махсус ажратилган ерларга тол, терак, қайрағоч каби дарахт кўчатлари экилиб, бир неча йиллардан кейин улар қурилишга ишлатилган.

Суғориладиган ерлар яна экинларга қараб дала ки очиқ ерларга, боғдорчилик ҳамда полизчилик ерларига бўлинган. 1916 йилда Трукистон ўлкасининг учта вилояти бўйича (Сирдар, Самарқанд, Фарғона) 2,5 млн. десятина экиладиган ерларнинг 2/3 қисми суғорма ерлар, қолгани баҳори ерлар ҳисобланган.

Суғорма деҳқончилик катта меҳнат натижасида амалга оширилган. Йирик суғориш иншоотларини қуриш ва уларни мунтазам равишда ўз вақтида тозалаш, таъмирлаш ишлари катта маблағ ва иш кучини талаб қилган. Бундай ишлар ўзбек халқига хос бўлган асрий жамоатчилик анъаналари асосида бошқарилган.

Жаҳонда қишлоқ хўжалигини юритиш тизими тезлик билан ўзгариб бормоқда. XX асрнинг 80-йиллар ўрталарига келиб қишлоқ хўжалигида моддий-техника таъминотининг ортиб боришига тараққиётнинг бош омили деб қаралар эди. Бу мезон бўйича ривожланган Нидерландия, Буюк Британия, АҚШ каби мамлакатларда янги муаоммолар келиб чиқа бошлади. Эндиликда қишлоқ хўжалигида маҳсулот ишлаб чиқариш учун сарфланадиган харажатларнинг ортиб кетиши ва ердан фойдаланиш билан боғлиқ бўлган экологик муаммолардан жамият катта зарар кўрмоқда.

Ерни ишлатишда тўла фойдаланилматган имкониятлардан бири минтақаларнинг табиий-аграр имконияти бўлиб, у география фанининг ўрганиш обьекти ҳисобланади. ТАИнинг мажмуали баҳолаш ундан оқилона фойдаланишнинг ҳудудий ташкил этиш учун асос бўлиб, анъанавий табиий ресурсларни (ер, сув, иқлим...) баҳолашда ҳисобга олинмайдиган баъзи жиҳатларни тўлдиради.

Бундай баҳолаш, энг аввало, маълум табиий яхлитликка эга бўлган, бир бутун «иқтисодий географик ҳудудда» ўтказилади. Баҳоланувчи унсурлар (компонентлар) ва баҳолаш шкаласи шу ҳудуд учун мослаб танлаб олинади ва тузилади. Баҳолашда ҳудуднинг бир бутунлигидан келиб чиқиб, модда ва энергия алмашинуви жараёнида содир бўладиган, ишлаб чиқаришга салбий таъсир этиши мумкин бўлган ҳолатлар ҳисобга олинади. Хусусан, тоғ ва текислик ландшафтлари туташ бўлган Фарғона водийси шароитида бу омилнинг аҳамияти юқоридир.

Табиатнинг «бепул» неъматларидан (тупроқ унумдорлиги, иссиқлик, намлик, ҳудуднинг географик ўрни) оқилона фойдаланиш учун уларни тўғри ҳудудий ташкил этиш лозим. Бу унсурларни бир жойдан бошқа жойга кўчириб бўлмаслиги, улар қаерда жойлашган бўлса, шу ердагина фойдаланиш мумкинлиги масалага географик ндашув зарурлигини билдиради. Географик ндашувнинг яна бир афзаллиги муаммони ҳал қилишни иқтисодий, технологик, техник, мелиоратив, кимвий жиҳатлари учун стратегик йўналишни белгилаб беришидадир. Юқоридаги йўналишларда ҳам ҳудудий ндашувдагина кутилган натижага эришиш мумкин.

Фарғона водийси қишлоқ хўжалиги ерларининг табиий – аграр имкониятларини баҳолаш услубитига асосан, табиий - қишлоқ хўжалик окурглари доирасида ўтказилади.Ю.Аҳмадалиев (2014) томонидан Фарғона

водийсидаги маъмурий туманларнинг табиий-аграр имконияти бўйича рейтинги ва уларнинг 3 та гуруҳи ажратилган ва табиий-аграр имконият даражасининг ҳудудий тарқалишидаги маълум қонуниятларни қайд этилган.

Энг юқори табиий-аграр имконият кўрсаткичига эга бўлган ҳудудлар водий дарлари ички ва ташқи конуссимон йилмаларнинг юқори ва ўрта қисмида жойлашган хўжалик ва туманлар учун хосдир. Учқўрғон (63,6), Асака (59,5), Избоскан (59,3), Шаҳрихон (59,0), Пахтаобод (57,4), Норин (57,3), Учкўприк (55,8), Наманган (55,5) туманлари жойлашган Норин, Шаҳрихонсой, Мойлисой, Сўх дарлари конуссимон йилмаларининг шу қисмидаги қулай рельеф, гидрогеологик ва иқлим шароитлари туфайли бу ерларда юқори бонитет балига эга тупроқлар шаклланган. Шу боис юксак деҳқончилик маданиятига эришган водий аҳолиси жойнинг бу хусусиятидан моҳирлик билан фойдаланиб келганлиги туфайли, бу ҳудудларда суғориладиган ерлар салмоғи ҳам юқори (70-80 фоиз) бўлган.

Конуссимон йилмаларнинг этаклари, конус оралиқ ботиқлари, адир орти ва адир оралиқ текисликларида жойлашган туманларга ер ва агроиқлим кўрсаткичларининг юқори, рельеф, гидрогеологик шароитнинг нисбатан пастроқ бўлиши хосдир. Мазкур ҳудудларда агроиқлим шароитининг озроқ пастлаши, Қўрғонтепа (43,9), Чортоқ (43,2), Янгиқўрғон (41,8), Марҳамат (40,6) туманлари каби ТАИ умумий балининг пастлашишига олиб келади.

Геоморфологик шароитнинг обикор деҳқончилик учун ноқулай бўлиши ботиқ рельеф, нишабликнинг умуман йўқлиги ки аксинча адир, тоғ рельефи, тик нишаблик кўрсаткичлари ҳам ТАИ бали пастлашига олиб келган. Поп (40,2), Фарғона (39,2) Чуст (37) каби туманларида суғориладиган ерлар фоизи ҳудудга нисбатан оз бўлишига жой рельефи сабабдир. Тўртинчидан, Марказий Фарғона чўл ландшафтларида жойлашган туманларда гидрогеологик кўрсаткичларнинг пастлиги таъсирида умумий балнинг ҳам пастлаб кетганлигини кўриш мумкин. Бироқ, деҳқончилик маданияти, агротехника қоидаларига мунтазам амал қилиш ўзлаштириш вақтининг узоқлиги натижасида чўл ландшафтларида жойлашган Учкўприк (55,8), Тошлоқ (52,7), Бўз (50,6) туманларида юқори ТАИ балларини кўриш мумкин.

Тупроқларниниг бонитет бали охирги йилларда сезиларли даражада пастлади, бу ҳолат Риштон, Чуст, Олтиариқ туманларида кўзга ташланади. Бинобарин, тупроқ сифати ўрта ва паст кўрсаткичга эга бўлган (9-1,5) туманларда амалга ошириладиган агротехник тадбирларда тупроқ сифатини оширишга алоҳида эътибор берилиши лозим.

Агроиқлим кўрсаткичлари водийнинг тоғли ва нисбатан шарқда жойлашган туманларида (Сўх, Чортоқ, Янгиқўрғон, Хўжаобод) пастроқ, Марказий Фарғона чўл ландшафтида жойлашган туманларда юқори эканлиги хосдир. Қишлоқ хўжалиги ер турларидан мевали дарахтзорлар ва экин майдонлари таркибини белгилашдаги ташкилий ишларда иқлимнинг бу хусусиятлари янада кўпроқ эътиборга олиниши керак.

Адабиётлар

1. Ю.И Аҳмадалиев, Н.Ў Комилова. Этноэкологик маданиятнинг ҳудудий жиҳатлари. https://www.elibrary.ru/item.asp?id=46671614
2. Komilova Nargizahon Urinovna. Geographical roots and basic concepts of ethnoecology. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal 11 (4), 1748-1750.
3. Nargiza Urinovna Komilova. Territorial features of the organization of settlements. 3/6. 809-813. 2022. https://cyberleninka.ru/article/n/territorial-features-of-the-organization-of-settlements
4. NU Komilova. Ethnogeographic aspects of social environmental problems. 3/6. 12-18. 2022. https://cyberleninka.ru/article/n/ethnogeographic-aspects-of-social-environmental-problems
5. Komilova Nargiza Urinovna. Gradual study of geographic featuresof ethno-ecological culture. European science review, 82-84. https://cyberleninka.ru/article/n/gradual-study-of-geographic-featuresof-ethno-ecological-culture

PEDAGOGIK TADQIQOTLARDA STATISTIK TAHLIL ELEMENTLARIDAN FOYDALANISH

Xabibullayeva Muxabbatxon Nu'monjonovna
Andijon davlat universiteti

Annotatsiya. Ushbu maqolada ilmiy tadqiqotlar natijasida olingan statistik ko'rsatkichlarni tahlili yuzasidan olib borilgan kuzatishlar , bu borada ayrim yaxshi tajribalar to'planganini aytib o'tmoqchimiz.Ushbu yo'nalishda ayrim ijobiy yechimlar topilgan, ular tadqiqotchilar uchun dastlabki ko'rsatmalar vazifasini ado eta oladi, deb hisoblayman. Ilmiy tadqiqotlarda statistik elementlardan foydalanish metodikasi atroflicha bayon qilingan.

Аннотация. В этой статье мы хотели бы упомянуть наблюдения, сделанные по анализу статистических показателей, полученных в результате научных исследований.Вэтом отношении накоплен хороший опыт, найдены некоторые положительнные решения. Я думаю, что они могут послужить предварительными инструкциями для исследователей. Подробно описана методология использования статистических элементов в научных исследованиях.

Abstract. In this article we would like to mention the observations made from the analysis of statistical indicators obtained from scientific research, good experience has been accumulated in this regard. In my opinion, some positive solutions have been found in this direction that can serve for researchers as primery directions. The methodology for using statistical elements in scientific research is described in detail.

Ключевые слова: метод, статистико, дисперсия, среднеквадратическое отклонение, коэффициент вариаты, доверителная интервал.

Key words: method, statistics, variance, standard deviation, coefficient of variation, confidence interval.

Ilmiy tadqiqotlar natijasida olingan statistik ko‘rsatkichlarni tahlili yuzasidan olib borilgan kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki, bu borada ayrim yaxshi tajribalar to‘plangan, bu yo‘nalishda ayrim ijobiy yechimlar topilgan, ular tadqiqotchilar uchun dastlabki ko‘rsatmalar vazifasini ado eta oladi. Buning uchun tadqiqotchi faqat o‘zi dars berayotgan predmet materiallari ichida chegaralanib qolmasdan, boshqa o‘quv predmetlarining asosiy mazmuni bilan ham qiziqishi, ularning o‘zaro aloqador nuqtalarini ko‘proq topishi va amaliyotda ulardan foydalanishi kerak bo‘ladi.

Bu o‘z-o‘zidan turli matematik statistika va pedagogika fanlariga oid bo‘lgan bilimlar tizimi bilan muayyan kengliklarda yaxlitlashgan holda ishlashni shart qilib qo‘yadi. Endi gap faqat bir o‘quv predmetini o‘zlashtirish usuli haqida emas, balki ikki yoki undan ortiq fanlarga oid bo‘lgan ish usullari bilan ayni paytning o‘zida shug‘ullanish zaruriyatini ham yuzaga keltiradi.

Bunday holat talaba yoki o‘quvchilarning narsa va hodisalar mohiyatini anglash, idrok etish, tushunishi bilan ham bog‘lanib ketadi. Demak, bunda talabaning ruhiy holati, hatto uning butun psixik qiyofasi – shaxs psixologiyasi, tafakkur tarzi ham alohida ahamiyat kasb etadi.

So‘nggi yillarda axborot texnologiyalarini rivojlantirish mavjud korxona va tashkilotlar ish faoliyatida o‘z aksini topmoqda. Ilmiy tadqiqotlarga oid statistik ko‘rsatkichlarni qayta ishlash, xulosalar chiqarish bir oz takomillashmoqda.

Xorzirgi kundagi pedagogik tadqiqotlarda, tajriba-sinov ishlarining amaliy natijalarini ma’lum bir maqsad asosida tizimli o‘rganish, umumlashtirish va amaliy natijalarning xaqqoniyligini baxolash maqsadida olib boriladigan taxlillardan biri bu matematik statistik taxlildir.

Pedagogik ilmiy-tadqiqotlarda nima uchun matematik statistik metod qo‘llanilmoqda degan savol tug‘iladi?

Pedagogik ilmiy-tadqiqotlarda matematik-statistik metodining qo‘llanilishidan ko‘zlangan maqsad tajriba-sinov ishlari, shuningdek, tadqiqot ishining samaradorlik darajasini aniqlashdan iborat. Unga ko‘ra tajriba va nazorat guruxlarida tajriba avvali hamda yakunida qo‘lga kiritilgan ko‘rsatkichlar maxsus matematik formulalar yordamida qayta taxlil etiladi, yakuniy qiymat tadqiqot samarasini ifodalovchi asosiy ko‘rsatkich xisoblanadi.

Pedagogik ilmiy-tadqiqotlarda Styudent ,Fisher, Pirson, Kramaer-Uelch, Xi kvadrat V.Bespalko va V.Grechixin metodlari kabi matematik-statistik metodlar qo`llanilib kelinmoqda.

Quyidagi matematik statistik metodlardan namunalar keltiramiz:

1. Styudent stasistikasi orqali natijalar taxlili.
2. Pirsonning x2 (Xi kvadrat) statistikasi.

Tajriba-sinov natijalarining xaqqoniyligini ta’minlash uchun St’yudentning t-mezonidan foydalaniladi. Bunda tajriba va nazorat guruxlarining o‘zlashtirishlarini taqqoslash maqsadida guruxlarda o‘zlashtirish

Milliy meros va qadriyatlarning geografiya darslarida o‘qitilishi bo‘yicha tajriba-sinov natijalarining yakuniy tahlili (son va foizlarda)

1-jadval

Guruhlar	O‘quvchilar soni	O‘zlashtirish natijalari (% da)			
		a’lo	yaxshi	qoniqarli	qoniqarsiz
Tajriba guruhlari	403	129 / 32	157 / 39	77 / 19	40 / 10
Nazorat guruhlari	395	35 / 9	103 / 26	190 / 48	67 / 17

Tajriba-sinov natijalari tahliliga ko‘ra, tadqiqot jarayoniga jalb etilgan tajriba guruhidagi o‘quvchilarning nazorat guruhi o‘quvchilariga nisbatan bilim, ko‘nikma va malakalari samarali ekanligi aniqlandi. Bu holatni ob’ektiv baholash uchun statistik tahlil amalga oshiriladi, aniqlangan xulosagina tajriba-sinov ishlarining ilmiy, pedagogik, texnologik va metodik jihatdan to‘g‘ri samarali olib borilganini tasdiqlaydi. Ta’kidlovchi tajriba-sinov davrida ham statistik tahlilni amalga oshirish uchun Styudent va Pirson metodlari tanlandi. Mazkur metod ikki guruhda qayd etilgan ko‘rsatkichlarni aniqlash va ob’ektiv baholash imkoniga ega. Matematik statistik metodning mohiyatiga ko‘ra dastlabki bosqichdagi kabi tajriba va nazorat guruhlarida qayd etilgan statistik ko‘rsakichlarni tanlanmalar sifatida belgilanib a’lo, yaxshi, qoniqarli va qoniqarsiz darajalar bo‘yicha variatsion qatorlarni hosil qilish lozim bo‘ldi. Bu diagrammada quyidagi ko‘rinishni oldi.



	Tajriba guruhi		Nazorat guruhi	
A`lo	129		35	
Yaxshi	157		103	
Qoniqarli	77		190	
Qoniqarsiz	40		67	

1-rasm. *Milliy meros va qadriyatlaming geografiya darslarida o‘qitilishi bo‘yicha rivojlanganlik diagrammasi*

Diagrammadan ko‘rinib turibdiki, tajriba sinfidagi yuqori va o‘rta ko‘rsatkichlar nazorat guruhi ko‘rsatkichlaridan yuqori ekan. Chizilgan diagrammalarning har biri statistik jadval normal taqsimotga ega bo‘lgan bosh to‘plamlardan olinganligi xaqidagi faraz-gipotezani oldinga surish mumkin ekanligini ko‘rsatadi. Endi 1-jadval ma’lumotlarini matematik statistik tahlil qilamiz.

Biz endi yuqoridagi jadvallardagi sonli ma’lumotlarni tahlil qilish maqsadida matematik statistika usullaridan foydalanamiz. Tajriba sinflaridagi statistik baholash ko‘rsatkichlari va unga mos o‘quvchilar sonini mos ravishda Xi ,ni lar va shu kabi nazorat sinflaridagi statistik baholash ko‘rsatkichlar va o‘quvchilar sonini mos ravishda Yj, mj lar orqali belgilab, statistik guruhlangan variatsion qatorlar tuziladi. Shuningdek, yuqori ko‘rsatkichni 5 ball bilan, yetarli ko‘rsatkichni 4 ball bilan, o‘rta ko‘rsatkichni 3 ball bilan va past ko‘rsatkichni esa 2 ball bilan belgilaymiz.

Tajriba-sinov ishlaridan tajriba guruhlaridagi o‘quvchilar soni n=403 nafar, nazorat guruhlaridagi o‘quvchilar soni m=395 nafar bo‘lib, biz bu sonlarni Xi va Yj variantlarga mos statistik tanlanmalar hajmlari deb qaraymiz. Demak, 1-jadvallardan quyidagi ikki variatsion qatorlarni tuzib olamiz ($n = n_1 + n_2 + n_3 + n_4$ va $m = m_1 + m_2 + m_3 + m_4$):

X_i:	5	4	3	2
n_i:	129	157	77	40

Y_i:	5	4	3	2
m_i:	35	103	190	67

Statistik tahlil o‘tkazishni qulaylashtirish maqsadida yuqoridagi variatsion qatorlardan ni va mj takroriylik (chastota)larni mos statistik ehtimollik formulalari $p_i = \frac{n_i}{n}$ va $q_j = \frac{m_j}{m}$ (1) asosida hisoblaymiz.

X_i:	5	4	3	2
pi:	0,32	0,39	0,19	0,10

$(p_1 + p_2 + p_3 + p_4 = 1)$

Y_i:	5	4	3	2
q_i:	0,09	0,26	0,48	0,17

$(q_1 + q_2 + q_3 + q_4 = 1)$

Statistik tahlilni har ikki tanlanma bo‘yicha o‘rtacha o‘zlashtirish ko‘rsatkichlarini hisoblashdan boshlaymiz:

$$\overline{X} = \sum_{i=1}^{4} p_i X_i = 5 \cdot 0,32 + 4 \cdot 0,39 + 3 \cdot 0,19 + 2 \cdot 0,10 = 3,93$$

Foizda $\overline{X}\% = \frac{3,93 \cdot 100\%}{5} = 78,6\%$

$$\overline{Y} = \sum_{i=1}^{4} q_i Y_i = 0,09 \cdot 5 + 0,26 \cdot 4 + 0,48 \cdot 3 + 0,17 \cdot 2 = 3,27$$

Foizda $\overline{Y}\% = \frac{3,27 \cdot 100\%}{5} = 65,4\%$,

Demak, tajribadan keyindagi o‘rtacha o‘zlashtirish (78,6–65,4) $\%=13,2\%$ ga yuqori ekan. Demak, tajriba-sinov ishlari so‘nggida respondentning bilim ko‘rsatkichlari o‘rta hisobda 13,2 % ga oshgan.

Endi tajriba-sinov ishlari xatoliklarini baholashga o‘tamiz. Dastlab, tanlanmalarning dispersiyalarini hisoblaymiz:

$$S_X^2=\sum_{i=1}^{4}p_i\cdot X_i^2-\left(\overline{X}\right)^2=0,32\cdot 25+0,39\cdot 16+0,19\cdot 9+0,10\cdot 4-\left(3,93\right)^2=0,9051$$

.

O‘rtacha kvadratik chetlanish: $S_X=\sqrt{0,9051}\approx 0,95$.

$$S_Y^2=\sum_{i=1}^{4}q_i\cdot Y_i^2-\left(\overline{Y}\right)^2=0,09\cdot 25+0,26\cdot 16+0,48\cdot 9+0,09\cdot 4-\left(3,27\right)^2=0,3971$$

.

O‘rtacha kvadratik chetlanish: $S_Y=\sqrt{0,3971}\approx 0,63$.

Bu xatoliklarning o‘rta qiymatlarga nisbatan og‘ish foizlarini variatsiya koeffitsientlari orqali hisoblaymiz:

Buni yanada aniqroq ko‘rsatish maqsadida har ikki statistik tanlanma bo‘yicha o‘rta qiymat aniqliklarini biz variatsiya koeffitsientlari orqali, ya’ni Cx va Cu formula orqali hisoblaymiz:

$$C_x=\frac{S_x}{\sqrt{n}\cdot\overline{x}}\cdot 100\%=\frac{0,95\cdot 100\%}{\sqrt{403}\cdot 3,93}=\frac{95\%}{20,07\cdot 3,93}=\frac{95\%}{78,8751}\approx 1,20\%$$

$$C_y=\frac{S_y}{\sqrt{m}\cdot\overline{y}}\cdot 100\%=\frac{0,63\cdot 100\%}{\sqrt{395}\cdot 3,27}=\frac{63\%}{19,87\cdot 3,27}=\frac{63\%}{64,9749}\approx 0,97\%$$

Har ikki xatolik ko‘rsatkichlari mumkin hisoblangan 5% lik chegaradan yetarli darajada kam ekan. Bu esa tajriba-sinov ishlari qoniqarli o‘tganligini bildiradi.

Endi biz har ikki statistik tanlanmalarni nazariy o‘rta qiymatlari tengligi haqidagi $H_0:\ a_X=a_Y$ gipotezani Styudent mezoni yordamida tekshiramiz . Shu maqsadda, mos statistikani hisoblaymiz:

$$T_{n,m}=\frac{\left|\overline{X}-\overline{Y}\right|}{\sqrt{\frac{S_Y^2}{n}+\frac{S_X^2}{m}}}=\frac{\left|3,93-3,27\right|}{\sqrt{\frac{0,9051}{403}+\frac{0,3971}{395}}}\approx\frac{0,66}{0,057}=11,58$$

Ehtimollik uchun statistik mezonning qiymatdorlik darajasini

$\alpha = 0,05$ deb olsak, va r = n+m-2 ozodlik darajalari soni bo‘yicha jadvaldan $t_{kp}\left(\alpha=0,05;796\right)=1,96$ kritik qiymat topiladi. $T_{эмп}=11,58>1,96=t_{кр}(0,05;796)$ bo‘lgani uchun biz H_0 gipotezani rad etib, $\overline{X}>\overline{Y}$ munosabatlarni e’tiborga olgan holda $a_x>a_y$, ya’ni tajriba guruhlaridagi o‘rtacha o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari , nazorat guruhlaridagi o‘rtacha o‘zlashtirish ko‘rsatkichidan katta bo‘lar ekan, degan xulosa qila olamiz.

Nihoyat, biz X_i va Y_i statistik tanlanmalarning taqsimot qonunlari tengligi haqida H0 : Fx =Fy gipotezani tekshirish uchun Pirson (xi-kvadrat) mezonidan foydalanamiz.

$$X^2_{n,m} = \frac{1}{N \cdot M} \cdot \sum_{i=1}^{k} \frac{(n_i M - m_i N)^2}{n_i + m_i}.$$

Bu maqsadda quyidagi jadvalni tuzib olamiz:

2-jadval

Milliy meros va qadriyatlaming geografiya darslarida o‘qitilishi bo‘yicha Pirson mezonini hisoblash jadvali

Baholar / Guruxlar	5	4	3	2
Tajriba guruhi	129	157	77	40
Nazorat guruhi	35	103	190	67

Pirson statistikasini hisoblaymiz:

$$\chi^2_{n,m} = \frac{1}{403 \cdot 395} \cdot \left(\frac{(129 \cdot 395 - 34 \cdot 403)^2}{129+35} + \frac{(157 \cdot 395 - 103 \cdot 403)^2}{157+103} + \frac{(77 \cdot 395 - 190 \cdot 403)^2}{77+190} + \frac{(40 \cdot 395 - 67 \cdot 403)^2}{40+67} \right) \approx 119,67$$

Pirson mezonining ozodlik darajasi k=(s-1)(r-1)=(2-1)(4-1)=3 , bu k=3 ga mos 95% lik kritik nuqta $Z_{kp}(0,95) = 7,82$.

Ammo, $\chi^2_{n,m} = 119,67 > 7,82 = Z_{k,p}(0,95)$

Demak, H0 gipoteza ham rad etilar ekan. Bu esa, tajriba-sinov ishlaridan tajriba va nazorat sinflaridagi o‘qitish metodikalarining farqlanishi tasodifiy emas, balki qonuniy bo‘lib, doimo o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari oshishiga olib kelar ekan.

Umuman olganda, ilmiy tadqiqotlarda statistik ko‘rsatkichlarni matematik modellari asosida tahlil qilish, o‘rganilayotgan ob’ektlar haqidagi axborotlarning ishonchlilik darajasini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. G‘ofurov M. , Xolmurodov M., Xusanov K. Iqtisodiy-matematik usullar va modellar. –T.: AGNI, 2001. – 100 b.
2. Лакин Г.Ф. Биометрия: Учебное пособие для университетов и педагогических институтов. – М. Высшая школа, 1973 – 343 с.
3. Граничина О.А. Математико-статистические методы психолого-педагогических исследований. Учебно-методическое пособие. Санкт-Петербург: Издателство ВВМ. 2012. – 115 с. (http://www.math.spbu.ru/user/gran/Olga/Uch_po_matem.pdf)
4. Грабар М.И., Краснянская К.А. Применение математической статистики в педагогических исследованиях. Непараметрические методы (http://intellect-invest.org.ua/content/userfiles/files/library/Grabar_Primen_mat_stat_v_ped_issl.pdf)

YANGI O‘ZBEKISTONDA TA’LIM TIZIMIDAGI ISLOHOTLAR: OLIY TA'LIMDA KREDIT-MODUL TIZIMINING RIVOJLANISH BOSQICHLARI

Ismoilov Temurbek Islomovich,
NamDU, Fuqarolik jamiyati va huquq ta’limi
kafedrasi professori v.b.

Annotasiya. Ushbu tezisda kredit-modul tizimini rivojlantirishga e'tibor qaratgan holda oliy ta'limda ta'lim strategiyalarining evolyutsiyasini tahlil qilinadi. Tadqiqot ushbu tizimning paydo bo‘lishidan to hozirgi tendentsiyalarigacha bo‘lgan asosiy rivojlanish bosqichlarini ko‘rib chiqadi. Ish tarixiy ma'lumotlarni, shuningdek, oliy ta'lim sohasidagi zamonaviy amaliyot va tadqiqotlarni tahlil qilishga asoslangan. Kredit-modul tizimining o‘quv jarayoniga ta'siri va talabalarning malakasini oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Tadqiqot natijalari ta'lim strategiyalarining rivojlanish dinamikasini va ularning zamonaviy dunyoda ta'lim sifatiga ta'sirini yaxshiroq tushunishga imkon beradi.

Kalit so‘zlar: evolyutsiya, ta'lim strategiyalari, kredit-modul tizimi, oliy ma'lumot, rivojlanish bosqichlari, akademik kredit, o‘quv modullari, o‘quv dasturi, talabalar vakolatlari.

Kirish. Oliy ta'lim jamiyat ehtiyojlari, texnologik o‘zgarishlar va kasbiy tayyorgarlikning yangi talablariga javoban doimiy ravishda rivojlanib boradi va o‘zgaradi. Ushbu rivojlanishning asosiy jihatlaridan biri kredit-modul ta'lim tizimiga o‘tishdir. Oliy ta'lim jamiyat rivojlanishining asosiy omili bo‘lib, uning evolyutsiyasi doimiy o‘zgarish va takomillashtirishni o‘z ichiga oladi. Ushbu evolyutsiyaning muhim yo‘nalishlaridan biri kredit-modul ta'lim tizimini joriy etishdir. Ushbu tizim talabalarni o‘qitishda moslashuvchanlik, individuallashtirishni taklif etadi. Keling, oliy ta'limda kredit-modul tizimining rivojlanish bosqichlarini ko‘rib chiqaylik.

Kredit-modul tiziminining kelib chiqishi: Kredit-modul tizimi birinchi marta XVIII-XIX asrlarda AQSh universitetlarida joriy qilingan va o‘quv jarayonlarini liberallashtirish, talabaning haftalik akademik yukini belgilash maqsadida yaratilgan. 1869 yilda Garvard universiteti prezidenti, Amerika ta'limining taniqli arbobi Charlz Uilyam Eliot (1834-1926) “kredit soatlari” tushunchasini kiritdi. Shunday qilib, 1870 va 1880 yillarda kredit soatlari bilan o‘lchanadigan tizim joriy etiladi. Kredit tizimi bilan o‘quv dasturlarini o‘zlashtirish talabalarga o‘quv jarayonini mustaqil ravishda rejalashtirish, uning sifatini nazorat qilish va ta'lim texnologiyalarini takomillashtirish imkonini berdi.

Modulli o‘qitish va kreditga asoslangan talabalarni baholash tizimi rasmiy ravishda amalga oshirilishidan ancha oldin paydo bo‘lgan. XX - asrning oxirida turli mamlakatlarda zamonaviy kredit-modul tizimining asosini tashkil etgan yangi ta'lim yondashuvlari bilan tajribalar boshlandi. Kredit-modul ta'lim tizimi zamonaviy jamiyatning moslashuvchan va egiluvchan ta'lim usullariga bo‘lgan ehtiyojiga

javoban paydo bo‘ldi. Asosiysi shundaki, o‘quv jarayoni har biri ma'lum miqdordagi kreditga ega bo‘lgan kichik modullar yoki bloklarga bo‘linadi. Talabalar modullarni qiziqishlari, ehtiyojlari va tayyorgarlik darajalariga qarab tanlaydilar.

Kredit-modul tizimining rivojlanish bosqichlari:

Birinchi bosqich (yadrolanish): rivojlanishning boshida kredit-modul tizimi keng qo‘llaniladigan amaliyotdan ko‘ra ko‘proq g‘oya edi. U akademiyada o‘rganilgan va muhokama qilingan, ammo uni amalga oshirish uchun o‘quv rejalari va dasturlarida katta o‘zgarishlar talab qilingan.

Ikkinchi bosqich (amalga oshirish): ushbu davrda ko‘plab universitetlar va kollejlar kredit-modul tizimini faol ravishda joriy qila boshladilar. Bu o‘quv rejalari, kurslar tuzilishi va talabalarni baholash usullarining o‘zgarishiga olib keldi.

Uchinchi bosqich (tarqatish): hozirgi vaqtda kredit-modul tizimi ko‘plab mamlakatlarda keng tarqalgan va standart amaliyotga aylandi. U nafaqat universitetlarda, balki o‘rta maktablarda va kasb-hunar ta'limi muassasalarida ham qo‘llaniladi.

Kredit-modul ta'lim tizimining kelajagi yanada qiziqarli va xilma-xil bo‘lishni va'da qilmoqda. Texnologiyaning rivojlanishi va mehnat bozori ehtiyojlarining o‘zgarishi bilan tizim talabalar va ta'lim muassasalari uchun yangi imkoniyatlar va echimlarni taklif qilish orqali rivojlanishda davom etishi kutilmoqda.

Oliy ta'limda kredit-modul tizimining rivojlanishini amalga oshirishning birinchi bosqichlari XX – asr oxiri va XXI – asr boshlarida turli mamlakatlardagi ko‘plab universitetlar kredit-modul tizimiga o‘tishni boshladilar. Ushbu bosqich kurslarni yaratish va standartlashtirish, kreditlar tarkibini aniqlash va baholash jarayonlarini ishlab chiqish bilan ajralib turardi. Kredit-modul tizimini joriy etishning birinchi qadamlari XX – asrning oxirida ko‘plab mamlakatlarda amalga oshirildi (Italiya, Ispaniya, Fransiya, Buyuk Britaniya). Ushbu tizimning afzalliklari aniq edi: u ta'lim sifatini oshirishga yordam berdi, o‘quvchilarning o‘quv jarayonidagi faol ishtirokini rag‘batlantirdi va kurslarning moslashuvchanligini oshirdi.

Takomillashtirish va targ‘ib qilinishi: keyingi o‘n yilliklarda kredit-modullarni o‘qitish tizimi tobora keng tarqalgan. Universitetlar kurslarni boshqarish, talabalarni baholashni osonlashtirish va yanada moslashuvchan o‘rganishni ta'minlash uchun yangi texnologiyalarni joriy etishdi.

Zamonaviy muammolarga moslashish: Internet texnologiyalarining rivojlanishi va ta'limga ommaviy kirish bilan kredit-modul tizimi uchun yangi muammolar va imkoniyatlar paydo bo‘ldi. Ta'lim muassasalari onlayn kurslar, moslashuvchan jadvallar va moslashtirilgan ta'lim rejalari bilan tajriba o‘tkazishni boshladilar.

Kredit-modul ta'lim tizimi talabalarga kurslarni tanlashning moslashuvchanligi, o‘quv dasturini individuallashtirish va o‘quv jarayonini mustaqil boshqarish qobiliyati kabi bir qator afzalliklarni beradi. Shu bilan birga, qiyinchiliklar mavjud, shu jumladan o‘quv dasturlarini samarali boshqarish, ta'lim sifatini ta'minlash va talabalar yutuqlarini etarli darajada baholash zarurati.

Kredit-modul tizimining afzalliklari:

- Moslashuvchanlik: talabalar o‘z qiziqishlari va maqsadlariga muvofiq kurslarni tanlashlari va o‘z imkoniyatlariga qarab o‘qish tezligini aniqlashlari mumkin.

- Shaffoflik: kredit tizimi talabalarga ta'lim dasturini yakunlash uchun qanday kurslarni o‘tashlari kerakligini aniq ko‘rish imkonini beradi.

- Moslashuvchanlik: kredit-modul tizimi mehnat bozori talablari va ilmiy yutuqlardagi o‘zgarishlarga osongina moslashadi.

Biroq, kredit-modul tizimini muvaffaqiyatli amalga oshirish yo‘lida talabalarni baholashning samarali usullarini ishlab chiqish, o‘qitish sifatini ta'minlash va ma'lumotlarni boshqarish kabi qiyinchiliklar mavjud.

Xulosa. Kredit-modul ta'lim tizimi oliy ta’lim evolyutsiyasining muhim bosqichidir. Uning joriy etilishi va rivojlanishi yanada moslashuvchan, individuallashtirilgan va samarali o‘qitish usullariga intilishni aks ettiradi. Kelajakda ushbu tizim zamonaviy jamiyatning muammolari va ehtiyojlariga javob beradigan rivojlanishda davom etadi. Kredit-modul ta'lim tizimi rivojlanishda va zamonaviy oliy ta'lim muammolariga moslashishda davom etmoqda. Uning evolyutsiyasi ta’lim muassasalarining tez o‘zgaruvchan dunyoda talabalar uchun moslashuvchanlik, shaffoflik va ta'lim sifatini ta'minlash istagini aks ettiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Шакадирова, Н. И. "Практическое значение использования кредитно-модульной системы в высшем образовании." Academic research in educational sciences 3 (2020): 687-691.
Е.И.Ефимова [9], И.Н.Кондрашова [10], Н.А.Лызь, Н.М.Мамедов, К.А. Романова, U.Halbach ва бошқ. турли даражадаги касбий таълим муассасаларида эколог мутухассисларни тайрлашнинг турли йўналишларини таҳлили ва илмий-амалий ишланмаларни яратишга ҳаракат қилмоқдалар.

Халқаро стандартларга монанд равишда экологик таълимда атроф-муҳит ҳақида, атроф-муҳит рдамида ва атроф-муҳит учун таълимлари мавжуд. Бу учта компонент экологик таълим ва тарбиянинг бўлакланган масалаларини бир бутун ечимини таъминлайди. Масалан, Ғарбий Европада болалар махсус хўжаликларда ввойи ҳамда уй ҳайвонлари билан мулоқотда бўлиши, ҳаттоки уларни парвариш қилиш орқали экологик таълим ва тарбия уч шдан бошланади.

Австрияда касбий экологик таълим ва тарбияга замин тайёрлаш мактаб дастурларига киритилган. Масалан, махсус мактаб лойиҳаларини ташкиллаштириш (“Мактаб боғи”, “Атроф-муҳит тарихи”, “Мактабда экология”, “Экологик устахона”, “Табиат учун ижодит”); табиатни муҳофаза қилиш акцияларини ўтказиш (“Озон”, “Альп фаолияти”); турли хил дидактик материаллар ва махсус ўқув қўлланмаларини тайрлаш; педагог-экологлар учун семинарлар ҳамда болаларнинг экологик таълимида иштирок этувчи барча мутахассисларни қайта тайрлаш курслари; экологик таълим масалалари бўйича журнал ва газеталар нашри; “Атроф-муҳит, мактаб ва жамоат” шу йўсиндаги махсус экологик таълим дастурларини тайрлаш; экологик таълим масалалари бўйича умумдавлат маълумотлар банкини яратиш; координацион функцияларни амалга ошириш; болаларни экологик таълими билан боғлиқ бўлган мактаб ва мактабдан ташқари экологик таълим, турли лойиҳалар фаолиятида иштирок этишни ҳоҳишини билдирганларни ўқитувчи ва бошқа мутахассисларга консультациялар. Австриянинг олий касбий таълим босқичида экологик таълим тўғридан тўғри махсус ва касбий фанларни танлов асосида ўқитишдан бошланади. Умумий экологик таълим ва тарбия эса умумий таълим тизимига киритилган.

Даниядаги экологик таълим ва тарбия муаммолари барча педагогик касбий таълим тизимига киритилган. Педагогларни тайрлашда мажбурий экологик таълим, фанлараро мустақил таълим, тегишли ўқув материалларнинг оммабоплигида намоён этган. Дания скандинав давлатлари билан Шимолий Сипозиум ўтказиш ва “Скданавияда атроф-муҳит соҳасида таълим”, “Болтиқ денгизи”, “Шимолий денгиз” халқаро ва “Тоза дарёлар”, “Кислотали ёмғир”, “Яшил байроқ” миллий таълим лойиҳаларини амалга ошириш, денгиз соҳилларининг экологик ҳолатини карталаштириш ва ўрганиш йўли билан узоқ муддатли ҳамкорлик лойиҳаларнинг доимий қатнашчисидир.

Германияда экологик таълим шларни атроф-муҳит ҳақидаги тасаввурларини ўзгартиришга ва билимларини ривожлантиришга, уларнинг табиатни муҳофаза қилишга тайрлигини оширишга, ўсиб келаётган авлодда экологик масъулиятли хулқни шакллантиришга йўналтирилган. Бунда асосий урғу инсон, жамият ва табиий муҳит ўртасидаги муносабатларни очиб беришга қаратилади. Экологик таълим ва тарбияда инсон омили асосий бўлиб, у экотизимларни ҳалокатли ифлосланишига олиб келмоқда, деган дунқараш мавжуд.

Ирландиянинг экологик таълим ва тарбия қуйидаги масалаларни ҳал қилишга қаратилган: инсон ва атроф табиий муҳит ўртасидаги

алоқадорликнинг комплекслилигини тушунтиришга рдамлашиш; шаҳар ва қишлоқларда иқтисодий, ижтимоий, сисий ва экологик муносабатларга қизиқишларини рағбатлантириш; ҳар бир тингловчига масъулиятли экологик қарорларни қабул қилиш учун билим, муносабат, қадрият ва малакани олиши ҳамда табиий муҳитни ҳимоя қилиш ва такомиллаштириш учун зарур амалий билим ва кўникмаларни бериш; индивидуал, гуруҳ ва жамоа онгида атроф-муҳитда фаолият олиб бориш ва ўзини тутиш бўйича янги экологик моделларни яратиш ва уни амалда татбиқ қилиш, алоҳида фуқаро, турли ижтимоий гуруҳ ва жамоаларда табиатга янгича муносабатда бўлишни шакллантиришга рдам бериш; аҳолининг кенг амалий экологик малака олишларига рдам бериш; экологик муаммоларни аниқлаш ва таснифлашни шакллантириш, муаммоли масала ва вазиятларни ҳал этиш, экологик муаммолар ечимини қабул қилиш жараёнида иштирок этиш, деб қаралади.

Швецияда экологик таълим ва тарбия 1970 йилда “Европада атроф-муҳит” йилига тайёргарлик кўриш ва уни ўтказиш арафасида яратилди ҳамда атроф-муҳит муҳофазаси мавзуси янги тўққиз йиллик мажбурий таълимга киритилди. Шу билан бирга атроф-муҳит масалалари бўйича Миллий дастур тайрланди ва қабул қилинди. Унинг талабларига биноан Швецияда педагог ва ўқувчилар учун янги ўқув қўлланмалар ва йўриқномалар нашр қилинди. Экологик таълим ва тарбия Европанинг Скандинавия ярим оролида жойлашган давлатларнинг ҳамкорлигидаги бирламчи масалага айланди. Швециянинг атроф-муҳитни муҳофаза қилиш жамияти ва таълим бўйича Миллий агентлиги ҳамкорлигида экологик таълим муаммолари бўйича умумдавлат ахборот тизими яратилди.

Японияда юксак экологик маънавиятли шахсни тайрлаш атроф-муҳит соҳасидаги таълим дастурлари орқали эришилган бўлиб, у миллий касбий тайргарликнинг барча бочқичларини ўзида қамраб олган. Японлар унча динга кўп киришмаганлар ва шунинг учун ҳам уларда иконалар ўрнида гўзаллик меҳроби сифатида гулли ваза туради. Икебана Ер планетасидаги барча инсонларга маълумдир. Японларнинг табиатга муносабати – бу ўзгача миллий психология бўлиб, унинг асосида жамоавий онг тади. Шунинг учун ҳам уларда экологик тарбия қадимий тарихга эгадир.

АҚШнинг экологик таълим ва тарбия турли шакл, йўналиш ва методологик ндашув, барча таълим ва тарбия мазмунига экологик этикани чуқур кириб бориши, аҳолининг атроф-муҳитга эҳтиткорлик ва масъулият билан муносабатда бўлишини шакллантириш жараёнида кенг оммани, айниқса, нодавлат жамоат ташкилотларини жалб қилиш билан бирга олиб борилади.

Россия Федерациясининг экология мутахассислиги бўйича олий касбий таълимнинг давлат таълим стандартларида экологлар қуйидаги фаолиятни юргазиши мумкин: лойиҳалаш – ишлаб чиқариш ва педагогика. Унда таълим олишни давом этириш “013100–Экология” йўналиши бўйича олий касбий таълим дастурини ўзлаштирган эколог магистратура мутахассислиги бўйича 511100–Экология ва табиатдан фойдаланиш, 510800–География ва бошқа

турдош йўналишлар бўйича аспирантуранинг 11.00.11–Атроф-муҳитни муҳофаза қилиш ва табиий ресурслардан оқилона фойдаланиш, 11.00.14–Геоэкология ва бошқа яқин мутахассисликлар йўналишларида таҳсил олишлари мумкин.

Экологларни касбий компетенцияларини шакланиш модели – экологик таълимни таркибий қисмларининг (мақсадлари, вазифалари, объектлари, шартлари) ўзаро боғлиқлиги. Бу эколог мутухассислигининг касбий фаолиятини ўзига хос хусусиятлари ва ижтимоий талаб билан боғлиқ. Масалан, техник-экологларнинг касбий компотенцияларини шакллантириш учун яратилган моделнинг асосий хусусияти – мазкур таркибий қисмларнинг интеграциялашдан иборат бўлиб, у таълим жараёнини комплекс йўналтирилаглигидан мутахассисларни шакллантиришни кучайтиради. Натижада, биринчидан, экологик таълим жамият ривожининг асосий омилларидан бири эканлигини билдиради. Экологик таълим инсонларни табиатга бўлган муносабатини ўзгартиришга қаратилган фикрлашувга, хулқ ва атроф стереотипларини шаклланишига, иқтисодий ва ижтимоий ривожланишига, ҳар бир давлат ва инсон томонидан касбий этиканинг янги тамойилларини қабул қилишга, маданият ва адолатга, баъзи бир чекловлар ва тақиқларни ўрнатилишига, экосфера қонунларининг ривожига қаратилгандир. Россияда экологик таълим тизимини ривожлантириш ва мавжуд экологик билимларни мустаҳкамлаш мақсадида тизимли ишлар олиб борилмоқда.

Иккинчидан, бу ҳолат экологнинг касбий компетенцияси учун педагогик шароитни шакллантиришни аниқлаштиради.Учинчидан, экологик таълим моделининг тузилиши технологик алгоритми келажакда экологик таълимни жорий этишни ташкил этади.

Тўртинчидан, экологик таълим жаҳон стандартларига жавоб беришга йўналтиради ва экологларда шу жараёни ишлаб чиқариш, ташкилий-бошқарув ва ахборот-аналитик фаолиятлари билан боғлашни синфлаштиради.

Бешинчидан, янги ахборот технологияларни жорий этиш экологик таълимни тез мослашувчанлигини кўрсатади.

Олтинчидан, илм-фан билан бирга экологик маданиятни ҳам ривожлантиради. Булар ўз навбатида ҳатий тажрибалардан келиб чиқади ва ахлоқий принципларга ндашади.

Хулоса қилиб айтганда, хорижий тажриба шуни кўрсатмоқлаки, экологик таълим нафақат ихтисосликка томон йўналтирилган, балки у юксак экологик маънавиятли шахс тарбиясига ҳам қаратилгандир. Хорижий мамлакатларда экологик таълим ва тарбия миллий минталитет ва регионал ҳусусиятдан келиб чиққан тарзда олиб борилмоқда. Касбий таълимнинг барча йўналишлари ва мутахассисликлари экологиялаштирилган ва тизимлаштирилган. Шунинг учун ҳам экологик таълим ва тарбия ҳар бир давлат ва маҳаллий шароитдан келиб чиққан тарзда ўрганилади ва унинг норматив асослари яратилади.

Фойдаланилган адабиётлар:

А.Н.Нигматов, Л.М.Абдуназаров, Ш.Н.Мухамедов. Касбий экологик таълим ва тарбия.– Т.: Iqtisod–Moliya/ 2016.– 12–20-b.

Реймерс Н.Ф. Экология (теории, законы, правила, принципы и гипотезы). М.: Россия молодая, 1994. - 376 с

Barker R.G. Ecological psychology Concept and methods for studying the environment of human behavior /R.G. Barker. Stanford University Press, 1968

Chiras D.D. Environmental Science. Action for Sustainable Future / D.D. Chiras.- N.Y., 2000.-93 p.

Суравегина И. Т., Мамедов Н. М. Экологическое образование: проблемыбазовых знаний //Биология в шк. -1993. -№ 1 -с. 17-22.

Ясвин В.А. Психолого-педагогическая коррекция субъективного отношения к природе в процессе экологического образования // Вопросы психологии. 1998. №4. С. 3 14

Meadows D.H., Meadows D.L., Renders I., Behrens W., The Limits of Growth, Universe Book, N.J., 1972.

Захлебный А. Н. Принципы и условия экологического образования в школе: Сб. Педагогические принципы и условия экологического образования. -М: АПН СССР, 1983.

Ефимова О.Н. Социально психологические особенности экологического сознания работников производственных организаций Электронный ресурс.: дис. . канд. психол. наук: 19.00.05/0.н. Ефимова. — Кострома, 2010.-207 с.

Кондрашова, И.Н. Формирование экологических знаний у студентов небиологических специальностей Электронный ресурс.: дис. . канд. пед. наук: 13.00.02 / И. Н. Кондрашова. Москва, 2003. - 163 с.

OLIY TA’LIMDA TALABALAR MA’NAVIY-AXLOQIY ONGINI YUKSALTIRISH MASALALARI

Oripov Elyorjon Shavkatovich
Qo‘qon DPI katta o‘qituvchisi (PhD)
oripovelyor1982@gmail.com

Аннотация. В данной статье рассматривается проблема повышения духовно-нравственного сознания студентов высших учебных заведений. Также разработан ряд задач духовно-нравственного воспитания студентов.

Ключевые слова: Высшее образование, студент, духовность, этика, моральные ценности, сознание, ООН, просвещение, Шейх Азизиддин Насафи.

Abstract: This article discusses the problem of increasing the spiritual and moral consciousness of students of higher educational institutions. A number of tasks for the spiritual and moral education of students have also been developed.

Key words: Higher education, student, spirituality, ethics, moral values, consciousness, UN, education, Sheikh Aziziddin Nasafi.

Butun dunyoda sodir bo‘layotgan global o‘zgarishlar ma’naviy-axloqiy ong muammosini tushunishda faqat an’anaviy tasavvurlar bilan cheklanib qolish mumkin emasligini ko‘rsatmoqda. Axloqiy qadriyatlar ierarxiyasidagi tenglashtirish tamoyili yaqqol ko‘zga tashlanayotgan hozirgi vaqtda shaxs va jamiyat faoliyatidagi mavjud axloqiy qoidalarning buzilishini axborot sohasidagi mafkuraviy tahdidlar, xususan, «ommaviy madaniyat» unsurlari egallayotganligi bilan izohlanmoqda. Bunday muammolarning oldini olish va bartaraf etishda ma’naviy-axloqiy ongni yuksaltirish masalasi beqiyos ahamiyat kasb etadi.

Ma’lumki, ma’naviy-axloqiy ongi yuksak bo‘lgan jamiyatdagina barqarorlik bo‘ladi. Bunday jamiyatda fuqarolar o‘zligini anglay olgan, huquq va burch, majburiyatlari haqida tushungan, bir-birini hurmat qila oladigan bo‘ladi. Oliy ta’lim muassasalari talabalarida ma’naviy-axloqiy ongning namoyon bo‘lish shakllari hamda talaba-yoshlar ma’naviy-axloqiy qiyofasi va unga qo‘yiladigan talablarni amaliyotga joriy etish usullarini ishlab chiqish zarur bo‘ladi.

Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev yoshlarning ta’lim-tarbiyasiga alohida e’tibor qaratish davr talabi ekanligini ta’kidlaydi: “Yuksak ma’naviyatli, zamonaviy bilim va kasb-hunarlarga, o‘z mustaqil fikriga ega bo‘lgan yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash biz uchun eng muhim masalalardan biridir. Bu borada biz asrlar mobaynida shakllangan milliy an’analarimizga, ajdodlarimizning boy ma’naviy merosiga tayanamiz” [1].

Talaba-yoshlar ma’naviy-axloqiy ongini shakllantirishda ma’rifat alohida ahamiyat kasb etadi. Zero, ma’rifat – ma’naviyatni tom ma’noda shakllantiruvchi vosita. Ma’rifat millat tarixining ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoev tomonidan BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida “Ma’rifat va diniy bag‘rikenglik” [2] deb nomlangan maxsus rezolyusiya qabul qilish taklifi berildi. Bu hujjatning asosiy maqsadi – barchaning ta’lim olish huquqini ta’minlashga, savodsizlik va jaholatga barham berishga ko‘maklashish. Ushbu rezolyusiya bag‘rikenglik va o‘zaro hurmatni qaror toptirish, diniy erkinlikni ta’minlash, e’tiqod qiluvchilarning huquqini himoya qilish, ularning kamsitilishiga yo‘l qo‘ymaslikka ko‘maklashishga qaratilganligi bilan o‘ta ahamiyatlidir. Shuning uchun ham mazkur taklif asosida 2018 yil 12 dekabr kuni BMT Bosh Assambleyasining yalpi sessiyasida «Ma’rifat va diniy bag‘rikenglik» deb nomlangan maxsus rezolyusiya qabul qilindi. Loyihasi O‘zbekiston tomonidan ishlab chiqilgan hujjat BMTga a’zo barcha davlatlar tomonidan bir ovozdan qo‘llab-quvvatlandi.

Rezolyusiya nafaqat BMTga a’zo barcha davlatlar tomonidan bir ovozdan qo‘llab-quvvatlangani, balki Shimoliy Amerika va Lotin Amerikasi, Osiyo, Afrika va boshqa qit’alarning 50 dan ziyod mamlakati bilan hammualliflikda qabul qilingani e’tiborga molik. Bu xalqaro hamjamiyat tomonidan O‘zbekiston rahbari tashabbusining dolzarbligi va o‘z vaqtida ilgari surilgan taklif ekanining yuksak e’tirofidan dalolatdir[3].

Sharq uyg‘onish davri mutafakkirlarining fikricha, pokiza xulq-atvor, go‘zal axloq-odob, halollik, ilohiy ma’rifat – komil insonlik darajasiga yetish manbai.

Komil insonlargina millatning yorqin ko‘zgusi bo‘lishi mumkin. Faqat ma’naviyatli va ma’rifatli insonlargina xalq va davlat manfaati, ravnaqi yo‘lida mehnat qilishga qodirdirlar. Mashhur Sharq mutafakkiri Shayx Aziziddin Nasafiy komil inson fazilatlari haqida gapirib, u yuksak axloqli, o‘zini anglagan, dunyoviy va ilohiy bilimlarni egallagan bo‘lishi zarurligini aytadi: «Bilgilki, komil inson deb, shariat, tariqat va haqiqatda yetuk bo‘lgan odamga nisbatan aytadilar va agar bu iborani tushunmasang, boshqa ibora bilan aytayin: bilgilki, komil inson shunday insondirkim, unda quyidagi to‘rt narsa kamolga yetkan bo‘lsin: yaxshi so‘z, yaxshi fe’l, yaxshi axloq va maorif» [4].

O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov fikricha, moddiy va ma’naviy olam uyg‘unlashib, insonning qo‘sh qanotiga aylansagina, jamiyatning to‘laqonli erkin rivojlanishi ta’minlanadi. Lekin, afsuski, ma’naviy inqirozning oldini oladigan, yoshlarni yuksak ma’naviyatli shaxs sifatida shakllantirishni kafolatlaydigan ta’lim-tarbiya tizimi dunyoda hali yaratilmaganligini bugun hayotning o‘zi tasdiqlab turibdi. Haqiqatan ham, bugungi murakkab globallashuv sharoitida ma’naviyat sohasida vujudga kelayotgan dolzarb muammolar, xususan, jahonning ayrim mintaqalarida tobora kuchayib, ildiz otib borayotgan ma’naviy inqiroz xavfi xalqimiz ma’naviyatini asrash barobarida uni yuksaltirish, ayniqsa, yosh avlodning qalbi va ongini turli zararli g‘oya hamda mafkuralar ta’siridan himoya qilishni talab qilmoqda.

Hech shubhasiz, dunyoning qaysi burchagida bo‘lmasin, ma’naviyatga qarshi har qanday tahdidning paydo bo‘lishi o‘zining bugungi kuni va ertangi istiqbolini o‘ylab yashayotgan har bir ongli inson, har bir xalqni tashvishga soladi. Albatta, ma’naviyatga qaratilgan har qanday tahdid va mafkuraviy xurujlar milliy-ma’naviy qadriyatlarimizga putur yetkazib, tarixiy ildizlarimizga bolta urishi, ulardan, avvalo, farzandlarimiz ko‘proq aziyat chekishi mumkinligi yoshlar ma’naviy-axloqiy ongini yanada yuksaltirishni taqozo etmoqda.

Ta’lim tizimining barcha bosqichlarida axloqiy fazilatlarni shakllantirishning o‘ziga xos xususiyatlari mavjud bo‘lib, oliy ta’lim bosqichida talabalardagi ma’naviy-axloqiy fazilatlar yanada mustahkamlanadi va hayotiy faoliyat mezoniga aylantiriladi. Tarbiyaviy ishlar to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilgan ta’lim muassasalarida talabalar o‘z mustaqil fikriga ega bo‘lib, ularda fidokorlik, mamlakatdagi islohotlar mohiyatini chuqur anglash, urf-odat va an’analarni asrash, ezgu g‘oyalarga sadoqat kabi fazilatlar namoyon bo‘ladi.

Shuningdek, mustaqillikni mustahkamlash yo‘lida axborot xurujiga, «ommaviy madaniyat» tahdidiga nisbatan g‘oyaviy kurashchanlikni namoyon qilish, milliy o‘zlikni himoya qilish uchun kurasha olish, buzg‘unchi g‘oyalarga qarshi kurashish, buyuk kelajakka ishonch hissi bilan yashash fazilatlari shakllanadi.

Shu boisdan, yoshlar tarbiyasining muhim bo‘g‘inlaridan biri – oliy ta’lim muassasalari, deb hisoblanadi. Bizning fikrimizcha, oliy ta’lim muassasalarida davlatimiz tomonidan yaratib berilgan imkoniyatlardan keng va samarali foydalanib, ta’lim-tarbiya ishlariga katta e’tibor qaratish zarur. Oliygohda tarbiyaning barcha sohalari, ayniqsa, quyidagi 3ta yo‘nalish bo‘yicha alohida ishlar olib borilishi maqsadga muvofiq:

1. Axloqiy tarbiya.
2. G‘oyaviy-siyosiy tarbiya.
3. Huquqiy tarbiya.

Ushbu tarbiya yo‘nalishlarining har biri o‘ziga xos tarbiya ob’ektlari hamda usullariga ega bo‘lib, bularning vazifalariga jiddiy ahamiyat berish lozim. Bu tarbiya ob’ektlari va usullari asli bir maqsad yo‘lida xizmat qilsada, bir-biridan shaklan farqli, bir-birini mazmunan to‘ldiruvchi, qiziqarli, hayotiy usullari bilan talabalarni o‘ziga jalb eta olishi zarur.

Oliy ta’lim muassasalarida olib borilayotgan ishlarning mohiyati – uning milliy g‘oyaga asoslangan, ma’naviy-axloqiy, huquqiy, vatanparvarlik, fuqaroviy, mehnat, madaniy-maishiy, ekologik va shu singari tarbiyaviy yo‘nalishlar bilan erishiladigan g‘oyaviy a’mol va ideallarga mos holda olib borilishi maqsadga molik masala. Bu muammolarni amalga oshirish barcha pedagoglarning oldida turgan yuksak vazifadir.

Bugungi kunda talaba-yoshlarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalashda qator vazifalarni hal etish talab etiladi. Jumladan:

har bir ta’lim oluvchining ongi va qalbida davlat mustaqilligi mamlakatning oliy qadriyati ekani va inson o‘z Vatani bilan faxrlanish, uning xavfsizligini ta’minlash hamda ulug‘ tarixiy o‘tmishiga hurmatda bo‘lish, bozor munosabatlariga asoslangan yangi demokratik jamiyat qurishda tanlab olgan o‘ziga xos yo‘lini mustahkamlashga ko‘maklashish;

milliy ruh bilan sug‘orilgan oliy ma’naviy-axloqiy qadriyatlarni hayotiy e’tiqodiga aylantirish lozimligini qaror toptirish;

ta’lim oluvchilarda umuminsoniy insonparvarlik axloqi va madaniyati me’yorlarini, zamonaviy qadriyatlar ehtiyoji, o‘zini hamisha hushyor va tetik tutish, viqor saqlash, oilaviy tantanalarda o‘z faolligini ko‘rsatishga urinish, xizmat vazifasidan shaxsiy maqsadlar uchun foydalanish ko‘rinishlariga murosasiz bo‘lish ruhini tarbiyalab borish, ularning yuksak axloq malakalari bilan qurollantirish va hokazo.

Xulosa qilib aytganda, axloqiy tarbiya tarbiyaviy ishlar kompleksida yetakchi o‘rin tutadi. Oliy ta’lim muassasalarida talaba-yoshlarda axloqiy tarbiyani amalga oshirishda, avvalo, axloqiy tushuncha va ishonch hissini yaratishdan boshlagan ma’qul. Chunki yoshlarda axloqiy tushuncha e’tiqodini tarkib toptirmay turib, axloqiy odatlarni, hatti-harakat bilan bog‘liq malaka va odatlarni hosil qilib bo‘lmaydi. Bunda, asosan, yoshlarga axloq-odob me’yor va qoidalari mazmuniga oid bilim berishga katta ahamiyat berish lozim. Shuningdek, talaba-yoshlarning «ommaviy madaniyat», ekstremizm va terrorizm, radikalizm kabi illatlar haqida yetarlicha bilimga ega emasligi ularning turli buzg‘unchi g‘oyalar orqasidan ergashib ketishiga sabab bo‘lishi mumkin. Bunday sharoitda talaba-yoshlar orasida targ‘ibot-tashviqot ishlari olib borib, bu masaladagi nazariy qoidalarni amaliyotga joriy etish yo‘llarini takomillashtirish jamiyat taraqqiyotida ma’naviy sohaning yuksalishiga xizmat qiladi. Darhaqiqat yangi O‘zbekiston yoshlarini ma’naviy tahdidlardan himoya qilish, ya’ni ularning mafkuraviy immunitetini kuchaytirish,

yoshlarning barkamol avlod sifatida voyaga yetishlarini ta’minlash bugungi taraqqiyotimizning yagona garovidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoev Sh. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1jild. – T.: O‘zbekiston, 2019. – 89 b.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasidagi nutqi. «Xalq so‘zi» gazetasi. 2017 yil 20 sentyabr
3. http://uza.uz/oz/politics/zbekiston-prezidentining-tashabbusi-zha-on-amzhamiyati-tomon-13-12-2018.
4. Komilov N. Tasavvuf yoki komil inson axloqi. 1-kitob. – T.: Yozuvchi, 1996, – 147 b

MAMLAKATIMIZ OLIY TA’LIMI TALABALARINING MA’NAVIY-AXLOQIY ONGINI YUKSALTIRISHNI HUQUQIY ASOSLARI

Oripov Elyorjon Shavkatovich
Qo‘qon DPI katta o‘qituvchisi (PhD)
oripovelyor1982@gmail.com

Аннотация. В данной статье рассматриваются правовые основы повышения духовно-нравственного сознания студентов высших учебных заведений. Также были разработаны предложения и рекомендации по технологическим этапам изучения духовно-нравственной ситуации студентов и мониторинга изучения духовно-нравственной ситуации.

Ключевые слова: высшее образование, духовность, нравственность, нравственное сознание, нравственное сознание, правовая основа, технология, мониторинг, морально-нравственная ситуация.

Abstract. This article discusses the legal basis for increasing the spiritual and moral consciousness of students of higher educational institutions. Suggestions and recommendations were also developed for the technological stages of studying the spiritual and moral situation of students and monitoring the study of the spiritual and moral situation.

Key words: higher education, spirituality, morality, moral consciousness, moral consciousness, legal framework, technology, monitoring, moral situation.

Tarixiy tajribadan ma’lumki, ma’naviyat va ma’rifatga e’tibor berilgan makon va zamondan barkamol avlod yetishib chiqqan. Xalqimizning shu sohada to‘plagan boy tarixiy tajribasiga tayanib, unga ijodiy yondashgan holda faqat axloqli insonlar ko‘pchilikni tashkil etgan jamiyatdagina yuksak ma’naviyat qaror topishi mumkinligini falsafiy jihatdan asoslab berish lozim. Biroq hozirgi vaqtda bu masala yetarli darajada ilmiy tahlil ob’ektiga aylanishi qiyinroq kechmoqda. Shu bois, ushbu muammo alohida tizimli nazariy tahlilni taqozo etmoqda. Bu ma’naviy-

axloqiy ongi yuksak yoshlarni tarbiyalash borasidagi tadqiqotlarni yanada chuqurlashtirish zarurligini ko‘rsatadi.

Oliy ta’limning ma’naviy-axloqiy mazmunini oshirish, talaba-yoshlarga mustaqillik g‘oyalari, yuksak ma’naviyat va insoniylikning milliy an’analariga sodiqlik ruhini chuqur singdirish, ularda yot g‘oya va mafkuralarga nisbatan immunitet va tanqidiy tafakkurni mustahkamlash bo‘yicha keng ko‘lamli ma’rifiy va tarbiyaviy ishlar olib boorish [1] bugungi kundagi muhim jarayonlardan hisoblanadi.

O‘zbekiston mustaqillikni qo‘lga kiritgan dastlabki kunlardan boshlab, milliy g‘oya va mafkura, mustaqillik g‘oyalarini aholining keng qatlamlari ongiga singdirish, ta’lim, madaniyat, san’at, ma’naviy-ma’rifiy ishlar targ‘iboti masalalariga alohida e’tibor qaratish, yuksak ma’naviyatli barkamol shaxslarni tarbiyalashga davlat siyosati yo‘nalishlarining biri sifatida ahamiyat berib kelinmoqda.

Yoshlarga oid davlat siyosati – davlat tomonidan amalga oshiriladigan hamda yoshlarni ijtimoiy jihatdan shakllantirish va ularning intellektual, ijodiy va boshqa yo‘nalishdagi salohiyatini kamol toptirish uchun shart-sharoitlar yaratilishini ko‘zda tutadigan ijtimoiy-iqtisodiy, tashkiliy va huquqiy chora-tadbirlar tizimi [2].

Mamlakatimizda yoshlarni vatanparvarlik, milliy an’ana va qadriyatlarimizga hurmat ruhida tarbiyalash, ma’naviy yetuk va jismonan sog‘lom barkamol avlodni voyaga yetkazish, ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish borasida muayyan ishlar amalga oshirildi. Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014 yil 6 fevraldagi «O‘zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 2124-sonli Qarori, O‘zbekiston Respublikasining 2016 yil 14 sentyabrdagi «Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida»gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 5 iyuldagi «Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O‘zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida»gi PF-5106-sonli farmonlari qabul qilindi.

O‘zbekiston Respublikasining «Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida»gi Qonuni bugungi davr talablariga mos ravishda har tomonlama barkamol, mustaqil fikrlaydigan, mamlakatimiz istiqboli uchun mas’uliyatni o‘z zimmasiga olishga qodir, tashabbuskor, xalq manfaati yo‘lida bor salohiyatini safarbar qiladigan, shijoatli yoshlarni tarbiyalash, ularning intellektual va ijodiy salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun mustahkam huquqiy poydevor yaratdi. Ushbu hujjatlarda yoshlarni ma’naviy yuksak, barkamol shaxs bo‘lib voyaga yetishlari uchun barcha shart-sharoitlar belgilab qo‘yilgan. Ularda ko‘zda tutilgan maqsadlarga erishish uchun bugun ma’rifatchi ziyolilarimiz ishtirokida «Adabiyotga e’tibor – ma’naviyatga, kelajakka e’tibor» shiori ostida «Men sevib o‘qigan kitob», «Eng yaxshi kitobxon» respublika tanlovlari, «Kitob bayrami» va «Bolalar kitoblari» an’anaviy respublika festivallari, «Biz Vatanga tayanchmiz», «Bizning eng katta tayanchimiz va suyanchimiz, hal qiluvchi kuchimiz yoshlar» shiorlari ostida aksiyalar, «Adabiyot va san’at – shaxs ma’naviyatini boyitish va yuksaltirish omili» mavzusida yozuvchilar, shoirlar, san’atkorlar, adabiyotshunos olimlar ishtirokida uchrashuvlar

o‘tkazib kelinmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 29 noyabrdagi «O‘zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligini tashkil etish to‘g‘risida»gi PF-5264-sonli Farmonida ham aynan yoshlarga alohida urg‘u berilgan. Jumladan, hududlar ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatining barqaror o‘sishi, shuningdek, aholining hayot darajasi va farovonligi yuksalishi uchun zarur sharoitlarni ta’minlashga qodir bo‘lgan fan va innovatsiya faoliyatini rivojlantirishning zamonaviy infratuzilmasini shakllantirish;

innovatsion g‘oyalar va texnologiyalar ishlab chiqish hamda joriy etish sohasiga investitsiyalarni keng jalb etish, ularning yanada rivojlanishini ta’minlovchi normativ-huquqiy bazani takomillashtirish;

ilmiy-tadqiqot va innovatsiya faoliyatini, eng avvalo, yosh avlodning ijodiy g‘oyalari va ishlanmalarini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash hamda rag‘batlantirish, shuningdek, ushbu faoliyatda iqtidorli yoshlar faol ishtirok etishi uchun qulay sharoitlar yaratish va boshqalar nazarda tutilgan [3].

Demak, jamiyatning ma’naviy va ilmiy salohiyatini ko‘tarishda ilm-fan taraqqiyotiga ham alohida e’tibor qaratish lozim. «Mamlakatimiz va jamiyatimizning zamon talablari darajasida rivojlanishini ilm-fansiz tasavvur qilish qiyin. Ilm-fan taraqqiyotida fundamental tadqiqotlar muhim ahamiyat kasb etadi. Aynan ular orqali yangi bilimlar o‘zlashtiriladi va nazariyalar shakllantiriladi, kelgusi amaliy tadqiqotlar va innovatsion ishlanmalar uchun mustahkam asos yaratiladi» [4].

XXI asr ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, ma’naviy, madaniy hayotning barcha sohalarida xalqaro munosabatlarning integratsiyalashuvi va intensivlashuvi, bir so‘z bilan aytganda, globallashuv jarayoni bilan xarakterlanadi. Har qanday ijtimoiy hodisa kabi globallashuv jarayonining ham ijobiy ham salbiy jihatlari mavjud. Globallashuv jarayoni bilan bog‘liq ziddiyatlar, avvalo, madaniyat sohasida yaqqol namoyon bo‘lib, millatlarning ma’naviy-axloqiy qadriyatlariga tahdid solishida, g‘oyaviy ta’sir ko‘rsatishida o‘z aksini topmoqda.

Ma’lumki, g‘oyaviy tarbiya sust bo‘lganda yoki to‘g‘ri olib borilmaganda inson ongida g‘oyaviy bo‘shliq paydo bo‘lib, bu bo‘shliqni shu millatning tabiatiga yot g‘oyalar egallab olishi va turli mafkuraviy tazyiqlar zararli ta’sirini o‘tkazishi muqarrar. Bu holat, ayniqsa, hozirgi globallashuv davrida «ommaviy madaniyat» niqobi ostidagi xavf-xatarning keng tarqalib borayotganligi masalasiga jiddiy e’tibor qaratishimizni talab etmoqda.

G‘oyaviy-siyosiy sohada yoshlarni g‘oyaviy-siyosiy jihatdan chiniqtirish, aqliy salohiyati, dunyoqarashi endigina shakllanayotgan yosh avlod qalbida milliy g‘urur tuyg‘ularini kuchaytirishni, «Vatan», «Millat» va «Mustaqillik» tushunchalarini qadriyat darajasiga ko‘tarish borasidagi qator ta’sirchan tadbirlarni izchil amalga oshirishni davr taqozo etmoqda.

Talaba-yoshlarning g‘oyaviy tarbiyasida insonparvarlik, millatparvarlik va vatanparvarlik kabi fazilatlar faqat konkret-amaliy harakatlar orqali muayyan mazmun hamda ahamiyatga ega bo‘lishi mumkinligiga ham e’tibor qaratish darkor. Shunday sharoitda turli destruktiv kuchlar, totalitar mafkuralar tahdidi barham topishiga imkon yaraladi. Buning uchun ta’lim-tarbiyani insonparvarlashtirgan

holda uning milliy mafkura bilan uzviy aloqadorlikda rivojlanishini ta’minlash zarur. Zotan, «...yuksak fazilatli va komil insonlarni tarbiyalash, ularni yaratuvchilik ishlariga da’vat qilish, shu muqaddas zamin uchun fidoyilikni hayot mezoniga aylantirish – milliy mafkuraning bosh maqsadidir» [5].

Zamonaviy sivilizatsiyaning shaxs ma’naviy-axloqiy qiyofasiga ta’siri kuchayib borayotgan bir paytda ma’naviy ta’lim-tarbiya tizimi faoliyatini turli ijtimoiy guruhlarning o‘ziga xos xususiyatlariga, bugungi kun talablariga mos ravishda takomillashtirish, ma’naviy-axloqiy ta’lim-tarbiya tizimi samaradorligini ta’minlash uchun Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi huzurida Tarbiyaviy ishlarni muvofiqlashtiruvchi kengash tashkil etilishi maqsadga muvofiq. Ma’naviy-axloqiy vaziyatni o‘rganish texnologiyasi samarali uslublar (hujjatlarni o‘rganish, statistik ma’lumotlarni o‘rganish, aholi so‘rovi, taqqoslash, kuzatish, tahlil va sintez uslubi va hokazo), prinsiplar (ob’ektivlik, tizimlilik, tarixiylik va dialektik ziddiyat, mavhumlikdan konkretlikka borish, mantiqiylik va tarixiylik birligi prinsipi va hokazo), zamonaviy vositalar va materiallar asosida o‘tkazilgandagina kutilgan natijaga olib keladi.

Ma’naviy-axloqiy vaziyatni o‘rganish texnologiyasi besh bosqichda amalga oshiriladi: a) tegishli normativ hujjatlarning amalga joriy etilishi darajasini o‘rganish; b) ma’naviyat va axloq borasidagi boshqaruv organlari va muassasalar faoliyati, ularga doir statistik ma’lumotlarni o‘rganish; v) aholi o‘rtasida so‘rovlar o‘tkazish; g) ma’naviy-axloqiy vaziyatga bilvosita ta’sir o‘tkazuvchi omillarni o‘rganish; d) to‘plangan materiallarni tahlil qilish, analitik materiallar tayyorlash, amaliy tavsiyalar ishlab chiqish va vaziyat rivojiga doir bashoratlar hozirlash.

Ma’naviy-axloqiy vaziyatni o‘rganish samarali monitoring ishlarini yo‘lga qo‘yishni taqozo etadi. Bunda monitoringning turli ko‘rinishlaridan (umumiy monitoring, dastlabki monitoring, juz’iy monitoring, mavzuiy monitoring, tahliliy monitoring) foydalanish maqsadga muvofiq. Ayni paytda, qanday ko‘rinishda bo‘lmasin, har qanday monitoring analitik material va bashoratlar tayyorlash bilan intiho topishi zarurligi diqqat markazda turmog‘i darkor. Ular to‘rt asosiy funksiyani bajaradi: a) ijtimoiy munosabatlar miqyosida jamiyat a’zolari faoliyatini muvofiqlashtirib boradi; b) jamiyat a’zolari barcha ehtiyojlarining qondirilishi uchun shart-sharoit yaratadi; v) ijtimoiy hayotni barqarorlashtiradi, ijtimoiy hamkorlikni kuchaytiradi; g) jamiyat a’zolarining ijtimoiylashuvi uchun poydevor yaratadi. Bir so‘z bilan aytganda, shaxs ma’naviy-axloqiy olamiga psixologik tashxis orqali kirib borilganda, uni fundamental tadqiq qilish imkoniyati va muammolardan asrab-avaylash zaruriyati ijobiy samaraga ega bo‘ladi.

Xulosa qilib aytganda, bugungi kunda jahonning turli mafkuraviy maydonlarida yaratilayotgan buzg‘unchi g‘oyalar jamiyatda ma’naviy yuksalish jarayoniga to‘sqinlik qilishi hamda ularning shu sohada olib boriladigan targ‘ibot ishlariga salbiy ta’siri saqlanib qolishi mumkin. Shuning uchun davr bunday buzg‘unchi g‘oyalarga nisbatan ma’rifat bilan kurashishni taqozo qiladi. Yuksak ma’naviy-axloqiy ongni shakllantirish tuyg‘usi birgina ta’lim muassasalari bilan emas, aksincha, jamiyatning har bir bo‘g‘inida hamjihatlikda olib boriladigan masala ekanligi namoyon bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:
1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 apreldagi «Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-2909-sonli Qarori.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 5 iyuldagi «Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O‘zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida»gi PF-5106-sonli Farmoni.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 29 noyabrdagi «O‘zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligini tashkil etish to‘g‘risida»gi PF-5264-sonli Farmoni. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 01.12.2017 y., 06/17/5264/0339-son).
4. Mirziyoev Sh. Ilm-fan yutuqlari – taraqqiyotning muhim omili. 2016 yil 30 dekabr kuni mamlakatimizning yetakchi ilm-fan namoyondalari bilan uchrashuvdagi ma’ruza. // «Ma’rifat» gazetasi. 2016 yil 31 dekabr.
5. Boboev X. va boshqalar. Milliy istiqlol mafkurasi va taraqqiyot. – T.: 2001. 3-b.

AMIR TEMUR HARBIY SA’NATI TARIXINI O‘RGANISHDA “INDIVIDUAL DARS” SHAKLI ORQALI O‘QUVCHILAR FAOLIYATINI FAOLLASHTIRISH

Rashidaxon Muqimovna Ahmedova
Qo‘qon DPI Tarix kafedrasi dotsenti, PhD.
rashidakhonmukimovna@gmail.com

Toxir Botirov
Qo‘qon DPI Tarix yo‘nalishi 4-bosqich talabasi

Annotatsiya. Mazkur maqolada Amir Temurning harbiy tashkilotchiligi hamda sarkardalik mahrati, davlat boshqaruv ishlarida adolatli siyosati hamda mamlakat himoyasida qo‘shin tuzish yo‘lidagi yuksak mahoratiga oid ma’lumotlarni o‘quvchi yoshlar ongiga singdirishda hamda ularda bilim, ko‘nikma va malakalarni shakillantirishda pedagogik texnalogiyalardan xususan “Individual Dars” shaklidan foydalanish jarayonlarni qo‘llash masalalari tahlil qiliningan.

Аннотация. В данной статье в сознании студентов используются сведения о военной организации и лидерском мастерстве Амира Темура, справедливой политике в государственном управлении, его высоком мастерстве в формировании армии для защиты страны и, в частности, педагогических технологиях формирования их Проанализированы вопросы применения процессов использования формы «Индивидуальное занятие».

Abstract. In this article, information about Amir Temur's military organization and leadership skill, fair policy in state administration, and his high skill in forming

an army for the defense of the country, is used in the minds of students and in particular pedagogical technologies to form their knowledge, skills, and abilities. The issues of applying the processes of using the "Individual Lesson" form have been analyzed.

Kalit so‘zlar: Амир Темур, harbiy san’at, pontonchilar, naftandozlar, tosh otuvchi, Temur tuzuklari, Individual Dars, Buyuklar fikri, qo‘rquv va umid

Key words: Amir Temur, military art, pontoon workers, naphthandos, stone thrower, Temur’s traps, Individual Lesson, Thought of the Great, fear and hope

Ключевые слова: Амир Темур, военное искусство, понтонные рабочие, нафтандос, камнемет, ловушки Темура, Индивидуальное занятие, Мысль о Великом, страх и надежда

Bugungi kunda dunyoda turli xil zamonaviy pedagogik texnologiyal mavjud bo‘lib, o‘qitish jarayonida eng samaralisini tanlash birinchi navbatda dars beruvchi o‘qituvchiga bog‘liqligini yaqqol ko‘rishimiz mumkin. Shunday ekan, o‘qitishning interfaol usullarini tanlashda ta’lim maqsadi, ta’lim oluvchilarning soni va imkoniyatlari, o‘quv muassasasining o‘quv-moddiy sharoiti, ta’limning davomiyligi, o‘qituvchining pedagogik mahorati va boshqa omillarni e’tiborga olgan xolda tanlash ta’lim sifatini yanada oshirishga asos bo‘lib xizmat qiladi

Bugunning dolzarb muammolaridan biri ta’lim tizimi sifatini yaxshilash va o‘quvchilarga sifatli ta’lim berish. Buning uchun pedogoglardan interfaol metodlardan unumli foydalanish, to‘g‘ri tanlov va o‘quvchilarda qiziqish uyg‘otish talab etiladi. Shu bilan birga pedagog ko‘proq o‘z ustida ishlashi, yangi interfaol metodlarni izlab topishi asosiy masalalardan biri bo‘lib xisoblanadi [1.27].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2021-yil 19-yanvardagi videoselektorda tarix fanini o‘qitish bo‘yicha konseptual ko‘rsatmalar berdilar: “Milliy tarixni milliy ruh bilan yaratish kerak. Aks holda uning tarbiyaviy ta’siri bo‘lmaydi. Biz yoshlarimizni tarixdan saboq olish, xulosa chiqarishga o‘rgatishimiz [2.1] zarurligi aytiladi. Milliy tarixni milliy ruh bilan yaratishda yangicha yondashuvlar zarur. Buning uchun, ularni tarix ilmi, tarixiy tafakkur bilan qurollantirishimiz zarur tarix fani o‘qituvchilari xalqimizning bunyodkorlik va yaratuvchilik faoliyatini chuqurroq, tahliliy asosda o‘quvchilar ongi va qalbiga singdirishlari kerak. Bu maqsadga erishish uchun tarix fanini o‘qitishda Amir Temurning sarkardalik mahorati sohasidagi faoliyatini yangi pedagogik yondashuvlar asosida, ya’ni birlamchi manbalardan foydalanib yorqin misollar asosida tushuntirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi davrda tarix fani o‘qituvchilari o‘z darslarini zamonaviy yondashuvlar asosida o‘tishda, milliy tarixni milliy ruh bilan o‘rgatishda Amir Temurning vatanparvarlik faoliyatidan quyidagi yorqin misollarni keltirishlari mumkin.

Amir Temur markazlashgan davlat tuzish maqsadini amalga oshirishda Buxoroga katta umid bog‘ladi va umidlarida adashmadi. Alohida harbiy tayyorgarlik ko‘rishga Amir Husayn bilan kelishgan Temur 1362-yilda Marv tomonidan Buxoroga yo‘l oladi. «Ikki kun yo‘l yurib, Qorako‘lga qarashli bir qishloqqa yetdilar, deb yozadi Bo‘riboy Ahmedov «Amir Temur» tarixiy romanida.

Shu yerda Kesh ham, hatto Soli Saroy ham notinch ekanligi haqida xabar topdilar. Endi nima qilish kerak? Orqaga qaytishning iloji yo‘q. Qobul taraflarga esa yo‘l berk. Oxiri kengashib, nima bo‘lsa ham eski reja bo‘yicha Buxoro tarafga borishga qaror qildilar. Temurbek bilan xotini mulozimlari va xizmatkorlari bilan bir haftadan keyin Buxoroning Zandanisiga kirib borib, tanish bir savdogarning uyini qidirib topdilar. Xayriyatki, savdogar uyida ekan. Mehmonlarni xursandchilik bilan qarshi oldi va tashqaridagi katta mehmonxonasini ularga bo‘shatib berdi. O‘sha kecha Temurbek savdogardan so‘rab surushtirib, mamlakatdagi ahvolni bilib oldi. Shundan keyin Temurbek Buxoroga ham, Samarqandga ham bormay, ularni imkoni boricha chetlab o‘tib, Kesh tarafga borishga qaror qildi [3.73]. Savdogarning uyida o‘tkazilgan suhbatlarida Amir Temur ona yurtining uni hamisha qo‘llab-quvvatlashiga ishonch hosil qilgan bo‘lsa ajab emas. Tarixiy manbalarning guvohlik berishicha, Amir Temur har gal harbiy yurishlardan zafar bilan qaytganda, albatta Buxoroi Sharifga kelib avliyo-ambiyolarni ziyorat qilar, so‘ngra poytaxti Samarqandga o‘tgan.

Hozirda O‘zbekiston o‘zining rivojlanishida tub burilish davrida bo‘lib, iqtisodiyoti jadal sur’atlar bilan rivojlanib bormoqda. Mazkur jarayonlarda yangiliklarga yo‘g‘rilgan kuchli ta’lim texnologiyalarini izlab topib, amaliyotda qo‘llash hamda tegishli natijalarga erishish – ta’lim tizimi oldida turgan ustuvor dolzarb vazifalardan biridir. Mazkur vazifalarning asosini quyidagilar tashkil etadi:

- kelajak avlodni bozor iqtisodiyoti sharoitida yashashga hamda jadal rivojlanayotgan jamiyatda faoliyat yuritishga tayyorlash;
- o‘quvchilarga ta’lim berishda asosiy e’tiborni katta hajmdagi ma’lumotlarga asoslangan nazariy bilimlarga emas, balki olgan bilimlarni mustaqil, tanqidiy fikrlash asosida mavjud muammolarni yechishga yo‘naltirish;
- o‘zgarishlarga doimo tayyor turishga, «yuqori informatsion xuruj»lar sharoitida to‘g‘ri xulosalar qilib, harakat qilishga o‘rgatish.

O‘z o‘rnida ta'lim va tarbiya, shaxs rivojlanishi yo‘lida yangidan-yangi pedagogik texnologiyalarni izlab topishni, har bir masalaga ijodiy yondashishni talab etadi. Ta’lim va tarbiya, shaxs rivojlanishi yo‘lida albatta o‘quvchining intellectual faollik darajasini aniq bilgan holda darslar tashkil etilsa albatta yaxshi natija beradi.

D.B. Bogoyavlenskayaning nazariyasiga binoan, intellektual faollikning 3 ta darajasi mavjuddir [1.33].

1. Reproduktiv. Yuqori chegarasi – qiziqish, quyi chegarasi sinalayotgan odamning vazifasiga nisbatan sustligi. 2. Evristik. Faoliyatni takomillashtirishga intilish paydo bo‘ladi, yechimning yangi usullarini topishga nisbatan intilish vujudga keladi. 3. Kreativlik. Bu intellektual faollikningyuqori darajasi bo‘lib, uning yordamida vazifani yo‘lga qo‘yishdagi tashabbus, nazariy umumiy xulosalar, o‘zaro bog‘likliklar, sabab-oqibatlar aniqlanadi.

Ushbu jarayonllarga ayrim tavsiyalar reproduktiv va evristik intellektual faolligini kreativ darajaga yetishiga poydevor bo‘ladi. “Individual dars” shakli (individual ishlash uchun)

Mustaqil bilim olishga asoslanadi – O‘quvchiga mavzu oldindan beriladi.

Yakka tartibdagi ta’lim – O‘quvchi bilan individual ishlanadi. Telegram misolida tushuntiradigan bo‘lsak, guruh ochib o‘quvchilar a’zo qilinadi. O‘quvchilar guruhda o‘zini qiziqtirgan, tushunmagan narsalarini so‘rashi mumkin. “Individual dars” strukturasi bo‘yicha quyidagicha ma’lumotlar joylashtiriladi:

Ta’sir doirasi (yangi mavzudagi atamalar talqini) uy, muhit va maktab – O‘quvchining qaysi qatlam vakili ekanligidan kelib chiqib yondashiladi chunki unga yaqin u tushunadigan atamalar orqali tushuntirilsa yaxshi samara beradi. Yangicha yondashuv (Mavzu yuzasidan atamalarni tushuntiriladi) – O‘quvchining orzu va kelajakdagi tasavvurlarini bilib olgach o‘quvchi yo‘naltiriladi. Amaliyotga asoslangan – Dars mobaynida berilgan ma’lumot (videorolik, animasion rolik, brashura va boshqa telegram manziliga oldindan yuklanadi)larga asoslangan holda o‘quvchi o‘zining g‘oyasi ustida mustaqil ishlab uni amaliyotga joriy etishiga yo‘naltiriladi.

Hamkorlik (hamkor tashkilotlarining telegram kanallari manzili yuboriladi) – jarayonda ta’sir ko‘rsatuvchi tashkilotlarni inobatga olish.

Individual yondashuv (Har bir o‘quvchi dunyoqarashi va imkoniyatlaridan kelib chiqib topshiriqlar ketma-ketligi beriladi) – Shaxs – ijtimoiy hayotda shaxslararo o‘zaro munosabat mahsuli va ongli faoliyat sub’ektidir.

Individuallik – kishining xarakteri, temperamenti, psixik kechinmalarining o‘ziga xos xususiyatlari, hissiyoti va faoliyatining motivlarida ko‘rinadi. Ana shunga ko‘ra kishilar bir-biridan farq qiladilar.

O‘quvchi o‘z yo‘nalishini tanlab oladi. Shu yo‘nalish haqidagi bilimlari o‘qituvchi tomonidan aniqlanadi va to‘ldiriladi.

“Individual dars” bosqichlari [1.42]:

1-bosqich yangi mavzu oldindan o‘qib kelingan takrorlanadi. Qisqacha ma’lumot beriladi.

Axborot – Mavzu yuzasidan eng muhim ma’lumotlar beriladi.

2-bosqich Tadqiqot – Mavzu yuzasidan o‘quvchining o‘zi erkin va mustaqil tadqiqot o‘tkazadi.

3-bosqich Motivatsiya – darsning boshlang‘ich bosqichi, o‘quvchilar diqqatini o‘rganiladigan materialga qaratish, ularni qiziqtrish, o‘rganiladigan mavzuning foydali tomonlarini ko‘rsata olish zarur. O‘quvchini o‘quv materialini o‘zlashtirish natijasi motivatsiyaga bog‘liq.

“Buyuklar fikri”ga asoslangan holda o‘quvchilar qiziqishini orttirish, muhim tomonlari ajrata olish yo‘naltirish, shaxsiy fikrlarini izohlashga o‘rgatish.

4-bosqich Shaxsiy fikr – O‘quvchi o‘z dunyo qarashidan kelib chiqib o‘z fikrlarini izohlaydi.

5-bosqich Asosiy fikrlarni ajratib olish – O‘z fikrlari ichidan eng muhimlarini belgilab oladi.

6-bosqich Mustahkamlash – darsning zarur bosqichi bo‘lib, nafaqat o‘quv materialini o‘zlashtirish natijasini ko‘tarish, balki o‘quvchilarni qiziqtirish, ular ongida mantiqiy bilim va ko‘nikmalarni shakllantirishdir.

Birinchi qadamdan oxirgi qadamgacha bo‘lgan bosqichlardagi eng muhim aspektlarni belgilab olish.

7-bosqich Baholash

Baholash – darsning asosiy turtki beruvchi qismi. Baholash adolatli, ko‘rgazmali, egiluvchan bo‘lishi va nisbiy bo‘lmasligi kerak. Baholash o‘quvchilarning qiziqishlarini oshirishi zarur. Jamoaviy, o‘z-o‘zini, guruh bo‘lib baholash turlaridan foydalanish mumkin.

Xulosalar Mavzu davomida olingan ma’lumotlariga, o‘quvchining mustaqil izlanishi asosida shakllangan fikrlariga muvofiq asosli xulosalanadi.

O‘tmish – Tarixga nazar orqali tahlil qilish mumkin bo‘lgan ma’lumotlarni o‘rganiladi.

Hozir – Hozirgi kun ahvoli.

Mavjud resurs – Imkoniyatlar o‘rganiladi.

Kelajak – O‘tmishga asoslanib, hozirgi sharoitdan keilb chiqib, imkoniyatlar asosida kelajakdagi rejalar belgilab olinadi.

Xulosa qilib aytganda bugungi kun ta’lim tizimiga tadbiq etilayotgan pedagogik texnalogiyalar, xususan “Individual Dars” dars shaklidan foydlangan holda tarix darslarini tashkil etish ahamiyatlidir. Ushbu dars shaklini tarix darslarida Amir Temur harbiy sarkardalik mahoratini o‘rganish jarayonini qo‘llanilishi, o‘quvchilarning o‘rganilgan ma’lumotlar orqali mustaqil faolligini hamda fikrlashini shakillantirishda, zaruriy xulosalar chiqara olishlarida katta yordam beradi.

Manbalar va adabiyotlar / Источники и литература / References

1. Avlayev O.U., Jo‘rayeva S.N., Mirzayeva S.P. “Ta’lim metodlari” o‘quv-uslubiy qo‘llanma, “Navro‘z” nashriyoti, Toshkent – 2017. –B. 27
2. Mirziyoyev Sh. Jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo‘lsa, uning joni va ruhi ma’naviyatdir. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 19-yanvar kuni ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish, bu borada davlat va jamoat tashkilotlarining hamkorligini kuchaytirish masalalari bo‘yicha videoselektor yig‘ilishidagi nutq. “Xalq so‘zi”, 2021-yil 20-yanvar, 1-bet.
3. Bo‘riboy Ahmedov. Amir Temur. Tarixiy roman. Toshkent 1995, 73-bet.
4. Burxonov Sardorjon Sindorjon o‘g‘li Amir Temurning “Temur Tuzuklari” asarining harbiylar hayotidagi ahamiyati // Published January 13, 2023 | Version v1. –B. 4
5. Amir Temur. “Temur Tuzuklari”. “Hilol media”. 2018. –B. 76

INNOVATSION RIVOJLANISHDA RAQAMLASHTIRISHNING AHAMIYATI

B.Shamsiddinov (PhD)
B.Qodirov (PhD)
Qo‘qon davlat pedagogika insituti,

Tel: +998911426119, Barxayot_@mail.ru

Annotatsiya. Mazkur maqolada asta-sekin kundalik hayotning har bir sohasini ajralmas qismiga aylanib borayotgan raqamlashtirishning o‘ziga xos xususiyatlari, uni Yangi O‘zbekistonni innovatsion rivojlanishining muhim omili ekanligi tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: raqamlashtirish, raqamli iqtisodiyot, o‘zgarish, struktura, rivojlanish, innovatsion rivojlanish, imkoniyat, tizim.

Аннотация. В статье анализируются особенности цифровизации, которая постепенно становится неотъемлемой частью каждой сферы повседневной жизни, как важный фактор инновационного развития Нового Узбекистана.

Ключевые слова: цифровизации, цифровая экономика, изменение, структура, развитие, инновационное развитие, возможность, система.

Abstract. This article analyzes the peculiarities of digitalization, which is gradually becoming an integral part of every sphere of everyday life, as an important factor in the innovative development of New Uzbekistan.

Key words: digitalization, digital economy, change, structure, development, innovative development, opportunity, system.

Yangi O‘zbekistonning kelgusi taraqqiyotini ilm-fan, ilmiy, ijtimoiy-gumanitar texnologiyalar, raqamli iqtisodiyot asosida boshqarish tashkil etadi. SHu sababli, Harakatlar strategiyasini amalga oshirishda axborotni yaratish, qayta ishlash, almashish va uzatish texnologiyalariga asoslangan raqamlashtirish jarayonlari amalga oshirilmoqda. Albatta, bugun zamon shiddat bilan rivojlanib borayotgan hozirgi davrda taraqqiyotga erishish uchun raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini egallashimiz kerak. Bu esa kelajakda mamlakatimizdagi ilm-fanni yanada ravnaq toptirish, yoshlarimizni chuqur bilim, yuksak ma’naviyat va madaniyat egasi etib tarbiyalash, raqobatbardosh iqtisodiyotni shakllantirish borasida boshlagan demokratik islohotlarni jadal davom ettirish va yangi, zamonaviy bosqichga ko‘tarish imkonini beradi.

Raqamlashtirish tushunchasi "raqamli vositalar yordamida aloqa, yozuv, ma’lumotlarni uzatishning raqamli usuli"dir. Darhaqiqat, raqamlashtirish jarayonida ma’lumotlarning sifati va mazmunida hech qanday o‘zgarish bo‘lmaydi, shunchaki raqamli formatda keyinchalik qayta ishlash uchun elektron shaklga aylantiriladi, bu bizga mavjud bo‘lgan biznes jarayonlarni ularga raqamli formatga ma’lumot qo‘shish orqali takomillashtirishga imkon beradi.

Hozirgi vaqtda "raqamlashtirish" atamasi tor va keng ma’noda qo‘llanilmoqda. Tor ma’noda raqamlashtirish axborotning raqamli shaklga aylanishini anglatadi, bu ko‘p holatlarda xarajatlarning pasayishiga, yangi imkoniyatlarning paydo bo‘lishiga olib keladi. Keng ma’noda «raqamlashtirish» jarayoni, odatda, raqamli texnologiyalarni keng qo‘llash va assimilyatsiya qilish tashabbusi bilan boshlangan ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishni anglatadi. Unga axborotni yaratish, qayta ishlab almashish va uzatish texnologiyalari kiradi.

A. Marey fikricha, “raqamlashtirish - bu bizning fikrlash tarzimiz, harakatimiz, atrof-muhit va bir-birimiz bilan aloqa qilishimizning paradigmal o‘zgarishi”. Ya’ni, raqamlashtirishni aloqa va o‘zaro munosabat paradigmasining o‘zgarishidir. SHuningdek, raqamlashtirish bu “nafaqat ma’lumotni raqamlashtirish, balki infratuzilmaviy, boshqaruv, xulq-atvor, madaniy tabiatning kompleks yechimi”dir. Bundan esa aytish mumkinki, Internet va mobil aloqani rivojlantirish raqamlashtirishning asosiy texnologiyalaridir.

Raqamli texnologiyalar, bir tomondan, ishlab chiqarish hajmi va samaradorligini yanada oshirishga yordam beradi, boshqa tomondan, ular turli sohalarda individual yondashishga imkon beradi. Zero, hozirgi murakkab davrda yangi O‘zbekiston uchun an’anaviy iqtisodiyotni imkon qadar zamonaviy axborot, intellektual, raqamli iqtisodiyotga aylantirish juda muhimdir. Bu esa innovatsion rivojlanish yo‘lidir.

Ma’lumki, oxirgi yillarda bizning mamlakat innovatsion rivojlanish yo‘lini tanladi. Mamlakatni innovatsion yo‘l bilan rivojlanishi eskilikning qarshiligini yengilishi bilan bog‘liq. Darhaqiqat, bugungi kunda mamlakat rivojlanishning sifat jihatdan yangi bosqichiga kirdi. Shu sababli mamlakatning ham siyosiy, ham ijtimoiy, ham iqtisodiy sohalarida o‘zgarishlar yuz berdi va hozirda yuz bermoqda. Ayniqsa, mamlakatimizda olib borilayotgan keng ko‘lamli islohotlar natijasida mamlakatdagi o‘zgarishlar xalqimiz hayoti va kundalik turmushida o‘zining ifodasini topmoqda. Chunki, “bugun biz davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini tubdan yangilashga qaratilgan innovatsion rivojlanish yo‘liga o‘tmoqdamiz”. Albatta, zamon shiddat bilan rivojlanib borayotgan hozirgi davrda yangi fikr, yangi g‘oyaga, innovatsiyaga tayangan mamlakatlargina olg‘a bormoqda, rivojlanmoqda. SHu sababli ham 2019 yil yurtimizda “Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili” deb nomlandi.

SHuni ta’kidlash lozimki, raqamli iqtisodiyot Harakatlar strategiyasini amalga oshirishda muhim rol o‘ynaydi. 2019 yildagi “Faol investitsiya va ijtimoiy rivojlanish yili” dasturida raqamli iqtisodiyotning milliy kontseptsiyasini ishlab chiqish vazifasini qo‘ydi. Bu esa iqtisodiyotning barcha tarmoqlarini raqamli texnologiyalar asosida modernizatsiya qilishni nazarda tutadi. SHu bilan birga, “Raqamli O‘zbekiston-2030” dasturini amalga oshirish maqsadi qo‘yildi. Ta’kidlash joizki, raqamli iqtisodiyotning iqtisodiyotdagi o‘rni zamonaviy dunyoda mamlakatlarning raqobatdoshligini aniqlashda muhim rol o‘ynaydi. Biz iqtisodiyotning qaysi sektoriga qaramasdan, hamma narsada raqamli texnologiyalarning o‘rnini ko‘ramiz. Xususan, biz innovatsion raqamli texnologiyalarning mamlakatimiz bank tizimidagi ulushini, shuningdek, davlat xizmatlari darajasida ko‘rmoqdamiz.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. G‘affarova, G; Qodirov B. Harakatlar Strategiyasi Va Tizimli Yondashuv. Scientific journal of the Fergana State University 2020-yil 47-51 betlar

2. Кодиров Б.С. Theoretical and practical basis of innovative development of Uzbekistan. European science review, Premier Publishing s.r.o. Vienna. 1-2 (8), 2021, - P.112-117.
3. Кодиров Б.С. Важность стратегии действий в инновационном развитии. ISJ Theoretical & Applied Science, 2021. 08 (100), -С.75-78.
4. Кодиров Б.С. Важность стратегии действий в инноватsионном развитии. ISJ Theoretical & Applied Science, 2021. 08 (100), -С.75-76.
5. Кодиров Б.С. Theoretical and practical basis of innovative development of Uzbekistan. European science review, Premier Publishing s.r.o. Vienna. 1-2 (8), 2021, - P.112-116.
6. Kodirov B.S. Theoretical and practical bases of innovative development of Uzbekistan // Scientific Bulletin of Namangan State University. - 2020. – T.1. –№5, - C.505-511

RAQAMLASHTIRISH INNOVATSION RIVOJLANISH ASOSI

B.Shamsiddinov (PhD)
B.Qodirov (PhD)
Qo‘qon davlat pedagogika insituti,
Tel: +998911426119, Barxayot_@mail.ru

Annotatsiya. Mazkur maqolada asta-sekin kundalik hayotning har bir sohasini ajralmas qismiga aylanib borayotgan raqamlashtirishning o‘ziga xos xususiyatlari, uni Yangi O‘zbekistonni innovatsion rivojlanishining muhim omili ekanligi tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: raqamlashtirish, raqamli iqtisodiyot, o‘zgarish, struktura, rivojlanish, innovatsion rivojlanish, imkoniyat, tizim.

Аннотация. В статье анализируются особенности цифровизации, которая постепенно становится неотъемлемой частью каждой сферы повседневной жизни, как важный фактор инновационного развития Нового Узбекистана.

Ключевые слова: цифровизации, цифровая экономика, изменение, структура, развитие, инновационное развитие, возможность, система.

Annotation. This article analyzes the peculiarities of digitalization, which is gradually becoming an integral part of every sphere of everyday life, as an important factor in the innovative development of New Uzbekistan.

Key words: digitalization, digital economy, change, structure, development, innovative development, opportunity, system.

Bugungi kunda raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi ko‘p qirrali jarayon bo‘lib innovatsion rivojlanishning asosini tashkil etmoqda. Raqamli iqtisodiyot ijtimoiy hayotning barcha sohalariga jumladan, insonlarning o‘zaro munosabatlari, ilmiy

tadqiqot, fan, ta’lim, bilimlarni generatsiya qilish, insonning bilish jarayonlariga katta ta’sir o‘tkazmoqda. Shu sababli raqamli iqtisodiyot - bu yangi O‘zbekiston rivojlanishi uchun yangi paradigmani belgilaydigan global tendentsiyadir. Bunda asosiy vazifalardan biri - insonlarni mamlakatda yuz berayotgan raqamlashtirish jarayonlariga ilmiy, amaliy va fuqarolik qarashlarini yetkazish, iqtisodiy o‘sish uchun imkoniyatlarni izlash, integratsiya va ulkan sinergetik effektga erishish orqali hayot darajasi va sifatini yaxshilash zarur.

Bugungi kunda raqamli iqtisodiyot tushunchasining yagona ta’rifi qabul qilinmagan. Ammo, axborot jamiyati nazariyasining tarafdorlari tomonidan raqamli iqtisodiyot axborot jamiyatining ikkinchi bosqichi ekanligi ta’kidlanmoqda. Darhaqiqat, “raqamli iqtisodiyot (digital economy) –elektron biznes, elektron kommertsiya va raqamli texnologiyalarga asoslangan holda tovar xizmat ko‘rsatuvchi olimlar tomonidan e’tirof etilayotgan iqtisodiyot modeli” hisoblanadi.

Raqamli iqtisodiyotning asosiy xarakterli belgisi unda jamiyat a’zolarining barcha ehtiyojlari axborotlarni qayta ishlash, ularni ishlab chiqarish vositasida qondiriladi. SHu ma’noda raqamli iqtisodiyotni keng ma’noda raqamli axborot kommunikatsion texnologiyalarga asoslangan iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy munosabatlarning tizimi deb tushunish mumkin. Bunday iqtisodiyotning asosiy komponentlari elektron biznes infrastrukturasi; elektron biznes; elektron savdo tashkil etadi.

Raqamli iqtisodiyotning asosiy elementini esa internet tashkil etadi. Mazkur komponentlarning amal qilishi iqtisodiy tizimdagi raqamli transformatsiyani keltirib chiqardi va bu jarayonni olimlar to‘rtinchi sanoat inqilobi sifatida baholamoqdalar. SHuni aytish kerakki, raqamli iqtisodiyotning inson hayotiga ijobiy va salbiy tomonlari ham bor.Raqamli iqtisodiyotda iste’molchilar zarur bo‘lgan xizmat va tovarlarni internet vositasida sotib olishi va xizmatlardan arzonroq tarzda foydalanishi mumkin. Masalan, kitoblarning elektron nashrlari bosma nashrdan ko‘ra bir necha bor arzonga tushishi mumkin. SHuningdek, iste’molchi uydan chiqmasdan turib tadbirkorlik qilishi ham mumkin.

Aytish kerakki, bugungi kunda raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi ko‘p qirrali jarayon bo‘lib, “innovatsion rivojlanishning asosini tashkil etmoqda”. Raqamli iqtisodiyot ijtimoiy hayotning barcha sohalariga jumladan, insonlarning o‘zaro munosabatlari, ilmiy tadqiqot, fan, ta’lim, bilimlarni generatsiya qilish, insonning bilish jarayonlariga katta ta’sir o‘tkazmoqda. SHu sababli “raqamli iqtisodiyot - bu O‘zbekiston rivojlanishi uchun yangi paradigmani belgilaydigan global tendentsiyadir” [9, 98]. Bunda asosiy vazifalardan biri - insonlarni mamlakatda yuz berayotgan raqamlashtirish jarayonlariga ilmiy, amaliy va fuqarolik qarashlarini yetkazish, iqtisodiy o‘sish uchun imkoniyatlarni izlash, integratsiya va ulkan sinergetik effektga erishish orqali hayot darajasi va sifatini yaxshilash zarur. SHuningdek, raqamli iqtisodiyotda tashkilotlarning va birinchi navbatda iqtisodiyotning real sektori korxonalarining zamonaviy компьyuter va axborot tizimlaridan foydalanishi ularning samarali faoliyat ko‘rsatishi uchun muhim shartdir.

Aytish kerakki, ijtimoiy rivojlanishda raqamlashtirish va iqtisodiyotni raqamli o‘zgartirish ta’lim tizimiga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatmoqda. Bu esa ta’lim sohasida raqamli ko‘nikmalarni shakllantirish va ulardan foydalanish zaruriyatini, raqamli voqelikni o‘zlashtirishning yangi shakllarini moslashtirish va rivojlantirishni talab qilmoqda. SHuningdek, ijtimoiy rivojlanishning zamonaviy manbalaridan biri uzluksiz kasbiy ta’lim tizimini tashkil etish, aholini bilimlarini faol ravishda yangilash va talab qilinadigan kompetentsiyalarni shakllantirish[6] zaruriyatini vujudga keltirmoqda. Bunda “o‘z o‘zini tashkillashtiruvchi tizimlar” hamda “ilmiy bilishda fanlararo yondashuvning” falsafiy masalalarini kengroq yoritish lozim bo‘ladi. Bu jarayonlar jamiyatning evolyutsiyasi, insonning kognitiv imkoniyatlarining evolyutsiyasi, inson intellektining evolyutsiyasini namoyon etishga imkon beradi. Shu sababli Harakatlar strategiyasining g‘oyalarini amaliyotga tadbiq qilish uchun yangi nuqtai-nazar, yondashuvlar, ijtimoiy-iqtisodiy muhitda shakllantirilmoqda.

Aytish kerakki, ijtimoiy rivojlanishda raqamlashtirish va iqtisodiyotni raqamli o‘zgartirish ta’lim tizimiga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatmoqda. Bu esa ta’lim sohasida raqamli ko‘nikmalarni shakllantirish va ulardan foydalanish zaruriyatini, raqamli voqelikni o‘zlashtirishning yangi shakllarini moslashtirish va rivojlantirishni talab qilmoqda. SHuningdek, ijtimoiy rivojlanishning zamonaviy manbalaridan biri uzluksiz kasbiy ta’lim tizimini tashkil etish, aholini bilimlarini faol ravishda yangilash va talab qilinadigan kompetentsiyalarni shakllantirish zaruriyatini vujudga keltirmoqda. Albatta, respublikamizdagi barcha sohalarni rivojlantirish uchun yangi, innovatsion, integrativ bilimlar zarur bo‘lib, yoshlarimizning ana shunday bilimlarni egallashlari va ishlab chiqarishlarini ta’minlash epistemologik zaruriyatdir.

“Besh tashabbus” loyihasini amalga oshirish doirasida 2022 yilga qadar respublikaning barcha hududlarida raqamli bilimlarga o‘qitish markazlarini ochish kabi vazifalarni amalga oshirish masalalari ilgari surilgan. Bunda asosiy vazifalardan biri - insonlarni mamlakatda yuz berayotgan raqamlashtirish jarayonlariga ilmiy, amaliy va fuqarolik qarashlarini yetkazish, iqtisodiy o‘sish uchun imkoniyatlarni izlash, integratsiya va ulkan sinergetik effektga erishish orqali hayot darajasi va sifatini yaxshilash zarur.

Demak, biz respublikamizni innovatsion rivojlantirish yo‘liga o‘tgan ekanmiz, inson kapitalini va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishimiz talab etiladi. Zero, hozirgi murakkab davrda O‘zbekiston uchun an’anaviy iqtisodiyotni imkon qadar zamonaviy axborot, intellektual, raqamli iqtisodiyotga aylantirish juda muhimdir. Bu esa rivojlanish yo‘lidir. Aks holda, keyingi ijtimoiy-iqtisodiy inqirozlar natijada siyosiy nomutanosiblik muqarrar bo‘lib, bu o‘z navbatida ijobiy teskari aloqa sifatida harakat qilishi va mamlakatni texnologik, keyin esa ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanayotgan mamlakatlardan orqada qoldirishi mumkin.

Yuqoridagilardan aytish mumkinki, zamonaviy davr o‘zining beqarorligi, tez o‘zgaruvchanligi, noaniqliklari, murakkabliklari bilan ajralib turadi. Bugungi kunda butun dunyoda kuzatilayotgan pandemiya ham respublikamizdagi ijtimoiy tizimning barcha jabhalariga ta’sir etdi. Umuman olganda, bugungi kunda raqamli

texnologiyalar va tarmoq effektlari jahon iqtisodiy tizimining barcha sub'ektlari ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayotining ajralmas qismi hamda ijtimoiy taraqqiyot asosidir.

Adabiyotlar ro'yxati

1. G'affarova, G; Qodirov, B. Harakatlar strategiyasi va tizimli yondashuv. Scientific journal of the Fergana State University 2020-yil 47-51 betlar
2. Кодиров Б.С. Theoretical and practical basis of innovative development of Uzbekistan. European science review, Premier Publishing s.r.o. Vienna. 1-2 (8), 2021, - P.112-117.
3. Кодиров Б.С. Важность стратегии действий в инноватsионном развитии. ISJ Theoretical & Applied Science, 2021. 08 (100), -С.75-78.
4. G'affarova, G; Qodirov, B. Harakatlar strategiyasi va tizimli yondashuv. Scientific journal of the Fergana State University 2020-yil 51 betlar
5. Kodirov B.S. Theoretical and practical basis of innovative development of Uzbekistan. European science review, Premier Publishing s.r.o. Vienna. 1-2 (8), 2021, - P.112-115.
6. Kodirov B.S. Theoretical and practical bases of innovative development of Uzbekistan // Scientific Bulletin of Namangan State University. - 2020. – T.1. –№5, - C.505-511

IJTIMOIY BOSHQARUV MA'NAVIY ASOSLARINING ILMIY-NAZARIY TAHLILI

Mansurova Malohat Yunus qizi
Navoiy davlat pedagogika instituti "Ijtimoiy fanlar" kafedrasi tayanch doktaranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada ijtimoiy boshqaruv tushunchasi, uning mazmun-mohiyati keng yoritib berilgan. Shuningdek, har qanday sohada ijtimoiy boshqaruv muammolarini samarali hal qilish uchun aholini keng jalb qilish, kompleks dasturlarni ishlab chiqish, ijtimoiy boshqaruv muvaffaqiyatini oshirish uchun axborot texnologiyalaridan foydalanish, ijtimoiy boshqaruvni rivojlantirish va samaradorligini oshirishga qaratilgan dasturlarni yetarli darajada moliyalashtirish zarur ekanligi ko'rsatib berilgan. Jamiyatdagi ijtimoiy barqarorlik va farovonlikni – aynan shunday qadamlar orqali hal etish bilan ham e'tiborli ekanligi ko'rsatib berilgan.

Kalit so'zlar: ijtimoiy boshqaruv, davlat boshqaruvi, munitsipal boshqaruv, tijorat boshqaruvi, taraqqiyot, jamiyat, menejment, struktura.

Аннотация. В данной статье широко раскрыто понятие социального управления, его суть. Также было показано, что для эффективного решения задач социального управления в любой сфере необходимо широко привлекать

население, разрабатывать комплексные программы, использовать информационные технологии для повышения успешности социального управления, адекватно финансировать программы, направленные на развитие и повышение эффективности социального управления. Показано, что при решении таких шагов можно учитывать социальную стабильность и благополучие

Ключевые слова: социальный менеджмент, государственное управление, муниципальное управление, коммерческое управление, развитие, общество, управление, структура.

Abstract. In this article, the concept of social management, its essence is widely explained. Also, it was shown that in order to effectively solve the problems of social management in any field, it is necessary to involve the population widely, develop complex programs, use information technologies to increase the success of social management, and adequately finance programs aimed at developing and increasing the effectiveness of social management. It has been shown that the social stability and well-being of the society can be taken into consideration by solving such steps.

Keywords: social management, public management, municipal management, commercial management, development, society, management, structure.

Zamonaviy dunyoda ijtimoiy boshqaruv tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda, chunki globallashuv va jadal texnologik taraqqiyot jamiyatda doimiy o‘zgarishlarga olib keladi. Ijtimoiy boshqaruv jamiyatni yangi muammolarga moslashtirish va noaniqlik sharoitida murakkab jarayonlarni boshqarish uchun zarur bo‘ladi.

Ijtimoiy boshqaruv - bu jamiyatdagi ijtimoiy jarayonlarni boshqarishga qaratilgan chora-tadbirlar majmuidir. Menejerlar oldida turgan maqsad va vazifalarning o‘ziga xos xususiyatlariga qarab, ijtimoiy boshqaruvning bir nechta turlarini ajratish mumkin.[1.317-b.]

Davlat boshqaruvi o‘z ichiga davlatning iqtisodiyot, ijtimoiy siyosat, xavfsizlik va boshqa ko‘plab sohalarda o‘z oldiga qo‘ygan vazifalarini amalga oshirishni ta’minlash imkonini beruvchi vositalar va mexanizmlar majmuasini o‘z ichiga oladi. Davlat boshqaruvi vositalari to‘g‘ridan-to‘g‘ri va bilvosita, aniq va yashirin, unitar va murakkab, bir martalik yoki vaqt bo‘yicha davom etadigan, to‘liq va qisman, institutsional va institutsional bo‘lishi mumkin.

Davlat boshqaruvi o‘z ichiga davlatning iqtisodiyot, ijtimoiy siyosat, xavfsizlik va boshqa ko‘plab sohalarda o‘z oldiga qo‘ygan vazifalarini amalga oshirishni ta’minlash imkonini beruvchi vositalar va mexanizmlar majmuasini o‘z ichiga oladi. Davlat boshqaruvi vositalari to‘g‘ridan-to‘g‘ri va bilvosita, aniq va yashirin, unitar va murakkab, bir martalik yoki vaqt bo‘yicha davom etadigan, to‘liq va qisman, institutsional va institutsional bo‘lishi mumkin.

Davlat boshqaruvining asosiy elementlari davlat siyosatidir. Davlat siyosatining asosiy vositalaridan biri qonunchilikdir. Qonunlar va me'yoriy hujjatlar jamoat munosabatlarining barcha ishtirokchilari uchun qoidalarni belgilaydi va

ularning xatti-harakatlarini tartibga soladi. Ular fuqarolarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, qonuniylik va tartibni ta’minlash vositasi hamdir.

Davlat boshqaruvining yana bir muhim elementi ma’muriy faoliyatdir. Boshqaruv faoliyati - bu davlatning samarali faoliyat yuritishini ta'minlash va uning oldida turgan vazifalarni bajarishga qaratilgan harakatlar majmuidir.[2.199-b.]

Munitsipal boshqaruv - bu mahalliy darajada amalga oshiriladigan va hududni obodonlashtirish bilan bog‘liq muammolarni hal qilishga qaratilgan boshqaruv tizimi; davlat xizmatlarini ko‘rsatish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish. Shahar va aholi punktlari aholisiga kommunal, transport, sog‘liqni saqlash, ta'lim va madaniyatni o‘z ichiga olgan sifatli xizmatlarni taqdim etish shahar hokimiyatining asosiy vazifalaridan biridir.

Ijtimoiy boshqaruvning uchinchi turi tijorat boshqaruvidir. U ijtimoiy masalalar bilan shug‘ullanuvchi va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatadigan xususiy kompaniya va tashkilotlarning faoliyatini o‘z ichiga oladi. Tijorat boshqaruvi fuqarolarning davlat yoki shahar hokimiyati tomonidan qondirilmaydigan ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan.

Bunga misol qilib xususiy oliy ta’lim muassasasini keltirish mumkin.

Davlat boshqaruvi jamiyatdagi ijtimoiy jarayonlarni boshqarishga qaratilgan jamoat tashkilotlari va tashabbuskor guruhlar faoliyatini o‘z ichiga oladi. Davlat boshqaruvi ijtimoiy harakatlar, notijorat tashkilotlar, kasaba uyushmalari, siyosiy partiyalar va boshqa jamoat institutlari orqali amalga oshiriladi. Davlat boshqaruvi fuqarolar manfaatlarini himoya qilishga, muhim qarorlar qabul qilishda ishtirok etishga, davlat va tijorat tuzilmalari faoliyatini nazorat qilishga qaratilgan.

Zamonaviy jamiyat yanada murakkab va xilma-xil bo‘lib, ijtimoiy boshqaruv sohasida bir qator muammolarni keltirib chiqardi. Aholining muammolari va ehtiyojlariga yetarlicha e'tibor berilmayotganligi, bu esa o‘z navbatida ijtimoiy xizmatlarning notekis taqsimlanishi va ulardan yetarli darajada foydalana olmasligida namoyon bo‘lmoqda.

Yana bir muammo - ijtimoiy boshqaruvga kompleks yondashuvning yo‘qligi. Qarorlar ko‘pincha yakka holda qabul qilinadi, natijada to‘liq muvaffaqiyatga erishilmaydi.

Bundan tashqari, zamonaviy texnologiyalar, jumladan, internet, ijtimoiy tarmoqlar va messenjerlar fuqarolarning ijtimoiy boshqaruv tizimi bilan o‘zaro munosabatlarida o‘zgarishlarga olib keldi. Bu yangi qonunlar, qoidalar va imkoniyatlardan xabardorlikni ta'minlash, muloqot bilan bog‘liq muammolarni keltirib chiqaradi.

Har qanday sohada ijtimoiy menejment muammolarini samarali hal qilish uchun aholini keng jalb qilish, kompleks dasturlarni ishlab chiqish, ijtimoiy boshqaruv muvaffaqiyatini oshirish uchun axborot texnologiyalaridan foydalanish, ijtimoiy boshqaruvni rivojlantirish va samaradorligini oshirishga qaratilgan dasturlarni yetarli darajada moliyalashtirish zarur. Jamiyatdagi ijtimoiy barqarorlik va farovonlikni – aynan shunday qadamlar orqali hal etish mumkin.

Zamonaviy jamiyatda ijtimoiy boshqaruv muhim rol o‘ynaydi, chunki u ijtimoiy adolatni ta'minlash, aholining zaif toifalarini qo‘llab-quvvatlash va boshqa

ijtimoiy muammolarni hal qilishga yordam beradi. Ijtimoiy boshqaruvning har bir turi o‘ziga xos afzallik va kamchiliklarga ega, shuning uchun samarali boshqaruvga faqat boshqaruvning barcha turlarining o‘zaro ta'siri orqali erishish mumkin. Biroq, zamonaviy texnologiyalarning rivojlanishi va jamiyatdagi o‘zgarishlar bilan ijtimoiy boshqaruv bir qator muammolarga duch keldi, ularning hal qilinishi jamiyatning keyingi rivojlanishi uchun dolzarb va zarurdir.

Ijtimoiy boshqaruvning uchta asosiy yo‘nalishi mavjud:

1. Ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarni boshqarish - boshqaruv dasturlarini amalga oshirish ustidan ijtimoiy nazoratni ta'minlash, odamlarning iqtisodiy faoliyati uchun motivatsiyani yaratish, shuningdek, iqtisodiy munosabatlar sohasidagi odamlarning xatti-harakatlarini tartibga solish.
2. Jamiyatning siyosiy jarayonlarini boshqarish - yetakchi siyosiy strategiyani belgilash va uni amalga oshirish rejasini ishlab chiqish
3. Jamiyatning ma’naviy sohasi – ta’lim va tarbiya jarayonlarini boshqarish, kelajak avlodni jamiyat hayotiga faol jalb etish yo‘llarini ishlab chiqish.

Ijtimoiy boshqaruvning xarakterli xususiyatlaridan biri shundaki, bu tizim ham sub’yekt, ham ob’yekt sifatida harakat qilish qobiliyatiga ega bo‘lib, bu boshqaruv va boshqariladigan tizimlarni bir vaqtning o‘zida ko‘rib chiqish zarurligini ta'minlaydi.

Shunday qilib, jamiyatni ijtimoiy boshqarish inson hayotining eng muhim jihatlaridan biridir, chunki bu jarayon tufayli jamiyat rivojlanishi va o‘z maqsadlariga erishishi mumkin.

Yuqoridagi fikrlarning rivojlanishini Foma Akvinskiy, T.More, N.Makiavelli, T.Gobbes, T.Kampanella kabi tadqiqotchilarning asarlarida uchratamiz. J.J. Russo, J. Lokka bu fanni “kibernetika” deb atagan [3.16-b.].

Bugungi kunda jamiyatining birligini va uning ajralmas ijtimoiy tizim sifatida ishlashini mustahkamlash uchun ko‘plab mustaqil boshqaruv sub’yektlarining ma'naviy va boshqaruv sa'y-harakatlarini va amaliy boshqaruv o‘zaro munosabatlarini muvofiqlashtirishga bo‘lgan ehtiyoj ortib bormoqda.

Xulosa qilib aytganda, ijtimoiy tizimning yaxlitligi va tuzilishini, uning optimal ishlashi va rivojlanishini takomillashtirishga qaratilgan maxsus organlar va tashkilotlar orqali amalga oshiriladigan ijtimoiy jarayonlarga maqsadli ta'sir ko‘rsatish sifatida tushuniladigan ijtimoiy boshqaruv aniqlik va qo‘shimchalarni talab qiladi. Ijtimoiy boshqaruvning maqsadlarini belgilash uning maqsadga muvofiqligi, ijtimoiy va boshqaruv jarayoni nomidan tashkil etilgan jamiyat fuqarolarining manfaatlari va ideallari bilan bog‘liq bo‘lishi kerak.

Foydalanilgan manba va adabiyotlar:

1. Николаев А. А. Социология управления: учебник. М. : ИНФРА-М, 2019. 317 с. УРЛ: https://new.znanium.com/document?id=343258 (дата обращения: 22.05.2023).
2. Тавокин Е. П. Основы социалного управления : учебное пособие для студентов высших учебных заведений. М. : ИНФРА-М, 2018. 199 с.

3. Мухаев Р.Т. Французова Л.В. Социология: Конспект лексий. – М.: ПРИОР, 2004. – С.16

YOSHLARDA MAFKURAVIY IMMUNITETNI SHAKLLANTIRISHDA G‘OYAVIY TARBIYANING AHAMIYATI

Mamadieva Nilufar Xalilovna
Toshkent davlat texnika universiteti
“Falsafa va milliy g‘oya” kafedrasi katta o‘qituvchisi

Annotasiya. Maqolada yoshlarda mafkuraviy immunitetni shakllantirish va ularni axloqiy barkamol qilib tarbiyalashda g‘oyaviy tarbiyaning ahamiyati tahlil etilgan. G‘oyaviy tarbiya axloqiy, siyosiy, huquqiy tarbiyaning asosi ekanligi ko‘rsatib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: globallashuv, g‘oya, tahdid, mafkuraviy immunitet, g‘oyaviy tarbiya, milliy g‘oya.

Аннотация. В статье анализируется значение идеологического воспитания в формировании идеологического иммунитета молодежи и ее нравственном воспитании. Показано, что идеологическое воспитание является основой нравственного, политического и правового воспитания.

Ключевые слова: глобализация, идея, угроза, идеологический иммунитет, идеологическое воспитание, национальная идея.

Annotation. The article analyzes the importance of ideological education in the formation of the ideological immunity of young people and their moral education. It is shown that ideological education is the basis of moral, political and legal education.

Keywords: globalization, idea, threat, ideological immunity, ideological education, national idea.

Hozirgi globallashuv jarayoni kechayotgan bir davrda uning ijobiy tomonlari bilan bir qatorda salbiy jihatlariga ham albatta befarq bo‘lmasligimiz lozim. Chunki globallashuv jarayonida fan va texnikaning ilg‘or yutuqlari orqali o‘zining g‘arazli maqsadlariga erishishga harakat qilayotgan yovuz kuchlar insonlar va jamiyat hayotiga jiddiy tahdid solmoqda. Mamlakatimiz prezidenti Sh.Mirziyoev bu jshunday fikrlarni bildiradi: “Barchangizga ayon, hozirgi kunda dunyo miqyosida beshafqat raqobat, qarama-qarshilik va ziddiyatlar tobora keskin tus olmoqda. Diniy ekstremizm, terrorizm, giyohvandlik, odam savdosi, noqonuniy migrasiya, “ommaviy madaniyat” kabi havf-xatarlar kuchayib, odamzot asrlar davomida amal qilib kelgan e'tiqodlar, oilaviy qadriyatlarga putur etkazmoqda” [1].

Shu sababli kishilarni, ayniqsa, yoshlarni bunday havf-xatar va tahdidlardan himoya qilish uchun ularga avvalo g‘oyaviy tarbiya zarurdir. Chunki yoshlar ongida g‘oyaviy bo‘shliq paydo bo‘lsa, g‘araz niyatli kimsalar tuzog‘iga osonlik bilan ilinib, ularning noto‘g‘ri tashviqotlariga aldanib qoladilar. G‘oyaviy tarbiya axloqiy,

siyosiy, huquqiy tarbiyaning asosini tashkil etadi. Har qanday axloqiy, siyosiy, huquqiy tarbiya muayyan g‘oyani himoya qilish, targ‘ib etishga qaratilgan bo‘ladi. Xususan, hozirgi globallashuv sharoitida yovuzlik, behayolik, shafqatsizlikni targ‘ib etish orqali yoshlarni axloqiy jihatdan buzishga qaratilgan filmlarda jamiyat barqarorligiga rahna soluvchi g‘oyaviy maqsad yashiringandir. Ongi shakllanib ulgurmagan aksariyat yoshlar bunday filmlardan ko‘pincha turli yovuzlik, yirtqichlik, shafqatsizliklarni o‘rganadi, natijada ularning qalbidan toshbag‘irlik, zo‘ravonlik, axloqsizlik kabi illatlar joy oladi. Hattoki shunday tomosha va filmlarning qahramonlariga ko‘r-ko‘rona taqlid qilishadi. Binobarin, g‘oyalar oshkora yoki yashirin, bevosita yoki bilvosita, to‘g‘ridan-to‘g‘ri yoki ramziy shakllarda targ‘ib etilishi mumkin. “Ma'naviyat, g‘oya va mafkuralar ko‘rinishida yuzaga kelgan tahdidlarning barchasi ong va dunyoqarashga joylashadigan bo‘lsa, u asta-sekin moddiylikka aylanadi. Bu tahdidning nazariy jaayon sifatidagi jihati hisoblanadi. Ularning barcha ko‘rinishi taraqqiyot uchun nioyatda xatarlidir” [2].

Inson faoliyati aniq bir g‘oyaviy maqsadga yo‘naltirilgan bo‘lib, bu niyat ko‘pincha ko‘zga tashlanmaydi. G‘oyaviy tarbiyaning asosiy maqsadi kishilarda xushyorlik, sezgirlik hissini shakllantirish, yot va zararli g‘oyalarga qarshilik ko‘rsatish qobiliyatini shakllantirishdan iboratdir. G‘oyaviy tarbiya jarayonida kishilarda yot va zararli g‘oyalarga qarshi kurashish uchun mafkuraviy immunitetni shakllantirishga alohida e'tibor beriladi.

Mafkuraviy immunitetni shakllantirish kishilar ongiga bir xil g‘oyani zo‘r berib tiqishtirish emas, balki odamlarda oq-qorani ajratish, zararli g‘oyalarga qarshi hushyor va ogoh bo‘lish xususiyatlarini tarbiyalash demakdir. Bu borada yurtboshimizning quyidagi fikrlari g‘oyat o‘rinlidir: “Ma'lumki, yosh avlod tarbiyasi hamma zamonlarda ham muhim va dolzarb ahamiyatga ega bo‘lib kelgan. Ammo biz yashayotgan XXI asrda bu masala haqiqatan ham hayot-mamot masalasiga aylanib bormoqda.

“Tarbiya qancha mukammal bo‘lsa, xalq shuncha baxtli yashaydi”, deydi donishmandlar. Tarbiya mukammal bo‘lishi uchun esa bu masalada bo‘shliq paydo bo‘lishiga mutlaqo yo‘l qo‘yib bo‘lmaydi”. [3] Tarbiyalangan odam o‘zining kim ekanini, amalga oshirayotgan kundalik xatti-xarakatlari, amallari, o‘y-fikrlari o‘zi va o‘zgalar uchun qanchalik manfaatli, foydali ekanini anglaydi, o‘zini noxush kayfiyatlardan tiyadi va nazorat qiladi. Tarbiyasiz odam esa, afsuski, o‘z amallari nafaqat o‘zgalarga, hatto, o‘ziga ham ziyon, befoyda, bema'ni ekanini anglamaydi.

Yoshlar ongida mafkuraviy immunitetni shakllantirishning asosiy usullaridan biri ularni milliy qadriyatlarga sodiqlik ruhida tarbiyalashdir. O‘tmishdagi bobolarimiz qoldirgan meros, madaniy boyliklar, mumtoz qadriyatlarni hurmat qilish, ularni o‘rganish bu tamoyilning asosiy jihatlaridan biridir. Milliy g‘oya kishilar ongiga singdirilishi bilan ularda Vatan taqdiri uchun mas'ullik, yagona Vatan tuyg‘usi shakllanadi. Har bir millatning tili, qadriyatlari, urf-odatlari, an'analarini hurmat qilishni ta'minlash milliy g‘oyaning amal qilishida umuminsoniy andozalar namoyon bo‘lishi uchun asoslar yaradi. Milliy g‘oyaga xos ilk tushunchalar inson qalbi va ongiga, avvalo, oila muhitida singadi. Bu jarayon bobolar o‘giti, ota ibrati, ona mehri orqali amalga oshiriladi. Oila, uning asrlar

mobaynida saqlanib kelayotgan muqaddas an'analari orqali yoshlarda Vatanga muhabbat, iymon-e'tiqod, mas'uliyat, vatanparvarlik, insonparvarlik, ilmga ishtiyoq va madaniyat koʻnikmalari shakllanadi. Bolalarda yoshlikdan xalq va yurt taqdiri uchun fidoiylik tuygʻusini shakllantirish gʻoyaviy tarbiyada muhim oʻrin tutadi. Buning uchun bola hayotining dastlabki yillaridan boshlab uni narsalar olami bilan tanishtirishning milliy an'analarimizga xos shakllarini qoʻllash lozim. Bu jarayonda milliy turmush tarzimizga yot boʻlgan "jangari" oʻyinchoqlar, multfilmlar, kinofilmlardan foydalanmaslik kerak. Sharqona odob va bashariyatning ezgu intilishlarini aks ettiruvchi oʻyinchoqlar, rasmli kitobchalar, milliy ertaklar asosida yaratilgan multfilmlar bolalardagi ilk yoshlikdan mafkuraviy qarashlarning toʻgʻri shakllanishida qoʻl keladi.

Tarbiya shakllarini amalga oshirishning eng qulay yoʻli ota-onalarning ma'naviy bilim saviyasini oshirish, sogʻlom tafakkurni shakllantirishdir. Bu oilaviy munosabatlar doirasida milliy urf-odat va an'analarimizni turmushga singdirish orqali bolalarda milliy qadriyatlarga mehr-muhabbat uygʻotishni, ularni mustaqil fikrlaydigan kishilar qilib tarbiyalashni taqozo etadi. Oʻzbek oilasida bola ongida sogʻlom gʻoya va bilimlar shakllanishi jarayonida oilaning kattalari – bobolar, momolar ham bevosita ishtirok etadi.Ular oiladagi ma'naviy muhitning boshqaruvchilari hisoblanadi. Ota-onalar farzandining axloqi, tarbiyasi uchun jamiyat oldida javobgardir.

Farzand tarbiyasida oʻz-oʻzini boshqarishning milliy modeli boʻlgan mahallalarning ham ahamiyati katta. Mahalla xalqimizning azaliy udumlari, urf-odatlari va an'analariga tayangan holda ulkan tarbiyaviy vazifani bajaradi. Keksalarning pand-nasihati, kattalarning shaxsiy ibrati, jamoaning hamjihatligi misolida odamlar ongiga ezgulik gʻoyalari singdirib boriladi. Mahalla hamjihatlik, or-nomus, birodarlik kabi fazilatlar tarbiyasiga ijobiy ta'sir koʻrsatadi. Mahalla doirasida amalga oshiriladigan mafkuraviy ta'lim va savodxonlik kurslarini tashkil etish, an'anaviy bayram va tadbirlar paytida muxtoj oilalarga yordam koʻrsatish, iqtidorli yoshlarni ragʻbatlantirish, ayollar nufuzini oshirish, har xil adolatsizliklarning oldini olish, ommaviy axborot vositalari imkoniyatlaridan foydalanish orqali gʻoyaviy targʻibot oʻziga xos tarzda amalga oshiriladi. Gʻoyaviy tarbiyada onaning alohida oʻrni va nufuzini hisobga olib, xotin-qizlarning bola tarbiyasi borasidagi bilimdonliklarini takomillashtirib borish, "onalar matablari" tashkil etish ham amaliy ahamiyatga ega boʻladi.

Milliy gʻoyani amalga oshirish avvalo, har tomonlama bilimli, ma'naviy, jismoniy va aqliy etuk insonlarga bogʻliq ekan, bu har bir yurtdoshimizni milliy gʻoya bilan qurollantirishni taqozo qiladi. Sogʻlom avlodni tarbiyalash, erkin fuqaro ma'naviyatini shakllantirish, barkamol insonni voyaga etkazish ham ana shu vazifalar sirasiga kiradi. Zero, har bir shaxs ijtimoiy jarayonlarni oʻzida mujassam etuvchi kuch sifatida jamiyatdagi barcha jarayonlarning, jumladan milliy gʻoyaning amal qilishida asosiy omil hisoblanadi. Ta'lim-tarbiya jarayonida ijtimoiy-ma'naviy tizim, malakani oshirish va qayta tayyorlash, qolaversa, jamiyatdagi toʻlaqonli axborot makoni orqali u aniq va oqilona yoʻnaltirilgan mafkuraviy qadriyatlar va talablarni oʻzlashtirishi zarur.

Faol intiluvchan shaxs g‘oyaviy ta'sir, targ‘ibot va tashviqotning ob'ektidan mafkuraviy jarayonlarning sub'ektiga, mafkuraviy tarbiya tizimining muhim bo‘g‘iniga aylanib boradi. Bunda muayyan shaxsga o‘zbek milliy xarakterining afzalliklarini tashviq qilish, xalqimiz madaniyatining bebaho va betakror ekanligini anglatish, o‘zbeklarga xos jamoaviylik jamiyatimizning muhim xususiyati ekani, ijtimoiy birdamlik taraqqiyotimizning manbai bo‘lib xizmat qilishiga alohida e'tibor beriladi.

Yoshlarni g‘oyaviy tarbiyalashda, xalqimiz ongiga milliy g‘oyani singdirish, hayotga tadbiq etishda ijtimoiy fanlar va ularning vakillari, faylasuflar, iqtisodchilar, huquqshunoslar va tarixchilarning xizmati kattadir. Bu fanlar olam, ijtimoiy taraqqiyot, mustaqillik, uning mohiyati, tarixiy ahamiyati, paydo bo‘lishi va rivojlanishining umumiy qonuniyatlari va o‘ziga xos xususiyatlari haqida nazariy bilimlar berish bilan yoshlar dunyoqarashini shakllantirishda etakchi rol o‘ynaydi. Hozirgi davrda ijtimoiy fanlarga nisbatan jamiyatimizning talab va ehtiyojlari tobora ortib bormoqda. Ayniqsa, falsafa fani hozirgi paytda hayotdan ajralib qolgan mavhum masalalar bilan emas, balki voqelikdan, mustaqilligimiz ehtiyojlaridan kelib chiqadigan, ham nazariy, ham amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan dolzarb muammolar bilan shug‘ullanmoqda.

Yoshlar ongiga milliy g‘oyani singdirish asosan ta'lim jarayonlarida, ijtimoiy trening mashg‘ulotlarining milliy mentalitetga mos shakllaridan samarali foydalanishda, auditoriyalarning mafkuraviy ta'lim beruvchi ijtimoiy reklamalar bilan qurollantirishda, tarbiyaviy tadbirlarni amalga oshirishda namoyon bo‘lmoqda. Xulosa o‘rnida shuni alohida tahkidlashimiz joizki,

Adabiyotlar:

1. Mirziyoev Sh.M. jismoniy va ma'naviy etuk yoshlar – ezgu maqsadimizga etishda tayanchimiz va suyanchimizdir//”Xalq so‘zi” gazetasi, 2017 yil 1 iyul.
2. Otamurodov S. Globallashuv va milliy-ma’naviy havfsizlik. – T.: O‘zbekiston, 2013. -B.259.
3. Sh.M.Mirziyoev. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz.T.: O‘zbekiston. 2017, 504, 505-b.

MA’NAVIY-MA’RIFIY TARBIYANI RIVOJLANTIRISHGA INNOVATSION YONDASHUV

Norliyev Rustam Ibragimovich,
Termiz agrotexnologiyalar va innovatsion rivojlanish instituti yoshlar masalalari va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha birinchi prorektori, falsafa fanlari nomzodi, dotsent

Annotatsiya. Ushbu maqola O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan “Uzluksiz ma’naviy-ma'rifiy tarbiya konsepsiyasi”ni ilmiy-falsafiy tahlil qilishga bag‘ishlangan. Unda innovatsion yondashuv prizmasidan yuksak ma’naviyatni shakllantirishning yangi vazifalari va istiqbollari o‘rganiladi.

Kalit so‘zlar: ta’lim tizimi, ma’naviy tarbiya, uzluksiz ma’naviy tarbiya, konsepsiya, innovatsiya.

Kirish.

O‘zbekiston “Milliy tiklanishdan – milliy taraqqiyot sari” tamoyiliga asoslangan taraqqiyotning yangi bosqichiga qadam qo‘ydi. Yangi davr shiddati ta’lim va tarbiya tizimiga o‘zining aniq va qat’iy talablarini qo‘ymoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2021-yil 19-yanvar kuni bo‘lib o‘tgan videoselektor yig‘ilishida ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish, bu borada davlat va jamoat tashkilotlari hamkorligini mustahkamlash haqida:

“Iqtisodiyot jamiyat hayotini ta’minlovchi organizm bo‘lsa, ma’naviyat uning yuragi va qalbidir. - Biz yangi O‘zbekiston qurishga qaror qilganimizdan beri ikkita mustahkam ustunga tayanamiz. Birinchisi, bozor tamoyillariga asoslangan kuchli iqtisodiyot. Ikkinchisi – ajdodlarimizning boy ma’naviy merosi va milliy qadriyatlariga asoslangan kuchli ma’naviyat” [1].

Ta’lim tizimi va tarbiya tizimi ma’naviy shaxsni shakllantirishning asosiy omillari hisoblanadi. Ma'lumki, bu ikki tizim bir-biri bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, biri ikkinchisini taxmin qiladi. Ularning birida nuqson va kamchiliklarning mavjudligi shaxsiy fazilatlarda ba'zi kamchiliklarga olib keladi. Agar ta'lim mukammal bo‘lsa-yu, lekin tarbiya yetarli bo‘lmasa yoki aksincha, tarbiya mukammal bo‘lsa-da, lekin ta'limda muammolar mavjud bo‘lsa, unda ko‘zlangan maqsadga erishish baribir qiyin bo‘ladi. Bugungi kunda yoshlar (nafaqat ular) ma’naviyat va odob-axloq to‘g‘risida keng bilimga ega bo‘lishlariga qaramay, hayotda ularga amal qilmaslik, e’tibordan chetda qoldirish, hatto bevosita bu qadriyatlarni inkor etish holatlarini uchratishimiz mumkin. Bu g‘oya O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrdagi qarori bilan tasdiqlangan “Uzluksiz ma’naviyat ta’lim konsepsiyasi”da ham o‘z ifodasini topgan.

«Vatanga sadoqat, burch va mas’uliyat, tashabbuskorlik va boshqa fazilatlar yoshlar ongida nazariy tushunchalar bo‘lib qolsa-da, tabiatan amaliy odatlarga aylanmaydi. Oqibatda bu xislatlar haqida aytganlari va qilayotgan ishlari o‘rtasida tafovut yuzaga kelib, har yili mustaqil hayotga qadam qo‘yayotgan yoshlarning hayotda o‘z o‘rnini topishida bir qator muammolarni keltirib chiqarmoqda» [2].

Prezidentimiz so‘nggi yillarda ma’naviy-axloqiy tarbiyaga alohida e’tibor qaratayotgani bejiz emas. Avvalo shuni ta’kidlash kerakki, ma’naviy tarbiya birinchi marta ta’lim tizimining alohida elementi sifatida qaralib, uning mazmuni va mohiyatini ko‘rsatish, ijtimoiy mavqeini aniqlash, kutilayotgan natijalarni bashorat qilish va ularga erishish yo‘llarini aniq ko‘rsatish masalalari ko‘rib chiqilmoqda. Aynan buni innovatsion yondashuv deb hisoblash mumkin. Ma'naviy tarbiyaning o‘ziga xos xususiyatlari haqida gapirganda, uning boshqa tarbiya shakllari - axloqiy,

badiiy-estetik, diniy, huquqiy va siyosiy tarbiya bilan bog‘liqligini hisobga olgan holda, quyidagilarga e'tibor qaratish lozim:

1) Ma’naviy tarbiya boshqa ta’lim shakllariga qaraganda kengroq va chuqurroq ma’noga ega.

2) Ma'naviy tarbiyani axloqiy tarbiya doirasida cheklash noto‘g‘ri, chunki axloqiy fazilatlar ma'naviyat mazmuni va mohiyatining bir jihati xolos.

3) Ma’naviy tarbiya ma’lum ma’noda ttarbiyaning boshqa shakllariga nisbatan integrallik vazifasini bajaradi, ya’ni har bir tarbiya sohasida erishilgan natijalar pirovardida shaxs ma’naviyati mazmuniga kiradi, insonning ma’naviy dunyosini boyitadi.

Ijtimoiy hayotimizning turli jabhalarida amalga oshirilayotgan tub islohotlar jarayonida dolzarb muammolarni hal qilishda yangicha yondashuvlar yaqqol namoyon bo‘layotgani mazkur muammolarni hal etishda konseptual yondashuv shakllanganidan dalolat beradiki, bu allaqachon tahsinga sazovor.

Shu bilan birga, kontseptual yondashuvning muayyan ijtimoiy tendentsiyaga aylanib borayotgani ham islohotlar samaradorligini ta’minlashda muhim omil bo‘layotganini hisobga olish kerak.

Adabiyotlar sharhi.

O‘rganilayotgan muammo quyidagi falsafiy va psixologik-pedagogik asarlarda o‘z aksini topdi: N.I. Boldirev “Maktab o‘quvchilarining axloqiy tarbiyasi”, I.S.Maryenko “Maktab o‘quvchisi shaxsini axloqiy shakllantirish”, L.I. Bojovich “Bolalarni axloqiy rivojlantirish va tarbiyalash to‘g‘risida”, A.S. Makarenko “Sovet maktabi ta’limi muammolari”, shuningdek, Sh.A. Amonashvili, O.S. Bogdanova, E.V. Bondarevskaya, M.N. Apletaev, N.K. Goncharov, E.N. Ilyin, G.E. Zalesskiy, A.A. Huseynov, N.D. Zotov, B.T. Lixachev, V.A. Krutetskiy, L.I. Ruvinskiy, M.I. Shilova, E.I. Monoszon, N.E. Shchurkova va boshqalar ishlari.

Ko‘pgina qomusiy olimlar bilim olish va bolalarda biror narsaga erishishga shiddatli ishtiyoq, o‘z oldiga maqsad qo‘yish qobiliyati, maqsadga erishishni rejalashtirish qobiliyati, maqsadga erishishda barqarorlikni ko‘rsatish, ijodiy fikrlash odati, tashabbuskorlik, mustaqillik namoyon bo‘lishi kabi fazilatlarni shakllantirishga katta e'tibor berganlar. Umuman olganda, bunday shaxsiy xususiyatlar insonni doimiy muvaffaqiyatga erishishga yo‘naltirishga imkon beradi. Bu shaxsning yaxlit barkamol rivojlanishining natijasidir, - deb ta'kidlagan edilar Sharqning o‘rta asr mutafakkirlari Al Forobiy, Al Xorazmiy, Abu Ali ibn Sino, Yusuf Xos Xojib, Beruniy va boshqalarning inson tajribasi bilan bog‘liq tajribasi.

Asosiy qism.

Konsepsiya - bu muayyan hodisaga oid o‘zaro bog‘liq va hosilaviy qarashlar tizimi. Kontseptsiyaning lug‘aviy ma'nosi lotincha. Conceptio “tizim”, “tushuncha” degan ma’noni anglatadi. Umuman olganda, kontseptsiya quyidagi ma'nolarga ega:

- har qanday hodisani tushunish, izohlashning ma'lum bir usuli; ularni yoritishda asosiy nuqtai nazar, yetakchi g‘oya;
- muayyan hodisalarga qarashlar tizimi;
- faoliyatda yetakchi g‘oya, konstruktiv tamoyil;
- o‘zaro bog‘liq qarashlar majmui;

- muayyan muammoni hal qilish tizimi;

- har qanday hodisani faqat shu hodisaga tegishli mulohazalar va xulosalar asosida tushunish, farqlash va talqin qilish usuli.

Biz ko‘rib chiqayotgan Konsepsiya Prezidentimizning 2017-yil 7-fevraldagi qarori bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi asosida ishlab chiqilgan. Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrdagi yuqorida qayd etilgan qarori bilan uni amalga oshirish konsepsiyasi va chora-tadbirlar rejasi tasdiqlangan. Kontseptsiya strategik masalalarni qamrab olgan bo‘lsa, reja taktik masalalarni o‘z ichiga oladi. Strategiya va taktikaga kompleks yondashuv ma’naviy tarbiyaga yangicha yondashuvdir.

Konsepsiya va Harakatlar rejasini amalga oshirishning ustuvor yo‘nalishlari etib quyidagi vazifalar belgilanadi:

- 2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasida nazarda tutilgan aholi, ayniqsa, yoshlar tarbiyasi bilan bog‘liq vazifalarni samarali amalga oshirish, odamlarga tinch-osoyishta hayot kechirish uchun zarur bo‘lgan asosiy kompetensiyalarni berish;

- ma'naviy-ma'rifiy tarbiyani baholashning dalillarga asoslangan ko‘rsatkichlarini ishlab chiqish;

- ta’lim-tarbiya jarayonida uzluksizlik, izchillik tamoyillariga asoslanib, birinchi navbatda, onaning homiladorligini to‘g‘ri tashkil etishni ta’minlash, go‘daklar va bolalarni ma’naviy tarbiyalashning asosiy yo‘nalishlarini belgilash;

- yoshlarda Vatanga sadoqat, tashabbuskorlik, iroda, g‘oyaviy immunitet, mehr-oqibat, mas’uliyat, bag‘rikenglik, huquqiy madaniyat, yangicha fikrlash, mehnatsevarlik kabi muhim fazilatlarni bolalikdan bosqichma-bosqich shakllantirish;

- homiladorlikdan 30 yoshgacha bo‘lgan davrda uzluksiz ma’naviy-ma’rifiy tarbiyani amalga oshirishda ota-onalar, pedagoglar, o‘qituvchilar, uzluksiz ta’lim muassasalari hamda mahalla fuqarolar yig‘inining samarali hamkorligi mexanizmini ishlab chiqish va joriy etish;

- aholining farzandlar tarbiyasi, pedagogik madaniyati masalalari bo‘yicha bilim darajasini oshirish, fuqarolarni samarali pedagogik texnologiyalar, jahon tajribasida isbotlangan uzluksiz ma’naviy-ma’rifiy tarbiyani amalga oshirish usullari va shakllari bilan muntazam tanishtirish;

- dunyo ommaviy axborot vositalari, jumladan, internet tarmog‘i orqali tarqatilayotgan, axloqiy buzuqlikni, yoshlarni noto‘g‘ri yo‘lga qo‘yuvchi buzg‘unchi g‘oyalarni targ‘ib etuvchi noxolis ma’lumotlarga qarshi sog‘lom dunyoqarashni shakllantirish;

- uzluksiz ma’naviy-ma’rifiy ta’limni tashkil etishda davlat organlari, fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalari va xususiy sektorning samarali hamkorligi.

Konsepsiyaning innovatsion xususiyatlarini tahlil qilganda, ular asosan kontseptsiyaning o‘zida aks etishini hisobga olish kerak. “Innovatsiya” atamasi lotincha “novation” so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, “yangilanish” (yoki

“o‘zgartirish”) ma'nosini bildiradi va “in” qo‘shimchasi lotin tilidan “yo‘nalish bo‘yicha” deb tarjima qilingan bo‘lsa, uni butunlay tarjima qilsak “Innovatio” “o‘zgarish tomoniga” degan ma'noni anglatadi [3].

Avvalo shuni ta'kidlash kerakki, ma'naviy tarbiyaga konseptual yondashuvning o‘zi innovatsiondir.

Konsepsiyaning ko‘rsatilgan mazmuni uzluksiz ma’naviy-ma’rifiy tarbiya konsepsiyasida to‘liq va har tomonlama o‘z ifodasini topganligi uning ilmiy, nazariy va amaliy ahamiyatini belgilaydi. Ustuvor vazifa sifatida belgilangan vazifalar mazmunan mutlaqo yangi, innovatsion xususiyatga ega. Ular quyidagilar:

- aholiga qo‘yilgan vazifalarni amalga oshirish, birinchi navbatda, yoshlarni tarbiyalash, shu bilan birga mahalliy va zamonaviy pedagogikaning ilg‘or ishlanmalaridan keng va samarali foydalanish uchun zarur bo‘lgan asosiy kompetensiyalar bilan ta’minlash;

- ma'naviy-ma'rifiy ta'lim monitoringi bo‘yicha dalillarga asoslangan ko‘rsatkichlarni ishlab chiqish;

- ta'lim jarayonida bosqichma-bosqich rivojlanish va uzluksizlikka, uzluksizlik tamoyillariga tayanish. Bu homiladorlik davridan boshlanib, voyaga yetgunga qadar davom etadigan jarayon sifatida qaraladigan ota-ona tarbiyasiga yangicha yondashuvdir. Dono xalqimizning ta’lim-tarbiyada tanaffus va to‘xtash bo‘lmasligi kerak, degan falsafasiga uzluksizlik va vorislik mos keladi;

- ma'naviy fazilatlarni bolalikdan boshlab asta-sekin, bosqichma-bosqich shakllantirish. Muayyan yosh davrlari bo‘yicha ta'lim bosqichlarini aniqlash ijobiy rivojlanishdir. Har bir bosqichning mazmunini aniqlab olish, qo‘yilgan vazifalar keyingi bosqich uchun asos va tayanch bo‘lishini tushunish muhimdir. Har bir bosqich umumiy jarayonning natijasidir;

- ma’naviy-axloqiy tarbiya sub’ektlari – ota-onalar, pedagoglar, o‘qituvchilar, uzluksiz ta’lim muassasalari va mahalla fuqarolar yig‘ini o‘rtasida o‘zaro manfaatli hamkorlik mexanizmini ishlab chiqish, ularning bilim va malakasini doimiy ravishda oshirib borish;

- uzluksiz ma’naviy-ma’rifiy ta’limni tashkil etishda davlat organlari, fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalari va xususiy sektor o‘rtasida hamkorlikni yo‘lga qo‘yish.

Xulosa.

Davlat ta’lim standartlariga muvofiq ta’lim dasturlarini amalga oshiruvchi davlat va nodavlat ta’lim muassasalari, ta’lim sohasida ilmiy-tadqiqot ishlari olib boruvchi ilmiy-pedagogik muassasalar, davlat organlari, jamoat tashkilotlari, mahalla va oila institutlari orqali uzluksiz ma’naviy-ma'rifiy tarbiya joriy etilmoqda.

Prezidentimizning ma’naviyat tarbiyasidan hech kim o‘z bilimi, ibratli ma’naviy fazilatlari bilan chetda qolmasligi kerak, degan da’vatiga ota-onalar, jamoat va ta’lim muassasalari bilan bir qatorda ziyolilar, olimlar, jamiyatshunoslar ham javob beradi, degan umiddamiz. Pedagoglar faoliyatini qo‘llab-quvvatlovchi o‘quv materiallari va o‘quv-uslubiy qo‘llanmalar yetarli emasligini inobatga olib, ijtimoiy fanlar vakillari bu masalaga jiddiy yondashadi, degan umiddamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.
1. Innovatsiya tushunchasi haqida / [Elektron resurs]. - Kirish rejimi: https://www.terabayt.uz/post/innovatsiya-tushunchasi-haqida.
2. Qonunchilikdagi yangiliklar / [Elektron resurs]. - Kirish rejimi: https://www.norma.uz/qonunchilikda_yangi.
3. Shavkat Mirziyoyev: Iqtisodiyot jamiyat hayotini ta’minlovchi organizm bo‘lsa, ma’naviyat uning yuragi va qalbidir / [Elektron resurs]. - Kirish rejimi: https://xs.uz/ru/post/shavkat-mirziyoev-esli-ekonomika-organizm-obespechivayuschij-zhiznedeyatelnost-obschestva-to-dukhovnost-ego-serdtse-i-dusha.
4. Аванесова Г. А. Трактовка духовной культуры и духовности в отечественной аналитике в прошлом и теперь \\Вест. Моск. Ун-та. Сер.7. Философия. 1998, № 4, с. 11.
5. Болдырев, Н.И. Нравственное воспитание школьников / Н.И. Болдырев. – М. : Просвещение, 1979.
6. Божович, Л.И., Нравственное формирование личности школьника в коллективе [Текст]/Л.И. Божович. – М., 2015.- С. 468.
7. Богданова, О.С. Этические беседы с школьниками [Текст]/О.С.Богданова.
8. Лихачв, Б.Т. Педагогика [Текст]/Б.Т. Лихачев. – М., 2016.- С. 601.
9. Сластенин В. А., Исаев И. Ф., МищенкоА.И., Шиянов Е. Н. Педагогика. — М., Школа-Пресс, 2000.

ЁШЛАРГА МАЪНАВИЙ ҚАДРИЯТЛАРНИ СИНГДИРИШДА МИЛЛИЙ КОНТЕНТ ВА МАЪНАВИЙ ТАРҒИБОТНИНГ ЎРНИ

Тўраева Азиза,
Қарши ДУ фалсафа ва социология кафедраси
катта ўқитувчиси

Аннотация. Мақолада бугунги глобаллашув шароитида фарзандларга миллий оилавий қадриятларни сингдиришнинг зарурияти очиб берилган. Бу борада замон талабидан келиб чиққан ҳолда Интернет ва маънавий тарғибот энг таъсирчан восита эканлигига алоҳида эътибор қаратилган. Муаллиф интернет ва маънавий тарғиботдан фойдаланишнинг самарали йўлларини таклиф этган.

Аннотация. В статье раскрывается необходимость привития детям национальных семейных ценностей в современных условиях глобализации. В связи с этим особое внимание уделяется тому, что Интернет и духовная пропаганда являются наиболее эффективными средствами. Принимая это во внимание, автор предложил эффективные способы использования Интернета и духовной пропаганды для оздоровления семейной среды.

Abstract. The article reveals the necessity of inculcating national family values in children in today's globalization conditions. In this regard, special attention is paid to the fact that the Internet and spiritual propaganda are the most effective means. Taking this into account, the author suggested effective ways of using the Internet and spiritual propaganda to make the family environment more healthy.

Калит сўзлар: глобаллашув, оила, оилавий муҳит, оилавий қадриятлар, миллий оилавий қадриятлар, Интернет, интернет маданияти, миллий контент, маънавий тарғибот.

Ключевье слова: глобализация, семья, семейная среда, семейные ценности, национальные семейные ценности, Интернет, интернет-культура, национальный контент, моральная пропаганда.

Keywords: globalization, family, family environment, family values, national family values, Internet, Internet culture, moral propaganda.

Маълумотларга кўра, ҳозирги кунда дун миқсида 1,8 миллиард ёш авлод вакиллари бор. Жумладан, Ўзбекистон аҳолисининг ярмидан кўпроғини ёшлар ташкил этади.

Бугунги даврнинг мураккаблиги шундаки, жаҳонда авлодлар алмашунуви, қадриятлар тўқнашуви содир бўлмоқда. Мафкурашунослар фикрича, "Х" авлод (1950-йилдан 1980 йилгача туғилганлар) ва "У" авлод (1980-йилдан 2002-йилгача туғилганлар) интернетда ўзларига керакли маълумотни қидириб топа оладилар, нисбатан мафкуравий иммунитетлари мустаҳкам. Улар виртуал оламда вақтини тўғри тақсимлай олишга қодир. " Z" авлоднинг (2002-йилдан кейин туғилган авлод) эса виртуал борлиқ ва реал борлиқни фарқлаш даражаси заиф ва миллий қадриятларни қабул қилишга қийналишади ва ўзларидан катта авлодни "замондан орқада қолган киши" сифатида баҳолайди. Ўзбекистон аҳолиси фойдаланадиган ижтимоий тармоқлар ва уларда берилатган маълумотларнинг кўпчилиги эса миллий қадриятларимизга мос тушмайди, мавжуд миллий контентимиз зит авлодга мослашмаган. Шу боис миллий контентни ташкил қилиш, ҳар бир соҳа бўйича сифатли ва рақобатбардош ахборот тақдим қилиш зарурати келиб чиқмоқда. Давлатимиз раҳбари ўзининг "Янги Ўзбекистон стратегияси" асарида янги маънавий маконни яратишда оилавий қадриятларга беписанд ва шлар тарбиясига масъулиятсиз қараш каби иллатларга барҳам беришга қаратилган чора-тадбирларни амалга ошириш долзарб эканлигини таъкидлагани ҳам бежиз эмас [1. 23].

Ўтган асрнинг сўнгида авж олган глобаллашув жараёни миллийликнинг барча элементларига таҳдид сола бошлади, хусусан, миллий оилавий қадриятлар табиатига ҳам раҳна солмоқда. Масалан, "ғарбона турмуш тарзининг азалий насроний қадриятлари саналган фидойилик, меҳрибонлик, садоқат, иймон-эътиқод каби фазилатларнинг фақат шахс манфаатларининг қондирилишига қаратилган индивидуалистик қарашлар томонидан сиқиб чиқарилгани" [3. 21] Ғарб оламида оила-никоҳ муносабатлари инқирозига олиб келди. Глобаллашув жараёни эса жадаллик билан ривожланиб боратган

янги ахборот технологиялари рдамида ушбу иллатни бутун сайра бўйлаб тарқатмоқда. Бу иллат эса нафақат ўзбек халқининг, балки барча халқларнинг оилавий қадриятларига таҳдид солмоқда.

Кўриниб турибдики, глобаллашув шароитида ижтимоий воқеликнинг жадаллик билан ўзгариб боратгани миллий оилавий қадриятларни сақлаб қолиш билан боғлиқ янги ва янги муаммоларни юзага келтирмоқда. Бунинг натижасида адабиёт ва санъатнинг, кино ва театрнинг, телевидение ва радионинг, газета ва журналнинг, Интернет ва маънавий тарғибот системасининг фарзандларга оилавий қадриятларни сингдириш борасидаги имкониятларининг янги қирраларини излаб топиш зарур бўлмоқда. Янги асрда ўзбек оиласидаги муҳитни соғлом характерда сақлаб қолишнинг самарали йўли ҳам ана шунда.

XXI асрнинг учинчи ўн йиллигига келиб Интернетнинг жадаллик билан ривожланиб боратгани фарзандларга маънавий қадриятларни сингдиришда унинг имкониятларидан ҳам фойдаланиш заруриятини кун тартибига қўймоқда. Бугунги кунга келиб Интернет энг самарали ва таъсирчан оммавий ахборот воситаларидан бирига айланиб улгурди. Энг муҳими, бугун Интернет инсоният маданиятини ривожлантирувчи омил вазифасини ўтамоқда. Унинг шарофати билан XXI асрга келиб “пиқ маданиятлар” деярли қолмади, миллий маданиятлар ўртасидаги диалог кучайди ва интенсивлашди. Интернет феномени инсоният маданияти тараққиёти учун янги истиқболларни очиб бермоқда.

Интернет ўз тармоғига борган сари кўпроқ фойдаланувчиларни тортмоқда. Бунинг эътиборга лойиқ сабаблари бор, албатта. Масалан, Интернет виртуал суҳбат чоғида шахснинг анонимлигини сақлаб қолади, унга ўз образини ўзи истаган хусусиятлар асосида яратиш имконини беради. Шунингдек, Интернет орқали давлат хизматларидан тезкор фойдаланиш, зарурий материалларни қисқа муддатда излаб топиш, маълумотлар олиш, турли клубларга аъзо бўлиш, маҳсулотлар харид қилиш имкониятлари катта. Ахборот даври маданиятининг ўзига хос хусусияти ҳам шунда: биз виртуал реаллик орқали ижтимоий муносабатларда иштирок этамиз, ўз эҳтижларимизни қондирамиз [4.50].

Ўзбекистонда ҳам кейинги йилларда Интернетдан фойдаланувчилар сони кескин ошди. Ижтимоий тармоқлардан фойдаланиш бўйича Ўзбекистон Топ-10 таликка киради. Телгеграмм месенжеридан фойдаланиш бўйича эса Эрондан сўнг иккинчи ўринда.

Келажакда ушбу кўрсаткичнинг янада ўсиши кутилмоқда. Чунки мамлакатда Интернет хизматини кўрсатиш тарифлари босқичма-босқич камайтириб борилмоқда. Оптик тола орқали интернетга уланиш хизматининг йўлга қўйилиши эса фойдаланувчилар учун янги қулайликларни тақдим этмоқда. Айнан фойдаланувчилар сонининг йилдан йилга ошиб боратгани Интернетни миллий оилавий қадриятларни фарзандлар онгига сингдиришнинг муҳим воситасига айлантирмоқда.

Лекин бу имкониятлардан фойдаланиш масаласига келсак, кўплаб камчиликлар ва эътиборсизлик кўзга ташланади. Хусусан, ҳанузга қадар Интернет тармоғи орқали миллий қадриятларни тарғиб этиш ишлари системавий характер касб этгани йўқ. Бу ҳол миллий қадриятлар тарғиботига ҳам халал бермоқда.

Фарзандлар онгига миллий қадриятларни сингдириш борасида Интернет имкониятларидан кенгроқ фойдаланиш учун қуйидагиларга эътибор бериш лозим:

а) Интернет саҳифалари орқали тарқатилатган айрим бўҳтонларга зудлик билан жавоб бериш механизмининг шакллантирилиши муҳим аҳамиятга эга. Бунда бўҳтонга жавоб тариқасида тайрланган мақола сарлавҳаси оппонент мақоласининг сарлавҳасидек қўйилиши ва бўҳтонни тарқататган сайтда жойлаштирилиши айниқса самара беради. Бунга ўхшаш тадбирлар фарзандлар онгидан миллий оилавий қадриятларни суриб чиқаришга қаратилган саъй-ҳаракатларни пучга чиқаради;

б) шларда Интернетдан фойдаланиш маданиятини шакллантириш ҳам долзарблашиб кетди. Бу вазифани бажариш учун шларга медиа таълимдан таҳсил бериш жараёнининг самарадорлигини ошириш, ахборот маконидаги асосий субъектлар ва уларнинг мақсадлари тўғрисида маълумот бериш талаб қилинади.

Интернет хизматидан фойдаланувчиларнинг катта қисми шлардан иборатлигини инобатга олсак, юқоридаги тавсияларнинг жиддий ижтимоий аҳамиятга эгалиги маълум бўлади.

Замон миллий оилавий қадриятларни сингдиришни маънавий тарғибот ишларининг асосий йўналишларидан бирига айлантиришни тақазо қилмоқда. Чунки кўплаб ривожланган мамлакатларда оилани ижтимоий институт сифатида емириб юборадиган, ундаги қадриятларни таназзулга элтадиган омиллар кўпайгандан кўпаймоқда. Масалан, Америкада “ота” ва “она” сўзларини “туғувчи №1” ва “туғувчи №2” сўзлари билан алмаштиришга уринишлар юзага келмоқда. Швецияда эса болаларни жинсий белгилари бўйича бўлмайдиган болалар боғчалари очилмоқда. Ваҳоланки, бола 4-5 шидақ ўзини шахс сифатида идентификация қилиши, ўз жинсини яхши билиши зарур. Акс ҳолда унинг шахсининг деградацияси бошланади[5.32]. Йигирмага яқин [2.275] мамлакатда бир жинслилар никоҳи қонунлаштириб қўйилди. Аммо бу фақт шу билан тугамаяпти, балки бундай ҳолатларнинг тажовузкор, мажбуран тиқиштирилатган ташвиқоти янада хавфли тус олмоқда. Францияда тегишли қонун қабул қилинганидан кейин илк бора расмийлаштирилган бир жинслик никоҳни рўйхатга олиш маросими 2013 йил май ойининг охири июнь ойининг бошиида “ Evronewc” каналлари орқали тўхтовсиз равишда бир ҳафта давомида кўрсатилди. Бу каби бемаъни таклифлар ва “инновациялар” кўпайиб боратган бир шароитда пухта режалаштирилган маънавий тарғиботгина миллий оилавий қадриятларни ҳар томонлама ҳимоя қила олади.

Ҳар йили 800 мингдан ортиқ бола туғиладиган давлатимизда (Статистика агентлиги маълумотларига кўра 2023 йилнинг январь-ноябрь ойларида қарийб 900 минг туғилиш қайд этилган) мактабгача ёшдагиларнинг сони 5 миллиондан ошиб кетади. Шунча бола учун республикамизда миллий тарбияга оид яратилган мультфильмлар кичкинтойлар томоша қилатган фильмларнинг жуда кам фоизини ташқил қилиши ҳам айни ҳақиқат. Холбуки, ривожланган давлатларда мультфильм шлар онг-тафаккурига сайқал беришнинг қулай ва оммалашган усули ҳисобланади.

Мустақиллигимизнинг янги босқичида ҳам маънавий тарғибот ишларига алоҳида эътибор бериб келинмоқда. Мамлакатимиз Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг 2021 йил 26 мартда “Маънавий-маърифий ишлар тизимини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Қарорининг қабул қилиниши шундан далолат беради. Республика Маънавият ва маърифат кенгаши тузилмасидаги ўзига хос ўзгаришлар қаторида “Рақамли тарғибот” бўлими, “Маърифат” тарғиботчилар жамиятининг тузилиши, Ижтимоий-маънавий тадқиқотлар институтининг ташкил қилинишига оид вазифаларни белгилаб берилиши, маънавий тарғибот услуб ва усулларига бағишланган адабиётларнинг нашр этилиши ва ҳоказолар шундан далолат беради. Давлатимиз раҳбари томонидан “Янги Ўзбекистон стратегияси” асарининг илмий жамоатчиликка тақдим қилиниши эса бу йўналишдаги тадбирларга янгича руҳ, янгича мазмун бахш этди. Бугунги кунда мамлакатимизда маънавий тарғибот таъсири етиб бормаган бирорта шаҳар ки қишлоқ қолмади, десак муболаға бўлмайди. Кейинги йилларда Ўзбекистондаги маънавий тарғибот тадбирлари системавий тус олгани ҳам диққатга сазовор.

Айни пайтда маънавий тарғиботнинг ҳали етарлича эътибор қаратилмаган жабҳалари ҳам мавжуд. Жумладан, миллий оилавий қадриятлар тарғиботи маънавий ишларнинг муҳим йўналишига айланиб улгургани йўқ. Маънавий тадбирларда янги ахборот технологиялардан фойдаланилиши ҳам замон талабларидан йироқ. Эски, самара бермайдиган услуб ва усулларнинг сақланиб қолатгани ҳам тадбирлар самарасини туширмоқда.

Маънавий тарғибот самарасини ошириш, фарзандлар онги ва фаолиятига маънавий қадриятларни сингдириш учун қуйидагиларга эътибор бериш лозим:

а) миллий қадриятлар тарғиботи вилоятларда амалга оширилатган маънавий тарғибот ишларининг муҳим йўналишидан бирига айланмоғи даркор;

б) шларнинг ахборот технологияларидан фойдаланишга мойиллигини эътиборга олган ҳолда маънавий тадбирларда электрон воситаларни қўллашни йўлга қўйиш зарур;

Ушбу тадбирларнинг системали равишда амалга оширилиши шлар онгига маънавий қадриятларни сингдиришда қатта имкониятларни юзага келтиради, оила институтини ҳозирги замон маънавий таҳдидларидан ҳимоялайди.

Адабиётлар
1. Мирзиёев Ш. Янги Ўзбекистон стратегияси.-Тошкент:»Ўзбекистон», 2021.
2. Эркаев А. Маънавиятшунослик. Биринчи китоб. Т:»Маънавият», 2018, 275-б.
3. Зокир Б. Ғарб тамаддуни: инқироз аломатлари.// Тафаккур.- 2007.- №2.- 21-б.
4. Петров В.П. Интернет в мировом информационном пространстве// Основы безопасности жизнедеятельности. - 2008. - № 8.- С.50.
5. “Оно” пошло в детский сад.// Аргументы и факты.- 2011.- №29.- С.32.

GLOBALLASHUV DAVRIDA EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISH MASALALARI

Xudoyberganov Sh.
Qo‘qon DPI
e-mail: hudoyberganov1979@gmail.com

Аннотация. В данной статье раскрываются экологические проблемы, являющиеся одной из актуальных проблем современности, в том числе социально-философский аспект формирования экологической культуры личности. Кроме того, в освещении разъясняются научные основы повышения экологической культуры на основе статистических данных.

Ключевые слова: экология, культура, промышленность, революция, природа, социальная экология, политика, статистика.

Abstract. This article outlines the socio-philosophical aspects of forming ecological problems, including one's ecological culture, which is one of the pressing issues of our day. The article covered the scientific basis of ecological culture development based on statistical data.

Key words: ecology, culture, industry, revolution, nature, social ecology, politics, statistics.

Bugungi kunda ekologiya masalasi global muammo sifatida tobora kengayib bormoqda. Bu muammoni hal qilish butun dunyo aholisining kelgusi taraqqiyotini ta’minlashning muhim omili hisoblanadi. Chunki, insoniyatning farovon yashashi, sog‘lom ekologik muhit barqarorligiga bog‘liq. Tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, atrof tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lish har bir shahs uchun muhim vazifadir. O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh. Mirziyoyev ta’kidlaganidik: “Bugun bizning oldimizda turgan yana bir muhim masala – ekologik muammolar va suv tanqisligidir. Tarozining bir pallasida o‘sib borayotgan qurilishlar, ishlab chiqarish, qishloq xo‘jaligi turgan bo‘lsa, ikkinchi pallasida har

birimiz uchun eng zarur bo‘lgan suvni tejash, atrof-muhit ifloslanishining oldini olish va yer resurslaridan oqilona foydalanish masalasi turibdi. Bizning vazifamiz – har ikki yo‘nalishda ham muvozanatni saqlashdan iborat. Hech qachon unutmasligimiz lozimki, tabiiy resurslar – bu kelajak avlodlarimizga ham tegishli bo‘lgan boylikdir. Shu bois, ulardan nafaqat bugungi, balki ertangi kunimizni ham o‘ylab, oqilona foydalanishimiz zarur” [1].

Bundan kelib chiqadiki, ekologik vaziyatni yaxshilashga ta’sir ko‘rsatuvchi omillardan biri jamiyatning har bir a’zosida zamonaviy ekologik dunyoqarashni shakllantirishdan iborat.

Yer yuzida hayot bundan 3,95 milliard yil avval paydo bo‘lganini ko‘rsatdi. Mana shu davr ichida tabiatda shakllanish boshlandi, tirik organizmlar vujudga keldi, rivojlandi. Tashqi tabiiy muhit tirik organizmlar beshigiga aylandi. Ular tashqi muhitdan ozuqani oldi. Tashqi muhit ko‘pgina ekologik omillar majmuasidir. Ular asosan uch guruhga bo‘linadi. Bular o‘lik mavjudot (abiotik omil), tirik mavjudot (biotik omil), insonlar (antropogon) omilidan iborat. Mazkur omillar doim bir-birlariga ta’sir etib turadi. Inson yashash tarzi davomida hayvonot ola-miga, tuproqqa, suv va havoga ta’sir etadi. Masalan, inson o‘z taraqqiyotining dastlabki davrlarida ovchilik bilan shug‘ullangan. Keyin u o‘zi uchun zarur bo‘ladigan o‘simliklarni madaniylashtirishni o‘rgandi. Bundan keyin esa chorvachilik madaniyati shakllana boshladi. Natijada kishilij jamiyatida ijtimoiy mehnat taqsimoti yiz berdi. Ijtimoiy mehnat taqsimoti — ijtimoiy mehnatning mustaqil vazifalarni bajaruvchi mehnat turlariga ajralishi, ya’ni mehnat faoliyati turlarining alohidalashuvi [2]. Boshqacha qilib aytganda, kishilar o‘rtasida ijtimoiy foydali mehnatga bo‘lgan faoliyatning taqsimlanish jarayonidir.

Tabiatdagi ziddiyatlarni insonning aqliy takomili natijasida fan va texnikaning o‘sishi g‘oyat kuchaytirib yubordi. Sanoat va qishloq xo‘jaligining rivojlanishi, mahsulot ishlab chiqarish darajasining o‘sa borishi oqibatida tabiiy boyliklarni iste’mol qilish hajmi to‘xtovsiz o‘sib bormoqda. Ekologiya fani qanchalik zarur va qanchalik dolzarb ekanini shundan anglasa ham bo‘ladiki, bugun bizning suv havzalaridagi va Orolning qurib qolgan o‘zanidagi zahar-pestitsidlar yer yuzining eng chet nuqtasi hisoblangan Antarktida muzliklaridan ham topilmoqda. Orol qurib borgani sari uning o‘zanida yotgan pestitsidga to‘yingan tuzlar shamol va bo‘ron orqali hech qanday chegara va hudud bilmay ko‘plab mamlakatlarga tarqalaverishi mumkin. Bundan yer yuzidagi bog‘-rog‘lar quriydi, insonlar salomatligiga katta zarar yetadi. SHu bois Orol fojeasi - nafaqat O‘zbekistonning, balki butun ona yerimizning fojeasidir. Bu fojea uzoq yillar mobaynida ko‘zga ko‘rinmas bir tarzda paydo bo‘lgan bo‘lsa, uni endilikda biror davlatning o‘zi bartaraf eta olmaydi. Yer yuzidagi bunday yirik ekologik fojealar ko‘plab davlatlarning birgalikdagi sa’yi-harakatlari bilangina bartaraf etilishi mumkin.

Bu kabi bugungi kun uchun, kelajak uchun zarur bo‘lgan tadbirni bir guruh olimlar, biror kasb egallari yo bo‘lmasa, bir necha idora vakillari bajarishning uddasidan chiq-maydilar. Ekologiya ishi barcha olimlarning, ziyolilarning, tadbirkorlarning, ixtiro-chilarning, jamiyatning barcha komil kishilarining

zimmasidagi vazifadir. Ekologiya, tabiatni muhofaza qilish, ona yerga va uning ashyolariga muhabbat har bir yosh fuqaroga uning yoshligidanoq singdirilishi zarur.

Shuni aytish kerakki, ekologik madaniyatni barqaror etish uchun bir qadar ishlar amalga oshirildi. Kechagi davrda biz endigina to‘qnash kela boshlagan «Tabiatni muhofaza qilish», «Tabiat ekologiyasi», «Inson ekologiyasi» kabi tushunchalar bugun kengroq ma’no kasb etib «Ijtimoiy ekologiya»ga aylandi. Ijtimoiy ekologiyani o‘rganish masalasida bugunga qadar respublikamizda birtalay ishlar amalga oshirildi.

Ijtimoiy ekologiyaning asosiy vazifasi insonning atrof-muhitga ta’sir qilish mexanizmlarini va inson faoliyati natijasi bo‘lgan undagi o‘zgarishlarni o‘rganishdir [3].

Ijtimoiy ekologiya – sotsiologiyaning bir bo‘limi hisoblanib, unda inson va muhitning o‘zaro munosabatlari o‘rganiladi. Bu fan Amerikada o‘tgan asrning 20-yillaridayoq paydo bo‘lgan edi. Jumladan, R.Park va Berjess kabi olimlar bir necha asarlar yozgan. Ijtimoiy ekologiyaning manbai va asosiy tushunchalari hozircha aniq belgilangan emas. Ba’zi sotsiologlar ijtimoiy ekologiyaning vazifasi insonning tabiiy muhit, ya’ni hayvonot va o‘simlik dunyosi bilan o‘zaro munosabatini, ikkinchi guruh olimlar ijti-moiy ekologiyaning o‘zaro shakllari va omillari bilan o‘zaro munosabatini ifoda etish-dan iborat deb ta’riflaydilar. Yana bir guruh olimlar uni ijtimoiy tartibotlarning makonda joylashuvi haqidagi fan, deb tushuntiradilar.

Hozir «ekologiya havfsizligi» iborasi bilan «atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish» iborasi ham ko‘p qo‘llanilmoqda. Xo‘sh, bu iboralar o‘rtasida qanday umumiy tomonlar va farqlar mavjud.

«Atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish» deganda biz tabiatni butun bir holatda yoki uning yer, havo, suv, o‘simliklar dunyosi, hayvonot dunyosi kabi ayrim komponentlarini muhofaza etishni tushunamiz. «Ekologiya» bu funktsiyalarni ham o‘z zimmasiga oladi. Biroq ekologiya barcha tirik jonzotlar yashash muhitini, ularning o‘zaro munosabatlarini o‘rganadi va u biologiya fanlari qatoriga kiradi.

Ekologiya bilimlarni targ‘ib va tashviq qilish bugun mustaqil davlatimizning muhim ishlaridan biriga aylanib qoldi. Bu borada milliy merosimiz, xalqimizning azaliy urf-odatlari bilan bir qatorda barcha dunyoviy va diniy bilimlarni ishga solib, nafaqat bolalar, balki kattalar o‘rtasida ham keng ko‘lamda targ‘ibot ishlari olib borilmoqda. Bir so‘z bilan aytganda, ekologiya davlat muammolari darajasiga ko‘tarildi. Shu bois keyingi paytlarda «ekologik siyosat» degan tushuncha paydo bo‘ldi.

Ekologik siyosat davlatlar faoliyatining ekologik munosabatlarini samarali tarzda boshqarib turish imkonini beradi. Tabiat bilan turli ijtimoiy sistemalardagi jamiyat o‘rtasidagi o‘zaro aloqaning qonuniyatlarini, shart-sharoitlari va shakllarini, shuningdek, mana shu o‘zaro aloqalarni maqbul tarzga keltirish va ularni boshqarish vo-sitalarini o‘rganuvchi ekologiya mazkur siyosatning ilmiy metodik negizidir. Ekologiya siyosatini ishlab chiqishda hozirgi zamon ilm-fani barcha tarmoqlarining namoyandalari ishtirok etadilar va bu siyosat davlat boshqaruviga oid qarorlarda o‘zining mujassam ifodasini topadi

Tabiatni muhofaza qilish borasida respublikamizda birmuncha ishlar amalga oshirilib, tajribalar to‘plandi. Avvalo tabiatni muhofaza qilish borasida respublikamiz hududida qanday muammolar borligi aniqlab olindi. Ular respublikamizdagi ishlab chiqarishlar sohasida, ijtimoiy sohada va boshqa jabhalarda bo‘lishi mumkin.

Ekologik siyosat bugun bizga qator tadbirlarni amalga oshirish vazifasini qo‘ymoqda. Ular quyidagilardan iborat.

Birinchidan, yo‘qolib ketayotgan hayvonot olamini asrab qolish. Buning uchun max-sus qo‘riqxonalar, buyurtmaxonalar faoliyatini takomillashtirish.

Ikkinchidan, atrof-muhit ekologik muvozanatini yaxshilash, ekologik jihatdan tanglik yuz bergan joylarni xaritalashtirish, Xomashyo, oziq-ovqat va energetika manbalaridan tejamkorlik bilan foydalanishni yo‘lga qo‘yish.

Uchinchidan, sanoatda ishlab chiqarilayotgan texnik vositalar – motorlarini, elektr uskunalarini va boshqa texnika vositalarini tabiatga chiqitni ko‘p chiqarmaydigan qi-lib ishlab chiqarish uchun barcha ilmiy salohiyatni yo‘naltirish.

To‘rtinchidan, zavod-fabrikalarning chiqindisiz ishlashini yo‘lga qo‘yish. Bu bilan yer, havo, suvlarning ifloslanishini, ortiqcha sarfini kamaytirish. Shuningdek, tabiatni radiatsiyadan himoyalash.

Beshinchidan, jiddiy ekologik fojea ro‘y berganda xalqaro jamoatchilik bilan kuchlarni birlashtirish. Bunday ekologik tangliklarni bartaraf etish rejalarini ishlab chiqish.

Mamlakatimizning Prezidenti Sh.Mirziyoev Birlashgan Millatlar Tashkilotining 2017 yil 19 sentyabrda bo‘lib o‘tgan 72-sessiyasidagi nutqida «Bugungi kunning eng o‘tkir ekologik muammolaridan biri – Orol halokatiga yana bir bor e’tiboringizni qaratmoqchiman. Mana mening qo‘-limda – Orol fojeasi aks ettirilgan xarita. O‘ylaymanki, bunga ortiqcha izohga hojat yo‘q. Dengizning qurishi bilan bog‘liq oqibatlarni bartaraf etish xalqaro miqyosdagi sa’y-harakatlarni faol birlashtirishni taqozo etmoqda» [4], deb mazkur masalaning juda dolzarbligini alohida ta’kidlagan edi.

Avvalo masalaga ilmiy nuqtai nazardan ko‘rsatish, ilmiy ekspertlar kengashini, ishchi guruhini tuzish taqozo etiladi. Chunki «mamlakatimiz va jamiyatimizning zamon talablari darajasida rivojlanishini ilm-fansiz tasavvur qilish qiyin. Ilm-fan taraqqiyotida fundamental tadqiqotlar muhim ahamiyat kasb etadi» [5.30]. Bugungi kunda respublikamizda ilm egallashga alohida e’tibor berilayapti. Milliy ta’lim dasturla-ri ishlab chiqilib hayotga joriy etilmoqda. Bu jamiyatimizning ilgari siljishiga katta ta’sir etadi. Zero, jamiyat hayoti qat’iy ilm negizida tashkil etilganda va ilm-fan tavsiyalari chetga surib qo‘yilmasa, ekologik tanglik chetlab o‘tilishi va uning xavfi barta-raf etilishi mumkin. Hozirga qadar inson tabiatning xo‘jayiniga, uning izdan chiqa-ruvchi kuchga aylanib kelgan ekan, o‘z xatolarini tuzatuvchi ham insonning o‘zi bo‘ladi.

Tabiatni muhofaza qilish borasidagi vazifalarimizdan biri – tabiatga ko‘rsatiladigan ta’sir oqibatlarini oldindan ko‘ra bilishdir. Bu hol ko‘pgina tangliklarni ilgaridan aniq bilish va oldini olishga yordam berishi mumkin. Ro‘y bera boshlagan tabiiy hodisalarni chuqur o‘rganmasdan, tushunib yetmasdan, ro‘y

berayotgan hodisalar o‘rtasidagi bog‘liqliklarni anglab yetmasdan tabiatni muhofaza qilish ishiga samarali hissa qo‘shib bo‘lmaydi.

Ekologik xavfni bartaraf etish bugungi kunda muammolarning eng dolzarblaridan biridir. Buni kengliklarga sochilayotgan, baland quvurlardan chiqayotgan zaharlar, qurib qolayotgan daryolar, tutun qo‘ynida qolayotgan shaharlar, ko‘tarilayotgan tuz bo‘ron-lari, ko‘payib borayotgan og‘ir turdagi kasalliklar ham tasdiqlab turibdi. O‘zbekistonda ham, butun jahonda ham ekologik bo‘hronlarning oldini olish borasida samarali omillar va vositalar ishga solinmoqda. Ammo xavfni bartaraf etishning bitta eng birinchi omili bor, u ham bo‘lsa, ekologik madaniyatni shakllantirishdir.

Keyingi paytlarda, ayniqsa, mustaqillikka erishganimizdan keyin ekologik madaniyat ko‘p tilga olinayapti. Buning asosiy printsipi shundan iboratki, inson avvalo mavjud tabiat bilan g‘oyat ehtiyotkorlik, tejamkorlik bilan munosabatda bo‘lishni o‘rga-nishi, qolaversa, tabiatning xavf ostida qolgan ashyolarini tez ilg‘ab olish va uning uchun yaxshi sharoit yaratib berishdir.

Ekologik madaniyat, bu – bilim va ko‘nikmalar majmuasi bo‘lib, u ta’lim va tarbiya yordamida hosil qilinadi [6].

Ekologik madaniyatni shakllantirish, birinchidan ta’lim-tarbiya yordamida tabiat-ga oid bilimlarni o‘rganish, ikkinchidan, ekologik dunyoqarashni shakllantirish, qola-versa, ekologik e’tiqodni vujudga keltirish demakdir. Bu ishda tabiatni muhofaza etish borasida amaliy ko‘nikmalarni hosil qilish, bu borada amaliy-ijodiy faoliyat bilan shug‘ullanishga tayyor bo‘lish muhim ahamiyatga ega.

Shu nuqtai nazardan qaraganda ekologik madaniyat ekologik ong, ekologik e’tiqod va ekologik faoliyat kabi tarkibiy qismlardan tashkil topadi, deyish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, ekologik madaniyatni shakllantirish – jamiyat uchun tabiat bilan tillasha oladigan, u bilan muloqot qila oladigan saviyadagi fuqaroni tayyorlashdir. Bu tadbir uchun juda ko‘p omillardan foydalanish mumkin. Avvalo ekologik ma-daniyat uchun asos bo‘ladigan omillar mavjud. Bugungi kunda mazkur omillarning eng muhimi – ajdodlarimiz merosidir. Xalqimiz uzoq tarixi davomida tabiatni doim e’zozlab, unga juda katta madaniyat bilan yondashgan. Xalqimizning buyuk madaniyati tabiiy qadriyatlar asosida paydo bo‘lgan. Uni maxsus tadqiq etish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining o‘ttiz ikki yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. 31 Avgust 20232. https://daryo.uz/
2. https://uz.wikipedia.org/wiki/
3. https://uz.wikipedia.org/wiki/
4. https://president.uz/oz/lists/view/1063
5. Alibekov L.A., Nishonov S.A. Tabiat va inson. – T.: O‘zbekiston, 2013. – B. 30.
6. geografiya.uz/ekologiya.

HUQUQ DARSLARIDA TALABALARNING QONUNGA ITOATKORLIK MADANIYATINI YUKSALTIRISHDA JINOYAT SUDLARI BILAN HAMKORLIK QILISH

Xamraqulov Zafarjon Yigitaliyevich
Qo‘qon DPI dotsenti v.b., falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori

Annotatsiya. Maqolada huquq darslarida talabalarning qonunga itoatkorlik madaniyatini yuksaltirishda jinoyat sudlari bilan hamkorlik qilish texnologiyasi xususida fikr yuritilgan. Uni amalga oshirish uchun tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: huquq darslari, jinoyat sudlari, hamkorlik qilish, sud jarayoni, talabalar, oliy ta’lim, qonunga itoatkorlik, ta’lim-tarbiya.

Аннотация. В статье рассматривается технология сотрудничества с уголовными судами в повышении культуры законопослушности студентов. Даны рекомендации по его реализации.

Ключевые слова: юридические курсы, уголовные суды, сотрудничество, судебный процесс, студенты, высшее образование, законопослушность, образование.

Annotation. The article discusses the technology of cooperation with criminal courts in increasing the culture of law-abiding students. Recommendations for its implementation are given.

Key words: legal courses, criminal courts, cooperation, judicial process, students, higher education, law-abidingness, education.

Talabalarning jinoyat ishlari bo`yicha sudlar faoliyati bilan tanishtirish ularning tasavvurlarini kengaytiradi. Ular oliy ta’limni yakunlaganlaridan keyin ham ushbu uchrashuvlar yodlarida uzoq vaqt saqlanib qoladi. Kelajakda ta’lim oluvchilarga sud binosida ko`rgan voqeliklarini so`zlab berish orqali yosh avlodning qonunga itoatkorlik ruhida tarbiyalashga o`z hissalarini qo`shishadi. Bunday imkoniyatdan foydalanish foydadan xoli bo`lmaydi.

Sudlar bilan hamkorlik olib borishning o`ziga xos jihatlari mavjud bo`lib, jarayonda ularni inobatga olish lozimdir:

Hamkorlikning ilmiy jihatlari – talabalarga ta’lim-tarbiya berishda jinoyat sudlari, sudya, sud muhokamasi bilan bog‘liq nazariy tushunchalar amaliy bilimlar bilan boyitilishida ifodalanadi.

Jinoyat sudlari bilan hamkorlikning amaliy jihati – talabalarning jinoyat sudlari va ulardagi ish yuritilishi bo`yicha muayyan tasavvur hosil qilishi, sud jarayoni haqida xulosalar chiqarishiga olib keladi.

Hamkorlikning tarbiyaviy jihati – jinoyat sudlari va talabalar o`rtasidagi aloqalar natijasida vujudga keladigan qonunni hurmat qilish, huquq normalariga rioya qilish kabi xislatlarning shakllanishini izohlaydi.

Jinoyat sudlari bilan hamkorlikning qadriyat (ahamiyatlilik) jihati – jinoyat sudlari bilan tanishish talabalar tomonidan jamiyat a’zolari o`rtasida huquqbuzarlikdan tiyilishning targ‘ib qilinishida namoyon bo`ladi.

Mazkur jihatlar umumlashgan holda talabalarning huquqiy ongini va madaniyatini rivojlanishiga ijobiy ta’sir o`tkazadi. Ularning xatti-harakatlari va xulq-atvorida o`z ifodasini qoldiradi. Bundan malakali professor-o`qituvchi talabaning kompetentligini oshirishda unumli foydalanishi mumkin.

Huquq fanining o`qitilishida jinoyat sudlari bilan hamkorlik qilish texnologiyasini quyidagicha loyihalash taklif qilinadi:

1. Jinoyat sudlari va ularning ish yuritish tartibi bilan tanishish.

2. Auditoriyada sud jarayonini shakllantirish.

Bunda talabalar dastlab jinoyat sudlaridagi ish yuritilishini o`rganishlari asosida muayyan bilimlarga ega bo`lishadi va ularning o`zlari shunday sudni shakllantirishadi.

Jinoyat sudlari bilan hamkorlik texnologiyasining tashkiliy jihatlari auditoriyadan tashqaridagi vaqtni talab qilishi, sud raisi yoki uning o`rinbosari bilan uchrashuv vaqti haqida kelishib olinishi, sud binosiga borib-kelishdagi texnika xavfsizligi qoidalariga rioya qilinishi, sud binosiga kirishda ehtiyot choralarini ko`rish, sud zalida talabalar tomonidan ortiqcha harakatlar bilan jarayonga halaqit bermaslik kabi masalalarni oydinlashtirib olishni talab qiladi. Sud xodimlari talabalarning o`quv binolariga tashrif buyurib uchrashuv va davra suhbatlarini o`tkazganda yoki sayyor sudlarni tashkil etganda, talabalarning o`zlarini tutishlarini nazorat qilish, boshqa auditoriyalardagi dars jarayonlariga halaqit bermaslik muhim ahamiyatga ega bo`ladi.

Hamkorlik texnologiyasi ta’limiy va tarbiyaviy maqsadlarni ham o`zida aks ettiradi [1, 87]. Hamkorlik yo`lga qo`yilishida professor-o`qituvchi tomonidan ikki maqsad ham aniq belgilanib olinishi zarur. Zero, “zamonaviy o`qituvchining asosiy vazifasi yosh avlodni kelajakda mehnat faoliyatiga tayyorlashi, yuqori malakali kadr bo`lib yetishishiga ko`maklashish hisoblanadi” [2, 33]. Shuning uchun pedagog hamkorlik jarayonining muayyan jihatlarini inobatga olishi lozim.

Jinoyat sudlari bilan hamkorlik tashkil qilinishining ta’limiy maqsadi: talabalarni huquqqa doir bilimlarini sudlarga olib borish va sud jarayonini kuzatish orqali amaliy ko`nikma va malakalarini oshirishdan iborat.

Hamkorlikning tarbiyaviy maqsadi: talabalarning qonunga itoatkorlik hissiyotlarini yuksaltirish, huquqbuzarliklarga nisbatan murosasizlik ruhida tarbiyalash orqali uning huquqiy ongini va madaniyatini rivojlantirishdan iborat.

Huquq fanining o`qitilishida jinoyat sudlari bilan hamkorlik qilishning umumiy mohiyati shaxsning qonunga itoatkorlik tuyg‘usini rivojlantirishga ham qaratiladi. Bu yo‘l bilan uning huquqbuzarliklar va korruptsiyaga qarshi kurashish mas’uliyatini oshirish, mamlakatda fuqarolik jamiyatini rivojlantirishga bog‘liq huquqiy ongini va madaniyatini yuksaltirishni ko`zda tutadi.

Texnologiyaning metodlari sifatida ko`rgazmalilik, bahs-munozara, debat, kuzatish, eksperiment o`tkazish kabilar tanlab olinadi.

Jinoyat sudlari bilan hamkorlik qilish texnologiyasida amaliy harakatlarni bajarishda quyidagi bosqichlarga amal qilish maqsadga muvofiqdir:

1-bosqich – hamkorlikning huquqiy tomonlarini tartibga solish. Bunda Qo`qon davlat pedagogika institutida amalga oshirilgan ushbu misolni keltirib o`tamiz. Institutning Milliy g‘oya, ma’navqiyat asoslari va huquq ta’lim kafedrasi va Jinoiy ishlar bo`yicha Qo`qon shahar sudi o`rtasida shartnoma tuzilgan. Shartnomaga muvofiq, sudyalar bilan talabalar o`rtasida davra suhbatlari, uchrashuvlarni muntazam o`tkazib borish, talabalar o`qiydigan binolarda sayyor sudlarni tashkil etish, jinoyat qonunchiligiga kiritilgan yangiliklar bilan talabalarni tanishtirib borish, jinoyat sudlari ishtirokida tashkil etiladigan profilaktik tadbirlarda kafedra professor-o`qituvchilari va talabalarning qatnashishlarini ta’minlash kabi masalalar kelishib olingan. Sudlar bilan hamkorlikni aynan shu usulda boshlash ikkala tomon uchun qulay hisoblanadi.

2-bosqich – talabalarni suddagi ish yuritish tartibi bilan tanishtirish. Ushbu bosqichda talabalar sud haqida muayyan tasavvurlarga kelib olishlari uchun tanishtiruv amalga oshiriladi. Bunda sud raisi yoki uning o`rinbosari roziligi asosida talabalar sud binosiga olib kelinadi. Binoga kirish xavfsizlik choralari ko`rilgan holda amalga oshirilishi maqsadga muvofiqdir. Buning uchun pedagog talabalar bilan oldindan suhbatlashib olishi talab qilinadi. Zero sud binosida o`rnatilgan tartiblarga qattiq rioya qilish shart. Binoda sudya, uning yordamchisi, devonxona, arxiv xodimi, huquqni muhofaza qiluvchi organning qo`riqlovchi vakili ishtirokida ish yuritish jarayoni bilan talabalarni tanishtirish amalga oshiriladi. Tanishtirish jarayonida talabalar bilan savol-javob tashkil etilishi amaliy bilimlar oshirilishiga xizmat qiladi.

3-bosqich – sud jarayoni bilan tanishish. Sud muhokamasi, ishtirokchilarni so`roq qilish, sud tergovi, taraflarning muzokaralari, oqlov yoki qoralov hukmining o`qilishi jarayoni har qanday talabani qiziqtiradi. Ushbu bosqichda tanishtirishni ikki usulda yo`lga qo`yish mumkin: bevosita va onlayn. Talabalar sud muhokamasining bevosita guvohi bo`lishlari uchun ularni sud binosiga olib borish yoki talabalar o`qiydigan hududda sayyor sud o`tkazish zarur. Bunda og‘ir va o`ta og‘ir jinoyatlar uchun sud muhokamasi o`tkazilayotganda sud binosidagi zalga to`planish talab etiladi. Ijtimoiy xavfi katta bo`lmagan va uncha og‘ir bo`lmagan jinoyatlar bo`yicha sudlar esa sayyor holda o`tkazilishi maqsadga muvofiq bo`ladi. Onlayn tanishtirishni Zoom platformasi yordamida yoki boshqa ijtimoiy axborot tarmoqlari orqali amalga oshirilishi tavsiya etiladi.

Huquq fanining o`qitilishida jinoyat sudlari bilan hamkorlik qilishning eng umumiy jihatlaridan kelib chiqib, talabalarning huquqiy ko`nikma va malakalarini rivojlantirishga yanada ijodiy yoshdashish ham mumkin [3, 59]. Huquqni o`rganishning auditoriyada ma’ruza va seminar shaklida olib borilishi talabalarning nazariy bilimlari doirasini kengaytiradi. Fanga oid grafik chizmalar, testlar, muammoli vaziyatlar mavzularning o`zlashtirilishiga ijobiy ta’sir ko`rsatadi. Grafik organayzerlar taqdim etilgan slaydlar asosida tashkil etilgan darslar samaradorlikni yanada yorqin namoyon etadi. Darslarni talabalar tomonidan tez o`zlashtirishlarini ta’minlaydi.

Jinoyat sudlari bilan o`rnatilgan hamkorlik aloqalaridan keyin talabalar bilan sud jarayonlarini amaliyotda shakllantirishga o`tiladi. Mazkur jarayon talabalarning jinoyat sudlari haqidagi bilimlarining yanada yuksalishiga imkon beradi.

Talabalar bilan sud jarayonini modellashtirishga harakat qilishdi. Buning o`z tarbiyaviy maqsadlari bo`lib, ularga: sud jarayonining borishi haqida tushuncha berish; nizolarni hal qilish orqali odil sudlovni amalga oshirishning maqsadini tushunishlariga erishish va boshqalar kiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Djuraev R.H. Ta’limda interfaol texnologiyalar. – T.: 2010, -87 b.
2. Tolipov H. Pedagogik texnologiyalar. –T.: O‘qituvchi, 2011. – B.33
3. Хамракулов З.Й. Роль уголовного права в педагогическом образовании // «Научный импульс», 2023, Февраль, № 7(100), часть 2, – Стр. 59.

YOSHLAR TA’LIM-TARBIYASIDA IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING O‘RNI VA ULARNI O‘QITISHNING DOLZARB MASALALARI

Sharipova Oqibatxon Aminjonovna
Qo‘qon DPI “Milliy g‘oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi” kafedrasi katta o‘qituvchisi
Anvarjonova Sevinchxon Zamonjon qizi
Toshkent davlat agrar universiteti “Mevachilik va uzumchilik yo‘nalishi” 20-50-guruh talabasi

Annotasiya. Maqolada yoshlarni har tomonlama barkamol qilib tarbiyalashda ijtimoiy-gumanitar fanlarning roli va oliy ta'lim tizimida ijtimoiy-gumanitar fanlarni o‘qitishning o‘ziga xos jihatlari bayon qilingan. Fanlarni o‘qitishda zamonaviy texnologiyalar va didaktik vositalardan foydalanish, mustaqil ta'limni tashkil etish va innovasion yondashuvning ahamiyati ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: Oliy ta'lim, nazariya, metod, metodologiya, uslub, modulli tizim, innovasion texnologiyalar, mustaqil ta'lim, didaktik material, test, ijodiy yondashuv, elektron topshiriqlar.

Аннотация. В статье изложена роль социально-гуманитарных наук в всестороннем воспитании молодежи и особенности преподавания социально-гуманитарных наук в системе высшего образования. Выявлено значение использования современных технологий и дидактических средств в преподавании предметов, организации самостоятельного обучения, инновационного подхода.

Ключевые слова: высшее образование, теория, метод, методика, методика, методика, модульная система, инновационные технологии,

самостоятельное обучение, дидактический материал, тестирование, творческий подход, электронные задания.

Annotation. The article describes the specifics of teaching socio-humanitarian disciplines in the system of Higher Education. The use of modern technologies and didactic tools in teaching subjects, the organization of Independent Education and the importance of an innovative approach are revealed.

Keywords: higher education, theory, method, methodology, style, modular system, innovation technology, Independent Education, didactic material, test, creative approach, electronic assignments.

Ta’lim jarayonida yoshlarga iqtisodiy, siyosiy, ma’naviy, g‘oyaviy ta’lim-tarbiya va bilim berish, ularni har tomonlama etuk, barkamol inson qilib tarbiyalash muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda barcha fanlar qatori ijtimoiy-gumanitar – tarix, falsafa, dinshunoslik, pedagogika, psixologiya kabi fanlar muhim o‘rin tutadi.

Bugungi kunda ushbu fanlar oldida turgan muhim vazifa – yot g‘oya va mafkuralardan holi bo‘lgan, yangicha jahon talablariga javob beradigan ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, jamiyatimizda va dunyoda sodir bo‘layotgan ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-madaniy o‘zgarishlarni yoshlar ongiga etkazish kabilardan iborat.

Respublikamizda yoshlar tarbiyasi, ularning ijtimoiy-siyosiy bilim darajasi, ma'naviy va jismoniy kamoloti, ayniqsa, ma'naviy tarbiyasi masalalari 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi Taraqqiyot strategiyasida ham ilmiy-nazariy va metodologik jihatdan asoslab berilgan. Jumladan unda jismoniy sog‘lom, ruhan va aqlan rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, vatanga sodiq qat'iy hayotiy nuqtai nazarga ega yoshlarni tarbiyalash va ularning ijtimoiy faolligini oshirish muhim masala sifatida belgilangan. Bugun dunyoda sodir bo‘layotgan global o‘zgarishlar, mafkuraviy xurujlar, chegara bilmas ayrim buzg‘unchi va yot g‘oyalarning yoshlar ongiga salbiy ta'siri, diniy ekstremizm, terrorizm, turli radikal oqimlarning noqonuniy faoliyati kabi barchamizni doimo sergak, hushyor bo‘lishga, ayniqsa, yoshlar ma'naviy tarbiyasiga alohida e'tibor berishga undamoqda. Shu bois mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot yo‘lidan sobitqadam rivojlanishida, amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlarning g‘oyaviy asoslarini shakllantirishda, yoshlarni komil, vatanparvar insonlar qilib tarbiyalashda ijtimoiy-gumanitar fanlarning o‘rni katta.

Bu borada prezidentimiz Sh.Mirziyoev 2021 yil 19 yanvar kuni bo‘lib o‘tgan yig‘ilishda ijtimoiy-gumanitar fanlar samaradorligini oshirishning zaruriyatiga alohida e'tibor qaratdi: “Milliy ma'naviyatimizni rivojlantirish, uni xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz ongiga singdirishda ijtimoiy-gumanitar fanlarning ahamiyati juda katta. Afsus, bu fanlar rivoji zamondan ortda qolmoqda” [1].

Oliy ta'lim tizimi oldida turgan muhim vazifalardan biri – nafaqat mutaxassislik fanlaridan talabalarga bilim berish, balki jamiyat ijtimoiy-siyosiy hayotida, dunyoda sodir bo‘layotgan o‘zgarishlarni ular ongiga etkazish o‘z ma'naviy-axloqiy dunyoqarashga ega yoshlarni tarbiyalash, kitob o‘qishga qiziqtirish, ular o‘rtasida kitobxonlik madaniyatini hamda yangicha dunyoqarashni shakllantirishdir. Bu esa

ijtimoiy-gumanitar fanlarni yangicha asosda oʻqitishni hamda yanada takomillashtirishni dolzarb masala sifatida kun tartibiga qoʻymoqda.

Prezidentimiz ta'kidlaganlaridek, “Bizda uzoq yillar davomida ijtimoiy fanlarga nisbatan bir tomonlama texnokratik yondashuv, bu boradagi masalalarga ajabtovur bir oʻgay qarash shakllanib qolgan.

Ayni paytda, afsus bilan qayd etish mumkinki, haligacha uzluksiz ta'lim bosqichlarida, ayniqsa oliy ta'lim tizimida ijtimoiy fanlarni qancha xajmda va qanday yoʻnalishlarda, qay bir shaklda va qanday mazmunda oʻqitish va oʻrgatish boʻyicha yaxlit konsepsiya yoʻq.

Afsuski, ayrim kaltabin mulozimlarning “ijtimoiy fanlardan foyda yoʻq” qabilidagi nojoʻya qarashlari oqibatida ushbu fanlarning salmogʻi va sifatini tushirib yuborishga yoʻl qoʻyildi”. [2; 231-232]

Hozirgi shiddatli oʻzgarishlar davrida ijtimoiy-gumanitar fanlarni oʻqitish borasida amalga oshirilayotgan ishlar talab darajasida emas. Kelajakda mazkur yoʻnalishda koʻplab vazifalarni amalga oshirish zarur. Bu oʻquv dasturlarini ma'no va mazmun jihatidan qayta koʻrib chiqish va oʻquv qoʻllanmalarni gʻoyaviy mazmunda bugungi kun va yangilanishlar talablariga javob beradigan mutlaqo yangi avlodni yaratishni taqozo etadi.

Zero, falsafa fanlari doktori, professor I.Soifnazarov ta'kidlaganlaridek, “Ijtimoiy fanlarni kamaytirgan holda etuk mutaxassislarni tayyorlash mumkindir. Ammo haqiqiy vatanparvar, millat uchun gʻam chekadigan insonni tarbiyalash ancha mushkul ish. Uchinchi Renessans haqida qanchalik koʻp gapirmaylik, harakat qilmaylik, uning tub mohiyatini ijtimoiy-gumanitar fanlarining yordamisiz yoshlar ongiga singdirib boʻlmaydi. Ijtimoiy gumanitar fanlar uchinchi Renessans boshlanishi va rivojlanishining “katalizatori” hisoblanadi”. [3]

Bugungi kunda ijtimoiy-gumanitar fanlarni oʻqitishda innovasion texnologiyalar ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Jumladan, u oʻqituvchiga koʻplab imkoniyatlarni beradi va ular quyidagilar bilan tavsiflanadi. Ya'ni:

- oʻz kasbiy faoliyatini tizimli tahlil etish;
- oʻzgarishlar va faoliyatga tanqidiy munosabatda boʻlish;
- oʻz kasbi boʻyicha yangiliklardan xabardor boʻlib turish;
- oʻz gʻoya va maqsadlarini kasbiy faoliyatda mujassamlashtirishga intilish;
- pedagogik yangiliklarni tahlil qilish va baholash;
- kelgusidagi faoliyatining aniq maqsadini shakllantirish, uni amalga oshirish va samarali baholash kabilardir.

Pedagogikada shunday xikmat mavjud, ya'ni “oʻrtacha oʻqituvchi mavzuni gapirib beradi, yaxshi oʻqituvchi tushuntiradi, zoʻr oʻqituvchi mavzuni tushuntirish bilan birga, uni koʻrsatib ham beradi, buyuk oʻqituvchi esa oʻquvchilarni mavzuga qiziqtiradi”. Demak, har bir fan oʻqituvchisi dars oʻtish jarayonida nafaqat gapirishi, tushuntirishi, koʻrsatib berishi, balki talabani fanga qiziqtirishi lozim.

Oʻqituvchining innovasion faoliyati – yangiliklarni tahlil qilish va baholash, kelgusidagi faoliyatining aniq maqsadini shakllantirish, uni amalga oshirish imkoniyatidir. Bunda ijtimoiy-gumanitar fanlar taraqqiyotining oʻziga xos xususiyatlari va ularni oʻqitishning muhim ahamiyat kasb etishi hamda ustuvor

yo‘nalishlarini ochib berish, fanlarni o‘qitishdagi innovasiyalar va ilg‘or xorijiy tajribalarni qiyosiy tahlil etgan holda ish olib borish talab etiladi.

Shuni qayd etish lozimki, ta'lim tizimida sodir bo‘layotgan shiddatli o‘zgarishlar biz o‘qituvchi pedagoglardan talabalar ongida bugungi davr o‘zgarishlariga hamohang ravishda ta'limga innovasion o‘qitish texnologiyalarini samarali tadbiq etishni va yangicha modellarini shakllantirishni taqozo etmoqda. Bunda turli didaktik vositalardan o‘z o‘rnida foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Didaktik materiallarga talabalarning mustaqil ijodiy ishlash hamda fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan muammoli qiziqarli savollar, ijodiy topshiriqlar, loyihalar, o‘yinlar krossvordlar, kartochkalar, savolnomalar, yo‘riqnomalar amaliy ishni tashkil etish bo‘yicha texnologik xarita va boshqa materiallar kiradi.

Didaktik materiallar o‘z navbatida o‘quv didaktik materiallar deb ham ataladi. Zero, o‘quv-didaktik materiallar deganda, o‘qitilishi va o‘rganilishi lozim bo‘lgan, zarur bilimlarni beruvchi har qanday axborot manbalari tushuniladi.

Ijtimoiy-gumanitar fanlarni o‘rganish jarayonida didaktik materiallardan foydalanish uchun quyidagi qoidalarga rioya etish tavsiya etiladi:

- tarqatma didaktik materiallar oddiy va sodda ko‘rinishga ega bo‘lishi lozim;
- didaktik materiallar mazmuni (ma'ruza matni, biror bir tekst, ijodiy topshiriqlar, savollar)da hodisalar va jarayonlar o‘rtasida muhim bog‘liqlik bo‘lishi kerak;
- topshiriqlarni bajarish jarayonida talaba oddiy vaziyatdan murakkabroq vaziyatni yuzaga chiqarish imkoniyatiga ega bo‘lishi lozim;
- talabaning ijodiy fikrlashi uchun sharoit yaratilishi muhim va h.k.

Darslarda didaktik materiallardan foydalanishda quyidagilarga e'tibor berish muhim ahamiyatga ega:

- talabalarni turli muammolarni mustaqil hal qilishga yo‘naltirish;
- tadqiqotlar olib borishga yo‘naltirish;
- turli vaziyatlar va holatlar yarata olish va ulardan chiqa olish ko‘nikmalarini shakllantirish;
- darslarda turli tajribalar va mashqlar o‘tkazishga o‘rgatish;
- yangiliklarni izlash va ularni tahlil qilishga yo‘naltirish va h.k.

Shu o‘rinda ijtimoiy-gumanitar fanlarni ilmiy-uslubiy jihatdan ularga taalluqli bilimlarni nazariy, amaliy va uslubiy jihatdan mustahkamlash uchun dars va darsdan tashqari tashkil etiladigan mustaqil ta'lim va uning samaradorligi ham muhimdir. Ma'lumki, dars yoki darsdan so‘ng tashkil etiladigan o‘quv mashg‘ulotlarida mustaqil ta'lim turlaridan umumiy foydalanish ularni yanada jozibali hamda qiziqarli bo‘lishini ta'minlaydi.

Mustaqil ta'lim – bu o‘quv dasturida belgilangan reja asosida talaba tomonidan o‘zlashtirilishi lozim bo‘lgan bilim ko‘nikma va malakani aniqlashga yo‘naltirilgan hamda talabaning bilim darajasini baholashga xizmat qiluvchi ta'lim shakllaridan biridir. U o‘qituvchi rahbarligida talabalar tomonidan darsda yoki darsdan tashqari

mashg‘ulotlar jarayonida bajariladi. Buning uchun talabalarga mustaqil ishlarni bajarish yuzasidan o‘qituvchi tomonidan zarur topshiriqlar hamda ularni bajarish bo‘yicha uslubiy tavsiyalar beriladi. Ular quyidagilardir:

Ijodiy topshiriqlar. Talaba tomonidan mustaqil ravishda referat, yozma ish yoki hisobot shaklida shakllantiriladigan va ishlab chiqiladigan talabaning og‘zaki yoki ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan topshiriqlar;

Yozma mustaqil topshiriqlar. Vazifalarni bajarish, umumlashtiruvchi va takrorlovchi jadvallarni to‘ldirish, texnologik xaritalarni ishlab chiqish, amaliy ishlar to‘g‘risida yozma hisobotlar tayyorlash va boshqalarni o‘z ichiga oladi.

Nazorat savollari va testlar. Har bir bob bo‘yicha tuzilgan nazorat savollariga va yozma topshiriqlarga talaba mustaqil ravishda javob yozib uni kompyuterda yoki qog‘ozga chiqarilgan ko‘rinishda o‘qituvchiga taqdim qilishi mumkin. Test savollariga javob berish orqali talaba fan bo‘yicha o‘z bilimini tekshirish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bunga elektron testlar ham misol bo‘ladi, ya'ni talaba tomonidan o‘tilgan mavzular yuzasidan ishchi o‘quv dasturidagi mavzular asosida elektron tarzda taqdim etiladigan testlardir;

Elektron topshiriqlar. Talabaga individual imkoniyatlarni hisobga olgan holda mustaqil va nazorat ishlari uchun tartibga keltiradigan topshiriqlar majmuini o‘zida aks ettiruvchi axborot manbasining muhim ko‘rinishidir. Bajarilgan topshriqlar talabaga faqat elektron ko‘rinishda topshirish uchun ruhsat beriladi.

Talabalarning mustaqil faoliyati deganda, unda bilimlar egallanishi bilan birga mustaqil idrok, faoliyat va ijodiy ko‘nikmalar shakllantiriladi. Bu maqsadga yo‘naltirilgan masalalarni echish chog‘ida talabalardan bajarilgan ishni undagi dalillarni tavsiflash asosida voqea va hodisalarni aniq bayon qilish yoki o‘rganilayotgan ob'ekt va hodisalarda o‘zgarishlarning sababini aniqlash hamda uni ifodalash imkoniyati yuzaga keladi.

Talabalarning bilish (idrok qilish) faoliyati avval o‘zlashtirilgan bilimlarni mustahkamlash, uning mazmuni hamda tuzilmasini qayta ishlash, boyitish va yangilashga yo‘naltiriladi. Bunday usul o‘rganilayotgan masalani tahlil qilish, turli usullarda bajarish, ulardan to‘g‘ri xulosa chiqarish va mantiqiy fikrlash ko‘nikmalarini yuzaga chiqaradi.

Talaba mustaqil ishlarni tashkil etishda, didaktik vositalardan unumli va samarali foydalanishda kichik guruhlarda yoki individual shakllarda tashkil etiladigan mashg‘ulotlar va o‘yinlar muhim ahamiyatga ega. Masalan talabalarni o‘zlashtirish imkoniyatlari yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olib kichik guruhlarda va individual ishlash uchun muayyan mavzuga oid bir-biriga bog‘liq masalalar, topshiriqlar, muammoli vaziyatlar ishlab chiqiladi. Ularni bajarish uchun aniq ko‘rsatma va tavsiyalar beriladi. Guruhlarda ishlashda talabalarning muloqotga kirishishi, o‘z fikrini ayta olishi, boshqalar fikrini eshita olishi, faol ishtirok etishlari, bir-birlariga hurmat bilan munosabatda bo‘lishlari muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilib aytganda oliy ta'lim tizimida ijtimoiy-gumanitar fanlarni o‘qitishda zamonaviy texnologiyalar va didiaktik vositalardan foydalanish kutilgan natijani beradi, ya'ni ta'lim sifati va samaradorligini ta'minlab har jihatdan tayyorlangan malakali kadrlar etishib chiqishiga xizmat qiladi.

Adabiyotlar:
1. Mirziyoev Sh. https//daryo.uz/k/2021/0120/shavkat-mirziyoyev-ijtivoiy-gumanitar-fanlar-rivoji-zamondan-jrtda-qjlmoqda/
2. Mirziyoev Sh. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2021. – B. 231-232
3. Saifnazarov I. Ijtimoiy-gumanitar fanlarni o‘qitishni nega kuchaytirishimiz kerak. adolat.uz/news/ijtimoiy-gumanitar-fanlarni-oqitishni-nega-kuchaytirishimiz-kerak 29.10.2021
4. Q.T.Olimov, S.Y.Ashurova. Zamonaviy ta'lim texnologiyalari. – T., 2007.
5. N.X.Mamadieva. Oliy ta'lim tizimida xotin-qizlarga qaratilgan e'tibor. Yangilanayotgan O‘zbekistonda fan, ta'lim va innovasiya uyg‘unligi (Respublika 8-son ko‘p tarmoqli ilmiy-masofaviy onlayn konferensiya 1-qism), 2021.

TARBIYA FANINI JORIY ETILISHI HAMDA TARBIYA VA MILLIY TARBIYA TUSHUNCHALARINING MAZMUN - MOHIYATI

Hasanboy Abdupattayev
Qo‘qon Davlat Pedagogika instituti o‘qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2020/2021 o‘quv yilidan boshlab xalq ta’limi tizimiga “Tarbiya” fanini bosqichma-bosqich joriy qilish yuzasidan berilgan taklif “tarbiya” va “milliy tarbiya” tushunchalarining ilmiy tadqiq etish masalasini kun tartibiga olib chiqqanligi haqida so‘z boradi. Unda mazkur tushunchalar ilmiy-pedagogik, ijtimoiy-mafkuraviy hamda tarixiy nuqtayi nazardan tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: tarbiya, milliy tarbiya, Uzluksiz ma’naviy tarbiya Konsepsiyasi, “Tarbiya” fani, akademik ta’lim, ijtimoiy aloqa, o‘yin, o‘z-o‘zini anglash, obyektiv va subyektiv ta’sir.

Аннотация. В стате говорится, что предложение Президента Республики Узбекистан о постепенном введении предмета «Образование» в систему народного образования с 2020/2021 учебного года поставило вопрос о проведении научных исследований по понятиям «воспитания» и «народное воспитание». Анализируются эти концепции с научно-педагогической, социально-идеологической и исторической точек зрения.

Ключевые слова: образование, националное образование, концепция непрерывного духовного образования, предмет “воспитание”, академическое образование, социалная коммуникация, игра, самосознание, объективное и

- posting and updating information on the activities of state authorities and management bodies on their official websites;
- placing and updating information about the activities of the state authority and management body in rooms and places that can be freely accessed by everyone;

- providing information about the activities of state authorities and management bodies through information-library and archive funds;

- creation of conditions for the presence of information users at open board meetings of state authorities and management bodies;

- based on the requests of information users, providing them with information about the activities of state authorities and management bodies in oral and written form (including in the form of electronic documents) [3]. Therefore, raising the legal knowledge and consciousness of citizens, increasing their political activity in the society largely depends on their knowledge of the existing legislation in the country, and the level of information provision. Analyzing the processes taking place on a global scale, we see that at the current stage of the development of society, the place and role of information is increasing, and this situation, in turn, creates the need to inform the society in a sufficient and effective way. In our opinion, the following factors are responsible for the emergence of such a need:

- formation of global information space and deepening of information integration processes;

- increase in the level of information acquisition, dissemination, and its use, as well as wide provision of these processes with technical means;

- increasing the role of information and communication infrastructure in the system of social relations;

- the fact that information technologies, computing techniques and telecommunication tools are taking the main place in various spheres of society's life;

- the need to deliver the necessary and sufficient information in various aspects of the development of society and the vital activities of individuals;

- increase in the level of scientific, technical and cultural development and education due to the expansion of the possibilities of the international, interstate, interregional information exchange system;

- increase in the importance of the issues of ensuring the information security of the individual, society and the state.

In this process, the state authorities and management bodies should work based on the following principles: the availability of the provided information, its reliability and timely delivery; openness and transparency of their activities; freedom to seek, receive and distribute information about the activities of state authorities and management bodies; the rights and legal interests of citizens to protect their honor and dignity from aggression, interference in their personal lives, as well as the rights of citizens and legal entities z to observe the rights to protection of business reputation [4]. The increase in the position of Uzbekistan in the international community depends in many ways on organizing the level of development of the exchange of information with individuals and legal entities in the activities of state authorities and management bodies. After all, the international, social, economic, political, cultural and educational relations of any country are reflected in their exchange of information [4]. Therefore, in the current period, the exchange of information in the legal field is becoming the main factor that

determines the dynamic character of relations between countries, states, and nations. The analysis of the legal system related to the openness of the activities of state power institutions shows that there are a number of difficulties and problems in this area:

1. Although a number of articles of the Constitution of the Republic of Uzbekistan and relevant legal norms are aimed at ensuring and guaranteeing the rights of citizens to information, some of them have a declarative nature. Mechanisms for implementation of these rights of citizens have not been fully formed in them. In many cases, issues that should be regulated by law are filled with departmental documents. This situation, in turn, creates certain gaps and conflicts. In particular, a number of issues, such as a strict list of protected information, the types of information whose disclosure can cause certain liability, the procedure for providing citizens with legal information, the status of undocumented official information, the concept of harmful information, are not sufficiently defined in the relevant legislation or are not reflected at all.

2. To increase the legal awareness of citizens through mass media, to raise the culture of accountability of employees of state authorities and management bodies to citizens.

According to paragraph 7 of the decree PF-6247 “On additional measures to ensure the openness of the activities of state bodies and organizations, as well as effective implementation of public control”, through mass media employees of state bodies and organizations are informed about “the openness of the activities of state bodies, It is envisaged to inculcate the culture of “transparency and accountability” and organize explanatory work on the importance of ensuring the accountability of state bodies and officials to the people [3]. However, despite the fact that reforms are being carried out to ensure the openness of state power institutions, the effectiveness of work in this area remains low. This is mainly due to the low level of legal consciousness and legal culture of the citizens, the irresponsible attitude of the employees of the state authorities to their work, and the lack of accountability culture to the citizens.

Therefore, raising the legal consciousness of citizens through the mass media, raising the culture of accountability of the employees of the state authorities and management bodies to the citizens is the demand of the day.

Effectiveness of reforms related to the openness and transparency of state authorities and organizations will be achieved by increasing citizens' sense of involvement in the decisions made by state authorities, raising their legal consciousness and legal culture. It leads to an increase in the quality of the decisions being made.

References

1. Adilxodjayeva S.M. Globalizatsiya i strategiya gosudarstva. –Tashkent: TDYUI, 2007. – 130 b.
2. Bafayev Sh. Essence and legal nature of public control. European Journal of Research volume 5, issue 9, 2020 - pages 43-51

3. Konsepsiya razvitiya informatsionnogo zakonodatelstva v Rossiyskoy Federatsii // Gosudarstvo i pravo. –2005. –№7. –S.47-61.
4. Abduazizova N. Ommaviy axborot vositalari faoliyatini yanada liberallashtirish // Jamiyat va Boshqaruv. - 2005. –№2. –B.66-70.

MILLIY TARBIYANING TARKIBIY TUZILISHI

Abdupattayev Hasanboy Abdurahmonovich
Qo‘qon DPI o‘qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada milliy tarbiya mazmuni, uni asosiy tarkibidagi nazariy-metodologik va uslubiy-metodik qismlar haqida so‘z boradi. Maqoladagi ma’lumotlar xorij, jumladan yapon xalqining milliy tarbiyasi bilan qiyosiy-tahlil asosida keltiriladi. Unda keltirilgan barcha ma’lumotlar ilmiy-pedagogik, ijtimoiy-mafkuraviy hamda tarixiy nuqtayi nazardan tahlil etilgan.

Аннотация. В статье раскрывается содержание отечественного образования, его основные теоретико-методологические и методико-методологические части. Информация в статье основана на сравнительном анализе с национальным воспитанием иностранцев, в том числе японцев. Вся представленная в нем информация анализируется с научно-педагогической, социально-идеологической и исторической точек зрения.

Annotation. The article reveals the content of national education, its main theoretical and methodological and methodological and methodological parts. The information in the article is based on a comparative analysis with the national upbringing of foreigners, including Japanese. All information presented in it is analyzed from the scientific-pedagogical, socio-ideological and historical points of view.

Kalit so‘zlar: tarbiya, milliy tarbiya, nazariy-metodologik, uslubiy-metodik asos, “oltin o‘rtalik”, “amae”, “ikudzi”, “tarbiya importi”.

Ключевые слова: образование, народное образование, теоретико-методологические, методико-методологические основы, «золотая середина», «амаэ», «икудзи», «образовательный импорт».

Keywords: education, national education, theoretical-methodological, methodological-methodological basis, "golden mean", "amae", "ikudzi", "educational import".

Ma’lumki, milliy tarbiya tushunchasi tahlil etilganda unda ikkita tarkibiy qism mavjudligi ayon bo‘ladi. Ular:

- nazariy-metodologik asos;
- uslubiy-metodik asos.

Nazariy-metodologik asosga milliy tarbiya mazmunini shakllanishida asosiy rol o‘ynagan mifologik, diniy yoki dunyoviy (ilmiy) mazmundagi nazariya va ta’limotlar kiradi. Ko‘p hollarda milliy tarbiyaning nazariy-metadologik asosi

yagona mazmunda, ya’ni faqat mifologik, diniy yoki dunyoviy (ilmiy) mazmunda bo‘lmaydi. U millatning uzoq yillik o‘tmishidagi barcha shakllardagi ta’limotlar asosida shakllanadi. Ayrim holatlarda nazariy-metadologik asos mazmunida mifologik, diniy yoki dunyoviy (ilmiy) ta’limotlarning biri ustuvorlik kasb etishi ham mumkin. Lekin, bu degani milliy tarbiyaning nazariy-metodologik asosi yagona ta’limot asosiga qurilganligini bildirmaydi.

Milliy tarbiyaning uslubiy-metodik asosi deganda:

- axborot uzatish yo‘llari;
- tarbiya berish shakllari;
- tarbiya jarayonida baholovchi, rag‘batlantiruvchi va jazolovchi metodlar nazarda tutiladi.

Mazkur qism ham milliy tarbiyaning ajralmas qismi bo‘lib, u birinchi qism – nazariy-metodologik asos bilan chambarchas bog‘liqlikda shakllanadi va davr talablari asosida o‘zgarib boradi.

Ta’kidlash o‘rinliki, o‘quvchi-yoshlarni hayotda o‘z o‘rnini topishlari, raqobatdosh va vatanparvar fuqaro bo‘lishlari aynan milliy tarbiya institutining yuqorida keltirilgan ikki tarkibiy qismini nechog‘lik davr talablariga mosligi hamda ular o‘rtasida o‘zaro muvofiqlik qay darajada shakllanganligiga bog‘liq.

Darhaqiqat, bugungi kunda milliy tarbiya masalasida uning har ikki qismi ya’ni, nazariy-metodologik va uslubiy-metodik asoslarini davr talablari asosida shakllantirgan va ularni o‘zaro muvofiqlashtira olgan millatlar milliy tarbiya samarasi orqali jahon taraqqiyotining oldi o‘rinlarida egallab turibdi.

Jahonda ushbu masalada “oltin o‘rtalik”ni topgan mamlakatlar talaygina bo‘lib, ulardan eng ko‘p misol keltiriladigani bu Yaponiya hisoblanadi. Darhaqiqat, Yaponiya yuqorida tilga olingan milliy tarbiyaning ikki qismi, ya’ni: nazariy-metodologik va uslubiy-metodik jihatlarini davr talablariga moslashtirib, ular o‘rtasida o‘zaro muvofiqlikni topa olgan mamlakatdir.

Darhaqiqat, yapon bolalari tarbiyali, odobli, oqko‘ngil va kamdan-kam hollarda o‘z hissiyotlari ustidan nazoratni yo‘qotadi. Buning asosiy sababi yapon milliy tarbiyasida qo‘shaloq “amae” - ona va bola juda yaqinligining muhimligi hamda “ikudzi” - bola avval xudo, keyin xizmatkor va teng nazariyalarining mavjudligidir. Mazkur nazariyalar ayni vaqtda amaliy faoliyat - uslubiy-metodik (axborot uzatish yo‘llari, tarbiya berish shakllari, tarbiyani baholovchi, rag‘batlantiruvchi va jazolovchi) harakatlar bilan uzviy bog‘lanib ketgan.

“Amae” - ona va bola juda yaqinligining muhimligi nazariyasiga ko‘ra ona va bola yaqinligi maishiy hayotda to‘liq aks etadi: ona va bola birga uxlaydi, ona bolani uzoq vaqt ko‘tarib yuradi. Bu nazary va amaliy faoliyatda ona-bola aloqasi hissiy darajada aks etadi: ona bola qilayotgan hamma narsani mehr, sabr va g‘amxo‘rlik bilan qabul qiladi.

“Ikudzi” (bola avval xudo, keyin xizmatkor va teng) tamoyiliga ko‘ra, besh yoshgacha bolaga hamma narsa mumkin hisoblanadi. Bu ko‘plab xorijliklar o‘ylaganidek irodasizlik va bo‘ysunmaslik emas. Aksincha, bu bolada “men yaxshi va sevimliman” tushunchasini hosil qilishga yordamlashadi.

Bunday munosabat “amae”ning shakllanishiga hissa qo‘shadi. Bu so‘zning boshqa tillarda muqobili yo‘q. “Amae” — bolalar va ota-onalar o‘rtasidagi munosabatlar asosi bo‘lib, bolalar to‘laligicha ota-onalariga va ularning mehriga suyanishi mumkin. Qariyalar esa katta yoshli bolalaridan xuddi shu narsani qabul qilib oladi.

“Ikudzi” tarbiya tizimiga asosan, bola besh yoshgacha - xudo, besh yoshdan 15 yoshgacha - xizmatkor, 15 yoshdan boshlab - teng hisoblanadi. Aslida, “ikudzi” nazariyasi insonning individual manfaatlarini ikkinchi darajaga tushadigan jamoaviy jamiyat a’zolarini tarbiyalashga yo‘naltirilgan nazariya hisoblanadi.

Mazkur nazariyaning birinchi bosqichida (bola - xudo) ular bolani cheksiz mehr va ko‘mak bilan o‘rab oladi. Ikkinchi bosqichda esa, (bola -xizmatkor) bu mehr hech qayerga ketmaydi, shunchaki bola jamiyat qoidalarini faol o‘rganadi va unda o‘z o‘rnini topishga harakat qiladi. Bunda dastlabki yillarda shakllangan onaga kuchli bog‘lanish bolaga katta ta’sir ko‘rsatadi. Bola onasining jahlini chiqarmaslik uchun o‘zini to‘g‘ri tutishga harakat qiladi.

Asosiy tomoni shundaki, dastlab yapon ta’lim muassasalari (maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim bosqichlari)da tarbiyaga alohida e’tibor qaratiladi. Bu jarayonda yosh avlod “eng yaxshisi” yoki “eng yomoni” kabi sifatlar bilan rag‘batlantirilmaydi yoki jazolanmaydi. Mazkur holat yapon milliy tarbiyasida nafaqat tarbiya nazariyasi va ayni vaqtda tarbiyaning amaliy faoliyati - uslubiy-metodik (axborot uzatish yo‘llari, baholash, rag‘batlantirish, jazolash kabi) jihatlari ham to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilganligidan dalolat beradi.

Uchinchi bosqichda (bola - teng) yosh avlod jamiyatning shakllangan a’zosi hisoblanadi. Bu bosqich tarbiya davri tugalanganligini, endilikda ota-onalar o‘z faoliyatlari “hosil”ini yig‘ib olishlari kerak bo‘lgan bosqich hisoblanadi.

“Yaponiya. Uni qanday tushunish kerak” kitobi muallifi Ikeno Osamu qiziq bir tajriba haqida yozadi. Yapon onalari va yevropalik onalardan bolalari bilan birga piramida yig‘ish so‘ralgan. Yapon onalari dastlab o‘zlari yiqqan va keyin bolalardan takrorlashni so‘ragan. Agar bolalar biror narsani o‘xshata olmasa, ular ishni qayta boshlagan.

Yevropalik onalar esa boshqa taktikani tanlagan: ular bolalarga piramida qanday yig‘ilishini batafsil tushuntirgan. Keyin esa bolalarga ishni bajarishni taklif qilgan. Ko‘rinib turibdiki, yapon onalari “men kabi qil” tushunchasini bergan bo‘lsa, g‘arblik onalar faqat nazariyani tushuntirib, bolalarni hammasini o‘zi bajarishga majbur qilgan.

Shuning uchun yapon milliy tarbiyasi «hijjalovchi tarbiya» deb ataladi. Yapon onalar kamdan-kam hollarda bolalarni qilib ko‘rmagan ishini qilishga majburlaydi. Ular avval misol ko‘rsatib, bolada shu ishni qilishga xohish uyg‘otadi.

Yapon milliy tarbiyasining amaliy faoliyati - uslubiy-metodik (axborot uzatish yo‘llari, baholash, rag‘batlantirish, jazolash kabi) jihatida hissiyotlarga munosabat alohida o‘rin tutadi. Bu jarayonda yosh avlodga jamoaviy jamiyatda yashashni o‘rgatishdan oldin atrofdagilar hissiyoti va manfaatini ko‘rish va hurmat qilish nima ekanligini tushuntiriladi. Shuning uchun ota-onalar bolalarning sezgirligini hurmat qiladi. Ular bolalarga ortiqcha bosim o‘tkazmaydi, uyaltirmaydi, balki

bolakaylarning hissiyotlarini uyg‘otadi. Misol uchun, agar bola mashinani sindirib qo‘ysa, «Mashinaning joni og‘riyapti, u hozir yig‘laydi», - deydi. Yevropalik ota-onalar esa “Bunday qilma, bu yaxshi emas. Mashinani sotib olish uchun qancha ishlash kerak”, - deydi.

Yaponlarning o‘zi ularning usullari yagona to‘g‘ri usul ekanligini tasdiqlamaydi. So‘nggi vaqtlarda g‘arb qadriyatlari ularning an’analariga ham ta’sir ko‘rsatmoqda. Biroq yaponcha tarbiya yondashuvning asosiy tamoyili bolalarga sokinlik, sabr va to‘liq mehr bilan yondashuv hisoblanadi.

Darhaqiqat, hozirgi murakkab va noaniq davrda “har bir xalq o‘z ajdodlardan meros milliy qadriyatlarini asrab-avaylashi, eng muhimi, farzandlarini to‘g‘ri tarbiyalashi va ularning yaxshi bilim olishlari uchun barcha sharoitlarni yaratib berishi lozim. Globalizatsiya sharoitida dunyoni ulkan bir qishloqqa mengzaydilar. Bu “qishloq”da qarashlar, madaniyatlar, tutumlar, urf-odat va milliy qadriyatlar aralashib ketish xavfi mavjud. Faqat ma’rifat, ilm bilangina o‘zligimizni saqlab qolishimiz mumkin”.

Ta’kidlash o‘rinliki, milliy tarbiya masalasi juda nozik strategik masala hisoblanadi. Uni shakllanish va rivojlanishi aksariyat hollarda ichki imkoniyatni talab etadi. Xalqaro tajriba yoki import masalasi iqtisodiyot (xom ashyo, ishlab chiqarish texnika va texnologiyalari va xakozolar)da, siyosat (davlat strukturasini takomillashtirish va xakozolar)da, huquqiy soha (chet elda inson huquqlari va boshqalar)da hattoki, ta’lim sohasi (aniq, tabiiy, texnika fanlari nazariyalari, ta’lim texnologiyalari kabilar)da ijobiy ahamiyat kasb etishi mumkin. Biroq, tarbiya, milliy tarbiya masalasida xorij ta’siri, “tarbiya importi” muqarrar ravishda millatni inqirozga, ma’nan yo‘q bo‘lish tomon olib boradi. Bu aksiomani bugungi kunda milliy tarbiya samarasi orqali barqaror taraqqiy etayotgan mamlakatlar tajribasida ham ko‘rish mumkin. Jumladan, Yaponiya, Janubiy Koreа, Indoneziya, Singapur, Isroil kabi davlatlar yuqorida keltirilgan “tarbiya importi”dan saqlangan mamlakatlar hisoblanadi. Ular, o‘z vaqtida iqtisodiyot, siyosat, huquq va boshqa sohalar hattoki, ta’lim sohasida ham xorij tajribasidan unumli foydalanilib, bu sohalarga importni kirib kelishiga katta imkoniyatlar yaratgan. Lekin, mazkur davlatlardagi asosiy o‘xshashlik ularning barchasida milliy tarbiya masalasida ichki imkoniyatga tayaniligan va “tarbiya importi”ga imkon qoldirilmagan.

Mazkur taraqqiy etgan davlatlarning milliy tarbiya masalasidagi tajribalari bugungi kunda umumiy o‘rta ta’lim maktablarida Tarbiya fanini o‘qitish amaliyotini yo‘lga qo‘yishda ham dolzarb hisoblanadi.

Yuqorilardan kelib chiqqan holda xulosa qiladigan bo‘lsak:

Birinchidan: milliy tarbiya deganda, “ajdodlarning ijtimoiy-pedagogik, ijtimoiy-mafkuraviy, diniy hamda iqtisodiy-madaniy me’rosi asosiga qurilgan, yosh avlodni millatning tarixiy va strategik intilishlarini ro‘yobga chiqarishga undovchi maqsadli, umummilliy faoliyat” tushuniladi.

Ikkinchidan, milliy tarbiya tarkibida ikkita tarkibiy qism mavjud bo‘lib, ular nazariy-metodologik va uslubiy-metodik asoslardir. Nazariy-metodologik asosga milliy tarbiya mazmunini shakllanishida asosiy rol o‘ynagan mifologik, diniy yoki dunyoviy (ilmiy) mazmundagi nazariya va ta’limotlar kirsa, uslubiy-metodik asosga

axborot uzatish yo‘llari, tarbiya berish shakllari, tarbiya jarayonida baholovchi, rag‘batlantiruvchi va jazolovchi metodlar kiradi. Milliy tarbiya masalasida nazariy-metodologik va uslubiy-metodik asoslarini davr talablari asosida shakllantirgan va ularni o‘zaro muvofiqlashtira olgan millatlar milliy tarbiya samarasi orqali jahon taraqqiyotining oldi o‘rinlarini egallab turadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 1059-son Qarori. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 03.01.2020-y., 09/20/1059/4265-son, 19.06.2020-y., 09/20/391/0777-son.
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida “tarbiya” fanini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 422-son Qarori. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 07.07.2020-y., 09/20/422/1033-son.
3. O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. - T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”nashr. 8-jild. 2004. 270-bet.
4. Aflotun. Qonunlar. Tarj. Urfon Otajon. T.: “Yangi asr avlodi”, 2008. 449-bet.
5. Плутарх. Сочинение. Перевод с древнегреческогфо. Составител С.Аверенсева. М.: Художественная литература. 1983.
6. Abdulla Avloniy. Turkiy Guliston yoxud axloq. www.ziyouz.com kutubxonasi. 3-bet.
7. К.Преображенский. Как стат японсем. – М., 1988.
8. Quronov M. Bolam baxtli bo‘lsin, desangiz...T.: “Ma’naviyat”, 2014. - 132-bet.
9. Otamurodov S. O‘zbekistonda ma’naviy-ruhiy tiklanish. - T.: “Yangi asr avlodi”, 2003 -15-b.

THE PROCESS OF ENSURING THE TRANSPARENCY OF STATE POWER INSTITUTIONS AND ITS SPECIFIC FEATURES

Khudoberdiyev Jamoliddin
Teacher of Kokan State Pedagogical Institute

In democratic societies, the openness and transparency of state institutions is important. Developed and developing countries are increasingly recognizing that free access to information is a cornerstone of democracy. Whether we're talking about the government or private companies that run public services, access to the data of these organizations means increased accountability and allows citizens to know what these organizations are doing and what they're using public money for.

The use of information on the activities of state power institutions increases citizens' confidence in state institutions, allows citizens to understand state policy decisions and control their implementation. The openness and transparency of the activities of the institutions of state power is an important indicator of the effective implementation of the powers assigned to them, an indispensable condition for the establishment of a socio-legal state model, which cannot be implemented without the constant cooperation of citizens and authorities. The fact that the principle of openness is strengthened in many regulatory legal documents at the federal and regional levels increases its effectiveness [1]. In a democratic state, it is a priority to increase the openness of state power institutions. Openness and transparency of the activities of state power institutions serve to increase citizens' trust in state bodies, reduce administrative obstacles and cases of corruption. The activity of state authorities is closed to citizens, it limits public control over their activities, it is characterized by the underdevelopment and low effectiveness of the procedures for ensuring the openness of state institutions. These problems lead to the strengthening of administrative barriers, the lack of transparency of the activities of executive authorities, and the low assessment of the effectiveness of the entire state management system by citizens [2]. In the process of ensuring the openness and transparency of the activities of the institutions of state power, it is important to strengthen the rights of citizens regarding freedom of information, to increase the responsibility of state bodies to the general public, and to establish a system of regularly informing citizens about the main directions of state policy. .

Speaking about ensuring the open and transparent activities of state power institutions, it is appropriate to refer to the norms established in our current legislation. Article 5 of the Law "On Openness of the Activities of State Power and Management Bodies" defines what types of information are included in the sentence of information on the activities of state power and management bodies. According to him:

regulatory legal documents defining the legal status of state authorities and administrative bodies, their structural and territorial divisions;

normative legal documents, normative and other documents adopted by state authorities and management bodies, as well as information on the progress of their execution;

information on amendments and additions to normative legal documents, normative and other documents adopted by state authorities and management bodies, as well as information on declaring these documents invalid;

information about drafts of normative legal documents, normative and other documents being developed by state authorities and management bodies;

information on the implementation of state programs and other programs by state authorities and management bodies;

on the use of funds allocated from the budget, the funds of extra-budgetary funds of budget organizations, the held competitions (tenders) and the delivery of received goods, ministries, agencies, state special funds and other budget funds relevant information posted by distributors on their official websites;

information on public events (meetings, councils, meetings, press conferences, briefings, seminars, roundtable discussions, etc.) held by state authorities and management bodies;

information on the cooperation of state power and management bodies with other bodies of state power and management, individuals and legal entities, as well as foreign and international organizations;

information about the international agreements of the Republic of Uzbekistan, in the implementation of which the state authorities and management bodies participate;

information about the main indicators describing the state of the sector (region) and its rate of development, including indicators of socio-economic development;

information on open competitions (tenders) and auctions held (organized) by state authorities and management bodies;

plans for holding public board meetings of state power and management bodies, including draft agendas of meetings, date, place and time of their holding, information on the procedure for being present at meetings, activities of state power and management bodies includes information about. Also, the law clearly defines the types of information, the use of which is limited, on the activities of state authorities, according to which the use of information on the activities of state authorities and management bodies, if this information is provided to the state in accordance with the law shall be restricted if it is included in the sentence of information constituting secrets or other secret protected by law. Citizens have the right to receive and distribute reliable information about the activities of state power institutions, to apply for information specified by law directly or through their representatives, as well as to refuse to receive information about the activities of state power and management bodies. According to Article 9 of this law, sources of information on the activities of state authorities and administrative bodies include official publications of state authorities and administrative bodies, speeches and statements of heads of state authorities and administrative bodies, as well as officials authorized by these bodies, messages from information services of state authorities and administrative bodies, Access to the materials of the official websites of the state authorities and management bodies and the materials of mass media is specified [3]. In today's developed era, it is necessary to effectively implement the process of modernization of public administration, to increase the trust of citizens in public institutions, as well as to provide citizens with information about the activities of public authorities and administrative bodies through official websites and electronic media in order to understand the decisions of public authorities and monitor their implementation. It is the most effective way to deliver to citizens. By increasing the information openness of the state authorities and management bodies, we increase the level of trust of citizens in the state and in the decisions taken by the authorities. An effective information policy of state bodies can serve to develop civil society institutions, to legitimize ongoing political changes and changes. Currently, comprehensive measures aimed at increasing information openness are being implemented in our country. Representatives of public organizations, state

authorities and management bodies, citizens, and business circles were involved in this process. In particular, large-scale projects aimed at introducing a number of new procedures for the provision of public services, including principles related to information technologies, and ensuring the openness of public services are being implemented.

References

1. Курочкин, А. В. (2013). «Открытое правительство» как новая модель управления в условиях сетевого общества. Вестник Санкт-Петербургского университета. Политология. Международные отношения , (4), 86-93.
2. Bafayev Sh. Essence and legal nature of public control. European Journal of Research volume 5, issue 9, 2020 - pages 43-51
3. Ибрагимова Иванна М. Прозрачность власти: Основы обеспечения информационного взаимодействия государственных органов с общественностью (презентационные схемы) – М. 2002.

YANGI O‘ZBEKISTON SHAROITIDA SHAXSNING FUQAROLIK MAS’ULLIGI

Sh. Xudoyberganov
Qo‘qon DPI
e-mail: hudoyberganov1979@gmail.com

Аннотация. В данной статье особое внимание уделяется аспекту понимания каждым человеком своей ответственности в процессе использования своих прав и свобод в модернизированном обществе, уметь чувствовать и формировать духовно-нравственные ценности как гражданина.

Ключевые слова: общество, правовая культура, конституция, закон, права, свободы, честь, достоинство, аморализм, ответственность, долг.

Abstract. This article pays special attention to the aspect of each person’s understanding of their responsibility in the process of using their rights and freedoms in a modernized society, to be able to feel and form spiritual and moral values as a citizen.

Key words: society, legal culture, constitution, law, rights, freedoms, honor, dignity, immorality, responsibility, duty.

“Biz jamiyatimizda shunday huquqiy madaniyatni
shakllantirishimiz kerakki, unga muvofiq
Konstitutsiya va qonunlarga amal qilish,
boshqalarning huquq va erkinliklari, sha’ni,

qadr –qimmatini hurmat qilish majburiyati emas,
balki kundalik qoida va odatga aylanishi shart”
Sh.M.Mirziyoev

Dunyoda sodir bo‘layotgan voqelik zamon va makon jihatdan jiddiy muammolar girdobini hosil qildiki, bu muammolar hoh salbiy, hoh ijobiy ko‘rinishda bo‘lsin ijtimoiy munosabatlarda globallashuv tushunchasi bilan izohlanmoqda. Shunday ziddiyatli davrda mamlakatimiz ijtimoiy taraqqiyotini rivojlantirishda, jamiyatning barcha sohalarida fuqarolik ma’suliyati va javobgarligi tuyg‘usi hamda ko‘nikmasini shakllantirish voqelikdagi islohotlarning pirovard maqsadlarini belgilaydigan muhim omildir. “Nega deganda, aynan shu masalalar bizning bugungi va ertangi kunimizni, farzandlarimiz, nabiralarimiz taqdiri va kelajagini, bir so‘z bilan aytganda, hayot-momotimizni hal qilishi hech kimga sir emas” [1.46-462b]. Endilikda, jamiyatdagi mavjud muammolar yechimi topish, muayyan masalalarni hal etish faqat soha xodimlarinigina vazifasi bo‘lib qolmay, balki har birimizning inson va fuqaro sifatida ma’naviy-ahloqiy, huquqiy burchimizga aylanmog‘i zarur.

Darhaqiqat, 32 yillik mustaqillik davrimizda biz ulkan yutuqlarga erishdik, kimlar uchundir bu erishilgan yutuqlarimiz hozirgi kun uchun yetarlidek baholanishi mumkin. Ammo, xalqimiz oldiga qo‘ygan “inson, uning hayoti, erkinligi, sha’ni va qadr-qimmati oliy qadriyat hisoblanadigan insonparvar demokratik davlatni, ochiq va adolatli jamiyatni barpo etish borasida hozirgi va kelajak avlodlar oldidagi yuksak mas’uliyatimizni anglagan holda, davlatchiligimiz rivojining uch ming yildan ziyod tarixiy tajribasiga, shuningdek jahon sivilizatsiyasiga beqiyos hissa qo‘shgan buyuk ajdodlarimizning ilmiy, madaniy va ma’naviy merosiga tayanib, mamlakatimizning bebaho tabiiy boyliklarini ko‘paytirishga hamda hozirgi va kelajak avlodlar uchun asrab-avaylashga hamda atrof-muhit musaffoligini saqlashga astoydil ahd qilib, fuqarolarning munosib hayot kechirishini, millatlararo va konfessiyalararo totuvlikni, ko‘p millatli jonajon O‘zbekistonimizning farovonligini va gullab-yashnashini” [2.3 b.] masalasi ertangi kun uchun ham barcha sohalarda muayyan natijalarga erishishimiz zarur ekanligini ko‘rsatib turibdi. Bu muammolarni yechimini topishda xalq bilan davlat organlarini o‘rtasida doimiy hamkorlikni haqqoniy ta’minlash va muntazam nazoratda ushlab turish davr talabidir.

Ana shunday dolzarb va yuksak maqsadlarni oldindan ko‘ra olgan va o‘zining hayot mazmuni darajasida his qilayotgan Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoevning ilgari surayotgan g‘oyalari, islohotlari va istiqbolli rejalari fikrimizga yaqqol misol bo‘la oladi. Prezidentimiz ta’kidlaganlaridek avvalo “Ilm-ma’rifat va raqamli iqtisodiyot” Davlat dasturining asosiy maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda, davlat organlarining fuqarolar bilan o‘zaro munosabatlari yuzasidan yondashuvni tubdan qayta ko‘rib chiqilishi zarur hisoblanadi. Bu borada aholi bilan doimiy muloqot qilish, ularning qiynayotgan muammolarni hal etishning yangi mexanizmlari va samarali usullarini joriy etish darkor. Ushbu tushunchalar, bugungi va ertangi kun uchun isbot talab qilib bo‘lmaydigan haqiqat bo‘lib, davlat organlarining ma’suliyatini oshiradi. Ammo, fuqaro uchun qanday talablarni qo‘yishi darkor.

Fikrimizcha, eng avvalo har bir fuqaro shaxs sifatida o‘ziga yuklangan vazifalarni sidqidildan bajarishda insoniy burch va fuqarolik ma’suliyati tushunchalarini mazmun mohiyatini bilishi va amaliy his eta olishi talab etiladi.

Bunda avvalo har bir shahs:

-vatanni seva bilishi;

-amadagi Konstitutsiya va qonunlarni hurmat qilishi;

-o‘ziga nimani ravo ko‘rsa boshqalarga ham shuni ravo ko‘rishi;

Eng muhimi Ezgu so‘z, Ezgu fikr, Ezgu amalga ega bo‘lishligi talab qilinadi.

Xo‘sh ma’suliyat va burch o‘zi nima? Mavzuga oid izohli lug‘atlarda fuqarolik ma’suliyati tushunchasi quyidagicha izohlangan.

Mas’uliyat – ijtimoiy ahamiyatli burch va vazifalarning bajarilishiga, oqibatiga, xatti-harakat negizida yotgan axloqiy tamoillarga amal qilinishiga, shaxs tomonidan amalga oshirilishiga jamiyatning to‘laqonli a’zosi bo‘lishligiga burchlilikdir [3. 130 b].

Mas’uliyat – ma’naviy, ijtimoiy va ma’muriy-huquqiy sohalarda keng qo‘llaniladigan tushuncha; ma’naviyat nuqtai nazaridan yondashilganida burch; ijtimoiy ma’noda jamiyat va boshqa oldidagi ma’naviy qarzdorlik;

-ma’muriy jihatdan, ijtimoiy tartibga solishning turli me’yorlarini amalga oshirishni nazarda tutuvchi jamoatchilik nazoratining namoyon bo‘lishi;

-huquqiy yondashuvda esa asosan yuridik javobgarlikni anglatadigan serqirra va keng ma’noli kategoriya.

Mas’uliyat muammosiga fanda azaldan erkinlik va zarurat kategoriyalarining o‘zaro nisbati, shaxs xulq-atvori va faoliyatining ma’naviy-axloqiy jihati nuqtai nazaridan yondashib kelinadi. Shu ma’noda mas’uliyat tushunchasi falsafiy, axloqiy, psixologik, yuridik, ijtimoiy-iqtisodiy sohalarga xos ko‘plab masalalarning murakkab majmuini qamrab oladi. Bu hol inson va ijtimoiy borliq mohiyatining murakkabligi va rang-barangligi bilan belgilanadi. Har qanday odam o‘zi uchun muhim biron bir maqsadga erishish yo‘lida harakat qilish usulini tanlashda o‘z tabiatiga ko‘ra erkin ekaniga qaramay, uning shaxsiy hayoti butun jamiyat hayoti, boshqalar oldidagi mas’uliyati bilan uzviy bog‘liqdir. Jamiyat esa o‘z-o‘zini asrash va rivojlanish uchun muayyan ichki tartibni shakllantirib, o‘z a’zolarining nomaqbul qilmishlarini amalda cheklashga majbur. Shunday qilib, odamlarning xulq-atvor me’yorlari bilan mas’uliyati uzviy aloqadadir.

Mas’uliyat – ma’naviy, ijtimoiy va ma’muriy-huquqiy sohalarda keng qo‘llaniladigan tushuncha;

- ma’naviyat nuqtai nazaridan yondashilganida burch; ijtimoiy ma’noda jamiyat va boshqa oldidagi ma’naviy qarzdorlik; ma’muriy jihatdan, ijtimoiy tartibga solishning turli me’yorlarini amalga oshirishni nazarda tutuvchi jamoatchilik nazoratining namoyon bo‘lishi;

- huquqiy yondashuvda esa asosan yuridik javobgarlikni anglatadigan serqirra va keng ma’noli kategoriya. Mas’uliyat muammosiga fanda azaldan erkinlik va zarurat kategoriyalarining o‘zaro nisbati, shaxs xulq-atvori va faoliyatining ma’naviy-axloqiy jihati nuqtai nazaridan yondashib kelinadi. Shu ma’noda mas’uliyat tushunchasi falsafiy, axloqiy, psixologik, yuridik, ijtimoiy-iqtisodiy

sohalarga xos ko‘plab masalalarning murakkab majmuini qamrab oladi. Bu hol inson va ijtimoiy borliq mohiyatining murakkabligi va rang-barangligi bilan belgilanadi. Har qanday odam o‘zi uchun muhim biron bir maqsadga erishish yo‘lida harakat qilish usulini tanlashda o‘z tabiatiga ko‘ra erkin ekaniga qaramay, uning shaxsiy hayoti butun jamiyat hayoti, boshqalar oldidagi mas’uliyati bilan uzviy bog‘liqdir. Shunday qilib, odamlarning xulq-atvor me’yorlari bilan mas’uliyati uzviy aloqadadir.

Ma’suliyat quyidagi jihatlarga ega bo‘ladi:

- yosh avlodni jamiyatga tayyorlash jamiyat a’zolariing burchi, ammo tarbiya va ta’limga ota-ona va muallimlar javobgarligi;
- vazifani bajarishga faqat salohiyatli mutahasislar ma’suligi;
- kishilar hamma narsaga emas, o‘ziga topshirilga ishga ma’suligi. Va boshqalardan iborat.

Ammo, ma’suliyatsizlik, amoralizm (axloqsizlik) kishilar munosabatlarida axloq me’yorlarni inkor etish,umum e’tirof etilgan xulqatvor me’zonlariga yengil-elpi munosabatta bo‘lish. odob ilmida me’yordan og‘ish tarzida baholanadi va buning uchun ma’naviy javobgarlikni hosil qiladi. Burch esa–axloq falsafasining fundamental kategoriyalaridan biri bo‘lib, bu tushuncha, oila va boshqa shu kabi tuzilmalarning shaxs zimmasiga qo‘ygan talablariga nisbatan insonning axloqiy mas’uliyatini, majburiyatini, ularni bajarish ichki zaruriyat ekanligini anglashni ifodalaydi. Huquqiy jihatdan esa, burch –fuqarolik huquqi sub’ektlari zimmasiga qonun hujjatlari, shartnoma, ish muomalasi odatlari bo‘yicha yuklangan majburiyatdir.

Xulosa qilib aytganda, jamiyatning barcha a’zolari o‘zlariga belgilangan vazifalarni o‘z vaqtida ongli, burch va mas’ulliyat hissi bilan bajarishlari talab qilinadi.Zero, Prezidentimiz o‘z Murojaatnomasida takidlab o‘tganlaridek; o‘zimiz o‘zimizga xiyonat qilmasak, “o‘zimiz o‘zimizni aldamasak, halol-pok bo‘lib mehnat qilsak, ko‘zlangan barcha marralarimizga albatta yetamiz”[4. 78].

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib,yangi bosqichga ko‘taramiz-Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU,2017.-461-462 b.
2. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi-Toshkent: “O‘zbekiston”NMIU, 2019 3 b
3. Falsafa–qomusiy izohli lug‘at.- Toshkent.“Sharq” nashriyoti. 2004y. 130 b
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojatnomasi.-Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2018. - 78

OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA TA’LIM SIFATINI OSHIRISHDA EKOLOGIK BILIMLARNING O‘RNI

Ismoilova Gulbaxor Azamovna

Qo‘qon DPI dotsenti, PhD
e–mail: ismoilovag352@gmail.com

Sayfullayeva Sabina Nodirbek qizi
Qo‘qon DPI Pedagogika va psixologiya fakulteti talabasi

Аннотация. В данной статье освещается процесс формирования экологической культуры в рамках концепции охраны окружающей среды Республики Узбекистан на период до 2030 года, теоретические и методические подходы к развитию экологической культуры, определение принципов и критериев, создание целостной картины концепции посредством анализа системы подходов и критериев, вопросы развития экологической культуры у молодежи.

Ключевые слова: Экологическая культура, геоэкологические знания, культурно-экологический подход, экогуманистический подход.

Abstract. This article highlights the process of forming an environmental culture within the framework of the concept of environmental protection of the Republic of Uzbekistan for the period up to 2030, theoretical and methodological approaches to the development of environmental culture, the definition of principles and criteria, the creation of a holistic picture of the concept through the analysis of a system of approaches and criteria, issues of the development of environmental culture among young people.

Key words: Ecological culture, geo-ecological knowledge, cultural and ecological approach, humanistic approach.

Jahon ta’lim sohasida ekologiya fanlari va pedagogikaning integratsiyalashuvi tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Buning sababi shundaki, atrof-muhit bizning hayotimizni shakllantirishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi, ekologiyani asrashda esa o‘quvchilar o‘z harakatlarining tabiatga ta’sirini tushunishlari juda muhimdir. Pedagogikada ekologik bilimlarni yaratish yoki ekologiya fanlarining pedagogikaga integratsiyalashuvi o‘quvchilarga atrof-muhit va uni himoya qilish usullarini ta’lim orqali o‘rgatish maqsadini ko‘zlaydi. Pedagogika va ekologiya fanlarining integratsiyalashuvi muhimligining asosiy sabablaridan biri shundaki, u o‘quvchilarda ekologik ongni shakllantirishga yordam beradi. Ekologiya va barcha tirik mavjudotlarning o‘zaro bog‘liqligini o‘rganish orqali o‘quvchilar tabiiy dunyoni chuqurroq tushunishlari mumkin. Atrof-muhitni muhofaza qilish borasidagi egallangan bilimlar ularning kundalik hayotida barqaror tanlovlar ishlab chiqishlarida mas’uliyatli bo‘lishlariga olib keladi. Pedagogika va ekologiya fanlarini integratsiyalash o‘quvchilarda tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga ham yordam beradi. Atrof-muhit va unga inson faoliyatining ta’sirini o‘rganish orqali o‘quvchilar murakkab muammolarni tahlil qilish va ijodiy yechimlarni topishni o‘rganishlari mumkin. Bu ularga atrof-muhit masalalari bo‘yicha ongli qarorlar qabul qilishga qodir bo‘lgan bilimdon va mas’uliyatli fuqarolar bo‘lish imkonini beradi. Keyingi yillarda ekologiya fanini pedagogika

bilan integratsiyalashtirishning ahamiyati tobora ortib bormoqda. Bu e'tirof bizning hozirgi ta'lim tizimlarimiz ko'pincha o'quvchilarni sayyoramiz oldida turgan murakkab ekologik muammolarni tushunish va hal qilish uchun yetarli darajada tayyorlay olmasligini anglashdan kelib chiqadi. Pedagogikada ekologik bilimlarning berilishi yoki ekologiya fanining pedagogikaga integratsiyalashuvi o'quvchilarga o'z muhitining faol boshqaruvchisi bo'lishlari uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalarni berish orqali ushbu muammoning istiqbolli yechimini taklif etadi. Ekologiya fanini pedagogikaga kiritishning asosiy afzalliklaridan yana biri shundaki, u o'quvchilarda barcha tirik mavjudotlarning o'zaro bog'liqligini chuqurroq tushunishga yordam beradi. "Ekologik tamoyillarni o'rganish orqali talabalar organizmlarning bir-biri va atrof-muhit bilan murakkab va dinamik tarzda o'zaro ta'sirini o'rganishlari mumkin. Bu tushuncha talabalarga biologik xilma-xillikning ahamiyatini va ekotizimlarda mavjud bo'lgan nozik muvozanatni tushunishga yordam beradi" [1.18-25 b.].

Pedagogika va ekologiya fanlarining integratsiyalashuvi o'quvchilarda boshqa tirik mavjudotlarga nisbatan hamdardlik hissini shakllantirishga ham yordam beradi. Ekotizimlarning nozik muvozanati va biologik xilma-xillikning ahamiyatini o'rganish orqali talabalarda hayvonlar va o'simliklarga nisbatan ko'proq mehr-shafqat tuyg'usini rivojlantirishlari mumkin. Bu barcha tirik mavjudotlar bilan o'zaro bog'liqlik hissi va tabiiy dunyoni himoya qilish va saqlash istagini uyg'otishi mumkin. Pedagogikada ekologik bilimlarning berilishi orqali talabalarda real muammolarni hal qilishda qo'llanilishi mumkin bo'lgan amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga yordam beradi. Dala sayohatlari, eksperimentlar va ekologik loyihalar kabi amaliy mashg'ulotlar bilan shug'ullanib, talabalar ekologik muammolarni hal qilish uchun ilmiy tamoyillarni qo'llashni o'rganishlari mumkin. Bu ularga o'z jamoalarida ekologik muammolarni hal qilishda vakolatlilik va vakolatlarni rivojlantirishga yordam beradi. Ekologiyani o'rganish orqali talabalar murakkab tizimlarni tahlil qilish va baholashni, tendentsiyalarni aniqlashni va turli o'zgaruvchilar o'rtasida bog'lanishni o'rganadilar. Ekologik bilimlarni pedagogikaga singdirishning yana bir muhim foydasi shundaki, u o'quvchilarda ekologik mas'uliyat hissini shakllantirishga yordam beradi. "Inson faoliyatining atrof-muhitga ta'sirini o'rganish orqali o'quvchilarda tabiiy dunyoga nisbatan hamdardlik hissi va uni himoya qilish uchun harakat qilish istagi paydo bo'lishi mumkin. Bu mas'uliyat tuyg'usi talabalarni o'z hayotlarida barqaror tanlovlar qilishga va atrof-muhitni muhofaza qilishni targ'ib qiluvchi siyosatni himoya qilishga undashi mumkin" [2. 156-b.].

Pedagogikada ekologiya fanlarining integratsiyalashuvi o'quvchilarda global fuqarolik tuyg'usini ham shakllantirishga yordam beradi. Ekotizimlarning o'zaro bog'liqligi va inson faoliyatining atrof-muhitga ta'sirini o'rganish orqali o'quvchilar global ekologik muammolar haqida ko'proq xabardor bo'lishlari mumkin. Bu ularga atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha xalqaro sa'y-harakatlarga hissa qo'shishga qodir bo'lgan ma'lumotli va faol fuqarolar bo'lishga yordam beradi. Bundan tashqari, pedagogikada ekologik bilimlarning tuzilishi ham o'quvchilarda atrof-muhitga nisbatan boshqaruv tuyg'usini rivojlantirishga yordam beradi.

Barqarorlikning ahamiyati va tabiiy resurslarni muhofaza qilish zaruriyatini o‘rganish orqali o‘quvchilarda atrof-muhitga nisbatan katta mas’uliyat hissi paydo bo‘lishi mumkin. Bu ularning kundalik hayotida barqaror tanlovlar qilish va atrof-muhitni muhofaza qilish tarafdori bo‘lish majburiyatini oshirishga olib kelishi mumkin. Ekologiya fanlarini pedagogikaga integratsiyalash o‘quvchilarda tabiat dunyosining go‘zalligi va xilma-xilligini qadrlash tuyg‘usini rivojlantirishga yordam beradi. Tabiat mo‘jizalari va tirik organizmlar o‘rtasidagi murakkab munosabatlarni o‘rganish orqali o‘quvchilarda atrof-muhitga nisbatan hayrat tuyg‘ulari paydo bo‘ladi. Bu qiziqish tuyg‘usi tabiatni o‘rganish istagini uyg‘otishi mumkin. Pedagogikada ekologiya fanlarining integratsiyalashuvi ham o‘quvchilarda chidamlilik va moslashuvchanlik tuyg‘ularini shakllantirishga yordam beradi. Iqlim o‘zgarishi va boshqa ekologik muammolarning ta’sirini o‘rganish orqali talabalar o‘zgaruvchan sharoitlarga moslashish zarurligi haqida ko‘proq tushuncha hosil qilishlari mumkin. Bu ularga ekologik muammolarni hal qilish va yanada barqaror kelajakni qurish uchun zarur bo‘lgan ko‘nikma va bilimlarni rivojlantirishga yordam beradi.

O‘z jamoalarida mavjud bo‘lgan ekologik tizimlarni o‘rganish orqali talabalar tabiiy dunyo bilan yanada chuqurroq aloqada bo‘lishlari va mahalliy atrof-muhit uchun boshqaruv hissini rivojlantirishlari mumkin. Joyga asoslangan o‘ziga xoslik hissi o‘quvchilarda tabiiy dunyoning go‘zalligi va xilma-xilligiga doimiy minnatdorchilikni rivojlantirishga yordam beradi. Ekologiya fanini pedagogika bilan integratsiyalash o‘quvchilarda ekologik savodxonlik tuyg‘usini shakllantirishga yordam beradi. Ekologik bilimlarni o‘rganish orqali talabalar sayyoramiz oldida turgan asosiy ekologik muammolar, masalan, iqlim o‘zgarishi, biologik xilma-xillikning yo‘qolishi va ifloslanish haqida bilib olishlari mumkin. Ushbu bilim talabalarga ushbu dolzarb muammolarga barqaror yechimlarni himoya qilishga qodir bo‘lgan, ekologik xabardor fuqarolar bo‘lishga yordam beradi. Pedagogikada ekologik bilimlarning singdirilishi o‘quvchilarda fanlararo ko‘nikmalarni shakllantirishga yordam beradi. “Ekologiya biologiya, kimyo, fizika, geografiya va boshqa fanlardan olingan bilimlarga asoslangan keng va ko‘p tarmoqli sohadir. Ekologiyani o‘rganish orqali talabalar turli sohalarda qo‘llaniladigan ma’lumotlarni tahlil qilish, tanqidiy fikrlash va muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishlari mumkin” [3. 156-b.]. Qolaversa, ekologiya fanini pedagogikaga integratsiyalash o‘quvchilarda ilmiy izlanish tuyg‘usini rivojlantirishga yordam beradi. Ekologiya - bu kuzatish, tajriba va ma’lumotlarni tahlil qilishga asoslangan soha. Amaliy mashg‘ulotlar va dala tadqiqlari bilan shug‘ullanib, talabalar ilmiy izlanish ko‘nikmalarini rivojlantirishlari va olimlar kabi fikrlashni o‘rganishlari mumkin. Pedagogikada ekologik bilimlarning tuzilishi ham o‘quvchilarda global ongni shakllantirishga yordam beradi. Ekologiyani o‘rganish orqali talabalar butun dunyodagi ekotizimlarning o‘zaro bog‘liqligi va ekologik muammolarni hal qilishda global nuqtai nazardan foydalanish muhimligi haqida bilib olishlari mumkin. Ushbu global xabardorlik talabalarda dunyoning boshqa qismlaridagi odamlar va ekotizimlarga nisbatan hamdardlik hissini va global

ekologik muammolarni hal qilish uchun hamkorlikda ishlash istagini rivojlantirishga yordam beradi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, pedagogika va ekologiya fanlarining integratsiyalashuvi o‘quvchilar tarbiyasini shakllantirishda hal qiluvchi o‘rin tutadi. Pedagogikada atrof-muhit va inson faoliyatining unga ta’siri haqida o‘rgatish orqali o‘quvchilarda ekologik ong, tanqidiy fikrlash ko‘nikmalari, empatiya, amaliy ko‘nikmalar, global fuqarolik, boshqaruv, qadrlash va chidamlilik tuyg‘ularini rivojlantirishga yordam beradi. Oxir oqibat, bu talabalarni atrof-muhitga ijobiy ta’sir ko‘rsatishga va barcha tirik mavjudotlar uchun yanada barqaror kelajakni yaratishga qodir bo‘lgan bilimli va mas’uliyatli fuqarolar bo‘lishga imkon beradi.

Foydalanilgan manba va adabiyotlar

1. Винокурова Н.Ф. Культурно-экологический подход в модернизации географического образования: теоретико-методологические основы и методика реализации // Теория и методика обучения географии: история и современные направления развития. - СПб., 2004.- С. 18-25.
2. Князева Э.Х,. Синергетика. Нелинейност времени и ландшафты коеволюции - М. : Комкнига, 2007. - 156 с.
3. Каган М. С. Системно-синергетический подход к построению современной педагогической теории / М.С. Каган // Синергетическая парадигма. Синергетика образования. - М.: Прогресс-традиция, 2007. - С. 223-234.
4. Мануйлов Ю.С. Средовый подход в воспитании - М., Н. Новгород: Изд-во Волго-Вятской академии государственной службы, 2002. - 157 с.
5. Ismoilova, G. A. (2019). The pedagogical importance of developing eco-culture for students. Scientific Bulletin of Namangan State University, 1(3), 352-355.
6. Ismoilova, G., & Muhammedova, M. (2023). Ekologik madaniyatni shakllantirish va rivojlantirishda ekologik ta’lim-tarbiyaning uzviyligi. Евразийский журнал технологий и инноваций, 1(8), 31-34.
7. Azamovna, I. G. (2022). Globalization in the process the student is the national values of the youth in the spirit bring up necessity. Open Access Repository, 8(12), 512-516.

ANALYSIS OF INTERNATIONAL EXPERIENCE IN ENSURING THE TRANSPARENCY (OPENNESS) OF STATE POLICY REGARDING YOUTH

Khudoberdiyev Jamoliddin
Kokand State Pedagogical Institute

Усилия по охране окружающей среды сельских культурных ландшафтов были сосредоточены на:

- сохранение кочевого наследия: защита и поощрение традиционной кочевой практики, моделей землепользования и традиций выпаса скота в целях сохранения культурных и экологических ценностей ландшафта.
- природоохранные подходы на уровне общин: внедрение общинных природоохранных подходов, предусматривающих участие местных общин в рациональном использовании ландшафта.
- поощрение устойчивого туризма: развитие и поощрение практики устойчивого туризма, которая уважает и способствует сохранению ландшафта и поддерживает местные общины.

Сохранение культурных ландшафтов в городских и сельских районах имеет важное значение для сохранения нашего общего наследия, содействия устойчивому развитию и повышению качества жизни [8]. Принятие совместного и комплексного подхода к охране природы с участием местных общин и заинтересованных сторон и внедрение практики устойчивого развития и управления имеют ключевое значение для сохранения целостности; подлинность и жизнеспособность культурных ландшафтов в Ошской области Кыргызстана и за ее пределами. Признавая значение культурных ландшафтов и инвестируя в их сохранение, мы можем обеспечить, чтобы они продолжали обогащать нашу жизнь и вдохновлять нас своей красотой, историей и разнообразием.

Литература

1. Исакова У.И., Шербаева З.Э. Влияние ландшафта на формирование местной культуры. (2014). Вестник ОшГУ. №3, 170-174.
2. Smith, J. (2018). Культурные пейзажи: Понимание и сохранение нашего наследия. Heritage Conservation Press.
3. Исаков, А. (2020). Городские культурные ландшафты Ошской области: вызовы и стратегии сохранения. Урбанистический журнал Кыргызстана, 25(3), 456-470.
4. Абдылдаев, У. (2019). Сельские культурные пейзажи в Ошской области: традиционная практика и вопросы сохранения. Журнал сельского развития Кыргызстана, 30(2), 123-137.

5. Джонсон, Л. (2021). Стратегии сохранения культурного ландшафта: комплексный подход. Журнал по охране природы, 35(1), 68-82.
6. Абдукалыков, Т. (2017). Сохранение исторического центра Оша: тематическое исследование. Журнал управления наследием Кыргызстана, 12(4), 345
7. Тологонов, Б. (2020). Сохранение культурного ландшафта Алайского региона на уровне общин. Журнал культурного наследия и туризма Кыргызстана, 28(1), 24-39.
8. Робинсон, П. (2022). Сохранение культурного ландшафта: вызовы и возможности в будущем. Пейзажный журнал, 40(2), 150-165.

GLOBALLASHUV SHAROITIDA MILLIY TARBIYANI RIVOJLANTIRISH ZARURIYAT SIFATIDA

X.Yuldasheva
Qo‘qon DPI Milliy g‘oya, ma’naviyat asoslari va huquq kafedrasi o‘qituvchisi
M.Hasanov
Qo‘qon DPI Tarix yo‘nalishi I bosqich talabasi

Annotatsiya. Mazkur maqolada globallashuvning yoshlar tarbiyasidagi va millat mentalitetiga salbiy ta’sirlari, o‘sib kelayotgan yosh avlodda yuksak ma'naviyati, keng dunyoqarashlari, kuchli tafakkurni shakllantirishi, ogohlik va sergaklik ruhida tarbiyalashda milliy tarbiyaning o‘rni hamda ahamiyati yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: milliy tarbiya, globallashuv, axborot asri, milliylikning shaffoflashuvi, ogohlik, begonalashuv, ijtimoiy tarmoqlar, milliy qadriyatlar, yosh avlod.

Аннотация. Влияние этой глобализации на воспитание молодежи и менталитет нации, роль и значение национального образования в подрастающем молодом поколении, высокую духовность, широкое мировоззрение, воспитание сильного мышления, воспитание в духе сознательности и бдительности. выделено в статье.

Ключевые слова: национальное образование, глобализация, информационный век, освобождение национальности, осведомленность, отчуждение, социальные сети, национальные ценности, молодое поколение.

Abstract. In this article, we analyze the negative impact of globalization on the education of youth and the mentality of the nation, the role and importance of national education in the formation of high spirituality, a broad worldview, strong thinking, consciousness and vigilance among the younger generation.

Keywords: national education, globalization, the era of globalization, transparency of nationality, awareness, alienation, social networks, national values, young generation.

Globallashuv jarayonining chuqurlashib borishi natijasida inson uchun xavfli bo‘lgan turli xil noan’anaviy tahdidlar yuzaga kelib chiqmoqda. Bulardan eng xavflilari esa insonlarning ruhiyatiga ta’sir o‘tkazish orqali millatlarning qadriyatlari va turmush tarzini izdan chiqarishga qaratilgan axloq-odob, tarbiya hamda oila va jamiyat hayotida jiddiy ta’sir ko‘rsatadigan ma’naviy tahdidlar hisoblanadi.Yurtboshimiz bejiz aytmagan “Ilmni qadrlang,ilmga intiling “deb [2] Yer yuzida kechayotgan mudxish xodisalarning sabablaridan biri ilmsizlikdir.

Butun dunyoda tarbiya masalasi insoniyat paydo bo‘lgandan buyon eng dolzarb masalalardan biri bo‘lib kelmoqda. Tadqiqotchilar fikricha, insoniyat hayotining ibtidoiy davrlarida bolalarni tarbiyalashda turli g‘oyalar paydo bo‘lgan va tarbiya ma’zmuni turli davrlarda, turli xalq, millat va elatlarda u yoki bu shaklda bo‘lishiga qaramasdan ibtidoiy to‘da davridan insoniyat ongli yoki ongsiz ravishda ushbu murakkab va uzluksiz jarayonni amalga oshirib kelmoqda. Shu o‘rinda jamiyatda yosh avlodni axloqiy va irodali tarbiyalash dolzarb muommo bo‘lib kelgan va doimo shunday bo‘lib qoladi. Hozirgi mafkuraviy tahdidlar kundan kunga kuchayayotgan ayni paytda yoshlarni, ayniqsa, maktab tizimida tahsil oladigan o‘quvchilarini tarbiyalash muommolarini hal etish masalasi qiyinlashtirmoqda. Chunki, bugungi zamonaviy jamiyatda aksariyat bolalarning irodaviy rivojlanishda zaiflik va hatti-harakatlarida salbiy harakter xususiyatlarning namoyon bo‘lishi, o‘sib kelayotgan yosh avlodni axloqiy sifatlarini tarbiyalashni yetakchi masala sifatida namoyon qiladi. Yoshlarning ma'lum bir qismi ayniqsa o‘smirlar tomonidan qabul qilingan ideallar, me'yor hamda qadriyatlar yosh avlodni axloqiy va irodali tarbiyalashning butun tizimini takomillashtirish zaruriyatini yuzaga keltirmoqda. So‘nggi yillarda mamlakatimizda yoshlar tarbiyasi masalasi davlat siyosati darajasiga ko‘tarilganini inobatga olib, ushbu yo‘nalishdagi prinsipial yondashuvlarni takomillashtirish, strategik maqsad va vazifalarning konseptual asoslarini ishlab chiqish zaruratini talab qiladi. Mamlakat yoshlarini ma'nan va jismonan barkamol qilib tarbiyalash, iqtidori va salohiyatini ro‘yobga chiqarish, ularni davlat va jamiyatning rivojiga keng jalb etish, tashabbuslarini yetarli darajada qo‘llabquvvatlash maqsadida huquqiy asoslar, iqtisodiy imkoniyatlar va tashkiliy mexanizmlarni yanada kengaytirishga xizmat qiladi.

Ma’naviy tahdidlar shaxs axloqiy ongida salbiy tushunchalar, tuyg‘ular, xususiyatlar va sifatlarni hosil qiluvchi illatlar majmuidir. Chunki tahdid so‘zi “xavf-xatar, xuruj va buzish” ma’nolarini anglatadi. Shu ma’noda ma’naviy tahdidlarni shaxsni aqliy va axloqiy jihatdan buzishga qaratilgan maqsadli xurujlar deyish mumkin.

Ma’naviy tahdidlardan maqsad, birinchidan, shaxsning ma’naviy-axloqiy olamini buzish; ikkinchidan, o‘z vatani va jamiyatiga nisbatan yovuzlik fikrini uyg‘otish; uchinchidan, milliy axloqiy qadriyatlarni aynitish; to‘rtinchidan, o‘zgalar jamiyatini ideal deb bilish ko‘nikmasini hosil qilish; beshinchidan, zararli odatlarga

xuruj qo‘yishdir. Diqqat qilsak, ma’naviy tahdidlarning barcha turi nosog‘lom turmush tarzi bilan bog‘liqligiga va u mafkuraviy nuqtayi nazardan eng xavfli omil ekanligiga amin bo‘lamiz. Chunki uning negizini shaxs tarbiyasini izdan chiqarishga qaratilgan g‘oya tashkil etadi. Kuzatishlar esa shuni ko‘rsatadiki, bugungi kunda ma’naviy tahdidlar quyidagicha illatlarni targ‘ib qilayotgani namoyon bo‘lmoqda: xudbinlik, nopoklik, nafsga uchish, huzur-halovatga berilish, yengil-yelpi umr kechirishga da’vat, giyohvandlik, mutaassiblik, tajovuzkorlik, mol-u dunyoga o‘chlik, axloqiy buzuqlik, zo‘ravonlik, axloqsizlikni madaniyat deb bilish va, aksincha, asl ma’naviy qadriyatlarni eskilik sarqiti deb qarash, loqaydlik, mahalliychilik, irodasizlik va h.z. Globallashuv yaratayotgan imkoniyatlardan hozirgi kunda ma’naviy bo‘shliqni to‘ldirishga harakat qilayotgan siyosiy va mafkuraviy markazlar foydalanmoqdalar. Globallashuv sharoitida milliylikning shaffoflashuvi va uning salbiy ta’sirlaridan himoyalanishda milliy tarbiya asoslarini rivojlantirish zaruriyati mavzuni belgilashimizga asos bo‘lib xizmat qiladi.

XXI asr kishisi umuminsoniy qadriyatlardan va bugungi kun haqiqatlaridan kelib chiqib, jismonan sog‘lom, ma'naviy-axloqiy, intellektual jihatdan rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan bo‘lishi shu bilan birga dunyoda sodir bo‘layotgan jarayonlarga loqayd bo‘lmasligi, tashqi olam bilan faol aloqada bo‘lishligi lozim. Bugungi globallashuv jarayonlari, fan-texnika taraqqiyoti, innovatsion jamiyatga bo‘lgan ehtiyoj yoshlar uchun ko‘plab imkoniyatlar yaratmoqda. Ular oldiga tezkor qarorlar qabul qilish, innovatsion tafakkurni shakllantirish, intellektual salohiyatni oshirish bilan birga milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiq bo‘lishdek hayotiy talablarni qo‘ymoqdalar. O‘sib kelayotgan yosh avlodda yuksak ma'naviyat, keng dunyoqarash, tafakkurni shakllantirish, ogohlik va sergaklik ruhida tarbiyalash davr talabiga aylandi. Sababi fikrlash, tahlil qilish, idrok qilish qobiliyatiga ega bo‘lmagan yosh avlod faqat topshiriqni bajaruvchi manqurtga aylanishi ehtimoli mavjud. Manqurtlar esa kechagi, bugungi, kelgusi kun haqida o‘ylamaydilar. Ular inson uchun zarur bo‘lgan erk, haq-huquq va qadriyatlarning qadriga yetmaydi. Shu o‘rinda o‘sib kelayotgan yosh avlodni mamlakatimiz va o‘z kelajagiga bo‘lgan ishonch odobini tarbiyalash ta'lim olishida, shaxsiy hayotida, kelgusi ish faoliyatida, jamoa orasida qat'iy harakat qilishida katta ahamiyatga ega. Har bir ma'naviyatli, ongli insonda vatanidan faxrlanish tuyg‘usi bo‘lishi, unga munosib bo‘lishga harakat qilishi lozim. Uni rivojlantirish, shakllantirish va yosh avlodni milliy qadriyatlar asosida to‘g‘ri tarbiyalash har bir davlat va jamiyat oldidagi muhum vazifadir. Bolalarda vatan tuyg‘usini tarbiyalash, ajdodlar o‘tmishi, kechinmalari, madaniyati jahon fan va madaniyati sohasida tutgan o‘rni haqida ma'lumot berish muhum ahamiyatga ega. Shaxsni tarbiyalash eng dolzarb ijtimoiy va pedagogik muommo hisoblanadi. O‘sib kelayotgan yosh avlodni jamiyat talablari asosida tarbiyalashda ta'lim sub'ektlari o‘rtasidagi uzluksizlikni hamda fan predmetlari o‘rtasidagi integratsiyani ta'minlash zaruriyati mavjud.

“Tarbiya” va “tarbiyat” so‘zlari 1) parvarish qilmoq; ta'lim bermoq; o‘rgatish; 2) navozish; mehribonlik ko‘rsatish; ko‘z-quloq bo‘lish; himoya qilish; kabi ko‘p qirrali ma'nolarga ega. “Tarbiya” atamasi XVII-XIX asrlarda hozirgi bizning davrimizga qaraganda boshqacha ma'noga ega bo‘lgan. Bu davrlarda bolalarning

normal o‘sishi va rivojlanishini ta'minlash deb tushinilgan bo‘lsa, XX asrda ushbu atama yangi ma’zmun bilan to‘ldirilib bunda barcha rivojlanish omillari (tasodifiy va maqsadli) ta'sirida shaxsning shakllanishi, natijada esa madaniyatni egallashi va jamiyat a'zosiga aylanishi sifatida talqin etildi. “Tarbiya” tushunchasi “shakllanish”, “ijtimoiylashish” tushunchalari bilan birlashib, pedagogik tushunchadan ko‘ra ko‘proq psixologik tushunchaga aylandi.

Tarbiya –bu ma'lum madaniy va ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda yosh avlodni hayotga tayyorlash shaxsni rivojlantirish va o‘z-o‘zini rivojlantirishga qaratilgan bolalar va kattalar o‘rtasidagi ta'limning maqsadli boshqariladigan ochiq tizimidir.

Inson asosan ikki xil yo‘l bilan tarbiyalanishi mumkun: birovlarning bevosita ta'siri, ya'ni o‘rgatishi, shuningdek donolar fikrlari, o‘gitlari va asarlarini o‘qish orqali; inson o‘zining fiklashi, odamlar hatti-harakatidan, qilgan va qilayotgan ishlaridan tegishli xulosalar chiqarib olishi eng qudratlisi-tafakkuri vositasida tarbiyalanishi mumkun.

Ota-bobolarimiz “Agar kishiga hayotning o‘zi berolmasa ta'lim, unga o‘rgata olmas hech bir muallim” deya juda asosli fikr aytishgan.

Tarbiya mavsumiy, ma'lum bir vaqtga mo‘ljallangan ish faoliayti emas, balki jamiyat va davlat ahamiyatiga molik kechiktirib bo‘lmas, uzluksiz davom etadigan jarayon va strategik masaladir. Tarbiya jarayoni o‘qituvchi va o‘quvchining o‘zaro ta'sirida amalga oshiriladigan dinamik tizim sifatida qaraladi. Tarbiya jarayoni ta'lim muassasasi pedagogik faoliyatining yadrosidir.

Inson va jamiyatning mavjudligini ta’minlaydigan qadriyatlar milliy tarbiya tufayli ajdodlardan asta-sekin avlodlarga o‘tadi. Milliy tarbiya atamasi keng va tor doirada ishlatiladi. Keng ma’noda, u inson shaxsini shakllantirishga, uning ishlab chiqarish va ijtimoiy, madaniy, ma‟rifiy hayotda faol ishtirokini ta‟minlashga qaratilgan barcha ma’naviy ta’sirlar, tadbirlar, harakatlar, intilishlar yig‘indisini anglatadi. Demak milliy tarbiya nafaqat oila, maktab, bolalar va yoshlar tashkilotlarida olib boriladigan tarbiyaviy ishlar, balki butun ijtimoiy tuzum va uning yetakchi g‘oyalari, hatto adabiyot, san’at, kino, radio, TV, OAV va boshqalarni o‘z ichiga oladi. Shunungdek, milliy tarbiya tarkibiga bu sohada ta’lim va ma’lumot olish ham kiradi. Tor ma’noda, milliy tarbiya muayyan shaxsning ma’naviy rivoji, dunyoqarashi, axloqiy qiyofasi, estetik g‘oyalarini o‘stirilishiga yo‘naltirilgan pedagogik faoliyatni anglatadi. Bizga ma’lumki, har qanday tarbiya ta’lim bilan chambarchas bog‘liq holdagina mavjud bo‘la oladi.

Globallashuv sharoitida ma’naviy-axloqiy tahdidlarga qarshi kurashda ta’lim-tarbiya muassasalari faoliyati tizimida bosh harakatdagi shaxs, pedagog, o‘z shaxsiy potensiali va mahoratini ishga solgan holda o‘quvchilar, talabalar umuman yoshlar bilan hamkorlikda ijodiy va hayotiy faoliyatini maqsadga muvofiq tarzda tashkil etsa, o‘rganuvchilar uning barcha shakl va ko‘rinishlarida real subyektga aylanadi.

Dunyo bugun O‘zbekistonni milliy-madaniy merosi, boy tarixi, tili, madaniyati, urf-odat va an’analarining umuminsoniy g‘oyalar bilan mujassamligi, san’at va arxitektura, fan va madaniyat sohasida erishayotgan yutuqlari orqali ham kashf etmoqda. Demak biz globallashuv jarayonida passiv qabul qiluvchi tomongina bo‘lmay, faol tarshb qiluv chilarga ham aylanishimiz mumkin.

Milliy istiqlol g‘oyasining shakllantirilishi va uning o‘quvchilar, talabalar, keng aholi tomonidan o‘rganishga kirishilishi mamlakatimiz ma’naviy taraqqiyotida alohida bosqichni tashkil qiladi. Aslida, milliy istiqlol g‘oyasi yang negizlari chuqur o‘rin egallaydi. U xalqimizning milliy madaniy merosidan, ezgu g‘oyalaridan oziqlanadi. Lekin, bu g‘oyani yoshlar ongiga singdirish uchun muayyan poydevor kerak edi. Ya’ni, avvalo milliy qadriyatlarni, milliy ma’naviyatni tiklash, milliy g‘ururni uyg‘otish, bir so‘z bilan aytganda, istiqlol g‘oyasi tomir otishi va gurkirab rivojlanishi uchun zamin tayyorlash lozim edi. Mustaqillik qo‘lga kiritilgandan buyon o‘tgan vaqt ichida ma’naviyat sohasida ulkan nazariy, ma’rifiy va amaliy ishlar bajarildi. Ma’naviyat va ma’rifat kengashlari tuzildi, yuzlab maqola va risolalar nashr etildi, tadqiqotlar o‘tkazildi, ta’lim to‘g‘risida milliy dastur qabul qilindi. Bir so‘z bilan aytganda, milliy istiqlol g‘oyasini keng targ‘ib qilish uchun zamin yaratildi.

Milliy qadriyatlar esa mahalliy va diniy qadriyatlarga, umuminsoniy qadriyatlar esa ko‘plab milliy qadriyatlarga tayanib shakllanadi va asrlar osha takomillashib boraveradi. Ammo bugungi tezkor globallashuv sharoitida ham o‘z milliy moddiy va ma’naviy boyliklarini asrab-avaylayotgan, boyitib rivojlantirayotgan har qanday millat o‘ziga xos an’analari, urf-odatlari va o‘lmas qadriyatlari bilan boshqa millatlardan ajralib turadi.

Xulosa qilib aytishimiz mumkinki yuqoridagi fikrlardan ko‘rinib turibdiki, milliy tarbiya har qanday jamiyat va mamlakat hayotida hal qiluvchi ahamiyatga ega. Chunki uning o‘sishi har qanday jamiyat va davlatda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Buning uchun o‘sib kelayotgan yosh avlod o‘z ajdodalaridan ham yuqoriroq natijalarga erishsishi lozim bo‘ladi. Ammo, bugungi kunda dunyoning ayrim hududlarida axloqga zid bo‘lgan harakatlar natijasida katta ma'naviy yo‘qotishlar yuz berayotgani millatning asriy qadriyatlari, millatning asriy qadriyatlari, milliy tafakkuri va turmush tarzi izdan chiqayotgani, axloq-odob, oila va jamiyat hayoti, ongli yashash sharti jiddiy xavf ostida qolayotganini kuzatish mumkun. Bugungi globallashgan XXI asrda yoshlarimizni axloqimizga zid bo‘lgan illatlardan va tahdidlardan saqlash eng asosiy burchimizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Karimov I.A. “Buyuk kelajagimizning haqiqiy kafolati”. Toshkent-1993/ 27-28 betlar.
2. “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyoti strategiyasi” “O‘zbekiston” Toshkent-2022/252-bet
3. Alimov A.M. “Globallashuv va iqtisodiy integratsiya jarayonlari”. Toshkent-2016/ 30-bet
4. Safo Ochil. “Mustaqillik ma’naviyati va tarbiya asoslari”. Toshkent-1995/208 bet.

TA’LIM TIZIMIDAGI ISLOHOTLARDA BARKAMOL INSONNI TARBIYALASHNING ASOSLARI

Z.Boytemirova
Qo‘qon DPI Milliy g‘oya, ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi kafedrasi dotsenti, f.f.n.
Jaloldinov Javlonbek
Qo‘qon DPI IV bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada mamlakatimizda ta’lim sohasida olib borilayotgan ishlarning tub maqsadi,ta’lim tizimida olib borilayotgan islohotlar, yoshlarimizni ma’nan barkamol qilib tarbiyalash masalalariga alohida e’tibor qaratilgan. Biz yoshlarimizga ta’lim berish jarayonida virtual olamda yetarlicha malaka va ko‘nikmaga ega bo‘lishlarini tushuntirmog‘imiz lozim.

Kalit so‘zlar: ta’lim, tarbiya, barkamol shaxs, virtual olam, ma’naviyat, komil inson, yoshlar, adolat, mehr

Аннотация. В данной статье особое внимние уделено основной цели работы, проводимой в сфере образавания, вопросам содержательного воспитания нашей молодежи что в процесси обучения у них будет достаточно новыков и умений в виртуальном мире.

Ключевые слова: образавание, воспитание, совершенный человек, виртуальный мир, духовност, совершенный человек, молодость, справедливость, любовь.

Abstract. In this article, special attention is paidto the main purpose of the work carriedout in the field of educationin our country, the reforms carried out in the education system, ,and the issues of educating our youingpeople in a meaningful way.We need to explain to our young people thet in the process of education they will have enough skills and abilities in the virtual world.

Key words: education perfect person, virtual, world, spirituality, perfect, person youth, justice, love.

Yurtboshimiz ta’kidlaganlari kabi, olib borayotgan targ‘ibot-tashviqot, ma’naviy-mafkuraviy ishlarimiz aniq maqsadga yo‘naltirilmas ekan, undan hech kim, hech qanday naf ko‘rmaydi. Fuqaroning qiziqishi, xususiyatlari, yoshi va boshqa jihatlari e’tiborga olinib o‘tkaziladigan har qanday tadbir bir tomondan, o‘sha shaxsning sog’lom ma’naviy ehtiyojini shakllantirishga xizmat qilsa, boshqa tomondan, uning ma’naviy qiyofasini boyitishga, mustaqil shaxs sifatida tarbiya topishiga imkon beradi. Darhaqiqat, barkamol inson tarbiyasi, ayniqsa yoshlar qalbida yaxshilik, ezgulik, millat va Vatanga mehr qo‘yish sifatlarini shakllantirish o‘z o‘zidan bo‘lmaydi.

Bugungi axborotlashgan jamiyatda biz xar qachongidan xam hushyor va har taraflama bilmli bo‘lishimiz lozim.Shu o‘rinda yurtboshimizning ushbu so‘zlari o‘rinlidir: “Hammamizga ayonki, taraqqiyotning tamal toshi ham, mamlakatni qudratli, millatni buyuk qiladigan kuch ham bu — ilm-fan, ta’lim va tarbiyadir.

Ertangi kunimiz, Vatanimizning yorug‘ istiqboli, birinchi navbatda, ta’lim tizimi va farzandlarimizga berayotgan tarbiyamiz bilan chambarchas bog‘liq”.

Chunki dunyoda barcha mamlakatlarida o‘zining auditoriasini yarata olgan va o‘zining domiga butun insoniyani ya’ni yosh-u qarini,erkak va ayolni bir vaqtda jalb qilib olgan,chegara, millat, din, til irq tanlamagan - internet to‘xtovsiz va beayov o‘zining faoliyatini olib bormoqda. Aynan O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasining 33-moddasida “Davlat Internet jahon axborot tarmog‘idan foydalanishni ta’minlash uchun shart-sharoitlar yaratadi” [1] deyilganligi xam bejiz emas. Yon atrofimizga teran nazar tashlasak bugungi kunda raqamli fuqaro, raqamlashgan jamiyat tizimida yashamoqdamiz. Ta’lim sohasida xam huddi shunday. Xar bir ta’lim muassasasi internet tizimi bilan ulangan Wi Fi tarmoq mavjuddir. Bularning barchasi dunyo bilan xamnafas bo‘lib yashashimiz uchun davlat tomonidan yaratilgan imkoniyatlardir. Jamiyatda insonlar faoliyatining deyarli barcha sohasini qamrab olayotgan media olam sizu bizdan doimo xushyorlik talab qilar ekan, barcha soha vakillari shu jumladan ta’lim tizimida xam faqatginia ijobiy tomonlama foydalanish uchun nazoratni yo‘lga qo‘ymog‘imiz zarur. Mamlakatimizda ta’lim sohasida olib borilayotgan ishlarning tub maqsadi yoshlarimizni ma’nan barkamol qilib tarbiyalashdir.Biz yoshlarimizga ta’lim berish jarayonida virtual olamda yetarlicha malaka va ko‘nikmaga ega bo‘lishlarini tushuntirmog‘imiz lozim. Yana shu narsa ma’lumki, virtual dunyoda inson ma’naviy javobgarlikni xis etmaydi. Hattoki, mutaxassislarning ta’kidlashicha, virtual dunyo, uning zamonaviy axborot texnologiyalari bag’rida yaratilishi atom bombasining kashf etilishidan ham xavfli. Hozirgi sharoitda ayrim yoshlarimizning virtual dunyoga tushib qolishi, ularning real dunyodan ajralib qolayotganliklarining ikki sababi bor, deb o‘ylaymiz: birinchidan, undaylar o‘zining mustaqil ma’naviy qiyofasiga ega emas. Natijada «chetda»gi narsalar uni o‘ziga tortadi, astasekin real dunyodan oyog’i uzilganini sezmay qoladi. Ikkinchidan, bunday toifadagi yoshlarda o‘zini-o‘zi rivojlantirishga ehtiyoj yo‘q, shuningdek, bu narsa ularni moslashuvchanlik, ergashuvchanlik kayfiyatiga tushirib qo‘yadi. Yoshlarimizni virtual dunyoga tushib qolishdan asrash, ularning qalbini ezgulik, yaxshilik urug’lari bilan to‘ldirish uchun, eng avvalo, bundaylarni margenallik holatidan chiqarish lozim. Margenallik - ayrim shaxs yoki guruhning jamiyatda muayyan ijtimoiy guruh, tabaqa, qatlamga mansub bo‘lmasdan «chekkada», «oraliqda» qolishidir. Boshqacha so‘z bilan aytganda, margenallik holatida u yoki bu shaxs «arosatda» qolishi mumkin. Jamiyat, oila, mahalla ta’siridan «chiqish esa margenallik holatiga tushgan shaxsda beparvolik, uquvsizlik, ijtimoiy hayotdan begonalashuvni yuzaga keltiradi. Bunday holatga tushgan shaxsning asosiy«xususiyatlari» jamiyat muammolariga e’tiborsizlik, sustlik, tevarakatrofdagi voqea hodisalarga daxldorlik hissining susayishi, beqarorlikda ko‘rinadi. Bundaylarning qalbi shikastlangan bo‘ladi. Bunday shaxsning boshqalar ta’siriga tushish imkoniyatlari doimo yuqori bo‘ladi. Ularning qalbini egallashda katta qiyinchilik sezilmaydi. Bu — jamiyat va millat uchun o‘ta xavfli. Shuning uchun ham bizning ma’naviymarifiy faoliyatimiz ayrim yoshlarimizda mavjud bo‘lgan margenallik holatini bartaraf qilishga qaratilishi lozim. Barkamol inson tarbiyasi alohida olingan, aniq bir shaxs tarbiyasi

tufayli sodir bo‘ladi. Tarbiyada aniqlik zarur. Agar biz tarbiyalanuvchining qalbini poklay olsak, unga insonni sevish, hurmat qilish, e’zozlash urug’larini sepa olsak, shubhasiz, biz jamiyatning sog’lom ma’naviy qiyofasini yaratgan bo‘lamiz, zero Sharqda doimo moddiy olamdan rux olamiga ko‘tarilish, qalbni tozalash insonning komillik sari tashlangan qadami sifatida baholangan. Ma’naviyat - insonlarning eng mukammali, eng aqlli va eng donosi, ayni vaqtda Olloh bilan odamlar orasidagi vositachi, Ollohning xalifasi. Komil inson insonlar jamiyatidan yetishib chiqadigan mo‘tabar zotdir. U azaldan martabasi aniq bo‘lgan ruh emas, balki axloqiy-ma'naviy poklanish jarayonida kamolga erishgandir. Ushbu qarashlar, garchi bir-biriga zid bo‘lib ko‘rinsada, aslida o‘zaro yaqindir. Bu yerda eng muhimi, inson kamoloti, buyukligi e'tirof etilishini ko‘ramiz. Bunday qarashga binoan, inson va koinot, inson va iloh, inson va mavjudot o‘zaro aloqada, bog‘lanishdadir. Ahli shariat tushunchasiga ko‘ra, inson kamoloti azaldan ma'lum bo‘lib, taqdiri azal tomonidan belgilab qo‘yilgan. Tasavvur ahli aytadiki, insonga erkin faoliyat uchun inon-ixtiyor berilgan, u harakat qilib komillikka erishuvi mumkin. Aziziddin Nasafiy kamolotning ikki belgisi bor, deb ta'kidlaydi: birinchisi,yaxshi axloq, ikkinchisi, o‘z-o‘zini tanish. Komil inson yaxshi axloqli, o‘z-o‘zini tanigan insondir. Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov “O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida” asarida ko‘p masalalarni tushunishda “dinning yuksak rolini e'tirof etish bilan birga, diniy dunyoqarash tafakkurning, insonning o‘zini o‘rab turgan dunyoga, o‘zi kabi odamlarga munosabatining yagona usuli bo‘lmaganligini ham ta'kidlash zarurdir”, degan edi, Darhaqiqat, dunyoviy fikr, dunyoviy turmush tarzi ham mavjud. U din va diniy turmush tarzi bilan yonma-yon yashab rivojlanib kelgan. Komil insonni tushuntirishda dunyoviy fikrning asosida nima yotadi? Birinchi Prezidentimiz uqtirganidek, odam tabiiy omillarga ko‘ra, o‘zi mansub bo‘ladigan irq va elatni tanlay olmaydi. Lekin dunyo qarashini, axloqiy madaniyatini hech kimning tazyiqisiz va ayniqsa, zo‘ravonligisiz o‘zi tanlab olishi mumkin va lozim. Modomiki, shunday ekan, mamlakatimizda huquqiy demokratik tamoyillarga asoslangan davlat, fuqarolik jamiyati qurish sari borayotgan ekanmiz, qanday dunyoqarashga asoslanishimiz kerak? Hozirgi zamon odamlari yashayotgan ijtimoiy muhitda asosan ikki yo‘nalishdagi - ilmiy-falsafiy va diniy-mistik dunyoqarash mavjudligi o‘z-o‘zidan ayon. Ularni bir-biriga qarama-qarshi qo‘ymagan holda shuni ta'kidlash kerakki, O‘zbekiston Respublikasi amaldagi

Konstitutsiyasining birinchi moddasida “O‘zbekiston boshqaruvning Respublika shakliga ega bo‘lgan suveren,demokratik,huquqiy,ijtimoiy va dunyoviy davlat” [1] deb bejiz belgilab qo‘yilmagan. Davlatning dunyoviy davlat bo‘lganligi bois bog‘cha, maktab, oliy o‘quv yurtlari va boshqa muassasalardagi ta'lim-tarbiya tizimi jarayonida ilmiy-falsafiy dunyoqarash shakilantiriladi. Yoshlarda dunyoqarash ilmiy-falsafiy yo‘nalishda bo‘lishi, diniy dunyoqarash esa respublikada dunyoviy davlat qurish manfaatlari doirasida rivojlanishi kerak. Chunki ilmiy-falsafiy dunyoqarashda diniy va milliy ekstremizm yo‘liga o‘ziga xos to‘siq yuzaga keladi. Shu nuqtayi nazardan barkamol avlod masalasini ham ilmiy-falsafiy mazmunda tushunish, ta'lim-tarbiya ishini ham shu asosga qurish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Shu o‘rinda aytish kerakki, bu sohadagi ham nazariy, ham amaliy ish komil

inson haqidagi barcha ijobiy fikrlar va qarashlarning eng foydali tomonlaridan, shu jumladan, islom qadriyatlaridan ham foydalanishga asoslanadi. Ayni vaqtda aytish lozimki, komil inson to‘g‘risidagi ilmiy- falsafiy ta'limot o‘z mohiyati, ijtimoiy vazifasi va maqsadlari bilan diniy-tasavvufiy qarashlardan farq qiladi. Ma'naviyati boy insongina komil inson bo‘la oladi. Yuksak axloqiy, madaniy va jismoniy fazilatlar har jihatdan uyg‘un bo‘lgan, chuqur va zamonaviy bilimga, keng ilmiy-falsafiy dunyoqarashga ega bo‘lgan inson komil bo‘ladi. Yuksak ma'naviy fazilatlar egasi bo‘lgan komil inson: nafs xurujini, lazzatlarga bo‘lgan moyillik ojizligini yenga oladigan zotdir; odamni komil inson va mukarram inson martabasiga ko‘tarish uning ma'naviyatini yuksaltirish demakdir. Har bir jamiyat tayanadigan ma'naviy qadriyatlar qanchalik umuminsoniy mazmunga ega bo‘lsa, u shunchalik umrboqiydir. Odam ham shunday. Odam qanday xulq, axloqiy, madaniy sifatga ega bo‘lsa, faoliyat tarzini namoyon etsa, uning qadr-qiymati ham shunchalik yuksak bo‘ladi.

Bu narsa inson shaxsiga nisbatan e'tibor ham, talab ham kuchayganligini ko‘rsatadi. O‘zbekistonda ma'naviyat sharq falsafasi bilan uzviy bog‘liq, zero falsafaning o‘zi ma'naviyat. Davlatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoyev ta’kidlab o‘tganlaridek, “asrlar mobaynida xalqimizning yuksak ma'naviyati, adolatparvarlik, ma'rifatparvarlik kabi ezgu fazilatlari sharq falsafasi va islom dini ta'limoti bilan uzviy ravishda rivojlanib keldi».

Biz bugungi kun yoshlarini barkamol inson qilib tarbiyalashdek yuksak ma’sulyatli ishga kirishish chog‘imizda avvalo, tarbiya va ta’lim berayotgan masullar albatta, birinchi navbatda o‘zimiz ularga namuna va o‘rnak bo‘lmog‘imiz zarurdir. Xalqimizda xech unitilmas bir maqol bor “Qush inida ko‘rganini qiladi “ demak bu bejiz aytilmagan.Bugun biz oilalarimizdagi muhitga xam bir ko‘z tashlamog‘imiz va albatta oilaviy muhitni xam yaxshilamog‘imiz zarur.Bugungi kunda ta’lim sohasida Oila,mahalla va maktab hamkorligi yuqori natija bermoqda . Yoshlarimizni barkamol inson bo‘lishlarida yuqoridagi uchlik zanjir tarzida faoliyat olib borishi kerak.

Yurtboshimiz ta’kidlaganlaridek “Bugungi murakkab zamonda yoshlarimizni jismoniy va ma’naviy bbarkamol insonlar etib tarbiyalash biz uchun g‘oyat muhim vazifa bo‘lib qolmoqda” [1].

Shu o‘rinda mutafakkir Abdurauf Fitratning “Bu dunyo – kurash maydonidir. Bu kurashning quroli sog‘lom jismu tan, o‘tkir aql va yaxshi axloqdir”, degan so‘zlarida chuqur ma’no bor. O‘sib borayotgan yosh avlodlarning ma’nan va jismonan sog‘lom kamol topishlari kelajakkka bo‘lgan ishonchni oshiradi. Dunyo mamlakatlari miqyosida yuqori o‘rinlarda turib, yurtimiz bayrog‘ining ko‘kda parvoz qilishi xam ilmli, sog‘lom va albatta barkamol inson bo‘lib tarbiya topgan yoshlar qo‘lida.

Bugungi kunda yurtimizdagi islohotlarning barchasida yurt tinchligi, rivojlanishi, munosib hayot kechirish xalqning roziligi yo‘lida olib borilmoqda. Xususan ta’lim sohasiga nazar tashlasak o‘quvchi yoshlarimizga berilayotgan e’tibor yuksak darajaga yetdi. “Yangi O‘zbekiston maktab ostonasidan boshlanadi” degan ulug‘ g‘oya asosida mamlakatimizda maktab ta’limini umummilliy harakatga

aylantirish bo‘yicha boshlangan ishlarimiz yangi bosqichga ko‘tarilmoqda. Yurtimizda mutloqo yangi mazmun va shakldagi zamonaviy ixtisoslashtirilgan maktablar tizimini yaratish bo‘yicha yangi dasturlar ishlab chiqilmoqda va amalga oshirilmoqda. Shu o‘rinda ushbu so‘zlarni keltirish joizdir: “Maktab – faqatgina ta’lim beradigan maskan emas, barchamiz uchun yuksak ma’naviyat beshigiga, farzandlarimizni bolalikdan boshlab kasbga o‘rgatuvchi dargohga aylanishi zarur” [2].

Farzandlarimizni barkamol inson qilib tarbiyalashga bugungi kunda xar qachongidan xam ko‘proq e’tibor qaratmog‘imiz lozim. Bugungi media olam, axborotlashgan jamiyat,raqamli texnalogiyalar asri farzandlarimizning tarbiyasiga salbiy ta’sir ko‘rsatmasligi va o‘z domiga tushirib olmasligi uchun ularda kuchli mafkuraviy immunitet hosil qilishimiz zarur. Bu jarayonga ota-ona, qo‘ni-qo‘shni, mahalla, maktab va boshqa muassasalar birdek harakat qilmog‘i lozim.

Xulosa qilib aytganda yurtimizda olib borilayotgan barcha sohadagi islohotlarning bosh maqsadi yurt tinchligi, xalqning munosib turmush kechirishi, insonlarning yashash sharoitidan mamnun holda yashashidir. Shu nuqtai nazardan qarasak ta’limga berilayotga e’tibor xam yoshlarimizni barkamol insion qilib tarbiyalashdir. Zero yoshlar Yangi O‘zbekiston ning bunyodkorlaridir.

Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi “O‘zbekiston” Toshkent-2023/ 5-23-b
2. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi “O‘zbekiston” Toshkent-2022/ 225-250 bet.
3. www.ZiyoNet.uz

ГЕОГРАФИЯ ТАЪЛИМИ ЖАРАЁНИДА МАКТАБ ЎҚУВЧИЛАРИДА ШАКЛЛАНАДИГАН ИЖОДИЙ ФАОЛИЯТ ТАЖРИБАСИНИНГ ТУЗИЛМАСИ ВА МАЗМУНИ

Қўзибоева Озодхон Махмудовна
Қўқон ДПИ, география фанлари доктори (DSc)

Аннонатция. Мазкур мақолада география таълимида мактаб ўқувчиларида шаклланган ижодий фаолият тажрибасини ўрни ва аҳамияти очиб берилган. Ижодий фаолиятни шакллантириш усулари, ўқувчиларда ижодий фаолиятни шаклланишига таъсир кўрсатувчи омиллар ва бошқалар асосланган.

Калит сўзлар: ижодий фаолият, индивиудал ҳатти–ҳаракатлар, ижодкорлик кўникмаларини шакллантириш, фаоллик, ижодкорлик принциплари

Аннотация. В данной статье раскрывается роль и значение опыта творческой деятельности, сформировавшегося у школьников в

географическом образовании. В основе лежат методы формирования творческой деятельности, факторы, влияющие на формирование творческой деятельности у учащихся и др.

Ключевые слова: творческая деятельность, индивидуальное поведение, формирование творческих навыков, активность, принципы творчества

Abstract. This article reveals the role and significance of the experience of creative activity formed in schoolchildren in geography education. The methods of formation of creative activity are based on the factors affecting the formation of creative activity in students, etc.

Keywords: creative activity, indiviudal behavior, formation of creativity skills, principles of activity, creativity

Мактаб ўқувчиларини ижодий фикрлашга фақат ижодий ўқув вазифаларини, яъни ижодий топшириқларни ҳал этиш жараёнида ўргатиш мумкин. Бу ўқувчиларнинг ўқув фаолиятини алоҳида шаклда ташкил этишни талаб қилади, яъни ўқувчининг ўқиш ки ўрганиш жараёни, охир-оқибат, тадқиқий фаолиятга айланиб кетиши керак бўлади. Демак, ўқувчиларнинг география бўйича ижодий фаолияти – амалга ошишида тайр ечими бўлмайдиган фаолиятдир.

География бўйича ижодий фаолиятда географик тушунча, кўникма ки малакалар шаклланишидаги каби аниқ ҳатти-ҳаракатларни ки босқичларни ажратиб кўрсатиш мумкин эмас. Ижодий фаолият тажрибаси тайр географик билимлар ва фаолият усуллари каби ўзлаштирилмайди, балки ўқувчининг шахсий (индивидуал) ҳатти-ҳаракати, пухта ва такрор ишлаши орқали ҳосил қилинади. Ҳар бир ўқувчида ижодий фаолиятни амалга ошириш жараёнида ўзига хос индивидуал ҳатти-ҳаракат тизими вужудга келади. Ўқувчининг шахсий (индивидуал) таълим траекторияси инсониятнинг географик илм ва маданият ютуқлари билан диалогик муносабати (оғзаки ва зма мулоқоти) жараёнида “ўзининг” шахсий географик билимлари, кўникма ва малакалари ва уларнинг негизида ижодий фаолият тажрибасини вужудга келтиришга имкон беради.

Ижодий фаолият тажрибаси география таълими мазмуни ва таянч географик маданиятнинг таркибий қисми сифатида мактаб ўқувчиларининг янги ўқув географик муаммолар ечимини излашга, географик воқеликни ижодий ўзгартиришга тайрлигини таъминлашга даъват этилган. Ижодий фаолият тажрибасининг ўзига хослиги шундаки, у география таълими мазмунининг олдинги икки таркибий қисми билан тўлиқ мувофиқлашмайди. Акс ҳолда, исталган бир тарзда географик билим, кўникма ва малакаларни эгаллаб, ҳар бир ўқувчи ижодий фаолиятга ўз-ўзидан тайр бўлар эди. Аммо на тайр шаклда олинган географик билимлар ҳажми, на намуналар бўйича ўзлаштирилган географик кўникма ва малакалар мажмуи ўқувчининг тўғридан-тўғри ижодий ривожланишини таъминлай олмайди. Гап шундаки, ўқувчини ижодкорликка географик билим ва кўникмаларни шакллантириш усуллари каби эмас, балки бутунлай бошқа усуллар билан ўргатиш мумкин.

Чунки ўқувчининг ижодий фаолиятини юзага чиқариш бўйича барча ҳатти-ҳаракатлар тизимини олдиндан белгилаб бўлмайди. Бу тизим ҳар бир ўқувчининг ўзида шахсан яратилади. Шу сабабли тадқиқотимиз предметида айнан ўқувчиларнинг "индивидуал ижодий фаолият тажрибаси"га урғу берилган.

Тадқиқот муаммоси бўйича ривожланган хорижий мамлакатлар тажрибасини ўрганиш шуни кўрсатдики, бутун жаҳонда география таълимини модернизация қилишнинг янги стратегияларида ижодий фаолият тажрибаси ва уни шакллантиришга устуворлик берилган. Хусусан, Стивен Скоффхэм (Stephen Scoffham) муаллифлиги ва таҳрири остида чоп этилган "География ва ижодкорлик" (Geography and creativity), "Географияни ижодий ўқитиш" (Teaching Geography Creatively), "География, ижодкорлик ва келажак" (Geography, Creativity and the Future), "География ва математика: ижодий ндашув" (Geography and Mathematics: A Creative Approach), "Географияда сайр-томоша ва ўйинлар" (Fun and Games in Geography) ва "Эҳтижга асосланган дала тадқиқотлари кучли ва тўкис таълим стратегияси сифатида" (Enquiry-driven fieldwork as a rich and powerful teaching strategy) каби ишларда географияни ўқув фани сифатида ижодий ривожлантириш мумкинлиги ва география таълимидаги ижодкорлик принциплари: 1) ижодкорлик образли фикрлаш ки хулқ-атворни назарда тутиши; 2) ижодий фаолиятнинг мақсадга мувофиқлиги, яъни қўйилган мақсадга эришишга қаратилганлиги; 3) бу жараёнлар қандайдир ўзига хос (оригинал) нарсаларни яратиши кераклиги; 4) натижа мақсадга нисбатан муҳим аҳамиятга эга бўлиши зарурлиги асослаб берилган. Шунингдек, ҳар қандай ижодкорликка ноаниқлик, очиқ-ойдинлик ва сархиллик каби хусусиятлар хослиги, ижодий фаолиятда атроф-муҳитда кечатган воқеа-ҳодисалар, ўқувчиларнинг имконияти, қизиқиши, фаоллиги, тажрибаси, яшатган жойи ва ўқитувчиларнинг иш тажрибаси ҳисобга олиниши ҳамда глобал таълим лойиҳаларида иштирок этиш, видеороликлардан фойдаланиш, ўқувчилар учун индивидуал ижодий ўқув дастурларини яратиш кабиларнинг зарурлиги ишончли далиллар билан кўрсатилган.

И. Янке (I. Jahnke), Т. Хертель (T. Haertel) ва J. Wildt (Й. Вильдт) ҳамкорлигида тайрланган мақолада ўқувчиларнинг ижодий салоҳияти (1) фаолият рефлексияси, (2) мустақил қарорлар қабул қилиши, (3) қизиқиши ва мотивацияси, (4) ниманидир ярата олиши, (5) истиқболлари мавжудлиги, (6) ўзгача (оригинал) ғояларни ривожлантириши кабилар билан тавсифланиши асослаб берилган ва уларнинг мактаб таълими амалиётидаги аҳамияти таҳлил этилган.

Г.А. Понурованинг "Ўрта мактаб география таълимида муаммоли ндашув" ("Проблемный подход в обучении географии в средней школе") номли китобида география таълимида шаклланадиган ижодий фаолият тажрибасининг мазмуни И.Я. Лернер томонидан ажратиб кўрсатилган ижодий иш тартиблари: билимлар ва кўникмаларни янги вазиятга мустақил кўчириш, таниш вазиятларда муаммони кўра билиш, фаолиятнинг олдиндан маълум

бўлган усулларини янгисига мустақил равишда мослаб, бир бутунлик ҳосил қилиш, ечимнинг тубдан янги усулини яратиш кабилар билан изоҳланган.

Б.А. Колобова фикрича, ўқувчиларнинг ижодий ўлкашунослик фаолияти нафақат муаммони ҳал қилишнинг янги усулини аниқлашда, балки уларнинг ўзларига маълум бўлган ақлий ҳатти-ҳаракат усулларини ўзаро мослаб, бир бутунлик ҳосил қилишда ва уларни янги вазифаларга кўчиришда намоён бўлади. Унинг таъкидлашича, фаол ижодий фаолиятнинг шартларидан бири ўқувчиларга нафақат ижодий топшириқлар бериш, балки уларни ўқув ишларининг турли усуллари: қислаш, сабаб-оқибат алоқаларини ўрнатиш, хулосалар чиқариш ва географик ахборотларни таҳлил қилишга ўргатиш лозим.

В.А Блаженовнинг “Географияда ривожлантирувчи таълим усуллари” (“Примы развивающего обучения в географии”) номли китобида “ижодий фаолият тажрибаси” тушунчасининг моҳияти географик кўникма ва малакалар мажмуи сифатида талқин этилган.

Таъкидлаш жоизки, география таълимида ижодий фаолият тажрибасини шакллантиришга оид илмий методик изланишларда психологик ва дидактик тадқиқотлар натижаларидан кенг фойдаланилган.

География бошланғич курсини ўрганишда ўқувчилар ижодий фаолияти тажрибасини шакллантириш муаммоси бўйича А.Г. Захаров томонидан амалга оширилган тадқиқотда “ижодий фаолият тажрибаси” тушунчасига қуйидаги таъриф берилган: шахснинг ўзига ва атрофдаги оламга бўлган муносабати ижобий ўзгаришига олиб келувчи назарий билимлар (фаолиятнинг ҳар хил турларида амалга ошириладиган), кўникмалар ва янги муаммоларни излаб топиш усуллари ва уларни амалий ҳал этиш йўлларининг бирлигини назарда тутадиган маънавий маҳсул.

География, тарих ва чет тили фанлараро алоқадорлигидан фойдаланган ҳолда ўқувчиларнинг ижодий фаолияти тажрибасини шакллантириш муаммоси бўйича Т.В. Вилейто томонидан бажарилган тадқиқотда муаллиф география бўйича ўқув дастурлари мазмуни ва И.Я. Лернер ишларига таянган ҳолда ижодий фаолият тажрибаси таркибига кирадиган бир неча кўникмаларини ажратиб кўрсатган.

Ю.В. Митрофанова ўз жойи географиясини ўрганишда янги педагогик технологиялар воситасида ўқувчиларнинг индивидуал ижодий фаолияти тажрибасини шакллантириш мавзусида амалга оширган тадқиқот ишида “ижодий фаолиятнинг индивидуал тажрибаси – бу ўқувчиларга ижодий топшириқларни бажаришда самарали ечимларни топишга, мотивация ва рефлексияни фаоллаштириш асосида янгини яратиш жараёнида шахсан иштирок этишга имкон берадиган кўникмалар мажмуидир”, деган хулосага келган.

Н.В. Мартилова тадқиқотида ихтисослашган география таълимида амалий ландшафтшуносликни ўрганиш асосида ўқувчиларнинг ижодий фаолияти тажрибасини шакллантириш муаммоси ҳал этилган бўлиб, унда ижодий фаолият тажрибаси таълимнинг шахсий фаолиятли йўналишини акс

эттирувчи мақсад-субъект ва таълим мазмунининг таркибий қисми сифатида вужудга келиши, шахснинг ижодий фаоллигини ривожлантириш жараёни ва креатив таълим маҳсули сифатида тавсифланиши мумкинлиги аниқланган.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Абу Райҳон Беруний. Қадимги халқлардан қолган дгорликлар. Танланган асарлар. 1-жилд. – Т.: Фан, 1968. – 488 б.
2. Авазов Ш., Сайдаматов Ф., Аллаберганов Ҳ. «Биосфера (экосфера) ва одам (жамият)» тизимида геоэкология ва геоэкологик ўлкашунослик. Монография. – Тошкент, “Innovatsiya-ziyo”, 2019- 373 б
3. Avazov Sh., Saydamatov F.R., Allaberganov H.A. Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi sohasidagi ilm-ma‘rifat // Pedagogika, 3-son, 2019. – Б. 38–50.
4. Мусаев П., Қурбонниёзов Р. Ўқувчиларнинг географиядан билим, малакаларини аниқлашнинг шакл ва усуллари. Методик қўлланма. – Т.: Ўқитувчи, 1985. – 87 б.
5. Мусаев П., Қурбонниёзов Р. География ўйинлар: [Ўқитувчилар учун қўлланма]. – Т.: Ўқитувчи, 1990. – 240 б.
6. Мусаев П., Қурбоннизов Р. Ўқувчиларнинг географиядан билим малакаларини аниқлашнинг шакл ва усуллари (Ўқитувчилар учун методик қўлланма). - Т.: ЎПФИТИ, 1993. – 127 б.

OLIY TA’LIM MUASSALARIDA TA’LIM SIFATINI NAZORAT QILISH VA BOSHQARISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH

Maraximov Abdullajon

Qo‘qon DPI Fakultetlararo matematika-informatika kafedrasi o‘qituvchisi

Аннатоция. В статье Маскура за последние годы проведена масштабная работа по созданию системы высшего образования, отвечающей приоритетам социально-экономического развития нашей страны и требованиям международных стандартов, всестороннему развитию инновационных и технологических идей в стране. высшее образование и создание необходимых условий для поддержки, создания инновационных технологий профессорами, молодыми учеными и студентами

Ключевые слова: Отсутствие современной системы оценки деятельности, знаний и педагогического мастерства профессоров и преподавателей в процессе преподавания, повышения качества образования.

Abstract. In the Maskur article, in recent years, large-scale work has been carried out to create a higher education system that meets the priorities of socio-economic development in our country and the requirements of international standards, comprehensive development of innovative and technological ideas in higher education and creation of necessary conditions for support, creation of innovative technologies by professors, young scientists and students

Key words: The absence of a modern system for evaluating the activity, knowledge and pedagogical skills of professors and teachers in the course of teaching, increasing the quality of education.

Keyingi yillarda mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning ustuvor yo‘nalishlariga hamda xalqaro standartlar talablariga mos keladigan oliy ta’lim tizimini yaratish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Hududlarda yangi oliy ta’lim muassasalarining tashkil etilishi, kadrlar tayyorlashning zamonaviy ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari hamda sirtqi va kechki bo‘limlarning ochilishi, oliy ta’lim muassasalariga qabul kvotalarining oshirilishi mazkur yo‘nalishdagi muhim islohotlar hisoblanadi. Shu bilan birga oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirishga, respublikada amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar, ijtimoiy va iqtisodiy sohalardagi yangilanishlarda ushbu muassasalarning faol ishtirokini ta’minlashga to‘siq bo‘layotgan bir qator muammolar saqlanib qolmoqda.

Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini tubdan takomillashtirish, ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash, shuningdek, 2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasida belgilangan vazifalarni izchil amalga oshirish maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi, tasarrufida oliy ta’lim muassasalari mavjud vazirlik va idoralarning 2018/2019 o‘quv yilidan boshlab, alohida ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha o‘qish muddati kamida uch yil bo‘lgan bakalavriat hamda kamida bir yil bo‘lgan magistraturani joriy etish, bunda magistraturada mutaxassislar tayyorlashni ishlab chiqarish va ilmiy-pedagogik yo‘nalishlarga ixtisoslashgan dasturlar asosida tashkil etish.

Oliy ta’lim muassasalari bakalavriatiga qabul qilish kvotalaridan tashqari xorijiy fuqarolarni suhbat asosida test sinovlarisiz o‘qishga qabul qilish to‘g‘risidagi takliflariga o‘z ijrosini topdi. Oliy ta’lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholash tizimi to‘g‘risidagi nizomni ishlab chiqildi. Ta’lim yo‘nalishlarining o‘ziga xos jihatlarini inobatga olgan holda talabalar bilimini baholashning zamonaviy, shaffof va adolatli usullarini, shu jumladan muayyan fandan dars bergan pedagogning yakuniy nazorat jarayonlaridagi ishtirokini istisno etadigan tizimni joriy etildi. 2018-2019 o‘quv yilidan boshlab oliy ta’lim muassasalari professor-o‘qituvchilarining vaqtini o‘quv jarayoniga xos bo‘lmagan ishlarga sarflashning oldini olish hamda ularni talabalar bilan ko‘proq ishlashga yo‘naltirish, shu jumladan “ustoz-shogird” tizimini joriy etish maqsadida o‘quv yuklamalarini hisobga olgan holda professor-o‘qituvchilar “vaqt me’yorlari”ning yangi mexanizmlarini ishlab chiqildi va yo‘lga qo‘yildi. Oliy ta’lim muassasalarining professor-o‘qituvchilarini ularning vazifalari va faoliyat yo‘nalishlari bilan bog‘liq bo‘lmagan yig‘ilishlarga va boshqa tadbirlarga ozod etildi.

Oliy ta’lim sifati, professor-o‘qituvchilarning bilimi va pedagogik mahorati, talabalarga yaratilgan shart-sharoitlar ustidan tizimli ravishda monitoring

o‘rnatilganligi oliy ta’lim muassasalariga professor-o‘qituvchilar tarkibiga ishga qabul qilinayotgan nomzodlar bo‘yicha tavsiyalar berish, talabalarning murojaatlarini ko‘rib chiqish, ularning pedagog kadrlar haqidagi fikrini to‘liq o‘rganish maqsadida ijtimoiy so‘rovlar o‘tkazish, oliy ta’lim muassasasidagi ta’lim jarayonini takomillashtirish bo‘yicha takliflar tayyorlash va muassasaning tegishli kengashi muhokamasiga kiritish.

O‘zbekiston va xorijiy oliy ta’lim muassasalarining o‘zaro kelishuvi hamda qo‘shma ta’lim dasturlari asosida talabalarni o‘qitishni tashkil etish va ikki tomonlama tan olinadigan diplom berish amaliyoti joriy etildi. Oliy ta’lim muassasalariga kirish imtihonlaridagi test savollarini tayyorlash uslublarini ilg‘or xorijiy tajriba asosida qayta ko‘rib chiqsin hamda ularni takomillashtirish bo‘yicha takliflar, ilg‘or xalqaro imtihon tizimlari (TOEFL, IELTS, CEFR, SAT General, SAT Subject va hokazo) sertifikatlariga ega bo‘lgan abituriyentlarga tegishli fanlardan belgilangan eng yuqori ball berish va ushbu fanlar test sinovidan ozod qilish tartibini ishlab chiqildi va belgilangan tartibda amalga oshirilmoqda.

Oliy ta’limda innovatsion va texnologik g‘oyalarni har tomonlama rivojlantirish hamda qo‘llab-quvvatlash uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, professor-o‘qituvchilar, yosh olimlar va talabalarning innovatsion texnologiyalarni yaratish borasidagi tashabbuskorligini oshirish, iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohalar tashkilotlari rahbarlari, yetakchi mutaxassislari, faol tadbirkorlar bilan dolzarb masalalarda seminar va davra suhbatlarini doimiy ravishda o‘tkazib borish, ularning faoliyatida yuzaga kelayotgan muammolarning yechimiga qaratilgan ilmiy-amaliy izlanishlarni olib borildi.

Oliy ta’lim tizimida o‘quv mashg‘ulotlarini talabalarni innovatsion fikrlashga yo‘naltiradigan o‘qitish texnologiyalari va interfaol uslublarni joriy etish asosida tashkil etish, asosiy e’tiborni talabalarning mustaqil ta’lim olishi bilan bog‘liq mexanizmlarni amalga oshirishni yanada takomillashtirish, har bir oliy ta’lim muassasasida 1-kurs davomida saralab olingan eng iqtidorli talabalar uchun alohida guruhlar tashkil etish (mazkur guruhlardagi talabalar soni oliy ta’lim muassasasi tomonidan belgilanadi), 2-kursdan ularni o‘qitishni alohida o‘quv reja va dasturlar asosida amalga oshirish, ushbu toifadagi talabalarni magistraturaga maqsadli qabul qilish va bu orqali oliy ta’lim muassasalari kafedralari uchun malakali kadrlar tayyorlash tizimini joriy etish. Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha “yo‘l xaritasi” muvofiq yuqorida aytilga ko‘plab ishlar olib borilmoqda.

Ta’lim sifati va uni ta’minlovchi omillar: ta’lim mazmunining fundamentalligi, ma’lum ehtiyojlarning qondirilishi, maqsad va natijalarning mutanosibligi, ta’lim oluvchilarning mustaqil ishlashi, ta’lim jarayoni ishtirokchilarining ijodiy faoliyati, boshqarishga kompleks yondashuv, fanlararo integratsiya va boshqalar orasidagi bog‘liqliklarni tavsiflashga nisbatan turli qarashlar mavjud.

Ta’lim sifati-bu nafaqat ta’lim oluvchilar bilimining davlat standartlariga mosligi, balki ta’lim muassasasining muvaffaqiyatli faoliyat ko‘rsatishi, shuningdek har bir pedagog va rahbarning ta’lim xizmatlari sifatini ta’minlashdagi faoliyati

hamdir. Zamonaviy ta’lim muassasasida ta’lim sifati erishilgan miqdoriy va sifat natijalarining darajasini, o‘quv-tarbiyaviy jarayonni tashkil etish va amalga oshirish darajasini, u kechadigan sharoitlarni aks ettiruvchi tavsiflar to‘plamida ifodalanadigan maqsad va natijalarning nisbati sifatida aniqlanadi. Ta’lim sifatini boshqarish (ta’lim sifati menejmenti) ta’limni boshqarishning umumiy tuzilmasi tarkibiga kiradi. Bunda ta’lim sifati menejmenti rahbarning yakkaboshchiligi hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lgan va amalda o‘z samaradorligini ko‘rsatgan boshqarishning chiziqli tuzilmasini inkor etmaydi. O‘z o‘rnida, sifat menejmentining joriy etilishi umumiy boshqaruv samaradorligini sezilarli darajada oshiradi – ta’lim muassasasi rahbari, xodimlari va manfaatdor jamoat tashkilotlari vakillari o‘rtasidagi munosabatlarni tartibga soladi. Vazifalarning bajarilish ketma-ketligi, vazifalarning o‘zi, bajarish yo‘llari, alohida usul va xarakatlarning batafsil tartibi, ta’lim sifatini ta’minlovchi asos sifatida, qabul qilingan boshqaruv qarorlarining samarali ijrosini kafolatlaydi.

Demak, ta’lim sifatini boshqarish ta’lim tizimidagi boshqaruv faoliyatining mavjud nazariyasi va amaliyotini muhim elementlar bilan to‘ldiradi, ya’ni u ta’limni boshqarish yaxlit tizimining tarkibiy qismi sifatida amalga oshiriladi.n Ta’lim sifati tashqi auditini jalb qilgan holda o‘quv muassasasi faoliyatini tizimli va holis baholashga tayanuvchi ta’lim sifatini ta’minlash tizimining rivojlanish mantiqi ta’lim muassasalarida ta’lim sifati menejmenti tizimini ishlab chiqish va joriy etishni taqazo qiladi.

Bundan tashqari, o‘quv muassasalarida ta’lim sifati menejmenti tizimining mavjudligi kelajakda ta’lim jarayoni sifati va natijalarini baholashning tashqi nazorati tadbirlarini ichki nazorat va o‘zini-o‘zi baholash natijalaridan foydalanish bilan almashtirish imkoniyatini yaratadi, mazkur jarayonlarning jamoatchilik nazoratiga ochiqligi esa ta’lim muassasasiga bo‘lgan ishonch darajasini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Qurbonov Sh, Seytxalilov E. Ta’lim sifatini boshqarish. /T.: «Turon-Iqbol», 2006
2. Total Quality Management –всеобщее управление качеством. Журнал “Директор-Иваново”, № 1-2 (120-121), январь-февраль 2011 г.
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil 15 fevraldagi “2016-2030 yillarga mo‘ljallangan “Barqaror Rivojlanish Maqsadlari”ni O‘zbekiston Respublikasida amalga oshirish” to‘g‘risidagi Farmoyishi.
4. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi va “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi to‘g‘risida”gi Qonunlari.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar stretegiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni.

КОМИЛ ИНСОН ҒОЯСИ ШАРҚ МУТАФАККИРЛАРИ ҚАРАШЛАРИДА

А.Алижанов
Тошкент давлат техника университети
Қўқон филиали Ижтимоий ва гуманитар фанлар
кафедраси ўқитувчиси
А.Қаюмов
Тошкент давлат техника университети
Қўқон филиали талабаси

Аннотация. Комил инсон ғояси нафақат алоҳида шахсларни, балки бутун-бутун халқларни юксак тараққиёт сари етаклаган, уларни маънавият ва маърифат соҳасида тенгсиз ютуқларга илҳомлантирган. Комилликни орзу қилмаган, баркамол авлодларни вояга етказиш ҳақида қайғурмаган халқнинг, миллатнинг келажаги йўқ.

Аннотация. Идея совершенного человека вела не только отдельных людей, но и целые народы к высокому развитию, вдохновляла их на беспримерные достижения в области духовности и просвещения. Нация, которая не мечтает о совершенстве и не заботится о воспитании совершенных поколений, не имеет будущего.

Abstract. The idea of a perfect person led not only individuals, but entire nations to high development, inspired them to unparalleled achievements in the field of spirituality and enlightenment. A nation that does not dream of perfection and does not care about bringing up perfect generations has no future.

Комил инсон ғояси – ҳам миллий, ҳам умумбашарий моҳиятга эга бўлган, одамзодга хос энг юксак маънавий ва жисмоний баркамолликни мужассам этган, уни ҳамиша эзгуликка ундайдиган олийжаноб туйғудир.

Комил инсон ғояси нафақат алоҳида шахсларни, балки бутун-бутун халқларни юксак тараққиёт сари етаклаган, уларни маънавият ва маърифат соҳасида тенгсиз ютуқларга илҳомлантирган. Комилликни орзу қилмаган, баркамол авлодларни вояга етказиш ҳақида қайғурмаган халқнинг, миллатнинг келажаги йўқ. Бундай халқ ва миллат таназзулга маҳкум. Баркамол шахсни шакллантириш азал-азалдан халқимизнинг эзгу орзуси, маънавиятнинг узвий бир қисми бўлиб келган ва мутафаккирларимизнинг асарларида теран ифодасини топган. Буюк аждодларимиз ўз илмий қарашларида инсоннинг комиллик даражасига етишишига, унинг хулқ-атворида юксак фазилатлар шаклланишига ундовчи ички туртки, маънавий интилиш, куч ва ғайрат, яъни мотив ва мотивация мавжуд бўлмас экан юксак камолотга эришиш мумкин эмаслигини баён қилганлар.

Ўтмишда мамлакатимизнинг, умуман Шарқ маданиятининг, маънавиятининг нисбатан тез юксалишида ва жаҳоншумул аҳамият қозонишида истеъдодли инсонларнинг, жумладан, олимлар, адабиёт, санъат,

фан намоёндаларининг улкан хиссаси борлиги тўғрисида кўплаб мисоллар келтириш мумкин. Моваройуннаҳр фани ва маданиятини жаҳоншумул даражага олиб чиққан улуғ ватандошларимиз Абу Наср Форобий, Муҳаммад Мусо Хоразмий, Ахмад Фарғоний, Абу Али ибн Сино, Абу Райҳон Беруний, Ҳаким ат-Термизий, Алишер Навоий, Мирзо Улуғбек, Заҳириддин Бобурлар бетакрор инсоний заковат ва истеъдод эгалари бўлганлар.

Буюк мутаффакир Алишер Навоий ўз асарларида устозлик қобилияти ва унинг обрўси, одоби тўғрисида мулоҳазалар билдирилади. Алишер Навоий ҳеч қандай фаолиятни ижодий ёндашувсиз тасаввур қила олмайди. Шунинг учун унинг педагогик, психологик қарашларида одоб, ахлоқ, тийраклик, ақл-заковат, қизиқиш, қобилият, иродавий куч, характер хислатлари, поклик, самимийлик асосий ва марказий ўрин эгаллайди. Худди шу боисдан у устозлар истеъдодли бўлиши кераклигини таъкидлайди. Устознинг ҳар жиҳатдан ибрат ва намуна бўлиши таълим-тарбия гарови эканлигига ишора қилади ҳазрати Алишер Навоий.

Ўрта асрларда юксак фан ва маданият чўққиларини эгаллаш бўйича қилинган илмий изланишлар кейинги ижтимоий-тарихий тараққиёт босқичида ҳам аждодларимиз томонидан давом эттирилган ва бу борада маълум ютуқларга эришилган. Бу ўринда Аҳмад Дониш, Муқимий, Фурқат, Завқий, Аваз Ўтар, Авлоний каби илғор маърифатпарварлар бир вақтнинг ўзида ҳам тарғиботчи, ҳам муаллим бўлганликлари туфайли улар устозлар маънавияти, ҳис-туйғуси, хулқ-атвори, хатти-ҳаракати зиммасига қатор жиддий ижтимоий, умумбашарий талаблар қўядилар. Устознинг ахлоки ва одоби ҳар жиҳатдан бошқалар учун ибратли бўлиш зарур эканлигини бир неча маротаба таъкидлаб ўтадилар ва уларга эришиш йўлларини кўрсатиб берадилар. Уларнинг ҳар бир асари саводхон, ўқимишли, комил инсон бўлиб камол топиш ғоялари билан суғорилгандир. Инсонда ички туртки, маънавий интилиш, куч ва ғайрат мавжуд бўлмас экан, юксак камолотга эришиш мумкин эмаслиги алоҳида уқтирилади.

Форобий асарларининг аксарияти таълим, фалсафа, билимларни ўзлаштиришнинг физиологик ва психологик асосларини назарий жиҳатдан ўрганишга қаратилгандир. Унинг фикрича, сезги органлари, шунингдек, юрак, мия инсон туғилган пайтдан мавжуд бўлади. Бошқа ҳамма нарсалар ақлий ва ахлоқий хусусиятлар, характер ҳислатлари, билим инсоннинг ўз фаолияти мобайнида юзага келади.

Форобийнинг кўп сонли рисолаларида, жумладан, «Фанларнинг таърифи ва таснифи ҳақида китоб», «Ҳажм ва миқдор тўғрисида китоб», «Фозил шаҳар ахолиси қарашлари тўғрисида китоб» ва қатор бошқа асарларида олам тўғрисидаги умумий манзара, табиий ҳодисалар алоқадорлиги, жонсиз ва жонли табиат, жумладан, инсон ҳаёти, шахслараро муносабати, муомала мароми ҳамда уларнинг мотивацияси ҳақида фикр юритади. Аммо шуни ҳам алоҳида таъкидлаб ўтиш жоизки, унинг табиий-илмий қарашлари ўша даврда мавжуд бўлган фалсафий муаммоларга, руҳ, материя, ҳаракат ва вақт, ҳаракат

манбаи, сабаб ва оқибат, имконият ва воқелик ҳамда физиологик, психологик жараёнлар тўғрисидаги тасаввурлар билан қоришиб кетгандир.

Шуниси диққатга сазоворки, Форобий мукаммаллик мезони деб машҳурлик ёки насл-насабни эмас, балки назарий ва амалий фазилатларни билиш билан ҳамда бу фазилатларни қулай анъанавий методлардан фойдаланиб кенг жамоатчиликка ўргатиш қобилияти билан белгиланадиган муайян санъатдаги (касб) эътиборликни тушунади.

Атоқли олим Абу Али ибн Синонинг фикрича, устоз энг аввало матонатли, соф виждонли, ростгўй ва боланинг тарбиялаш методларини ҳам, ахлоқ қоидаларини ҳам мукаммал биладиган одам бўлмоғи шарт. Устоз ўқувчининг бутун ички ва ташқи оламини ўрганиб, унинг ақл қатламларига кира олгандагина унда фанга, оламга нисбатан қизиқиш (мотив) уйғотади.

Абу Али ибн Сино ибораси билан айтганда, ўқувчига қаратилган ҳар бир сўзни устоз имо-ишоралар билан тўлдириб бормоғи лозим. Бизнингча, ушбу хатти-ҳаракат ташқи мотив, таъсир ўтказиш механизми вазифасини ўтайди. Унинг таълим методлари ва усуллари технологиясини тушунтиришга йўналтирилган фикрлари ўша давр ўқитиш тизими учун ғоят катта аҳамият касб этган эди. Маълумки, устоз ўз ўқувчиларининг майли, мотиви, интилиши, фаоллиги, қобилияти, истеъдоди ва лаёқатини аниқламасдан, яъни ташҳис қилмасдан туриб, уни оқилона касб танлашга йўналтира олмас ва фанларга нисбатан қизиқиш уйғота билмас эди.

Абу Али ибн Синонинг фикрича, устозлик - бу доноликдир. Шунинг учун устоз барча дунёвий билимлардан, маънавият оламидан хабардор бўлмоғи, ўз шогирдларида уларга нисбатан эҳтиёж, ички туртки уйғотмоғи керак, булар жумласига ҳисоб-китоб (математика) ва яхшилик қилиш (одамийлик) киради.

Буюк аждодларимиз орзу қилган эркин фуқаролик жамиятини маънавий баркамол, эзгу интилишлари, ҳаётий эътиқоди мустаҳкам бўлган инсонларгина бунёд эта олади.

Комиллик меҳр-мурувват, адолат, тўғрилик, виждон, ор-номус, ирода, тадбиркорлик, матонат каби кўплаб асл инсоний хислат ва фазилатларнинг мажмуидир.

Юқорида таъкидлаб ўтилганидек, комил инсон ғояси азал-азалдан халқимизнипг эзгу орзуси, миллат маънавиятининг узвий бир қисми бўлиб келган. Зардуштийликнинг муқаддас китоби «Авесто»да ҳалол меҳнат комилликнинг асосий мезони сифатида талқин этилган. Комил инсон ғояси ислом фалсафасидан озиқланиб, янада кенгроқ маъно-мазмун касб этган. Беруний, Форобий, Ибн Сино, Навоий каби мутафаккирларнинг комил инсонни тарбиялаш ҳақидаги фикрлари жамият тараккиётига янги маънавий имкониятлар излаш мақсадлари билан боғланган. Форобий фозил шаҳар аҳолиси ҳақидаги ғояларини илгари сурар экан, шахснинг маънавий камолотини адолатли жамият қуришнинг асосий шарти деб ҳисоблаган.

Хулоса қилиб айтганда, халқимизнинг қадим-қадимдан ажойиб одатлари, ўгитлари бор, юртга муҳаббат, Она ва Ватанни саждагоҳ каби муқаддас билиш, ёлғон гапирмаслик, бировнинг ҳақига хиёнат қилмаслик, каттани

ҳурмат, кичикни иззат қилиш шулар жумласидандир. Булар халқимизнинг ҳаёти, турмуш тарзи, маънавияти ва менталитетига сингиб кетган. Бундай ўйлаб қаралса, аждодларимизнинг ана шу талабларида жамият, инсон учун энг зарур фазилатлар айтиб ўтилгани аён бўлади. Оққан даре оқаверади, деганларидек, эътиқоди мустаҳкам улуғ аждодларнинг авлодлари бу хусусиятларни ўзида жамулжам қилган муносиб фарзандлар бўлиб етишадилар. Шунинг учун бизнинг Ватанимиз ёш авлодга, уни тарбиялашга бор куч ва имкониятини сарфламоқда.

Бугунги кунда Ватан ижодкорлар зиммасига ёшларга ибрат бўладиган янги баркамол инсонлар, замонавий қаҳрамонлар тимсолини яратиш вазифасини юкламоқда. Мустақил Ватанимиз олий мақсад қилиб олган озод ва обод Ватан, эркин ва фаровон ҳаётни баркамол, эзгу ғояларни ҳаётий эътиқодига айлантирган етук инсонларгина бунёд эта олади. Шунинг учун янгиланаётган жамиятимизда соғлом авлодни тарбиялаш, эркин фуқаро маънавиятини шакллантириш, маънавий-маърифий ишларни юксак даражага кўтариш орқали комил инсонларни вояга етказишга юксак эътибор берилмоқда.

Фойдаланилган манба ва адабиётлар

1. Абдулатипов Р. Главное избежать погромов на национальной почве. Труд 7, 31 октября, 2002.
2. Информационно-аналитический отчет результатов социологического опроса "Многонациональный Узбекистан". Т.: 2020.
3. Ким Г. Эзгулик ва бахт-саодат ғояси. – Миллий ғоя бизнинг ғоя. Т.: 2020.
4. Маҳмудов М. Ўзбекистон шарафи – ҳар нарсадан улуғ. – Миллий ғоя – бизнинг ғоя. Т., 2021.
5. A.Alijonov, Ideological threats and their threat to Humanity. Interdisciplinary research journal (GIIRJ) ISSN (E): 2347-6915 ,Vol. 11, Issue 12, December (2023), pp. 85-87
6. A Alijanov - Models and methods in modern science, 2023
1. Komilov, J. K., Dehkonov, B. A., & Ortikov, U. K. (2023). The function of metalanguage in the graphic communication. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3(4), 622-626.
6. Ortikov, U. (2023). Age-related factors in the successful attainment of English for specific purposes (ESP). Science Promotion, 1(1), 297-301.
7. Ortikov, U. (2023). Practical uses of corpus analysis in designing language teaching materials. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3 (7), 304-309.
8. Ortikov, U. (2023). Time allocation for vocabulary training in ESP classrooms. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3 (11), 364-370.

9. Ҳакимов А Основные черты и эпистемологический анализ формационного и цивилизационного подходов. Экономика и социум" №4(107) 2023

TEMURIYLAR DAVRIDA SAMARQAND SHAHRI IQTISODIYOTI TARIXI

Rasulov Elbek Elmurodjon o‘g‘li
Farg‘ona davlat universiteti II bosqich magistranti
+998901511152
Elbekrasulov777@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada Samarqand shahrining Temuriylar davridagi iqtisodiy ahvoli o‘sha davr yozma manbalari asosida tahlil qilingan va ma`lumotlar umumlashtirilgan

Kalit so‘zlar: savdo, bozor, yozma manbalar, to‘quvchilik, kulolchilik.

Аннотация. В данной статье на основе письменных источников того времени анализируется экономическое положение города Самарканда в эпоху Тимуридов и обобщаются сведения.

Ключевые слова: торговля, рынок, письменные источники, ткачество, гончарное дело.

Annotation. In this article, the economic situation of the city of Samarkand during the Timurid era is analyzed based on the written sources of that time and the information is summarized.

Key words: trade, market, written sources, weaving, pottery.

Samarqand haqida faqat arxeologik manbalardan tashqari yana yozma manbalarda ham juda ko`plab ma’lumotlar yozib qoldirilgandir. Qadimgi yunon mualliflari tomonidan deyarli barcha ma’lum hududlar haqida ma’lumotlarni yozib qoldirilgan bo`lib, ularning barchasida shahar nomi Maroqand nomi bilan tilga olinadi.Shaharning keying davrlardagi tarixi ham arab, fors va turkiy tillarda yozilgan tarixiy asarlarda juda muhim ma’lumotlarni topishimiz mumkin. Manbalarda Shahar yuksak rivojlanganligi haqida ko`plab ma’lumotlar uchraydi. Rivojlanishning asosiy sabablaridan biri fikrimizcha Buyuk ipak yo`li ustida joylashganligidir. Savdo katta hajmda olib borilganligi albatta shahar rivojiga o`z hissasini qo`shgan. Al-Istaxriy “Masolik val-Mamolik” asarida shaharni ta’riflar ekan, bozorlari ko`p ekanligini, qayerga qarasa savdo rastasiga ko`z tushishini va yana oqar suvlari, bog`lari ko`p ekanligini,ayniqsa, shahar ichida tol daraxtlari ko`p ekanligini takidlaydi.

Har bir shahar yoki davlat albatta vaqti kelib tanazzulga uchrashiga tarix guvohdir. Mog`ullar istilosi sabab shahar tanazzulga yuz tutgan edi. Shaha\r egallanganidan keyin talanib bo`lingach shaahrga o`t qo`yiladi. Hujum natijasida

aholining asosiy qismi qirib yuborildi, tirik qolganlari ham suv taqchilligi yoki boshqa bir sabablar tufayli shaharni tark etishadi. Samarqand avvalgi ahamiyatini yo`qotadi. Chig`atoy ulusida savdo sahri bo`lib qoladi. Lekin shuni ham ta'kidlash kerakki chig`atoy ulusi shaharni poytaxt qilishga urinish ham bo`lgan edi. Sharafiddin Ali Yazdiy o`zining " Zafarnoma" asarida shunday ma'lumotlarni yozib qoldirgan: "… Amir Qazag`an o`limi voqeasidan so`ng(1358) amirzoda Abdulloh Samarqanddan kelib otasining o`rnini egalladi. Dastlabki paytlarda (Bayonquli) oldingi kelishuvga muvofiq xonlikka tayinlab taxtga o`tqazdi. Otasining zamonida ma'lum muddat Samarqandda yashaganligi va u firdavsmisol diyorning dilkash bog`-bo`stonlari yoqib qolganligi sababli, davlati bayrog`ining markazi o`sha yerda bo`lishini istadi. U Samarqandga yo`l oldi va Bayonqulixonni o`zi bilan birga olib ketti". Lekin o`zaro urushlar oqibatida amirzoda Abdulloh hokimyatdan ketishga majbur bo`ladi. Samarqand o`sha paytda yasavuriylar qo`l ostida bo`ladi.

Samarqand shahri XIV asr o`rtalariga kelib siyosiy va iqtisodiy jihatdan yuksala boshlaydi. Buni biz Mo`g`uliston hukmdori Tug`luq Temurning 1360--1361-yillarda Movarounnahrga hujum qilganida asosiy e'tiborini Samarqand shahriga qaratganidan bilib olishimiz mumkin. Amir Temur va Amir Husayn harakatlari natijasida Movarounnahr mo`g`ullar zulmidan ozod etilgach Qobulshoh o`g`lonni xon etib tayinlanadi va ushbu voqea ham aynan Samarqandda bo`lib o`tganini takidlab o`tish joizdir. Lekin bu paytda asosiy hokimyat Amir Husayn qo`lida bo`lgan.

Bu davrda Samarqand shahriga bo`lgan e'tiborning ortib borayotganiga dalil qilib shu narsani aytishimiz mumkinki, Ilyosxo`ja boshliq mo`g`ullar Loy jangidagi galabasidan so‘ng asosiy etiborini yana Samarqand shahrini qaratganini takidlashimiz joizdir. Lekin bu paytda shaharda mo‘g‘ullarga qarshi oddiy xalq Sarbadorlar boshchiligida qarshilik ko`rsatishadilar va shaharni mudofaa qilishga muvaffaq bo`lishadi.

Tarixan 2750 yillik tarixga ega bo‘lgan Samarqand shahri qadimdan "Sayqali ro`yi zamin" nomi bilan uluglanib kelingan. Amir Temur va temuriylar davrida Movarounnahrning poytaxti va asosiy markaz Samarqand shahri bo`lganligi uchun ham ushbu shahar haqida Temuriylar davri yozma manbalarining deyarli barchasida ma`lumotlar keltirilgan.

Temuriylar davri manbalarida Samarqand viloyatining tabiati, tog‘u tekisliklari, iqlimi va suv tarmoqlari xususida ham ma'lumotlar bor. Xofizi Abru Samarqand yonidan o`tgan tog‘lar (Turkiston tizmasi]ning Kesh bilan Samarkand oraligidagi qismi Olaqasroq deb nomlanib, shu yerda tugashini va tizmaning Samarqand yaqinidagi qismi shahar nomi bilan Samarqand Garchistoni deb atalishini qayd etgan. Zaxiriddin Muhammad Bobur esa uni Samarkand viloyatida shu tomonda joylashgan tuman nomi bilan Shovdor tog`i deb atagan.

Shu bilan birga Samarqandda kuchsizroq zilzila bo‘lib turishi va shu sababdan, aholi uylarni sinchli qilib qurishlarini ham yozadi. Samarqand yaqinidagi tepalik - Pushtai Kuhak ham mashxur joy sanalgan va usha davr manbalarida ko`p eslatilgan. Samarqandning iqimi xususida esa Zaxiriddin Muhammad Bobur Qish anchagina sovuq bo`lishi haqida aytib o`tadi. Samarqand viloyatida shaharning

yaqin-atroflaridan boshlab talaygina o`langlar - maysalar bilan qoplangan yalangliklar (dashtlar) bo‘lgan va "Boburnoma"da beshta ulangning tavsifi berilgan. Bu haqida keyinroq yana toxtalib o‘tamiz.

Bu davr tog`risida Bobur haqiqiy tarixiy-geografik ma’lumotlarni yoritgan “Boburnoma” asarida Samarqand haqida “…Samarqandni Iskandar bino qilgan. Mo‘g`ul va turk ulusi Semizqand derlar. Temurbek (Amir Temur) poytaxt qilgan edi. Temurbekdan ilgari Temurbekday ulug podshoh Samarqandni poytaxt qilgan emas…” deb aytib o`tadi. Samarqand shahri qulay geografik hududda joylashganligi va iqlimi sug`orma dehqonchilikka juda qulayligi va Sharq bilan G`arbni bog`lovchi Buyuk ipak yo`li chorraxasida joylashganligi uchun tarixdayoq sharqning eng yirik shaharlari qatorida tilga olinadi. Abdurazzoq Samarqandiy “Vaqfga ajratilgan yerlar va ekinzorlardan har yili shunchalik xosil olinar ediki, u ikki joyning zaruratlari sarfidan ortib qolar va o‘sha ikki joyning o‘z xazinasiga yig‘ib qo‘yilar edi; hech takallufsiz (aytish mumkinki), eng bilimdon podshoh (Olloh) ixtiyor qilgan yana biror joy bo‘lmasa, islom shaharlarining barchasida bu ikki baxtli maqomga yaqin keladigan biror joyni ko‘rsatib bo‘lmas edi. Bu varaqlarni yozib to‘plovchi Abdurrazzoq qutli bir munosabat bilan bir necha vaqt dorussaltana Samarqandda muqim turganida bu holni o‘z ko‘zi bilan ko‘rdi” deb aytib o‘tadi.

Har qanday yuksak svilizatsiya birkun baribr zavol topishiga tarix guvohdir. Samarqand shahri ham Chingizxon hujumidan keyin ayovsiz talandi, aholisi qullikka mahkum etildi va shaharga o`t qoyilib vayron etildi. Chingizxon bosqinidan avvalgi va Temur davridagi Samarqand haqida ibn Arabshohda ma’lumotlar uchraydi. Unda yozilishicha “Samarqand Movarounnahming mashhur shaharlaridan va zikr qilingan mo‘tabar joylaridandir. Aytishlaricha, qadim zamonda Samarqand va uning devoriari o‘n ikki farsaxdan iborat bo‘lgan. Bu Chingizxon bilan kurashib o‘tgan Sulton Jaloluddin zamonida bo‘lgan. Men Samarqand devoriarining haddida, g‘arb tomondan Temur bino qilgan va Dimashq deb atagan bir qasabani ko‘rdim. Ushbu qasabaning masofasi Samarqanddan taxminan yarim kunlik (yo‘l)dir. Odamlar hozirgacha qadimgi Samarqandni kavlaydiiar va kufiy xati bilan tamg‘alangan dirhamlar va filslar qazib oladilar va filsu tangalarini eritib, undan kumush ajratib oladilar” deb aytib o‘tadi.

Yuqorida aytib o`tkanimizdek shaharlar haqida eng yaxshi ma’lumotlar “Boburnoma” da yozilgan. Boburnomada shahar haqida …Yer yuzining aholi yashaydigan qismida Samarqandcha latif shahar kamroqdir. Beshinchi iqlimdandir. Uzunligi 99 ramzi nujumiy daraja (gradus), 56 daqiqa, eni 40 daraja (gradus) va daqiqadir. Shahri — Samarqand, viloyatini Mavarounnahr deydilar. Hech dushman qahr va galaba bilan buni egallayolmagani uchun „baldai mahfuza“— „himoyadagi shahar“ deydilar. Samarqand hazrati amir ul-mo‘minin Usmon zamonida musulmon bo‘lgandir deb tarif beradi. Yana yoziladiki “… Uzumi va qovuni, olmasi va anori, xullas, barcha mevasi yaxshi bo‘ladi. Ayniqsa, ikki meva Samarqandda mashhurdir: Samarqand olmasi va Samarqandning sohibi uzumi, Qori Kobuldagidek tushmasa ham, qishi qattiq sovuqdir. Kobulcha bo‘lmasa ham, yozlarda yaxshi havosi bor”.

Shaharning ko‘rinishi haqida Klavixo Samarqand zich holda qurilganligi, o`rtasidan keng ko`cha o‘tgan shahar, ulkan hududning yirik iqtisodiy va madaniy

markazi edi. Shahar tuzilmasida bozorlar, aksari qismi ma’lum turdagi mahsulotlarni sotishga ixtisoslashgan usti yopiq timlar tashkil etishini yozib o‘tgan.

Amir Temur bunyod ettirgan ikkinchi ulkan imorat Ko‘ksaroy nomi bilan mashhur. Shaharning kun botar tomonidagi qal’a — Arki Oliy qiyofasi ancha o‘zgardi. Amir Temur bu yerda atrofi mustahkam o‘ralgan qal’a bunyod ettirdi, mahobatli darvozaxonalar qurdirdi, qal’a ichiga maxsus obmo‘ri orqali suv keltirdi. Bu yerda qad ko‘targan «to‘rt oshyonlik» Ko‘ksaroy har jihatdan ajralib turardi. Saroy tevaragini latif Bo‘stonsaroy bog‘i qurshab turgan. Ko‘ksaroyning to‘rt qavatli ulkan imorat bo‘lganligi uning naqadar ulug‘vor, mahobatli va noyob ekanligidan darak beradi.

XIV asr oxiri — XV asrda Mavarounnahr shaharlarida hunarmandlikning yetakchi sohalaridan biri to‘qimachilik edi. Samarqandlik to‘quvchilar turli xildagi oddiy va qimmatbaho matolarni to‘qish bilan shug‘ullanar edilar. Bu davrda qimmatbaho matolarga talab ortdi. Tor doiradagi zodagonlar talabini qondirish maqsadida juda qimmatbaho turdagi gazlamalar ishlab chiqarilar edi. Amir Temur va Temuriylar davri hunarmandlari tomonidan to‘qilgan qimmatbaho matolarning saqlanib qolgan parchalari Samarqanddagi Go‘ri Amir va Shohi Zinda maqbaralaridagi ayrim mashhur shaxslarning qabrlaridan topilgan. Saqlanib qolgan mato parchalari aytarli ko‘p emas. Lekin ularni atroflicha o‘rganish bu matolar shoyi gazlamalar ekanligini, yuqori sifatli bu matolarni o‘z hunarini yaxshi egallagan hunarmandlar tomonidan to‘qiganligini ko‘rsatadi.

XIV —XV asrlarga oid matolar va to‘quvchilar haqidagi ayrim ma’lumotlar shu davrga oid yozma manbalarda, xususan, qozilik qarorlarida, oldi-sotdi ahdnomalarida, vaqf yorliqlarida va boshqa hujjatlarda saqlanib qolgan. Hatto Samarqandga kelgan elchilar va Chet ellardan kelgan hunarmandlar tarkibida ham to‘quvchilar kelganligi manbalarda keltirilgan. Masalan Ibn Arabshohda “804-yil, muharram oyining o‘n uchinchisi, (23 avgust, 1401-yil) seshanba kunida Samarqandga kelib yetdilar. Ulaming saflarida Shom ahlidan bir guruh (kishilar) bor ediki, (ularaing) eng ko‘zga ko‘ringani vazir - ash-Shahidning o‘g‘li qozi Shixobuddin Ahmad bo‘lib, qolganlari esa mol tabiblari, bo‘yoqchilar, shoyi to‘quvchilar edilar. Bular Temur Shomdan olib kelgan qimmatbaho yuklarning avvalgisi va u tergan asirlaru boyliklar mevasidan Samarqandga yetib kelgan dastlabki samara edi. Keyin Temur o‘ljalar, mol-dunyolar va asirlar karvonlarini birin-ketin (Samarqandga) jo‘nata boshladi” ma’lumotlarini ko‘rish mumkin. Bu ma’lumotni tahlil qilib, Samarqand va Mavarounnahrning boshqa shaharlarida nafaqat Mavarorounnahrlik balki o‘zga yurt hunarmandlari ham yuqori sifatli matolarni tayyorlash bilan shug‘ullanganligini bilish mumkin.

Mavjud ma’lumotlar tahlili gazlamalar nomi, sifati va bezagi, ulardan kiyim kiygan shaxslarning ijtimoiy jihatdan qaysi tabaqaga mansubligi, Amir Temur va Temuriylar davrida to‘qimachilikning rivojlanish darajasini yaqqol aks ettiradi. Aholi zodagon qismining bayramona kiyimi keng tarqalgan baxmaldan tikilar edi. Shunday matodan badavlat xonadonlarda ko‘rpa-ko‘rpacha, choyshab va yostiq tayyorlangan. Baxmaldan g‘ilof ham tayyorlangan. Samarqanddagi maqbaralardan birining vaqf mulki ro‘yxatida Qur’on o‘ralgan baxmal parchasi ham eslatib o‘tiladi.

Klavixo shaharning boyligi unda oziq-ovqat mahsulotlasrining arzonligi va mo‘lligida emas balki bu yerda ko`plab ishlab chiqariladigan atlas, kimxob, sandal, tafta va tersenal singari Shohi gazlamalar, mo‘yna va shoyidan tayyorlanadigan astarlikllar, pardoz mahsulotlari, zsiravor-dorivorlar, zarhal va ko`k-lojuvard bo`yoqlar, boshqa mahsulotlar ham ko‘p ekanini takidlaydi.

Samarqandda baxmalning qizil rangli alohida turi ishlab chiqarilgan Qirmiz hasharotidan olinadigan rangga bo‘yab tayyorlandigan bu mato «baxmali qirmizi» nomi bilan mashhur edi. Qirmizi juda qimmatbaho bo‘yoq hisoblangan. Issiq suv, sirka kislotasi, 150 —175 ta qanotsiz qirmiz xasharotidan birgramm qirmizi bo‘yoq olingan. Bunday bo‘yoq uzoq mamlakatlardan olib kelingan bo‘lishi ham ehtimoldan xoli emas. Lekin ancha keyingi davr manbalarida bu hasharot Buxoro xonligi cho‘llaridagi butazorlarda uchrashi qayd etilgan. Bunday mato boshqa mamlakatlarga ham olib ketilganligi uning qimmatbaholigi va oliy sifatliligiga dalolatdir. «Samarqandning yana bir matoi qirmizi mahmaldurkim, atrof va javonibqa eltarlar».

Oliy navli jun mato — siqarlot ham qirmizi rang bilan bo‘yalar edi. Siqarlotdan yuqori tabaqa vakillari uchun ustki kiyimlar tikilgan. Shuningdek, undan qimmatbaho chodirlar ham tayyorlangan. Manbalarda keltirilishicha, onasi Gavharshodbegim Samarqandga tashrif buyurganida Mirzo Ulug‘bek qirmizi natifa tortiq etgan.

Amir Temur va Temuriylar davrida qimmatbaho matolar orasida kimxob (kamka) muhim o‘rin tutgan. Manbalarda yuqori lavozimli kishilarning uy jihozlari orasida kimxobdan tikilganlari ham eslatib o‘tiladi. Jumladan, ko‘rpa-to‘shak, boshqa qimmatbaho buyumlar, shuningdek Qur’onni saqlash uchun kimxobdan tikilgan xalta va hokazo. Kimxobdan qimmatbaho libos ham tikilgan. Yozma manbalarda ayniqsa kimxob to‘nlar tez-tez tilga olinadi. Amir Temur saroyiga o‘zga yurtlardan kelgan elchilarga kimxob to‘nlar kiydirilgan. Masalan, Samarqandga Ispaniya elchisi Rui Gonsales de Klavixo bilan kelgan kishilarga ham shunday to‘nlar kiydirilgan. Qimmatbaho katan matosi ham aholining zodagon qismi orasida mashhur edi. Undan libos va dasturxon tayyorlangan. Alisher Navoiyning yozishicha, savdogarlar katanni bo‘z narxida sotib olishni, bo‘zni esa katan narxida sotishni orzu qilardilar.

Amir Suhrobning qizi Habiba Sulton begim nomidan 1464 yili Samarqanddagi maqbaralardan biriga vaqf etilgan mulklar orasida qabr ustiga misr katanidan tayyorlangan yoping‘ich yopilgani eslatib o‘tiladi. Samarqandlik Ustod Tangriberdiboyning merosini o‘zida aks ettirgan hujjatda esa boshqa mol-mulklar bilan bir qatorda katandan tikilgan beshta to‘shak ko‘rsatib o‘tilgan . Markaziy Osiyo shaharlarida katan ishlab chiqarilgani haqida aniq ma’lumotlar yo‘q. Amir Temur va Temuriylar davrida katanni asosan Misr yetkazib berar edi.

No‘xot rang qog‘oz «Majmuayi vasoiq» hujjatlar to‘plamida eslatib o‘tiladi. Sulton Ali Mashhadiyning so‘zlariga qaraganda, qog‘ozga sariq rang berish uchun za’faron ishlatilgan. «Xitoyi qog‘oz» nomi bilan ataluvchi qog‘ozning kerakli rangdagisini olish uchun unga za’faron, xina va bir necha tomchi siyoh qo‘shilgan.

Turli ranglarda bo‘yalgan qog‘ozlarning har biri Sharq manbalarida alohida ma’noni bildirgan. Masalan, ko‘k rang motamni, qizil esa bayram kayfiyatini anglatgan.

Amir Temur va Temuriylar davrida tarixshunoslik borasida ro‘y bergan keskin yuksalish natijasida tarixiy asarlar, shuningdek, nasriy, she’riy va aniq fanlar sohasida talaygina asarlar yuzaga keldi. Ko‘plab buyruq va farmoyishlar chiqarilib, davlat yozishmalari amalga oshirildi. Bu esa, o‘z navbatida, ko‘plab yozuv qog‘ozi, ayniqsa oliy navli qog‘oz talab qilar edi. Oliy navli qog‘ozni asosan hukmdorlar va ularga yaqin amirlar, yirik davlat amaldorlari ishlatishgan. Shuning uchun bunday qog‘oz «Sulton qog‘ozi» nomi bilan mashhur bo‘lgan. Sulton Ali Mashhadiy Samarqand qog‘ozining o‘ziga xos xususiyatlari haqida yozar ekan, uning chidamliligi, silliqligi, siyohni o‘ziga shimmasligi kabi xossalarini ko‘rsatib o‘tgan. Samarqandlik hunarmandlar past sifatli qog‘oz ham ishlab chiqarganlar. O‘sha davr qo‘lyozmalarida «toza va oq qog‘oz» va oddiy qog‘oz ning eslatib o‘tilishi bejiz emas

Samarqand Temuriylar davrida ham Sharqning qog‘oz ishlab chiqaruvchi markazlaridan biri bo‘lib qoldi. Amir Temur va uning avlodlari davrida Mavarounnahrda qo‘lyozmalar, odatda, Samarqand qog‘ozida bitilar edi. Sharafuddin Ali Yazdiy «Zafarnoma»sining UzR FA Sharqshunoslik institutida 4472-raqami ostida saqlanayotgan qo‘lyozmasi aynan Samarqand qog‘ozida bitilgan

Hunarmand kulollar turli idish-tovoqlar yasashgan. Amir Temur qal’asi hududida topilgan XV asr arxeologik osori atiqalari orasida har xil kosa, katta va kichik laganlar, tog‘ora, shuningdek chiroq mavjudligi buning dadilidir

Amir Temur davrida tanga zarb etish uchun konlardan kumush qazib olingan. Amir Temur va Temuriylar davlatida qimmatbaho metallarni qayta ishlash bilan bog‘liq hunarmandlik sohalari ham rivoj topgan.Amir Temurning o‘zi, uning xotinlari va Temuriy sultonlar o‘zlariga qimmatbaho toshlar, dur va marvaridlar, oltin va kumushdan ishlangan zargarlik buyumlari bilan zeb berishni sevar edilar.

Markaziy Osiyo hunarmandligida gilamchilik alohida o‘rin tutgan. Anvoyi gilamlar Amir Temur saroylarini bezar edi. Hukmron sulolaning oilaviy tantanalari, hukmdorning harbiy yurishlardan qaytishi va elchilarning kelishi munosabati bilan poytaxt shaharlarning asosiy ko‘chalari va uylarining devorlari gilamlar bilan bezatilardi.

Mavarounnahr va Xurosonning markaziy shaharlarida tepasi tim qilib yopilgan yangi-yangi bozor — chorsularning soni ko‘payib, rastalar kengaydi. Shaharlarda ichki savdo rivoj topib, shaharlar bilan dehqonchilik vohalari va ko‘chmanchi chorvador dasht aholisi o‘rtasida savdo sotiq aloqalari kuchaydi. Markaziy shaharlar mol ayirboshlash savdosida muhim ahamiyat kasb etdi. Bu davrda mamlakat poytaxti Samarqand shahrida savdo va hunarmandlikning juda ham rivoj topganligi Rui Gonsales de Klavixoni hayratda qoldirgan edi.

Klavixo Samarqand bozorlarida bug‘doy va guruchning mo‘lligi, arzonligi haqida gapirib, shahar hunarmandligi mahsulotlarini ham qayd qiladi: «Bu yerning boyligi faqat yemakliklarning mo‘l-ko‘lligidagina emas, balki o‘zida ko‘plab ishlab chiqariladigan ipak matolar: kimxob, har xil ip va jun to‘qima mollar, mo‘ynali va

ipakli po‘stinliklar, attorlik mollari, ziravor va dorivorlar, zarhal va lojuvardlar hamda mollarning serobligidadir». «Bu shaharda oldi-sotdi uchun qulay maxsus savdo rastasining mavjud emasligi tufayli, podsho shahar bo‘ylab katta ko‘cha chiqarishni, uning ikki tomoniga mol sotish uchun rasta va do‘konlar qurishni buyurdi. Bu ko‘cha shaharning chetidan boshlanishi va butun shahar orqali o‘tib, ikkinchi chetiga borib yetishi kerak edi. Podshoh ko‘rsatib bergan yo‘nalishda ko‘cha o‘tkazila boshlandi. Ko‘cha yo‘nalishidagi uyjoylar, kimniki bo‘lishidan qat’i nazar, buzib tekislandi... Ko‘chani keng olib, uning har ikki tomoniga savdo do‘konlari qurishdi, har bir do‘kon oldida oq toshlar bilan qoplangan baland kursilar o‘rnatildi. Barcha do‘konlar juft-juft qilib bir-biriga tutashtirildi.

Ko‘chaning tepasi esa boshdan oyoq tim qilib ravoqsimon shaklda yopildi. Yorug‘lik tushishi uchun unga qator darchalar o‘rnatildi. Do‘konlar qurib bitirilishi bilanoq, ularga savdogarlar o‘rnashar va turli mollarni sotishga kirishardilar. Ko‘chaning har yer-har yerida hovuzlar kavlangan bo‘lib, ular suvga to‘ldirib qo‘yilgandi... Kunduz kuni ishlagan kishilar kech kirishi bilan uylariga ketishar va ularning o‘rniga kechasi ishlash uchun boshqalari kelishar edi, ayrimlari uylarni buzar, boshqalari yer tekislar va uchinchilari qurilish bilan band edi... Bunday katta qurilish yigirma kundan ozroq muddatda amalga oshirilgani, shubhasiz, kishini hayratga soladi», — deb hikoya qilgan edi Klavixo.

Amir Temur va Temuriylar davri hunarmandligi hamda madaniyati hududiy cheklanmagan. Bu o‘rinda Ibn Arabshohning quyidagi ma’lumoti diqqatga sazovordir. Uning yozishicha, shirali ovozli qo‘shiqchilar mohir sozandalar jo‘rligida forslardek, arab musiqalari ostida, turkiylar odatlari asosida, mo‘g‘ullar ovozi bilan xitoyliklarning qo‘shiq aytish qonunlari va oltoyliklarning o‘lchovi bilan kuylaganlar.

Xulosa qiladigan bo‘lsak Samarqand shahri Temuriylar davrida Buyuk ipak yo‘lining eng yirik hunarmandchilik va savdo-iqtisodiy markazlaridan biriga aylanadi. Shaharda nafaqat savdo-sotiq, balki mahalliy hunarmandchilik ham ichki va tashqi bozor uchun turli hil mahsulotlar ishlab chiqarish yuksak darajada rivoj topdi. Bir so`z bilan aytganda Samarqand shahri ham iqtisodiy, ham siyosiy markaz darajasiga ko‘tarildi.

Foydalanilagan adabiyotlar ro‘yhati:

1. Ibn Arabshoh Ajoyib al-maqdur fi tarixi Taymur.”Fan”:T-2019 b-513

2. Абдураззоқ Самарқандий. Матлаи саъдайн ва мажмаи баҳрайн / Форс – тожик тилидан таржима, кириш сўз ва изоҳи луғатлар А.Ўринбоевники. – Т.: Фан. 1969. – 464 б.

3. Абдураззоқ Самарқандий. Матлаи саъдайн ва мажмаи баҳрайн / Форс тилидан таржима ва изоҳлар муаллифи А.Ўринбоев. Ж. II. Қ. I. 1405 – 1429 йил воқеалари. – Т.: «O‘zbekiston». 2008. – 632 б.

4. Абдураззоқ Самарқандий. Матлаи саъдайн ва мажмаи баҳрайн / Форс тилидан таржима ва изоҳлар муаллифи А.Ўринбоев. Ж. II. Қ. II-III. 1429 – 1470 йил воқеалари. – Т. : «O‘zbekiston». 2008. – 832 б

5. Клавихо. Руи Гонсалес Самарқандга- Амир Темур саройига сахат кундалиги(1403-1406йй) “ Ўзбекистон”:. Т: 2010,б-264

6. Низомиддин Шомий. Зафарнома / Форс тилидан ўгирувчи – Ю.Ҳакимжонов, таржимани қайта ишлаб нашрга тайрловчи ва маъсул муҳаррир – А.Ўринбоев, изоҳлар ва луғатларни тузувчи – Ҳ.Кароматов (жуғрофий номлар изоҳи – О.Бўриевники), Ҳофизу Абруни «Зафарнома»га зган «Зайл»и(«Илова»)ни форсийдан ўгирувчи ва изоҳларини тузувчи – О.Бўриев -Т.: Ўзбекистон, 1996;

7. Бўриев О. Темурийлар даври зма манбаларида Марказий оси тарихий географияси, Монография, “Mumtoz so‘z”-2017 б-361

O‘ZBEKISTONDA AGROTURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA XORIJIY DAVLATLAR TAJRIBASIDAN FOYDALANISH.

S.R.Otajonova, M.S.Ahmadjonova
Qo‘qon D.P.I. Biologiya kafedrasi o‘qituvchilari
Tel:946233500

Annotatsiya Mamlakatning turizm salohiyatini tubdan oshirishga, turizmga iqtisodiyotning strategik sektori maqomini berishga, turizm sohasida yagona davlat siyosati o‘tkazilishiga yo‘naltirilgan turizmni rivojlantirishning yaxlit konsepsiyasi shakllantirilishi va amalga oshirilishini ta’minlash.Turizm xizmatlarining tashqi va ichki bozorlarida marketing tadqiqotlari olib borishga, tarixiy-madaniy merosni keng targ‘ib qilishga, O‘zbekiston Respublikasining turizm qiyofasini saqlab qolish va rivojlantirishga, milliy turizm mahsulotlari va brendlari xalqaro turizm bozorlariga kirib borishiga yo‘naltirilgan faol reklama-axborot siyosatini amalga oshirish;

Kalit so‘zlar: turizm iqtisodiyot, turizm xizmatlarining tashqi va ichki bozor, tarixiy-madaniy merosni, yaxlit konsepsiya.

Аннотация: Обеспечение формирования и реализации целостной концепции развития туризма, направленной на коренное повышение туристического потенциала страны, придание туризму статуса стратегической отрасли экономики, проведение единой государственной политики в сфере туризма, реализация активной рекламной и рекламной деятельности. информационная политика, направленная на широкую пропаганду наследия, сохранение и развитие туристического имиджа Республики Узбекистан, проникновение национальных туристических продуктов и брендов на международные туристические рынки;

Ключевые слова: экономика туризма, внешний и внутренний рынок туристических услуг, историко-культурное наследие, интегрированная концепция.

Annotation: Ensuring the formation and implementation of a holistic concept for tourism development, aimed at radically increasing the country's tourism potential, giving tourism the status of a strategic sector of the economy, pursuing a unified state policy in the field of tourism, and implementing active advertising and promotional activities. information policy aimed at widespread promotion of heritage, preservation and development of the tourist image of the Republic of Uzbekistan, penetration of national tourism products and brands into international tourism markets;

Key words: economics of tourism, external and internal markets for tourism services, historical and cultural heritage, integrated concept.

O‘zbekiston Respublikasida qishloq ho‘jaligi bilan bog‘liq bo‘lgan sohalarni rivojlantirish bozor munosabatlariga o‘tish jarayonida muxim ro‘l o‘ynaydi. Qish-loq ho‘jaligi maxsulotlari etishtirish va ularni etkazib berish agrosanoat majmualarining bir ko‘rinishi sifatida iqtisodiyotimizning bir bo‘lagi hisoblanadi. Rivojlangan mamlakatlarda agroturizmning turli xil ko‘rinishlari shakllangan. Ularda agroturizm shakllari ko‘proq ekoturizmlar ko‘rinishida namoyon bo‘ladi. Mahalliy aholining qishloq ho‘jaligi maxsulotlari etishtirishi va etkazib berishi bilan bog‘liq bo‘lgan jarayonlardan turistik maqsadlarda foydalanish, hamda ekologik jihatdan toza bo‘lgan qishloq sharoitida dam olishni tashkil etishni agroturizmning bir ko‘rinishi sifatida e’tirof etish mumkin. (O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining «Turistik tashkilotlar faoliyatini takomillashtirish haqida»gi qarori.) [8-avgust 1998 yildagi №346 12bet.]

Agroturizm yetarli darajada shakllanib, rivojlangan davlatlar qatoridagi asosiy o‘rinlarni G‘arbiy Evropadagi Italiya, Fransiya, Germaniya hamda AQSH davlatlari egallaydi. G‘arbiy Evropada agroturizm turizm sanoatining samarali va daromad keltiruvchi bo‘g‘ini sifatida shakllanishiga davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanishi sabab bo‘lgan.

Masalan, Italiyada agroturizmning o‘ziga xos xususiyati, uni ekoturizm bilan birgalikda olib borilishidadir. Italiyaning Kampanya, Pulya, Trentino-Alto-Adidje, Marke va Kalabriya kabi provinsiyalarida agroturizm bilan ekoturizm birgalikda olib borilmoqda. Oxirgi 15 yil davomida mamlakatda qishloqda dam olishning mavqei yana ko‘tarildi. Agar 1995 yilda Italiya 550 ming agro-ekoturist qabul qilgan bo‘lsa, 2015 yilda esa bu ko‘rsatkich qariyib 2 mln.ga yetdi. Ular ichida chet mamlakatlardan kelganlar soni 10 % dan 18% ga oshdi. XX asrning 90-yillar o‘rtasiga qaraganda bu sohada moliyaviy aylanma 7 marotabaga oshdi, ya’ni 85 milliarddan 615 milliard italiya lirasini tashkil qildi. Bu o‘rinda hukumatning asosiy e’tibori agrar rayonlarga va aholini ish bilan bandligi muammo bo‘lgan janubiy rayonlar – Bazilikate, Pule, Kalabriya, Sitsiliya va Sardiniya kabi provin-siyalarga qaratilgan.

Bugungi kunda Italiyada agro-ekoturistlarni qabul qilish uchun jihozlangan dehqon uylarining soni 9 mingta bo‘lib, ular bir paytning o‘zida 125 ming turistni qabul qila oladi. Provinsiyalar orasida Toskana (34%), Umbriya (14%), Sitsiliya (7%) yetakchilik qilmoqda. (Xalqaro turizm va huquq - Borisov K.G. o‘quv qo‘llanma M; nashriyot “NIMP”), [1999 y 47-62 bet.]

Fransiyada agroturizm oilaviy biznes – qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi bilan turizmning birlashmasidan iborat. Uning infratuzilmasi – uzumchilik, bog‘-dorchilik, baliqchilik, yilqichilik fermalaridan iborat. Bularning qoshida barcha zamonaviy qulayliklarga ega bo‘lgan arzon mehmonxonalar mavjud. Erta tongda agroturistlarni haqiqiy qishloq ho‘rozlari uyg‘otadi, stolga yangi uzilgan va yuqori ekologik toza mahsulotlar va ichimliklar tortiladi. Kun davomida agroturistlar chinakam qishloq hayoti bilan tanishadilar, otlarda sayohat qiladilar, uzum terimida qatnashadilar. Bunday oilaviy dam olish shaharliklarda katta ta’surot qoldiradi. Ko‘p sonli chet elliklar, fransuzlarning o‘zlari ham agroturizmni o‘sib kelayotgan avlod uchun mustahkam tarbiya vositasi hisoblaydilar.

Germaniyada agroturizm qishloq xo‘jaligining iqtisodiy ahamiyati pasaygandan so‘ng boshlandi. Bu davrda davlat tomonidan qishloq xo‘jaligining qo‘llab-quvvatlanishiga qaramay bir qancha muammolar yuzaga kelgan edi: ishsizlikning yuqori darajasi (ayollar orasida o‘rtacha 30%gacha); mehnatga layoqatli aholining qishloqdan migratsiyasi; daromadning past darajasi; qishloqning tashqi ko‘rinishidagi o‘zgarishlar. Germaniyada agroturizmning ommaviy rivojlanishi oldingi asrning 70-yillarida boshlangan. Lekin 90-yillarning o‘rtalariga qadar u faqat Germaniyaning g‘arbiy qismidagina rivojlangan. Germaniyaning birlashuvidan keyin esa uning sharqiy qismi ham rivojlana boshladi. Nemislar Evropadagi eng ko‘p sayohatga chiquvchi millat hisoblanadi, ammo ularning 34% i Germaniya bo‘ylab sayohat qiladilar. Turistlarning 13% i qishloq joylarida dam oladilar, ferma, qishloq pansionlariga joylashadilar. Ularning joylashishiga ko‘ra agroturizm Germaniyada quyidagi turlarga bo‘linadi:

- fermada dam olish;
- qishloq uchastkalarida dam olish;
- sharob ishlab chiqariluvchi uchastkalarda dam olish.

Germaniyada agroturizmni rivojlantirishning ko‘pgina yo‘nalishlari mavjud, ularning asosiylari quyidagilardir: o‘z-o‘ziga yordam ko‘rsatish; rivojlanish jarayonidagi barcha ishtirokchilarning o‘zaro sherikligi; hudud, hududlararo va tarmoqlararo hamkorlikni rivojlantirish dasturlarini qo‘llab-quvvatlash. (А.Начаев. “Испанияда халқаро туризмнинг ривожланиши” номзодлик диссертацияси.) [2004.113 bet]

AQSHda ham agroturizm keng qo‘llaniladi. Shahar aholisi hafta oxirida, ya’ni shanba va yakshanba kunlari qishloq joylarida hordiq chiqaradilar. Agrotu-rizm xizmatidan foydalanuvchilar, asosan, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining yig‘imi davrida qishloq joylariga boradilar va hosilni o‘z qo‘llari bilan teradilar. Fermerlar agroturistlarni o‘z xo‘jaliklariga taklif etib, meva yoki poliz mahsulot-larini terishga ruxsat beradilar, so‘ngra mahsulot og‘irligiga ko‘ra shu yerning o‘zidayoq hisob-kitob qiladilar. Bu erda turistlar qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini shaharga nisbatan yuqori narxlarda sotib oladilar. Shunga qaramay, agroturizmdan foydalanuvchi turistlarning soni kundan kunga oshib bormoqda. Bunga sabab turistlarning o‘z qo‘llari bilan qishloq xo‘jalik mahsulotlarini yig‘ib olishga bo‘l-gan qiziqish va shu erning o‘zida yangi uzilgan mahsulotlarni iste’mol qilishdir.

Agroturizm rivojlanish bosqichida turgan davlatlar qatoriga Chexiya, Gretsiya, Polsha, Bolgariya kabi davlatlar kiradi. Bu davlatlarda agrar soha etakchilik qilib, agroturizmni yanada rivojlantirish uchun foydalanilmagan imkoniyatlar mavjud. (Ташмурадов Т. Халқаро туризм иқтисоди (дарслик), Т-.: ТошДИУ), [2018-й. 206-бет.]

Chexiya mamlakati miqyosida agroturizm rivojlanish bosqichida bo‘lib, undan, asosan, chet el turistlari hamda Germaniya, Avstriya davlatlariga chegaradosh viloyatlarida ommaviy ravishda foydalanib kelmoqda. Sharqiy Chexiyaning Kralovegradetskiy va Pardubitskiy viloyatlarida agroturizm endigina rivojlanmoqda. Turistlarni bu erga, asosan, Krkonoshskiy yoki Orlitskiy tog‘lari jalb etadi. Bu erlarda turizmni rivojlantirish uchun ko‘plab foydalanilmagan imkoniyatlar mavjud. Chexiyada agroturizmni rivojlanishida dastlabki investitsiyalarni jalb etish uchun moliyaviy mablag‘larning etishmasligi muammo bo‘lib turibdi. Moravsko-selezskaya viloyati bundan mustasno bo‘lib, turistlarning qishloq joylarga ko‘plab jalb etilishi qo‘shimcha mablag‘ bilan ta’minlamoqda. Mahalliy xokimiyatning ta’kidlashicha, agroturizmning rivojlanishi ishsizlikning kamayishiga olib kelmoqda. Ba’zi viloyatlarda uning rivojlanishiga mavjud urf-odatlar halaqit bermoqda. Masalan, Yugomoravskiy viloyatida bir necha agrofermalar mavjud bo‘lib, ular faqat vino tayyorlash soyasida qolib ketgan.

Agroturistlarga yanada qiziqarli bo‘lishi uchun fermerlar baliq ovi uyushtiradilar, otda sayohat qilishga taklif etadilar. Birmuncha rivojlangan agrofermalar golf, tennis kortlari va skvoshlarga ega. Ammo ayrim ishbilarmonlar agroturizmga nisbatan talab ortib borayotganiga qaramay, uni asosiy foyda manbai hisoblamaydilar. Analitik firma Mag Consulting ning tadqiqot natijalariga ko‘ra, Chexiyada bugungi kunda qishloq joylarida hordiq chiqarayotganlar soni yiliga 30 mingdan ortmoqda, shundan 8 mingi chet el fuqarolaridir.

Polsha Respublikasida agroturizm 10 yildan ortiq davr mobaynida muvoffaqiyatli rivojlanib kelmoqda. Uning turizm yo‘nalishi sifatida yuzaga kelishi Polshada qonuniy asoslangan, kommunistlar hukumati davrida ham bir qancha yer maydonlari xususiy mulk sifatida qolgan. Polshada demokratik boshqaruv o‘rnatilgandan so‘ng, Polsha hukumati mamlakatda turizmning bu turini rivojlanishi uchun zaruriy shart-sharoitlar yaratdi. Maxsus banklar tashkil etildi, fermerlar va er egalari uchun imtiyozli kredit turlari va ssudalar ishlab chiqildi. Xozirgi kunda Polsha miqyosida 4 ming atrofida agroturistik xo‘jaliklar faol ishlamoqda. Barcha xo‘jaliklarda turistlar uchun sifatli servis xizmati yo‘lga qo‘yilgan. Polsha agroturizmidan endilikda nafaqat qo‘shni mamlakatlar fuqarolari, balki bu yerda nemislar va amerikaliklar, shvedlar va italiyaliklarni, avstriyaliklar va norvegiyaliklarni, rossiyaliklarni uchratish mumkin. (Александров А.Ю. Международный туризм. Уч.пособие для вузов.- М.: Аспект Пресс), [2014. 143 bet]

Xulosa o‘rnida aytish mumkini, yqorida ko‘rsatib o‘tilgan mamlakatlar tajribalaridan foydalangan holda, O‘zbekistondagi obod qishloqlardan va qishloq ho‘jaligi maxsulotlari yetishtirishning barcha ko‘rinishlaridan agroturistik maqsad-

larda foydalanish va undan iqtisodiy samaradorlikka erishish O‘zbekiston sharoitida agroturizmni rivojlantirishning ahamiyatini yanada oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. А.Начаев. “Испанияда халқаро туризмнинг ривожланиши” номзодлик диссертацияси. 2004.113 bet.
2. Александров А.Ю. Международный туризм. Уч.пособие для вузов.-М.: Аспект Пресс, 2014.143bet.
3. Ташмурадов Т. Халқаро туризм иқтисоди (дарслик), Т-.: ТошДИУ, 2018-й. 206-бет.

BO‘LAJAK BIOLOGIYA O‘QITUVCHILARIDA SOG‘LOM TURMUSH TARZI KO‘NIKMALARINI TARKIB TO‘PTIRISH MAZMUNI.

Otajonova Sarvigul Ravi’jonovna
Qo‘qon davlat pedagogika instituti
biologiya kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada biologiya o`qituvchisning valeologik ko`nikmlarini ahamiyati, qo`llash funktsiyalari va biologiya o`qitish metodikasini zamonaviy pedagogik imkoniyatlari yoritib berilgan. O`qitishning innovatsion faoliyatida biologik bilimlarni oshirish, o`zaro fikr almashishga qaratilgan.

Kalit so‘zlar: biologiya o`quv fanlarining o`qitishning didaktik asoslari, o`qitish shakllari, kasbiy pedagogik faoliyat, valeologik kompetentlik, pedagogik imkoniyatlari.

Аннотация: В данной статье подчеркивается значение валеологического мастерства учителя биологии, функции применения и современные педагогические возможности методики преподавания биологии. Инновационная деятельность преподавания направлена на повышение биологических знаний и обмен идеями.

Ключевые слова: дидактические основы преподавания биологических предметов, формы обучения, профессиональная педагогическая деятельность, валеологическая компетентность, педагогические возможности.

Annotation: This article emphasizes the importance of valeological skills of a biology teacher, the application functions and modern pedagogical possibilities of biology teaching methods. Innovative teaching activities aim to increase biological knowledge and exchange of ideas.

Key words: didactic foundations of teaching biological subjects, forms of teaching, professional pedagogical activity, valeological competence, pedagogical capabilities.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining aholining sog‘lom turmush tarzini qo‘llab-quvvatlashva jismoniy faolligini oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida 19.11.2020 yil. N 735 qarori qabul qilingan. Ushbu

qarorda jismoniy tarbiya va sport sohasidagi bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari negizida “sport tadbirlarini sharhlovchi”, “yirik sport tadbirlarini tashkillashtirish hamda ommaviy sportni rivojlantirish va sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish” bo‘yicha kadrlar tayyorlashda davlat buyurtmasi parametrlari doirasida tashkil etish, har bir ta’lim muassasasi kamida bitta sport tashkiloti bilan ommaviy sport ni rivojlantrish va sog‘lom turmush tarzini shakllantirish bo‘yicha hamkorlik qilish memorandumini tuzish kabi masalalarga alohida ehtibor berilgan. (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Аҳолининг соғлом турмуш тарзини қўллаб-қувватлаш ва жисмоний фаоллигини оширишга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги Қарори) [19.11.2020 й. 735-сон]. Talabalar o‘rtasida sog‘lom turmush tarzi ko‘nikmasini rivojlantirish ularda tashqi ijtimoiy hayotning murakkablashuvi, hayot faoliyati davomida uchraydigan xavf - xatarlarning kuchayish sharoitida odam tanasiga uning jismoniy, intellektual va ijtimoiy rivojlanishi bilan bog‘liq ravishda muammolarni kopayishi va o‘zgarishi bilan bog‘liq jarayonlarni oldini olish imkoniyatini beradi. Bo‘lajak biologiya o‘qituvchisida sog‘lom turmush tarzi ko‘nikmalarini tarkib to‘tirish ularning kognitiv faoliyatini faollashtirish, ijodiy tafakkurini rivojlantirish, salomatlikni mustahkamlovchi omillar va ularni funksional vazifasini tizimlashtirish va o‘timallashtirishga yordam beradi.

Tadqiqot ishimiz jarayonida biologik ta’lim mazmunida salomatlik tushunchasini turlariga quyidagicha aniqlik kiritildi.

1. Somatik salomatlik – organizmining individual rivojlanishining biologik dasturi bo‘lib, a’zolar tizimining faol ishlash holatini belgilaydi.

2. Fiziologik salomatlik – a‘zolar tizimining faol ishlash jarayonini bo‘lib, morfologik jihatdan rivojlanishi va tashqi muhitga moslashishini tahminlash bilan belgilanadi.

3. Ruhiy salomatlik – organizmning ruhiy yetukligi bo‘lib, turli vaziyatlarda xulq-atvorni namoyon etishdagi ruhiy holati sanaladi.

4. Axloqiy salomatlik – organizmining mustaqil hayoti va kelgusida jamiyatdagi mavqeini tahminlovchi ehtiyojlari va insonning mahnaviyatini shakllantirilishiga zamin yaratadi. (M.M.Isabayeva. Biologiyani o‘qitishda o‘quvchilarda sog‘lom turmush tarzi ko‘nikmalarini tarkib toptirish tizimi (5-9sinflar misolida). [2020y 85bet].

Biologiya o‘qitish metodikasida sog‘lom turmush tarz ko‘nikmalarini tarkib toptirishning didaktik asoslari sifatida biologik salomatlik turlariga uzviyligida namoyon bo‘ladi.

Salomatlik - bu insonning aqliy, jismoniy va biologik qobiliyatlarini saqlash va rivojlantirish, uning optimal mehnat qobiliyati, hayotda maksimal ijobiylik bilan ijtimoiy faollik deb hisoblagan. Organlarning funktsiyalarining sifat chegaralarini saqlab qolgan holda, ularning maksimal mahsuldorligi, deb hisoblagan. Batafsilroq aytganda, salomatlik - bu atrof-muhitga va o‘z imkoniyatlariga moslashish qobiliyati; tashqi va ichki buzilishlarga, kasalliklarga, boshqa zararlarga, o‘zini, tabiiy va sun'iy yashash joylarini saqlash; yashash sharoitini, mavjud ekologik, intellektual, axloqiy muhitning hajmi va xilma-xilligini kengaytirish; to‘liq hayot

faoliyatining davomiyligini oshirish; tananing sog‘lom saqlash imkoniyatlari, xususiyatlari va qobiliyatlarini, hayot sifatini va yashash muhitini yaxshilashga xizmat qiluvchi omillar yig‘indisidir

Salomatlik o‘sish va rivojlanish ko‘rsatkichlari, organizmdagi ergonomik zahirasi, shuningdek, hissiy motivlari va axloqiy rivojlanishiga bevosita ta‘sir etuvchi psixo - fiziologik jarayonni belgilaydi. Salomatlikni tahminlashni ongli ravishda aholi tomonidan sog‘lom turmush tarzi komponentlari odam tananing funktsional holatini sog‘lom va faol rivojlanishini tahminlovchi omillar yig‘indisidir. Shuning uchun salomatliknillg shunday jihatlari sifatida genetik, bioximik, funksional, psixolog‘ik, ijtimoiy-ma‘naviy, klinik; jamoatchilik salomatligi ko‘rsatkichlari: tug‘ilish, kasallanish, hayotning davomiyligi, nogironlik ko‘rib chiqiladi. Bunday kasaliklarga e‘tibor qaratish esa salomatlik darajasi ua uni baholash metodlari haqida fikr yuritish imkonini beradi. (N.I. Taylaqov, M.M. Isabayeva, Voyaga yetmaganlar orasida jinoyatchilik va huquqbuzarlikka moyil o`quvchilarni tarbiyalashning ijtimoiy-’edagogik vositalari va texnologiyalari. III tom. Monografiya / N.I. Taylakov va boshqalar. – Toshkent: “Ta’lim” nashriyoti)[2019 yil. 320 b.]

Foydalanilagan adabiyotlar ro‘yhati

1. J.O.Toli’ova, A.T.G‘ofurov “Biologiya o‘qitish metodikasi” metodik qo‘llanma) T. Bilim. -2004y.
2. M.M.Isabayeva. Biologiyani o`qitishda o`quvchilarda sog`lom turmush tarzi ko`nikmalarini tarkib to‘tirish tizimi (5-9sinflar misolida). – 2020y.
3. N.I. Taylaqov, M.M. Isabayeva, Voyaga yetmaganlar orasida jinoyatchilik va huquqbuzarlikka moyil o`quvchilarni tarbiyalashning ijtimoiy-’edagogik vositalari va texnologiyalari. III tom. Monografiya / N.I. Taylakov va boshqalar. – Toshkent: “Ta’lim” nashriyoti, 2019 yil. 320 b.
4. htt’s://www.bibliofond.ru/view.as’x?id=518772#text© Bibliofond.

OLIY TA’LIMDA ILG‘OR XORIJ TAJRIBASI ASOSIDA KREDIT – MODUL TIZIMIDA TALABALAR VA PEDAGOGLAR FAOLIYATI

Yuldashev Abdurauf Ro‘zmatjonovich
QDPI Fakultetlararo matematika informatika
kafedrasi o‘qituvchisi.

Аннотация. Обеспечивает прозрачность, прагматизм и возможность организации обучения, ориентированного на учащихся. Внедрение в учебный процесс кредитно-модульной системы является важным фактором повышения качества образования и конкурентоспособной подготовки кадров.

Ключевые слова Зарубежный опыт, кредитный модуль, прозрачность в образовании, академическая мобильность, мировой университет, преподаватель и студент, переобучение, окончание семестра, итоговый контроль

Annotation: The provides transparency, pragmatism and the ability to organize student-centered learning. The introduction of a credit-modular system into the educational process is an important factor in improving the quality of education and competitive training.

Key words: Foreign experience, credit module, transparency in education, academic mobility, world university, teacher and student, retraining, end of semester, final control

Oliy ta’limda ilg‘or xorij tajribasi asosida kredit-modul tizimi bizga nima beradi? Ta’limda shaffoflik, pragmatizm va talabaga yo‘naltirilgan ta’limni tashkil etish imkoniyatini yaratadi. O‘quv jarayoniga kredit-modul tizimining joriy etilishi ta’lim sifatini oshirishda hamda raqobatbardosh kadrlar tayyorlashda muhim omil bo‘lib hisoblanadi. Quyida kredit-modul tizimining o‘ziga xos afzalliklarini ko‘rib chiqishimiz mumkin.

Akademik mobillik — talabalar kreditlarini saqlagan holda, istalgan mos oliygohga o‘qishni qiyinchiliksiz ko‘chirib o‘tishlari mumkin bo‘ladi. U xoh, jahon universiteti bo‘lsin, xoh, o‘zimizdagi istalgan Oliy ta’lim muassasasi bo‘lsin uning ahamiyati yo‘q. Faqat, talaba to‘plagan krediti ko‘chirib o‘tish kreditiga yetsa bo‘lgani.

Talabalarga o‘qituvchini tanlash erkinligi beriladi. Bu orqali, o‘qituvchi va talaba o‘rtasida akademik muloqot ta’minlanadi.

Talabalar o‘z istaklaridan kelib chiqqan holda, fanlarni tanlash imkoniyatiga ega bo‘ladi. Albatta, bu o‘rinda majburiy o‘rganilishi lozim bo‘lgan (mutaxassis) fanlar ham bor, ammo talaba mustaqil tanlov fanlarini belgilay oladi.

Talabalarga ta’lim dasturini mustaqil shakllantirish imkoniyatini yaratish va qo‘yiladigan baholarning oshkoraligini ta’minlash yo‘lga qo‘yiladi. Bu esa, o‘z-o‘zidan ta’lim tizimidagi korruptsiyani barham topishini ta’minlaydi.

Bu tizimda tanlov fanlarining ko‘pligi ish beruvchi talabidan kelib chiqib mutaxassis tayyorlash imkoniyatini beradi.

Kredit tizimida majburiy fanlardan tashqari tanlov fanlari hamda talabaning shaxsiy dars jadvali bo‘ladi. Talabalar o‘qishdan haydalmaydi yoki kursdan kursga qolmaydi. Qaysi fandan belgilangan kreditlarni yig‘olmasa, o‘sha fanning o‘zi qayta o‘zlashtiriladi va fandan qayta imtihon bo‘ladi.

Qayta o‘qish — bu birinchi darsdan to oxirgi darsgacha o‘tilgan ma’ruza, laboratoriya va amaliy mashg‘ulotlarni o‘z ichiga oladi. Qayta o‘qishning kredit summasi kontrakt summasidan kelib chiqib hisoblanadi. Oliy ma’lumot olinganligi to‘g‘risidagi diplom esa, belgilangan kreditlar yig‘ilgandan so‘nggina beriladi. Semestr yakunida talabalar bahosining 50 foizini fan o‘qituvchisi, 50 foizini muassasa rahbariyati qo‘yadi. Ya’ni bir semestr davomida oraliq nazorat, uyga vazifalar, amaliy mashg‘ulot (laboratoriya), mustaqil ta’lim ishlarini professor-o‘qituvchilar baholaydi. Yakuniy nazorat oliy ta’lim muassasa rahbariyati tomonidan olinadi. Unda o‘qituvchi-professor ishtirok etmaydi.

Mutaxassislar fikricha, kreditlarni yig‘ish uchun talabalardan darslarda qatnashish, berilgan vazifalarni vaqtida bajarish, o‘z bilim saviyasini namoyon etish talab etiladi.

Kredit ta’lim tizimida o‘qituvchi (pedagog) o‘zining vazifasiga ko‘ra ta’lim jarayonining quyidagi sub’ektlari sifatida faoliyat olib borishi mumkin:

- lektor;
- tyutor;
- edvayzer.

Lektor, tyutor, edvayzer vazifalari

Lektor sifatida professor-o‘qituvchilar safidan malakali o‘qituvchilar tayinlanadi. Ular ma’ruza darslarini yuqori ilmiy-uslubiy darajada olib borishadi. Ma’ruzalar akademik potoklarga, ya’ni mutaxassisligi yaqin bo‘lgan bir nechta guruhlarga o‘qiladi. Auditoriyadagi talabalar soni lektorning malakasidan va auditoriyaning texnik imkoniyatlaridan kelib chiqib belgilanadi.

Tyutor-fan bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlarni olib boruvchi va

maslahat beruvchi, talabalarning mustaqil ishlarini tashkil qiluvchi va bajarilishini ta’minlovchi, fan bo‘yicha bilimlarni tizimga keltiruvchi, semestr va kurs ishlariga rahbarlik qiluvchi hamda o‘quv amaliyotlarini tashkil qiluvchi o‘qituvchi.

Edvayzerlar talabalarning akademik manfaatlarini himoya qilishi, o‘quv jarayonini tashkil etish bo‘yicha barcha zarur axborot materiallarini tayyorlashda ishtirok etishi, ularni talabalarga elektron shaklda taqdim etishi va ularning shaxsiy o‘quv rejalarini tuzish va tuzatish kiritishda yordam berishi, uslubiy materiallarning o‘z vaqtida tayyorlanishi va mavjudligini, yo‘nalishning barcha fanlari bo‘yicha oraliq va yakuniy nazoratlarni o‘tkazish qoidalarining bajarilishini nazorat qilishi zarur.

Edvayzer — o‘qish davri bo‘yicha shaxsiy o‘quv traektoriyasini

tanlash va ta’lim dasturini o‘zlashtirishga yordam beruvchi o‘qituvchi hisoblanadi. Bundan tashqari, edvayzer talabaga kelgusidagi karьerasiga oid masalalarni yechishda, bitiruv ishi mavzusini tanlashda, kasbiy amaliyot bazalarini aniqlashda maslahat yordamini ko‘rsatadi.

Edvayzerning vazifalari quyidagilardan iborat bo‘ladi:

talabalarga shaxsiy o‘quv traektoriyalarini aniqlash va ta’lim dasturini o‘zlashtirishda yordam ko‘rsatish;

o‘quv traektoriyasini tanlashda talabalarning ehtiyojlari, qiziqishlari va istaklarini aniqlash;

talabalarga fanlarni tanlashda maslahatlar berish;

talabalarga shaxsiy o‘quv rejalarini tuzish va zarur bo‘lsa tuzatishga yordam berish;

talabalarning o‘zlashtirishi va akademik masalalari bo‘yicha ekspert komissiyalari ishida ishtirok etish.

Edvayzerlar kafedra mudirlari bilan kelishilgan holda, oliy o‘quv yurti rektori buyrug‘i bilan tayinlanadi. Edvayzer talabalarni oliy o‘quv yurtining o‘ziga xos jihatlari, ishchi o‘quv rejasi mazmuni, diplom olish uchun qo‘yiladigan talablar, tanlangan yo‘nalishning imkoniyatlari bilan tanishtiradi hamda talabalarning moyilligi, imkoniyatlari, qiziqishlari va maqsadlariga muvofiq shaxsiy o‘quv traektoriyalarini tanlashda yordamchi hisoblanadi.

Edvayzer qayd qilish tadbirlarida ishtirok etadi. Har bir edvayzerga ma’lum miqdorda talabalar biriktiriladi. Talabalar biriktirilgandan so‘ng edvayzer ular bilan shaxsiy rejimda ishlashga o‘tadi.

Edvayzer tashkiliy-uslubiy ishlarda ishtirok etadi hamda fanlarni tanlash va ularga yozilish bo‘yicha maslahatlar beradi, yo‘nalishning tanlov fanlari kataloglari va ishchi o‘quv dasturlari bilan tanishtiradi.

O‘quv yili davomida edvayzer fakulьtet dekani tomonidan tasdiqlanadigan maslahat jadvallariga muvofiq ishlaydi. Talabalarning shoshilinch akademik muammolarini hal qilish maqsadida edvayzer ish jadvalidan tashqari shaxsiy uchrashuvlarni ham belgilashi mumkin.

Edvayzerning maslahatchilik faoliyati quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- talabalarni ta’lim jarayonining qoidalari bilan tanishtirish;
- talabalarning qarashlari, qadriyatlari, ularning moyilligi va imkoniyatlarini aniqlash;
- namunaviy o‘quv reja va tanlov fanlari katalogi bilan tanishtirish;

- kreditlar miqdori va ularni o‘zlashtirish bo‘yicha tushuntirishlar olib borish.

Kredit-modul tizimida xorijda keng tarqalgan supervayzerlik, moderatorlik, fasilitatorlik kabi faoliyat turlari ham ko‘zda tutilishi mumkin.

Fasilitator – (ingliz tilida facilitator, lotincha facilis-engil, qulay) guruhlardagi faoliyat natijasini samarali baholash, muammoning ilmiy yechimini topishga yo‘naltirish, guruhdagi kommunikatsiyani rivojlantirish kabi vazifalarni bajaradi.

Moderator – qabul qilingan qoidalarga amal qilinishini tekshiradi, tinglovchilarning mustaqil fikrlash va ishlash qobiliyatlarni rivojlantirish, bilish faoliyatini faollashtirishga yordam beradi. Ma’lumotlarni, seminarni, treninglar va davra suhbatlarini boshqaradi, fikrlarni umumlashtiradi.

Supervayzer – quyidagi to‘rt vazifani bajaradi: o‘qituvchi sifatida o‘rgatadi, fasilitatorlik, maslahatchi, ekspert vazifani bajaradi.

Bizning ta’limda ushbu faoliyatlarning hammasi professor-o‘qituvchilar tomonidan bajariladi. O‘qituvchilik faoliyatini bunday turlarga ajratish bu faoliyat turining samarasini yanada oshiradi.

Foydalanilagan adabiyotlar ro‘yhati.

1. Турдалиев С. М. и др. "Придание информационной безопасности стратегического значения для бизнеса". ACADEMICIA: международный журнал междисциплинарных исследований 11.4 (2021): 1019-1021.
2. Yuldashev, A. R., and M. A. Madrakhimova. “Psychological and pedagogical features and classification of communicative competencies in the formation of junior specialists in computer science lessons”. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal 11.6 (2023): 315-317.
3. Турдалиев С. М. и др. “Придание информационной безопасности стратегического значения для бизнеса”. Academicia: Международный журнал междисциплинарных исследований 11.4 (2021): 1019-1021.
4. Ruzmatjonovich, Yuldashev Abdurauf. “Modern Software”. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal 10.11 (2022): 795-798.
5. Husnidaxon, Yuldasheva. “Inson huquqlari masalasidagi qarashlar, ularning bugungi kun uchun ahamiyati”. Scientific Impulse 1.5 (2022): 956-960.
6. Husnidaxon, Yuldasheva. “Demokratik Huquqiy Davlatda Inson Huquqlari Masalalari”. Scientific Impulse 1.5 (2022): 926-930.
7. Siddikovna, Ahmedova Zebikhon, Marasulova Zulayho Abdullayevna, and Yuldashev Abdurauf Rozmatjonovich. “Innovations and Advanced Foreign Experiences in Teaching Informatics in Higher Education in Interdisciplinary Relations”. JournalNX (2021): 371-374.
8. Юлдашев А. Р. и С. М. Турдалиев. “Введение в разработку android”. Журнал международных междисциплинарных исследований Galaxy 10.12 (2022): 132-134.
9. Ro‘zmatjonovich, Yuldashev Abdurauf. “Kimyo fanini o‘qitishda AKT dan foydalanish”. USA. International Scientific And Practical Conference Topical Issues Of Science. Vol. 8. No. 1. 2023.
10. Ro‘zmatjonovich, Yuldashev Abdurauf. “Masofaviy ta’lim orqali ta’lim oluvchilarning ijodiy faoliyati imkoniyatlarini takomillashtirish”. Germany Modern Scientific Research: Achievements, Innovations And Development Prospects 9.1 (2023).
11. Abdunazarova, Dilfuza Tukhtasinovna, Maxfuza Madraximova, and Shuhrat Madrahimov. “Solving equations is foundational for middle and high school math”. Scientific Bulletin of Namangan State University 3.5 (2021): 7-10.

12. Shukurovich, Madrahimov Shuhratjon, and Madrahimova Mahfuza Ahmedovna. “Measures For Monitoring And Evaluation Of Power Activity In Higher Education”. JournalNX: 423-426.
13. Madrakhimov, Shukhrat Shukurovich, and Mahfuza Akhmedovna Madrakhimova. “A hero who saw the war!” 75-летию Победы Великого народа посвящается: Люди. События. Факты. 2020.
14. Madrakximova, Mahfuza Akxmedovna, and Maftuna Islomjon qizi Yakubjonova. “Criteria of monitoring and evaluation for educational activities”. Scientific Bulletin of Namangan State University 1.6 (2019): 346-347.

ТАЛАБАЛАРНИ ЎҚУВ ФАОЛИЯТИДА ИЖОДИЙ ҚОБИЛИЯТЛАРНИ ШАКЛЛАНТИРИШ МЕТОДЛАРИ.

Маматқулова М.В. - Қўқон давлат педагогика институти ўқитувчиси.
Абдураззоқова Д.О. - Қўқон давлат педагогика институти талабаси.
Ахмедова У.Ш. - Қўқон давлат педагогика институти талабаси.

Аннотация. Ушбу мақолада ўқитувчи профессиограммаси, уни мустақил ва ижодий фикрлашнинг энг муҳим компонентларидан бири эканлиги, педагогика ва психология сохасидаги мутахасисларни педагогик махорат, педагогик қобилият ва педагогик ижоднинг моҳияти, мазмуни тўғрисидаги фикрлари тўлиқ ва аниқ очиб берган. Бўлажак ўқитувчиларни сифатли тайрлашнинг зарурий шарти сифатида ижодий қобилиятларни шакл-лантириш усуллари ва назарий асослари ритиб берилган.

Калит сўзлар: профессионализм, профессиограмма, педагогик маҳо-рат, педагогик қобилият, педагогик ижод, динамизм, интуитив, конструк-циялаш, коммуникатив, эмоционал, креативлик,компетентлик, интеллектуал.

Аннотация. В данной статье рассматривается профессиональный профиль учителя, являющийся одним из важнейших компонентов самостоятельного творческого мышления, полно и наглядно раскрывает взгляды специалистов в области педагогики и психологии на педагогическое деятельность, педагогические способности, а также на сущность и содержание педагогического творчества. Выделены методы и теоретические основы формирования творческих способностей, как необходимое условие качественной подготовки будущих учителей.

Ключевые слова: профессионализм, профессиограмма, педагоги-ческое мастерство, педагогические способности, педагогическое творчество, динамизм, интуитивная, конструктивная, коммуникативная, эмоциональная, творчество. профессиональная компетентность, интеллектуальная.

Annotation. In this article, the professional profile of a teacher, which is one of the most important components of independent creative thinking, fully and clearly reveals the views of specialists in the field of pedagogy and psychology on the pedagogical essence, pedagogical abilities, as well as on the essence and content of pedagogical creativity. The methods and theoretical foundations of the formation of

creative abilities are highlighted as a necessary condition for the quality training of future teachers.

Key words: professionalism, professiogram, pedagogical skills, pedagogical abilities, pedagogical creativity, dynamism, intuitive, constructive, communicative, emotional, creativity. professional competence, intellectual.

Педагогик ижоднинг энг муҳим ўзига хослиги унинг ҳам тарбияланувчиларнинг ҳам бутун педагогик жамоанинг ижод жарани билан боғлиқлиги саналади. Педагогик жамоа, ижодий жамоа бўлиб, ўз муҳитида доимий юзага келадиган зиддият ва низоларга эга бўлмаслиги мумкин эмас. Низоли вазиятлар ва зиддиятларни бартараф этиш танқид ва ўз – ўзини танқидни ривожлантиради, педагогик вазифаларни ҳал қилишнинг янги йўллари ва воситаларини излашга мажбур этади, бу эса ижодий жаран саналади.

Санаб ўтилган хусусиятларнинг кўпчилигини: вақт заҳираси йўқлиги, натижаларнинг узоқ кутилиши, хатоларга йўл қўйиб бўлмаслиги, тарқатишнинг (оммалаштиришнинг) қийинлигини педагогик ижоднинг қийинчиликлари сирасига киритиш мумкин. Бироқ позитив ҳолатлар ҳам йўқ эмас. Ижод объекти ва педагогик жамоа билан ҳамкорликда ижод қилиш катта рағбатлантирувчи потенциалга эга, бу педагогни ўз ижодий фаолияти доирасини кенгайтириш ва шахсий сифатларини фаол намон қилишга ундайди.

Ижод бутун педагогик фаолиятни шунчаки қамраб олмасдан, балки ўқитувчининг профессионализми мезонларидан бири саналади ҳам (А.К.Маркова). Бу фикрни профессионализмнинг психологик адабитларда мавжуд таърифи ҳам тасдиқлайди. Ўкитувчининг ўз фаолиятига ижодий муносабати даражасини аниқлабгина унинг меҳнат мазмуни ва ташкил қилинишини тўғри баҳолаш мумкин. Педагогик ижоднинг учта даражасини фарқлайдилар: кашфитлар (янги педагогик ғояларни илгари суриш ва ўқув – тарбия ишининг конкрет тизимида амалга ошириш); ихтиролар (педагогик системаларнинг айрим элементларини, таълим ва тарбия воситалари, метод ва шароитларини ўзгартириш ва конструкциялаш); такомиллаштиришлар (таълим ва тарбиянинг маълум бўлган метод ва воситаларини модернизациялаш ва конкрет шароитларга мослаштириш).

Замонавий адабитларда педагогнинг профессионализми кўпинча профессионал – педагогик маданият тушунчаси билан боғланади. Унинг структураси турли: ижтимоий-педагогик, илмий-педагогик, шахсиятли (педагогик позиция, касбий малакалар, хулқ, ижоддаги ютуқларнинг интеграцияси) даражалардан иборат. Педагогик маданиятни оширишнинг энг таъсирли омили ва стимули ҳам ўкитувчи ва педагогика олий ўқув юрт талабасининг педагогик ижодга жалб қилинганлиги, продуктив ўз - ўзини намон қилишга, инновацион фаолиятга, тадқиқотчилик изланишига жалб этилганлиги саналади.

Ўқитувчининг касбий сифатлари ҳақидаги турли фикрларни ўрганиш-дан кўринадики, мустақил ва ижодий фикрлаш ўқитувчи профессиограммасининг ҳозирги шароитдаги доимий ва энг муҳим компонентларидан бири

саналади. Буни профессионализм масалалари билан шуғулланадиган психологлар ҳам таъкидлайди. «Одам - одам» типидаги касб вакиллари билиш фаолияти хусусиятларини тадқиқ қилишда кузатиладики, ностандарт вазиятлар социумнинг нормал стихияси саналади. Шу сабабли бу типдаги касблар ақлнинг ижодий тузилиши, аниқ тасаввур қилиш, одамлар хатти – ҳаракатининг эҳтимолий оқибат вариантларини, уларнинг низолари, қарама – қаршиликлари ки, аксинча, бирлашишларининг эҳтимолий якунини моделлаштириш қобилиятига эга бўлишни муқаррар талаб қилади.

Педагогик меҳнатнинг ижодий тадқиқотчилик характерига ўтмишнинг буюк педагоглари (А.Дистервег, Я.А.Коменский, И.Г.Песталоци), ва психологлари (П.П.Блонский, А.С.Макаренко, В.А.Сухомлинский, К.Д. Ушинский, С.Т.Шацкий) ҳам эътибор қаратган. К.Д.Ушинский педагогнинг иши бошқа ҳар қандай ишдан кўра кўпроқ кўтаринкиликка муҳтожлигини таъкидлаган. П.П.Блонский фикрича янги мактаб -ўқитувчининг ўзининг ҳат ва ижод мактаби. С.Т.Шацкий такидлашича, таълим жарани болалар каби жонли, фаолиятли, бир шаклдан бошқасига ўтадиган, ҳаракатлан-тирувчи, изловчи бўлмаги керак.

Бир неча ўн йилликдан бери алоҳида тушунча – педагогик маҳорат мавжуд. Педагогик ижоднинг объектив зарурати ҳақида гапириш мумкин, ҳал қилинатган вазифаларнинг мураккаблиги ва серқирралилиги, конкрет педагогик вазиятларнинг фавқулодда хилма – хиллиги бунга асос бўлади.

Кейинги йилларда педагогика ва психологияда педагогик ижоднинг моҳиятини аниқлаштиришга (Ю.П.Азаров, Ф.Н.Гоноболин, М.Я.Виленкин, В.И.Загвязинский, С.Н.Зайцева, В.А.Кан Калик, Н.В.Кузьмина, Н.Д.Левитов, Н.Д.Никандров, И.П.Раченко, А.И.Шчербаков), бўлғуси ўқитувчиларни касбий-ижодий фаолиятга тайрлашнинг назарий асосларини ишлаб чиқишга (В.И.Андреев, Ю.К.Бабанский, В.В.Краевский, В.А.Сластнин ва б.) бағиш-ланган қатор тадқиқотлар амалга оширилди2.

Педагогик назарияда педгогик ижод тушунчасининг турли таърифлари келтирилади. Уларнинг айримларида педагогик ижоднинг моҳияти тарбия-ланувчиларга таъсирнинг янги усулларини яратишда кўринади.

Бошқа таърифларда вазифаларни ҳал қилиш жаранига урғу берилади. Педагогик ижод – бу педагог томонидан ўзгарувчан шароитларда қатор ўқув – тарбия вазифаларининг ҳал қилиниши.

Фикримизча, синтезловчи таърифлар педагогик ижод моҳиятини табора тўлиқ ва аниқ очиб беради. Масалан, педагогик ижод – аввало, педа-гогнинг ўқув – тарбия ишларининг янада рационал йўлларини излашга қаратилган фаол меҳнат жарани, педагогик муаммоларнинг самарали ечими. Бу педагогик фаолиятнинг шундай ҳолатики, унда ўқитувчи кўп нарсани кўр – кўрона олмай, балки текширади, тадқиқ қилади, излайди ва фан ҳамда амалит эришганлари асосида лойиҳалаштиради ўз тажрибасини яратади .

Педагогик ижоднинг намон бўлиш соҳаси педагогк фаолиятнинг асосий компонентлари структураси билан белгиланади ва унинг амалда барча

томонларини: режалаштириш, ташкил қилиш, реализациялаш ва натижаларни таҳлил қилишни қамраб олади.

Ижоднинг бошқа кўплаб (илмий, бадиий, техник) турлари билан умумийликка эга бўлган педагогик ижод маълум ўзига хосликларга ҳам эга. Педагогик ижоднинг ўзига хосликларини қатор муаллифлар (В.И.Загвязинский, А.Ф.Иванов, И.И.Лейтман, В.А.Кан-Калик, Н.В.Кузьмина, Н.Д. Никандров ва бошқалар) таҳлил қилиб беришган3.

Педагогик ижоднинг ўзига хосликларидан бири педагогик ижоднинг мазмуни ҳамиша бетакрор, ноб бўлган инсонни яратишдан иборат эканидадир. Бундан ташқри, педагогик ижод индивидуал характерга эга ва ҳисобга олиниши ва тарқалиши мон кечади. Ўкитувчи болалар билан лғиз ижод қилади ва ўз ижодий муваффақиятлари ва топилмаларини қайд этишга ҳамиша ҳам вақт ва имкон топа олмайди.

Педагогик ижод дилектик характерга эга. Ўқитувчи ўқувчиларнинг ўсиш ва ривожланиши жаранида, доимий ўзгариб турадиган шароитда ижодкорлик қилади. Педагогик ижод жарани доимий ўз-ўзини таҳлил ва ўз- ўзини баҳолашни талаб қилади. Бироқ ижодий ҳаракатнинг динамизми бу каби таҳлил учун ҳамиша ҳам вақт қолдиравермайди, кўпинча у интуитив даражадаги қарорлар билан алмаштирилади.

Педагогик меҳнатнинг ўзига хосликлари сирасига унинг натижаларини узоқ кутиш кераклиги ва улар ҳақида фақат қисман якунлар бўйича мулоҳаза юритиш мумкин эканлиги киради. Бу ўзига хослик ўқитувчи шахсига талаблар қўяди: у педагогик таъсир оқибатларини башорат қила билиши, мунтазам равишда кундан кунга мақсадли «ижод қилиш» қобилиятига эга бўлиши лозим.

Педагогик ижод ўқув – тарбия жарани билан уйғунлиги боис у доимо ижобий натижалар бериши керак. Салбий натижаларга фақат халий синовлар ва тахминларда йўл қўйилади, фаразларни текширишнинг қарама – қаршисидан келиб чиқиб исботлаш каби усулларига ўқитувчининг амалий фаолиятида мутлақо йўл қўйиб бўлмайди.

Педагогик ижод учун зарур бўлган шахснинг хусусиятларини таърифлашда муаллифлар асосан икки йўналишдан борадилар:

1.Ўқитувчи профессиограммаси билан айнан бир нарса деб ҳисоблаш. В.И.Загвязинский педогог – ижодкорга хос сифатларни ритиб беради: юқор даражадаги илмий ва касбий компетентлик; ривожланган педагогик тафаккур; ижодий изланишга интилиш; педагогик техникани эгаллаганлик; маълум педагогик тажриба; интеллектуал малакалар, тасаввур ва интуициянинг етарли даражада ривожланганлиги.

Ижодий қобилиятлар структурасига эргашиш. С.С.Зорин Н.Ю. Посталюкнинг ижодий қобилиятлар классификациясини амалда тўлиқ такрорлайдиган ўқитувчининг ижодий фаолияти услуб ҳосил қилувчи кўп қирраларини кўрсатиб, фақатгина ижод, билимлар ва маҳорат даражасини; ижодий интуиция билан уйғунлашган рефлексияни қўшади. С.С.Зорин фикрича, педагогик ижод даражаси рефлекция асосида шаклланадиган

ўқитувчи фаолиятининг ижодий услубига боғлиқ бўлади. Фикрлашнинг танқидийлиги; ўз нуқтаи назарини асослаш; материални муаммоли бан қилиш; мунозара юрита олишга қодирлик; ўз -ўзини бошқариш қобилияти; ўқитувчининг қобилиятларига шахсли ндашув; шахснинг йўналганлигини ўқитувчининг рефлекцив ижодий фаоллигининг асосий кўрсаткичлари сифатида эътироф этади.

Иккинчи йўналиш асослироқ саналади, зеро психологияда мавжул профессионализм ҳақидаги тасаввурларга мос келади. А.К.Маркова шахснинг профессионал ижоди ривожланиши учун зарур сифатларини кўрсатиб беради: бошқалар кўрмаган ўринда муаммони кўра билиш; муқобилларни кўра олиш; бир масаладан бошқасига тез кўчиш, субъектив ўхшатиш қобилияти; умум томонидан қабул қилинган янгиликка танқидий муносабат, маълум бўлган элементлардан янги комбинациялар туза олиш қобилияти. Санаб ўтилган сифатлар ижодий қобилиятларга мос келади.

Шунга қарамай, педагогнинг коммуникатив – ижодий қобилиятларига алоҳида эътибор қаратилади. Бу соҳада асосий ндашувлар қуйидагилардан иборат:

- педагогик ижод доирасида коммуникатив – ижодий қобилиятларни ривожлантириш (В.И.Андреев);

- педагогик мулоқотда ижодкорликни ўрганиш (В.А.Кан-Калик). В.А.Кан-Каликнинг фикрича, ўқитувчи намон қилган мулоқотдаги ижод бешта малакадан таркиб топади, булар: информацияни рқин ва образли бера олиш; ташқи кўринишидан ўқувчининг психик ҳолатини тушуна билиш; болалар билан ўзаро муносабатларни моҳирона қуриш ва ривожлантириш; шеригига моҳирона таъсир кўрсатиш ва у билан ўзаро ҳамкорлик қилиш; ўзининг руҳий ҳолатларини бошқариш, психик тўсиқларни бартараф қилиш ва оптимист бўлиш. Муаллиф ўқитувчи олдида турган коммуникатив вазифаларни, мулоқот структураси ва уни бошқаришни тўсиқлар ва коммуникатив илҳом (кўтаринкилик)нинг ролини батафсил ўрганади.

Хамкорлик педагогикаси доирасида ўқувчилар билан ўзаро муносабатларда ижодий услубни ўрганиш (Н.А.Ложникова). педагоглар ва ўқувчиларнинг ўзаро муносабатлари турли услублари орасида Н.А.Ложникова тобора самарали – ижодийсини ажратади ва уни нозик танлов ки мавжуд шароитларда мақсадга эришиш учун тобора самарали бўлмиш ўзаро муносабатларнинг янги усуллари йиғиндисини яратиш сифатида таърифлайди.

Тадқиқотимиз нуқтаи назаридан олганда, Н.Е.Кузьминанинг позицияси эътиборга молик. Креативлик, олиманинг фикрича, шахсий когнитив ва ижтимоий – психологик жиҳатларга эга. У хулқ – атворнинг янги усулларини топиш, конструктив ва ностандарт қарорлар қилиш, ўз тажрибасини англаш ва ривожлантириш имконини беради.

Креативлик параметрлари: хулқ – атвор усуллари ҳақида кўплаб ғояларни генерациялаш ва уларни мулоқотда реализациялашга қодирлик; хулқ – атвор стратегияларини ўзгартиришга қодирлик; бир қлама бўлмаган, парадоксал

фикрларга қодирлик. Эмоционал соҳада – ҳолатларнинг бир қутбидан қарама - қаршисига ўтишга мойиллик ва шахсий планда устивор – олдиндан айтиб бўлмаслик, юмор ҳисси, танқидийлик, очиқлик, ўз тажрибасини рефлексиялаш ва ўзгаришларга тайрлик.

Демак, якун ясаймиз. Педагогик меҳнатнинг ижодий характери ўтмишнинг машҳур педагоглари томонидан ҳам эътироф этилган, ижодий таркибий қисм ўқитувчининг профессиограммасида доимо мавжуд бўлган, «педагогик ижод» тушунчаси юзага келган ва истеъмолда барқарор ўрнашиб қолган.

Ижод ўкитувчи профессионализмининг энг муҳим мезонларидан саналади. Қолаверса, касбий ижод учун зарур деб таъкидланадиган сифатлар асосан шахснинг ижодий қобилиятлари билан мос келади. Педагогик учун шунингдек коммуникатив – ижодий қобилиятларнинг роли муҳим экани таъкидланади.

Демак, ўкитувчи педагогик ижодда юқори чўққиларни забт этиши учун қуйидаги мантиқий занжирни ўтиш зарур: шахснинг умумий ижодий қобилиятларини шакллантириш – педагогик ижод қобилиятларини кучайтириш – педагогик фаолиятда профессионализмга яқинлашиш. Шу тариқа, шахснинг ижодий қобилиятларини шакллантириш, бўлғуси ўқитувчининг сифатли касбий тайргарлиги зарурий шарти сифатида намон бўлади.

Ҳал қилинатган муаммолар мураккаблиги, ўқитувчидан талаб қилинадиган сифатларнинг кўп сонлилиги, унга жамият томонидан юкланадиган масъулиятнинг даражасига кўра ўқитувчи касби бошқа, ўзининг яратувчанлик моҳиятига кўра ердаги мавжуд бўлганлар орасида энг асосийси – инсонни такомиллаштиришга қаратилган барча касблар орасида энг қийини ва энг олийжаноби саналади. Бугунги кунга келиб, ўқитувчи профессиограммасини тузиш бўйича анчагина бой тажриба тўпланган. У ўқитувчига қўйиладиган касбий талабларни учта асосий комплексга бирлаштириш имконини беради. Булар: умумфуқаролик сифатлари; ўқитувчи касбининг ўзига хослигини белгиловчи сифатлар; фан (ихтисослик) бўйича махсус билим, малака ва кўникмалар.

XXI аср ўқитувчисининг образини тасаввур қилишга уринишлар амалга оширилмоқда. Жумладан, В.И.Андреев педагогнинг идеал шахси тасвирини келтиради: у фикрича зили шахс, маънан бой шахс, ижодкор шахс, инсонпарвар шахс, эркин шахс, фаол фуқаро, рақобатбардош шахс, маданият кишиси ва тарбиячилик, ўқитувчилик, методик, тадқиқотчилик ишини юқори даражада бажарадиган шахсни бирлаштиради.

Фойдаланилаган адабиётлар рўйҳати

1. Адизов Б.Р. Бошланғич таълимни ижодий ташкил этишнинг назарий асослари.: Автореф. дис. … пед. фан. док. – Тошкент, 2003. – 44 б.
2. Азанова Н.В. Развитие системы поиска и поддержки талантливых детей // Физика: Первое сент. – 2012. – № 6. – С. 24-25.

3. Алибоев Т. Креативлик ва шахсда креатив сифатларни ривожлантириш зарурияти.: Автореф. дис. ... пед. фан. бўйича фалсафа док. – 2019.
4. Алимов Н.Н. Касб-ҳунар коллежи ўқувчиларини техник ижодкорлик фаолиятига тайрлаш методикаси (умумкасбий фанларни ўқитиш мисолида): Дис. … пед. фан. ном. – Тошкент, 2009. – 233 б.
5. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилд. – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2007.– 687 б.
6. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Мадвалиев А. таҳрири остида. Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашрити. https://ziyouz.uz/kutubxona/ziyouz/lugatlar

АМАЛИЁТДА ТАЛАБАЛАРНИ ИЖОДИЙ ҚОБИЛИЯТЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ МУАММОСИ.

Маматқулова М.В. - Қўқон давлат педагогика институти ўқитувчиси.
Мирзахокимова М. Б. Қўқон давлат педагогика институти талабаси.
Йўлдашева М. И. - Қўқон давлат педагогика институти талабаси.

Аннотация. Ушбу мақолада шахснинг ижодкорлик қобилиятлари тўғрисидаги назарий билимлар тахлил қилинган, шунингдек шахс ижодкорлик қобилиятини ўрганиш устида олиб борилган амалий тадқиқотлар кўриб чиқилиб, уларни тизимли ўрганиш асосида таклиф ва хулосалар бан этилган.

Калит сўзлар: ижодкорлик қобилиятлари, қадриятлар, эҳтижлар, идеаллар, дунқараш, кашфитлар, хотира, эътибор, мулоҳаза юритиш, психик реакция тезлиги, интеллектуал иқтидор, креативлик, синтетик ндошув.

Аннотация. В статье анализируются теоретические знания о творческих способностях человека, а также рассматриваются практические исследования, проведенные по изучению творческих способностей человека, и представлены их рекомендации и выводы, основанные на систематическом исследовании.

Ключевые слова: творческие способности, ценности, потребности, идеалы, мировоззрение, открытия, память, внимание, рассуждение, скорость мыслительной реакции, интеллектуальные способности, креативность, синтетический подход.

Annotation. The article analyzes theoretical knowledge about human creativity, and also considers practical research conducted to study human creativity, and presents their recommendations and conclusions based on systematic research.

Key words: creativity, values, needs, ideals, worldview, discoveries, memory, attention, reasoning, speed of mental reaction, intellectual abilities, creativity, synthetic approach.

Ижодкорлик қобилиятлари тушунчасига оид чет эл тадқиқотларини умумлаштириб, қуйидагиларни таъкидлаш мумкин:

1.Ягона концепциянинг йўқлиги

2.Ҳар бир ндошувда бирор рационал илдизнинг мавжудлиги:

Креативликни тавсифлашда фикрлаш, тасаввур қилиш оперциялари, ижодкорлик фаолиятида иштирок этувчи перцептив соҳанинг ўзига хос томонлари ажрратиб кўрсатилган.

Синтетик ндошув ижодкорлик қобилиятларининг барча муаммо-ларини ҳал қиладигандек туюлади. Ҳақиқатан ҳам, ижодкорлик ютуқларига ҳам руҳий жаранларнинг ўзига хос хусусиятлари, ҳам шахс тасифномалари, ҳам мотивация таъсир кўрсатади. Бироқ психологияга оид адабитларда мотивация, характер ва қобилиятларни бир-бирига аралаштирмаслик қабул қилинган. Креативлик тушунчасига таъриф бера туриб, тадқиқотчилар ижодкорлик қобилиятларининг хусусий муаммоларидан ижодкор шахснинг умумий муаммосига чиқишди. Бу ҳолда шахснинг креативлигини белгиловчи таркибий ташкил этувчиларининг устивор ўзига хос томонларини ажратиб кўрсатиш зарурати туғилади.

Бу фан ва техниканинг гуркираб ривожланиши, ахборот оқимининг шиддат билан ўсиши, мамлакатнинг сисати, иқтисодити, аҳлоқий мерларидаги туб ўзгаришлари натижасида юзага келмоқда. Шулардан келиб чиқиб, шахснинг ижодкорлик қобилиятлари муаммоси тобора долзарблашиб бормоқда.

Шахснинг ижодкорлик қобилиятларини ўрганишга кириша туриб, базавий тушунчаларни аниқлаб олиш зарур: шахс, қобилиятлар, ижод. Бу тушунчаларнинг ҳаммаси бир хил маънодаги талқинга эга эмас, бу эса биздан бирор бир позицияни танлаб олишни талаб қилади.

Қобилиятларга батафсилроқ тўхталиб ўтамиз. Қобилиятлар руҳият умумий тушунчасини миянинг объектив оламни акс эттириш хоссаси сифатида аниқлаштириб, бу ҳоссани конкрет психик функцияларга табақалаштириб, унга индивидуал ифодаланганлик ўлчовини киритиб, унга амалийлик хусусиятини бағишлаб, руҳиятнинг таркибий тузилишидаги ўрнини эгаллайди.

Бизнинг фикримизча, ижодкорлик қобилиятлар психологик тушунчаси мустақил мавжуд бўлиш ҳуқуқига эга, чунки:

ижодкорлик қобилиятлари асосан фаолият – ижодкорликка шаклидаги инсон фаоллигига тааллуқли, фаолиятнинг бошқа турларида ўзининг қобилиятлари ажратиб кўрсатилган;

маълум қобилиятларни ажратиб кўрсатиш уларнинг бир мақсадда ривожлантирилиши учун асос бўлиши мумкин.

Назаримизда, ижодкорлик қобилиятлари сўз бирикмаси берилган тушунчага энг яқин тур орқали ва ижод қилиш қобилияти кўринишида таъриф беради.

Кенгайтирилган вариантда: ижодкорлик қобилиятлари – бу психологик функционал тизимнинг индивидуал хоссаси бўлиб, унинг ижодкорлик жаранининг самарадорлигини белгилайди.

Бунда ижодкорлик қобилияталрини умумий қобилиятлар қаторига киритиш керак бўлади, чунки улар ихтирий касбий фаолиятда намон бўлиши мумкин, ва интеллект билан бир қаторда махсус қобилиятлар учун асос бўлиб хизмат қилади. “Инсоннинг барча махсус қобилиятлари – бу пировард натижада унинг умумий қобилиятининг инсоният маданияти ва унинг кейинги ривожланишини ўзлаштириш қобилиятининг турли хил намон бўлишидир.

Ижодкорликнинг намон бўлиши турлича бўлиши мумкин, масалан санъатда ва фанда. Бу нарса ижодкорлик механизмлардаги фарққа олиб келиши керак. Бироқ, реаллик баъзи ижодкорлик муолажаларининг, шунингдек ижодкорлик жаранини очиб бериш изчиллигинидан иборат бўлади. Ҳар қандай ижодкорлик жарани муаммонинг қўйилиши ва ҳал қилиниши билан боғлиқ. Ижоднинг бир турида (санъатда) бу камроқ, бошқаларида (фанда) аниқроқ – аниқ берилган кўринишда ифодаланган бўлади. Шунинг учун ҳам асосий эътиборимиз муаммолар билан ишлашга қаратилган бўлади. Ижодкорлик жаранининг босқичлари сифатида биз муаммони аниқлашни; муаммони тушунишни; муаммони ҳал қилиш бўйича ғояларни яратиш, ғояларни тузишни қараб чиқамиз.

Реал ижодий жаранда ижодкорлик қобилиятлари интегралланган кўринишда намон бўлади, бироқ алоҳида босқичларда энг муҳим қобилиятларни ажратиб кўрсатиш мумкин. Бу ижодкорлик қобилиятларини таркибий тузилишларга ажратиш учун асос бўлиб хизмат қилиши мумкин, бу эса уларни ташхис қилиш ва ривожлантириш учун жуда муҳим.

Психологияда олимлар шахс муаммосига уч хил ндошувни ажратиб кўрсатадилар: биологик, ижтимоийлаштирувчи, биоижтимоий. Бу ндошув-лар шахс тушунчасининг моҳиятини инсоннинг индивидуал хоссаси сифатида турлича қарайдилар.

Тадқиқотимиз вазифаларидан келиб чиқиб, биз А.В.Петровскийнинг, назаримизда, шахс тушунчасининг нафақат моҳияти, балки уни ўзгартириш имкониятлари ҳам акс эттирилган таърифига асосландик.

Шахснинг етакчи тавсифномаси сифатида унинг йўналтирилганлиги кўрсатилади. Бу шахснинг турғун мотивлари тизимидир (қадриятлар, эҳтижлар, идеаллар, дунқараш, мақсадлар). Шахснинг йўналтирилганлиги доимо ижтимоий асосланган ва тарбия йўли билан шакллантирилади.

Биз учун шахснинг қобилиятлар деб аталувчи ташкил этувчисини ривожлантиришнинг ўзига хос томонлари муҳим ҳисобланнади.

Қобилият – энг умумий психологик тушунчалардан бири. Психологиясида ушбу феноменни тадқиқ қилиш билан Б.М.Теплов, С.Л.Рубинштейн, В.Д.Шадриков, Д.Н.Завалишина ва бошқалар шуғулланишган.

Б.М.Теплов қобилиятга қуйидагича таъриф берган: 1) қобилият – инсонни бошқа инмондан фарқини кўрсатувчи индивидуал –психологик ўзига хос хусусиятлари; 2) бирор–бир фаолиятни ки бир неча фаолиятларни

муваффақиятли бажаришга тааллуқли ўзига хос хусусиятлар; 3) қобилиятлар инсонда ҳосил қилинган билим, малака ва кўникмаларга тааллуқли эмас1.

Қобилятларнинг самарадорлиги фаолиятнинг бирор турига бўлган муносабатига қараб аниқланади. Бунда ижодкорлик қобилиятларининг намон бўлиши муҳим ҳисобланади.

С.Л.Рубинштейн ижодга «бирор янги, оригинал, кейинчалик нафақат ижодкорнинг ривожланиш тарихига, балки фан, санъатнинг ҳам ривожланиш тарихига кирадиган ҳар қандай яртувчанлик фаолияти» деб таъриф беради2.

«Ижод – бу сифат жиҳатидан янги нарсани яратиш ва такрор-ланмаслиги, оригиналлиги ва ижтимоий–тарихий ноблиги билан ажралиб турувчидир. Ижод инсонга ҳос, чунки доимо ижодкорнинг – субъектнинг ижодий фаолиятини кўзда тутади, табиатда ривожланиш юз беради, ижод эмас». Айнан инсон ижодкор, даҳо, иқтидорли ҳисобланади. Бу таърифни биз асосий деб ҳисоблаймиз.

Ижодий масалаларни ечишнинг эвристик усулларини Ю.Н.Кулюткин ўрганган. У эвристика деганда муваффақиятли ечимни кафолатловчи алгоритмлардан фарқли ўлароқ, маълум эҳтимоллик даражасига эга тўғри ечим ва хулосаларга олиб келадиган баъзи муолажаларни тушунади… эвристик методлар ва усуллар ечим йўлидаги вариантлар сонини камайтирувчи муолажалар сифатида бан этилади»3.

Кашфитчилар ижодига кўплаб илмий ишлар бағишланган.

XX асрнинг 30–йилларида А.П.Нечаев техник ижодни ўрганиш билан шуғулланган. У шахснинг бир қатор қобилиятларини ва сифатларини (хотира, эътибор, мулоҳаза юритиш, психик реакция тезлиги, тасаввур қилиш, қизиқишлар, шахснинг типик хусусиятлари) тестлар рдамида ўрганган. Олим ўтказилган кузатишлар асосида техник кашфитчилик асосида тувчи умумий саволлар бадиий ва илмий ижодни юзага келтирувчи умумий саволларга ўхшаш деган хулосага келади.

Кўриб турибмизки, ижод тушунчаси ғайриоддий кўп қирралилиги билан ажралиб туради. Турли хил таърфлари мавжуд, уларнинг баъзиларини биз қараб ўтдик. Уларни классификациялашга уринишлар ҳам бўлди. Е.П.Торранс тушунча таърифларини 5 гуруҳга ажратди. А.З.Рахимов ижоднинг моҳиятини акс эттирувчи 125 та энг асосий мазмунли бирикмаларни ажратиб кўрсатди, кейинчалик улар тўртта мавзувий гуруҳларга ажратилди. И.А.Шаршов классификациялашни 10 та гуруҳгача тўлдирди4.

Ижодкорлик қобилиятларининг ўзи йўқ нарса. Интеллектуал иқтидор шахс ижодкорлик фаоллигининг зарур, бироқ етарли бўлмаган шарти сифатида намон бўлади. Ижодкорлик хулқи детерминациясида мотивация, қадриятлар, шахс хусусиятлари асосий роль ўйнайди

Америкадаги Гэлапп институтида ўтказилган сўровномага асосан («Америкада кимлар яшайди» справочнигидан тасодифий танланган 1500 машҳур кишилар ичидан) муваффақиятга эришган ижодкор шахсларнинг умумий сифатлари ажратиб олинади: соғлом фикрлаши; ўз ишини билиши; ўз

кучига ишониши; юқори умумий ривожланганлик даражаси; ишни охирига етказиш қобилияти.

Бошқа сифатлар ҳам бор: мослашиш малакаси, мустақиллиги (ГФР), оригиналлиги, фикрлаш эпчиллиги (АҚШ); ўзини эркин тутиши, оригиналлиги, оққа туриб олишга интилиши (Франция).

Бироқ қараб чиқилган ндошув ҳам ижодкорлик жарани муаммосини ҳал қила олмади. Бирор ўзига хос ижодкорлик қобилиятини ажратиб кўрсатиш зарурати туғилди.

Ижодкорлик қобилияти (креативлик) интеллектга боғлиқ бўлмаган мустақил омил ҳисобланади (Д.Гилфорд, К.Тейлор). Ушбу «креативлик» атамаси 60–йилларда англо–америка психологиясида индивиднинг янги тушунчаларни яратиш ва янги кўникмаларни шакллантириш хоссасини акс эттирувчи қобилиятларини белгилаш учун пайдо бўлди.

Э.Торренс одат тусига кириб қолган стереотип ечимларга қаршилик кўрсатиш қобилиятини қўшди. Креактивлик деганда у билимдаги камчиликларни, жиддий идрок этиш қобилияти ва ҳ.к.

Н.Ю.Посталюк турли тадқиқотчилар томонидан тез–тез ажратиб кўрсатиладиган ижодкорлик қобилиятини тизимлаштиради5:

1. Муаммони кўра олиш қобилияти. Кўпчилик тестларда бу қобилият креативлик учун асосий ҳисобланади.

2. Фикрлаш оригиналлиги. 3. Фикрлаш диалектиклиги.

4. Осон уйғунлаштириш ва тасаввур қилиш.

5. Фикрлаш эпчиллиги. 6. Фикрлаш антиконформизми.

7. Ғояларни осонликча ўйлаб топиш ва ривожлантириш малакаси.

8. Фикрлаш креативлиги (келиб тушатган маълумотларга ва ўзига).

9. Баҳо бериш ва танлаш қобилияти. 10. Кўчириб ўтказиш қобилияти.

11. Хотиранинг тайрлиги (зарур ҳажмдаги ва сифатли билимлар тўпламини таъминлаш: тизимийлик, динамиклик, умумлаштирилганлик даражаси)

Рус олимларининг ижодкорлик қобилиятларини классификациялашга учинчи ндошувидаги фикрларига қарамасдан, кўпчилик Россиялик психологларни айнан шу, ривожланган креатив ҳодисаларга эга инсонларнинг когнитив қобилиятларини ҳамда шахсга оид хусусиятларини бирлаштирувчи йўналишга тегишли дейиш мумкин (Д.Б.Богоявленская, В.Н.Козленко, А.Н.Лук, А.М.Матюшкин, Я.А.Понамарев ва б.).

Таклиф этилган ндошувларни, шунингдек педагогик иш тажрибасини таҳлил қилиш асосида биз қуйидаги ўзига хосликларни ажратиб кўрсатдик: характер (ўз кучига ишониш; мустақиллик; ақлнинг равшанлиги; янги ва ғайри оддий нарсани қабул қилиши; номаълум ва ҳал қилинмаган ҳолатларга юқори бағри кенглик билан муносабатда бўлиш, бу ҳолатларда конструктив фаол бўлиш; рефлексив нуқтаи назар), қобилиятлар (муаммоларни кўриш, хотиранинг тайрлиги, билимларни янги ҳолларга қўллаш, осон мослаштириш ва тасаввур қилиш, фикрлашнинг диалектиклиги ва оригиналлиги, натижани аввалдан кўра билиш, танқидий фикрлаш), ирода (ўз-ўзини бошқариш

қобилияти, қийинчиликларни енгишга интилиш, ғояларни охиригача етказиш), ҳис-туйғулар (билишга интилиш, ажабланиш, илҳом). Шубҳасиз, ижодкор шахс ўзига хос хусусиятларининг айтиб ўтилган мажмуасининг намон бўлишига шахснинг йўналтирилганлиги қўзғатувчи бўлиб хизмат қилади: танланган фаолиятга қизиқиши, билишга интилиши, ўз-ўзини ишга жалб этишга интилиши.

Кўрсатилган ўзига хосликлар шахснинг билишга қизиқишидаги ҳаваскорликни амалга ошириш имконини беради.

Фойдаланилаган адабиётлар рўйҳати

1. Ахмедова Ш. Бошланғич синф ўқувчиларининг ижодкорлиги // Сборник научних трудов: Формирование гармонично развитого поколения в современних условиях. – Тошкент, 2012. – Б. 73-79.
2. Баластаева Е.Н. Развитие творческого потенциала будущего педагога в учебной деятельности (на занятиях по практике устной и письменной речи на иностранном языке): Дис. … канд. пед. наук. – Йошкар-Ола, 2001. – 240 с.
3. БанинаТ.С., Вавилова Л.Н. Современние способи активизации обучения. – М.: Академия, 2008. – 176 с. Джураева Д.Ш. Муаммоли ндашув асосида бўлажак ўқитувчиларнинг ижодий қобилиятларини ривожлантириш. Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун зилган диссертация. Тошкент – 2022. 121
4. Дружинин В.Н. Психология общих способностей. –М: Издательства «Латерна» «Вита»,1995.-149с.
5. Drapeau Patti. Sparking student creativity (practical ways to promote innovative thinking and problem soving). – Alexandria:Virginia, USA: ASCD, 2014.
6. Gowan J.C. The Relationship Between Creativity and Giftedness. Electronic resource: https://doi.org/10.1177%2F001698627101500401. Access date: 21.10.2019.
7. Епишева О.Б. Деятельностный подход как теоретическая основа проектирования методической системы обучения математике. Дисс. ... д-ра пед. наук. М, 1999. – 410 с.

YOSHLARDA EKOLOGIK TA’LIM VA TARBIYANI SHAKLLANTIRISHNING AYRIM YO‘LLARI

Otajonova Sarvigul Ravi’jonova
Qo‘qon davlat pedagogika instituti
biologiya kafedrasi o‘qituvchisi

“Sayyoramizda o‘tgan asrga nisbatan insoniyatning yashash tarzi shunchalik darajada o‘zgardiki, natijada insoniyat sivilizatsiyasida hali mutlaqo kuzatilmagan global isish, dengiz va yer ekotizimlarining misli ko‘rilmagan darajada kamayib borishiyu, yer yuzining turli mintaqalarida qurg‘oqchilik, suv toshqinlari kabi bir

qator salbiy holatlar tez-tez kuzatiladigan bo‘lib qoldi. Bularning barchasi, bir so‘z bilan aytganda insonning tabiatga aralashuvini aqlga sig‘maydigan darajaga yetishi oqibatidir”,-deyiladi “Xalq so‘zi” gazetasiga tegishli online ruknlarning birida1 . Ma'lumki, fan - texnikaning jadal sur'atlar bilan taraqqiy etishi insonlar uchun dunyoni va uning mo‘jizalarini yanada chuqurroq anglashga, uning yutuqlaridan inson salomatligi uchun samaraliroq foydalanishga, odamlar turmush tarzini yaxshilashga xizmat qilib kelmoqda. Ilg‘or tibbiyot texnikasining rivojlanishi esa inson salomatligini muhofaza qilish va kasalliklarni davolash borasida beqiyos darajada o‘z samarasini ko‘rsatmoqda. Lekin ba’zan mana shu ishlarning natijasi hamisha ham ijobiy yakun topmayotganligi achinarli holdir. Chunonchi, yer kurrasida neftdan foydalanish oqibatida havoga 200 mln tonna is gazi (CO2), millionlab tonna benzin bug‘i va boshqa bir qancha zararli moddalarning, gazlarning ajralib chiqib atmosferani zararlantirib, ekologik barqarorlikni izdan chiqarishi ham birortamizga sir emas. Sanoat dudburonlaridan kuniga minglab tonna zaharli tutunlar ko‘tarilib, xavoni zaharlaydi. Suv havzalariga million kubdan ziyod tozalanmagan va zararsizlantirilmagan oqova suvlar chiqarib tashlanadi. Atrof-muhitni yiliga 500 mln tonnadan ziyod sintetik moddalarning qoldiqlari ham ifloslantiradi.(Barqaror tarakqiyot ta’limi. O`kuv uslubiy qo`llanma. A.A. Azizov., N.G,Akinpshna.) [T. 2 017. -141 bet.]

Millionlarcha avtomobil, traktor, samalyot va boshqalarning dvigatellari havodagi mavjud kislorodni «yeb» evaziga is gazi va boshqa gazlar bilan ifloslantirmoqdalar. Bu esa yiliga atmosfera havosiga tonnalab zararli omillar singib ketayotganligini anglatadi. 1753-yilga qadar odamlar havo bir nechta gazlar qorishmasidan iborat ekanini bilishmasdi. Aslida havoning 95 foizi azot va kislorod, qolgan qismi argon, vodorod va boshqa gazlardan iborat bo‘ladi. Har kuni odam 22 kilogrammga yaqin havo oladi. Avtomobillarga esa bundan-da ko‘proq havo zarur bo‘ladi. Bitta avtomobil oladigan havo odam uchun 10 kunga yetadi2 . Yashil daraxtlarning karbonat angidridi (CO2) olib kislorod (O2) chiqarishini hisobga olinsa, hozirgi kunda ular sonining keskin kamayib ketishi ham muammoli bir vaziyat ekanligini anglatadi. Masalan, AQShda dastlab 170 mln gektar yam-yashil o‘rmonlar bo‘lgan bo‘lsa, hozirgi kunda 7-8 mln gektarga yo yetadi, yoki yetmaydi. Angliyada ham xuddi shuning oqibatida har yili bronxit xastaligidan 30 ming kishi nobud bo‘lib, 20 mln ish kuni yo‘qotiladi. Yer yuzidagi kislorodning asosiy qismini Janubiy Amerika changalzorlari, Sibir o‘rmonlari ishlab chiqaradi. Bu maskanlar havoni tozalashda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Eslatib o‘tamiz, havo tarkibidagi kislorod jami 21 foizni tashkil etadi. (Barkaror taraqkiyo tta’pimi. Topshiriklar. A.A. Azizov., L. Akinshina.) [T.,2017.-54bet].

Аннотация: История природопользования человека в Узбекистане уходит в далекое прошлое. По берегам воды были леса. Мир животных и растений, живущих в лесах, кормил их. Жизнь в непосредственной близости от лесов и их флоры приучила людей к более оседлому образу жизни. В данной статье проанализирована существующая лесохозяйственная деятельность в Средней Азии и нашей стране с конца 19 века до начала 20 века.

Ключевые слова: Лес, лесное хозяйство, Государственный лесной фонд, Квинт Курций Руф, Туркестанский хребет

Annotation: The history of human use of nature in Uzbekistan goes back a long time. There were forests on the banks of the water. The world of animals and plants living in the forests fed them. Living in close proximity to forests and their flora has taught people to a more sedentary lifestyle. In this article, analyze the existing forestry activities in Central Asia and our country from the end of the 19th century to the beginning of the 20th century.

Key words: Forest, forestry, State Forest Fund, Quintus Curtius Ruf, Turkestan Range.

Oʻzbekistonda insonning tabiatdan foydalanish davri uzoq ming yilliklarga toʻgʻri keladi. Arxeologlarning ta’kidlashiga koʻra, quyi Amudaryoning oʻzlashtirilishi eramizdan oldingi IV–III ming yilliklarga borib taqaladi Bu davrlarda ibtidoiy odamlar, asosan, Amudaryoning eski deltasida yashab, suv hayvonlarni ovlab hayot kechirishgan. Suv boʻylaridagi oʻrmonlar va ularda yashovchi hayvonlar va oʻsimliklar dunyosi ularning asosiy ozuqaviy manbalaridan biri boʻlgan. Shuningdek, toʻqay oʻrmonlari uy qurish uchun kerakli material bilan odamlarni ta’minlagan. Shuning uchun aholi bu oʻrmonlardan uzoqqa ketmasdan yashashga harakat qilganlar. Oʻrmonlar va ulardagi oʻsimliklar dunyosiga yaqin boʻlib yashash odamlarni oʻtroq tarzdagi hayotga ham oʻrgatgan.

Aslini olganda, Oʻrta Osiyoda oʻrmonlar keng tarqalmagan. Hududning 6,7 foizigna oʻrmonlar bilan qoplangan. Bir qator tarixiy manbalardagi ma’lumotlarga koʻra, qadimgi davrlarda Oʻrta Osiyoda oʻrmonlar va oʻsimliklar ancha katta maydonlarni egallagan ekan. Masalan, Aleksandr Makedonskiy tarixini yozgan Kvint Kursiy Ruf Zarafshon vodiysini tasvirlashi mobaynida bu yerlarda koʻplab oʻrmonlar mavjud boʻlganligini qayd etadi. U yana Panjikentga yaqin yerlarda oʻtib boʻlmas oʻrmonlar borligini ham yozgan [1, B. 127].

Oʻrta Osiyoda oʻrmonlarning kamayishiga ularning talon-toroj etilishi, yongʻinlar, chorvaning tartibsiz boqilishi, oʻrmon maydonlarni ekin maydonlariga aylantirib, taqsimlab berilishi, oʻrmonlar muhofazasi va oʻrmonlarni tiklash ishlarining mavjud boʻlmaganligi sabab qilib koʻrsatilishi mumkin. Rui Gonsales de

Klavixoning yozishicha, Samarqanddan to Buxorogacha yo‘lning ikki tomoni daraxtlar bilan egallangan bo‘lgan [2, B. 109-113].

Demak, ota-bobolarimiz tomonidan daraxtlarni ekish va ularni parvarish qilish jarayoni uzoq tarixga borib taqalar ekan. Keyingi davrlarda ham to‘qay o‘rmonlarining insonlar hayotidagi o‘rni katta bo‘lgan. Masalan, XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Xiva xoni ba’zi to‘qay o‘rmonlarida o‘suvchi jiydani terishni man etgan. Shuningdek, Qo‘qon xonligining Quva va Marg‘ilon atroflarida o‘rmon hamda to‘qaylar bo‘lganligi qayd etiladi [3, B. 310-314]

Shu o‘rinda ta’kidlash kerakki, hatto XIX asrgacha o‘lkada o‘rmonzorlarni muhofaza qilish tizimli tarzda olib borilmagan. Masalan, Qo‘qonga kelgan rus sayyohi A.P.Fedchenko butun xonlikni aylanib chiqqani va ko‘p ov qilib ketganini esga olganda, sayyoh ham o‘sha to‘qaylarda ov qilish istagini bildirganiga javoban xonlik vakili Mullo Mirkomil mehtar u joylar allaqachon dalalarga aylantirilganini aytadi[4, B. 234]. Bu holat xonlik aholisi sonining muttasil oshib borgani va sug‘orma yerlarning yetishmasligi tufayli ayrim to‘qayzor va botqoqliklar ekinzorlarga aylantirib borilganidan dalolat beradi.

Faqatgina XIX asr oxirlaridan boshlab O‘rta Osiyoda asta-sekin o‘rmon xo‘jaliklari paydo bo‘la boshladi. Masalan, 1897-yili Amudaryo o‘rmon xo‘jaligi vujudga kelgan. Amudaryoning quyi oqimida o‘rmonchilik ishlarini olib borish 1909-yildan boshlangan. Shu yilgacha o‘rmonlarning maydonlari va ularni hisobga olish ishlari olib borilmagan edi. Shu davrdan boshlab o‘rmonlarni hisob-kitob qilish yo‘lga qo‘yila boshlandi.

1912-yili Amudaryoning o‘ng qirg‘og‘ida to‘qay o‘rmonlari tashkil qilindi. Bundan ko‘rinadiki, o‘sha davrlardan boshlab o‘rmonlarni saqlab qolish masalasi bilan jiddiy shug‘ullanilgan. Turkiston o‘lkasini boshqarish bilan bog‘liq o‘sha davrga oid qonun hujjatlari orasida o‘rmonlarni saqlashga qaratilganlari ham bor edi. Masalan: yovvoyi o‘rmonlar ham, bo‘sh yerlar ham davlat mulki deb hisoblangan, xalqlar yashayotgan yerlar ularga doimiy foydalanish uchun berilgan. Yoki Rossiya imperiyasi ma’murlari saksovulzorlarni qo‘riqlash masalasini ilgari surib, ulardagi saksovullarni yo‘q bo‘lib ketishiga qarshi turgan. Lekin shunga qaramay, aholi saksovullardan o‘z ehtiyojlari yo‘lida doimiy ravishda foydalanib kelgan. Jumladan, hukumatning taqiqlashiga qaramay, saksovullarni kesish va bozorda sotish holatlari ko‘p uchrab turgan [5, B. 18].

Saksovulzorlar Buxoro amirligi hayotida katta o‘ringa ega bo‘lgan. Biroq 1908-yilgacha cho‘llardagi o‘rmonlarni nazorat qilish bo‘yicha hech qanday ishlar amalga oshirilmagan. Ulardan Buxoro aholisi o‘z uylarini isitish maqsadida foydalanib kelgan. Cho‘l o‘rmonlarining odamlar tomonidan doimiy kesilishi ularning keskin kamayishiga olib kelgan. Masalan, Zarafshon daryosi qirg‘oqlarida 15 000 desyatina yerdagi o‘rmonlar yo‘q qilingan. Natijada, saksovulzorlarni muhofaza qilish ehtiyoji yuzaga kelgan. Ma’lumotlarda keltirilishicha, 1911-yili cho‘l o‘rmonlarida 634 kishi o‘rmonlarni qo‘riqlash uchun tayinlangan bo‘lsa-da, 1914-yilgi hisobotlarda o‘rmonlarni saqlash bilan bog‘liq qoidalar 616-marta buzilganligi qayd etilgan. Bu borada tarixiy hujjatlarga murojaat qiladigan bo‘lsak, 1911-yili Sankt-Peterburgda bo‘lib o‘tgan o‘rmon egalarining syezdida Turkiston

o‘lkasi yer boshqarmasi va davlat mulki boshqaruvchisi knyaz Mosalskiy tog‘ o‘rmonlarining qisqarishi xaqida: “...oldingi davrlarda Turkistondagi tog‘ o‘rmonlari ancha katta bo‘lgan. Ular vodiylar hatto odamlar yashaydigan joylargacha tarqalgan edi”, – deya ta’kidlaydi. Lekin asrlar davomida aholining ta’siri bu o‘rmonlarining keskin kamayishiga sababchi bo‘lgan. Tog‘ o‘rmonlarinig bunday yo‘q qilinishi tabiiy balansni buzishidan tashqari, tabiiy ofatlarga ham olib kelishi mumkin edi. Mana shunday sharoitda butun Turkiston hayotini yaxshilashga yordam beruvchi tog‘ o‘rmonlarini muhofaza qilish o‘rmon xo‘jaligining asosiy vazifasi bo‘lishi lozim edi. Shunisi qiziqki, aholining o‘zi ham o‘rmonlarni saqlab qolish va qo‘riqlashdan manfaatdor bo‘lgan. Chunki o‘rmonlar ular uchun daromad manbai, yashash uchun vosita bo‘lib xizmat qilgan.

Turkiston general-gubernatorligi ma’murlari ham o‘rmonlarni muhofaza qilish uchun ma’lum chora-tadbirlarni qo‘llagan. Chunki ular davlatga katta moddiy foyda keltirgan. Bu davlat miqyosidagi muammo sifatida o‘rmonlarni muhofaza qilish ishiga e’tibor katta bo‘lganligini ko‘rsatadi. Xususan, “Turkiston o‘lkasidagi Davlat mulkini boshqarish to‘g‘risidagi Nizom”ga ham o‘rmon xo‘jaliklari masalasiga doir alohida bo‘lim kiritilgan bo‘lib, unda o‘lkada mavjud bo‘lgan o‘rmonlar Davlat mulkini nazorat qilish boshqarmasining o‘rmon xo‘jaligi bo‘limi boshlig‘i tomonidan amalga oshirilishi belgilanib qo‘yilgan edi. Bu davrda o‘rmonlarni saqlash uchun Turkiston general-gubernatorligi tomonidan ayrim chora-tadbirlar ham amalga oshirilgan. Masalan, Sirdaryo viloyatida qorovullar tayinlagan. O‘rmon qorovullarining vazifasi – daraxtlarni tartibsiz kesish, o‘rmonlarda chorva mollarini boqish va yong‘inlarga qarshi kurashishdan iborat bo‘lgan.

1911-yildan boshlab Turkiston o‘rmon xo‘jaligida yangi davr boshlangan. Bunda o‘rmonlardan kelgan foyda davlat hisobiga o‘tkazilgan. Oqibatda, o‘rmondan olingan o‘tinlar narxi oshib ketgan. O‘rmonda chorva mollarini boqish uchun ham turli ko‘rinishdagi narxlar belgilangan. Bu aholining noroziligiga sabab bo‘lgan. Chor xuqumatining urinishlari katta va kutilgan natijalarga olib kelmaganligi sababli Turkiston general-gubernatori Kuropatkin 1917-yil 17-yanvarda Turkiston o‘lkasi hududiga tegishli bo‘lgan o‘rmon bilan bog‘liq buyruq chiqargan. Bu buyruqda aholining o‘rmonlardan foydalanishiga erkinlik berilgan. Shunday qilib, Turkiston o‘lkasidagi o‘rmon xo‘jaligi bilan bog‘liq davlat ishlari muayyan chora-tadbirlar bilan yakunlangan.

Hulosa qilib aytganda, O‘rta Osiyo o‘rmon xo‘jaliklari faoliyati hozirgi zamonaviy ko‘rinish kasb etgan o‘rmon xo‘jalikllarini shakllanishi va rivojlanishiga asos bo‘lib xizmat qilgan.

Foydalanilagan adabiyotlar ro‘yhati

1. Kvint Kursiy Ruf. Istoriya Aleksandra Makedonskogo // Istoriya Uzbekistana v istochnikax. Sostavitel B.V.Lunin. – Tashkent: Fan, 1984. – S. 127.

2. Rui Gonsales de Klavixo. Buyuk Amir Temur tarixi // Amir Temur Yevropa elchilari nigohida. – Toshkent: G‘ofur G‘ulom, 2007. – B. 109-113

3. Muhammadhakimxon to‘ra. Muntaxab at-tavorix. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2010. – B. 310-314

4. Fedchenko A.P. Puteshestviye v Turkestan. – M: Geografgiz, 1950. – C. 234
5. Lim V.P. Oxrana jivoy prirodы na territorii Uzbekistana (Vozniknoveniye, razvitiye i sovremennoye sostoyaniye na primere lesnых, rыbnых i oxotnichye-promыslovых resursov). Diss. na sois. uch. step. dokt. biolog. nauk. – Tashkent, 2002. – S.18

СИФАТЛИ ТАЪЛИМ ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОНДА КАМБАҒАЛЛИККА ҚАРШИ КУРАШНИНГ САМАРАЛИ ВОСИТАСИ

Мелибоев Азизжон Низомиддинович - ҚДПИ ўқитувчиси (PhD),
Муҳаммедов Рўзматжон Ғуломжон ўғли - ҚДПИ талабаси,
Тел:+99894 499-04-17
e-mail: aziznizomiddinovich@gmail.com

Аннотация Мақолада сифатли таълим орқали камбағалликка қарши курашда жахон тажрибасидан фойдаланишнинг аҳамияти ва Янги Ўзбекистонда бу масаланинг зарурияти тахлилий асосда ритиб, бу муаммони хориж тажрибасидан фойдаланган холда самарали хал этиш масаласи очиб берилган. Шунингдек, давлатлардаги кўрсаткичлар орқали қисий мисоллар рдамида асосланиб ижтимоий-фалсафий жихатдан таққослаб, муаммога атрофлича ндашилган.

Калит сўзлар: БМТ, Ассамблея, сисий инқироз, Резолюция, “Минг йиллик ҳисоботи”, эвристик, ГФР.

Аннотация В статье подчеркивается важность использования мирового опыта борьбы с бедностью посредством качественного образования и необходимость этого вопроса в Новом Узбекистане, а также раскрывается вопрос эффективного решения этой проблемы с использованием зарубежного опыта. Также к проблеме подходили с социально-философской точки зрения с помощью сравнительных примеров на основе показателей в штатах.

Ключевые слова: ООН, Ассамблея, политический кризис, резолюция, «Доклад тысячелетия».

Annotation The article highlights the importance of using world experience in the fight against poverty through quality education and the necessity of this issue in New Uzbekistan, and reveals the issue of effectively solving this problem using foreign experience. Also, the problem was approached from a social-philosophical point of view with the help of comparative examples based on indicators in the states.

Key words: UN, Assembly, political crisis, Resolution, "Millennium Report", heuristic, GFR.

Дунёда турли молиявий-иқтисодий ва сиёсий инқирозларнинг кучайиши, турли савдо урушларининг авж олиши натижасида дунё мамлакатлари ўртасида ижтимоий-иқтисодий алоқалар чекланаяпти. Жаҳондаги бу каби салбий ўзгаришлар мамлакатлар ижтимоий-иқтисодий тараққитига салбий таъсир қиляпти, аҳолининг тинч-осуда ҳатига хавф солаяпти. Дунда бу каби глобал ижтимоий-иқтисодий, трансмиллий муаммолар ўз ечимини топмаса, мамлакатлар миллий иқтисодитида ЯИМ ўсишининг секинлашуви, аҳоли реал даромадларнинг пасайиши, ишсизликнинг кўпайиши натижасида камбағалликнинг келиб чиқишига сабаб бўлади. БМТнинг кузатишича, 38 энг камбағал мамлакатлардан 20 таси ки уруш ҳолатида ки урушдан эндигина чиққан минтақалар. Энг кўп ночор аҳволда яшовчилар Жанубий Оси минтақасида қайд этилган. Камбағалларнинг энг юқори қисми Африканинг Сахара чўлига яқин ҳудудларида кузатилган. Умум аҳолининг роппа-роса 46,3 фоизи катта қийинчиликларда кун кечирмоқда. Тахминан 1 млрд. одам умуман ҳеч қандай таълим ва маълумотга эга эмас. 1 млрд.дан ошиқроғи эса тоза ичимлик сувини истеъмол қилиш имкониятидан бебаҳра. Бундай ҳолатларда қандай иш тутиш лозим?! Бунинг бирор чора борми?

Албатта, эришатган барча ютуқларимиз, инсон қадри улуғ бўлган дир – Янги Ўзбекистонни барпо этиш йўлидаги дастлабки натижалардир. Биз бундкор халқимиз билан бирга бундай эзгу ишларни давом эттирамиз ва олдимизга қўйган катта-катта марраларга албатта эришамиз -дея таъкидлайди Президентимиз Шавкат Мирзиев. Камбағалликка қарши кураш масаласи глобал масала бўлганлиги туфайли БМТ Бош Ассамблеяси камбағалликка қарши кураш бўйича ўн йилликларни эълон қилиб, тегишли тадбирларни амалга ошириб келмоқда. Биринчи ўн йиллик ўз ичига 1998-2007 йилларни қамраб олган бўлса, иккинчи ўн йиллик 2008-2017 йилларга тўғри келди. Ҳозир учинчи ўн йилликка мўлжалланган 2018-2027 йилларни қамраб оладиган Резолюцияси қабул қилинди. Ушбу Резолюцияда олдинги ўн йилликда эришилган натижалар даражасини сақлаб қолган ҳолда қашшоқлик билан курашишни такомиллаштириш ҳамда уни мустаҳкамлаш йўлида самарали ва мувофиқлаштирилган вазифаларни амалга оширишга қаратилгандир.

БМТ тавсиясига биноан жаҳон амалитида аҳоли турмуш кечиришининг энг кам миқдори ва истеъмол бюджетининг энг кам миқдори асосида даромадлари даражаси бўйича моддий таъминоти турлича бўлган қуйидаги аҳоли гуруҳлари ажратиб кўрсатилади:

– камбағал оилалар – бундай оилаларда жон бошига тўғри келадиган даромад аҳолининг турмуш кечириши учун зарур бўлган энг кам миқдордан паст даражада ки унга тенг;

– кам таъминланган оилалар – бундай оилаларда жон бошига тўғри келадиган даромад аҳолининг турмуш кечириши учун зарур бўлган энг кам миқдор билан энг кам истеъмол бюджети миқдори ўртасида жойлашган бўлади;

– таъминланган оилалар – бундай оилаларда жон бошига тўғри келадиган даромад аҳолининг энг кам истеъмол бюджети миқдори ва оқилона истеъмол бюджети миқдори ўртасида жойлашган бўлади;

– бой оилалар – уларда жон бошига тўғри келадиган даромад оқилона истеъмол бюджети даражасидан юқори бўлади.

Бунга асосан жуда кўплаб мамлакатлар ҳам қошшоқликдан бутунлай қутилиш режаларини ишлаб чиққан. Жумладан Хитой, Покистон, Бангладеш каби мамлакатлар шу қисқа даврда бутунлай камбағалликдан қутилиш режасини ишлаб чиққан ва буни мувоффақият билан амалга оширмоқда.

Аҳоли даромади тенгсизлиги ва камбағаллик билан иқтисодий ўсиш ўртасидаги боғлиқлик бўйича Д.Рикардо, Р.Солоу, А.Сен, А.Дитонт каби кўплаб мумтоз неоклассик иқтисодчилар ва Нобель мукофоти лауретлари назарий ва эмпирик тадқиқотлар ўтказган бўлиб, уларда ялпи ички истеъмол, технологик ривожланиш, меҳнат унумдорлиги, аҳоли саломатлиги, солиқ базаси ва бошқа шу каби омиллар таҳлили асосида, камбағаллик кам бўлган жамиятларда, иқтисодий ўсиш суръатлари юқорироқ бўлишини назарий исботлашган.

Жаҳон амалитида камбағалликни баҳолашнинг қуйидаги усуллари маълум:

- статистик: бунда аҳоли даромадларини жон бошига тақсимлаганда, энг қуйида турувчи 10-20% аҳоли камбағалларга ки-ритилади;

- меърий (минимал истеъмол саватининг озиқ-овқат ва бошқа ан-дозалари меърлари бўйича), яъни минимал истеъмол савати асосида;

-маҳрум бўлганлик усули -энг муҳим маҳсулот ва товарларни тўйиб истеъмол қилмаслик;

-эвристик - жамоатчилик фикри ки сўралувчининг нуқтаи - назаридан келиб чиққан ҳолда, турмуш даражасиннг етарли ки етарли эмаслигини баҳолаш;

стратификацион – бунда камбағалларга, илгариданоқ ўзини-ўзи таъминлаш имкониятлари чекланган кишилар кири-тилади (қариялар, ногиронлар,тўлиқ бўлмаган ва кўп болали оилалар, ота-онасиз болалар, ишсизлар, муҳтожлар ва б.)

- иқтисодий - бу камбағаллар тоифасини, давлат уларнинг моддий таъминотига рдам йўналтирилган имконият ресурслари орқали аниқлайди.

Камбағалликни аниқлагач, ҳар бир давлат фақат ўзига хос бўлган вазифаларни ҳал этишга интилади. Агарда иқтисодий ривожланган мамлакатлар социал ларзаларни бартараф этиш учун аҳолининг ўрта ва камбағал қатламлари ўртасидаги чуқур табақалашга йўл қўймасликка ин-тилсалар, ривожланатган мамлакатларда эса камбағалликнинг аниқланиши аҳолининг минимал турмуш даражасини таъминлаб туриш сисати билан боғланган.

Камбағалликни бартараф этиш муаммоси яшаш минимумини таъминлаш билан чамбарчас боғлиқдир. Бир мамлакатда андоза учун қабул қилинган яшаш минимуми, бошқа мамлакатда қабул қилина олмайди.

Дунда камбағалликни қисқартиришга қаратилган самарали дастурлар, стратегия ва чора-тадбирларни ишлаб чиқиш ҳамда уларда белгиланган масалаларни амалга ошириш долзарб ҳисобланади.

Ушбу ўринда 2019 йилда иқтисодит бўйича Нобель мукофотига сазовор бўлган олимлар ҳам айнан жаҳонда камбағалликни пасайтириш бўйича олиб борган тадқиқотлари учун мукофотланганлигини эсга олиш зарур бўлади. Булар америкалик Майкл Кремер ва келиб чиқиши асли ҳиндистонлик бўлган Абхиджит Банерджи ҳамда унинг рафиқаси Эстер Дюфло бўлиб, улар камбағалликни аниқлаш ва уни бартараф этиш борасида ижтимоий инновацияларни амалитга татбиқ этишди.

Уларнинг илмий тадқиқот натижаларига кўра, камбағалликни юзага келтирадиган омиллар, шарт-шароитлар диагностикаси билан бирга ҳар бир мамлакат, ҳудуд ва оила кесимида бартараф этиш мумкинлиги аниқланди. Ўзлаштириш кўрсаткичи ва ўқувчиларнинг билим савиясини кўтарадиган асосий омил: таълим бериш шаклини ва ўқитувчиларнинг таълим бериш сифатини ошириш, ўқувчиларга индивидуал ндашув усулларини кучайтириш (дарс мазмунини оширишга) ҳамда болаларни қийнаб келадиган гижжа касалликларидан фориғ бўлишларини таъминлашга боғлиқ экан. Болалар организмида жойлашган паразитлардан ҳоли бўлмасдан туриб, уларга қанчалик билим берманг, унинг ақли ва тафаккури кенгайиб қолмаслигини Жаҳон соғлиқни сақлаш ташкилоти ҳам тасдиқлади.

Шу пайтга қадар БМТ, Жаҳон банки, Жаҳон валюта ташкилоти ва турли жамғармалар томонидан камбағал давлатларга миллиардлаб АҚШ доллари қийматида молиявий рдамлар, субсидиялар йўналтирилганига қарамай, аҳолининг саводхонлиги ошиб, ўзини ўзи иш билан таъминлаш ва тадбиркорлик қобилияти ошиб қолмади. Буларнинг барчаси бесамар кетди. Ушбу давлатлар камбағаллик балосидан қутула олишмади. Айнан, Абхиджит Банерджи, Эстер Дюфло ҳамда Майкл Кремер буни исботлаб беришди ва дала тажрибаси асосида камбағалликдан фориғ бўладиган “таблетка”ни кашф қилишди ҳамда ўзларининг номларини иқтисодит тарихида муҳрлаб қўйишди.

Демак, олимлар ўз тадқиқотларида асосан камбағал оилалар фарзандларининг сифатли бошланғич ва ўрта маълумот олишлари, турли хил касалликларга қарши эмлаш ҳамда ишлаб чиқариш корхоналарини модернизация қилишга орқали камбағалликни қисқартиришга қаратилган механизмларни таклиф қилишган.

«Қаерда киши камбағалликда яшашга мажбур бўлса, у ерда инсон ҳуқуқлари бузилади. Бу ҳуқуқларнинг ҳурмат қилиниши учун бирлашиш ҳар кимнинг муқаддас бурчи». Жозеф Вресински томонидан айтилган ушбу сўзлар бутун жаҳон қашшоқликка қарши курашиш ҳаракатининг шиорига айланди. Ушбу ҳаракатлар натижасида 17 октябрь БМТ Бош ассамблеясининг 47/196-сонли резолюцияси (1992 йил 22 декабрь) билан Халқаро камбағалликка барҳам бериш куни этиб белгиланди.

Хулоса қилиб айтганда нобель мукофотига сазовор бўлган олимлар америкалик Майкл Кремер ва келиб чиқиши асли ҳиндистонлик бўлган

Абхиджит Банерджи ҳамда унинг рафиқаси Эстер Дюфлоилмий тадқиқот натижаларига кўра, камбағалликни юзага келтирадиган омиллар, шарт-шароитлар диагностикаси билан бирга ҳар бир мамлакат, ҳудуд ва оила кесимида бартараф этиш мумкинлиги аниқланди. Ўзлаштириш кўрсаткичи ва ўқувчиларнинг билим савиясини кўтарадиган асосий омил: таълим бериш шаклини ва ўқитувчиларнинг таълим бериш сифатини ошириш, ўқувчиларга индивидуал ндашув усулларини кучайтириш дарс мазмунини оширишга қаратилган замонавий, иннавитцион жаранларни таълим тизимига тадбиқ етиш зарурияти камбағалликка қарши курашда самарали натижалар беришига ишонамиз.

Фойдаланилган адабитлар ва манбалар рўйҳати

1. БМТнинг «Минг йиллик ҳисоботи». https://ziyouz.uz.
2. Президент Шавкат Мирзиев 2022 йил 20 декабрь куни Олий Мажлис ва Ўзбекистон халқига Мурожаатномаси.
3. Пардаев М.Қ., Пардаев О. Мамлакатимизда камбағаллик даражасини камайтириш йўллари. “Логистика ва иқтисодит” илмий электрон журнали. №5. 2020. – Б. 41-48. http://www.economyjournal.uz
4. Инсон тараққити. Дарслик: и.ф.д., проф. Қ.Х.Абдурахмонов таҳрири остида. – Т.: “Fan va texnologiya”, 2013. – В. 230-231.
5. Қосимова Г.Қ. Мамлакатимизда камбағаллик даражасини камайтириш йўллари. Scientific progress. Volume 2 | ISSUE 7 | 2021. – Б. 808-816. http://www.scientificprogress.uz/uz
6. Қосимова Г.Қ. Мамлакатимизда камбағаллик даражасини камайтириш йўллари. Scientific progress. Volume 2 | ISSUE 7 | 2021. – Б. 808-816. http://www.scientificprogress.uz/uz
7. Deaton A. (2013) The Great Escape: Health, Wealth, and the Origins of Inequality, Princeton, N.J.: Princeton University Press.; Ricardo, David (1817) On the Principles of Political Economy and Taxation. Piero Sraffa (Ed.) Works and Correspondence of David Ricardo, Volume I, Cambridge University Press, 1951, p. 135.; Solow, Robert M. (February 1956). "A contribution to the theory of economic growth". Quarterly Journal of Economics. 70 (1): 65–94. doi:10.2307/1884513.; Sen A. (1981) Poverty and Famines: An Essay on Entitlement and Deprivation. Oxford: Clarendon Press.
8. Kremer, Michael (1993), Population Growth and Technological Change: One Million B.C. to 1990, The Quarterly Journal of Economics (The MIT Press) . — Т. 108 (3): 681–716.
9. Камбағаллик — айб эмас, бироқ... Халқ сўзи газетаси, 25 Март 2020. https://xs.uz/uzkr/post/
10. United Nations Development Programme. (2019). Human Development Report 2019: Beyond income, beyond averages, beyond today: Inequalities in human development in the 21st century. United Nations Development Programme.

YANGI O‘ZBEKISTONNING TA’LIM VA IJTIMOIY HIMOYA ISLOHOTLARI KAMBAG‘ALLIKKA QARSHI KURASHDA YANGICHA YO‘L

Meliboyev Azizjon Nizomiddinovich,
falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).

Annotatsiya Maqolada yangi o‘zbekistonning ta’lim va ijtimoiy himoya islohotlari kambag‘allikka qarshi kurashda yangicha yo‘l ekanligi alohida etirof etilgan va hayotiy misollar bilan yoritib ijtimoiy-falsafiy dalillar blan isbotlab berilgan berilgan.

Kalit so‘zlar: United Nations, strategiya, kambag‘allik, nochorlik, qashshoqlik, faqirlik, Yangi O‘zbekiston Konistitutsiyasi, qashshoqlik chegarasi, istemol chegarasi.

Annotation In the article, the educational and social protection reforms of the new Uzbekistan are recognized as a new way in the fight against poverty, and the socio-philosophical arguments are clearly proven with real life examples.

Key words: United Nations, strategy, poverty, helplessness, poverty, poverty, New Constitution of Uzbekistan, poverty line, consumption line.

Аннотация В статье реформы образования и социальной защиты нового Узбекистана признаются новым путем в борьбе с бедностью, а социально-философские аргументы наглядно подтверждаются примерами из реальной жизни.

Ключевые слова: Организация Объединенных Наций, стратегия, бедность, беспомощность, бедность, бедность, Новая Конституция Узбекистана, черта бедности, черта потребления.

Jamiyatimizda bugungi kunda amalga oshirilayotgan insonparvarlik siyosatining fuqarolarimizga qancchalik imkoniyatlar yaratayotganligi hech birimizga sir emas. Ayniqsa asosiy huquqiy qomusimiz yangilanayotgan Yangi O‘zbekiston Konistitutsiyasida davlatimizning ijtimoiy davlat deb nomlanishi bu jamiyatimizning keying istiqbolli kelajagida ijtimoiy himoyaga tubdan yangicha strategiya ishlab chiqshini asoslaydi. Qolaversa, “Biz qashshoqlikning barcha ko‘rinish va o‘lchovlarida, jumladan, o‘ta qashshoqlikni bartaraf etish eng katta global muammo va barqaror rivojlanishning ajralmas talabi ekanini tan olamiz. Barcha davlatlar va barcha manfaatdor tomonlar hamkorlikda hamkorlikda harakat qilib, ushbu rejani amalga oshiradilar. Biz insoniyatni qashshoqlik va muhtojlik zulmidan ozod qilishga va sayyoramizni davolab, xavfsizligini ta'minlashga qaror qildik” - deyiladi Birlashgan Millatlar Tashkilotining Dunyomizni o‘zgartirish: Barqaror rivojlanish uchun 2030 kun tartibi nomli bayonotida.

Avvalo, aholini ijtimoiy himoya qilish siyosati – bu davlatning fuqarolar shaxsiy hayotiga aralashishi emas, balki inson haq-huquqlarini, jumladan, inson huquqlari umumiy deklaratsiyasi hamda iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro hujjatlarda yozib qo‘yilgan, har bir kishining turmush darajasi yetarli darajada yuqori bo‘lishini, oziq-ovqat, uy-joy, ish bilan ta'minlashni yaxshilashga, salomatligini tiklashga, madaniy-maishiy ehtiyojlarini qondirish va pentsiya ta'minotini yo‘lga qo‘yishga qaratilgan tadbirlar majmuasidir. Ijtimoiy himoya ob'ektini aniqlab olish – ijtimoiy himoyaning muhim shartlaridan hisoblanadi. Ijtimoiy himoya ob'ektiga quyidagi aholi guruhlari kiradi:

1. Nogironlar.
2. Nafaqaho‘rlar.
3. Yosh bolalar.
4. Boquvchisini yo‘qotgan oilalar.
5. Yolg‘iz va xomilador onalar.
6. Qashshoqlik chegarasidan kam daromad oluvchi oilalar.
7. Vaqtincha mehnat qobiliyatin yuqotganlar.
8. Vaqtincha va umuman ishsizlar.
9. O‘qituvchilar, talabalar

O‘zbekiston tarixida ijtimoiy soha bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar ilgari hech qachon bo‘lmagan. Bugungi kunga kelib ijtimoiy nafaqa bilan ta'minlanadigan aholi soni qariyb 1,5 barobar oshirildi. Ushbu toifani qo‘llab-quvvatlash va iqtisodiyotimizni tiklash uchun davlat byudjetidan nihoyatda katta mablag‘ ajratildi.

Keyingi paytda uyma-uy yurib o‘rganish orqali aholini ijtimoiy himoya qilish, ehtiyojmand oilalarni aniqlashning o‘ziga xos fuqarobay va mahallabay yangi tizimi shakllantirildi. Shuningdek, moddiy yordam va ko‘makka muhtoj, boquvchisini yo‘qotgan oilalarning farzandlarini va nogironligi bo‘lgan bolalarni qishki kiyim-bosh to‘plamlari, maktab formasi va o‘quv qurollari bilan ta'minlash maqsadida moddiy yordam ko‘rsatilmoqda.[2] Masalan: birgina misol, mamlakatimizda aholini ijtimoiy himoya qilish bo‘yicha sezilarli natijalarga erishildi, jumladan, nafaqa oluvchi oilalar soni 2016 yilgi 466 mingdan 2022 yilda 1 million 860 mingtaga yoki 4 baravarga oshirildi. Ishsizlik nafaqasi miqdori mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdorining 75 foiziga yetkazildi hamda ushbu nafaqalarni to‘lash muddatlari oshirildi. Umuman olganda, o‘tgan 5 yilda YAIMga nisbatan davlat byudjetidan ijtimoiy himoya sohasiga ajratilgan mablag‘lar miqdori salkam 1,4 baravarga oshgan, ya'ni 2017 yilda ushbu ko‘rsatkich 8,6 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 2021 yil yakunida 11,8 foizga yetdi. Bu borada quyidagi Prezidentimiz tamonidan aytilgan - “Albatta, inson qadri biz uchun qandaydir mavhum, balandparvoz tushuncha emas. Inson qadri deganda, biz, avvalo, har bir fuqaroning tinch va xavfsiz hayot kechirishini, uning fundamental huquq va erkinliklarini ta'minlashni nazarda tutamiz”, — deydi Mirziyoev. Inson qadri deganda, prezident har bir fuqaro uchun munosib turmush sharoiti va zamonaviy infratuzilma tashkil etish, malakali tibbiy xizmat ko‘rsatish, sifatli ta'lim, ijtimoiy himoya tizimi, sog‘lom ekologik muhit yaratib berish ekanligini ma'lum qildi. Bu esa jamiyatimiz mustaqillikka

erishgandan so‘ng belgilab olingan quyidagim maqsadlarni ro‘yobga chiqarish uchun

islohotlar davri kelganligining yaqqol misolidir. Buning uchun mustaqil Yangi O‘zbekistonning har bir fuqarosi 4 ta sifatga ega bo‘lishi kerak: 1) zamonaviy mutaxassis bo‘lishi; 2) o‘zbek davlat tili, rus tili, ingliz tillarini mukammal bilishi; 3) doim o‘z bilim doirasini yangilab borishi va 4) tadbirkor-tashabbuskor bo‘lishi. maqsadlarimizga olib boruvchi mayoq bo‘lib hizmat qiladi.

Albatta, yuqorida qayd etilganidek, global miqyosda dunyo minbarlarining bosh mavzusiga aylanayotgan muammolardan biri bo‘lgan kambag‘allikni qisqartirishning to‘g‘ri va eng samarali usuli iqtisodiyotda band aholi sonini oshirish, ularga munosib va mehnat unumdorligi yuqori bo‘lgan to‘liq ish bilan band bo‘lishlikni ta'minlash, qishloq joylarida tadbirkorlik uchun shart-sharoitlarni yaratishdan iborat. Kambag‘allikni yuzaga keltiradigan bosh omil ham ishsizlik darajasining yuqoriligi, ishchi kuchi qatlamining bugungi zamon talabi darajasiga mos emasligi, inson kapitali qiymatining mehnat unumdorligi nuqtai nazaridan orqada qolayotganligida, deb baholash mumkin. Shu sababli Prezident SH.M.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, kambag‘allikni kamaytirish oylik yoki nafaqa miqdorini ko‘paytirish, yoppasiga kredit berish, degani emas. Buning uchun, eng avvalo, aholini kasb-hunarga o‘rgatish va o‘qitish, moliyaviy savodxonligini oshirish, odamlarda tadbirkorlik hissini uyg‘otish, infratuzilmani yaxshilash, yoshlarga ta'lim-tarbiya berish, sifatli davolanish, manzilli nafaqa to‘lash tizimini joriy qilish kerak demakdir.

Xulosa o‘rnida aytishimiz mumkunki, Yangi O‘zbekistonda bugungi kunda olib borayotgan adolatli ijtimoiy siyosati va Yangilanayotgan Konistitutsiya o‘zining samarali natijalarini berishi va jamiyatimizda kambag‘allik darajasini ko‘tarilishini oldini olishi, farovon, erkin va demokratik fuqarolik jamiyatinig shakllanishida asos bo‘lib hizmat qilishiga ishonamiz.

Foydalanilgan manbalar va adabiyotlar ro‘yhati

1. Yangi O‘zbekiston Konstitutsiyasi loyihasi. 2023 y.
2. Мирзиев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. – Тошкент: “O‘zbekiston” нашрити, 2021. – Б. 199.
3. Шавкат Мирзиев: «Инсон қадри биз учун қандайдир мавҳум, баландпарвоз тушунча эмас» https://daryo.uz/k/2022/01/26/
4. Мустақиллик: Изоҳли илмий-оммабоп луғат. Муаллифлар: М.Абдуллаев ва бошқалар. – Т.: Шарқ, 2006. – 528 б.)
5. Nussbaum, M. (2000). Women and Human Development: The Capabilities Approach. Cambridge University Press.
6. United Nations. (2015). Transforming our world: the 2030 Agenda for Sustainable Development. United Nations.

YOSHLARNI QO‘LLAB-QUVVATLASH JAMIYATDA KAMBAG‘ALLIKNI QISQARTIRISH CHORA-TADBIRLARINING ASOSIY MAQSADI SIFATIDA

Meliboyev Azizjon Nizomiddinovich
QDPI o‘qituvchisi (PhD),
Meliboyeva Shaxnoza Yormatjon qizi
Buvayda tumani 46-maktab o‘qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada Yangi O‘zbekistonda erkin fuqarolik jamiyati barpo etish va insonparvar demokratik huquqiy davlat qurish hamda yoshlarni qo‘llab-quvvatlash jamiyatda kambag‘allikni qisqartirish chora-tadbirlarining asosiy maqsadi sifatida atroflicha yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: Inson qadri, “Temir daftar”, “Ayollar daftari” va “Yoshlar daftari”, kambag‘allikka qarshi kurashish, erkin fuqarolik jamiyati

Аннотация В статье подробно рассмотрено становление свободного гражданского общества в Новом Узбекистане и построение гуманного демократического правового государства, а также поддержка молодежи как основная цель мер по сокращению бедности в обществе.

Ключевые слова: Человеческое достоинство, «Железная тетрадь», «Женская тетрадь» и «Молодежная тетрадь», борьба с бедностью, свободное гражданское общество.

Annotation: The article examines in detail the formation of a free civil society in New Uzbekistan and the construction of a humane democratic state of law, as well as support for youth as the main goal of measures to reduce poverty in society

Key words: Human dignity, "Iron Notebook", "Women's Notebook" and "Youth Notebook", fight against poverty, free civil society.

O‘zbekiston mustaqillikka erishgan davrdan boshlab mamlakatimizni har taraflama ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish hamda aholi turmush farovonligini yuksaltirishga qaratilgan islohotlar amalga oshirib kelingan.

Yangi O‘zbekistonda erkin fuqarolik jamiyati barpo etish va insonparvar demokratik huquqiy davlat qurish yo‘lida keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Davlat rahbari demokratik islohotlarning uzviyligi va davomiyligini ta’minlash maqsadida kelgusi faoliyat uchun «Harakatlar strategiyasidan – Taraqqiyot strategiyasi sari» degan printsipni bosh tamoyil etib belgilanganini bildirdi.[1] Shu asosda 2022 yil – «Inson qadrini ulug‘lash va faol mahalla yili» bo‘yicha davlat dasturi tayyorlanib, keng jamoatchilik muhokamasidan o‘tkazilgani ta’kidlandi.

Yangi O‘zbekiston ning Taraqqiyot strategiyasida Inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish, milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o‘sish sur’atlarini ta’minlash, adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish kabi muhim yo‘nalishlar belgilanib olindi.[2]

Albatta, inson qadri biz uchun qandaydir mavhum, balandparvoz tushuncha emas. Inson qadri deganda, biz, avvalo, har bir fuqaroning tinch va xavfsiz hayot kechirishini, uning fundamental huquq va erkinliklarini ta’minlashni nazarda tutamiz», — deydi Mirziyoyev.

Inson qadri deganda, prezident har bir fuqaro uchun munosib turmush sharoiti va zamonaviy infratuzilma tashkil etish, malakali tibbiy xizmat ko‘rsatish, sifatli ta’lim, ijtimoiy himoya tizimi, sog‘lom ekologik muhit yaratib berish ekanligini ma’lum qildi.[3]

So‘nggi yillarda mamlakatimizda aholi turmush sharoitini yaxshilashga, jumladan, aholining ehtiyojmand qatlami bandligini ta’minlash orqali ular uchun doimiy daromad manbaini yaratishga qaratilgan keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

Xususan, 2020-2021 yillardagi koronavirus pandemiyasiga qaramasdan, kambag‘allikni qisqartirishning ustuvor asoslari ishlab chiqildi, Shu jumladan, ijtimoiy nafaqalar qamrov darajasi kamida ikki marotaba oshirilib, ularni tayinlash jarayonining shaffofligini ta’minlash uchun avtomatlashtirilgan elektron tizim joriy etildi. Shuningdek, aholining ehtiyojmand qatlami va kambag‘allik holatiga tushish xatari yuqori bo‘lgan aholi bilan manzilli ishlash mexanizmini yo‘lga qo‘yish maqsadida “Temir daftar”, “Ayollar daftari” va “Yoshlar daftari” tizimlari yaratildi.

Bundan tashqari, mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta’minlash va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bilan Shug‘ullanadigan mutlaqo yangi tizim – hokim yordamchilari va yoshlar yetakchilari institutlari joriy etildi.[4]

Davlat va jamoatchilik tomonidan aholining ehtiyojmand qatlamiga yordam ko‘rsatish, ularni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha normativ-huquqiy hujjatlar, davlat dasturlari hamda chora-tadbirlar belgilanib qator amaliy islohotlar olib borilgan. Garchi davlat tomonidan har yili qabul qilinadigan davlat dasturlarining aksari aholini ijtimoiy himoya qilish islohotlariga bag‘ishlangan bo‘lsa-da, mamlakatda aholining sezilarli qismi kambag‘al holatda kun kechirishiga to‘g‘ri kelgan.

Biroq, 2020 yilgacha aholining kambag‘allik darajasi, kambag‘allar soni va statistikasi bo‘yicha ma’lumotlar mavjud bo‘lmagan. O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020 yil boshida Oliy Majlis palatalari va mamlakat aholisiga Murojaatnomasida ilk bor kambag‘allik darajasi bo‘yicha ma’lumotlar e’lon qilinib, aholining 12-15 foizi yoki 4,5-5 million kishi kambag‘allikda kun kechirishi qayd etildi.

Bundan tashqari, davlatimiz rahbarining 2020 yil 23 sentyabrda BMT Bosh Assambleyasining 75-sessiyasida “...qashshoqlikni tugatish va kambag‘allikka qarshi kurashishni Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi navbatdagi sessiyasining asosiy mavzularidan biri sifatida belgilash hamda ushbu masalalarga bag‘ishlangan global sammitni o‘tkazish...” taklifi bilan chiqqani kambag‘allikni qisqartirish masalasining naqadar dolzarbligini bildiradi.

Shu bilan birga, mamlakatimizda ro‘y bergan tabiiy-texnogen jarayonlar hamda noqulay iqlimning salbiy oqibatlari koronavirus pandemiyasi sharoitida aholining kambag‘al qatlamlari ortishiga sabab bo‘ldi. Ishlab chiqarish va xizmat

ko‘rsatish tarmoqlarining to‘xtab qolganligi natijasida ishsizlikning ortishi, katta miqdordagi doimiy va mavsumiy migratsiyada mehnat qiladigan yurtdoshlarimizning harakati to‘silganligi, aholi daromadlarining pasayishi yuqoridagi salbiy omillarning aks ta’siridir.[5]

Mamlakatimizda kambag‘allikni qisqartirishga qarshi kurashish, bu borada chora-tadbirlar ishlab chiqish va amaliy natijalarga erishishga alohida e’tibor qaratilib, aholini ijtimoiy himoya qilish va har tomonlama qo‘llab-quvvatlash sohasida izchil hamda samarali islohotlar amalga oshirilmoqda. Ishlab chiqilayotgan dasturlar, amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar bevosita ehtiyojmand aholiga ko‘mak ko‘rsatish, ularni kambag‘allikdan chiqarish hamda doimiy daromad manbaiga ega bo‘lishlariga imkoniyat yaratishga yo‘naltirilmoqda.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 2015 yilning sentyabrida Barqaror rivojlanish bo‘yicha o‘tkazilgan sammitida qabul qilingan 70-son rezolyutsiyasiga muvofiq, 2030 yilgacha bo‘lgan davrda Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish bo‘yicha qator vazifalar belgilab olingan. Jumladan, 1-maqsad sifatida 2030 yilgacha kam ta’minlanganlik darajasini ikki barobarga qisqartirish ko‘zda tutilgan.

O‘zbekiston Respublikasida kambag‘allikni qisqartirish yo‘nalishi 2020 yilda davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Prezident SH.MMirziyoyev: “Biz O‘zbekiston ning yangi tarixida ilk bor kambag‘allikni kamaytirish haqidagi qat’iy qarorimizni butun dunyoga ochiq e’lon qildik va uni qisqartirish bo‘yicha keng qamrovli ishlarni boshladik”,[6] deya muvaffaqiyatli xalqaro tajribadan kelib chiqib, kambag‘allikni qisqartirishning ta’sirchan vositalarini amaliyotga joriy etish, uni hisoblashning mezon va usullarini hamda uzoq muddatga mo‘ljallangan strategiyasini ishlab chiqish kabi qator vazifalar belgilab berildi.

2020 yilning 23 sentyabrida Prezidentimiz tomonidan BMT Bosh Assambleyasining 75-sessiyasida qashshoqlikni tugatish va kambag‘allikka qarshi kurashishni Assambleya navbatdagi sessiyasining asosiy mavzularidan biri sifatida belgilash hamda ushbu masalalarga bag‘ishlangan global sammitni o‘tkazish taklifi berilgani fikrimizga yaqqol misoldir.[7]

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati.

1. Тараққит стратегияси” маркази: Ҳаракатлар стратегияси ва тараққит стратегияси: фарқли жиҳатлари нимада? 02 Фев. 2022 й. https://strategy.uz/index.php?news=1475

2. Ҳаракатлар стратегиясидан – Тараққит стратегияси сари. https://uza.uz/uz/posts/

3. Шавкат Мирзиев: «Инсон қадри биз учун қандайдир мавҳум, баландпарвоз тушунча эмас» https://daryo.uz/k/2022/01/26/

4. “2022-2026 йилларда Ўзбекистон Республикасида камбағалликни қисқартириш стратегиясини тасдиқлаш тўғрисида” Ўзбекистон Республикаси Президентининг қарори. https://regulation.gov.uz/oz/d/61526 2021-2030 йилларда Ўзбекистон Республикасида камбағалликни қисқартириш стратегияси. https://regulation.gov.uz/ru/d/30230

5.2021-2030 йилларда Ўзбекистон Республикасида камбағалликни қисқартириш стратегияси. https://regulation.gov.uz/ru/d/30230
6.Мирзиев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. – Тошкент: “O‘zbekiston” нашрити, 2021. – Б. 51.
7.Ўзбекистонда камбағалликни қисқартириш бўйича ишлар қандай натижа бермоқда? https://uza.uz/uz/posts/

YANGI O‘ZBEKISTONDA KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISHDA YETAKCHI DAVLATLAR TAJRIBASINING O‘RNI VA AHAMIYATI

Mamaroziqov Azizjon Davronovich - QDPI o‘qituvchisi,
Meliboyev Azizjon Nizomiddinovhich - QDPI o‘qituvchisi.

Odamlarning loqaydligi korrupsiyaning
rivojlanishi uchun eng yaxshi zamindir.
(Delia Ferreyra Rubio)

Annotatsiya Maqolada bugungi kunda davlatlar, jamiyatlar taraqqiyotida jiddiy to‘siq bo‘layotgan, davlatlarni yemirib bitirayotgan korrupsiya illati va unga qarshi kurashda yetakchi davlatlar tajribasining o‘rni va ahamiyati va kishilar tafakkuriga singish jarayoni, davlat va jamiyat uchun moddiy, ma’naviy oqibatlari hamda unga qarshi samarali kurash yo‘llari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: Davlat boshqaruvi, xavfsizlik, korrupsiya, pora, poraxo‘rlik, ta’ma, taraqqiyot, manfaat, Ma’muriy axloq, Davlat xizmati kodeksi, Ombudsman.

Аннотация В статье представлены роль и значение опыта ведущих стран в борьбе с коррупцией, которая сегодня является серьезным препятствием для развития государств и обществ, и процесс ее внедрения в сознание людей, его материальные и моральные последствия для общества. анализируются государство и общество, а также эффективные способы борьбы с ним.

Ключевые слова: Государственное управление, безопасность, коррупция, взяточничество, взяточничество, вкус, развитие, интерес, Административная этика, Кодекс государственной службы, Омбудсмен.

Annotation The article presents the role and significance of the experience of leading countries in the fight against corruption, which today is a serious obstacle to the development of states and societies, and the process of its introduction into the consciousness of people, its material and moral consequences for society. the state and society are analyzed, as well as effective ways to combat it.

Key words: Public administration, security, corruption, bribery, bribery, taste, development, interest, Administrative ethics, Civil Service Code, Ombudsman.

Bugungi kunda globallashuv va integratsiya jarayonlari avj olib borayotgan zamonda korrupsiya deyarli hamma davlatlar uchun bir qancha muammolarga sabab bo‘lmoqda. Shu o‘rinda aytish joizki, Xalqaro valyuta jamg‘armasi tomonidan

aniqlangann ma’lumotlarga tayanadigan bo‘lsak, ushbu illat yiliga jahon iqtisodiyotiga o‘rtacha 2,6 trillion dollar miqdorida zarar yetkazadi. Shu bilan bir qatorda inson huquq va erkinliklarining poymol bo‘lishiga ham sabab bo‘ladi. Shu boisdan, mazkur illat bilan kurashishga butun dunyo miqyosida siyosat darajasiga ko‘tarilib, hal qilinishi lozim bo‘lgan global muammo sifatida qaralmoqda.

Ta’kidlash joizki, korrupsiya qanday ko‘rinishda bo‘lmasin, o‘zining salbiy illatlari oqibatida har qanday tashkilotning samarali ish faoliyatini cheklashi bilan birga inson resurslarini boshqarish jarayonini ham izdan chiqaradi. Bugungi kunda jamiyat va davlatning rivojlanishiga erishish bir tomondan sohalardagi muammolarni aniqlash hamda uni izchillik bilan bartaraf etish choralarini ko‘rish bilan bog‘liq bo‘lsa, boshqa tomondan bu vazifalarning amalga oshirilishi kadrlar siyosati shaffofligini ta’minlash hamda uni korrupsiyadan holi qilish zaruriyatini taqozo etadi. Davlat organlari yoki huquqni muhofaza qiluvchi idoralarning ish faoliyatida favoritizm, nepotizm, urug‘-aymoqchilik, tanish-bilishchilik yoki hokimiyatni suiiste’mol qilish kabi korrupsiyaning bir necha shakllari ko‘zga tashlanishi mumkin. Ko‘pgina xorijiy mamlakatlarda boshqa tarmoqlardagi singari kadrlar bilan ishlash masalasida ham korrupsiyaga qarshi kurashishga oid mexanizmlar amaliyotga joriy etilgan. Xususan, ishga qabul qilishda ta’lim jarayonida olingan baholar (Germaniya) yoki ishga kirish imtihonlaridan a’lo darajada o‘tishga asosiy e’tibor qaratiladi (Janubiy Koreya);- korrupsiya jinoyatini sodir etgan shaxsning ushbu lavozimda qayta ishlashiga cheklov o‘rnatilgan;- ish vaqtidan tashqari ishlash taqiqlanadi;- xususiy kompaniyalarga egalik qilish soni cheklangan;- korrupsiyaviy omillar haqida xabar berish (whistle blowing) va boshqalar. Inson resurslarini boshqarishda mansabni suiiste’mol qilish alomatlariga barham berishda o‘ziga xos tendensiyalarni amalga oshirgan davlatlardan biri AQSH bo‘lib, ushbu davlatda korrupsiyaga qarshi qonunchilik anchayin murosasiz xarakterga ega.AQSHda davlat xizmatchilari orasida korrupsiya profilaktikasini ta’minlash maqsadida, “Ma’muriy axloq” qoidalari ishlab chiqilgan. Unga ko‘ra, davlat xizmatchisi lavozim maoshi summasining 15 foizidan yuqori bo‘lgan haq evaziga tashqi o‘rindoshlik asosida boshqa joyda ishlashi taqiqlanadi. Bu cheklov AQSH senati a’zolaridan tashqari barcha mansabdor shaxslarga taalluqli hisoblanadi.

Buyuk Britaniyada xodimlar va ish beruvchilar o‘rtasida korrupsiyaviy omillar urchishiga yo‘l qo‘ymaslik maqsadida “Davlat xizmati kodeksi” ishlab chiqilgan. Ushbu kodeks normalariga amal qilish barcha davlat xizmatchilari ish faoliyatining asosiy sharti hisoblanib, halollik, haqgo‘ylik, obyektivlik va xolislik tamoyillariga asoslangan. Qoidalarga ko‘ra, barcha vazirlik xodimlari o‘z faoliyatida manfaatlar to‘qnashuviga duch kelganligi yoxud sovg‘a-salom olgan yoki olmaganligidan qat’iy nazar har 6 oyda elektron deklaratsiyani to‘ldirishi lozim. O‘z navbatida deklaratsiya to‘ldirilishi bilanoq tashkilot rahbari avtomatik ravishda xabardor qilinadi va rahbarlar 5 ish kunida deklaratsiya ma’lumotlarini ko‘rib chiqishi hamda tegishli choralarni ko‘rishi joiz.

Ko‘plab davlatlarda bo‘lgani kabi Yaponiyada ham korrupsiyaga qarshi kurashning muhim yo‘nalishi kadrlar siyosati bilan bog‘liq. Yaponiyada kadr

boshqaruvi siyosati meritokratiya (ta’limda erishilgan natijalarga ko‘ra ishga yollash) va xizmatga yo‘naltirilganlik tamoyili asosida qurilgan bo‘lib, o‘z navbatida munosib ish haqi ham kafolatlangan. Bundan tashqari, mamlakatda korrupsiya yoki uyushgan jinoyatchilikda ayblangan shaxslar reyestri yuritilib, faktlar ommaviy axborot vositalari orqali jamoatchilik e’tiboriga havola etilishi shaxslarning o‘z xatti-harakatlarini nazorat qilishiga imkon yaratadi.

Germaniyada mansabdor shaxslar uchinchi shaxslar manfaatini ko‘zlashi natijasida ishdan bo‘shatilganda 5 yilga qadar tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanish taqiqlangan (AQSHda 2 yil). Xitoyda yuqori martabali rahbarlarning farzandlari yoki qarindoshlariga biznes ishi bilan shug‘ullanish, bu sohada agent yoki maslahatchi bo‘lish taqiqlanadi. Xalqaro Transparency International tashkilotining ma’lumotlariga ko‘ra, mazkur davlat korrupsiya darajasi eng past bo‘lgan davlatlar kuchli beshtaligiga kirishga erishgan va hozirgi kunda Finlandiyada yiliga uch yoki to‘rtta poraxo‘rlik bilan bog‘liq jinoyat ishlari ko‘riladi.

E’tiborli tomoni shundaki, Finlandiyada Jinoyat kodeksida “korrupsiya” atamasi mavjud bo‘lmasdan, mansabdor shaxslarning poraxo‘rligi uchun, mazkur qilmishning xavflilik darajasidan kelib chiqib jarima yoxud ozodlikdan mahrum qilish tarzidagi jazo nazarda tutilgan. Shuningdek, Finlandiyada boshqa davlatlardagi kabi na korrupsiyaga qarshi kurash haqida maxsus qonun, na korrupsiyaga qarshi kurashuvchi maxsus organ mavjud. Korrupsiyaga umumiy jinoyatchilikning bir qismi qabilida kurash olib boriladi. Finlandiya Konstitusiyasi, Jinoyat kodeksi, Fuqarolik xizmati to‘g‘risidagi qonun, ma’muriy boshqaruvga oid yo‘riqnomalar va boshqa qonunosti hujjatlar korrupsiyaning oldini olishga qaratilgan hujjatlar hisoblanadi. Bularning orasida eng muhimi Axloq qoidalaridir. Finlandiyada davlat xizmatchilarini korrupsiyalashuvidan saqlovchi muhim omillardan biri – ularning moddiy va ijtimoiy ta’minlanganligidadir.

Mamlakatda korrupsiyani oldini olishga qaratilgan qonun hujjatlarning ijro yuzasidan nazoratni prezident tomonidan tayinlanib, to‘laqonli mustaqil faoliyat olib boradigan Adliya kansleri va parlament vakili Ombudsman amalga oshiradi. Ushbu organga shunchalik katta vakolat berilganki, hattoki butun hokimiyat tarmoqlari faoliyatini nazorat qila oladi.

Alohida ta’kidlash lozimki, Finlandiyada ommaviy axborot vositalari ijtimoiy nazoratning muhim vositasi bo‘lib xizmat qiladi. Hukumat esa, ommaviy axborot vositalariga nafaqat erkinlik yaratib bergan, balki har bir e’lon qilingan korrupsiya holati bo‘yicha aniq choralarni ko‘rib boradi.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, rivojlangan mamlakatlarning aksariyatida inson resurslarini boshqarish jarayonini korrupsiyadan jilovlashda avvalambor yuqori mansabdor shaxslarni korrupsiyadan tiyib turuvchi mexanizmlar yaratilishiga, shaffof ish haqi paketlari taqdim etilishiga, ochiqlik tamoyilining ilgari surilishiga asosiy e’tibor qaratilgan. Zero, har qanday soha faoliyatini rivojlantirilishiga bel bog‘lash dastavval yuqori davlat boshqaruv organlari va uning quyi bo‘g‘inlarini korrupsiyaning tub ildizlaridan xalos etish zaruriyati bilan chambarchas bog‘lab turadi. Shu o‘rinda Yangi O‘zbekistonda yosh avlodni jaxon

tajribasiga tayngan xolda insoniy illatlar ichida eng global ko‘rinishga ega bo‘lgan “korrupsiya” dan jirkanish va nafratlanish hissida tarbiyalash vazifasi bugungi kunda jamiyatning har bir ongli fuqarosini oldida turgan eng dolzarb vazifalardan biri sifatida e’tirof etsh maqsadga muofiq deb o‘ylaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. BMTning Korrupsiyaga qarshi kurashishga oid ma’lumotnomasidan;
2. I.A.Karimov. O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. – T.: O‘zbekiston. 1997-yil;
3. 2017-2021-yillarda O‘zbekistonni yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi. Toshkent, 2017-yil,
4. O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlari to‘plami www.lex.uz.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining qoidalarini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ` 40 «Zamonaviy dunyoda innovatsion tadqiqotlar: Nazariya va amaliyot» nomli ilmiy, masofaviy, onlayn konferensiya to‘plami. 2017-y, 5-son.
6.https://www.google.com/search?q=korrupsiyaga+qarshi+jahon+tajribasi&sca_esv=668e1abf6fdfcd6c

O‘ZBEKISTON YOSHLARINING IJTIMOIY-SIYOSIY FAOLLIGINI OSHIRISHDA MILLIY O‘ZLIKNI ANGLASHNING ROLI.

Yusupov Axrorjon Qurbonovich,
Qo‘qon DPI “Tarix” kafedrasi o‘qituvchisi,
siyosiy fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
axrorjon201911@gmail.com
+99891-156-96-30

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekiston yoshlarining ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirishda milliy o‘zlikni anglash, ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar, vatanparvarlikning roli ochib borilgan.

Kalit so‘zlar: Milliy o‘zlikni anglash, vatanparvarlik, millat, ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati, siyosiy madaniyat, jamiyat hayotini demokratlashtirish, umuminsoniy qadriyatlar, ijtimoiy-siyosiy faollik, milliy mafkura.

Аннотация: В данной статье раскрыта роль национального самосознания, социально-экономических процессов и патриотизма в повышении общественно-политической активности молодежи Узбекистана.

Ключевые слова: национальная идентичность, патриотизм, нация, социально-экономическая сущность, политическая культура, демократизация общества, общечеловеческие ценности, общественно-политическая деятельность, национальная идеология.

Annotation: In this article, the role of national identity awareness, socio-economic processes, and patriotism in increasing the socio-political activity of the youth of Uzbekistan has been revealed.

Key words: national identity, patriotism, nation, socio-economic essence, political culture, democratization of society, universal values, socio-political activity, national ideology.

Aholi siyosiy madaniyatining shakllanishida ijtimoiy hayot darajasi, milliy o‘zlikni anglash va vatanparvarlik, uning institutlari va mafkurasi muhim ahamiyatga ega. Ular jamiyatning moddiy va ma’naviy sohalari rivojlanishining ob’yektiv qonuniyatlari bilan belgilanadi, u yoki bu jarayonni jadallashtirish yoki uni vaqtinchalik susaytirishda muhim rol o‘ynaydi. Ammo ular ijtimoiy rivojlanish va milliy o‘zlikni anglashga surunkali monelik qilishga qodir emas.

Milliy o‘zlikni anglash ijtimoiy rivojlanishning ob’yektiv sharoitlarida shakllanadi va rivojlanadi. Vatanga sadoqat milliy o‘zlikni anglashning shakllanishi va rivojlanishi uchun muayyan zamin yaratadi, u siyosiy madaniyatda o‘z ifodasini topadi. Hududiy birlik millat milliy o‘zligining shakllanishi va rivojlanishi omili sifatida, yana shu bilan ham muhimki, iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotning markazlashuvi aynan muayyan hududda yuz beradi.

Hozirgi davrda o‘zbek xalqi rivojlanishining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati, uning ma’naviy faolligi milliy uyg‘onish yo‘llarini izlash, milliy o‘zlikni anglashni rivojlantirish va takomillashtirishning bosh omiliga aylangan, ular o‘z xalqi tarixini, uning madaniyati va ma’naviyatini chuqur bilish va tushunishga asoslangan taqdirdagina qudratli kuchga aylanadi.[1,77] Milliy o‘zlikni anglash, umuman olganda, o‘zining mazkur xalqqa mansubligini tushunib yetish, uning boshqa xalqlar orasidagi o‘rni va ahamiyati haqida tasavvur hosil qilish demakdir. Respublikada tub ijtimoiy o‘zgarishlar yuz berayotgan davrda milliy mafkura g‘oyasini mustahkamlash o‘zbek xalqining milliy o‘zlikni anglash jarayoni bilan uzviy bog‘liq. Milliy o‘zlikni anglash, siyosiy madaniyatning ma’naviy elementi, yangi iqtisodiy, siyosiy, huquqiy va axloqiy munosabatlarning vujudga kelish omili sifatida, ayniqsa, bo‘rtib namoyon bo‘ladi. Milliy uyg‘onishda inson omili rolining faollashuvi siyosiy madaniyatni nazariy jihatdan teran va har tomonlama anglab yetishni taqozo qiladi.

Shu bilan bir vaqtda, eski tuzumdan qolgan andozalar va ayrim omillar kishilar siyosiy madaniyatida milliy o‘zlikni anglashning mohiyati va namoyon bo‘lish shakllarini o‘rganishga monelik qiladi. Hozirgi vaqtda sobiq sho‘ro davriga xos bo‘lgan mafkuraviy bir yoqlamalik, ijtimoiy ongning torligidan ma’naviy qadriyatlarni yanada kengroq tushunishga, umuminsoniy qadriyatlarni, inson huquqlarining ustunligini tan olishga o‘tish jarayonlari yuz bermoqda. «Milliy o‘zlikni anglash millatlar hamjihatligi, ularning o‘zaro munosabatlarining ijtimoiy ongdagi in’ikosidir»[2,18].

Bunda ijtimoiy ziddiyatlar sirtmog‘iga o‘ralib qolmaslik, milliy o‘zlikni anglashning shakllanishi va rivojlanishiga, olimlarning kayfiyatiga ta’sir ko‘rsatuvchi progressiv va salbiy omillarni ajrata bilish muhim. Hozirgi vaqtda yuz

berayotgan jarayonlarning asl mohiyatini teran anglab yetish oson ish emas. Yaqin o‘tmishda ma’muriy-buyruqbozlik tizimi millatning ma’naviy hayotini o‘z hukmi ostiga oldi. Milliy qadriyatlar kommunistik mafkura asosida yaratilgan yagona andozaga solindi. Har bir inson kabi har bir millat ham o‘zining betakrorligi va o‘ziga xosligi bilan go‘zaldir, degan oddiy haqiqat unutildi. Ayni shu sababli 1985 yilda boshlangan qayta qurishni xalq yo‘qolgan umidlarning qaytishi sifatida baholadi. Bu jarayon odamlarning milliy o‘zlikni anglashi, siyosiy madaniyati misli ko‘rilmagan darajada kuchayishiga olib keldi.

Milliy o‘zlikni anglash, siyosiy madaniyatning o‘sishi – progressiv hodisa, milliy istiqlolning muhim yutug‘i, davlatimizning insonparvarlashuv va demokratiyalashuv yo‘lidagi kelgusi qadamlarini belgilovchi muhim omil. Tabiiyki, milliy o‘zlikni anglashning o‘sishi bilan har bir kishining o‘z negizlariga bo‘lgan qiziqishi ham kuchayib boradi. Ayni shu sababli milliy o‘zlikni anglashning o‘sishi ochiq va oshkora o‘zaro aloqalarni istisno qilmaydi, balki taqozo etadi.

Siyosiy madaniyatning shakllanishida milliy o‘zlikni anglashning rolini talqin qilish sohasida to‘plangan muammolarning murakkabligiga xolisona baho bergan holda quyidagi vazifalarni qayd etish mumkin:

Birinchidan, jamiyat tubdan yangilanayotgan sharoitda milliy o‘zlikni anglashning o‘sishi zarur. Bunga erishish uchun davlat: a) o‘z yaxlitligi va uzviyligini demokratik yo‘llar bilan, ya’ni turli xil, ba’zan qarama-qarshi manfaatlarni e’tibordan soqit etish orqali emas, balki ularni demokratik usulda muvofiqlashtirish orqali ta’minlashi; b) yuz berishi mumkin bo‘lgan konfliktlarni demokratik yo‘llar bilan samarali yechish uchun odamlarning manfaatlarini muvofiqlashtirish davlat-huquqiy mexanizmini yaratishi lozim.

Ikkinchidan, turg‘unlik yillarida to‘plangan ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni boshqaruvni markazlashtirish va sun’iy «jadallashtirish» yo‘li bilan emas, balki har bir odamning manfaatdorligini ta’minlash orqali hal qilish kerak. Bosh vazifalardan biri – kishilarning mustaqilligi uchun yanada kengroq sharoitlar yaratish, ular o‘z ilmiy faoliyatining pirovard natijalarini yaxshilashdan jamiyatning farovonligi asosi sifatida manfaatdor bo‘lishlarini ta’minlash.

Shuni qayd etish lozimki, milliy o‘zlikni anglash va mamlakatning iqtisodiy rivojlanish darajasi o‘sishi sharoitida ma’naviy faoliyatning cheklanishi jamiyat hayotidagi demokratik jarayonlarning faollik darajasi pasayishiga olib keladi. Davlatning umumiy siyosati har bir insonning moddiy va ma’naviy ehtiyojlari qondirilishini ta’minlash zaruriyatidan kelib chiqishi lozim.

Individum darajasida milliy o‘zlikni anglash, milliy o‘ziga xoslik sub’yektiv darajada butun ijtimoiy borliq kabi idrok etiladi. Bu amalda «milliy o‘zlikni anglash shaxs darajasida qon belgisiga ko‘ra» amalga oshirilishini anglatadi[3,117]. Shuni qayd etish lozimki, shaxsning siyosiy madaniyati shaxs darajasida milliy o‘zlikni anglashning tarkibiy elementlaridan biri hisoblanadi. Sivilizatsiyaning yaxlitlik darajasi ortib borayotgan sharoitda «sof» milliy o‘zlikni anglash o‘z-o‘zicha mavjud bo‘lishi mumkin emas. Boshqa jarayonlar kabi shaxsning milliy o‘zlikni anglashi ham mahdudlik sharoitida rivojlana olmaydi, uning milliy o‘zlikni anglashining o‘sishi o‘z madaniy merosini yanada chuqurroq bilish va uni xalq mulkiga

aylantirish uchun o‘z ma’naviy ildizlariga teranroq nazar tashlashga intilishiga imkoniyat yaratadi.

Mazkur jarayonda milliylikning rivojlanishi uchun keng imkoniyatlar yaratish, insonlar o‘z madaniy merosini o‘zlashtirishiga monelik qilmaslik lozimligini e’tiborga olish zarur. Ushbu jarayon millatchilikning bir ko‘rinishi sifatida baholanishiga yo‘l qo‘ymaslik kerak. Turli millatlarning moddiy va ma’naviy qadriyatlarni ayirboshlash erkin va demokratik shakllari doirasini kengaytirish muhim.

Bugungi kunda siyosiy madaniyat va milliy o‘zlikni anglashning rivoji uchun keng imkoniyatlar yaratilgan. Bunda har qanday ijobiy omil faqat salbiy omilning nisbati sifatidagina mavjud bo‘lishini unutmaslik kerak. Milliy o‘zlikni anglash o‘zining betakrorligi va o‘ziga xosligini himoya qilar ekan, agar u millatchilikni ozgina bo‘lsa ham himoya qilsa va unda o‘zining salbiy ziddini ko‘rmasa, amalda rivojlana olmaydi. Yangi milliy tuzilmalarning vujudga kelishi bilan hisoblashishni istamaydigan kuchlar ham, milliy omillarni targ‘ib qiluvchi, boshqa xalqlar bilan iqtisodiy, siyosiy va madaniy aloqalarni uzuvchi kuchlar ham teng darajada xavflidir. Shaxsda milliy o‘zlikni anglash hissining shakllanishi va rivojlanishi ob’yektiv jarayon bo‘lib, u sirtdan ta’sirlarga bo‘ysunmaydi.

Bizning fikrimizcha, siyosiy madaniyat o‘zini o‘zi tartibga soluvchi mexanizm sifatida amal qilishi ikki darajada rivojlanishi mumkin: birinchisi – milliy birlikning o‘zgarayotgan vaziyatga moslashuvini nazarda tutuvchi moslashish darajasi; ikkinchisi – milliy tuzilmalar faoliyatining u yoki bu jihatlari faol tus olishidan iborat bo‘lgan moslashish darajasi.

Har bir millatning kelajagi xalqning siyosiy madaniyati mamlakatning qaysi yo‘ldan rivojlanishiga ko‘p jihatdan bog‘liq. Agar uning o‘sishi amalda milliy egoizmga olib kelsa, eski milliy siyosat andozalari va tamoyillariga qarshi tabiiy kurash izolyasionizmga sabab bo‘lsa, «o‘zlikni anglashning optimistik salohiyati ro‘yobga chiqishi mumkin emas». [4,104] Chunki bu jarayonda milliy mentalitet masalasi alohida ahamiyat kasb etadi.

So‘nggi yillarda e’lon qilingan ishlarda mazkur yondashuvning metodologik asosi sifatida A.Kardiner taklif qilgan milliy fe’l-atvorni shaxsning tayanch strukturasi bilan ayniylashtirish konsepsiyasi yoki uning takomillashtirilgan ko‘rinishlaridan (masalan, A.Inkels va D.Levinson tomonidan ishlab chiqilgan modal shaxs nazariyasidan) foydalaniladi[5]. Shu nuqtai nazardan, milliy fe’l-atvor asrlar osha saqlanib, avloddan-avlodga o‘tib kelayotgan shaxsiy xususiyatlarning jamiyatda ustun ahamiyat kasb etgan konfiguratsiyalari (shaxs tiplari)dir. Milliy fe’l-atvorni o‘rganish mazmun jihatidan inson populyasiyalarining etnoslari va etnik guruhlarida rang-barang shaxsiy xususiyatlar tarqalish darajasining tahlili bilan mos keladi. Ammo bunda milliy fe’l-atvorni o‘rganish oldindan belgilangan dalil sifatida emas, balki imkoniyat sifatida qaraladi: ayrim hollarda empirik tadqiqotlar mazkur milliy-etnik birlik vakillarining tafakkuri, dunyo haqidagi tasavvurlari, emosional reaksiyalari va xulq-atvorida bo‘rtib namoyon bo‘luvchi milliy-etnik xususiyatlarni chindan ham aniqlaydi, lekin bunday xususiyatlar aniqlanmagan hollar ham uchraydi.

Milliy mentalitet xususiyatlarini aniqlash vazifasi «o‘zgalarga»gina taalluqli deb o‘ylash yaramaydi. O‘z xalqining psixologiyasi bilan ham hisoblashish lozim. Shu narsa diqqatga sazovorki, rivojlanishda ulkan yutuqlarga erishgan mamlakatlarning deyarli barchasida o‘zlikni anglashga yordam beradigan tadqiqotlarga juda katta e’tibor qaratiladi, bu mavzuga bag‘ishlangan ilmiy, ilmiy-ommabop va publisistik adabiyotlar ko‘plab e’lon qilinadi.

Tajriba milliy omillarni tushunmaslik, ularni e’tiborga olmaslik yoki ularga loqaydlik, milliy hayotning barcha sohalarini yangilash asoslari haqidagi dogmatik fikrlash uslubi, ushbu jarayonda mavjud ziddiyatlarga e’tiborsizlik, milliy va vatanparvarlik asoslarining rivojlanishi yo‘lida sun’iy to‘siqlar yaratish milliy rivojlanish uchungina emas, balki umuminsoniy qadriyatlar taraqqiyoti uchun ham zararli oqibatlarga olib kelishi mumkin.

Siyosiy madaniyat, milliy o‘zlikni anglash, vatanparvarlik va umuminsoniy qadriyatlar yaxlit hodisa – inson ma’naviy dunyosining muhim omillari. Tahlil bu yerda o‘rganilmagan jihatlar hali bisyor ekanligini ko‘rsatadi. Siyosiy madaniyat, milliy o‘zlikni anglash va vatanparvarlikning rivojlanishi bilan bog‘liq real vaziyatdan kelib chiqib: a) milliy rivojlanish jarayonining demokratiyalashuvi uchun zarur sharoitlar yaratish, siyosiy madaniyat, milliy o‘zlikni anglash va vatanparvarlik sohasidan barcha «og‘riqlar» chiqib ketishiga to‘sqinlik qilmaslik; b) moddiy va ma’naviy qadriyatlarni o‘zaro ayirboshlash, ma’naviy qadriyatlarni targ‘ib qilish shakllari va usullari doirasining kengayishi uchun zamin yaratish muhim.

Jamiyatning, ijtimoiy tizim boshqa sub’yektlarining ongi tashkillashtirilgan va iyerarxiyaviy tuzilishga ega. Ijtimoiy o‘zlikni anglashni tashkillashtirish asoslaridan biri uning elementlarining shaxs faoliyatiga bo‘lgan munosabatidir. Masalan, shaxsning faoliyatiga, uning tafakkur uslubiga nisbatan milliy o‘zlikni anglash va vatanparvarlik turli darajada o‘rin oladi, ijtimoiy guruh sifatidagi shaxslarning milliy o‘zlikni anglashi va faoliyati bir-biri bilan bilvosita bog‘lanadi. Milliy o‘zlikni anglashning u yoki bu elementlari shaxs, umuman, ijtimoiy organizm hayot faoliyatining mavjud sharoitlariga muvofiq, borliqning amaldagi qadriyatlariga qayta baho berish asosida etno-milliy birlik hayot faoliyatining yangi maqsad yoki ideallarini shakllantirish asoslaridan biri bo‘lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar ro‘yxati.

1. Каримов И.А. Биздан озод ва обод Ватан қолсин. Т. 2. – Т.: Ўзбекистон, 1996. – Б.77.

2.Ачилдиев А.С. Диалектика национального самосознания и национальной культуры. – Т.: 1997. 18-б.

3. Закиров Ш.М. Национальная независимость и национальное самосознание // Мустақил Ўзбекистон фалсафа фанининг долзарб муаммолари. – Т.: Фан, 1998. – Б.117.

4. Абилов У. Оптимизм и возрастание национального самосознания узбекского народа // Мустақил Ўзбекистон фалсафа фанининг долзарб муаммолари. – Т.: Фан, 1997. – 104-б.

5. Kardiner A. The concept of basic personality structure as an operational tool in the social sciences // The science of man in the world crisis. N.Y., 1967.

O‘ZBEKISTONNING MUSTAQILLIK YILLARIDA IJTIMOIY-IQTISODIY HAYOTI VA YOSHLARGA E’TIBOR

Yusupov Axrorjon Qurbonovich,
Qo‘qon DPI “Tarix” kafedrasi o‘qituvchisi,
siyosiy fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
axrorjon201911@gmail.com
+99891-156-96-30

Annotatsiya: Mazkur maqolada O‘zbekistonning mustaqillik yillarida iqtisodiy isloxotlari va yoshlarga e’tibori bayon qilingan.

Kalit so‘zlar: Yoshlar, iqtisodiy, sanoat zonasi,Harakatlar strategiyasi,ijtimoiy.

Аннотация: В данной статье описаны экономические реформы Узбекистана в годы независимости и внимание к молодежи.

Ключевые слова: Молодежь, экономическая, промышленная зона, стратегия действий, социальная.

Abstract: This article describes the economic reforms of Uzbekistan in the years of independence and attention to youth.

Key words: Youth, economic, industrial zone, action strategy, social.

Mamlakatimiz o‘z mustaqil taraqqiyot yo‘lining o‘ttiz ikki yilini bosib o‘tishga ulgurdi.Mustaqillikning dastlabki yillarida albatta yurtimiz iqtisodiy qiyinchiliklarni boshdan kechirdi. 1991-yilning oxiri va 1992-yilning boshida respublikamiz iqtisodiyoti juda og‘ir ahvolga bo‘lib, O‘zbekistonni bunday iqtisodiy tanglikdan taraqqiyot yo‘liga chiqarish uchun mamlakat iqtisodiy tizimini yangilash, eski mustabid-rejali iqtisoddan yangi bozor iqtisodiga o‘tish taqozo etilardi. Sobiq ittifoqdosh respublikalar orasida faqat O‘zbekistonda 1996-yildan boshlab izchil iqtisodiy o‘sish sur'atlari ta’minlandi. Agar 1996-2003-yillarda o‘rtacha o‘sish sur’ati 4,3 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 2004-yildan boshlab bu jarayon yangi bosqichga ko‘tarilib, yuqori darajada yiliga o‘rtacha 7,5-9 foiz o‘sishni tashkil etdi.[1,97]. 2017-yil 7-fevralda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasining uchinchi ustivor yo‘nalishi “Iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor yo‘nalishlari” deb belgilanib, 2017-2021-yillarda quyidagi yo‘nalishlarda faol islohotlar amalga oshirildi:

- Makroiqtisodiy barqarorlikni yanada mustahkamlash va yuqori iqtisodiy o‘sish suratlarini saqlab qolish;

- Tarkibiy o‘zgartirishlami chuqurlashtirish, milliy iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini modemizatsiya va diversifikatsiya qilish hisobiga uning raqobatbardoshligini oshirish;

- qishloq xo‘jaligini modernizatsiya qilish va jadal rivojlantirish;

- Iqtisodiyotda davlat ishtirokini kamaytirish, xususiy mulk huquqini himoya qilish va uning ustuvor mavqeini yanada kuchaytirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojim rag‘batlantirishga qaratilgan institusional va tarkibiy islohotlini davom ettirish;

- Viloyat, tuman va shaharlarni kompleks va mutanosib ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, ulaming mavjud salohiyatidan samarali va optimal foydalanish.[2] Harakatlar strategiyasiga muvofiq valyuta bozorini liberallashtinsh bo‘yicha aniq maqsadga yo‘naltirilgan kompleks chora tadbarlar amalga oshirilib, 2017-yil 5-sentabrda milliy valyuta - so‘mning erkin konvertizatsiyasiga ruxsat berildi. Tadbirkorlik faoliyati subyektlanni rejadan tashqari tekshirish bekor qilinib, ularga davlat xizmatlanni ko‘rsatish tartibi soddalashtirildi. Prezident huzurida tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo‘yicha vakil instituti (Ombudsman) ta’sis etildi.

2017-yilda mamlakatimizda 12 ta erkin iqtisodiy va 45 ta sanoat zonasining faoliyati yo‘lga qo‘yildi. Shular hisobidan 336 mingdan ziyod yangi ish o‘rinlari tashkil etildi. Mazkur yilda 2,5 trln. so‘m investitsiya o‘zlashtirildi, 510 mlrd. so‘mlik 1021 ta investitsiya loyihalan amalga oshirildi.

2021-yil holatiga ko‘ra mamlakatimizda 23 ta erkin iqtisodiy va 348 ta kichik sanoat zonasi faoliyat yurita boshladi. Erkin iqtisodiy zonalarda umumiy qiymati 2,6 mlrd. dollarlik 453 ta loyiha amalga oshinlib, 36 mingga yaqin ish o‘rni yaratildi.Kichik sanoat zonalarida esa 5 trillion so‘mlik 1 ming 497 ta loyiha ishga tushirilib, 36 mingdan ziyod kishining bandligi ta’minlandi. 2018-yilda mamlakatimizning yalpi ichki maxsuloti o‘sishi 5,4 % (406,6 trln.so‘m)ni tashkil etgan bo‘lsa, 2019-yilda bu ko‘rsatkich mos ravishda 5,6 % (511,8 trln. so‘m)ni tashkil etdi. 2019-yilda O‘zbekiston iqtisodiyotiga jalb qilingan xorijiy investitsiyalar 4,2 mlrd. dollami tashkil etib, 2018-yilga nisbatan 3,1 mlrd. dollarga yoki 3,7 barobar o‘sdi. Investitsiyalaming yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 37 foizga yetdi. Sanoatning 12 ta yetakchi tarmog‘ida modernizatsiyalash va raqobatdoshlikni kuchaytirish dasturlari jadal amalga oshirila boshlandi. Natijada 2019-yilda sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi 6,6 foizga, eksport 28 foizga ko‘paydi. Oltin-valyuta zaxiralarimiz 2019-yil davomida 2,2 mlrd. dollarga ortib, 28,6 mlrd. dollarga yetdi. Iqtisodiyotdagi tizimli o‘zgarishlar natijasida yalpi ichki mahsulot tarkibida sanoatning ulushi 2018-yilda 35 foizni tashkil etgan bo‘lsa 2019-yilda bu ko‘rsatkich 37 foizga oshirildi.

Milliy iqtisodiyotning rivojiga jiddiy turtki beradigan sohalarni rivojlantirish maqsadida 2019-yilda zargarlik sohasini rivojlantirish, Atom energetikasini rivojlantirish, Kimyo sanoatini yanada isloh qilish, sanoat kooperatsiyasini yanada rivojlantirish va talab yuqori bo‘lgan maxsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish, elektrotexnika sanoatini rivojlaantirish hamda eksport salohiyatini oshirish bo‘yicha

bir qator Prezident qaror va farmonlari qabul qilindi. Davlat statistika qo‘mitasi uy xo‘jaliklari tanlama kuzatuvlan ma'lumotlariga ko‘ra 2019-yilda o‘rtacha har 100 ta uy xo‘jaligiga 47 ta yengil avtomobil to‘g‘ri kelgan. Shuningdek, 100 ta uy xo‘jaligiga to‘g‘ri keladigan televizorlar soni 160 ta, kompyuterlar soni esa 55 tani tashkil etgan. 100 ta uy xo‘jaligidagi aholiga 282 ta telefon apparati to‘g‘ri kelgan.[3,98].

2020 yilda O‘zbekiston real YAIM hajmi 1991 yilga nisbatan 3,4 baravarga ko‘paydi, aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan YAIM ko‘rsatkichi 2,9 foizga oshdi. Mamlakat eksporti tarkibida paxta xomashyosi ulushi keskin qisqarib, oltin yetakchi eksport mahsulotiga aylandi.[4].

O‘tgan o‘ttiz ikki yil mohiyatan yurtimiz tarixida o‘ta mas’uliyatli va sharafli davrni tashkil etdi. Shu davr mobaynida har birimizning hayotimizda, mamlakat taqdirida muhim va keskin o‘zgarishlar yuz berdi, turmush tarzimiz o‘zgarib, o‘zligimizni anglay boshladik. Otgan davr mobaynida davlat va jamiyat qurilishida, huquqiy-siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy sohalarda, eng muhimi axolimizning ongu-shuurida tom ma’noda yangicha qarash va yangicha fikrlash tuyg‘usi shakllanib, taraqqiyotimiz yangi bosqichga chiqishiga erishdik.

Mustaqillik yillarida yoshlarga e’tibor qaratilmoqda, jumladan yurtimizda 2008-yilni Yoshlar yili, 2021-yil — Yoshlarni qo‘llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili, 2024-yil — “Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili” deb nomlanishi ularga yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Xususan O‘zbekiston Respublikasining 2016-yil 14-sentabrdagi O‘RQ-361-sonli “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi qonunning 18-moddasida Davlatning yoshlar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlashi deb nomlanib, Davlat yoshlarning iqtisodiy mustaqilligini, xalq hunarmandchiligi va hunarmandchilik kasb-kori bilan shug‘ullanishi, yoshlar korxonalari faoliyatini qo‘llab-quvvatlaydi va rivojlantiradi[5] deyilgandi va albatta mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonida avval-boshdan yoshlarga alohida e’tibor qaratildi. Barcha o‘zgarishlar va yangilanishlarning markaziga inson va uning manfaatlari qo‘yildi. Bugungi kunda ham o‘zgarishlar jarayonining mohiyatida islohot – islohot uchun emas, avvalo inson uchun, uning farovon hayoti uchun, degan tamoyil mujassamdir. Shunday ekan, fuqarolik jamiyati qurishdan ko‘zlangan maqsad yurtimizda istiqomat qiladigan barcha insonlar uchun munosib hayot sharoiti yaratib berish, rivojlangan demokratik mamlakatlar kabi kafolatlangan yuksak turmush darajasi hamda erkinliklarni ta’minlashdan iborat. Mazkur ezgu maqsadni amalga oshirish uchun birlamchi ahamiyat kasb etgan, ya’ni ijtimoiy bozor iqtisodiyotini yaratishga yo‘naltirilgan iqtisodiy islohotlarga e’tibor qaratildi. Iqtisodiy islohotlar esa o‘z o‘rnida jamiyatimizning siyosiy, ijtimoiy, ma’naviy hamda davlat qurilishi sohalaridagi tub islohotlar bilan chambarchas, uzviy bog‘liqlikda amalga oshirib kelinmoqda. Yurtimizdagi bugungi tinch va osoyishta, bunyodkor hayot, barqaror taraqqiyot bunday yondoshuvning naqadar to‘g‘ri bo‘lganini va uzoqni ko‘zlaganini tasdiqlab bermoqda. Mas’uliyatli paytlarda, keskin ijtimoiy larzalarga olib keladigan har qanday inqilobiy harakatlarga qarshi, tadrijiy rivojlanish tamoyillariga asoslangan o‘z yo‘limiz bor va bu yo‘ldan hech qachon qaytmaymiz, deb aytilgan

qat’iy so‘z va mustahkam siyosat bugun ham izchil amalga oshirilmoqda. O‘zbekiston mustaqil taraqqiyot va istiqlol yo‘lida, yangi jamiyat, erkin va farovon hayot qurish yo‘lida ko‘p tajribaga ega bo‘layotgan ekan, hech shubhasiz o‘zbek xalqi uchun muqaddas va aziz bo‘lmish O‘zbekiston zaminida yashayotgan va mehnat qilayotgan insonlar uchun muhim bir haqiqat tobora aniq va ravshan bo‘lib bormoqda. Bu O‘zbekistonning yer yuzida baquvvat asoslarga ega bo‘lgan zabardast davlat bo‘la olishiga mustahkam ishonchdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati.

1. Matyakubov X.X. O‘zbekistonning eng yangi tarixi (o‘quv qollanma) Nizomiy nomidagi TDPU Toshkent-2021
2. https://lex.uz/acts/-3107036
3. Matyakubov X.X. O‘zbekistonning eng yangi tarixi (o‘quv qollanma) Nizomiy nomidagi TDPU Toshkent-2021
4. https://www.gazeta.uz/oz/2021/12/10/uzbekistan/
5. https://lex.uz/acts/-140894

JAMIYATIMIZDA GLOBALLASHUVNING YOSHLAR IJTIMOIY-SIYOSIY FAOLLIGINI OSHIRISHGA TA’SIRI

Yusupov Axrorjon Qurbonovich,
Qo‘qon DPI “Tarix” kafedrasi o‘qituvchisi, PhD
axrorjon201911@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada yoshlar siyosiy faolligini oshirishning huquqiy demokratik davlat qurilishidagi roli va o‘rni, ularning siyosiy jarayonlarda faolligini oshirish ochib borilgan.

Kalit so‘zlar: Siyosiy jarayon, siyosiy institutlar, ijtimoiy-siyosiy, siyosiy partiyalar, siyosiy madaniyat, Inson manfaatlari, jamiyat hayotini demokratlashtirish, erkin saylash, ijtimoiy-siyosiy faollik, jamoatchilik fikri.

Аннотация. В данной статье раскрываются роль и место повышения политической активности молодежи в построении правового демократического государства, повышения ее активности в политических процессах.

Ключевые слова: Политический процесс, политические институты, общественно-политическая деятельность, политические партии, политическая культура, интересы человека, демократизация общественной жизни, свободные выборы, общественно-политическая деятельность, общественное мнение.

Annotation. In this article, the role and place of increasing the political activity of young people in the construction of a legal democratic state, and increasing their activity in political processes are revealed.

Key words: Political process, political institutions, socio-political, political parties, political culture, Human interests, democratization of public life, free elections, socio-political activity, public opinion.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgach, asosiy vazifa insonparvar, huquqiy-demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini qurishdan iborat bo‘ldi. Yurtimizda amalga oshirilayotgan barcha islohotlar inson uchun, uning kelajagi uchun degan ezgu tamoyilni to‘liq amalga oshirish biz uchun doim eng muhim ustuvor vazifa bo‘lib kelgan va bundan keyin ham shunday bo‘lib qoladi. Shuningdek, bugungi kunda jamiyat hayotida amalga oshirilayotgan har bir islohot, albatta, har bir fuqarodan ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy faollikni talab etadi.

Jamiyatimizda globallashuvning ta’siri natijasida odamlarda ijtimoiy-siyosiy faollik yuksalib bormoqda, barcha sohalar va yo‘nalishlarda modernizatsion islohotlar amalga oshirilmoqda. Ulardan ko‘zlangan maqsad – "Inson manfaatlari hamma narsadan ustun" degan oddiy va aniq-ravshan tamoyilni amalga oshirish ustuvor ahamiyatga ega bo‘lgan demokratik davlat va adolatli jamiyat barpo etishdan iborat[1].

Jamiyat siyosiy hayoti har xil siyosiy institutlar, siyosiy jarayonlar bilan bog‘liq hamda u o‘ziga xos ma’no va mazmunga ega. Siyosiy institutlar bu davlat, parlament, hukumat, siyosiy partiyalar, siyosiy muassasalar, lobbizm faoliyatiga oid bo‘lgan tuzilmaviy tizimlardir.

Siyosiy jarayonlar siyosiy institutlar, ijtimoiy guruhlar, tashkilotlar, individlar munosabati sifatida namoyon bo‘ladi va siyosiy faoliyatning murakkab, ko‘p subyektli va ko‘p qirrali ekanligini ko‘rsatadi. Siyosiy jarayonlar tushunchasi hokimiyatga intiluvchi yoki siyosiy qarorlarga ta’sir o‘tkazishni istayotgan subyektlar, elitalar, manfaat guruhlari, partiyalar, ommaviy axborot vositalari, shuningdek, ixtilofli manfaatlar, mafkuralar, maqsadlar, qadriyatlar, ularni kelishtirish usullari bilan ham bog‘liq[2,52].

«Siyosiy jarayon» tushunchasi – biror yo‘nalishga ega harakat, holatlarning izchil almashinishi, biror natijaga erishishiga qaratilgan faoliyatlar birligini anglatadi. Shu bilan birga siyosiy jarayon tushunchasi o‘z navbatida siyosiy holatlar va hodisalarning ichki bog‘liqlikka ega zanjir, siyosat subyektlarining hokimiyatga qaratilgan harakatlari o‘zaro munosabatlari birligidir.

Siyosiy jarayonlar deb, jamiyatning siyosiy hayotida turli xildagi voqea-hodisalarning ro‘y berib turishi, ularning obyektiv qonuniyatlar harakati asosida davom etishi va shu asosda jamiyatning siyosiy jihatdan rivojlanib borishiga aytiladi.

O‘zbekistondagi siyosiy jarayonlar davlatning islohotchilik roli va faol siyosat olib borishi bilan xarakterlanadi. Bu – bizning davlatchilik an’analarimiz bilan belgilanadi. O‘rta Osiyoda «hokimiyat – jamiyat» munosabatlarida doimo davlat asosiy rol o‘ynagan. Bugun «fuqaro – jamiyat – davlat» tizimi qaror topmoqda.

O‘zbekistondagi siyosiy jarayonlar ishtirokchilarining ko‘pchiligini asosan davlat institutlari tashkil etadi. Bu yana fuqarolik jamiyatining u qadar

rivojlanmaganligi bilan bog‘liq. Ayni vaqtda siyosiy jarayonlar ishtirokchilari (subyektlar) sonining ortishiga qaratilgan harakatlar kuchaymoqda.

Siyosiy jarayonlarda ishtirok etuvchi subyektlar siyosiy jarayon ishtirokchisi deyiladi.

Siyosiy ishtirok ijtimoiy-siyosiy jamoa a’zolarining ichki siyosiy munosabatlar va hokimiyat tarkibiga jalb etilganligini (muayyan bosqichda esa xalqaro hamjamiyat munosabatlariga ham) bildiradi. U demokratik konseptsiyalarda, siyosiy modernizatsiya va siyosiy rivojlanish, siyosiy madaniyat, siyosiy partiyalar faoliyatida asosiy tushunchalardan biri sifatida qo‘llaniladi.

Siyosiy ishtirok subyektlariga fuqarolar, ijtimoiy guruhlar va qatlamlar, siyosiy va jamoatchilik institutlari kiradi.

Ko‘lami jihatidan siyosiy ishtirok: mahalliy, mintaqaviy, umumdavlat va xalqaro siyosat darajasida amalga oshiriladi.

Siyosiy ishtirok to‘g‘ridan-to‘g‘ri (bevosita) va bilvosita amalga oshirilishi mumkin, shuningdek, umumiy va cheklangan; ixtiyoriy va majburiy; an’anaviy, faol va passiv, legitim va nolegitim, qonuniy va qonunga xilof bo‘lishi mumkin.[3,73]

Siyosiy ishtirok shakllari ham turlicha. Ularga:

– axborot qabul qilish va uzatish;

– siyosat va davlat arboblari hamda tashkilotlari bilan muloqot;

– saylov va boshqa siyosiy kampaniyalarda ishtirok;

– namoyishlarda, siyosiy ish tashlashlarda, ommaviy norozilik harakatlarida, ozodlik urushlarida;

– boshqaruv va o‘z-o‘zini boshqaruvda,

– qonunlar yaratish, ularni himoya qilish va ularga amal qilishda;

– siyosiy partiyalar va ijtimoiy-siyosiy xarakatlar faoliyatidagi ishtirok kiradi[4,283].

Siyosiy ishtirok uchun eng qulay sharoitni demokratik va huquqiy davlatlar yaratadi. Siyosiy jarayonlarda ishtirok etish siyosiy faoliyat deyiladi.

Siyosiy faoliyat – bu muayyan jamoaning jamoaviy manfaatlarini shakllantirish va amalga oshirishdan iborat bo‘lgan subyektlarning faoliyati. Bunday maxsus manfaatlarni ifodalovchi muhim materiallar va intellektual resurslarga ega bo‘lgan guruhlar – elita guruhlar hisoblanadi. Ijtimoiy elitalar siyosiy aloqalarni o‘rnatishning o‘ziga xos usuliga ega va bu maqsadga erishishga faol intilishadi.

Ijtimoiy faollik shaxs faoliyatining muhim tomonlaridan biridir. U shaxsning jamiyat va jamoa ishlaridagi ishtirokida namoyon bo‘ladi va ma’lum darajada siyosiy va ahloqiy o‘zlikni anglashga asoslanadi.

Ijtimoiy faollikni tarbiyalash – bu nafaqat jamoat ishlarida ishtirok etish darajasining oshishi, balki yoshlarning axloqiy yo‘nalganligini aniqlovchi motivlarning shakllanishi hamdir.

Siyosatchi – bu aniq siyosiy kuchni o‘zida aks ettiruvchi va ushbu siyosiy kuchning jamoaviy manfaatlarini amalga oshirish uchun faol bo‘lgan shaxs. Holbuki, ana shunday jamoaviy kuchlardan biri, qoida tariqasida, hokimiyatda turadi va uning dasturini amalga oshiradi. Boshqa jamoaviy guruhlarning maqsadlari to‘liq yoki qisman bir-biriga mos kelsa, yoki qonuniy va noqonuniy muxolifatda

bo‘lganida, ular bilan hamkorlik qiladi. Ushbu turli xil siyosiy kuchlar ichida ijodiy tashabbuskor rahbarlar siyosiy faoliyat bilan shug‘ullanadi, qolgan fuqarolar esa siyosiy ishtirok etadilar. Ular o‘rtasidagi hamkorlik mavjud siyosiy munosabatlar tizimining barqarorligini ta’minlaydi. Albatta, dastlabki tashabbus faol fuqarodan chiqishi va o‘zi bilan boshqa fuqarolarni ham siyosiy ergashtira bilishi lozim. Buning uchun faol fuqaroga birinchi navbatda ijtimoiy-siyosiy motivatsiya bo‘lishi lozim.

Mamlakatimiz hozirgi demokratik rivojining asosiy yo‘li – siyosiy jarayonlardagi tashabbus, faollik, ijodkorlik va sog‘lom raqobatni rag‘batlantirish hamda uning huquqiy asoslarini takomillashtirishdan iborat. Bugungi kunda fuqarolarning turmushimizda sodir bo‘layotgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda faol ishtirok etishini rag‘batlantirish yo‘li bilan o‘rtaga qo‘yilgan maqsadga erishish ayni muddaodir.

Shuning uchun ham, siyosiy jarayonlarda fuqarolarning siyosiy faolligi bu jamiyatda demokratiyaning yanada kuchayishiga olib keladi. Jamiyat hayotining demokratlashuvi fuqarolardan fuqaroviy, ijtimoiy-siyosiy faollikni talab qiladi.

Fuqaroviy faollikni faollik nuqtai nazaridan shartli ravishda darajalarga ham ajratish mumkin. Fuqaro mas’uliyatli, ongli va vijdonli bo‘lsa, u dastlabki pog‘onada, ya’ni fuqaroviy xususiyatlarga ega bo‘lgan shaxslar qatoriga kiritish mumkin. Agar fuqaroda atrofda bo‘layotgan voqea-hodisalarga nisbatan ma’lum bir munosabati shakllangan bo‘lsa, uni fuqaroviy pozitsiyasiga ega bo‘lgan shaxs sifatida e’tirof etish mumkin. Agar fuqaroda o‘z haq-huquqlari hamda burchi uchun amaliy harakatni bajarish ko‘nikmasi mavjud bo‘lsa, uni faol fuqaro sirasiga kiritish mumkin.

Aynan ana shu so‘nggi pog‘onaning o‘zi bir necha jihatlar bilan ajralib turadi. Faol fuqaro guruhiga mansub kishilar siyosiy va iqtisodiy tizim to‘g‘risida bilim olishga tayyor bo‘lgan kishilardan iborat bo‘ladi. Bundan tashqari ularda o‘z haq-huquqlarini faol amalga oshirish uchun bilim va qobiliyat hamda ana shu bilimlarni joriy qilish uchun ko‘nikmalar mavjud bo‘ladi[5,86].

Fuqaroviy faollikni ijtimoiy-siyosiy va mehnat faoliyatiga ijodiy yondashuv sifatida baholash mumkin. Aynan insonning fuqaroviy faolligi shaxsning to‘laqonli rivojlanishiga, undagi imkoniyatlarning to‘liq namoyon bo‘lishiga xizmat qiladi. Fuqarolik pozitsiyasi hamda fuqaroviy faollikka ega bo‘lish jamiyatda ro‘y berayotgan barcha voqea-hodisalarni, ularning oqibatlari va mavjud muammolarning yechimini chuqur anglashni taqozo etadi. Ijtimoiy faollik tushunchasi fuqarolik jamiyati tushunchasi bilan chambarchas bog‘liqdir. Bu partiyalarga a’zolikni nazarda tutuvchi siyosiy faollik, nodavlat notijorat tashkilotlar faoliyatida ishtirok etish, turli ijtimoiy tashabbuslar va ijtimoiy harakatlarni anglatadi. Shu ma’noda jamiyat uchun foydali bo‘lgan turli dasturlar va jamoat birlashmalarida ishtirok etish ham fuqaroviy faollikka kiradi [6,90].

Siyosiy faollik to‘g‘risida huquqshunoslar tomonidan ta’rif berganda, siyosiy faollik bu ijtimoiy-siyosiy ko‘rsatkichlardan biri bo‘lib, saylovchilarning siyosiy jarayonlarga ishtirok etish darajalari va shakllaridir, deyiladi [7].

Psixologiya sohasida siyosiy faollik; bu fuqarolarning hokimiyat bilan munosabatlarda ishtirok etish usullarini anglatadi [8].

Siyosatshunoslikda esa, siyosiy faollikni shaxs va ijtimoiy guruhlarning o‘z siyosiy mavqeyini yoki siyosiy atrof-muhitini o‘zgartirishga qaratilgan harakatlardir, deyiladi. Siyosiy faollik tushunchasi amaliy va aqliy tarkibiy qismlarni o‘zida birlashtiradi, amaliy jihatdan siyosiy munosabatlarni o‘zgartirishga qaratilgan bo‘lsa, aqliy jihatdan siyosiy bilim va tajribalarni to‘plash, o‘zaro shaxs yoki guruhlararo ma’lumot almashish masalalaridan iboratdir. Siyosiy faollik siyosiy faoliyatdagi o‘zaro munosabatlarda, siyosiy jarayonlardagi o‘zgarishlarda namoyon bo‘ladi. Shaxsiy munosabatda shaxsning manfaati va qadriyatlariga ta’sir ko‘rsatadigan turmush tarzini o‘zgartirish bilan bog‘liq siyosiy jarayonlardagi faol ishtiroki tushuniladi [9].

Qator ilmiy adabiyotlar ijtimoiy-siyosiy faollik tushunchasiga turli nuqtayi nazardan ta’riflar berilgan. Ularni umumlashtirgan holda bu tushunchaga quyidagicha ta’rif berish mumkin. Ijtimoiy-siyosiy faollik bu – jamiyat siyosiy hayotidagi muhim masalalarda umumjamoaviy maqsadlarga erishish uchun fuqarolar harakatlarining umumlashma ko‘rinishidir. Ijtimoiy-siyosiy faollikning yana bir ko‘rinishi sifatida umumjamoaviy maqsadlardan tashqari ijtimoiy guruhlar yoki tabaqaviy maqsadlarga erishishda ham namoyon bo‘ladi.

Ijtimoiy-siyosiy faollik – jamiyat siyosiy hayotidagi muhim masalalarda jamoaviy maqsadlarga erishish uchun fuqarolar harakatlarining umumiyligidir. Ijtimoiy faollikning funksional-tarkibiy tahlilida, jamoaviy maqsadlardan tashqari ijtimoiy guruhlar sinfiy maqsadlariga erishishda ham namoyon bo‘ladi.

Faollikning eng oddiy shakli bu siyosatga qiziqishdir. Bundan faolroq shakli bu mitinglarda ishtirok etish, nutq so‘zlash, siyosiy partiyalar faoliyatida faol ishtirok etish, siyosiy-ijtimoiy markazlarning faol a’zosi bo‘lish, turli ijtimoiy loyihalarda qatnashish, turli ommaviy harakatlarda ishtirok etish, saylovlarda muntazam ovoz berishdir. Bugungi globallashuv jarayonida internet tizimida ijtimoiy tarmoqlarning rivojlanishi yuqoridagi faoliyatlarni bevosita to‘g‘ridan-to‘g‘ri onlayn amalga oshirish imkonini beradiki, bu ham yoshlarning yanada faollashishiga turtki bo‘ladigan “onlayn faollik” jumlasini keltirib chiqaradi. Onlayn siyosiy faollik bu – faol yoshlarning turli ijtimoiy tarmoqlardan foydalanib ommaviy murojaat qilishda qatnashish, saylovlarda onlayn qatnashish, siyosiy jarayonlarni turli tarmoqlarda do‘stlar bilan muhokama qilish, turli davlat ahamiyatiga molik dasturlar va boshqa masalalarda faol ishtirok etish va o‘z xohish, istaklarini namoyon qilishidir.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиевнинг 2017 йилнинг 19 сентябрида Бирлашган Миллатлар Ташкилоти Бош Ассамблеясининг 72-сессиясидаги нутқи. -http://uza.uz-ЎзА-Ўзбекистон Миллий ахборот агентлиги. 20.09.2017

2. Политология. Ўқув қўлланма. (муаллифлар жамоаси) Х.Қосимова 2-бўлим.3-мавзу. А.Қодирий номидаги халқ меъроси нашрити. "ЎАЖБНТ" маркази. Т. 2002. - 52 бет.
3. Жўраев Н. “Тарих фалсафасининг назарий асослари” Тошкент: 2008. 73-б.
4. Политология. Ўқув қўлланма. (муаллифлар жамоаси) Х.Қосимова 2-бўлим. 3-мавзу. А.Қодирий номидаги халқ меъроси нашрити. "ЎАЖБНТ" маркази. -Т.: 2002. - 283 бет.
5. Жалилов А., Муҳаммадиев У., Жўраев Қ. ва бошқ. Фуқаролик жамияти асослари: ўқув қўлланма – Тошкент, 2015, 86-бет
6. Фуқаролик жамияти асослари: ўқув қўлланма/ А. Жалилов, У. Муҳаммадиев, Қ. Жўраев ва бошқ. — Тошкент, 2015, 264-б. 90-бет
7. https://yuridicheskaya_encyclopediya.academic.ru/
8. https://political_psychology.academic.ru/
9. Политология. Словарь. -М: РГУ. В.Н.Коновалов. 2010. Доманов В.Г. - Активность политическая

JADIDCHILIK VA QO‘QON MUXTORIYATI DAVRINI O‘RGANISH YOSH AVLODNI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASHNING ENG MUHIM OMILI

M.G‘. Jamoliddinov - QDPI dotsenti
M.A.G‘iyosiddinova - QDPI o‘qituvchi

Annotatsiya. Maqolada Turkiston Muhtoriyatining tashkil topishi, Qo‘qon jadidchilari va ularni nashr etgan gazetalari, Behbudiy g‘oyalari asosida ochilgan maktab va darsliklar haqida ma’lumot berilgan.

Kalit so‘zlar. Jadidchilik, ma’rifatparvarlik, usuli jadid, erk, ozodlik, Botir gapchilar, birinchi qahramonlar.

Annotation. In the article, the establishment of the Turkestan Autonomous Region, Kokan Jadidists and their published newspapers, schools and textbooks opened based on Behbudi's ideas.

Keywords. The Method of Enlightenment is Jadid, Free Freedom, Brave Speakers, First Heroes.

Аннотация: В статье рассказывается о создании Туркестанской автономной области, кокандских джадидистах и издаваемых ими газетах, школах и учебниках, открытых на основе идей Бехбуди.

Ключевые слова: Метод просветления – Джадид, Свободная свобода, Отважные ораторы, Первые герои.

O‘zbek xalqi og‘zaki ijodida “Yo‘v qochsa botir kopayadi”, “Do‘ppining tagida odam bor”, “Devorning ham qulogi bor” kabi maqol naqllar bor. Ota-

bobolarimiz tomonidan yaratilgan bunday bitiklar, tariximizning qonli kunlari va qatag‘on davrlarining ijodi ekanligini bugun anglayapmiz.

Ayniqsa, o‘tmishimizning eng yaqin kunlari bo‘lgan jadidchilik davri tarixi, adabiyotini o‘rganish, ilmiy tadqiq etish bugun yozuvchi, ijodkor, tadqiqotchi olimlar uchun Prezidentimizning 2023-yil 22-dekabrdagi “Ma’naviyat va ma’rifat kengashi yig‘ilishidan keyin katta imkoniyatlar eshigini ochdi. Jumladan, Ma’rifatparvar ajdodlarimizning merosi bugun biz qurayotgan huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyati uchun poydevor bo‘lib xizmat qilishi tabiiydir.

Chunki ularning g‘oya va dasturlari Yangi O‘zbekistonni barpo etish strategiyasi bilan har tomonlama uyg‘un va hamohangdir… Agar biz bu yorug‘ dunyoda “O‘zbek’’, “O‘zbekiston’’ degan nomlar bilan yashab qolishni istaydigan bo‘lsak, bu savollarga bugun javob topishimiz va ularni hal etish bo‘yicha amaliy harakatlarni aynan bugun boshlashimiz shart ertaga kech bo‘ladi’’- dedi.1

Shunday ekan, yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda jadidchilik davri merosini o‘rganishimiz, ularni hayotini ibrat qilib ko‘rsatishimiz asosiy vazifadir.

Ma’lumki, 1917-yilning 26-28-noyabr kunlari Qo‘qon shahrida Turkiston o‘lkasi musulmonlarining favqulodda IV-qurultoyi bo‘lib o‘tdi. Qurultoyning 28-noyabrdagi yig‘ilishida yangi shakllanayotgan davlatni Turkiston Muhtoriyati deb nomlashga qaror qilindi. Muhtoriyatni milliy majlisi tarkibi 54 nafardan iborat bo‘lib saylov yo‘li bilan shakllantirildi. A’zolarning 18 nafari qardosh xalqlarning vakillari edi. Qurultoyda o‘lkaning turli shaharlaridan 203 ta vakil ishtirok etdi. Fitrat Turkiston Muhrtoriyatini quvonch bilan qarshi oldi. Muhtoriyat e’lon qilingan tunini “Milliy laylatulqadrimiz” deb atadi. “Ellik yildan beri ezildik, taxqir etildik. Qo‘limiz bog‘landi, tilimiz kesildi. Og‘zimiz qoplandi. Yerimiz bosildi. Molimiz talandi. Sharafimiz yemirildi. Nomusimiz g‘asb qilindi. Insonligimiz oyog‘lar ostig‘a olindi. To‘zimli turdi, sabr etdik. Kuchga tayangan har buyruqqa bo‘yun sunduk. Butun borlig‘imizni qo‘ldan berdik. Yolg‘iz bir fikrni bermaduk, yoshunturduk, imonlarimizga o‘rab saqladuk. Bu- Turkiston Muhtoriyati! ”

Bosh vazir va ichki ishlar noziri lavozimiga Muhammadjon Tinishboyev saylandi. Keyinchalik tashkiliy o‘zgarishlardan keyin Mustafo Cho‘qaev Bosh Vazir lavozimida faoliyat yuritdi. 1918-yili Turkiston Muhtoriyati askarlarining (500 nafar bo‘lib, 200 nafar otliq askarlar edi) birinchi harbiy namoyishi o‘tkazildi.

Mazkur namoyishda harbiy ishlar noziri Ubaydullo Xo‘jayev Hukumat nomidan tabriklab shunday dedi: “Sizlar Turkiston Muhtoriyatining birinchi qahramonlari bo‘ldingiz, bu bilan faxrlansangiz arziydi, chunki Sizlar Vatanga birinchi marta o‘z ixtiyoringiz bilan askar bo‘ldingiz. Men sizlarni muhtoriyat, hukumat a’zolari nomidan tabriklayman!”.

Muhtoriyatda ish boshlagan Milliy Majlis a’zolari qisqa vaqt ichida bir necha qonunlarni matbuotda e’lon qildi, davlat konstitutsiyasini tayyorlashga kirishdi, Cho‘lpon Muhtoriyatni madhiyasini yaratdi.

Afsuski, Qo‘qon Muhtoriyatining obro‘si ortib borayotganidanSho‘rolar qattiq tashvishga tushib qoldilar. 1918- yilning 19-26- yanvar kunlari Toshkentda ishchi, soldat va dehqon deputatlarining favqulodda sezdi bo‘lib, unda Muhtoriyat

hukumatini noqonuniy organ deb hisoblanib, a’zolarini qamoqqa olish haqida qaror qabul qilindi.

Natijada, Sho‘rolar hukumati Turkiston Muhtoriyatini qonga botirish uchun harbiy komissar E.Perfilyev boshchiligida 11 ta eshelonga ortilgan harbiylarni Qo‘qonga jo‘natdi. 18-fevraldan 19-fevralga o‘tar kechasi shahar vahshiylarcha bombardimon qilinib, shahar 3 kun mash’ala bo‘lib yondi 10 mingdan ortiq odamlar halok bo‘ldi. Turkiston Muhtoriyati hukumati 72 kun faoliyat ko‘rsatdi.

Mustafo Cho‘qayev o‘z Vatanidan quvg‘in qilinib, xorijga qochishga majbur bo‘ladi. Fransiyaning Parij shahrida yashaydi, 1941- yilda II- Jahon urushi yillarida 100 minglab sovet kishilari fashistlar tomonidan asir olinadi, Mustafo Cho‘qayni nemislar Berlinga olib kelib asir tushgan Turkistonliklardan xarbiy qism tuzishni va o‘z Vataniga qarshi kurashishni talab qiladi. Ammo u yurtiga qarshi kurashni va sotqinlik qilishni qat’iyan rad etadi. Noiloj bo‘lgan nemislar undan tarjimonlik qilishda foydalanadi. Mazkur jarayonlarda asirlikdagi yurtdoshlarini ayrimlarini qochishga va ularnining qismatini yengillashtirishga yordam beradi. Shu uchrashuvlarda sil kasaligini yuqtirib qoladi va 1941- yil 27- dekabrda vafot etadi. Uning qabri bugun Germaniyaning Turk Islom qabristonida joylashgan.

Biroq, jadidchilikning bu qisqa davr ichida adabiyot, matbuot, san’at millatni uyg‘otishda to‘xtamadi.

Gazeta targ‘iboti minbar vazifasini bajardi. Xususan Muhtoriyatning “Ulug‘ Turkiston”, “El bayrog‘i”, “Sadoiy Farg‘ona” (1915), “Farg‘ona”, “Birlik-tug‘i”, “Xalq gazeti”(1918-1919), “Mehnat bayrog‘i”(1921), “Yurt” jurnali, va boshqalar nashr etildi.

Qo‘qon adabiy muhitida ma’rifatparvar kishilar xalqni jaholat va nodonlik, erksizlik, qashshoqlik botqog‘idan qutqarishning birdan-bir yo‘li Ma’rifat ekanligini tushundi. Jadidchilik harakatini qo‘llab-quvvatladi.Amaliy harakatlar qildi. Millat yo‘lida kurashganligi sababli qamoqqa olindi, qatag‘on qilindi. Jadidshunos olim B.Irzayev o‘zining Ashurali Zohiriyning taqdiri haqidagi ilmiy maqolasidagi so‘roq bayonnomasida shunday yozadi. “Milliy ittixod” tashkilotiga 1921-yilda kirgani, tashkilotda Abbosxo‘ja Kalonxo‘jayev (1934-yil vafot etgan), Obid chatoq, Miyon Qudrat, Abdullajon Karimovlarning tan oladi.” Shuningdek, 1929-yil A.Qahhorning rahbarligida “Botir gapchilar” aksilinqilobiy tashkiloti tuzilgani va u ham “Milliy ittixot” tipidagi tashkilot bo‘lganini yozadi.

Unda Maxsumov (Qo‘qon okrujkomi), A.Karimov, Sulton Saydalin, L.Olimiy va boshqalar a’zo bo‘lib, ulardan o‘zi A.Zohiriy, Mansur Erkin, Yaqub Omon, Umar Hamidov, Karim Ortiqboyev, Nuriddin Ermatov, Muhiddin Husayinov, Abdulla Xolmatov, To‘lqin Parpiyev, Mirza Abdulla Soliyev, Muhtor Muhammedov, Abdulla Rahmatzoda, Lutfulla Olimiylar 1930-yil qamoqqa olindi.3

Qo‘qon adabiy muhitida yuqoridagi ma’rifatparvar jadidchilar Mustaqillik uchun kurashdi. Jadid matbuoti va jadid maktablari xalqni uyg‘onishida muhim rol o‘ynadi.

Farg‘ona vodiysida jadidchilik harakatining targ‘ib etishda Hamza Hakimzoda Niyoziy(1889-1929) ning o‘rni va roli katta, Hamza ijodiy va ijtimoiy faoliyatida marifatparvarlik g‘oyalarini targ‘ib etish katta o‘rin tutadi U xalqni ilm marifatga

da’vat etuvchi asarlar yozibgina qolmay, 1913-1915-yillar davomida Toshkent, Qo‘qon, Marg‘ilon shaharlarida “Usuli savftiya” maktablarini ochdi. Bu maktablarda oddiy xalq farzandlarini savodxon qilish va ilm fanga qiziqish uyg‘otish maqsadida o‘zbek tilida darsliklar yaratdi, dars berdi. Hususan, birinchi sinf o‘quvchilariga mo‘ljallangan “Yengil adabiyot” kitobini 1914- yilda yozdi, darslik 45 darsni o‘z ichiga oladi. Darslikning uch soati Allohni tanitishga, 4-5- dars Muhammad (s.a.v.) Payg‘ambarni va Islom dinini targ‘ib qiluvchi darslar bilan boshlanadi. Oltinchi darsdan boshlab dunyoviy maktab va uning o‘quvchi tarbiyasidagi roli haqida so‘z yurtiladi:

Maktab- dinning chirog‘i,
Millatni zo‘r yarog‘i,
Maktabsiz har millatni
Qarar bir cho‘p tarog‘i.

Maktab- millat atosi,
Ham suyuklu anosi,
Ato, anosiz qolsa
Qandoq yashar bolosi”

1914- yilda 9 darsdan iborat “O‘qish kitobi”ni yozdi, ikkinchi sinflarga mo‘ljallangan “Qiroat kitob”larini 1915- yilda yozdi.

Hamza mazkur darsliklarida o‘zining marifatparvarlik qarashlaridan kelib chiqqan holda hamma go‘zal xulq va fazilatlarni kishining ilm va ma’rifatdan bahramandlik darajasi belgilaydi, barcha yomon odat va xislatlarni savodsizlik, ilm-fandan yiroqlik bilan bog‘laydi.

Ma’rifatparvar jadidchilar Ibrohim Davron (1874-1922), Obidjon Mahmudov, Mirzo Ho‘qandiy (1890-1938) kabilar usuli savtiya maktablari ochib bolalarni savodli qildi. Jumladan, Ibrohim Davron 1912-1916-yillarda “Turkcha fig‘onlar”, “Oltin so‘zlar”, “Ta’limiy geografiya” darsligini yozdi. Mirzo Ho‘qandiy yangi usuldagi maktablar uchun “Bolalar sovg‘asi” “Turkcha boshlang‘ich ilm”, “Dars rahbari”, “Rahbari alifbo” kabi ko‘plab darsliklarni tarjima qilib nashr ettirdi. “Gulshan Mirzo”, “Gulshaniy hayol” nomli darsliklar tuzib bosmadan chiqardi. Hamda “Ma’rifat” nomli kutubxona tashkil etdi.

Muhammadjon Xoliqiy 1910-yilda o‘z uyida “Yangi usul” maktabini ochdi. Shahardagi “Ta’limiy maorif” jadidlar tashkilotiga sarkotib bo‘lib ishladi. Ammo, bularning barchasi davr siyosatining qiynoqlari, azoblarini boshidan kechirdi. Ayrimlari qatag‘on qurbonlari bo‘ldi.

Bugun bu ma’rifatparvarlarning asarlarini o‘rganish, nashr etish, “tiriltirish” vaqti keldi.

O‘zbek adabiyotida “So‘nggi jadid” nomini olgan adabiyotshunos olim Begali Qosimov: ”Jadid” atamasi Turkiyada XX asr boshidagi adabiyotga, uning ham birgina yo‘nalishiga nisbatan ishlatiladi. Shuningdek, “Rusiya jadidchiligi”, o‘zimizda esa “Buxoro jadidchiligi” “Turkiston jadidchiligi” degan atamalarni

uchratamiz. Bizningcha, harakat umumiy, ko‘rinishlar konkret bo‘lgani uchun farqli, “mohiyat bitta - yangilanish” 5

Demak, maqsad erk, ozodlik, Mustaqillik uchun kurash bo‘lib, Turkiston Muhtoriyati bu yo‘ldagi amaliy harakatning natijasidir.

Shuning uchun Turkiston jadidchilik harakatining rahnamosi Behbudiy (1878-1919.25.03) bo‘lib, millat uchun shahid bo‘ldi.

Adibning “O‘zbek Sovet Ensiklopediyasi” da keltirilgan qatl oldidagi quyidagi Vasiyatnomasi, bugun Alloh tomonidan berilgan jadid marifatparvarlarining orzularini amalga oshgani bo‘ldi:

“Biz o‘z qismatimizni bilamiz, ammo bechora xalqimizga o‘z hayotimizdan nima qilishimiz mumkin bo‘lsa shuni qilganimizni his etish bilan faxrlanganimizdan o‘limni xotirjam kutmoqdamiz… agar bizning hayotimiz xurriyat va xalqning baxt-saodati uchun qurbonlik sifatida kerak bo‘lsa, biz o‘limni ham xursandchilik bilan kutib olamiz, mumkin qadar ko‘proq yaxshi maktablar ochish, shuningdek maorif va xalq saodatini ta’minlash sohasida tinmay ishlash bizga eng yaxshi haykal bo‘ladi”.

Xullas, milliy uyg‘onish davrini taqiqlangan, hadiksirab o‘rganilmagan sahifalarini ochish kelgusida ilmiy tadqiqotimizning maqsadidur.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Jadid gazetasi. 2024- yil 1- yanvar soni 2 bet.
2. B.Ibragimov Ho‘qandiy La’tif va Qo‘qonliklar Toshkent. “Asr matbuot”. 2011.` 25-bet.
3. Ashurali Zohiriy-yurt va millat fidoiysi Farg‘ona “Farg‘ona” nashr. 2021. 34- bet
4. Hamza Hakimzoda Niyoziy To‘la asarlar to‘plami. 2-tom. Toshkent. “Fan” nashr. 1988. 317-bet.
5. Begali Qosimov Istiqlol fidoiylari Toshkent “Sharq” nashr.1994. 7-bet
6. Begali Qosimov Milliy uyg‘onish.Toshkent.
7. Begali Qosimov ”So‘nggi jadid” qissasi Toshkent. “Turon Iqbol” nashr. 2012

AMIR TEMUR HARBIY TASHKILOTCHILIGI VA SARKARDALIK MAHORATINI O‘RGANISHNING TARBIYAVIY AHAMIYATI

Рашидахон Муқимовна Аҳмедова
Қўқон ДПИ Тарих кафедраси доценти, PhD.
rashidakhonmukimovna@gmail.com
Тохир Ботиров
Тарих йўналиши 4-босқич талабаси

Аннотация. Мазкур мақолада Амир Темурнинг ҳарбий ташкилотчилиги ҳамда саркардалик маҳрати, давлат бошқарув ишларида адолатли сисати ҳамда мамлакат ҳимоясида қўшин тузиш йўлидаги юксак маҳоратига оид маълумотлар билан бирга, ушбу жаранларни ўрганишда ўқувчи шлар тарбиясига, хусусан шларни ватанпарварлик руҳида тарбиялашдаги аҳамияти таҳлил қилининган.

Калит сўзлар: Амир Темур, harbiy san'at, pontonchilar, naftandozlar, tosh otuvchi, Temur tuzuklari, Kuch - adolatda, sadoqat, or-nomus, qo'rquv va umid

Аннотация. В данной статье, наряду со сведениями о военной организации и лидерском мастерстве Амира Темура, справедливой политике в делах государственного управления, высоких навыках защиты страны, представлена важность воспитания молодежи в духе патриотизма.

Ключевые слова*:* Амир Темур, военное искусство, понтонные рабочие, нафтандоз, камнемет, ловушки Темура, Сила - в справедливости, верности, чести, страхе и надежде

kadrlarning ilg‘or xorijiy pedagogik tajribani qay tarzda o‘zlashtirishlari va undan nechog‘li foydalana olishlarini dolzarb masala sifatida kun tartibiga qo‘ymoqda. Bu esa bo‘lajak pedagoglarni dunyoning rivojlangan mamlakatlari ta’lim tizimi haqida nazariy bilimlarga ega bo‘lishi va ilg‘or tajribani amalda qo‘llay olishlariga bo‘lgan talabni taqozo etmoqda. Shuningdek, mamlakatimiz manfaatlaridan kelib chiqqan holda zamonaviy ta’lim tizimini yaratishda xorijiy ilg‘or usullardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O‘zbekistonda ta’lim tizimini modernizatsiyalash, yangi avlod darsliklarini yaratish, ta’lim muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, zamonaviy asbob-uskunalar, texnika vositalari, kompyuterlar bilan ta’minlash, o‘qituvchilarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash borasida amalga oshirilayotgan tizimli islohotlar yosh pedagoglarning rivojlangan mamlakatlar ta’lim tizimi va unda qo‘llanilayotgan ta’lim texnologiyalari, o‘quvchiga munosabat bo‘yicha keng ma’lumotga ega bo‘lishlari zarurligini taqozo etmoqda. Masalan, O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida “xalq ta’limi sohasiga zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalari va innovasion loyihalarni joriy etish, o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtirish kompetentligini kengaytirishni ta’minlovchi zamonaviy ta’lim texnologiyalaridan foydalanishni kengaytirish, o‘qitish metodikasini takomillashtirish, ta’lim-tarbiya jarayoniga individuallashtirish tamoyillarini bosqichma-bosqich tatbiq etish” vazifalari belgilab berilgan. Mazkur vazifalarni bajarishda milliy va xorijiy ta’lim-tarbiyani o‘zaro qiyosiy tahlil qilish orqali xorijiy ta’limning ilg‘or usullarini joriy qilish muhim ahamiyat kasb etadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son, 2019 yil 29 apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712-son, 2018 yil 5 sentyabrdagi “Xalq ta’limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5538-son Farmonlari, 2018 yil 5 iyundagi “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularni mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3775-son Qarori, Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 27 fevraldagi “Oliy ta’lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish kurslari to‘g‘risidagi Nizomga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish haqida”gi 103-son Qarori hamda boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda pedagog kadrlar tayyorlash muassasalari oldiga katta vazifalar qo‘yilgan.

Ta’lim-tarbiya jarayoni mamlakat taraqqiyotini belgilab beruvchi asosiy omillardan biri sanaladi. Mamlakatlar ta’lim-tarbiya jarayoni uchun davlat byudjetining salmoqli qismini sarflaydi. O‘zbekiston Respublikasi ham bundan mustasno emas.

Ta’lim-tarbiya jarayonini rivojlantirish sohaga mas’ul bo‘lgan davlat hokimiyati organlari, muassasalari, mansabdor shaxslari, jamoat tashkilotlari, keng jamoatchilik va mazkur soha huquqiy munosabatlarining boshqa ishtirokchilari tomonidan normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vakolatlar asosida amalga

oshiriladi. O‘zbekistonda ta’lim keng miqyosli soha hisoblanadi. Mamlakatimiz aholisining katta qismini ta’lim muassasalari qamrab oladigan yoshdagilar tashkil etadi. Hozirda mamlakatimizda 10 000ga yaqin maktabda 5,2 milliondan ko‘proq o‘quvchilar ta’lim oladi. O‘quv-tarbiya va boshqaruv jarayonida 450 mingdan ziyod xodim mehnat qilmoqda.

Prezidentimizning 2018 yil 25 yanvarda “Umumiy o‘rta, o‘rta maxsus va kasb-hunar ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni, 2018 yil 14 avgustda “Yoshlarni ma’naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta’lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichiga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori, 2018 yil 5 sentabrda “Xalq ta’limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni hamda ta’lim-tarbiya jarayonlariga oid topshiriq va ko‘rsatmalarida ta’lim tizimdagi islohotlar izchilligini ta’minlanishiga amaliy ta’sir ko‘rsatuvchi vazifalar belgilab berilgan.

Prezidentimiz tomonidan belgilab berilgan yo‘l-yo‘riqlar ta’lim-tarbiya jarayonlarini to‘g‘ri tashkil etish, sohada tub o‘zgarishlarni amalga oshirish hamda islohotlar samaradorligini ta’minlashda xorijiy tajribadan foydalanish va ularni amaliyotga joriy etish muhim ahamiyat kasb etishi sir emas. Zero ta’lim-tarbiya sohasidagi keng ko‘lamdagi vazifalarni amalga oshirishda ilg‘or xorij tajribasi ertangi kun muvaffaqiyatini ta’minlab beradi.

Bugungi kunda ta’lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etishda O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonun, Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi, qonunlar, farmonlar, farmoyish, qaror, buyruq, nizom va boshqalarda ilgari surilgan vazifalarning pirovard maqsadi ta’lim tizimini zamonaviylashtirish va uni xalqaro miqyosdagi raqobatbardoshligini ta’minlashdir. Bugungi kunda respublikamizda ta’lim tizimining barcha bosqichlarida tub islohotlar amalga oshirilmoqda, ta’lim tizimiga ilg‘or, zamonaviy yangiliklar joriy qilinmoqda. Mazkur holat G‘arb va Sharqning rivojlangan mamlakatlari ta’lim jarayonlarini chuqur o‘rganish, ilg‘or tajribani amaliyotga joriy etish masalalari yosh mutaxassislar oldiga bir qator vazifalar qo‘ymoqda. Shu bois taraqqiy topgan mamlakatlar ta’lim tizimi va ularda qo‘llanilayotgan metodlarning nazariy va amaliy tomonlarini o‘rganish dolzarb ahamiyat kasb etib bormoqda.

O‘zbek tilida ushbu sohada mukammal darslik va qo‘llanmalar hozirgacha yaratilmagan. Bugungi kunda oliy ta’lim tizimida tahsil olayotgan bo‘lg‘usi pedagoglarda xorijiy mamlakatlar maktabgacha, maktab va oliy ta’limda ta’lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etishda qo‘llanillayotgan jarayonlarni o‘rganish bilan bog‘liq ko‘nikma va malakalarini shakllantirish hamda rivojlantirish maqsadlarini o‘z ichiga oladi. Bu o‘z navbatida pedagogika sohasining barcha ta’lim yo‘nalishlari bo‘lajak mutaxassislarini ta’limni boshqarish va unda xorijiy ilg‘or tajribani qo‘llashlari uchun zaruriy bilim bilan qurollantiradi. Ma’lumki, respublikamizda mazkur masala oliy ta’lim tizimida maxsus fan sifatida o‘rganilmaganligini e’tiborga oladigan bo‘lsak, ushbu qo‘llanma ularda ta’lim-tarbiya jarayonlarida xorijiy ilg‘or tajribani o‘rganish va yetarli darajada bilimlarni olishlarida va amaliy ko‘nikmalarni shakllantirisda ham katta ahamiyatga ega bo‘ladi.

Ta’lim tizimi hayotimizga qat’iy kirib bordi. Har bir mamlakatda ta’lim tizimi o‘ziga xos rivojlandi. Osiyo mamlakatlarida ham ta’lim sohasida ayniqsa jadal rivojlanish ro‘y bermoqda va bu biz uchun foydali bo‘lgan tajribani o‘rganish ehtiyojini vujudga keltirmoqda.

Inson faoliyati va bilimlari taraqqiyotida jahon xalqlari tajribasidan foydalanish muhim omillarlan hisoblanadi. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ta’lim islohotlarida xorijiy mamlakatlar ta’lim tizimi tajribasini o‘rgani va tahlil qilish muhim masalalardan hisoblanadi. O‘zbekiston ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar mazmun-mohiyati ta’lim va tarbiyani demokratlashtirishga qaratilganligini alohida ta’kidlash lozim. Dunyoning rivojlangan mamlakatlari tizimi tashabbuskorlik, tizim barcha pog‘onalarining uzviy bog‘langanligi bilan ham ajralib turadi. Bu esa tajriba o‘rganish jarayonida asqotishi mumkin bo‘lgan tomonlardan hisoblanadi. Shuningdek, bugungi kunda pedagogika institutlarida tayyorlanayotgan kadrlar rivojlangan chet el ta’limining tashkil etilishi bilan bog‘liq masalalardan nafaqat xabardor bo‘lishi, balki o‘z ustida ishlashi davomida yangiliklardan mosini tanlay olish qobiliyatiga ham ega bo‘lishi lozim.

Xulosa qilib shuni ta’kidlash lozimki, bugungi kunda respublikamizda ta’lim tizimining barcha bosqichlarida tub islohotlar amalga oshirilmoqda, ta’lim tizimiga ilg‘or, zamonaviy yangiliklar joriy qilinmoqda. Mazkur holat G‘arb va SHarqning rivojlangan mamlakatlari ta’lim jarayonlarini chuqur o‘rganish, ilg‘or tajribani amaliyotga joriy etish masalalari yosh mutaxassislar oldiga bir qator vazifalar qo‘ymoqda. Shu bois taraqqiy topgan mamlakatlar ta’lim tizimi va ularda qo‘llanilayotgan metodlarning nazariy va amaliy tomonlarini o‘rganish dolzarb ahamiyat kasb etib bormoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son Farmoni.
2. 2019 yil 29 apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712-son Farmoni.
3. 2018 yil 5 sentyabrdagi “Xalq ta’limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5538-son Farmoni.
4. 2018 yil 5 iyundagi “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularni mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3775-son Qarori.
5. Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 27 fevraldagi “Oliy ta’lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish kurslari to‘g‘risidagi Nizomga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish haqida”gi 103-son Qarori.

ОБЗОР СОТРУДНИЧЕСТВА ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИИ АЗЕРБАЙДЖАНА И УЗБЕКИСТАНА

Доцент В.У.Умудлу
Институт Истории и Этимологии имени
А.А.Бакиханова АН Азербайджана,
ведущий научный сотрудник

Узбекский и азербайджанские народы объединяют близкие национальные обычаи и традиции, общая языковая группа, культура и религия. Оба народа являются тюркскими. Азербайджано-узбекские отношения, опирающиеся на общие корни и многолетнюю историю, сегодня стремительно развиваются в соответствии с реалиями нового времени. Укрепляющиеся с каждым днем связи Азербайджана с Узбекистаном, а также другими странами Центральной Азии, вносят значительный вклад в развитие как наших стран и народов, так и всего тюркского мира.

Общность истории, религии и культурных корней азербайджанского и узбекского народов обусловливает и расширение, и углубление сотрудничества двух стран в культурно-гуманитарной сфере. Стороны условились проводить взаимные Дни культуры и кино, развивать взаимодействие в области туризма, наращивать обмены и контакты между вузами, научными учреждениями, спортивными, молодежными организациями.

После распада СССР в 1991 году наши страны обрели независимость и стали членами ООН, ИКТ и других международных организаций. В прошлом наши страны прошли большой путь по пути независимого развития. Дипломатические отношения между странами установлены 2 октября 1995 года. В августе 1996 года начало работу посольство Азербайджанской Республики в Узбекистане. В июле 1998 года открыто посольство Республики Узбекистан в Азербайджанской Республике. Азербайджан, который приобретает большое геополитическое и геоэкономическое значение, в регионе Южного Кавказа является основным партнром Узбекистана. Каждая из стран занимает схожее положение во многих вопросах регионального и международного характера.

Примечательно, что в ходе визита главы государств очень часто говорили каждый на своем родном языке и прекрасно друг друга понимали, не прибегая при этом к услугам переводчика. Как заметил Президент Ильхам Алиев: «У нас одна культура, искусство, вообще корни наших народов. Песни, прозвучавшие сегодня на азербайджанском языке, словно были исполнены азербайджанскими певцами. Никакого диалекта, никакого акцента. О чем это говорит? О единстве наших народов». Оценивая визит, глава нашего государства несколько раз употреблял слово «прорывной». По инициативе правительства Узбекистана в Физули построена средняя школа, и президент

Узбекистана Шавкат Миромонович Мирзиев вместе с супругой ознакомился с результатом работ.

Достигнутые договоренности, подкрепленные подписанными документами, масштабные планы на будущее, намеченные новые проекты, охватывающие практически все сферы, от политики до культуры, образования и туризма, все это говорит о справедливости такого определения. Результатом будет новый уровень стратегического партнерства между Азербайджаном и Узбекистаном, которое станет стержнем сотрудничества, мира и стабильности в регионах Центральной Азии и Кавказа. В этом контексте развитие сотрудничества между научными подразделениями и высшими учебными заведениями наших стран имеет большое значение и ставит важные задачи.

Недавно, директор Института истории Академии наук Узбекистана, академик Зи Азамат побывал в Институте истории и этнологии им. А.А. Бакиханова АН. Академик подчеркнул, что они придают большое значение сотрудничеству с научными учреждениями Азербайджана, и в этой связи подчеркнул важность отношений. Подписанный меморандум стал важным этапом для расширения научного сотрудничества между двумя странами Документ предполагает налаживание системного сотрудничества для изучения исторических связей народов Азербайджана и Узбекистана, всемирной истории, в частности, проведения исследований в области общетюркской истории, реализацию совместных исследовательских проектов, поддержку процессов подготовки и обмена научными кадрами, организацию совместных научных конференций, симпозиумов, семинаров, сборов и рабочих встреч, поиск всевозможных источников, необходимых для научных исследований, подготовку научных публикаций и т. д.

Тот факт, что директор Института истории и этнологии НАНА, доктор исторических наук, профессор Керим Шукюров сейчас находится с научной миссией в Узбекистане, будет способствовать дальнейшему укреплению научных отношений.

Отношения между высшими учебными заведениями Азербайджана и Узбекистана развиваются быстрыми темпами. Примеров таких связей немало, а также проведенных многочисленных конференций. Здесь только будет обсуждаться отношения между Кокандским Государственным Педагогическим Институтам имени Мукими с научными учреждениями и высшими школами Азербайджана.

В сентябре 2023 года я находился в учебной командировке Кокандском государственном педагогическом институте и читал лекции студентам исторического факультета, также провели обсуждений с преподавателями и студентами института. Лекции по указанным ниже темам были встречены студентами с одобрением, и на их вопросы были даны ответы. «Завоевание Центральной Азии царской Россией», «Азербайджано–Узбекское взаимодействие укрепляется» и др.

Представленная мною статья «Политическая ситуация Бакинской области в документах Османского архива (1800-1828 гг.)» опубликована в

журнале «Научный Вестник Кокандский ГПИ». Представленная статья посвящена исследованию политических событий, происходивших в Бакинском регионе в первые 28 лет XIX века, преимущественно на основе османских архивных документов. Также представленною заведующий кафедрой История Кокандского педагогического института Нуридинова Турдали Камбаровича (PhD) статья “Политические отношения Бухарской Народной Советской Республикой (БНСР) и Азербайджана” опубликован в журнале “Azərbaycan tarixşünaslığı” Института истории и этнологии. В статье на основе первоисточников освещаются политические отношения между БНСР, существовавшей в 1920-1924 годах, и Азербайджаном. Следует отметить, что изучение отношений между Бухарой и Азербайджаном является одной из наиболее актуальных научных проблем в истории и историографии Узбекистана.

BUYUK AJDODLARIMIZ MEROSI ASOSIDA O‘QUVCHILARDA ILMIY DUNYOQARASHNI RIVOJLANTIRISH MODELI

Yunusaliyev Jahongir Ortiqbayevich
Qo‘qon DPI mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: Maqolada o‘quvchilarda tarix ta’limida buyuk ajdodlarimizning ilmiy merosi orqali ilmiy dunyoqarashni shakllantirishda yondashuvni va ma’lumotlar berish tizimini o‘zgartirish talab etilishi, o‘quvchilarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirishda maktab ta’limida buyuk mutafakkirlarning ilmiy faoliyatining o‘ziga xos tomonlari, ular erishgan natijalar, ilm olishdagi ularning imkoniyati va qiyinchiliklarni o‘sha davr ruhiyatidan kelib chiqqan holda tushuntirish va ko‘rsatib berish muhim ahamiyatga ega ekanligi haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: tarix, umumiy o‘rta ta’lim, ilmiy dunyoqarash, ilm-fan, buyuk mutafakkirlar.

Аннотация: В статье необходимо изменить подход и информационную систему в формировании научного мировоззрения через научное наследие наших великих предков в историческом образовании студентов, рассмотреть конкретные аспекты научной деятельности великих мыслителей в России. школьного образования в формировании научного мировоззрения учащихся, достигнутых ими результатов, их возможностей и трудностей в обучении, исходя из менталитета того времени, говорится, что важны объяснение и демонстрация.

Ключевые слова: история, общее среднее образование, научное мировоззрение, наука, великие мыслители.

Annotation: In the article, it is necessary to change the approach and information system in the formation of the scientific worldview through the scientific heritage of our great ancestors in the history education of students, the

specific aspects of the scientific activity of the great thinkers in school education in the formation of the scientific worldview of the students, the results they achieved, their opportunities and difficulties in learning from the mentality of that time it is said that explanation and demonstration are important.

Key words: history, general secondary education, scientific outlook, science, great thinkers.

Buyuk ajdodlarimizning ilmiy faoliyatini jamlagan ilmiy asarlarini o‘rganish, ularni tahlil qili bilish va ijtimoiy ahamiyatini baholay olish. Mazkur talablar asosida tarix darslarini tashkil etish, innovatsion pedagogik texnologiyalar – buyuk ajdodlari ilmiy merosi vositasida o‘quvchilarda bilim, ko‘nikma va malakalarni oshirishga yo‘naltirilgan vazifalarni bajarish omili bo‘lib xizmat qiladi. Shu bilan birga o‘quvchilarni ilmiy dunyoqarashi shakllanib boradi.

Tarix darslarida buyuk ajdodlarimizning ilmiy merosi va tarixiy asarlaridan foydalanishda o‘qituvchi ham ma’lum tartiblarga amal qilishi lozim:

– dastur va o‘quv qo‘llanma bo‘yicha o‘rganish ko‘zda tutilgan tarixiy voqealarni jonli tarzda bayon etish;

– tarixiy arboblar, buyuk ajdodlarimizning tarixiyportretini va ijtimoiy rolini ko‘rsatish;

– ilmiy dunyoqarashni shakllantirishda xizmat qiladigan Sharq mutafakkirlarining asarlari va ilmiy izlanishlarini to‘g‘ri tanlab olishi;

– mavzuga oid qo‘shimcha detallar va ma’lumotlar berish va boshqalar.

O‘quvchilarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirishda buyuk ajdodlarimizning ilmiy merosidan foydalanib dars o‘tishda darsning “didaktik qurilishi”ni quyidagicha bo‘lishi maqsadga muvofiq:

– o‘qituvchi mutafakkirlarning asarlarini yoritish bilan birga ularning ijtimoiy ahamyatini obyektiv yoritishiga doir shaxsiy yondashuvini ham keltirib o‘tadi.

– ilmiy dunyoqarashni shakllantirishda o‘sha davrga xos ilmiy faoliyatga ta’sir ko‘rsatgan omillarni tahlil qiladi.

– buyuk ajdodlarimizning ilmiy merosi vositasida ilmiy faoliyatga qiziqishni o‘stirish talab etiladi;

– buyuk ajdodlarimizning ilmiy merosi, ilm-fanning turli sohalariga qo‘shgan hissalarini induktiv va deduktiv metodlardan foydalangan holda tushuntiradi, ya’ni darsining yakunida umumlashtirib xulosa chiqaradi va bunga dalillar keltiradi.

1. Mavzuga yoki sinfda o‘tiladigan darslarga tegishli tarixiy asarlar ro‘yxatini tuzish va ular orasidan o‘quvchilarning ilmiy dunyoqarashini oshirishga kuchli ta’sir ko‘rsatadiganlarini alohida ajratib olish.

2. Iloji boricha mutafakkirlarning ilmiy asarlarni tanlab olish.

3. Tanlab olingan asarlarni qisqacha tushuntirish orqali o‘quvchilarni qiziqtirish va o‘rganishga yo‘naltirish, o‘quvchilarning o‘rgangan ma’lumotlarini, olgan bilimlarini tahlil qilish, baholab borish.

4. O‘quvchilarga ilmiy dunyoqarashni shakllantirish yo‘llari va buning uchun mutafakkirlarning asarlarini o‘rganishda e’tibor qaratish lozim bo‘lgan jihatlar haqida tushuncha berish.

5. Buyuk ajdodlarimiz Mahmud Qoshg‘ariy, Abu Nasr Farobiy, Al-Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sinoning ilmiy faoliyati to‘g‘risida alohida ma’lumotlar berib borish.

6. O‘zbekistonda saqlanayotgan qo‘lyozmalar, tarixiy-ilmiy asarlar haqida ma’lumot berish.

7. O‘zbekistonda yaratilgan buyuk mutafakkirlarning ilmiy merosi, asarlari, ilm-fanga qo‘shga hissalari to‘g‘risidagi to‘plamlar, o‘tkaziladigan anjumanlar va xalqaro konferensiyalar haqida tushuncha berish, ularda qilingna ma’ruzalar bilan tanishish imkoniyatini yaratish.

Umumiy o‘rta ta’lim tizimida o‘tiladigan tarix talimida buyuk ajdodlarimizning ilmiy merosini innovatsion yondashuvlar asosida o‘rgatish tizimini takomillashtirish va bu orqali o‘quvchilarning ilmiy dunyoqarashini shakllantirish muhim vazifa hisoblanadi. Shu ma’noda tanlab olingan buyuk mutafakkirlarning ilmiy merosini o‘rgatishga qraatilgan pedagogik jarayon quyidagi parametrlarga ega bo‘lishi lozim.

– ilmiy bilimlarning yetakchi roli;

– umuminsoniy qadriyatlarni bilib olish;

– tarbiyalanuvchi shaxsni ilmiy dunyoqarashini shakllantirish;

– tarixni jamiyat qurilishi tajribasi bilan bog‘liqligi;

– ta’limning bir maqsadga qaratilganligi;

– ta’lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlariga muvofiqligi tamoyillari;

– didaktik prinsiplariga amal qilinishi va h.k.

Umumiy o‘rta ta’limda tarix fani darslarida o‘quvchilarning ilmiy dunyoqarashini shakllantirishga nisbatan qo‘yiladigan didaktik talablarga ko‘ra buyuk ajdodlarimizning ilmiy merosi, asarlarini tanlashda va ulardan foydalanishda quyidagilarga e’tibor berish lozim:

– o‘quvchilarning yoshi, bilimi va malakalari o‘sib borgan sari ularning ilmiy asarlarni o‘rganishga va ilmiy bilimlarni o‘zlashtirishga nisbatan qiziqishi ortib borishish dinamikasi;

– har bir dars uchun tanlangan buyuk ajdodlarimizning asarlari ilmiyligi jihatdan talabga javob berishi;

– muayyan sinf o‘quvchilarining ilmiy dunyoqarashi, bilim darajasi, qiziqishi va ehtiyojlariga mos bo‘lishi;

Aks holda o‘quvchining diqqat-e’tibori asosiy obyekt bo‘lgan tarixiymavzuni o‘zlashtirishdan chalg‘ishiga olib kelishi mumkin.

Ayni paytda didaktik imkoniyat hamda “ta’limiy yuk” nuqtayi nazaridan tarix darslarida foydalaniladigan buyuk ajdodlarimizning ilmiy merosini o‘rganish, asarlari bilan tanishish jarayonida mustaqil ishlay olishlari uchun o‘quvchilar:

– fan sohalari bo‘yicha ilmiy yondashuvlarni to‘g‘ri tahlil qilishlari va tushunishlari;

– undan tarixiy bilim ola bilimlari va ilmiy dunyoqarashni yuksaltirishlari;

– so‘zlaganda yuksak ilmiy dunyoqarashni namoyon qila bilishlari va turli mutafakkirlarning ilmiy xulosalarini tushuntirib bera bilishlari;

Tarix darslarida buyuk ajdodlarning ilmiy merosi vositasida o‘quvchilarning ilmiy dunyoqarashini rivojlantirishda o‘qituvchi rahbarligida jamoa bo‘lib ishlashni tashkil etish samarali yo‘llardan biridir. Darsda buyuk mutafakkirlarning asarlaridagi ilmiy g‘oyalar va yondashuvlarni tahliliga qaratilgan pedagogik jarayon o‘quvchilarning mantiqiy fikrlashlarini rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Mutafakkirlarning ilmiy g‘oya va qarashlarini munozaralar asosida tahlil qilish, har bir o‘quvchiga o‘z munosabatini bildirishga imkon berish, ilmiy izlanishlarning bugungi kundagi ahamiyati to‘g‘risida xulosalari bilan erkin o‘rtoqlashishlariga sharoit yaratish o‘quvchilarda ilmiy dunyoqarashni shakllanishini tezlashtirib yuboradi.

O‘quvchilarda ilmiy dunyoqarashni rivojlantirishda buyuk ajdodlarimizning ilmiy merosi, asarlarini tahlil qilish samarali bo‘ladi. Bu jarayonda o‘quvchini asardagi ilmiy tahlil uchun zarur bo‘lgan detallarga e’tiborini qaratishi kerak. Bu o‘quvchilarning ilmiy qonuniyatlarni anglashiga olib keladi, ularning olgan bilimlarini mustahkamlash va to‘ldirishga yordam beradi. Bu esa, ularda ilmiy bilim va tafakkurga asoslangan ilmiy dunyoqarashni shakllantiradi.

Ilmiy dunyoqarashni rivojlantirish uchun buyuk ajdodlarimizning ilmiy merosidan foydalanishda o‘qituvchi har bir o‘quvchining individual – psixologik xususiyatlarini ham inobatga olishi maqsadga muvofiqdir. Buyuk mutafakkirlarning ilm-fanning turli sohalariga doir asarlarini tushuntirish vaqtida bir qancha o‘quvchilarning barchasining mavzuni muhokama qilishda ishtirok etishini nazorat qilish zarur, shuning uchun iloji boricha o‘rganilayotgan ilmiy asarni diqqat bilan o‘rganishga va muhokama qilishga undash kerak. Shundagina o‘quvchi mavzudan uzoqlashmasdan berilgan topshiriqqa butun dars davomida o‘z e’tiborini jalb qiladi.

Ta’kidlab o‘tilganlardan a’yon bo‘ladiki, tarix darslarida qo‘llanishi mumkin bo‘lgan buyuk mutafakkirlarning ilmiy merosiga oid ma’lumotlar ko‘p. Biroq ulardan maqsadga muvofiq tarzda oqilona foydalanish lozim. Zero, dars o‘lchangan ma’lum muddat 40-45 daqiqani tashkil etadi. Shu davrda ma’lum tarixiy mavzularda dars o‘tish jarayonida mutafakkirlarning ilmiy merosi va asarlaridan foydalanishni bir tizimga, tartibga keltirish yoki pedagogik texnologiyalardan foydalanish lozim bo‘ladi.

Pedagogik texnologiyani yaratishni bir necha tamoyillari mavjud:

– muayyan dars mavzu, o‘quv predmetini ko‘zlangan maqsadni shakllantirib olish;

– umumiy maqsaddan kelib chiqib darsni yoki o‘quv predmetini modullarga ajratib, har bir moduldan kutilayotgan maqsadni va modullar hal qilinishi lozim bo‘lgan masalalar tizimini aniqlab olish;

– modul ichida yechiladigan masalalarning har biri bo‘yicha test savollarini tuzib chiqish;

– maqsadlar aniq bo‘lib, test va savollar tuzilganidan keyin, maqsadlarga erishish usullari saqlanib, ularni ishlatadigan aniq joylarini belgilab olish;

– tizimli yondashuv tamoyiliga binoan dars qismlari orasidagi zaruriy bog‘liqliklarga va fanlararo aloqalarga alohida e’tibor qaratiladi”. Demak, tarix ta’limida buyuk mutafakkirlarning ilmiy merosi va asarlaridan foydalanib darsni

tashkil qilish o‘quvchilar ilmiy faoliyatini yanada qiziqarli qilish bilan birga, ularning bilish faoliyatlarini, jumladan ilmiy dunyoqarashini oshiradi. Bu kabi dars o‘tish o‘quvchilarda boshqa tarixiy mavzular va fanlarni o‘zlashtirishga yordam beruvchi tarixiy mantiqni ham shakllantiradi.

Umumiy o‘rta ta’limda tarix fanini o‘qitishda qo‘shimcha manbalardan foydalanish muhim didaktik vosita sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, buyuk mutafakkirlarning ilmiy merosi va turli fanlarga oid asarlari o‘quvchilar uchun real tarixiy voqea yoki hodisani teran anglashda ishonchli manba hisoblanadi va ularning ilmiy dunyoqarashini shakllantirish imkoniyatini oshiradi. Bu, o‘z navbatida, o‘quv jarayonini muayyan didaktik imkoniyatlarini yaratuvchi pedagogik talablar asosida tashkil etishni taqozo etadi.

Agar o‘qituvchi shu pedagogik talabni e’tiborga olmas ekan, o‘zi va o‘quvchi o‘rtasida ko‘z ilg‘amas “psixologik to‘siq” paydo bo‘ladi. Natijada o‘quv-tarbiya jarayoniga salbiy ta’sir qiladi. Buning uchun o‘qituvchi psixologiya va pedagogika fanlari yutuqlaridan, tarix fanini o‘qitishning metodologik asoslari, yangi metodlarini, jumladan tarix ta’limini boyitish, uning didaktik imkoniyatlarini kengaytirish borasida izlanishlar olib borish lozim. Shuning uchun ham keyingi yillarda ta’lim jarayoniga ta’limning interfaol metodlari tatbiq etilmoqda. Demak, ta’lim jarayonida interfaol metodlardan foydalanish – o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi o‘zaro aloqa, munosabatlarni yanada kuchaytirish, faollashtirishni anglatadi. Shu ma’noda tarix darslarida buyuk ajdodlarimizning ilmiy merosi vositasidan foydalanish, birinchidan, ta’lim jarayonini faollashtiradi. Ikkinchidan, buyuk mutafakkirlarning ilmiy merosi va turi sohalar bo‘yicha ilmiy tadqiqotlariga doir qarashlari tarix darslarini samarali tashkil etish imkoniyatini didaktik jihatdan boyitadi.

Tarix fani o‘qituvchisi faoliyatidagi muhim jihatlaridan biri – o‘qituvchining o‘quvchilarga yaqinligi, ya’ni uning pedagogik taktikani to‘g‘ri tashkil qila olishidir. Zero, barcha pedagogik natijalar kabi o‘quvchilarda buyuk ajdodlar merosi asosida ilmiy dunyoqarashini shakllantirishda ham, o‘qituvchi o‘quvchining eng yaxshi kishisi, uning mehribon ustozi hisoblanadi. Shu yondashuv buyuk mutafakkirlarning merosidan tarixiy manba sifatidagi tatbiqi va bu asosda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish jarayonida ham saqlanishi lozim.

Tarix ta’limida o‘qituvchi ko‘zlagan maqsadiga erishishi uchun bu jarayon o‘z ichiga quyidagilarni olishi kerak:

– mavzuga oid buyuk ajdodlarimizning ilmiy merosinidan foydalanish;

– metodik tizim komponentlarini, eng avvalo, darsda bayon qilinadigan ilmiy tushunchalarni tahlil qilish, ularni asosiy va ikkinchi darajali qismlarga ajratish kerak.

– tarix darsida o‘rganilishi zarur bo‘lgan dalillar, tushunchalar ma’lum mantiqiy ketma-ketlikda va izchillikda bayon qilinadi. Shuning uchun o‘qituvchi, birinchi navbatda, nimani avval, nimani keyin bayon qilish yo‘llarini belgilab oladi. Darsda muammoli vaziyat yaratish, fanlararo aloqani amalga oshirish yo‘llarini, uyga beriladigan vazifaning hajmi va xarakterini belgilab beradi. Bu tadbirda ham o‘quvchilarda mustaqil tarzda mavzuga monand buyuk mutafakkirlarning asarini

topish hamda shu mavzu bilan tarixiy mantiqiy bog‘liqligi haqida mustaqil mushohada yuritishga harakat qilish bir qator didaktik qulayliklarga zamin yaratadi. Shu maqsadda u o‘quvchilarni birdek darsga jalb qilish, ularni yangi material mazmuniga qiziqtirish yo‘llarini izlab topish uchun darslik matnini psixologik jihatdan tahlil qiladi.

O‘quvchilarda ilmiy dunyoqarashni rivojlantirishda tarix ta’limidan foydalanish va buyuk mutafakkirlarning ilmiy merosidan foydalanishning didaktikaning oddiydan murakkabga tamoyilidan foydalanilsa, uning imkoniyatlari kengayadi. Bunday shakl va usullar orqali dars o‘tishdan asosiy maqsad O‘zbekiston va Jahon tarixidagi mavzu materiallari mazmunini uzviy aloqadorlikda o‘raganishda yordam berish bilan birga o‘quvchilarning yaxlit ilmiy dunyoqarashi, tarixiy bilimlar tizimini shakllanib, ta’lim samaradorligiga erishishdir.

“Dars – ta’limning asosiy shakllari ekan, u ilmiy, tizimli, tushunarli, ongli va faol bo‘lishi, bilimlar mustahkam o‘zlashtirilishi o‘quvchining shaxsiy xususiyatlari e’tiborga olingan holda tashkil etilishi dars oldiga qator didaktik talablarni qo‘yadi. Jumladan, har bir darsda: aniq maqsadni ko‘zlagan holda puxta rejalashtirishi; aniq g‘oyaviy, mafkuraviy yo‘nalishga ega bo‘lishi; maktabning ijtimoiy muhitining imkoniyatlarini hisobga olgan holda amaliyot bilan aloqadorlikda, ko‘rsatmali vositalar bilan jihozlanishi; xarakteriga mos usul, uslub va vositalardan samarali foydalanish; dars jarayonida o‘quvchi va o‘qituvchi o‘zaro faol munosabatda bo‘lishi, o‘quvchi passiv tinglovchiga aylanmasligini ta’minlash; mashg‘ulotlarni butun sinf va har bir o‘quvchi bilan, ularning shaxsiy xususiyatlari e’tiborga olingan holda olib borish; darsning mazmuni va xarakteriga qarab xalqimizning boy ma’naviy merosidan, ma’naviy qadriyatlaridan samarali foydalanish.

Professor N.Mo‘minov tahlillariga ko‘ra, didaktik tamoyillar quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

– ta’lim-tarbiyada ta’lim oluvchining diqqatini berilayotgan bilimga qaratib, uning jarayon oxiriga qadar saqlab turish;

– har qanday obyektiv haqiqatni ilmiy asoslab berish;

– bilim berishda o‘quvchining imkoniyati va xususiyatidan kelib chiqib bilim berishda ko‘proq ko‘rgazmali vositalardan foydalanish;

– bilim berishda muntazamlilik va davomiylikni ta’minlash;

– o‘quv jarayonini mehnat jarayoni bilan qo‘shib olib borish;

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Маҳкамов С., Булгакова М. Тарихни ўрганишда қўшимча манбалардан фойдаланиш услублари. // Таълим тараққиёти. ХТВнинг ахборотнома журнали. –Тошкент: 2001. – №3,4 (12-13). –Б.85-90.

TARIX FANINI O‘QITISH JARAYONIDA O‘QUVCHILARNING ILMIY DUNYOQARASHINI RIVOJLANTIRISH MAZMUNI

Yunusaliyev Jahongir Ortiqbayevich

Qo‘qon davlat pedagogika instituti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: O‘quvchilarning o‘quv-amaliy faoliyati og‘zaki-ko‘rgazmali o‘qitish usuli bilan bog‘liq har xil jihoz va mexanizmlar vositasida qiladigan ishlari, har xil topshiriqlarni bajarishlari, ijodiy tadqiqot ishlaridan iboratdir. Bu esa tarix darslarida amaliy metod asosida amalga oshiriladi. O‘zida aniq tarixiy voqeliklarni aks ettiruvchi buyuk ajdodlarimizning ilmiy merosi, ilmiy-tarixiy asarlari ko‘rgazmali vosita sifatida tarix o‘qitish sifati va samaradorligini oshirishda bir qator didaktik imkoniyatlarga ega.

Kalit so‘zlar: Renasans davri, Yangi O‘zbekiston, zamonaviy ixtisoslashtirilgan maktablar, Markaziy Osiyo sivilizasiyasi, motivatsiya berish, Ahmad Farg‘oniy, Imom Buxoriy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Mirzo Ulug‘bek, ilmiy meros, ratsional foydalanish.

Аннотация: Учебно-практическая деятельность студентов состоит из работы, которую они выполняют с помощью различных приспособлений и механизмов, связанных с устно-изобразительным методом обучения, выполнения различных заданий, творческой исследовательской работы. Это делается на основе практического метода на уроках истории. Научное наследие наших великих предков, отражающее конкретные исторические реалии, научно-исторические произведения как демонстрационное средство обладают рядом дидактических возможностей для повышения качества и эффективности преподавания истории.

Ключевые слова: период Возрождения, Новый Узбекистан, современные специализированные школы, центральноазиатская цивилизация, мотивация, Ахмад Фаргани, Имам Бухари, Абу Райхан Беруни, Абу Али ибн Сина, Мирза Улугбек, научное наследие, рациональное использование.

Abstract: The educational and practical activity of the students consists of the work they do with the help of various devices and mechanisms related to the oral-visual teaching method, performing various tasks, creative research works. This is done on the basis of a practical method in history classes. The scientific heritage of our great ancestors, which reflect clear historical realities, scientific-historical works as a demonstration tool have a number of didactic possibilities for improving the quality and effectiveness of history teaching.

Key words: Renaissance period, New Uzbekistan, modern specialized schools, Central Asian civilization, motivation, Ahmad Farghani, Imam Bukhari, Abu Rayhan Beruni, Abu Ali ibn Sina, Mirza Ulugbek, scientific heritage, rational use

Bugungi kunda tarix fanini o‘qitishni yangi bosqichga olib chiqishga qaratilgan konsepsiya doirasida ko‘plab tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Mazkur jarayonda tarixiy xotirani sog‘lomlashtirish, unda buyuk ajdodlar merosini o‘qitish tizimini zamonaviylashtirish, yangicha yondashuvlar va eng so‘nggi ma’lumotlar bilan boyitishga harakat qilinmoqda. Jamiyatning yangi rivojlanish bosqichida yoshlarda buyuk ajdodlar shaxsiyatiga munosib voris bo‘lish tuyg‘usini shakllantirish orqali

ularni ilm-fan, texnika-texnologiya taraqqiyotiga, jamiyatning rivojlanishiga o‘z ulushini qo‘shadigan mutaxassislar qilib tarbiyalash dolzarblik kasb etmoqda. Mana shu jarayonda yoshlarda buyuk ajdodlar ilmiy merosi asosida ilmiy dunyoqarashni shakllantirish zarurati ortib bormoqda. Zero, «donishmand xalqimiz har ikki Renessans davrida jahonning eng ilg‘or, taraqqiy etgan xalqlari qatorida bo‘lgani barchamizga ulkan g‘urur va iftixor bag‘ishlaydi». Buning uchun «biz «Yangi O‘zbekiston maktab ostonsidan boshlanadi» degan ulug‘ g‘oya asosida mamlakatimizda maktab ta’limini umummilliy harakatga aylantirish bo‘yicha boshlangan ishlarimizni yangi bosqichga ko‘tarish»imiz, yurtimizda mutlaqo yangi mazmun va shakldagi zamonaviy ixtisoslashtirilgan maktablar tizimini yaratish bo‘yicha davlat dasturlari ishlab chiqsh talab etiladi.

O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”da milliy ta’lim jarayonini tashkillashtirish, yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashning konseptual asoslari, maqsadlari, ularni hal qilish bilan bog‘liq muammolarni yechish vazifalari va yo‘llari aniq hamda ravshan belgilab berilgan. Jamiyatimizning asosini tashkil etuvchi yoshlarni bugungi kunda jamiyat qiyofasini belgilash, millat oldidagi mas’uliyatini his etish, ular dunyoqarashini to‘g‘ri shakllantirishga qaratilgan tarbiya jarayonlarini takomillashtirish mamlakatimizning bugungi kun ta’lim tizimida kechayotgan muhim tarbiyaviy jarayondir.

Mazkur paragrafda buyuk ajdodlarimiz merosi vositasida tarix fanini o‘qitish tizimini takomillashtirish, pedagogik jarayonda buyuk ajdodlar merosini to‘g‘ri va obyektiv tushuntirish va real asoslar bilan dalillash asosida o‘quvchilarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish va ularda ilm-fan, ilmiy faoliyat hamda izlanishlarga yo‘naltirishning shart-sharoitlari tadqiq etilgan.

Ma’lumki, Markaziy Osiyo sivilizasiyasi shakllanishi va rivojlanishida uning “yuragi” hisoblangan O‘zbekiston hududi muhim o‘rin tutgan. Mamlakatimizda joylashgan tarixiy-madaniy meros obyektlari, «Ajdodlarimiz tafakkuri va dahosi bilan yaratilgan eng qadimgi toshyozuv hamda bitiklar, xalq og‘zaki ijodi namunalaridan tortib, bugungi kunda kutubxonalarimiz xazinasida saqlanayotgan ming-minglab qo‘lyozmalar, ularda mujassamlashgan tarix, adabiyot, san’at, siyosat, axloq, falsafa, tibbiyot, matematika, mineralogiya, kimyo, astronomiya, me’morlik, dehqonchilik va boshqa sohalarga oid qimmatbaho asarlar bizning buyuk ma’naviy boyligimizdir. Bunchalik katta merosga ega bo‘lgan xalq dunyoda kamdan-kam topiladi». Bunday ilmiy merosni va uni yaralishiga yuksak hissa qo‘shga mutafakkirlarning asarlari, ilmiy g‘oyalari va qarashlarini o‘quvchilarga o‘rgatish, ularga motivatsiya berish va qiziqtirish orqali ilmiy dunyoqarashini rivojlantirish muhim vazifalardan biri bo‘lib qolaveradi.

Hech bir millat tarixiy xotirasiz o‘z taraqqiyot yo‘lini belgilab ololmaydi. Shuning uchun ham jamiyatimizda tarix fani vakillari zimmasiga ulkan vazifalar yuklatilmoqda. Ular tarixni o‘qitishda yuksak mas’uliyatni anglagan holda tarixiy dunyoqarashni shakllantirish bilan birga o‘quvchilarda o‘tmish ajdodlar merosiga munosib bo‘lish hissini shakllantirish ham muhim vazifalardan biridir.O‘tgan davr ichida, Ahmad Farg‘oniy, Imom Buxoriy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino,

Mirzo Ulug‘bek kabi o‘nlab allomalarimizning xalqaro miqyosda o‘tkazilgan tavallud sanalari, ularning qadamjolarini obod etish va asrab-avaylash borasidagi ulkan ishlar xalqimizning, ayniqsa, yosh avlodning ma’naviy dunyosini boyitibgina qolmasdan, buyuk o‘tmishimizdan meros bebaho ma’naviy mulkining jahon miqyosida yanada chuqurroq tushunilishi va keng e’tirof etilishiga xizmat qildi. Ayniqsa, o‘rta asrlarda yurtimiz zaminidan o‘nlab buyuk olim-u shoirlar,buyuk mutafakkirlarning matematika, fizika, kimyo,astronomiya, etnografiya, tibbiyot, tarix, adabiyot, axloq, falsafa kabi tabiatva jamiyatshunoslik fanlarining barcha sohalariga oid asarlari faqat O‘rta Osiyo xalqlarining emas, balki butun dunyo xalqlarining ma’naviymulkidir.Mana shu ilmiy meros vositasida o‘quvchi-yoshlar ongiga ta’sir ko‘rsatish, ularni tarbiyalash asosida ilmiy dunyoqarashini shakllantirish dolzarb vazifalardan biridir.

Tarixdan ma’lumki, mamlakatlarning jadal taraqqiy etishi sabablaridan biri millat tarbiyasini tashkil etishni o‘z vaqtida anglagan va to‘g‘ri amalga oshirganligi hisoblanadi. Shubhasiz, O‘zbekistonda ham shunga o‘xshash puxta o‘ylangan ta’lim tizimi mavjud. Biroq uni amalga oshirishning asosiy mazmuni, ta’limning barcha sohalarini, birinchi navbatda, tarix ta’limini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yishni, jumladan, tarixiy merosimizdan, buyuk ajdodlarimizning ilmiy merosidan to‘g‘ri foydalanish, tarixiy bilimlar orqali o‘quvchilarning ijtimoiy-iqtisodiy bilimlariga doir tasavvur va tushunchalari tizimini kengaytirish talab etildi.

Pedagogik tadqiqotlar tahlili, «Sharq mutafakkirlari qoldirgan qadriyatlar, ularning qarashlari vositasida o‘quvchilar ilmiy dunyoqarashini shakllantirishda bir qator pedagogik yondashuvlarga amal qilish lozimligini ko‘rsatdi. Ular quyidagilar: tarbiya jarayonida o‘quvchilar ma’naviyatini Sharq mutafakkirlari tomonidan yaratilgan qadriyatlar asosida shakllantirishga qaratish; tarbiyaviy jarayonlarni ijtimoiy hayot va kasbiy mehnat sirlarini egallash bilan uyg‘unlashtirish; hurmat qilish; o‘quvchilarni ma’naviy-madaniy yuksaltirish jarayoniga nisbatan talabchanlik, hushyorlik bilan yondashish; o‘quvchilarda Sharq mutafakkirlari tomonidan yaratilgan ilmiy meros va asarlar asosida shakllantirishga yo‘naltirilgan ta’lim-tarbiyaviy ishlarning izchilligi, muntazamligi, yaxlitligiga erishish; o‘quvchilarda o‘zini-o‘zi tarbiyalash, sezgirlik, ogohlik ko‘nikmalarini tarkib toptirish»va hokazo.

Tarix fanining o‘qitish metodlari tizimini tashkil etgan ko‘rgazmali, og‘zaki, matnlar vositasida o‘qitish va amaliy metodlar bir-biri bilan o‘zaro chambarchas bog‘langan. Ularning o‘rtasidagi bog‘lanish, o‘qitish usullari va ularga muvofiq fikrlash faoliyat turlarining o‘zaro aloqasi va bir-biriga ko‘rsatgan ta’siriga asoslanadi. Bu borada buyuk ajdodlarimizning ilmiy merosini aniq va tushunarli qilib yetkazib berish tarix fanini o‘qitish samaradorligini oshirishning qo‘shimcha va ishonchli didaktik imkoniyati sifatida muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘quvchilarda ilmiy dunyoqarashni rivojlantirishda buyuk ajdodlarimizning ilmiy-ma’naviy merosidan ratsional foydalanish, pedagogik jarayonning ta’sirchanligini oshirishda buyuk mutafakkirlarning asarlari, ilmiy merosini ko‘rgazmalilik vositasida tanishtirish, o‘qishga va o‘rganishga sharoit yaratish ham samarali bo‘ladi. Bu borada pedagogik jarayondagi ko‘rgazmalilik metodi ham juda

foydali bo‘ladi. Tarixni o‘qitishning ko‘rgazmalilik vositalarining didaktik ahamiyati N.Andrevskaya va V.Bernadskiylar tomonidan tadqiq etilgan. Ularning fikricha, «ko‘rgazmali obrazlarsiz o‘quvchilarda o‘tmish to‘g‘risida mazmunli tasavvur yaratib bo‘lmaydi. O‘qituvchining so‘zi, hujjatlardan olingan parcha yoki tarixiy roman yozuvchi badiiy tasvirlari qanchalik yorqin va ravshan bo‘lmasin, o‘quvchilar ongida o‘tmish zamonlardagi hayot to‘g‘risida to‘g‘ri va aniq tasavvur hosil qilish uchun so‘zning birgina o‘zi kifoya qilmaydi. Shunday ekan, o‘quvchilarning ilmiy dunyoqarashini shakllantirishda tarix fanini o‘qitishdagi ko‘rgazmalilikni oshirish, ajdodlarning ilmiy merosi bilan tanishtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Boshqa bir olim I.Gittas o‘zining “Tarixdan boshlang‘ich ta’lim metodikasi” asarida o‘quvchilarda ilmiy dunyoqarashni shakllanishini ko‘z bilan ko‘ringan tarixiy obraz orqali tushuntirib beradi. Uning fikricha, «faqat ko‘z bilan ko‘rib tushunishgina tarixiy obrazning hamma xususiyatlari bilan birgalikda haqiqatni aniq va to‘g‘ri bo‘lishini ta’minlaydi». Demak, tarix fani orqali o‘quvchilarning ilmiy dunyoqarashini shakllantirishda ko‘rgazmalilik metodi yuqori samaradorlikka ega. Bu metodddan buyuk ajdodlarimizning boy merosi vositasida o‘quvchilarda tarixiy tafakkurni shakllantirish bilan birga ilmiy dunyoqarashini oshirishga yo‘naltirish muhim vazifalardan biridir. Tarix fanini o‘qitishda ko‘rgazmalilik og‘zaki metodga, og‘zaki metod ko‘rgazmali metodga asoslangandek, o‘quvchilarning ilmiy dunyoqarashini shakllantirishga yo‘naltirilganamaliy faoliyati ham o‘qituvchining og‘zaki va ko‘rgazmali tasvirlariga suyanadi. Zero, «ta’lim-tarbiya jarayonida Ha ajdodlarimiz yaratgan bebaho ma’naviy-pedagogik merosdan foydalanish muhim ahamiyatga ega. IX-XII asrlar Sharq mutafakkirlari tomonidan yaratilgan tarbiyaviy qadriyatlar, yosh avlodni axloqiy jihatdan tarbiyalashda hamon dolzarb bo‘lib turibdi. Bu meros yosh avlodni har tomonlama yetuk, barkamol shaxs sifatida shakllantirish, ularga to‘g‘ri ta’lim-tarbiya berishga xizmat qiladi, chunki ular ta’limotida inson odobi, axloqi, iymon-e’tiqodi, vijdoni, erkinligi, oila, farzand tarbiyasi masalalari nazariy va amaliy ahamiyatini yo‘qotmagan. Ularning tarbiyaviy qadriyatlari, didaktik asarlari bugungi kunda ham yoshlar ta’lim-tarbiyasiga ulkan hissa qo‘shib kelmoqda». IX-XII asrlar Sharq mutafakkirlarining tarbiyaviy qadriyatlari, boy pedagogik merosi, yosh avlod ta’lim-tarbiyasiga oid qarashlari, ayniqsa, axloq-odob, insof, diyonat, iymon, e’tiqod, vijdon, mehnatsevarlik, ilmsevarlik, insoniylik xususidagi g‘oyalari barkamol shaxsni har tomonlama va uyg‘un rivojlantirishda asosiy vosita bo‘lib xizmat qiladi. Shuningdek, ularning ta’limiy-axloqiy qarashlarida asosiy o‘rin tutgan ilmsevarlik, vatanparvarlik, erkinlik, insonparvarlik, mehnatsevarlik, iymon-e’tiqodlilik, halollik, axloqiy poklik, odillik, birodarlik, hurfikrlilik kabi barkamol inson tarbiyasiga xos g‘oyalarni yosh avlod ongiga singdirish muhim didaktik qimmatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Джумаев. К.Д. Бухарская традиционная вышивка концаXX начало XX века. Автореф.– Ташкент:2003. –С. 28

2. Жалилов З. IX-XII асрларда Шарқ мутафаккирлари яратган тарбиявий қадриятлардан олий педагогик таълим жараёнида фойдаланиш технологияларини такомиллаштириш. Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. –Тошкент.: ТДПУ. –Б. 10.
3. Андрилская Н.В. Етти йиллик мактабда тарих ўқитиш методикаси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1950. – Б. 182-183.
4. Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Тошкент.: Маънавият, 2008. – Б. 30-31
5. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. –Тошкент.: Ўзбекистон. 2021. –Б. 225.

TARIXNI O‘RGANISHDA O‘QITISH USULLARI

Xamidov Shukurulloh
Farg‘ona davlat universiteti magistri

Annotatsiya Tarix fani o‘qituvchilariga qanday dars berishni o‘rgatish juda muhim. Tarixni o'qitishga oid ushbu maqolada tarix darslarini yanada qiziqarli qilish uchun o'qitish usullaridan qanday foydalanish haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: usul, samaradorlik, monotonlik, modellashtirish, muhokama, ma'ruza.

Аннотация Очень важно научить учителей истории преподавать. В статье, посвященной преподаванию истории, описывается, как используются методы преподавания, чтобы сделать уроки истории более увлекательными.

Ключевые слова метод, эффективность, монотонность, моделирование, обсуждение, лекция.

Abstract Teaching history teachers how to teach is essential. Reviewing the recent literature on history teaching, this article describes how teaching methods are being used to make history lessons more engaging.

Key words method, efficiency, monotony, simulation, discussion, lecture

Ushbu maqolada Tarix fanidan mashg‘ulot davomida samarali qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan turli usullar haqida fikrlar yuritilgan. Ushbu usullarga tarix o‘qituvchilari tomonidan qabul qilingan an’anaviy shuningdek, zamonaviy uslublar kiradi. Umuman olganda, har qanday o‘qitish usullaridan foydalanishning asosiy maqsadi bu talabalarning o‘zlashtirish samaradorligini oshirish va ma’lumotlarni sodda va oson yo‘llar bilan ularga yetkazishdir. U sinfda o‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasida o‘qituvchi tomonidan sinfda amalga oshiriladigan bir qator rejalashtirilgan tadbirlar orqali amalga oshiriladi. Ushbu rejalashtirilgan tadbirlar o‘quv rejasini o‘qitish usulini yetkazish taktikasidir. O‘qitish usuli, birinchi navbatda, bolalarning psixologik va jismoniy ehtiyojlarini hisobga olgan holda o‘quv dasturini

bajarishning ilmiy usulidir. Bu usullar oldindan belgilangan maqsadlarga erishish vositalaridir.

Turli o‘qitsh metodlaridan foydalanish asosan mavzuni qiziqarli, hayotiy va jonli qilish uchun zarurdir. Monotonlik (bir xillik)ka yo‘l qo‘ymaslik uchun turli darslar o‘qitishning turlicha yondashuvlarini talab qiladi. Agar o‘qituvchi har doim bir xil usulni qo‘llasa, bu mashg‘ulotni samaradorligi va qiziqarliligiga keskin ta’sir ko‘rsatadi. Shuningdek turli hil metodlardan foydalanish o‘quvchilarda kognitivlik va turlicha yondashuvchanlik kabi qobiliyatlarni rivojlantirish, fikrlash qobilyatini o‘stirishda aham muhim ahamiyatga ega. Bitta usulni qo‘llash orqali esa bunday umumiy rivojlanishga erishish mumkin emas.

Biz tarix o‘qitish metodlari haqida gapirar ekanmiz ularning xususiyatlari qanday bo‘lishi lozimligini belgilab olishimiz lozim. Quyidagi bir necha xususiyatlar esa albatta har qanday metodda mavjud bo‘lishi lozim:

- mehnatga muhabbat uyg‘otishni maqsad qilgan bo‘lishi kerak.
- o‘quvchilarga olgan bilimlarini amalda qo‘llash imkoniyatini berishga qaratilgan bo‘lishi kerak.
- talabalarning qiziqish doirasini kengaytirishi kerak .
- ushbu metodlar asosiy e’tiborni og‘zaki nutq va ma’lumotlarni yodlashdan maqsadli, aniq va real vaziyatlar orqali, shuningdek, ilmiy jihatdan o‘rganishga o‘tkazishlari kerak.

Tarix fanidan an’anaviy ma’ruza usuli bilan bir qatorda ko‘plab o‘qitish usullari mavjud. Keling, turli usullarni ko‘rib chiqaylik.

Biz aslida bu usullarni turli guruhlarga bo‘lishimiz mumkin va shulardan biri o‘quvchi diqqat markazga qo‘yilgan faol ta’lim usullaridir.

Takliflardan biri o‘quvchilarni o‘quv jarayoniga jalb etadigan faol o‘qitish usullaridan foydalanishdir. Ushbu guruh munozaralar, muammolarni yechish, amaliy ishlar, rolli o‘yinlar va boshqa usullarni o‘z ichiga olib, ular orqali talabalarni darsga faol jalb qilish mumkin.

Munozara metodi. Munozara talabalardan ma’lum bir tarixiy muammoni tanqidiy tahlil qilishni talab qiladi va bu masalaning ikki tomonini ko‘rsatishning ajoyib usulidir. Masalan, tarix o‘qituvchi talabalardan "Oriylar kim edi?” Oriylarning asl vatani qayerda edi?" degan savollarni muhokama qilishni so‘rashi mumkin. Avval sinfni ikkita alohida guruhga ajiratiladi va keyin har bir guruhga qo‘yilgan muammoni turli tarixiy nuqtai nazaridan yoritadigan turli materilallar taqdim etiladi. Nihoyat, ikki guruh o‘qituvchining ko‘rsatmasi bilan bahs-munozaraga kirishdilar. Munozara talabalarga ko‘proq tanqidiy fikrlashga yordam beradi[1;25-b].

Simulyatsiya orqali o‘rganish - bu talabalar haqiqiy darslikni o‘rganishdan oldin oldindan modellashtirilgan o‘quv muhitida (SLE) tarixiy mavzuni o‘rganish jarayonidir. Bu muhitlar turli ssenariylar va tartiblardan foydalanadi va haqiqatdan farq qiladi. Talaba o‘quvchilar tarixiy saboq olishlari mumkin bo‘lgan ba’zi tarixiy voqealarni sahnalashtirishi kerak . Misol uchun “Vena kongressi” sinfda sahnalashtiriladi, unda har bir talaba unda ishtirok etgan tarixiy shaxslarning rollarini taqlid qiladi.

Ta’limning yana bir faol usuli - bu ko‘rgazmadan foydalanish, ya’ni “o‘tmish va hozirgi davr o‘rtasidagi tasodif va uzluksizlikni ko‘rsatuvchi tarixiy masalaning og‘zaki ko‘rgazmasi”. Ushbu usuldan foydalanib, o‘qituvchi rahbarligida bir guruh talabalar ko‘rgazmali chiqishlari kutiladi. Masalan, “Ikkinchi jahon urushidan keyingi ikki qutbli siyosat” mavzusini o‘rgatishda guruhdagi talaba qaysidir davlat, deylik, AQSh yoki SSSR vakiliga aylanadi. Keyin talabalar sinfning qolgan qismiga o‘z mamlakatlari qarashlari va siyosati haqida hisobot berishadi[2;61-b].

Muammoni hal qilish usuli. Bu jarayonda, biz bilmagan narsalarni kashf qilish uchun bilgan narsamizdan foydalanamiz. U gipotezalarni yaratish, bu bashoratlarni sinab ko‘rish va qoniqarli yechimlarga erishish orqali to‘siqlarni yengib o‘tishni o‘z ichiga oladi. Muammoni hal qilish uchta asosiy funktsiyani o‘z ichiga oladi:

•Axborot qidirish

•Yangi bilimlarni shakllantirish

•Qarorlar qabul qilish

Bu o‘quv dasturining juda haqiqiy qismidir. Bu talabalar o‘z ta’lim olishlari uchun mas’uliyatning bir qismini o‘z zimmalariga olishlari va muammolarni hal qilish, nizolarni hal qilish, muqobil variantlarni muhokama qilish va o‘quv dasturining muhim elementi sifatida fikrlashga e’tibor berish uchun shaxsiy harakatlarni amalga oshirishi mumkinligini taxmin qiladi. Bu talabalarga yangi olingan bilimlarini mazmunli, hayotiy faoliyatda foydalanish imkoniyatini beradi va fikrlashning yuqori darajalarida ishlashga yordam beradi.

Ushbu usullarning har biri tegishli o‘quv materiali bilan to‘ldirilganda, har qanday tarix sinfida qo‘llanilishi mumkin. Har bir usul haqiqatdan ham o‘quvchilarni tarixni o‘rganish jarayoniga jalb qiladi.

Yana bir usullar jamlanga usullar guruhi o‘qituvchi markazli ta’lim usullaridir. O‘qituvchiga yo‘naltirilgan ta’limda o‘quvchilar bor e’tiborini o‘qituvchiga qaratadi. O‘qituvchi gapiradi, talabalar esa faqat tinglashadi. Ta’lim o‘qituvchi markazida bo‘lsa, sinf tartibli bo‘lib qoladi. Talabalar jim, o‘qituvchi esa sinf va uning faoliyatini to‘liq nazorat qiladi. Uning eng ekstremal talqiniga ko‘ra, o‘qituvchilar o‘qituvchiga yo‘naltirilgan ta’lim modelidagi asosiy vakolatli shaxsdir [3;42-b].

Ma’ruza usuli. Ma’ruza o‘qitish usuli ta’lim muassasasida qo‘llaniladigan eng qadimgi o‘qitish usuli hisoblanadi. Ushbu o‘qitish usuli axborotni uzatishning bir tomonlama kanalidir. Talabalarning ushbu o‘qitish usulida ishtirok etishi faqat tinglash va ba’zan ma’ruza davomida kerak bo‘lganda ba’zi eslatmalarni yozib olish, ma’lumotlarni birlashtirish va uni tartibga solishdir. Ushbu usuldagi muammolardan biri sinfda o‘quvchilar e’tiborini jalb qilishdir. Ma’ruza o‘qitish usulining asosiy afzalliklari shundaki, bitta darsda ko‘p mavzularni qamrab olish mumkin.

Hikoya usuli. Hikoyalar odamlarda faktlar yoki statistikaga qaraganda ancha uzoqroq qoladi. Agar o‘qituvchi ajoyib hikoyachiga aylansa, u o‘rgatgan har qanday kontseptsiya yillar davomida esda qolishiga ishonch hosil qilishi mumkin. Hikoyalar insoniyatdan beri mavjud. Bu muhim haqiqatni boshqa odamga etkazishning eng samarali usullaridan biridir. Bu ikki kishi o‘rtasidagi aloqa nuqtasi. Bu ko‘pincha tartibsizlik va tartibsizliklarga to‘la dunyoda ma’no, kontekst va tushuncha beradi.

Shu sababli, o‘qituvchilar o‘z talabalariga erishishga umid qilsalar, hikoyalardan foydalanishlari kerak[4;38-b].

Biografik usul. Biografiya - bu jamiyatni qiziqtirishi mumkin bo‘lgan buyuk erkak yoki ayolning hayoti haqidagi hikoya. Muhim voqealar sifatida, buyuk shaxslar hayotini aylantiring, Tarixni Biografik metod orqali o‘rgatish mumkin. Ular buyuk shaxslarning ezgu bitimlarini ta’kidlash uchun xronologik tartibda taqdim etilgan. Uning asosiy afzalliklari

• O‘quvchilarning tabiiy qiziqishini ta’minlash;
• Ijtimoiy va axloqiy fazilatlarni singdirish;
• Oddiy va rag‘batlantiruvchi[5;64-b].

So‘nggi yillarda ko‘proq o‘qituvchilar talabalarga qaratilgan yondashuvga o‘tishdi. Biroq, ba’zi talabalar o‘qituvchiga asoslangan ta’lim samaraliroq strategiya ekanligini ta’kidlashadi. Ko‘pgina hollarda, o‘qituvchilar talabalarning barcha ehtiyojlarini qondirishni ta’minlash uchun birlashtirilgan yondashuvlardan foydalanishlari ma’qul. O‘qituvchi sinfni hammadan ko‘ra yaxshiroq biladi, shuning uchun o‘qituvchi o‘quvchilar uchun nima eng yaxshi ekanligini hal qiladi.

Keyingi metod esa asosiy manbalardan foydalangan usullardir. Tarixiy birlamchi manbalar o‘tmishda qolgan izlardir. Tarix o‘qituvchisi ushbu tarixiy manbalar yordamida o‘tmishdagi voqealar haqida tizimli ma’lumot berishga o‘rgatishi mumkin.

Bu usullarga yodgorliklarga sayohatlar, arxivlarga sayohatlar, muzeylarga sayohatlar kiradi.

Arxivlarga o‘quv sayohatlari. Arxivlar, shuningdek, yozuvlar yoki hisobga olish idorasi deb ataladi, davlat, yarim davlat, institutsional yoki xo‘jalik yurituvchi sub’ekt tomonidan o‘z ishlari bo‘yicha tuzilgan yoki olingan va u yoki uning merosxo‘rlari tomonidan saqlanadigan uyushgan hujjatlar to‘plami uchun ombor. Bu arxivlarda tarixiy qayta qurish uchun birlamchi adabiy manbalar saqlanadi. Arxivdagi manbalarni keng tasniflash mumkin:

Muzeylarga o‘quv sayohatlari. Muzey insoniyat va atrof-muhitning asosiy moddiy dalillarini saqlash va talqin qilishga bag‘ishlangan muassasadir. Ushbu asosiy dalillarni saqlab qolishda muzey ko‘pincha taqqoslanadigan kutubxonadan sezilarli darajada farq qiladi, chunki muzeyda saqlanadigan ashyolar asosan noyob bo‘lib, o‘rganish va tadqiqot uchun xom ashyo hisoblanadi. Muzeylarda boy yozuvlar, tangalar va boshqa ashyolar saqlanadi. Ushbu epigrafik va numizmatik manbalar tariximiz haqida birlamchi bilimlarni beradi.

Birlamchi manbalar tarixning xom ashyosi, ya’ni o‘rganilayotgan davrda yaratilgan asl hujjatlar va ashyolardir. Ular ikkinchi darajali manbalardan, voqealarni qayta hikoya qiluvchi, tahlil qiladigan yoki sharhlaydigan hisoblardan, odatda, vaqt yoki joy masofasidan farq qiladi. Tarix fani o‘qituvchisining burchi yoshlarni bu noyob, ko‘pincha chuqur shaxsiy hujjatlar va ashyolar bilan yaqindan aloqada bo‘lishdir. Bu talabalarga asosiy manbalarni tahlil qilishga yordam beradi, shuningdek, qiziqish uyg‘otadi va tanqidiy fikrlash va tahlil qilish ko‘nikmalarini oshiradi.

Bu yerda tasvirlangan o‘qitish usullarining hech biri, agar ular insonparvarlik nuqtai nazaridan o‘qitilmasa, o‘quvchilarga ta’sir ko‘rsatmaydi. Tarixni talabalar o‘z hayotlari bilan bog‘lashlari va mazmunini topishlari mumkin bo‘lgan tarzda taqdim etilishi kerak. O‘qituvchilar va talabalar birgalikda savollarga javob berishlari va muammolarni hal qilishlari kerak. Asosiy maqsad talabalarni jalb qilishdir. Agar tarix o‘qituvchilari o‘zlarini mutaxassis sifatida emas, balki hamkasb sifatida ko‘rsatsalar, sinf yanada insonparvarroq joy bo‘lar edi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mansurov U., Raxmatullayeva A. Tarix o‘qitish metodikasi. T.: 2019.
2. G‘afforov Y.X. – Maxsus fanlarni o‘qitishda yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish usullari. T.: Universitet, 2008.
3. Brookfield, S D. & Preskill, S. (2005) Discussion as a Way of Teaching: Tools and Techniques for Democratic Classrooms San-Francisco: Jossey-Baas A Wiley Imprint
4. DeWitt, J. & Osborne, J. (2007). Teaching Science in Out-of-School Settings: Pedagogies for Effective Learning at https//www.tandflonline.com (accessesd on 24/09/17)
5. Sreedharan, E., (20007), A Manual of Historical Research Methodology, Trivandrum: Centre for South Indian Studies.

TURKISTONDA RUHONIYLARGA NISBATAN SOVET HOKIMIYATI MUNOSABATINING KESKINLASHUVI

Boltaboyev Muxammadjon Axmadjon o‘g‘li
Farg‘ona davlat universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya Maqolada Sovet hokimiyati yillarida musulmon ruhoniylari va islom diniy tashkilotlariga nisbatan olib borilgan siyosat va uning oqibatlari bayon etilgan.

Kalit so‘zlar Eski usul maktablari, yangi usul maktablari, vaqf yerlari, masjidlar, qabristonlar, qabristonlar, mutavallilar, diniy muassasalar, ruhoniylar, ziyorat, Mahkamay shariat, mudarris, madrasa, sovet maktabi, diniy ilmlar, diniy e’tiqod, qadriyatlar.

Аннотация В статье описывается политика, проводившаяся в отношении мусульманских священнослужителей и исламских религиозных организаций в годы советской власти, и ее последствия.

Ключевые слова Школы старого метода, школы нового метода, земли фонда, мечети, кладбища, кладбища, мутавалли, религиозные учреждения, священники, паломничество, Махкамай шариат, мударрис, медресе, советская школа, религиозные науки, религиозные верования, ценности.

Annotation This article describes the policy pursued against Muslim clerics and Islamic religious organizations during the years of Soviet rule and its consequences.

Keywords Old method schools, new method schools, foundation lands, mosques, cemeteries, cemeteries, mutawalli, religious institution, priests, pilgrimage, Mahkamai Sharia, mudarris, madrasa, soviet school, religious sciences, religious beliefs, values.

Turkistonda, keyinroq tashkil etilgan O‘zbekistonda XX asrning 20-yillariga kelib eski usul maktablarining faoliyati davom etdi. Asriy an’analarga ega bo‘lgan ushbu maktablar mahalliy aholini xat-savodini chiqarish yo‘lidagi asosiy bo‘g‘in hisoblangan. Shubhasiz, diniy e’tiqod va qadriyatlar kuchli bo‘lgan musulmon Turkistonida aholi sovetlar targ‘ibotiga qaramay, o‘z farzandlarini diniy maktablarda tahsil olishiga katta e’tibor berar edi. Shu bois ham sovetlar bu maktablarni sovetlashtirishga oid siyosatini avj oldirdi. Eski maktablarni tezroq tugatish masalasi sovet ma’murlarining doimiy diqqat markazida bo‘ldi. 20-yillarning boshlaridan bu maktablarni isloh qilish niqobida hamda sovetlashtirishga hukumat alohida e’tibor qarata boshladi.

1922-yil 20-iyunda Turkiston MIQning “Turkiston Respublikasi madrasa va masjidlariga vaqflarni qaytarish haqida”gi dekretga asosan eski maktablarga tegishli vaqflar qaytarib berildi[1;16].

Biroq, Turkiston Kommunistik partiyasining 1922-yil 16-21-oktabrda bo‘lib o‘tgan VII konferensiyasi sovet maktabi oldiga eski maktablarga nisbatan yuqori mavqega ega bo‘lish vazifasini qo‘ydi. Ushbu vazifani bajarish uchun sovet maktablari har jihatdan qo‘llab-quvvatlanib, yaqin yillarda eski maktablar esa beriladigan har qanday moddiy yordamdan mahrum qilinishi ko‘zda tutildi.

1922-yilning 22-oktabrida Turkiston ASSR MIQ “Maktablarga diniy bilimlarni o‘qitish huquqini berish haqida” qaror qabul qildi, biroq bu qaror izchillik bilan amalga oshmadi. Butunittifok MIQ Prezidiumining yig‘ilishida Turkiston Respublikasi MIQning sovet maktablariga diniy bilimlar o‘qitish huquqini beruvchi qaror bekor qilindi. Istisno tariqasida va vaqtinchalik chora sifatida Turkistonning o‘zbeklar ko‘pchilik bo‘lib, jam bo‘lib yashaydigan qismidagi eski maktablardagina diniy bilimlar o‘qitish man qilinmadi.

1922-yil 20-iyundagi vaqflarni qaytarish to‘g‘risidagi dekretni qayta ko‘rib chiqish ishi yuzasidan Turkiston Kompartiyasi Markaziy Komiteti nazorat komissiyasini tuzdi. Unga U.Eshonxo‘jayev rahbarlik qildi. Bu komissiya 1922-yil 11-noyabrda quyidagi takliflarni kiritdi:

- masjidlarga, qorixona, mozorlarga tegishli vaqf yerlar yana shu muassasalarga qaytarildi. Vaqflarni xarajat qilish joylardagi vaqf bo‘limlari tomonidan nazorat qilinadi;
- daromadlarni to‘g‘ri, teng taqsimlash ishlari vaqf organlari tomonidan amalga oshiriladi. Dastlabki ta’minot ishlari yangi madrasa, sovet maktablarida amalga oshirilishi lozim.

Turkiston Kompartiyasi MK qaroridan ko‘rinib turibdiki, Turkiston KP MK, Turk MIQga, birinchidan, vaqf mulklaridan tushayotgan daromaddan foydalanish tartibini o‘zgartirishni, ikkinchidan, vaqflar boshqaruvini o‘zgartirish va vaqf organlarini tuzish, uchinchidan, eski maktablarni isloh qilish takliflarini kiritdi. vaqflar, madaniy muassasalardan tushayotgan daromadlar isloh qilingan maktablar hamda sovet maktablariga tushishi kerak edi.

Turkiston Respublikasi MIQ Soveti 1922-yil 28-dekabrda “Vaqflar to‘g‘risida” yangi №173-sonli dekretni qabul qildi. Unga ko‘ra, oktabr to‘ntarishiga qadar vaqflarga tegishli bo‘lgan mulklar, masjidlar, hojixona, qorixona, mozorlar, shuningdek, xayriya va madaniy-ma’rifiy muassasalar (madrasalar, maktablar, yetimxona va boshqalar) tegishli muassasalarga foydalanishga beriladi.

Vaqflarni boshqarish tartibiga tegishli o‘zgartirishlar kiritildi. Yangi dekretga asosan vaqf tashkilotlari Bosh vaqf boshqarmasi tomonidan boshqariladigan bo‘ldi. Masjid, madrasa va boshqa diniy tashkilotlar vaqf mulklarini boshqarish mutavallilar tomonidan boshqariladigan bo‘ldi. Madrasa, maktab va yetimxona va boshqa diniy xayriya muassasalari uchun mutavallilar vaqf bo‘limi tomonidan saylanar, masjid va boshqa diniy muassasa mutavallilari tub aholi, ya’ni o‘sha mahalla fuqarolari tomonidan saylangan. Turkiston ASSR Xalq Komissarlar Soveti 1923-yil 4-martda Turkiston MIQning 1922-yil 28-dekabrida qabul qilgan dekretini amalga oshirish yo‘llari va tartiblari to‘g‘risidagi “Nizom”ni tasdiqladi.

“Nizom”ga ko‘ra, Bosh vaqf boshqarmasi tashkiliy-axborot, akademik va moliya-xo‘jalik bo‘limlaridan iborat bo‘ldi. Akademik bo‘lim madrasa, maktab, qorixonalarni boshqarib, eski maktablarni isloh qilish bilan shug‘ullanar edi. Turkiston ASSR Xalq Komissarlar Soveti “Nizom”iga ko‘ra Akademik bo‘lim oldiga quyidagi vazifalar qo‘yildi: “a) eski usuldagi maktablarni, madrasalarni isloh qilish, yangi zamonaviy talablarga javob beradigan choralarni tatbiq qilish; b) yangi dastur loyihalari, ularga asoslanib yangi o‘quv adabiyotlarini nashr qilish choralarini ishlab chiqish; c) maorif xalq komissarligi va ijtimoiy tarbiya bosh boshqarmasi bilan hamkorlikda yangi dastur talablariga javob beruvchi o‘qituvchilarni tayyorlash; d) mulla, xatib, qozi, muftiylarni inqilobiy ruhda kamolotga yetkazish; e) mutaassiblik va boshqa mayda eskilik sarqitlariga asoslangan madaniy qatlamlarga qarshi jurnallar nashr etish; f) o‘quv-tarbiyaviy tavsifga ega bo‘lgan va hayotga tatbiq qilinayotgan tadbirlar Maorif xalq komissarligi mas’ul bo‘limlari bilan kelishilgan holda o‘tkaziladi”[2;42].

Uyezd-shahar vaqf bo‘limlari uchta kichik bo‘limlarga ajratilgan: diniy vaqflar, tashkiliy-axborot, moliyaviy-xo‘jalik. Diniy muassasalar - masjid, mozor, qorixonalar vaqflaridan tushayotgan daromadlarni madrasa va maktablarni isloh qilish, ta’mirlash, yangi usul maktablar qurilishi uchun sarflashga yo‘naltirilgan bo‘lim edi. “Nizom”da: “agar madrasa Bosh vaqf boshqarmasi dasturini qabul qilmasa, vaqf manbalaridan foydalanmaydi”, - deb ko‘rsatilgan edi.

Tashkiliy axborot bo‘limi o‘z oldiga ko‘pgina vazifalar bilan bir qatorda, “eski maktab, madrasalarni Bosh vaqf boshqarmasi ko‘rsatmalariga asosan isloh qilish; j) isloh qilingan yangi usul maktab va madrasalarga o‘qituvchilar, mudarrislarni tayinlash; z) xalq ta’limi bo‘limi bilan hamkorlikda o‘qituvchi , mudarrislar uchun

zamonaviy o‘quv kurslarini tashkil qilish; i) Maorif xalq komissarligi tasarrufidan bevosita olingan mahalliy aholiga tegishli bo‘lgan maktablarni qayta tiklash” kabi vazifalarni qo‘ygan edi.

Shunday qilib, Bosh vaqf boshqarmasi va uning mahalliy organlari tomonidan vaqf masalalarini muhokama qilish, yangi usul maktablari-madrasa va maktablarni isloh qilish, qurish va ta’mirlashni moliyalash, aholi o‘rtasida madaniy, ta’lim ishlarini yuritishni tashkil qilish vazifalarini amalga oshira boshladilar. Ayniqsa, ta’lim-tarbiya, pedagogik ishlarni tashkil qilish, rahbarlik qilish masalalarini yechish zarur edi.

1923-yil 12-fevralda Toshkent shahar “Mahkamai Shar’iya” va Vaqf bo‘limi idoralarining majlisi bo‘lib o‘tdi. Unda Turkiston Respublikasi MIQ ning “Maorif haftasi” munosabati bilan 1923-yil 18-yanvarda chiqargan 5-sonli qarori hamda Eski shahar ijroiya komitetining 1-fevraldagi qaroriga binoan eski maktab va qorixonalarni isloh qilish to‘g‘ridan-to‘g‘ri Eski shahar maorif bo‘limiga yuklatildi. Unda maktab, madrasa va qorixonalar islohoti va bu jarayonga bevosita, “Mahkamai Shar’iya” idorasining moddiy ko‘mak berishi yuklatilgan. Eski shahar ijroiya komiteti tomonidan chiqarilgan mazkur qarorda talabalarni “Qur’on”ni “tajvid” bilan o‘qitilishiga katta e’tibor berilgan.

Andijon vaqf bo‘limining Bosh vaqf boshqarmasiga 1923-yil 16-oktabrdagi ma’ruzasida vaqf bo‘limi 19-mayda tashkil qilinganligi va uning raisi etib, Qori Boda saylangani haqida ma’lumotlar beriladi. 1923-yil 4-sentabrida bu yerda 4 ta maktab qayta tashkil qilindi[3;5].

Eski maktablarni isloh qilish dasturi Turkiston ASSR Maorif xalq komissarligining arxiv fondida saqlangan. Bu hujjat “Diniy maktablarni (maktab va madrasalarni) qayta tashkil etishning qisqa loyihasi va shu maktablarning 1923-1924 o‘quv yili uchun dasturi” – deb ataladi. Hujjatni Bosh vaqf boshqarmasi raisi o‘rinbosari Y.Aliyev, akademik bo‘limi boshlig‘i M.Abdurashidxonov imzolagan edilar. Dastur Munavvar Qori Abdurashidxonov tomonidan tuzilgan bo‘lib, asosan ikkita bo‘limdan iborat. Birinchi bo‘lim “Maktablar islohoti”, ikkinchisi “Madrasalar islohoti” deb nomlangan.

Sovet hokimiyati o‘rnatilganidan boshlab, vaqflar mablag‘ining kamayishi va boshqa sabablarga ko‘ra, eski usul (diniy) maktablar soni keskin kamayib ketishi yuz berdi, 1923-yil boshiga kelib o‘lka viloyatlarida 20 ga yaqin madrasa va 150 ga yaqin maktab, qorixonalar qolgan bo‘lib, undagi o‘quvchilar soni ham bu davrda nisbatan ancha ozaygan. Madrasalarda o‘rtacha 10-15 talabalar, maktab va qorixonalarda 8-12 o‘quvchi o‘qigan[4;13].

Bosh vaqf boshqarmasi tuzilgan kundan boshlab, bu maktablarni yangi usul dasturlariga o‘tkazish orqali isloh qilishga kirishilgan. Ularda ijtimoiy-gumanitar fanlar va sovet mashg‘ulotlarining salmog‘i 40 foizni tashkil qilgan. Ana shu yo‘sinda 8 ta madrasa va 30 ga yaqin maktab isloh qilingan, qolganlari berkitilib, qorixonalar esa vaqflar ta’minotidan olib tashlangan. Ularni berkitilishiga ko‘plab madrasa, maktab va qorixonalarning binolari zamonaviy maktablar talabi darajasiga umuman javob bermasligi va qayta qurish uchun katta mablag‘ning talab etilishi sabab bo‘lgan.

1924-yilning 1-aprelidan boshlab isloh qilingan maktablar xalq ta’limi yagona mehnat maktablari dasturining I bosqichiga o‘tkazilgan.

Toshkent, Farg‘ona va Samarqand hududlaridagi mahalliy diniy maktab, madrasa, qorixonalar vaqflar mablag‘i hisobidan faoliyat olib borgan emaslar, ammo bu bilan O‘zbekistonda eski usul (diniy) maktablarni tugatish ishi oxiriga yetdi, degan xulosaga kelib bo‘lmaydi. O‘z-o‘zidan ravshanki, barcha shahar, qishloqlardagi deyarli hamma mahallalardagi masjidlarda, shuningdek, din xizmatchilari, mulla, imomlarning uylarida maktablar faoliyati tashkil etilgan bo‘lib, ulardagi o‘quvchilarning aksariyati uylangan o‘smirlar bo‘lgan. Bu maktablar, xalq ta’limi nozirlari nazoratidan hokimiyatning o‘zi bunday eski maktablarga qarshi kurashishga ojizlik qilgan.

Buxoro va Xorazm Xalq Sovet respublikalari hududlarida esa hali ham yagona mehnat maktablari tashkil qilish bo‘yicha mutlaqo ish olib borilmagani sababli, diniy va yarim diniy aralash maktablar saqlanib qolgan.

Eski Buxoro rayoni va Zarafshon oblastida 1924-yil oktabrigacha vaqflar mablag‘i hisobidan 105 maktab faoliyat ko‘rsatgan. Oktabr oyidan boshlab bunday maktablar soni qisqarib borgan, 30 maktabdagina yangi usul dasturi qo‘llanilgan, ulardagi o‘quvchilar soni 800 kishidan, o‘qituvchi-mudarrislar soni 38 kishidan iborat bo‘lgan. Bu maktablar dasturida ijtimoiy fanlarning ulushi 30 foizni tashkil qilgan xolos. G‘ijduvon, Qorako‘l va Karmana uyezdlarida 267 ta maktab bo‘lib, ulardan 124 tasi yangi Xiva usul dasturi asosida faoliyat olib borgan, ularda 2400 o‘quvchi tahsil olgan va 150 mudarrislar bo‘lgan[5;48].

Ko‘rinib turibdiki, dastlabki isloh qilish davrida Bosh vaqf boshqarmasi akademik bo‘limi boshlig‘i Munavvar Qori Abdurashidxonov tomonidan maktablar islohoti sohasida faol ishlar amalga oshiriladi. 1923-1924-yillarda Turkiston ASSR da eski maktablarning 40 foizini isloh qilish ko‘zda tutilgn. Akademik bo‘lim ma’lumotlariga qaraganda, mustamlaka Turkistonida 5600 maktab, ulardagi o‘quvchilar soni 70000 dan ortiq bo‘lgan, ammo 1923-1924-yillarda isloh qilish ishlari sekinlashdi.

ADABIYOTLAR

1. Komilov O. XX asrning 20-yillarida O‘zbekiston milliy maorifidagi o‘zgarishlar. Tarix fan. nomzodi … diss. avtoreferati, T.: 2009. – B. 16.
2. Komilov O. O‘zbekiston milliy ta’limidagi o‘zgarishlar, T.: 2009. – B. 42.
3. Алимов И.А. Эски мактаб ислоҳоти ташаббускори // Халқ таълими. – Тошкент, - №10. - Б. 5.
4. Съезды Советов (в документах). Сборник документов в 3-х томах. – М.: Госюрлитиздат, 1959. Т.1. – С. 13.
5. Komilov O. O‘zbekiston milliy ta’limidagi o‘zgarishlar, T.: 2009. – B. 48.

AHMAD YASSAVIY SHAXSIYATI VA UNING TARIQATCHILIK FAOLIYATI

Obidjonova Gulchexra Mamirjon qizi
Farg‘ona davlat universiteti IV bosqich talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada Yassaviy hayoti va ijodi, o‘sha davrdagi siyosiy ahvol, uning hikmatlari, ularning ijodi, mafkurasi, adabiy qiymati, shuningdek, tasavvuf, tariqat haqida umumiy tushuncha, Yassaviy tariqatining tarqalishi va darajalari, uning o'rganish va tadqiqoti.

Kalit so‘zlar “Shayx-ul-mashoyx”, Arslonbob, Yassaviyya, Tasavvuf, “Devoni Hikmat”, tariqa, Yassaviy, Murid, Amir Temur, Abdullaxon II, Yassi, Sayram, Somoniylar, Qoraxoniylar

Аннотация В этой статье в общих чертах освещены жизнь и творческая деятельность Яссави, политическая ситуация того времени, его мудрость, их создание, идеология, литературная ценность, а также мистицизм, общее понимание секты, распространение и уровни секты Яссави, ее изучение и исследования.

Ключевые слова “шейх-уль-машойх”, Арсланбоб, яссавия, суфизм, “Девони Хикмат”, тарикат, яссавиист, Мюрид, Амир Темур, абдуллахан II, Яссы, Сайрам, саманиды, Караханиды.

Abstract In this article, the life and creative activity of Yassawi, the political situation of that time, his wisdom, their creation, ideology, literary value, as well as a general understanding of Sufism, the order, the spread and levels of the Yassawi order, its study and research are presented in general. lit up.

Key words "Shaykh-ul Mashoyikh", Arslanbab, Yassawiya, Sufism, "Devoni Hikmat", tariqat, Yassawi scholar, murid, Amir Temur, Abdullah Khan II, Yassi, Sayram, Samonis, Karakhanids.

Ahmad Yassaviy o‘zining baetakror hikmatlari, diniy sabr-toqati, mashaqqatli ijodiy faoliyati bilan butun turk dunyosida o‘ziga xos mavqe va o‘ringa, hurmat va izzatga ega shaxs hisoblanadi. Butun Sharqda u o‘zining tariqati bilan Renessans yarata oldi desak mubolag‘a bo‘lmas. Alisher Navoiy ta’biri bilan aytganda, u islom dunyosining “shayxul mashoyixi”dir[1;8-b].

Ahmad Yassaviy, uning faoliyati, hikmatlari haqida mustaqillik yillariga kelibgina samarali tadqiqotlar amalga oshirildi. Sovet davrida Ahmad Yassaviy faoliyati qattiq tanqid qilindi hamda uni o‘rgangan shaxslar ham beayov jazolandi. Bunga sabab qilib, uning hikmatlarini, tariqatchilik faoliyatini ko‘rsatishimiz mumkin. Bilamizki, sho‘rolar zamonida shaxs tushunchasi butkul yo‘qotilgan edi. Hukmron tabaqaning aytgani aytgan, degani degan. Yassaviy hikmatlarining salmoqli hissasini esa boy, shafqatsiz zamindorlarga qarshi kurash, ularga bo‘yin egmaslik, ularni hokimyatdan chetlatish kabi g‘oyalar tashkil etadi. Bu esa, mamlakatda tobora chuqurroq ildiz otishni niyat qilgan sovet hukumatiga yoqmasligi tabiiy hol, albatta. Biroq mana shunday vaziyatda ham Yassaviy ijodiga bo‘lgan qiziqish so‘nib qolmadi. 1971-yili “Toshkent oqshomi” gazetasi hamda “O‘zbek tili va adabiyoti” jurnalida professor Ergash Rustamov Yassaviy shaxsiyatiga ijobiy fikr berdi. Natijada, professor Ergash Rustamov jazoga mahkum

etildi[2;4-b]. Lekin shunday bo‘lsa ham Yassaviy haqida tadqiqotlar to‘xtab qolgani yo‘q. Mana shu ma’lumotlarga tayanib, Yassaviy shaxsiyati va faoliyatini ochib berish ushbu maqolaning bosh maqsadi qilib belgilandi.

Ushbu maqola tarixiylik, ilmiylik, xolislik, tanqidiy yondashuv, obyektivlik, qiyosiy tahlil hamda umumiylik metodlariga tayanilgan holda yozildi.

Yassaviy hayoti va ijodining o‘rganilishi juda ko‘p ilmiy ma’lumotlar to‘plashga imkon berdi. Ahmad Yassaviy haqida gapirilganda, eng birinchi navbatda, Abdurauf Fitratning maqolalariga tayanish o‘rinli hisoblanadi. U yozib qoldirgan manbalarda Yassaviy shaxsiyati, uning tariqati va undagi nazariyalar anchagina yaxshi ochib beriladi. Bundan tashqari, Ergash Rustamovning maqolasi ham Yassaviyni o‘rganishda muhim manba hisoblanadi. Ancha keyinroq esa I.Haqqulov, A.Hayitov, Sh.Toshqulova, B.Qosimov, N.Hasanov kabi o‘zbek yassaviyshunoslari o‘z tadqiqotlarini olib borib, o‘z monografiya va maqolalarini yaratdilar. Shu tariqa o‘zbek adabiyotida ham yassaviyshunos olimlar paydo bo‘ldi.

O‘zbeklar bilan bir qatorda xorijlik yassaviyshunos olimlarning ham nihoyatda ko‘pligi kishini quvontiradi, albatta. Bularga misol qilib, L.Massignon, A.Arberri, M.Smitt, X.Kisling, F.Mayer, A.Shimmel, R.Xartman, F.Ko‘prulu, J.Trimingem, K.Eraslon, Idris Shox, Devin Di Uis, shuningdek, A.Krimskiy, I.Petrushevskiy, E.Bertels kabilarni keltirishimiz mumkin[3;141-b].

Ahmad Yassaviy 1041-yilda Turkistonning Sayram shahrida tavallud topadi. Yoshligida onasidan yetim qolib, otasi Shayx Ibrohim uni yolg‘iz voyaga yetkazadi. Ammo, 7 yoshida otasi ham vafot etib, endi Yassaviyni opasi Gavhar Shahnoz tarbiyasiga oladi[4;138-b]. Ular birgalikda Yassi shahriga ko‘chib boradi va u yerda Arslonbob bilan uchrashadi, undan tahsil oladi. Arslonbob va Yassaviy haqida turli rivoyatlar tarqaladi. Arslonbob vafotidan so‘ng, 23 yoshli Ahmad Yassaviy Buxoroga keladi. Bu shaharda Yusuf Hamadoniy istiqomat qilib, Yassaviy mana shu ustozga shogirlikka tushadi va tez orada muridlari ichida eng ko‘zga ko‘ringani bo‘lishga ulgiradi. Yassaviy Buxoroga kelganida fors tilini ham ancha mukammal egallashga muvaffaq bo‘ladi. Bu esa o‘z navbatida, unga fors she’riyati bilan tanishish imkonini berdi. U egallagan bilimlari natijasida yaqin fursatda mashhur diniy shaxsga aylandi. Ahmad Yassaviy hijriy 562-yil (taxminan 1166-1167-yillar oralig‘i)da Yassi shahrida vafot etgan. Yagona asari hisoblanmish “Devoni hikmat” uning muridlari, izdoshlari orqali yetib kelinib, yagona kitob holiga keltirilgan.

Yassaviy hikmatlari o‘zining ma’nodorligi, tilining soddaligi bilan boshqa asarlardan g‘oyat farq qiladi. Ushbu kitob yassaviya tariqatidagi bosh mezon deb, bemalol ayta olishimiz mumkin. Bu hikmatlarda ilohiy ishq, Alloh vasliga erishish, bunda nimalarga e’tibor berish masalalari kuylanadi. Bundan tashqari, jamiyatdagi nohaqliklar, beadadliklar, bular bartaraf bo‘lishi uchun dinga qaytish kerakligi to‘g‘risidagi g‘oyalar ham asosiy o‘rin egallaydi. Ahmad Yassaviy ushbu g‘oyalarni sodda qilib, hikmatlarida bayon etib bergan. Biz bemalol, Yassaviyni “hikmat” janrining asoschisi deb aytishimiz mumkin. Asarning adabiy qiymati shu darajada yuqoriki, hatto Navoiy, Bobur, Bedil g‘azallarida ham Yassaviy ta’sirini sezishimiz mumkin.

Biz Ahmad Yassaviyni “yassaviya” tariqatining asoschisi deb bilamiz. Yassaviya tariqatining barcha aqidalari “Devoni hikmat”da mufassal yoritilgan bo‘lib, bu tariqat boshqa dinlardan o‘zining poklik, halollik, to‘g‘rilik, mehr-shafqat, halol mehnat bilan kun kechirish, Alloh vasliga yetishish yo‘lida ham zohiran, ham botinan pok bo‘lishni targ‘ib qilishi bilan farqlanadi. Boshqacha qilib aytadigan bo‘lsak, bu yassaviy tariqatining asosiy tamoyillari ham deyishimiz mumkin. Uning ahamiyatli tomoni shundaki, yassaviya tariqati Markaziy Osiyoda boshqa tariqatlar paydo bo‘lishining debochasi bo‘ldi.

Mana shunday tariqatlar paydo bo‘lishi eng avvalo, davr taqozosi bilan belgilanadi. Yassaviy yashagan davrni olsak, ya’ni XI-XII asrlar Markaziy Osiyoda ayni Somoniylar sulolasining inqirozi hamda uning o‘rniga Qoraxoniylar sulolasining kelishi oddiy xalq hayotini juda nochor ahvolga soldi. Ko‘chmanchi bosqinchilar o‘troq aholi yerlarini vayron qila boshladilar. Hukumat vakillari esa, hali aholi o‘zini o‘nglab olmasdan yangi soliqlar yig‘a boshladilar. Bu kabi adolatsizliklar Ahmad Yassaviyni befarq qoldirmadi. Mana shu holat tariqat paydo bo‘lishining bosh omili deb aytishimiz mumkin. Yassaviy o‘zining hikmatlarida xalqni azoblarga duchor etgan mana shu davrni, qiyin vaziyatda ham doimo foyda olishni ko‘zlaydigan bek-u oqsoqollarni tanqid qilgan.

Xarom yegan hokimlar, rishvat olib yeganlar,
O‘z barmog‘in tishlabon qo‘rqub turub qolmishlar.
Totlig‘-totlig‘ yeganlar, turluk-turluk kiyganlar,
Oltin taxt o‘turg‘onlar, tufroq aro yotmishlar.

Ahmad Yassaviy.

Shu sababdan ham Yassaviyning ta’limotlari juda keng tarqalib, ommalashdi. Ayniqsa, ko‘chmanchi turkiylar orasida tariqatning o‘zlashtirilishi nisbatan oson bo‘ldi. Bunga sabab, tariqat amallari ularning eski ibodat shakllariga juda o‘xshash bo‘lgan[5;33-b]. Eng asosiysi esa, bu tariqat negizida “naqshbandiya” va “kubroviya” tariqatlarining paydo bo‘lishidir.

Ahmad Yassaviy o‘zbek lirik shoiri, yassaviya tariqatining asoschisi, yuksak bilim va tafakkur sohibi. Yaqin asrlargacha uning hikmatlarini yod olgan insonlar bo‘lgan. Adabiyotda, tarixda, eng muhimi, xalq qalbida shunday joy egalladiki, 1993-yil Yunesko tomonidan “Ahmad Yassaviy yili” deb e’lon qilindi. Nafaqat bugun, balki o‘tmishda ham yuksak hurmatga sazovor bo‘lganligini isbotlovchi tarixiy ma’lumotlar ham talaygina. Amir Temur tomonidan 1389-1395-yillarda Ahmad Yassaviy maqbarasining qurilishi, Abdullaxon II tomonidan tugallanishgi yoki Rossiya bosqini paytida Yassaviy shahri, maqbarasining himoya qilinishi bunga misol bo‘la oladi. Ahmad Yassaviy bizga shunday ulug‘meros qoldirdiki, uni asrab-avaylash har bir o‘zbek farzandining burchidir.

Mustaqillik yillarida Ahmad Yassaviy haqida bor haqiqatlarni aytish imkoni tug‘ildi. Uning hayoti, she’riyati, tariqati tarixchi va adabiyotshunos olimlar tomonidan tarixiylik, ilmiylik, eng asosiysi, xolislik tamoyillariga tayanilgan holda ochib berildi. Uning hikmatlari shu darajada mashhur bo‘ldiki, hatto tatar xalqining so‘fiy shoiri Mavlo Qulining hikmatlarida ham Yassaviy lirikasi sezilib turadi.

“Ahmad Yassaviy, - deydi professor Najiddin Komilov, - “Qur’on hikmatlari, hadislar mazmunini va tasavvuf g‘oyalarini qo‘shib kuylagan. Uni insof-u adolat, halollik va to‘g‘rilikni oriflik, oshiqlik, xilvat va uzlat bilan bog‘lagan. U birinchi bo‘lib, tasavvuf g‘oyalarini turkiylar orasiga yoyib, nafs va xudbinlik kabi ko‘pgina yomon illatlarni qattiq tanqid qildi”. (“Xalq so‘zi” gazetasi, 1993-yil 6-avgust) [6;8-b].

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, Yassaviyni yanada chuqurroq o‘rganish, hikmatlarini tahlil etish tarix va adabiyot fanlari oldidagi sharafli vazifadir.

Mening hikmatlarim olamda sulton, Qilur bir lahzada cho‘lni guliston,
Mening hikmatlarim dardsiz aytmang, Bahosiz gavharim nodonga sotmang.
Ahmad Yassaviy.

foydalanilgan adabiyotlar

1. Садий А. Яссавий ким эди?, Тошкент, Гафур Гулом, 1994.
2. Abdurauf Fitrat, Ahmad Yassaviy: Tanlangan asarlar, 2-jild, Toshkent: Ma’naviyat, 2000.
3. Рустамов Э. Ахмад Яссавий хикматларида тарих ва хикмат садоси, Узбек тили ва адабийоти журнали, 1972, №4-5.
4. Хаккул И. Ахмад Яссавий. – Тошкент: Гафур Гулом, 2001.
5. Toshqulova SH. Ahmad Yassaviy, Ustozi Arslon Bob va yassaviylikda “Devoni hikmat”ning o‘rni, “Oriental Art and Culture” Scientific-Methodical Journal-2020.
6. Хаккул И. Ахмад Яссавий. – Тошкент: Гафур Гулом, 2001.

INCLUSIVE EDUCATION IN THE EXPERIENCE OF THE WORLD AND UZBEKISTAN

Rustamov Umidjon Maxsudali o‘g‘li
Fergana State University Master’s student

Annotatsiya Ushbu maqolada imkoniyati cheklangan bolalarni o‘qitishning yangi shakli inklyuziv ta’lim tushunchasining paydo bo‘lishi va O‘zbekistonda ushbu ta’lim shaklining qo‘llanilishi masalalariga to‘xtalib o‘tiladi.

Kalit so‘zlar Inklyuziv ta’lim, “inclusif”, jahon tajribasi, a’lohida ta’lim ehtiyoji mavjud bo‘lgan bolalar ta’limi, eksklyuziya, segregatsiya, integratsiya, xalqaro huquq normalari.

Аннотация В данной статье основное внимание уделяется возникновению концепции инклюзивного образования, новой формы обучения детей с ограниченными возможностями, а также применению этой формы образования в Узбекистане.

Ключевые слова Инклюзивное образование, «инклюзив», мировой опыт, образование детей с особыми образовательными потребностями, эксклюзия, сегрегация, интеграция, нормы международного права.

Today, the concept of inclusive education occupies a wide place in the world as one of the concepts of special education for children with disabilities. The word inclusive is derived from the French word «inclusive» which means «to include». The concept of inclusive education is a term used to describe the process of teaching children with special needs in general education (public) schools. According to the definition of IDA (International Disabilities Association), «Inclusive education is a system that all students with disabilities and able-bodied can learn together, receiving all the support necessary for their needs» [8: 11 p]. The concept of inclusive education is a modern term, which as a type of education means that all learners receive education on equal terms, regardless of their abilities and capabilities. This concept also includes providing safe and accessible education for children with special educational needs and removing barriers that hinder them. That is, inclusive education is the provision of equal rights in educational institutions for all learners, taking into account the differences in special educational needs and individual capabilities. In short, it means that all children are educated together in the same schools. Inclusive education is one of the issues raised to the level of state policy in all countries.

In recent years, special attention paid to the education of children with special educational needs increases the scope of scientific research in this field. World scientists have conducted a lot of research in this field, and a number of scientific works are being carried out. M. Mason, R. Rieser, J. Morris analyzed the inclusive education system in Great Britain through their research, while M. A. Winzer, Z. Weygand, D. L. Ferguson P. Haug, L. Wislie are people with limited opportunities around the world. attempts to illuminate the history of the special education system. In recent years, a number of researchers have been working on the introduction of inclusive education in Uzbekistan, the analysis of achievements and shortcomings in the field. Researchers such as B.Abdullayev, S.Abdullayeva, K.G.Muhammadova, L.Romanova, G.Nam, Sh.Ikromova gave analytical information about the activities of inclusive education in Uzbekistan. In writing this article, scientific works of scientists and researchers in the field, existing legal documents, as well as materials published by international organizations such as UNESCO, UNICEF, USAID, IDA were used as statistical and analytical sources.

In general, special schools for children with special educational needs began to take root on the basis of charitable institutions for blind, deaf and disabled children in the middle of the 18th century. One of the first special schools in the world is the Institut National des Jeunes Aveugles in Paris, which was founded in 1784 [9: 12 p]. It was the world's first school for blind students. At the end of the 18th century, Scotsman Thomas Braidwood established a school for the blind in Edingburg [6: 23 p].

However, until the end of the 19th century, the issue of educating children with special educational needs did not gain much importance. For example, in Great Britain until 1870, not only the disabled, but also very few healthy children had the opportunity to receive education [5: 8 p]. Of course, one of the main reasons for this was that the schools were mainly funded by volunteers or run by the church and could only reach a very small number of children.

From the end of the 19th century, even during the introduction of new systems of compulsory education and assessment of students' knowledge, the issues of education of children with disabilities were somewhat left aside. However, in Britain, through a series of legislation issued by the Royal Commission in 1889 and later, many responsibilities began to be imposed on local education authorities. In 1892, the first special school for «weak» pupils opened in Leicester, in 1905 the first special school for «handicapped» children opened in Manchester, and by 1918 there were 60 day schools and 35 boarding schools for physically «defective» pupils were available. Despite the above-mentioned initiatives and reforms, the level of exclusion (children with disabilities who are not covered by education. Such children are not involved in education and their rights to education are not ensured.) was quite high.

International experience shows that the development of an inclusive education system is a long-term strategy, and its implementation requires consistency, continuity and a step-by-step comprehensive approach. In particular, in the world experience, it is possible to highlight 3 periods that have different approaches to the education of students with disabilities in developed countries:

- Segregation of learners until 1970s (separating children with special needs from general education and educating them in special schools and boarding schools);
- integration of learners during the 1970s-1990s (establishment of separate classes in general education schools for children with special needs);
- Inclusive education in recent years (children with special needs study in the same class with other children in general education schools.)

The basis of the emergence of an inclusive form of education for children with disabilities can be logically connected with the «Universal Declaration of Human Rights». Article 26 of this declaration states that everyone has the right to education and that there should be no restrictions on it. International laws adopted later include the Convention on the Rights of the Child (1989), the Declaration on the Rights of Persons with Disabilities (1975), the Universal Declaration on Education for All (1990), the Salamanca Declaration and Work Plan (1994), the Dakar Declaration (2000) played an important role in creating the system and legal framework of this new type of education.

Gradually, the Regular Education Initiative (REI) movement began in the United States, calling for the integration of special and general education into a single system in which all children attend regular public schools. But in some countries, the issue has been controversial, and some countries, including Australia and New Zealand, have left the issue open, but at the same time put a stronger emphasis on parental choice. At the same time, another social movement «Inclusive

schooling movement» appeared in the USA aimed at creating equal educational opportunities for all children. Proponents of inclusive education advocate for school restructuring and curriculum reform to be inclusive of all students, as existing curricula continue to divide learners into independent and disadvantaged categories. was

But at the same time, one of the open issues was whether teachers and students are ready for a new type of education. In the early 1980s, UNESCO conducted a survey on teacher education in 14 countries covering all regions of the world [7: 18 p]. Studies have shown that regular classroom teachers are willing to take on responsibility for children with special needs, but are unsure whether they have the skills to do the job. Most of the teachers believed that they should improve their skills in teaching children with special needs. These results indicated the need for professional development of regular classroom teachers through teacher trainers. Therefore, UNESCO has created a project to develop materials and teaching strategies that meet the needs of teachers in inclusive schools, led by Professor Mel Ainscough, who is currently at the University of Manchester [7: 42 p].

The idea of inclusive education entered Uzbekistan in 1996. The main idea of inclusive education is not to include a child in the education system, but the education system itself should be ready to include any child. Inclusive education is based on the philosophy that all children, regardless of the severity of their disabilities, are an integral part of the education system. Children with disabilities in the Republic of Uzbekistan have the right to choose between general education schools and specialized schools. There are 86 specialized boarding schools in the republic, and the state pays no less attention to their development than general education. As evidence of this, a number of legal documents can be cited, including the Law «On Social Protection of the Disabled» (1991), the Constitution of the Republic of Uzbekistan (1992), the Law «On Education» (1997), «National Training Program» (1997), «Education for All» National Program Plan (2003), «Interim Regulation on Inclusive Education for Children and Adolescents with Disabilities» (2005), Law of the Republic of Uzbekistan «On Guarantees of Children's Rights» (2008), Decree No. PD-5270 (2017), Decree No. PD-5712 (2019) «On the concept of development of the public education system until 2030», «Education of children with special educational needs Decision No. PD-4860 (2020) «On measures to further improve the education system», «Concept for the development of inclusive education in the public education system in 2020-2025» (No. PD-4860 on the basis of the decision) serve as a legal basis for the introduction and creation of the foundations of this mechanism in Uzbekistan.

Also, a number of cooperation programs are being implemented with the world community on the development of inclusive education. In particular, in November 1996, based on the initiative of the National Commission of Uzbekistan for UNESCO, a national curriculum on «Inclusive methods in the field of special education» was successfully implemented in Tashkent. In October 1998, a regional conference on this topic was organized in Bukhara in cooperation with UNESCO, UNICEF, the World Health Organization and the International Labor Organization.

During 2014-2016, in cooperation with the European Union, a project was implemented to train teachers in the practice of inclusive education, and inclusive education curricula were developed for students and parents, 5 pilot resource centers and 15 pilot schools were established [4: 6 p] .

In October 2022, for several weeks, researchers from the University of Notre Dame, working under the SHARE cooperation agreement by USAID, together with local experts, conducted a diagnostic systematic analytical study in Tashkent, Syrdarya and Namangan regions [4: 4 p]. The main goal of this research is to evaluate the state and quality of education of children with special educational needs in Uzbekistan, and it was carried out for the purpose of analyzing the level of development of this field in Uzbekistan for the United States Agency for International Development. Of course, this research is based on various political initiatives implemented in Uzbekistan in recent years, project programs on training teachers in the practice of inclusive education and «Inclusive education in the public education system in 2020-2025 «Development concept» initiatives, identified existing achievements and shortcomings in the field, and made important suggestions and conclusions for future actions.

In conclusion, it can be said that inclusive education is recognized by the entire world community as a new form of education for children with special educational needs, and this education has already paid off in the experience of developed countries. Despite the reforms implemented in the field in Uzbekistan, there are certain obstacles in the activities of parents, teachers, and administrators to provide quality education for children with disabilities, and to provide quality education to children with disabilities there is a need to make serious and decisive changes.

References

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi PQ-4312-son “O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 08.05.2019.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 13-oktabrdagi PQ-4860-son “Alohida ta’lim olish ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora – tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 13.10.2020.
3. D. Jalilova, B. Zayniyev. Inclusive Teaching problems in Uzbekistan // Eurasian Scientific Herald. May, 2022. – 270-272 pp.
4. Jenna White, TJ D’Agostino, Shahnoza Ikromova, Sean O‘Neill, Brianna (Annie) Conaghan. Uzbekistan inclusive education diagnostic study. University of Notre Dame, December 2022. – 37 pp.
5. Micheline Mason and Richard Rieser. Altogether better. London: Hobsons Publishing, 1992. – 56 pp.
6. M.A.Winzer. The history of special education : from isolation to integration. – Washington: Gallaudet University Press, 1993. – 463 pages

7. UNESCO (1994). World Conference on Special Needs Education: Access and Quality; final report. Salamanca, Spain, 7-10 June 1994. – 121 pp.
8. What an inclusive, equitable, quality education means to us. Report of the International Disability Alliance. June 17, 2020. – 43 pp.
9. Zina Weygand. The Blind in French Society from the Middle Ages to the Century of Louis Braille. Stanford University Press, 2009. – 424 pp.
10. Nam, G. (2019). Uzbekistan: Case for Inclusion. Disability, CBR & Inclusive Development, 30(1), 94-111 pp.
11. Nam, G. (2021). Inclusive education for children and young people with disabilities in Uzbekistan: The perspectives and experiences of key players (Doctoral dissertation, The University of Waikato).

USE OF INTERACTIVE METHODS AND PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN THE EDUCATIONAL PROCESS

J. Mahmudjonov, teacher of the Kokand State Pedagogical Institute

Annotatsiya. Ushbu maqolada darslarni tashkillashda va o‘quvchilarni baholashda interfaol metodlarni qo‘llash, darslarni o‘tishda kahoot dasturidan foydalanish haqida tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: interfaol metod, o‘qituvchi, pedagogik faoliyat, Kahoot, video dars

Аннотация В данной статье представлены рекомендации по использованию интерактивных методов при организации уроков и оценивании учащихся, а также использованию программы кахут при прохождении уроков.

Ключевые слова: интерактивный метод, учитель, педагогическая деятельность, Kahoot, видеоурок.

Annotation In this state, the presented recommendations and the use of interactive methods in the organization of lessons and lessons, as well as lessons in the use of the program, are used.

Key words: interactive method, teacher, pedagogical activity, Kahoot, video lesson

In our country new democratic and modernized society to build for high to science to have was spiritual - psychological trigger and healthy free and independent thinking at the time social responsibility deep feeling perfect generation and perfect a person bring up in the verse important

The issue of personnel training which is the main strategic basis of our national development, has become one of the priorities of the development of our independent state at the beginning of the 21st century.

Enriching the worldview of young people in educational institutions based on interactive methods, instilling in them loyalty to the Motherland, a sense of belonging to its development, forming national pride, raising them in the spirit of national and universal values, independent decisions that can respond to the sharp intellectual and spiritual competition of the present time. It is the demand of the time to raise highly qualified specialists who are able to accept, to bring the content of education to a qualitatively new level by restructuring the educational system in democratic and humanitarian directions [1-203] .

2. Nazarov B “Anvar Obidjon she’rlarida poetik go‘zallik” www.saviya.uz
3. Jumaboyev M “Bolalar adabiyoti” Toshkent “O‘qituvchi” 2013 yil

MUSTAQIL O‘ZBEKISTONDA SUV RESURSLARINI BOSHQARISH SOHASIDAGI ISLOHOTLAR

Shomurotov Sharofiddin Shukurjon o‘g‘li
Qo‘qon DPI Milliy g‘oya, ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi kafedrasi o‘qituvchisi
e-mail: *sharofiddin.shomurotov@gmail.com*

Bugungi kunda suv resurslarini integratsiyalashgan holda boshqarish mamlakatimiz bo‘ylab 250 ming gektardan ortiq sug‘oriladigan maydonlarda amalga oshirilmoqda. Mintaqaning asosiy daryolari – Amudaryo va Sirdaryo oqimlari yuqori qismida joylashgan mamlakatlarning amaldagi xalqaro me’yorlarni buzish orqali transchegaraviy suv resurslarini ekspluatatsiya qilishga intilishlari katta tashvish tug‘diryapti. Mazkur daryolarning yuqori qismlarida ulkan to‘g‘onlarga ega katta gidroinshootlar qurishga doir loyihalarni amalga oshirishga urinishlar mintaqaning butun ekotizimiga tuzatib bo‘lmaydigan ziyon yetkazishi

hamda texnogen, ijtimoiy-ekologik va gumanitar halokatlarni keltirib chiqarishi mumkin.

O‘rta Osiyoda suv resurslari notekis taqsimlangan bo‘lib, umumiy suv zahiralarining 27% Tojikistonga, 27 % Qirg‘izistonga, 39 % Qozog‘istonga, 6 % O‘zbekistonga, 1 % Turkmaniston davlatlari hissasiga to‘g‘ri keladi. O‘rta Osiyo hududida ham turli relef shakllari, dashtlar, cho‘llar, vodiylar, vohalar va tog‘lar mavjud bo‘lib, suv tanqisligi bizning hududga ham xavf solishi mumkin. Bu to‘g‘risida Birinchi Prezident Islom Karimov shunday deb ta’kidlaydilar: «Keyingi yillarda OAVda tabiatning ulug‘ ne’mati – suv haqida ko‘p yoziladigan, ko‘p gapiriladigan bo‘lib qolindi. Bu bejiz emas, BMT ma’lumotlariga ko‘ra hozirgi davrda sayyoramiz aholisining 2 mlrd ga yaqini ichimlik suvi yetishmasligidan qiynalayapti. Shunday davlatlar ham borki ular yomg‘ir, qor suvlarini, hattoki, yer osti suvlarini ichimlik suvi o‘rnida iste’mol qilmoqda.

Tejamkorlik bilan bog‘liq omilkorlik keyingi yillarda mamlakatimiz qishloq xo‘jaligida amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonida suv resurslaridan unumli foydalanishga ham katta e’tibor qaratilmoqda. Xususan, sohaga suvni tejashga moslashtirilgan ko‘plab yangi texnologiyalar joriy etilib, bir qator chora-tadbirlar tatbiq etilmoqda.

Birgina 2011-yilda mamlakatimizda 2658,2 kilometr uzunlikdagi xo‘jaliklararo sug‘orish tarmoqlari, 9677,7 kilometr xo‘jalik ichki sug‘orish ariqlari tozalangani, 2647 ta gidrotexnika inshooti hamda 2772 ta gidropost ta’mirlangani hamda ham bu boradagi ishlar ko‘lamini his etish uchun muayyan tasavvur beradi. Bu bilan birga ayni paytda O‘zbekistonda suv resurslarini integratsiyalashgan holda boshqarish (SRIB)ni keng joriy etish yuzasidan ham izchillik bilan bir qator say-harakatlar yo‘lga qo‘yilmoqda.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti Taraqqiyot Dasturi va Shveysariya xalqaro hamkorlik agentligi hamkorligi doirasida Zarafshon daryosi havzasi va Farg‘ona magistral kanalida istiqbolli loyihalar amalga oshirilmoqda. Bu jarayonda suv iste’molchilari uyushmalari hamkorligida irrigatsiya tarmoqlari modernizatsiya qilinib, suvdan foydalanishni hisoblash tizimi takomillashtirilmoqda, shuningdek, suvni tejashni iqtisodiy rag‘batlantirish usullaridan foydalanilgan holda ishlab chiqaruvchilar va aholi o‘rtasida faol tushuntirish ishlari olib borilmoqda.

Dunyo mamlakatlarida bir necha yillardan buyon suv resurslari va suv tanqisligi masalalari xalqaro ahamiyatga ega bo‘lib kelmoqda. Xususan, har yili 2 fevral kuni jahon hamjamiyati tomonidan muhim sana - Butunjahon suv-botqoqli hududlar kuni (World Wetlands Day) sifatida nishonlanadi. Bevosita ana shu doirada qabul qilingan Ramsar (Eron) konvensiyasiga O‘zbekiston 2001 yilda a’zo bo‘lgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 2001 yil 30 avgustdagi 278-son qarori asosida).

Shu bilan birga, jahon hamjamiyatining e’tiborini suv masalalariga, toza ichimlik suviga talab muhimligi, toza ichimlik suvidan barqaror foydalanish uslublarini targ‘ibot qilish masalalariga jalb etish maqsadida BMT Atrof-muhit va rivojlanish bo‘yicha konferensiyasining (Rio de Janeyro shahri, 1992 yil) qaroriga muvofiq, har yili 22 mart - Butunjahon Suv resurslari kuni (World Water Day)

sifatida nishonlanib kelinadi. Xususan, BMT Bosh Assambleyasining 2010 yil 20 dekabrda bo‘lib o‘tgan 69-yalpi yig‘ilishida qabul qilingan A/RES/65/154-conli Rezolyusiyaga muvofiq 2013 yil «Suv bo‘yicha hamkorlik xalqaro yili» («International Year of Water Cooperation») deb e’lon qilindi.

Bu sohadagi ishlarni davom ettirish va dala sharoitida suv tejamkorligiga erishish uchun katta maydonlarda yetishtiriladigan ekinlar paxta va g‘allani sug‘orish uchun maxsus kasb yo‘nalishiga ega bo‘lgan suvchilarni tayyorlash (o‘qitish) lozim. Har bir tumandagi qishloq xo‘jaligi yoki irrigatsiya va melioratsiya kollejlar qoshida muntazam faoliyat yurituvchi suvchilarni o‘qitish kurslarini tashkil etib, uning bitiruvchilariga tegishli sertifikat berilishi lozim. Faqat sertifikatli suvchisi bor fermerlar bilan suv yetkazib berish bo‘yicha shartnomalar tuzish tizimiga o‘tilishi dalalarda suv yo‘qotilishining oldini oladi.

Xulosa qilib aytganda, bugungi kundagi mavjud turli xil muammolarning asosiy sababchisi suv hisoblanadi. Shu bois, mavjud suv iste’molchilari uyushmalarini o‘rganib, ularni har bir sug‘orish tarmoqlari bo‘yicha ma’suliyatini oshirish, har bir tumanlararo kanallar bo‘yicha suv iste’molchilari uyushmalarinining birlashmalarini tuzish va ularni ushbu kanallar bo‘yicha suv boshqaruvida ishtirok etishini ta’minlash-ularning xududlarida suv resurslarini oqilona boshqarish, suv resurslarining samaradorligiga erishish imkonini beradi. Zero, mamlakatimizda har bir tomchi suvni ko‘z-qorachig‘iday asrashimiz, bu bizning– kelajak avlodlarimiz oldidagi burchimizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Yunusov H., Mamatova Z. Transchegaraviy daryolar va yirik to‘g‘onlar: tahdidlar, talafotlar va xavfsizlik choralari. -Toshkent: Yangi asr avlodi, 2015 yil
2. Mahmudov O. Suv resurslaridan tejamli foydalanish hayotiy zaruriyat // O‘zbekiston ovozi, 2013 yil 28 mart.
3. www.lex/uz
4. www.norma.uz

МУСТАҚИЛ ЎЗБЕКИСТОНДА СУВНИ ТЕЖОВЧИ ТЕХНОЛОГИЯЛАРНИНГ ЖОРИЙ ҚИЛИНИШИ

Шомуротов Шарофиддин Шукуржон ўғли
Қўқон давлат педагогика институти ўқитувчиси.
e-mail: *sharofiddin.shomurotov@gmail.com*

Бугунги кунда мамлакатимизда сув хўжалиги соҳасига замонавий ахборот-коммуникация технологияларини жорий қилиш борасида кенг кўламли ишлар амалга оширилмоқда. Жумладан, Ўзбекистон Республикаси Сув хўжалиги вазирлиги билан Корея халқаро ҳамкорлик агентлиги (КОИСА) ўртасида имзоланган битимга мувофиқ, республикамизнинг асосий сув

объектларига замонавий «Смарт Water» («Ақлли сув») тизими жорий қилинмоқда.

«Ақлли сув» тизимининг замонавий қурилмалари объектдаги сув сарфи, об-ҳаво, ёғингарчилик ва бошқа маълумотларни онлайн режимда фото ва видеоматериалларни вазирликда ташкил этилган ягона мониторинг ва кузатув марказига узатиб туради. Ушбу маълумотлар тезкор қайта ишланиб, керакли фойдаланувчиларга интернет ёки локал алоқа орқали узатилиши мумкин. Келгусида «Ақлли сув» тизимини республиканинг барча суғориш тармоқларига кенг татбиқ этиш режалаштирилган.

Сув хўжалиги вазирлигига Жанубий Кореянинг 7 миллион долларлик гранти ҳисобидан 61 та сув хўжалиги объектида сув сарфини онлайн кузатиш имконини берувчи «Ақлли сув» тизимини жорий этиш вазифаси юклатилди. Келгуси йили 120 та ва 2023 йилгача 300 та объектда ушбу тизим татбиқ этилади [2].

Шу билан бирга, глобал иқлим ўзгариши, аҳоли сонининг ва иқтисодиёт тармоқларининг ўсиши, уларнинг сувга бўлган талаби йил сайин ошиб бориши туфайли сув ресурсларининг тақчиллиги йилдан-йилга кучайиб бормоқда. Фойдаланилган ўртача йиллик сув миқдори 51-53 миллиард куб метрни, жумладан, 97,2 фоизи дарё ва сойлардан, 1,9 фоизи коллектор тармоқларидан, 0,9 фоизи эса ер остидан фойдаланиб, ажратилган сув олиш лимитига нисбатан 20 фоизга қисқарган.

Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёевнинг 2020 йил 10 июлдаги 6024-сонли Фармонига кўра, Ўзбекистон Республикаси Сув хўжалиги сохасида 2030 йилга қадар амалга ошириладиган қуйидаги кўрсаткичлар белгилаб берилган эди:

- суғориш тизимларининг фойдали иш коэффициентини 0.63 дан 0.73 гача ошириш;

- сув таъминоти паст бўлган суғориладиган ер майдонларининг 560 минг гектардан 190 минг гектаргача камайтириш;

- шўрланган суғориладиган ер майдонларини 226 минг гектарга камайтириш;

- Сув хўжалиги вазирлиги тизимидаги насос станцияларининг йиллик электр энергияси истеъмолини 25 фоизга камайтириш;

- барча ирригация тизими объектларига “Ақлли сув” сув ўлчаш ва назорат қилиш қурилмалари ўрнатилиб, сув ҳисобини юритишда рақамли технологияларни жорий қилиш;

- 100 та йирик сув хўжалиги объектларида сувни бошқариш жараёнларини автоматлаштириш;

- қишлоқ хўжалиги экинларини суғоришда сувни тежовчи технологиялар билан қамраб олинган ерларнинг умумий майдонини 2 миллион гектаргача, шу жумладан томчилатиб суғориш технологияси қамровини 600 минг гектаргача етказиш;

- сув хўжалигида давлат-хусусий шерикчилик тамойили асосида 50 та лойихани амалга ошириш зарурлиги белгилаб берилди.

Шундан келиб чиқиб, Республикада 2020-2030 йилларда аҳолини ва иқтисодиётнинг барча тармоқларини сув билан барқарор таъминлаш, суғориладиган ерларнинг мелиоратив ҳолатини яхшилаш, сув хўжалигига бозор тамойиллари ва механизмларини ҳамда рақамли технологияларни кенг жорий этиш, сув хўжалиги объектларининг ишончли ишлашини таъминлаш ҳамда ер ва сув ресурсларидан фойдаланишда самарадорликни ошириш зарурлиги белгилаб берилди.

2019 йил 19 сентябрда Президент Шавкат Мирзиёев сув ресурсларини бошқариш тизимини ислоҳ қилиш ва сувдан фойдаланиш самарадорлигини ошириш масалалари бўйича йиғилиш ўтказди. Йиғилишда суғоришдаги йўқотишларни қисқартириш, ажратилаётган бюджет маблағларидан самарали фойдаланиш масалалари муҳокама қилинди. Йиғилиш давомида Президентимиз томонидан қишлоқ хўжалиги сохасидаги қатор камчиликларга эътибор берилди:

- 3,2 миллион гектар ерга 46 миллиард куб метр сув сарфланиб, унинг 60 фоизи экинларга етиб боряпти, холос. Чунки жами 180 минг километр суғориш тармоқларининг 23 фоизи бетон қопламали бўлиб, улар ҳам 30-35 йилдан буён деярли янгиланмаган. Яна бир сабаби - экин майдонларининг 98 фоизи эскича услубда суғорилаётгани, экинлар номақбул жойлаштирилаётганидир.

- Сувдан самарали фойдаланиш, ҳисобини юритиш, ирригация тармоқларида сув тежовчи янги технологияларни қўллаш бўйича ҳеч бир ташкилот талаб қўймаяпти[2]. Шу боис ҳудудларнинг сув таъминоти ва уни тежаш имкониятидан келиб чиқиб, экинларни жойлаштиришнинг такомиллаштирилган тизимини ишлаб чиқиш зарурлиги таъкидлаб ўтилди.

Мамлакатимизда сув ресурсларидан тежаб-тергаб фойдаланиш, қишлоқ хўжалиги тармоқларини замонавий мезонлар асосида ривожлантириш бўйича дастурлар ҳаётга татбиқ этилмоқда. Ушбу амалга оширилаётган ислоҳотларни Фарғона вилояти мисолида кўриб чиқадиган бўлсак, 2020 йили Фарғона вилоятида 7,5 минг гектар, 2021 йили эса 30,2 минг гектар майдонда сув тежовчи технологиялар жорий этиш режалаштирилган. Шу йилнинг якунига қадар 38,4 минг гектар майдоннинг сув таъминоти ҳамда 52,9 минг гектар ернинг мелиоратив ҳолатини яхшилаш, 7 та сув иншоотида сув ҳисобини юритиш, 305 та насос станцияси ва тик қудуқларда электр энергияси истеъмолининг автоматлашган назорат тизимини жорий қилиш ҳамда ирригация тармоқларида бар қатор таъмирлаш ишлари кўзда тутилмоқда [3].

2021 йилда бу йўналишдаги ишларни янада ривожлантириш мақсадида Фарғона шаҳрида «Фергана агродрип» МЧЖ томонидан томчилатиб суғориш тизимининг бутловчи қисмларини ишлаб чиқариш йўлга қўйилди [1] Соҳага илм-фан ютуқлари жорий этилиб, 2021 йили вилоятда 20 минг гектар майдонларни лазерли қурилмалар ёрдамида текислаш белгилаб берилди. Янги тизимда 21 та тик қудуқни ишлатишга 1 нафар мутахассис бириктирилиб, илгари бир соатда ўчириб-ёқилган қурилмалар атиги 2 дақиқада ишга туширилади. Кучли ёмғир, шамол ёки авария ҳолатларида 200 дона қудуқни

марказий диспетчерлик пункти орқали «онлайн режим»да бир мартаба ўчириш натижасида 72,5 минг. кВт электр энергия, 33 млн. Сўм маблағ иқтисод қилинади.

Юкоридагилардан келиб чиккан ҳолда таъкидлаш лозимки, Ўзбекистонда сув хўжалиги тизими тарихининг замонавий даврини тадқик этиш бугунги кунда муҳим аҳамият касб этади. Тежамкорлик билан боғлиқ омилкорлик кейинги йилларда мамлакатимиз қишлоқ хўжалигида амалга оширилаётган ислоҳотлар жараёнида сув ресурсларидан унумли фойдаланиш бўйича давлат сиёсати даражасидаги мухим ислоҳотлар амалга ошириб келинаётганлиги диққатга сазовордир.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Халқ сўзи газетаси (он-лайн) 2020 йил 28 сентябрь.
2. www.lex.uz
3. https://uza.uz/
4. http://uz.infocom.uz/

UMUMIY O‘RTA TA’LIM MAKTABINING 9-SINFIDA EHTIMOLLIKLAR NAZARIYASINI O‘QITILISHI

Abdujalilova Muxlisaxon Abduxalil qizi
Boshlang‘ich ta’lim metodikasi kafedrasi o‘qituvchisi

Ehtimolliklar nazariyasi tasodifiy hodisalar orasidagi hog’lanishlarni, qonuniyatlarni o’rganish va ulardan kelib chiqadigan xulosalarni amaliyot masalalarini yechishga qo’llashga bag’ishlangan fandir.

Ehtimolliklar nazariyasining asosiy tushunchasi “tasodifiy sinov” yoki tasodifiy tajribadir. Bu tushunchalar ekvivalentdir.

Tasodifiy tajribaning natijasi elementar hodisa deyiladi, u ro’y berishi yoki bo’rmasligi mumkin. Tajriba elementar hodisalardan faqat bittasi bilan tugaydi. “Elementar hodisa” atamasi bilan bir qatorda "elementar natija" atamasi ham sinonim sifatida ishlatilishi mumkin.

Umumiy belgilash uchun elementar hodisalarni lotin alifbosining kichik harflaridan foydalanishni tavsiya qiladi: a, b, c, d . Lotin alifbosining bosh harflari A, B, C va boshqalar bilan tasodifiy hodisalarni belgilash uchun tavsiya etiladi. Xuddi shu harflar, ularning ustiga chiziq qo’yilsa, bu hodisalar A, B, C va boshqalarga qarama-qarshi hodisalar ekanligini ko’rsatadi.

Elementar hodisalarning nomlari, umuman hodisalar kabi, ularning ehtimollik ifodasini yozish uchun qulaydir. Demak, yuqoridagi elementar hodisalarning ehtimolliklari quyidagicha yoziladi: P(a), P(b), P(c), P(d). P(a) - elementar hodisaga tegishli son a.

Tasodifiy tajribaning barcha mumkin bo’lgan elementar hodisalaridan tashkil topgan to’plamni elementar hodisalar fazosi deb ataladi .

Hayotda hodisa deb ro’y beradigan yoki ro’y bermaydigan ixtiyoriy jarayonga aytiladi. Undan tashqari, insonlar tomonidan amalga oshiriladigan tajribalar yoki sinovlar, kuzatuvlar va oichash ishlarining natijalari ham hodisalardir. Barcha hodisalarni mumkin boimagan, muqarrar va tasodifiy hodisalarga bo’lish mumkin.

Mumkin bo’lmagan hodisa deb, berilgan sharoitlarda ro’y berishi mumkin bo’lmagan hodisaga aytiladi. Mumkin boimagan hodisalarga misollar keltiraylik:

daryoning suvi $+30^0$ da muzlaydi;

tomoni 1 dan 6 gacha raqamlangan o’yin kubigini tashlaganda 8 ochko tushishi.

Muqarrar hodisa deb, berilgan sharoitlarda albatta ro’y berishi aniq bo’lgan hodisaga aytiladi. Masalan:

1) qishdan keyin bahor keldi;

2) tomoni 1 dan 6 gacha raqamlangan o’yin kubigini tashlaganda 6dan kata bo’lmagan (0 dan farqli) ochko tushishi.

Tasodifiy hodisa deb, berilgan sharoitlarda ro’y berishi ham ro’y bermasligi ham mumkin bo’lgan hodisaga aytiladi. Quyidagi hodisalar tasodifiy hodisalarga misol bo’la oladi:

1) 1 dan 50 gacha naturai soniar orasidan tasodifan tanlangan son 7 ga bo’linadi;

2) tashlangan tanga gerb tomoni bilan tushdi.

Birgalikda bo’lishi mumkin va birgalikda bo’lmagan hodisalar.

Berilgan shartlarda bir vaqtda ro’y berishi mumkin bo’lgan ikki hodisa birgalikda bo’lishi mumkin deyiladi, bir vaqtning o’zida ro’y bera olmaydigan hodisalar esa birgalikda bo’lmagan hodisalar deyiladi. Masalan, „quyosh chiqdi“ va „kun sovuq“ birgalikda bo’lishi mumkin hodisalar, „kun botdi“ va „quyosh chiqdi“ hodisalari esa birgalikda bo’lmagan hodisalardir. O’yin kubigi bilan bog’liq quyidagi hodisalami qaraylik: 1) 3 ochko tushdi; 2) 4 ochko tushdi; 3) 3 ochkodan ko’proq tushdi; 4) uchga karrali ochko tushdi. Bu hodisalar ichida quyidagi uch juftlik birgalikda bo’lishi mumkin hodisalardir: 1- va 4- (3 soni uchga karrali bo’lgani uchun); 2- va 3- (4 ochko 3 ochkodan katta bo’lgani uchun); 3- va 4- (masalan, 6 ochko). Quyidagilar esa birgalikda bo’lmagan hodisalardir: 1- va 2- (bir vaqtning o’zida ikkita turli son tushihishi mumkin emas); 1- va 3- (3 ochkodan yuqori, ya’ni 4,5,6 ochkoiari 3 ochko bilan bir vaqtda tusha ol- maydi); 2- va 4- (4 soni 3 ga karrali emas).

Teng imkoniyatli hodisalar. Quyidagicha hodisalar guruhlariga misollarni qaraylik:

Gerb tomoni ***Raqamli tomoni***

1) Tangani bir marta tashlaganda “raqamli tomonining tushishi“ va “gerbli tomonininig tushishi“ ;

2) o’yin kubigi bir marta tashlaganda “1 ochkoning tushishi“ “2 ochkoning tushishi”,..., “6 ochkoning tushishi”;

3) bir tomoni ko’k, qolgan tomonlari qizilga bo’yalgan kubik tashlanganda “ko’k tomoni yuqorida bo’lib tushishi“ va “qizil tomoni yuqorida bo’lib tushishi“;

4) ichida 10 ta oq va bitta qora shar bo’lgan qutidan bitta shar olinganida uning “oq shar chiqishi" va “qora shar chiqishi”

1-va 2- misollarda hodisalardan birortasining ro’y berishi uchun hodisalardan birida boshqasiga nisbatan biror-bir ustunlik bor deb bo’lmaydi (tanga va kubiklar to’g’ri bo’lsa albatta). Bunday hodisalar *teng imkonyatli hodisalar* deb ataladi.

3- va 4- misollarda teng imkoniyatli bo’lmagan hodisalarga misollar ko’rsatilgan. Haqiqatan ham, bo’yalgan kubikning 5 ta tomoni qizil,bitta tomoni esa qora va, demak, qizil tomoni tushishi uchun imkoniyatlar qora tomoni tushishiga qaraganda ko’proq. Shu kabi, oq sharlar chiqishi imkoniyatlari qora shar chiqishi imkoniyatidan ko’proq.

Hodisaning ehtimolligi. Hayotda turli hodisalar bilan to’qnashganda, ko’p hollarda bu hodisalar ro’y berishining ishonchlilik darajasiga baho beramiz. Bunda ba’zi hodisalar haqida „bunday bo’lishi mumkin emas“ deb aytsak, boshqa bir hodisalar haqida „bu albatta ro’y beradi“ yoki „bu hodisa ro’y berishiga ishonch katta“ yoki „bu hodisa ro’y berishiga ishonch kam“ deb aytamiz. Hodisalar ro’y berishining ishonchlilik darajasini baholash ehtimollik tushunchasi bilan bog’liq.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati

1. Alimov Sh.A, Xolmuhamedov O.R, Mirzaahmedov.M.A Algebra // Umumiy o’rta ta’lim maktablarining 9-sinfi uchun darslik. Toshkent: “O’qituvchi” 2019-y. b-187

2. Mirzaahmedov M.A, Ismailov Sh.N, Amanov A.Q., Matematika // Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 11-sinflari va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari uchun darslik. Toshkent: "Zamin nashr" 2018-y. b-45

MEDIATA'LIM – YOSHLARNI SALBIY AXBOROTLARDAN HIMOYA QILISHNING MUHIM OMILI

Xaydarova Dilorom Abduxamidovna
Qo'qon DPI Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari
va huquq ta'limi kafedrasi o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada mediata'limning yoshlarni ta'limiy-tarbiyaviy jarayonidagi ahamiyati, mediata'limni o'ziga hos xususiyatlari ularning onggi va tafakkuriga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi axborotlardan himoyalanish yo'llari va uning samaradorligini oshirish yo'llari haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: axborot, media, mediata'lim, axborot xavfsizligi, mediasavodxonlik, mediamadaniyat, pozitsiya

Аннотация. В данной статье рассматривается значение медиаобразования в образовательном процессе молодежи, особенности медиаобразования, способы защиты их от информации, негативно влияющей на их сознание и мышление, а также пути повышения его эффективности.

Ключевые слова: информация, медиа, медиаобразование, информационная безопасность, медиаграмотность, медиакультура, позиция.

Abstract. This article discusses the importance of media education in the educational process of young people, the specific features of media education, ways to protect them from information that negatively affects their consciousness and thinking, and ways to increase its effectiveness.

Key words: information, media, media education, information security, media literacy, media culture, position

Bugungi kunda endi shakllanayotgan yoshlarni turli axborotlarning salbiy ta'siridan himoya qilish va ularning sog'lig'ini asrash muammosi dunyodagi tng dolzarb masalalardan hisoblanadi. Yoshlarga atrofini o'rab turgan olam haqidagi ma'lumot beruvchi asosiy manbalarga esa, matbuot, televideniye, radio, global kompyuter tarmoqlari va boshqalar kiradi. Bugungi yosh avlod ongiga ulkan axborot oqimi ta'sir ko'rsatmoqda, uni majoziy ma'noda "axborot yomg'iri" yoki "axborot seli" deb atash mumkin. Bugungi axborot makonidagi kutilmagan obrazlar, zamonaviy, yorqin tasvirlar, syujetlar va xatti-harakatlar xali ongi yetarli darajada shakllanmagan yoshlarni albatta ko'proq o'ziga jalb qiladi, chunki yosh xususiyatlari va hayotiy tajribaga ega bo'lmaganligi sababli, bola ulkan ma'lumotlar oqimini qabul qilish va tushunish uchun hali tayyor emas hisoblanadi.

Bu ularning ongiga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi turli buzuq, ziddiyatli dasturlar, shoular, saytlarni doimiy ko‘rishlariga ko‘proq imkon beradi, uning nozik ruhiyatiga ta’sir ko‘rsatadi. Ular esa bularning turli salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkinligini ko‘pincha tushunmaydi. Agar e’tiborimizni qaratsak, faqat ko‘ngilochar saytlar, turli shoularni tanlaydigan va ko‘radigan yoshlar deyarli yurtimizda va dunyoda bo‘layotgan ta’limiy-tarbiyaviy, ma’naviy-madaniy teledasturlar, ijtimoiy tarmoqlarni ko‘rishdan o‘zlarini chetga olishadi.

Hozirda urf bo‘lgan majoziy iboraga ko‘ra, “inson o‘zining “axborot pillasi”ga o‘ralib olishi, o‘zini real dunyodan ajratib qo‘yishi, illyuzion axborot makonida yashashi mumkin [5].

Media sohasidagi eng nufuzli tadqiqotchilarning tadqiqot natijalariga asoslanib shuni ta’kidlash mumkinki, ommaviy axborot vositalari tomonidan manipulyatsiya ob’yekti bo‘lib ko‘proq yoshlar tanlanadi, chunki:

- ular axborotning muhim qismini, to‘liq idrok etmaydilar, chunki ular xali uni idrok etishga tayyor emaslar;
- ular xabarlarning ma’nosini yoki bir nechta ma’noga ega bo‘lishi mumkinligini qisman tushunadilar;
- ular ommaviy axborot vositalariga nisbatan passiv pozitsiyani egallaydilar, o‘zlarini ularning ta’siridan qanday himoya qilishni bilmaydilar va ko‘pincha bunday himoya zarurligini tushunmaydilar.

Bugungi kunda axborot xavfsizligi va inson ongini ommaviy axborot vositalari tomonidan manipulyatsiya qilinishidan himoya qilish davrimizning eng asosiy muammosiga aylandi, va bu hozirda ota-onalar, shifokorlar, psixologlar va o‘qituvchilarni tashvishga solmoqda. Ushbu muammoni hal etishning eng samarali yo‘li sifatida maktab va ta’lim muassasalarida mediata’lim va mediamadaniyatni rivojlantirish orqali amalga oshirish taklif etilmoqda. Hozirgi kunda dunyoda jadal rivojlanayotgan mediata’lim bu - pedagogikaning ommaviy axborot qonuniyatlarini o‘rganish asosida yoshlarni axborot xurujlaridan o‘zini himoya qilish va odamlar bilan muloqot qilish va o‘zligini namoyon qilishning zamonaviy shakllari bilan tanishtiradigan yo‘nalishdir.

Mediata’limni o‘rganish natijasida inson quyidagi imkoniyatlarga ega bo‘lishi mumkin:

o‘zi bilan qabul qilinuvchi axborot o‘rtasida “psixologik masofa” o‘rnatish mexanizmlarini yaratish, o‘zining ongini manipulyatsiya qilinishidan psixologik himoya qilish, axborotlarni tanqidiy baholash ko‘nikmalarini egallash;

- audiovizual idrok etishning ongli tajribasini egallash; idrok etish qobiliyatlarini har tomonlama rivojlantirish;
- amaliy darajada noverbal xabarlar tillarini (teletasvirlar tahlili, kino tili, reklama tili va boshqalar) o‘zlashtirish, bu esa ularnga axborotlarning mazmuni anglashga va o‘zini namoyon etish imkonini beradi

Mediata’limning o‘z oldiga qo‘yilgan maqsadlariga erishish uchun quyidagi faoliyat yo‘nalishlari muhim ahamiyatga ega hisoblanadi:

- maktabda shakllangan bilimlar tizimiga sinfdan tashqari qabul qilinadigan axborotni kiritish, bu bilimlardan turli mediadagi axborotlarni idrok etish va ularni tanqidiy tushunishda foydalanish;
- axborotni talqin qilish, uning mohiyatini anglash, uni maqsadli yo‘naltirish, axborot tarqalishining maqsadi, axborotlardagi yashirin ma’nolarga nisbatan shaxsiy munosabatini shakllantirish qobiliyatini rivojlantirish; kerakli ma’lumotlarni turli manbalardan topa olish, belgilangan mezonlar asosida ularni tizimlashtira olish;
- axborotlarning kommunikativ jihatdan o‘zaro ta’sir maqsadini va mo‘ljallangan auditoriya xususiyatlaridan kelib chiqqan holda ularni hajmini, shaklini, belgilari tizimini, tashuvchisini o‘zgartira olish;
- o‘z fikrlari yuzasidan bahslasha olish, olingan ma’lumotlarda kamchiliklar va ma’nolarni topa olish va ularni tuzatish bo‘yicha takliflar kirita olish;
- axborotlardagi turli muqobil nuqtai nazarlarni qabul qilish va ularning har biriga «yoqlash» va «qarshi» bo‘lgan asosli dalillar keltira olish;
- axborot xabarlari o‘rtasida maqsadli assotsiativ va amaliy aloqalarni o‘rnatish; axborot xabaridagi eng muhim jihatlarni ajrata olish.

Hozirgi vaqtda kino va videofilmlar, ijtimoiy tarmoqlardagi xabarlar va turli teledasturlarning parchalari asosan ko‘rish tamoyilini amalga oshirish sifatida qo‘llaniladi. Biroq yoshlarga qaratilgan elektron, audiovizual, bosma medialarining didaktik va tarbiyaviy imkoniyatlaridan ta’lim-tarbiyaviy yo‘nalishlardagi maqsadlarda yetarlicha foydalanilmayapti, ammo ular insonning xulq-atvor hususiyatlarini shakllantirishga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Zamonaviy axborot madaniyatini shakllantirish va yoshlarning axborot xulq-atvor hususiyatlarini rivojlantirishning yangi usullarini ishlab chiqish sharoitda albatta, media ta’limning o‘ziga hos pedagogik salohiyatini hisobga olish muhimdir.

Bugungi amaliyot shuni ko‘rsatmoqdaki, pedagoglar va ota-onalar tomonidan olib boriladigan turli xil ta’limiy va tarbiyaviy ta’sirlarni yoshlar turlicha qabul qilishlari mumkin: ularga xushmuomalalik bilan muloqot qilish natijasida paydo bo‘ladigan ijobiy munosabatlardan so‘ng ular o‘zining xatti-harakati haqida o‘ylaydi va faollik ko‘rsatib, o‘zini takomillashtirish va rivojlantirishga intiladi. Ana shunda bunday tarbiya usuli haqiqatan ham uning shaxsiy ijobiy hususiyatlarini shakllanishida hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Agar ota-onalar, tarbiyachilar va pedagoglarning tarbiya usuli ular bilan yoshlar o‘rtasida ijobiy munosabat o‘rnatmasa, bu usul yoshlarning psixologik rivojlanishida ijobiy rol o‘ynamaydi va hatto ular tomonidan ma'lum bir qarshilikka ham uchrashi mumkin.

Ko‘rinib turibdiki, o‘quvchi tarbiyaviy ta’sirning nofaol ob’yekti hisoblanmaydi. Ularda bunday ta’sirlarga nisbatan ichki pozitsiya shakllanadi, ularda ushbu ta‘sirlarga nisbatan o‘zini takomillashtirish (rivojlantirish), o‘z ustilarida faol ishlashlari yoki passiv bo‘lib qolishlari mumkin. Shu nuqtai nazardan ta’kidlash mumkinki, ta’lim-tarbiya shaxsning kamol topishida, uning o‘z ustida ishlashidagi faolligini ichki jihatdan rag‘batlantirishga ota-onalar, tarbiyachi hamda pedagoglar tomonidan ijobiy ta’sir ko‘rsatgandagina bu usullar hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Aynan quyidagi hususiyatlar ya’ni o‘sib kelayotgan shaxsning faolligi va

shaxsiy intilishi, o‘zini takomillashtirishga bo‘lgan istagi, pirovardida uning shaxsiy rivojlanishini belgilaydi [6].

Yoshlarning darsdan tashqari mashg‘ulotlarida mediata’limdan foydalanishning tarbiyaviy va rivojlantiruvchi ahamiyati shundaki, ularga o‘zini namoyon qilish uchun qo‘shimcha shart-sharoitlar yaratishda ham hisoblanadi, chunki hamma bola ham o‘qish jarayonida o‘zini namoyon qila olmaydi. Bunday sabablar sirasiga yoshlarda etakchilik, turli qobiliyatlarini va o‘zlashtira olmaslik kabi muammolarni ko‘rsatish mumkin. Shu sababli, ta'lim muassasalarida tashkil etiladigan turli sinfdan tashqari mashg‘ulotlarda yoshlar o‘zlarining ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish uchun ijtimoiy motivlar va ehtiyojlarlarini amalga oshiradigan ulkan imkoniyat bilan ta’minlanadilar.

Xulosa qilib aytganda, axborot asri davrida yoshlarga yopirilib kelayotgan «notoza va noxolis» axborotlarning oldini olish, sara ma’lumotlarni topib foydalanishlari, xususan, nosog‘lom axborotlardan himoyalana olishlari, kommunikatsiya vositalaridan to‘g‘ri foydalana bilishlari uchun bilim va tajriba kerak bo‘ladi. Internet madaniyatini avvalo kattalar, ota-onalar, kerak bo‘lsa, pedagoglar o‘zlaridan boshlasalar, yana ham yaxshi kutilgan natijalarga erishish mumkin bo‘ladi. Aynan mana shu borada bolalar kattalarning, ayniqsa, ota-onalar va pedagoglarning ma’naviy-ruhiy ko‘magiga muhtoj. Shuningdek, mutaxassislar tomonidan o‘sib kelayotgan yosh avlodning mediasavodxonligi va Internetdan foydalanish madaniyatini yuksaltirish, Internetning milliy segmentini rivojlantirish yuzasidan aniq takliflar ishlab chiqish va ijroga yo‘naltirish vaqti keldi. Darhaqiqat, axborot makonida tahdidlar bor ekan, Milliy axborot makonimizga chegara qo‘yib bo‘lmaydi. Shunday ekan, yoshlarga sog‘lom axborot muhitini yaratib, ular ma’naviy olamining daxlsizligini asrash asosiy vazifalarimizdan biridir. Ayni paytda, mediata’lim asoslarini har bir ta’lim muassasasi o‘quv dasturiga kiritish, bolalarga maktabgacha ta’lim jarayonida uning asoslarini interaktiv, turli o‘yinlar shaklida tushuntirish, o‘sib kelayotgan avlod tomonidan shiddatli axborot oqimida zarurini tanlash va unga tanqidiy yondashgan holda baholay olish imkonini beradi. Bu esa o‘z navbatida, yoshlarning kelajakdagi fuqarolik pozitsiyasining yanada mustahkamlanishiga, jahonda yuz berayotgan voqea-hodisalarni xolis baholab, to‘g‘ri qaror qabul qila olishiga asos bo‘la oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. 1.Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017.
2. 2.I. Karimov “Yuksak ma’naviyat yengilmas kuch” Toshkent 2008 yil
3. 3.Mamatova Yo. Sulaymonova S. O‘zbekistonda mediata’lim istiqbollari. – Toshkent. 2013.
4. 4.Nargis Qosimova, Xilola Fayzullayeva “Media etika”
5. Зазнобина, Л.С. Медиаобразование в школе: как выжить в мире СМИ [Электронный ресурс]. - Режим доступа: http://www.mediaeducation.ru.
6. Харламов, И.В. Педагогика / И.В. Харламов. - Минск. Высшая школа, 2004. -195 с.

PEDAGOGIKA OLIY TA’LIM MUASSASALARI TALABALARINING MEDIAKOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH MUAMMOSINI YECHISH YO‘LLARI

Xaydarova Dilorom Abduxamidovna
Qo‘qon DPI Milliy g‘oya, ma’naviyat asoslari
va huquq ta’limi kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada pedagogik oliy ta’lim muassasalari talabalarining mediakompetentligini rivojlantirish, multimedia-texnologiyalar vositalari orqali mediakompetentlik darajasini oshirish, taxborot-kommunikatsion texnologiyalarini o‘zlashtirish, rivojlantirish va takomillashtirish orqali mediakompetentlik layoqatiga ega bo‘lish yo‘llari haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: axborot, media, mediata’lim, pedagogika, texnologiya, qobilyat, auditoriya, kompetentlik

Аннотация. В данной статье рассматриваются пути развития медиакомпетентности студентов педагогических вузов, повышения уровня медиакомпетентности средствами мультимедийных технологий, приобретения медиакомпетентности путем освоения, развития и совершенствования информационно-коммуникационных технологий

Ключевые слова: информация, медиа, медиаобразование, педагогика, технологии, способности, аудитория, компетентность

Abstract. This article discusses ways to develop the media competence of students of pedagogical higher education institutions, to increase the level of media competence through the means of multimedia technologies, to acquire media competence by mastering, developing and improving information and communication technologies

Key words: information, media, media education, pedagogy, technology, ability, audience, competence

Ma’lumki, ta’lim jamiyat rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi. Qanday sohada bo‘lmasin, yuqori bilimga ega mutaxassislar ilmiy-tadqiqot ishlanmalari bilan shug‘ullanish, yangi mahsulot turlarini yaratish va texnologiyalarni rivojlantirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Jahondagi globallashuv jarayonlari va kompaniyalar o‘rtasidagi mavjud chuqur raqobat muhiti mutaxassislarni ham favqulodda shunga tayyor bo‘lishlarini talab etadi. Ular nafaqat o‘z g‘oyalarini rivojlantirish va yaratilgan nazariy modellarini amalda joriy etish uchun qulay sharoitlarni ta’minlaydilar, shu bilan birga, iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishi uchun ham muhim intellektual omil hisoblanadilar. “Competence” so‘zi inglizchada “qobiliyat” degan ma’noni bildirib, u faoliyatda nazariy bilimlardan samarali foydalanish va yuqori darajadagi kasbiy malaka, mahorat, iqtidorni namoyon etishdir. Ta’limga “kompetentlik” tushunchasi psixologik izlanishlar orqali kirib kelganligi sababli

buni kutilmagan vaziyatlarda mutaxassisning o‘zini qanday tutishi, uning muloqotga kirishishi va raqiblar bilan o‘zaro munosabatlari, bunda qanday yangi yo‘l tutishi, noaniq vazifalarni qanday bajarishda, ziddiyatli ma’lumotlardan foydalanish jarayonida murakkab holatlarda harakatlanish rejasiga egaligini anglatadi”,- degan xulosaga kelish mumkin.

Bugungi kunda jahonda texnologiyalar va axborotlashtirish jarayonlarining rivojlanishi davrida yuqori malakali kadrlarni egallash va yollash uchun kompaniyalar o‘rtasida raqobat kurashi birmuncha oshdi. Bu nafaqat tijorat tashkilotlariga, balki ilmiy-tadqiqot markazlari, o‘quv yurtlariga ham tegishlidir. Shunday ekan, zamonaviy ta’lim sifati to‘g‘risidagi masala birinchi navbatda hal qilinishi kerak bo‘lgan muammo hisoblanadi. Aynan, oliy ta’lim muassasalari bo‘lajak mutaxassislarning aniq kasbiy sohasida bilimlarini shakllantiradi.

Davlat taraqqiyoti va jamiyat ravnaqi ko‘p jihatdan uning intellektual potensiali bilan belgilanadi. Chunki ilmiy potensiali yuqori darajada rivojlangan mamlakat barcha sohalarda doimo ilg‘or bo‘ladi. Shuning uchun mamlakatimizda ta’lim tizimini tubdan isloh qilish davlat ahamiyatiga molik bo‘lgan ustuvor vazifa sifatida yondashilib, katta e’tibor qaratilyapti. Yuqori malakali mutaxassis kadrlarni tayyorlashga erishish uchun ta’lim jarayonini tashkil qilish va boshqarishning o‘ziga xos talablari mavjud. Birinchidan, o‘quvchi-talabalarning kasbiy bilimlarni o‘zlashtirish darajasi davlat ta’lim standartlari talablariga mosligini ta’minlash. Ikkinchidan, o‘quvchi-talabalarning mustaqil ijodiy faolligini davlat ta’lim standartlarida belgilangan bilim, ko‘nikma va malakalar doirasini to‘liq qamrab olishga erishish. Jamiyatning bu tarzda jadal rivojlanishi, yuqori malakali kadrlarga bo‘lgan ehtiyoj – o‘qituvchidan intellektual qobiliyatlarini namoyon qilgan holda, ijtimoiy talablarni qondirishni taqozo etmoqda [1].

Ijodiy faoliyatga qodir, rivojlanuvchan ta’limiy-tarbiyaviy jarayonni va shu bilan birga o‘zining kasbiy kompetentligi hamda mediakompetentligini boshqara oladigan pedagoglargina jamiyatning barkamol shaxsga bo‘lgan talabini qondira oladi. Hozirgi kunda shu qadar katta ahamiyatga ega bo‘lgan mediakompetentlikning ma’nosi, uning shakllanganlik darajasi, mezonlari va komponentlari to‘g‘risida yagona bir ta’rif yo‘q.

Dunyoda mediakompetentlikni rivojlantirishning asosiy bosqichlari sifatida quyidagilar e’tirof qilinadi:

1. Mediakompetentlikning (atamaning o‘zini kiritmasdan turib) birinchi marta 1920 yilda tilga olingan, shu yili Moskvada dunyoda birinchi kino maktabi (Hozirda Butunrossiya davlat kinematografiya instituti –VGIK) ochilgan. XX asrning 30-yillarida mediata’lim (matbuot, foto va kino materiali asosida) umumta’lim maktablarida rivojlanib borgan [2].

2. Rossiya maktablarida ta’limda mediakompetensiyaning shakllanish harakati XX asrning 60-70 yillarida faol rivojlandi. Bu mediakompetentlik tiklanishi va rivojlanishining ikkichi bosqichi bo‘ldi. Bu davrda kino ta’limi va audiovizual savodxonlik ustuvorlik qildi. Pedagogika fanlari akademiyasining Badiiy tarbiya instituti ekran san’ati laboratoriyasi shu yillari faol ish olib bordi. Mediata’lim muammolariga bag‘ishlangan dastlabki nomzodlik dissertatsiyalari XX asrning 60-

yillarida talabalarning kinota'limi (O.A. Baranov – 1968; A.S. Karasik – 1966; Yu.M. Rabinovich – 1966 va R. G. Rabinovich 1966), radioeshitirish (V. I. Saperov – 1969), televideniyening mediata'limdagi roli (S. N. Penzin –1967 va boshq.) sohasida ham bajarildi [3].

XX asrning 70-yillarida audiovizual mediata'lim g'oyalarini rivojlantirishga bag'ishlangan nomzodlik dissertatsiyalari muvaffaqiyatli himoya qilindi (N.V. 3. XX asrning 80-yillarida Rossiyada mediata'lim (matbuot, kinematografiya va televideniye materiali asosida) bo'yicha eksperimentlar amalga oshirila boshlandi. Ta'limda mediakompetensiyani tadqiq qilish rivojining uchinchi bosqichi kuzatildi. Mediata'lim tadqiqotlarining chuqurlashishi, sof pedagogik tajribani tavsiflash va umumlashtirishdan mazkur fenomenning psixologik va ijtimoiy (sotsiologik) qatlamlarini aniqlashga o'tish jarayoni yuz berdi [2].

2006-2008 yillar davomida Rossiyada mediata'limni rivojlantirish bo'yicha ko'plab ishlar amalga oshirildi. Jumladan, Rossiya mediatalimi harakatini qo'llab-quvvatlovchi va rivojlantiruvchi tashkilotlardan: Sibir Mediata'lim Uyushmasi, Ural mediamadaniyat va mediata'lim ilmiy-metodik Markazlari "Ta'lim. Media. Jamiyat: hamkorlik muhiti" jurnalining nashr etilishiga tashabbuskorlik qildi. Ushbu jurnal 2007 yildan beri muntazam chop etilib kelinmoqda [4].

Mediata'lim muammolari (asosan, kino, matbuot yoki televideniye bilan bog'liq xususiy, alohida aspektlarda) ko'plab olim va mutaxassislarning tadqiqot ob'yektini tashkil qilgan.

Mediata'lim va mediamadaniyatga oid ilmiy adabiyotlar tahlili o'rganilayotgan muammoning quyidagi yo'nalishlarini aniqlash imkonini berdi:

– qayd qiluvchi xarakterdagi tadqiqotlar, ularda turli yoshdagi shaxslar mediamatnlarni idrok qilishiga oid xususiyatlar haqida ma'lumot keltirilgan (I.S. Levshina, Yu.N. Usov, A.V. Fedorov, A.V. Sharikov, S.A. Shein va boshq.);

– umumnazariy xarakterdagi tadqiqotlar, ularda mediata'lim va mass-media konsepsiyalari, modellari va metodlari ilgari surilgan va tahlilga tortilgan (L.S. Zaznobina, L. Masterman, S.N. Penzin, A.V. Spichkin, K. Tayner, Yu.N. Usov, A.V. Fedorov, A.V. Sharikov, E. Xart va boshq.);

– mediata'limning muayyan (aniq) metodikasi bilan bog'liq tadqiqotlar (L.M.Bajenova, O.A.Baranov, Ye.A.Bondarenko, K.Bezelget, D.Bekingem, K.Vorsnop, D.M.Djusubalieva, D.Konsidayn, S.N.Penzin, G.A.Polichko, Yu.M.Rabinovich, K.Tayner, Yu.N.Usov, A.V.Fedorov, A.V.Sharikov va boshqalar).

I.G.Zaxarova, I.V.Robert, Ye.I.Sokolova, A.V.Fedorov, O.K.Filatov, A.V.Sharikov, Ye.N.Yastrebseva va boshqalarning tadqiqotlarida media vositalarini qo'llash pedagoglarning mediakompetentligini media vositalari asosida oshirishga imkon beradigan, shu bois ularni tayyorlashda alohida ahamiyat kasb etadigan axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash bilan bevosita bog'liqligi ko'rsatib o'tilgan.

Fedorov A. V. tomonidan Veber V., Kyubi R., Dj. Potter yondashuvlari asosida, shuningdek, britaniyalik yetakchi mediapedagoglar Dj. Bouker, D.Bukingem, E.Xart va boshqalar tomonidan asosiy sifatida ajratilgan oltita

tushunchaga tayanib, shaxs mediakompetentligining tarkibiy qismlari (komponentlari) tasnifi (klassifikatsiyasi) ishlab chiqilgan.

Bu oltita asosiy tushuncha quyidagilardan iborat:

1) “media agentliklari” (mediamatn yaratuvchilarning ishi, vazifalari va maqsadlarini o‘rganish);

2) “media kategoriyalari” (media/mediamatnlar tipologiyasi: turlari va janrlarini o‘rganish);

3) “media texnologiyalari” (mediamatn yaratish usullari texnologiya-larini o‘rganish);

4) “media tillari” (media tillari, ya’ni mediamatnlarning verbal, audiovizual, montaj qatorini o‘rganish);

5) “media reprezentatsiyalari” (mediamatnlarda voqelikni tasavvur (taqdim) qilish, qayta anglash usullari, mualliflik konsepsiyalari va sh.k. ni o‘rganish);

6) “media auditoriyalari” (auditoriya tipologiyasi, mediaidrok tipologiyasini o‘rganish).

A.V.Fedorov tomonidan taklif qilingan shaxsning mediakompetentligi ta’rifi asosida, yuqori sinf o‘quvchisining psixologik pedagogik xususiyatlarini e’tiborga olgan holda O.Imanova “yuqori sinf o‘quvchisining mediakompetentligi”ga ta’rif bergan. Yuqori sinf o‘quvchisining mediakompetentligi (komponentlari: motivatsiyali, aloqaviy, axborotli, perseptiv, baholovchi, faoliyatli, kreativ) – multimedia resurslarni tanlash, tahlil qilish, qo‘llash, shuningdek, multimedia vositalaridan o‘quv fanlari bo‘yicha o‘z multimedia mahsulotlarini yaratish, uzatish va tarqatish maqsadida foydalanish qobiliyati [5].

Iskakov B.A. o‘zining Resurs markazi sharoitida o‘qituvchilar mediakompetentligini rivojlantirish mavzusidagi pedagogika fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasida “o‘qituvchining mediakompetentligi” tushunchasiga ta’rif bergan. Bu tushuncha shaxsiy tuzilma sifatida, fikrimizcha, o‘qituvchining mediatexnologiya vositalaridan faol foydalanishga yo‘naltirilgan pedagogik faoliyatini kompetent va sermahsul olib borish qobiliyatida o‘z ifodasini topadi. Bunday faoliyat o‘qituvchini ochiq ta’limiy mediamakonda kasbiy o‘zini o‘zi realizatsiyalashga yo‘naltirish, mediatexnologiyalar mohiyatini anglashga ko‘maklashish, yaxlit pedagogik jarayonda ularni realizatsiyalash metodikasi bilan qurollantirish imkonini beradi .

Tadqiqotchi mediakompetentlikni tadqiq qilishning turli jihatlaridan kelib chiqqan holda uning strukturasida motivatsiyali-qadriyatli, mazmunli va protsessual komponentlarni ajratib ko‘rsatgan.

Shablin M.S. tomonidan animatsion kompozitsiya vositasida pedagogik oliy ta’lim muassasalari talabalari mediakompetentligini shakllantirishning pedagogik texnologiyasi ishlab chiqilgan, asoslab berilgan va tajriba-sinovdan o‘tkazilgan. Bu texnologiyada animatsion kompozitsiya yaratish, pedagogik oliy ta’lim muassasalari talabalarining ijodiy salohiyatini rivojlantiradigan tasviriy va texnik faoliyatning rang-barang turlarini kiritish, topshiriq va mashqlarning maxsus tizimidan foydalanishdan iborat umumiy maqsad va natija bilan birlashgan san’at turlarining o‘zaro hamkorligiga yetakchi o‘rin ajratilgan [6].

Myasnikova T.I. o‘zining “Universitet talabalarining mediakompetentligini rivojlantirish” nomli tadqiqot ishida mediakompetentlik shaxsning media bilan muloqotga yakka tartibdagi (individual) tayyorligini tavsiflovchi (xarakterlovchi) talabaning formal va noformal ta’lim jarayonida shaxsiy-sub’yektiv o‘zlashtirishlari natijasidir, deb qayd etgan. U universitet talabalarining mediakompetentligi rivojlanish ko‘rsatkichlarini quyidagicha izohlagan:

– media haqidagi klassik axborot va innovatsion tarkibiy qismlarni qamrab oladigan media to‘g‘risidagi bilimlar;

– mediadan retseptiv foydalanishda o‘z ifodasini topadigan mediaiste’molchilik;

– analitik (tahliliy), refleksiv malakalar, baholovchi argumentatsiya (asoslash) qobiliyatini o‘z ichiga oladigan mediatanqid;

mediaraqobat, u talabaning zamonaviy media muhitning o‘zgaruvchanligi va yangiliklarini hisobga olish malakasi; ta’lim va kasbiy kontekstdagi mediamatnlarni loyihalash kreativ malakalari bilan belgilanadi.

Mediapsixologiya psixologiya fanining yangi, jadal rivojlanayotgan sohasi bo‘lib, uning predmetini dunyo madaniyatining dinamik tarzda rivojlanayotgan sohasi sifatida zamonaviy mediamadaniyat kontekstida qaraladigan shaxs tashkil qiladi. Mediapsixologiyaning asosiy vazifalari sirasiga quyidagilar kiradi:

– shaxsning individual va ommaviy kommunikatsiya vositalari ta’siridagi xulq-atvorini o‘rganish;

– shaxsiy va guruhli mediaeffektlarni tadqiq qilish;

– mediamuhitning sub’yekt rivojlanishi, shaxsning tiklanishi va insonning psixologik o‘zini o‘zi his qilishiga ta’sirini tahlil qilish;

– shaxsning mediahimoyalanganligi va mediakompetentligini shakllantirish bo‘yicha dasturlarni ishlab chiqish.

Shaxsning mediaxabarlarni idrok qilish va qayta ishlashda namoyon bo‘ladigan himoya mexanizmlarini tadqiq qilish, axborotning ortiqcha miqdorini qayta ishlash va informatsion pressing natijasida yuzaga keladigan “axborotdan toliqish sindromi”ni o‘rganish mediapsixologiyaning muhim yo‘nalishi hisoblanadi [7].

Yana bir rossiyalik media bo‘yicha yetakchi olim Fedorov A.V. “Pedagogik oliy ta’lim muassasalari talabalarining mediakompetentligi va tanqidiy tafakkurini rivojlantirish” nomli yozilgan monografiyasida, pedagogik oliy ta’lim muassasalari talabalarining mediakompetentligi va tanqidiy tafakkurini rivojlantirish masalalari mediata’lim va mediasavodxonlikning umumiy muammolari kontekstida o‘rganilgan.

Yuqorida keltirilgan fikrlarni inobatga olgan holda shuni ta’kidlash mumkinki, bizning fikrimizcha, pedagogik oliy ta’lim muassasalari talabalarining mediakompetentligini rivojlantirishning eng qulay usuli bu – “Informatika va axborot texnologiyalari” kursini o‘qitish jarayonida axborot texnologiyalari, multimedia-texnologiyalar vositasida rivojlantirishdir. Multimedia asoslariga oid, mediakompetentlik darajasini oshirishga qaratilgan maxsus kurslar, nazarimizda, bitiruvchilarga nafaqat oliy ta’lim muassasasida ta’lim olish, balki keyingi kasbiy pedagogik faoliyatda ham mediakompetentlikning yuqori darajasini namoyish qilish

imkonini beradi.

Bu kurslar multimedia-texnologiyalardan foydalanish sohasida ta’limni davom ettirish uchun ish metodlari, bilish mustaqilligi, tadqiqotchilik faoliyatiga qiziqish, guruhda ishlash malakalarini rivojlantirish, o‘zini o‘zi nazorat qilish va mas’uliyatni oshirishga ko‘maklashadigan ta’lim muhitini tashkil qilish imkoniyatini beradigan prinsiplar asosiga qurilishi lozim. Bunda talabalar axborot-kommunikatsion texnologiyalarini o‘zlashtirish, rivojlantirish va takomillashtirish orqali mediakompetentlik layoqatiga ega bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. http://malaka.uz
2. Никитина Е.Ю., Милютина А.А. Формирование медиакомпетенции младших школьников на уроках русского языка. Монография. – М., 2015.
3. Никитина, Е.Ю. Педагогическое управление коммуникативным образованием студентов вузов: перспективные подходы: монография. – М.: МАНПО, 2006. – С. 154.
4. Федоров А.В. Медиаобразование: вчера и сегодня. – М.: Изд-во МОО ВПП ЮНЕСКО “Информация для всех”, 2009. – С. 73.
5. Иманова О. А. Методика развития деятельностной компоненты медиакомпетентности учащихся старших классов средствами информационных технологий автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата педагогических наук. – Киров. 2010.
6. Шаблин М. С. Педагогическая технология формирования медиакомпетентности студентов педвузов средствами анимационной композиции; автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата педагогических наук. – Краснодар. 2012.
7. http://www.directmedia.ru

ТУРКИСТОН ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИДА “ҲАРБИЙ КОММУНИЗМ” СИЁСАТИ ВА УНИНГ ОҚИБАТЛАРИ

Тошматов Шуҳратжон Абдуқосимович
Қўқон давлат педагогика институти ўқитувчиси

Аннотация. Ушбу мақолада Совет ҳокимиятининг дастлабки йилларида “ҳарбий коммунизм” сиёсатининг жорий қилиниши ва унинг Туркистон АССР қишлоқ хўжалигидаги жараёнлари ўрганилган. “Ҳарбий коммунизм” шароитида деҳқон хўжаликлари зиммасига юклатилган озиқ-овқат развёрсткаси, “ғалла монополияси” ва бошқа оғир мажбуриятлар, бу мажбуриятларнинг Туркистон қишлоқ хўжалигининг оғир аҳволга тушиб қолишидаги таъсири масаласи аниқ далиллар билан ёритилган.

Калит сўзлар: Совет давлати, Туркистон АССР, “Ҳарбий коммунизм”, большевиклар ҳукумати, озиқ-овқат развёрсткаси, “ғалла монополияси”, меҳнат мажбуриятлари, қишлоқ хўжалик солиғи, озиқ-овқат отрядлари, очарчилик.

Аннотация. В данной статье рассматривается внедрение политики «военного коммунизма» в первые годы Советской власти и ее последствий в сельском хозяйстве Туркестанской АССР. Продразвёрстка, «хлебная монополия» и другие тяжелые повинности, наложенные на крестьянские хозяйства в условиях «военного коммунизма», а также влияние этих повинностей на сельское хозяйство Туркестана, находившееся в сложной ситуации, освещены фактическими данными.

Ключевые слова: Советское государство, Туркестанская АССР, «военный коммунизм», большевистское правительство, продразвёрстка, «хлебная монополия», трудовые повинности, сельскохозяйственный налог, продотряды, голод.

Annotation. This article examines the introduction of the policy of “war communism” in the first years of Soviet power and its consequences in the agriculture of the Turkestan Autonomous Soviet Socialist Republic. The surplus appropriation system, the “grain monopoly” and other heavy duties imposed on peasant farms under the conditions of “war communism”, as well as the impact of these duties on the agriculture of Turkestan, which was in a difficult situation, are illuminated by factual data.

Key words: Soviet state, Turkestan Autonomous Soviet Socialist Republic, “war communism”, Bolshevik government, surplus appropriation system, “grain monopoly”, labor duties, agricultural tax, food detachments, famine.

1917 йил Октябрь давлат тўнтаришидан кейин большевиклар ҳукумати мамлакатдаги солиқ тизимини тубдан қайта қуриш чораларини амалга оширишга киришади. Бу даврда солиқлар советлар томонидан “эксплуататор синфлар” мол-мулкини мусодара қилиш, уларни иқтисодий чеклаш ва йўқ қилиш қуролига айланди. Янги солиқ тизимини шакллантириш муайян вақтни, бир қатор фундаментал ва амалий муаммоларни ҳал қилишни тақазо этарди. Бу муаммоларнинг мураккаблиги тобора кескинлашиб бораётган синфий кураш, бошланиб кетган фуқаролар уруши, мамлакатда иқтисодий ва молиявий таназзулнинг кучайиши шароитида янада мураккаб тус олди. Эски солиқ тизимининг емирилиши ва ҳукумат қўлида маблағларнинг йўқлиги маҳаллий Советларга солиқ борасида ўз билганларича иш тутишларига асос бўлди. Советлар маҳаллий солиқларни жорий этиш орқали совет мамлакати учун зарур маблағларни топиш имконига эга бўлдилар [1].

Большевиклар ҳокимиятининг аграр қонунчилиги “давлат эҳтиёжлари учун” табақалаштирилган қишлоқ хўжалик солиқларини йиғиш имкониятларини ҳам кўзда тутган, бу ҳуқуқ 1918 йил 27 январда қабул қилинган “Ерни умумийлаштириш тўғрисида”ги Асосий қонуннинг 17-моддасида мустаҳкамлаб қўйилган эди [2]. Аммо большевиклар ҳукумати ўша

даврда ҳам, кейинчалик ҳам бу ҳуқуқни қишлоқ хўжалик ерлари учун татбиқ этиш имконига эга бўлмади.

Совет ҳокимияти мустаҳкамланиб, юқоридан қуйига томон ягона бошқарув тизими шакллана бошлагач, прогрессив даромад ва мулк солиғига ўтишга тайёргарлик кўрилади. Бироқ, мамлакатнинг марказий губернияларида бошланиб кетган фуқаролар уруши ва хорижий интервенция мамлакатда мунтазам солиққа тортиш тизимининг ўнатилишига тўсқинлик қилди. Вайронагарчиликнинг кучайиши ва иқтисодий муносабатларнинг натураллашуви шароитида нақд пул солиқлари ўзининг молиявий аҳамиятини йўқотди ва улар аста-секин натурал солиқлар ва мажбуриятлар билан алмаштирилди.

Совет мамлакатида 1918 йил бошларида бошланиб кетган фуқаролар уруши шароитида совет ҳукумати қишлоқ хўжалик ишлаб чиқариши билан боғлиқ фавқулодда чораларни кенг қўллади. Бу давр тарихда “ҳарбий коммунизм” сиёсати деб ном қолдирди. Бу даврда озиқ-овқат развёрсткаси жорий этилиб, хусусий савдо таъқиқланган ҳамда бутун қишлоқ хўжалик маҳсулотлари устидан давлат назорати ўрнатилган. Деҳқон хўжаликларининг оммавий уюшмаси бўлган қишлоқ хўжалик кооперациялари фаолияти ҳам шу принципларга бўйсундирилди. Кооперацияларнинг амалдаги фаолиятига чек қўйилиб, улар “ҳарбий коммунизм” даври талабларига мослаштирила бошланди.

“Ҳарбий коммунизм” сиёсати шароитида қишлоқ хўжалигида солиққа тортиш большевиклар ҳокимияти томонидан жорий этилган озиқ-овқат развёрсткаси билан алмаштирилди. Бу тизимда деҳқон хўжаликлари ўзларининг тасарруфидаги шахсий ва хўжалик эҳтиёжидан ортиқча бўлган ғалла ва бошқа озиқ-овқат маҳсулотларини қатъий белгиланган нархлар бўйича давлатга топширишга мажбур эдилар. 1918-1920 йилларда озиқ-овқат развёрсткаси мамлакатда вужудга келган оғир ҳарбий ва иқтисодий ҳолат сабабли расмий жиҳатдан фавқулодда чора сифатида эътироф этилган эди. Лекин, “ҳарбий коммунизм” сиёсати мамлакатнинг иқтисодий ривожланишига ҳеч қандай рағбат ва таъсир кўрсатмас эди.

Озиқ-овқат развёрсткаси даставвал 1918 йилнинг иккинчи ярмида совет давлатининг Европа қисмидаги ғалла етиштирувчи бир қатор губернияларда жорий этилган эди [3]. Кейинчалик РСФСР Халқ Комиссарлари Советининг 1919 йил 11 январдаги “Ғалла етиштирувчи губернияларда ғалла ва ем-хашак етиштиришни давлат ихтиёрига олиш ва развёрстка тўғрисида” декрети асосида мамлакатнинг совет ҳукумати назорати остидаги барча ҳудудларида жорий этилди [4]. Озиқ-овқат развёрсткасини ўтказиш тартиблари РСФСР Озиқ-овқат Халқ Комиссариатининг 1919 йил 13 январдаги қарори билан белгилаб берилди. Бунга кўра, деҳқон хўжаликлари тасарруфидаги барча ғалла ва бошқа озиқ-овқат, ем-хашак маҳсулотлари умумдавлат эҳтиёжларини таъминлаш мақсадлари учун аввало, мамлакатнинг саноат губерниялари, сўнгра уездлар, волостлар ўртасида тақсимланиши лозим эди.

Губернияларда давлат режаси вазифалари асосида тегишли уездлар,

волостлар ва қишлоқлар ўртасида озиқ-овқат развёрскаси миқдори белгиланди. Бунда қишлоқдаги ҳар бир хўжалик зиммасига муайян мажбурият юкланиши кўзда тутилди. Яъни, алоҳида қишлоқ хўжалик экинлари бўйича майдонлар ҳажми, маҳсулотнинг ҳосилдорлиги, тегишли қишлоқ ва волост аҳолисининг етиштириладиган қишлоқ хўжалик маҳсулотлари бўйича истеъмол меъёрлари, шунингдек, деҳқон хўжаликларининг уруғлик ва чорва учун ем-хашак бўйича эҳтиёжлари ҳисобга олинган эди [5].

Озиқ-овқат развёрсткаси мажбурий характерга эга эди. Жумладан, декретда шундай дейилган эди: “Ўзларига белгиланган миқдордаги озиқ-овқат, ем-хашакни белгиланган муддатларда етказиб бермаган қишлоқ деҳқон хўжаликларидан уларда мавжуд бўлган барча озиқ-овқат заҳиралари мажбурий равишда давлат фойдасига мусодара қилинади. Ўзларининг озиқ-овқат ва ем-хашак заҳираларини қасддан яширганларга нисбатан қаттиқ чоралар кўрилади, шу жумладан, халқ судларининг ҳукми билан мол-мулки мусодара қилинади ва қамоққа олинади» [6].

Озиқ-овқат развёрсткаси бўйича чоралар Туркистон АССРда ҳам амал қила бошлаган. Жумладан, Туркистон АССР Марказий Ижроитя Комитети 1919 йил 4 июнда “Ғалла монополияси тўғрисида” декрет қабул қилади. Бу декретнинг мазмуни РСФСР РСФСР Озиқ-овқат Халқ Комиссариатининг 1919 йил 13 январдаги қарори билан ҳамоҳанг бўлиб, унга биноан деҳқонларнинг ўз оиласини боқиши, келгуси йилда экиш, шунингдек, иш ҳайвонларини боқиш учун зарур бўлган ғалласидан ташқари қисми совет ҳокимияти органлари тасарруфига ўтиши белгиланган эди [7].

Лекин, барча жойларда кузатилганидек, Туркистонда ҳам бу тадбир етарли тайёргарликларсиз, зарур ҳисоб-китобларни ўтказмасдан, энг муҳими – аҳоли ўртасида тушунтириш ишларини олиб бормасдан жорий қилинди. Шу боисдан ҳам, озиқ-овқат развёрскаси ва ғалла монополияси Туркистонда қишлоқ аҳолисининг кескин норозилигини келтириб чиқарди, деҳқон хўжаликлари бу тадбирга турли кўринишларда қаттиқ қаршилик кўрсата бошлади.

Туркистон компартиясининг 1920 йил январда бўлиб ўтган V Ўлка конференциясида “Касаба союзларининг вакилларидан муайян районларда ғалла тайёрлаш билан шуғулланадиган отрядлар тузиш” тўғрисида қарор қабул қилди. Ушбу қарор асосида Туркистон Марказий Ижроия Комитети 1920 йил 19 февралда ҳарбий озиқ-овқат ишчи отрядлари ташкил этиш йўли билан республика аҳолисини озиқ-овқат тайёрлашга торти штўғрисида қарор чиқаради [8].

1920 йил 28 февралда Туркистон МИК европалик аҳолиси кўп бўлган посёлкаларнинг барчасида камбағаллар комитетларини тузиш ва уларни ғалла тайёрлашга кенг тортиш тўғрисида қарор чиқарди. Айни пайтда ғалла заҳираларини яшириб қўяётган қишлоқ мулкдорларига нисбатан кескин чоралар кўриш тўғрисида ҳам Туркистон МИКнинг алоҳида қарори қабул қилинди. Ғалла монополияси тўғрисида 1919 йил 4 июнда қабул қилинган декретни янада ривожлантирган бу ҳужжатда ғалла монополиясини ва озиқ-

овқат развёрсткасини фақат келгинди деҳқон хўжаликларига нисбатан жорий этиш кўрсатиб ўтилди. 1920 йил 9 мартда Туркистон Марказий Ижроия Комитети натура билан тўланадиган ғалла мажбурияти тўғрисидаги декретни ҳам қабул қилади. Декретга биноан, ерли маҳаллий аҳоли мавжуд экин майдонидан олинадиган ўртача ғалла ҳосилининг ўндан бир қисмидан бешдан икки қисмигача бўлган миқдорини қатъий нархлар билан давлатга топшириши лозим эди [9]. 1920 йилнинг иккинчи ярмида озиқ-овқат развёрсткаси маҳаллий ерли деҳқон хўжаликларига ҳам жорий этилди [10].

1920 йилнинг август ойидан бошлаб озиқ-овқат развёрсткаси ем-хашакка, гўштга, сабзавотга, қуруқ меваларга ҳам жорий қилинди [11].

Озиқ-овқат органлари ва ҳарбий озиқ-овқат отрядлари деҳқонлар оммасига нисбатан ёвузларча ўзбошимчалик ва зўравонлик қилиш ҳисобига 1920 йил августдан 1921 йил июлгача озиқ-овват развёрсткаси бўйича 9.708.703 пуд дон, 1.606.201 пуд гўшт, 465.889 пуд сабзавот, 584.977 пуд қуритилган мева ва 6.358.144 пуд ем-хашак тайёрланди. Развёрстка бўйича ғалла режаси 44 фоизга, ем-хашак бўйича эса 42 фоизга бажарилди [12].

“Ҳарбий коммунизм” сиёсати Туркистон қишлоқ хўжалигини чуқур инқироз ҳолатига солиб қўйди. Қишлоқлар қашшоқлашиб, деҳқон хўжаликлари хонавайрон бўлдилар. Қишлоқ хўжалиги шаҳар ва қишлоқ аҳолисининг озиқ-овқатга бўлган энг кам миқдордаги эҳтиёжларини таъминлашга ҳам қодир бўлмай қолди. Бунинг оқибатида Туркистон ўлкасида очарчилик бошланди, айниқса, у Фарғона областида жуда катта фожиаларга сабаб бўлди. Архив ҳужжатларининг далолат беришича, 1917-1923 йилларда Фарғона водийсида очарчилик натижасида 1 миллион киши ҳалок бўлган [13].

Туркистон ўлкасидаги совет тузумига қарши олиб борилаётган қуролли қаршилик ҳаракати давомида ҳам жуда кўплаб экин майдонларидаги экинлар нобуд бўлди, буларнинг ҳаммаси қишлоқ хўжалигини тобора инқироз ёқасига келтириб қўйди. Хусусан, Туркистон ўлкасида деҳқончилик маҳсулотлари етиштириш 1920 йилда 1913 йилга нисбатан 75,2 фоизга, чорвачилик ишлаб чиқариши эса 56,3 фоизга қисқариб кетган эди [14]. Фарғона водийсида 1917 йилда 257 минг 598 та от, 586 минг 686 та қорамол, 14 минг 289 та туя, 561 минг 197 та қўй, 205 минг 525 та эчки бор эди. Лекин уч йил ичида Фарғонада юк ташувчи отлар 5 марта ва қўшга қўшилувчи хўкизлар 4 марта камайди. 1917 йилда мавжуд бўлган 1 миллион 565 минг 414 бош уй ҳайвонидан 1922 йилда атиги 146 минг 336 бош қолган эди [15].

Инқирозли ҳолатларнинг авж олиши, озиқ-овқат тақчиллигининг тобора кучайиши, очлик, вайронгарчилик Туркистон ўлкасида ижтимоий кескинликни янада кучайтириб юборди. Қишлоқ аҳолиси кенг қатламларининг мавжуд тузумга нисбатан норозилиги ошиб борди, бу пировардида қуролли курашга айланиб кетди. Дастлабки босқичда норозилик асосан озиқ-овқат развёрсткасига қаратилган бўлса, кейинчалик норозилик ҳаракатлари бутун совет тузумига нисбатан намоён бўлди.

Озиқ-овқат развёрсткаси қатъий синфий ёндашувлар асосида амалга оширилди. “Қулоқ” деб аталган қишлоқнинг ўзига тўқ, бадавлат қатламларига

развёрстканинг энг юқори меъёрлари белгиланди, ўртаҳол деҳқонларга анча паст меъёрлар белгиланди, камбағал хўжаликларнинг маълум бир қисми озиқ-овқат развёрсткаси мажбуриятидан озод қилиндилар.

Озиқ-овқат маҳсулотларини развёрстка бўйича давлатга топширган деҳқон хўжаликларига қатъий белгиланган нархлар бўйича нақд пул кўринишида ҳисоб-китоб қилинган. Лекин нақд пулнинг тобора қадрсизланиб бориши, сотувда саноат молларининг йўқлиги озиқ-овқат развёрсткасининг моҳиятини деҳқонларни очиқча талашга айлантириб қўйган эди [16].

Шундай қилиб, Туркистонда ғалла монополияси ва озиқ-овқат развёрсткаси натижасида маҳаллий аҳоли қўлидан 1918-1919 йилларда зўрлик ва товар айирбошлаш (аслида деҳқонларга ҳеч нарса берилмаган) йўли билан 4 миллион 500 минг пуд; 1919-1920 йилларда товар монополияси ва товар айирбошлаш йўли билан 5 миллион 250 минг пуд; 1920-1921 йилларда озиқ-овқат развёрсткаси воситасида белгиланган 22 миллион 500 минг пуд ўрнига 9 миллион 700 минг пуд; 1921-1922 йилларда озиқ-овқат солиғи ҳисобланган 12 миллион 500 минг пуд ўрнига 4 миллион пул ғалла тортиб олинди [17].

Туркистонда пахта майдонлари кескин камайиб, 1915 йилдаги 530 минг десятинадан 1920 йилда 50 минг десятинагача қисқарди. Пахта толаси етиштириш эса 15452 минг пуддан 1922 йилда 50 минг пудгача камайди. Уруш йилларида ҳар десятина ердан олинадиган ҳосил 70-80 пуддан 25-30 пудгача пасайди, пахта толасининг чиқиши эса 30,5 фоиздан 29 фоизгача камайди. Республикада 1920 йилда ялпи маҳсулот чиқиши Биринчи жаҳон урушидан олдинги даражанинг 20 фоизига базўр етди [18].

Илгари четдан келтирилган энг яхши сифатли ғалладан уч баравар қиммат турган пахтанинг нархи “ҳарбий коммунизм” даврида жуда қадрсизланди, ғалланинг баҳоси эса қимматлашди. Пахтачилик соҳасининг инқирозга юз тутиши Фарғонада ишсизларнинг жуда катта армиясини вужудга келтирди. Маълумотларга қараганда, 1918 йили бу ерда 400 минг ишсиз чорикор, 300 минг ерсиз қолган пахтакор деҳқон ва 50 минг завод ишчиси бўлган [19].

“Ҳарбий коммунизм” шароитида хўжаликларнинг натураллашуви натижасида нақд пул жуда қадрсизланиб, унинг аҳамияти пасайиб кетди. Масалан, расмий маълумотларга қараганда, 1919 йил январдан 1920 йил июлгача нархлар ўрта ҳисобда 48 баравар ошган. 1918 йилдан 1920 йилга қадар Туркистон Республикасида муомалага чиқарилган пул массаси 120 баравар кўпайган [20]. Шу боисдан ҳам, 1921 йил февралида нақд пул ҳисобида олинаётган солиқлар бекор қилинди. Унинг ўрнига айни шу даврдан аҳолига янги жорий этилган натурал мажбуриятлар кенг ёйилди. 1918-1922 йилларда совет давлатида уруш шароитида аҳолига ўтин мажбурияти, меҳнат мажбурияти (барча турдаги ёқилғи тайёрлаш, юклаш ва ташиш), озиқ-овқат ва ҳарбий юкларни ташиш мажбурияти кабилар татбиқ этилди. Бу мажбурият эвазига аҳолига ҳеч қандай ҳақ тўланмас эди. Туркистон АССРда ҳам аҳолини ҳақ тўланмайдиган мажбурий ишларга жалб этиш кенг татбиқ этилди. Туркистон Республикаси Халқ Комиссарлари Совети қарорига мувофиқ 1918

йил сентябрь ойининг биринчи ярмиданоқ С.Н. Шумилов бошчилигида ёқилғи бўйича мажбурият таъсис этилган бўлиб, унга биноан аҳолининг турли қатламларини ёқилғи тайёрлашга сафарбар қилиш кўзда тутилган. Бунда нефть ва кўмир қазиб чиқаришдан тортиб саксовул ва бошқа ўтинлар тайёрлашгача бўлган ишлар бажарилган. Натижада йилнинг охирига бориб 70 млн. пуд саксовул тайёрлашга муваффақ бўлинган [21].

Бу каби мажбуриятлар аҳолининг кескин норозиликларини келтириб чиқаргани учун охир-оқибатда уларнинг сони қисқартирилади. Лекин, юкларни ташиш учун асосан қишлоқ аҳолиси учун жорий этилган от-улов мажбурияти сақланиб қолди ва бу мажбурият совет давлатида 1920 йилларнинг охиригача амал қилиб келди.

Деҳқон хўжаликларининг иқтисодий аҳволини яхшилаш учун биринчи навбатда, деҳқонлар учун жуда оғир ва ноқулай бўлган озиқ-овқат развёрскасидан воз кечиш керак эди. Бироқ, большевиклар давлати деҳқон хўжаликларидан озиқ-овқат маҳсулотларини эркин нархлар бўйича сотиб олишга қодир эмас эди. Айни вақтда, давлат деҳқонларга қишлоқ хўжалик маҳсулотлари эвазига саноат моллари (асбоб-ускуналар) билан таъминлашга ҳам тайёр эмасди. Бундай шароитда давлат деҳқон хўжаликлари зиммасига минимал миқдорда озиқ-овқат солиғини жорий этишни ягона тўғри йўл сифатида танлади. Бу тартибда деҳқонлар етиштирган маҳсулотининг фақат бир қисмини натурал шаклда давлатга солиқ сифатида топшириши, қолган қисмига эса тўла эгалик қилиши мумкин эди. Деҳқонлар ихтиёрида қоладиган маҳсулот уларнинг хўжалигини ривожлантиришга йўналтирилиши мумкин эди. Яъни, деҳқонлар солиқдан ортган маҳсулотларини бозорда эркин нархларда сотишдан топган маблағига саноат моллари харид қилиши мумкин эди. Умуман, озиқ-овқат развёрсткаси ўрнига жорий этиладиган озиқ-овқат солиғи деҳқонлар аҳволини сезиларли даражада яхшилашга хизмат қилиши, улар томонидан экилаётган экин майдонларини кенгайтириш ва қишлоқ хўжалик маҳсулотлари етиштиришни кўпайтиришга имкон бериши лозим эди.

Умуман, янги иқтисодий сиёсат (НЭП)га ўтилишига қадар совет давлатида амалда бўлган солиқ сиёсати большевиклар томонидан қандай қилиб бўлмасин ҳокимиятни сақлаб қолиш ва шаҳар аҳолисини озиқ-овқат билан таъминлашга қаратилган эди. Бу мақсад йўлида жорий этилган “фавқулодда чоралар” ва “ҳарбий коммунизм” сиёсати деҳқон хўжаликларини оғир аҳволга тушиб қолишига ва хонавайрон бўлишига олиб келди. 1921 йил баҳорида Янги иқтисодий сиёсатга ўтилиши инқироз ҳолатига келиб қолган қишлоқ хўжалигини тиклаш учун шарт-шароит яратиш, деҳқон хўжаликлари учун бир қатор иқтисодий енгилликлар бериш имконини берди.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Дьяченко В.П. Советские финансы в первой фазе развития социалистического государства. Ч. 1. 1917-1925. – Москва: Госфиниздат, 1947. – С. 78.

2. Сборник документов по земельному законодательству СССР и РСФСР. 1917-1954. / Сост.: д-р юрид. наук проф. Н.Д. Казанцев, О.И. Туманова. – Москва: Госюриздат, 1954. – С. 24.
3. Данилов В.П. Советская налоговая политика в доколхозной деревне. / Октябрь и Советское крестьянство 1917-1927. Сборник статьей. Отв. ред. И.М. Волков. – Москва: Наука, 1977. – С. 171.
4. Толкушкин А.В. История налогов в России. – Москва: Юристъ, 2001. – С. 201.
5. Стрижков Ю.К. Принятие Декрета о продовольственной разверстке и его осуществление в первой половине 1919 г. / Октябрь и Советское крестьянство 1917-1927. Сборник статьей. Отв. ред. И.М. Волков. – Москва: Наука, 1977. – С. 133.
6. Примакова Э.М. Экономическая политика СССР. Сборник документов. Том 1. – Москва: Государственное издательство политической литературы, 1947. – С. 328.
7. Ўзбекистон Миллий архиви, Р-25-фонд, 1-рўйхат, 658-иш, 78-варақ.
8. Ўзбекистон ССР тарихи. Учинчи том. Бош муҳаррир И.М. Мўминов. – Тошкент: Фан, 1971. – Б. 232-233.
9. Ўзбекистон Миллий архиви, Р-17-фонд, 1-рўйхат, 258-иш, 180-варақ.
10. Хон А.И. Деятельность Коммунистической партии по осуществлению новой экономической политики в Туркестане. – Ташкент: Фан, 1986. – С. 62.
11. Ўзбекистон Миллий архиви, Р-31-фонд, 1-рўйхат, 193-иш, 22-23-варақлар.
12. Ўзбекистоннинг янги тарихи. Иккинчи китоб. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида. Тузувчилар: М. Жўраев, Р. Нуруллин, С. Камолов ва бошқалар. – Тошкент: Шарқ, 2000. – Б. 111.
13. Ражабов Қ., Хайдаров М. Туркистон тарихи (1917-1924 йиллар). – Тошкент: Университет, 2002. – Б. 78.
14. Статистический ежегодник 1917-1923 гг. / Сост. под ред. Д. П. Красновского. Том 2. – Ташкент: ТЭС, 1924. – С. 64.
15. Ўзбекистон тарихи (1917-1991 йилар). Биринчи китоб. 1917-1939 йиллар. Масъул муҳаррирлар: Р. Абдуллаев, М. Рахимов, Қ. Ражабов. – Тошкент: O‘zbekiston, 2019. – Б. 251.
16. Толкушкин А.В. История налогов в России. – Москва: Юристъ, 2001. – С. 201-302.
17. Ражабов Қ., Хайдаров М. Туркистон тарихи (1917-1924 йиллар). – Тошкент: Университет, 2002. – Б. 82.
18. Ғойибназаров Ш. Ижтимоий ривожланиш сабоқлари. 20-йиллар таҳлили. – Тошкент: Ўзбекистон, 194. – Б. 16-17.
19. Ўзбекистон тарихи (1917-1991 йилар). Биринчи китоб. 1917-1939 йиллар. Масъул муҳаррирлар: Р. Абдуллаев, М. Рахимов, Қ. Ражабов. – Тошкент: O‘zbekiston, 2019. – Б. 248-249.

20. История народного хозяйства Узбекистана. Том 1. /Отв. ред. О.Б. Джамалов. – Ташкент: Изд. АН УзССР, 1962. – С. 105.
21. Мустабид тузумнинг Ўзбекистон миллий бойликларини талаш сиёсати: тарих шоҳидлиги ва сабоқлари (1865-1990 йиллар). – Тошкент: Шарқ, 2000. – Б. 167.

ISSUES OF FORMATION OF INTELLECTUAL-INNOVATIVE COMPETENCE IN THE NEW UZBEKISTAN EDUCATION SYSTEM

Jasurbek Kurbanov
Associate professor of Kokan state pedagogical institute

Annotatsiya. Maqolada Yangi o‘zbekiston ta’lim tizimida intellektual-innovatsion salohiyatni shakllantirish masalalari ijtimoiy-gumanitar fanlari yordamida, bo‘lajak o‘qituvchilarining intellektual madaniyatining o‘ziga xos xususiyatlari, ijtimoiy bilishning mohiyati tadqiq qilingan. shuningdek, maqolada ijtimoiy-gumanitar soha bo‘lajak o‘qituvchilarining intellektual madaniyatini rivojlantirsh tamoyillari, pedagogik asoslari va tizimi, didaktik jihatlari, muammoga turli yondashuvlar tahlil qilingan.

Annotation. In the article, the issues of intellectual-innovative potential formation in the educational system of New Uzbekistan with the help of social and humanitarian sciences, the specific features of the intellectual culture of future teachers, the essence of social knowledge are researched. Also, the article analyzes the principles, pedagogical foundations and system, didactic aspects, different approaches to the problem of developing the intellectual culture of future teachers in the social and humanitarian sphere.

Аннотация. В статье исследуются вопросы формирования интеллектуально-инновационного потенциала в образовательной системе Нового Узбекистана с помощью социальных и гуманитарных наук, особенности интеллектуальной культуры будущих учителей, сущность социальных знаний. Также в статье анализируются принципы, педагогические основы и система, дидактические аспекты, различные подходы к проблеме развития интеллектуальной культуры будущих учителей в социально-гуманитарной сфере.

Kalit so‘z va iboralar: Yangi o‘zbekiston, intellekt, intellektualllik, intellektuallashtirish, intellektual madaniyat, bo‘lajak o‘qituvchi, bo‘lajak o‘qituvchilar intellektual madaniyat, qobilyat.

Ключевые слова и фразы: Новый Узбекистан, интеллект, интеллектуальность, интеллектуализация, интеллектуальная культура, будущий учитель, интеллектуальная культура будущих учителей, способности

Key words and phrases: New Uzbekistan, intellect, intellectuality, intellectualization, intellectual culture, future teacher, future teachers intellectual

culture, ability

Today, while studying the processes of formation and development of the intellectual potential of society, we have to consider its sources and factors. This, in turn, will help us to analyze these sources and factors, and to determine what exactly we need to pay attention to in the state policy of the transitional period in the following paragraphs. First of all, if we look at the sources that are the basis for the formation of intellectual potential, they include the achieved level of education in society, the educational system, science, scientific research, and educational campaigns.

We can divide them into the following groups based on their appearance:

1. Educational system and educational process.
2. Formation of the desire to develop independent learning and mental abilities through education.
3. Making scientific innovations and discoveries through scientific research.
4. Educational propaganda and popularization of scientific knowledge.
5. Personal experience in mastering new techniques and technologies introduced in production and everyday life.
6. Moral values created by the nation in the process of historical development.

Among them, education and the educational system take the main place because they have the opportunity to cover the education of all members of society. The world encyclopedia – "WORLDBOOK" defines education as follows: "Education is the process of assimilation of accumulated knowledge, skills, habits, values or attitudes by people" [1, 86]. That is, education helps to significantly develop the cultural heritage of the society by helping people to become useful members of the society, and at the same time, it helps to improve the lifestyle of the society. There are teachers, mentors and educational institutions: schools, lyceums, colleges, universities are responsible and authoritative organizations for education. Since education is essentially learning and engaging in teaching, sometimes people study by themselves or with the help of their parents and hire an independent tutor.

The uniqueness of scientific knowledge, the difference from everyday knowledge is that it penetrates into reality and is theoretical in nature. Scientific knowledge is created when a body of evidence is recognized as a law. Scientific knowledge related to a certain field and field is collected and creates a science. The direct goal of science is to describe, explain and predict reality, phenomena and processes. In practice, it serves as an important factor in the production of science, socio-economic relations, and spiritual radical renewal. On the one hand, science is implemented by improving the means of production and production methods, and on the other hand, it is implemented by improving the skills of the workforce through the education system.

Science and scientific knowledge are the fruit of intellectual creativity, and the part that is mastered by society is a component of intellectual potential. The development of society is also related to the creation and transformation of science and scientific knowledge into society. The quality of education is directly related to

the number and qualification of scientific-pedagogical personnel, because they play the role of transforming the accumulated knowledge into the personnel being trained.

Education, like education, is the main resource in forming the intellectual potential of society. Education and training are inseparable processes. Education in education is the inculcation of character, virtue, manners through the educational system. The word “education” means the unification of theoretical virtues between peoples and townspeople, and the word “education” means the unification of virtues and practical professional qualities between these peoples.

A person strives to live by the traits and qualities inculcated through education throughout his life. Therefore, Abdulla Avloni said: “...the one who learns is the knower, and the one who receives education is the doer”. Therefore, not only in the Uzbek people, but also in many other peoples, education is considered a high human value. Because “...maturity and knowledge, that is, development is achieved through education and training” [2, 23]. Emphasizing the importance of education in the development of our country: “We always remember that the future of our country depends on how our young generation is educated, what moral qualities they grow up with, how active our children are in life, and what high goals they serve” we should keep it”, [3, 7] - they said.

Abdulla Avloni in his work “Turkish Gulistan or Morality” spoke about education: “For the health and happiness of a child, it is good education, keeping the body clean, correcting the profession from a young age, teaching good manners, and raising him from bad manners”. [4, 12] - says. Personal character is formed through individual education, and national character is formed through national education. The importance of national character in the economic, political and cultural development of the country is extremely great.

The model of development is expressed through the history, character and behavioral norms of each people or nation, the philosophy, way of thinking, ideas about the state and society, skills, attitudes and values of this people. Characteristic features of such a nation are formed through educational processes and tools, are absorbed, and are left as a legacy from one generation to another. Becoming a product of education, it serves as a factor of human qualities for development.

References

1. The world book encyclopedia. 6 volume. - Chicago: A Scott company, 1995. – P. 86
2. Abu Nasr Forobiy. Foznl odamlar shahri. —Toshkent: A. Qodiriy. Xalq merosi, 1993. — B. 23.
3. Karimov I.A. O‘zbekistan XXI asrga intnlmokda. // Biz kelajagimnzni uz qulimiz bilan quramiz. T.7. —Toshkent: O‘zbekistan, 1999. — B. 385.
4. Avloniy A. Turkiy guliston yexud axloq. —Toshkent: Uqituvchi, 1992.

MUNDARIJA

I Sho‘ba
Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish hamda ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha olib borilayotgan innavatsion tajribalar va ularning natijalari

I Section
Innovative experiments and their results carried out to improve the quality of education in higher educational institutions and ensure their active participation in the reforms carried out in the country

I Секция
Инновационные эксперименты и их результаты, проводимые в высших учебных заведениях по повышению качества образования и обеспечению их активного участия в проводимых в стране реформах

1	**Usmonov Ma’ruf Azamovich** Korrupsiyaga qarshi kurashning qonuniy asoslari	6
2	**Азамов Ж.М.** Конституциявий ислоҳотлар: моҳияти ва устувор йўналишлари	11
3	**O‘rinboyev Davlatjon Baxtiyorovich** O‘zbekiston Respublikasida ta’lim sifatini oshirish masalalari va istiqbollari	15
4	**Ўринбоев Давлатжон Бахтирович** Ўзбекистон олий таълим тизимида амалга оширилатган стратегик ислоҳатлар	19
5	**Zarina Boytemirova** Media ta’lim doirasida yoshlar ma’naviy xavfsizligini ta’minlash	22
6	**Комилова Н.Ў.** Этноэкологик маданиятнинг географик асослари	27
7	**Xabibullayeva Muxabbatxon Nu’monjonovna** Pedagogik tadqiqotlarda statistik tahlil elementlaridan foydalanish	32
8	**Ismoilov Temurbek Islomovich** Yangi O‘zbekistonda ta'lim tizimidagi islohotlar: oliy ta'limda kredit-modul tizimining rivojlanish bosqichlari	38
9	**Satvoldiyev Faxriddin Akbarali o‘g‘li** Oliy ta’lim talabalarining huquqiy madaniyatini rivojlantirish – korrupsiyaga qarshi kurashning muhim omili	40

10	**G‘apparov Elyorjon Otabekovich** Ijtimoiy innovatsiyalar – globallashuv jarayonlarida yoshlar ma’naviyatini yuksatirish vositasi sifatida	44
11	**Isakov Ilyosjon Islomjon ugli** Social institutions and their role in the family adaptation of children left without parental care	47
12	**Холмирзаев Нодиржон Низомжонович** Ёшларда ижтимоий фаолликни юксалтиришнинг назарий асослари	50
13	**Maxamadjanov Islomjon Usmonjon o‘g‘li** Texnika universiteti talabalarining mustaqil ta’limini tashkil etishda interfaol usullarning roli	53
14	**Борисова Валентина Васильевна** Современная онлайн-лекция по литературе	57
15	**Кадирова Муқаддам Сайдамовна, Умарова Муқаддас Мухтаровна** Бўлажак педагог-тарбиячиларда касбий сифатларни шакллантиришнинг педагогик –психологик хусусиятлари	62
16	**Аминова Манзура Муталибовна** Комил инсонни тарбиялашда ўқитувчининг инновацион фаолияти	69
17	**Максимова Людмила Александровна, Джумагелдиева Мая Имамгулыевна** Коррекционно-развивающая программа адаптации детей мигрантов к обучению в начальной школе	73
18	**Ханина Надежда Николаевна** Мактабгача таълим ташкилотлари тарбиячиларининг касбий компетенцияларини такомиллаштиришнинг мазмуни ва моҳияти	78
19	**Roland Fischer** Gedanken Eines Senior Experts Zum Stand Der Didaktischen Dinge - Ein Sprachdidaktisches	83
20	**Dr. Laliya Yakhyaeva** Modern Muslim women around the world	86
21	**Рузыкулова Мафтуна Юлдашевна** Значение метода “устной истории” (oral history) в изучение истории освоения и орощения земель центральной Ферганы	90
22	**Абдиманапов Бахадур Шарипович, Салбырова Макпал Токтарбеккызы** Информационно-коммуникационные технологии в обучении географии – как результат компенетнностно-ориентированного похода	93

II Sho‘ba
Oliy ta’limda ilg‘or xorij tajribasi asosida, fanlarni o‘qitish va talabalar bilimini baholash tizimini yangi innovatsion usullarini yaratish hamda joriy etish sohasidagi tajribalar

II Section
Based on advanced foreign experience in higher education, experience in the field of teaching subjects and creating and introducing new innovative methods of student knowledge assessment system

II Секция
Опыт в области создания и внедрения новых инновационных методов преподавания дисциплин и системы оценки знаний студентов на основе передового зарубежного опыта в высшем образовании

23	**Морозова Марина Ивановна, Воспанова Дарья Валерьевна** Конвергентный подход как одно из инновационных направлений развития современного высшего образования	100
24	**Дмитрий Александрович Субетто, Виктор Феодосьевич Куликов, Ольга Андреевна Шелухина** О географическом образовании в Российском государственном педагогическом университете им. А.И.Герцена	103
25	**Анна Михайловна Панькова, Шерстенина Татьяна Денисовна** Родительские установки современной молодежи	110
26	**Дуйшеев Женишбек Аматисакович** Состояние высшего образования Кыргызской Республики	114
27	**Ахмедова М.Г.** Университет, Государство и Рынок	119
28	**Водяха Сергей Анатольевич, Водяха Юлия Евгеньевна** Формирование навыков саморегуляции студентов вуза	122
29	**Ханина Н.Н.** Формирование социальной активности молодежи на примере деятельности студенческой ассамблеи народа Казахстана	126

3-Sho‘ba
Oliy ta’limni “Korrupsiyasiz soha”ga aylantirishdagi vazifalarni amalga oshirishni ta’minlash bo‘yicha olib borilayotgan ishlar: tajriba va natijalar

III Section

The work carried out to ensure the implementation of the tasks in the transformation of higher education into a "Field without corruption": experience and results

III Секция
Проводимая работа по обеспечению реализации задач по превращению высшего образования в "Бескоррупционную сферу": опыт и результаты

30	**Аминова Манзура Муталибовна** Коррупцияга қарши курашнинг ҳуқуқий асослари ва унинг олдини олиш омиллари	131
31	**Юлдашева Матлуба Мунаваровна** Мафкуравий тузилмаларнинг замонавий кўринишилари	136
32	**Низамиев Абдурашид Гумарович** Экологик таълим – тарбия беришда хорижий давлатлар тажрибасидан фойдаланиш	136
33	**Oripov Elyorjon Shavkatovich** Oliy ta'limda talabalar ma'naviy-axloqiy ongini yuksaltirish masalalari	144
34	**Oripov Elyorjon Shavkatovich** Mamlakatimiz oliy ta'limi talabalarining ma'naviy-axloqiy ongini yuksaltirishni huquqiy asoslari	148
35	**Rashidaxon Muqimovna Ahmedova, Toxir Botirov** Amir Temur harbiy sa'nati tarixini o'rganishda "Individual Dars" shakli orqali o'quvchilar faoliyatini faollashtirish	152
36	**Shamsiddinov B.J., Qodirov B.** Innovatsion rivojlanishda raqamlashtirishning ahamiyati	156
37	**Shamsiddinov B.J., Qodirov B.** Raqamlashtirish innovatsion rivojlanish asosi	159
38	**Mansurova Malohat Yunus qizi** Ijtimoiy boshqaruv ma'naviy asoslarining ilmiy-nazariy tahlili	162
39	**Mamadieva Nilufar Xalilovna** Yoshlarda mafkuraviy immunitetni shakllantirishda g'oyaviy tarbiyaning ahamiyati	166
40	**Norliyev Rustam Ibragimovich** Ma'naviy-ma'rifiy tarbiyani rivojlantirishga innovatsion yondashuv	169
41	**Тўраева Азиза** Ёшларга маънавий қадриятларни сингдиришда миллий контент ва маънавий тарғиботнинг ўрни	174
42	**Xudoyberganov Sh.**	179

	Globallashuv davrida ekologik madaniyatni shakllantirish masalalari	
43	**Xamraqulov Zafarjon Yigitaliyevich** Huquq darslarida talabalarning qonunga itoatkorlik madaniyatini yuksaltirishda jinoyat sudlari bilan hamkorlik qilish	184
44	**Sharipova Oqibatxon Aminjonovna, Anvarjonova Sevinchxon Zamonjon qizi** Yoshlar ta'lim-tarbiyasida ijtimoiy-gumanitar fanlarning o'rni va ularni o'qitishning dolzarb masalalari	187
45	**Hasanboy Abdupattayev** Tarbiya fanini joriy etilishi hamda tarbiya va milliy tarbiya tushunchalarining mazmun - mohiyati	192
46	**Khudoberdiyev Jamoliddin** Transparency (openness) of state youth policy: concept and legal nature	198
47	**Рахимшикова М.К., Хавазметова Д.А., Шарипова О.А.** Путь к интеллектуальному развитию общества	202
48	**Khudoberdiyev Jamoliddin** Analysis of state policy, openness, development and legal basis for youth in Uzbekistan	205
49	**Khudoberdiyev Jamoliddin** Priority directions and perspectives of ensuring the transparency of state policy on youth in Uzbekistan	208
50	**Abdupattayev Hasanboy Abdurahmonovich** Milliy tarbiyaning tarkibiy tuzilishi	212
51	**Khudoberdiyev Jamoliddin** The process of ensuring the transparency of state power institutions and its specific features	216
52	**Xudoyberganov Sh.** Yangi O'zbekiston sharoitida shaxснинг фуқаролик mas'ulligi	219
53	**Ismoilova Gulbaxor Azamovna, Sayfullayeva Sabina Nodirbek qizi** Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirishda ekologik bilimlarning o'rni	222
54	**Khudoberdiyev Jamoliddin** Analysis of international experience in ensuring the transparency (openness) of state policy regarding youth	226
55	**Muhammedova Mohichekhrakhan Bakhodir qizi** The use of interactive methods in improving the quality of education in higher educational institutions	229

IV Sho‘ba
Yuksak ma’naviyatli yoshlarni tarbiyalash va ularda turli mafkuraviy tahdidlarga qarshi immunitetni shakllantirish bo‘yicha olib borilayotgan ishlar va tajribalar

IV Section
Work and experiments carried out to educate young people of high morale and to form immunity to various ideological threats in them

IV Секция
Проводимая работа и опыт по воспитанию высокодуховной молодежи и формированию у нее иммунитета к различным идеологическим угрозам

57	**Юлдашева Матлуба Мунаваровна** Ижтимоий онгни юксалтиришда мафкуравий ислоҳотларнинг ўрни	233
58	**Xodjayev Olimxon Shavkatovich** G‘oyaviy-mafkuraviy jarayonlar intensivlashishida halq ruhi va milliy o‘zlikni anglashning o‘rni	236
59	**Xodjayev Olimxon Shavkatovich** Globallashuv jarayonida yoshlar ma’naviy tarbiyasida milliy g‘oya va tarixiy xotiraning roli	241
60	**Maxkamov Jamshid** Tabiiy fanlarni o‘qitilish jarayonida maktab o‘quvchilarida shakllanadigan ijodiy faoliyat tajribasini takomillashtirish	244
61	**Дехқонбоева Мавлуда** География дарсларини ташкил этишда дидактик методлардан фойдаланиш масалалари	247
62	**Yuldasheva Xusnida, Rasulov Hurshidbek** Yuksak ma’naviyatli yoshlarni tarbiyalash va ularda turli mafkuraviy tahdidlarga qarshi immunitetni shakllantirish	250
63	**Бабаев Марклен Доолотбаевич, Өмүрзакова Гулкайыр Абдималиковна** История становления и развития подготовки специалистов – педагогов начального образования в Ошском государственном университете.	255
64	**Шербаева Зувайда Эрмаматовна, Исакова Умида Иргашбаевна** Особенности городских и сельских культурных ландшафтов, значимость их сохранения (на примере Ошской области)	260
65	**Yuldasheva X., Hasanov M.**	265

	Globallashuv sharoitida- milliy tarbiyani rivojlantirish zaruriyat sifatida	
66	**Boytemirova Z., Jaloldinov Javlonbek** Ta’lim tizimidagi islohotlarda barkamol insonni tarbiyalashning asoslari	270
67	**Қўзибоева Озодхон Махмудовна** География таълими жараёнида мактаб ўқувчиларида шаклланадиган ижодий фаолият тажрибасининг тузилмаси ва мазмуни	274
68	**Maraximov Abdullajon** Oliy ta’lim muassalarida ta’lim sifatini nazorat qilish va boshqarish tizimini takomillashtirish	278
69	**Алижанов А., Қаюмов А.** Комил инсон ғояси шарқ мутафаккирлари қарашларида	282
70	**Rasulov Elbek Elmurodjon o‘g‘li** Temuriylar davrida Samarqand shahri iqtisodiyoti tarixi	286
71	**Otajonova S.R., Ahmadjonova M.S.** O‘zbekistonda agroturizmni rivojlantirishda xorijiy davlatlar tajribasidan foydalanish	293
72	**Otajonova Sarvigul Ravi’jonovna** Bo‘lajak biologiya o‘qituvchilarida sog‘lom turmush tarzi ko‘nikmalarini tarkib to‘ptirish mazmuni	297
73	**Yuldashev Abdurauf Ro‘zmatjonovich** Oliy ta’limda ilg‘or xorij tajribasi asosida kredit – modul tizimida talabalar va pedagoglar faoliyati	299
74	**Маматқулова М.В, Абдураззоқова Д.О, Ахмедова У.Ш.** Талабаларни ўқув фаолиятида ижодий қобилиятларни шакллантириш методлари	304
75	**Маматқулова М.В., Мирзахокимова М. Б., Йўлдашева М. И.** Амалиётда талабаларни ижодий қобилиятларини ривожлантириш муаммоси	310
76	**Otajonova Sarvigul Ravi’jonova** Yoshlarda ekologik ta’lim va tarbiyani shakllantirishning ayrim yo‘llari	315
77	**Элёр Абдуллажонович Раҳмонов, Абдусалим Абдусаломович Аманов** Фарғона водийсида аҳолини уй-жой билан таъминлаш жараёни (2016-2020 йиллар мисолида)	320
78	**Элёр Абдуллажонович Раҳмонов, Абдусалим Абдусаломович Аманов** Ўзбекистонда ёшларни ижтимоий қўллаб-қувватланишининг аҳамияти	324
79	**Olimov Jahongir Bo‘riboyevich**	329

	The history of the organization of scarecrows in Uzbekistan	
80	**Olimov Jahongir Bo‘riboyevich** XIX asr oxiri XX asr boshlaridan o‘rmon xo‘jaliklari faoliyatiga nazar	334
81	**Мелибоев Азизжон Низомиддинович, Муҳаммедов Рўзматжон Ғуломжон ўғли** Сифатли таълим янги Ўзбекистонда камбағалликка қарши курашнинг самарали воситаси	338
82	**Meliboyev Azizjon Nizomiddinovich** Yangi O‘zbekistonning ta’lim va ijtimoiy himoya islohotlari kambag‘allikka qarshi kurashda yangicha yo‘l	343
83	**Meliboyev Azizjon Nizomiddinovich, Meliboyeva Shaxnoza Yormatjon qizi** Yoshlarni qo‘llab-quvvatlash jamiyatda kambag‘allikni qisqartirish chora-tadbirlarining asosiy maqsadi sifatida	346
84	**Mamaroziqov Azizjon Davronovich, Meliboyev Azizjon Nizomiddinovich** Yangi O‘zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashishda yetakchi davlatlar tajribasining o‘rni va ahamiyati	349
85	**Yusupov Axrorjon Qurbonovich** O‘zbekiston yoshlarining ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirishda milliy o‘zlikni anglashning roli	352
86	**Yusupov Axrorjon Qurbonovich** O‘zbekistonning mustaqillik yillarida ijtimoiy-iqtisodiy hayoti va yoshlarga e’tibor	357
87	**Yusupov Axrorjon Qurbonovich** Jamiyatimizda globallashuvning yoshlar ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirishga ta’siri	360
88	**Jamoliddinov M.G‘., G‘iyosiddinova M.A.** Jadidchilik va Qo‘qon muxtoriyati davrini o‘rganish yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning eng muhim omili	365
89	**Рашидахон Муқимовна Аҳмедова, Тохир Ботиров** Amir Temur harbiy tashkilotchiligi va sarkardalik mahoratini o‘rganishning tarbiyaviy ahamiyati	369
90	**Марозиқов Акмал Абдурашидович** Фарғона вилоятида ҳунармандчилик: ислоҳотлар, янгиланишлар	374
91	**Марозиқов Акмал Абдурашидович** Фарғона вилоятида ҳунармандчилик маданиятининг аҳоли турмуш тарзидаги ўрни	379
92	**Акбаров Бобурхон Баҳром ўғли** Ходимни интизомий жавобгарликка тортиш соҳасида (жавобгарликни белгилаш асосларида) хорижий тажриба	385
93	**Nuridinov T.**	389

	Zamonaviy ta’limda xorij tajribasidan foydalanishning ayrim masalalari	
94	**Бакиханова А.А.** Обзор сотрудничества высших учебных заведении Азербайджана и Узбекистана	393
95	**Yunusaliyev Jahongir Ortiqbayevich** Buyuk ajdodlarimiz merosi asosida o‘quvchilarda ilmiy dunyoqarashni rivojlantirish modeli	395
96	**Yunusaliyev Jahongir Ortiqbayevich** Tarix fanini o‘qitish jarayonida o‘quvchilarning ilmiy dunyoqarashini rivojlantirish mazmuni	400
97	**Xamidov Shukurulloh** Tarixni o‘rganishda o‘qitish usullari	405
98	**Boltaboyev Muxammadjon Axmadjon o‘g‘li** Turkistonda ruhoniylarga nisbatan sovet hokimiyati munosabatining keskinlashuvi	409
99	**Obidjonova Gulchexra Mamirjon qizi** Ahmad Yassaviy shaxsiyati va uning tariqatchilik faoliyati	413
100	**Rustamov Umidjon Maxsudali o‘g‘li** Inclusive education in the experience of the world and uzbekistan	417
101	**Mahmudjonov J.** Use of interactive methods and pedagogical technologies in the educational process	422
102	**Mirakhmedov Jakhongir Mukhsinovich** The need to understand the national identity and the formation of historical consciousness in the minds of student youth	425
103	**Шамсиддинов Бурхон Жакбарович** Хусусий тадбиркорликнинг оила ва маҳалла фаровонлигини таъминлашдаги ахамияти	428
104	**Шамсиддинов Бурхонжон Жакбарович** Тадбиркорлик ва ишбилармонликнинг ижтимоий-фалсафий талқини	432
105	**Abdujalilova Muxlisaxon Abduxalil qizi** Boshlang‘ich sinf o‘qish darslarida Anvar Obidjon ijodini o‘rganishning tarbiyaviy ahamiyati	437
106	**Shomurotov Sharofiddin Shukurjon o‘g‘li** Mustaqil O‘zbekistonda suv resurslarini boshqarish sohasidagi islohotlar	440
107	**Шомуротов Шарофиддин Шукуржон ўғли** Мустақил Ўзбекистонда сувни тежовчи технологияларнинг жорий қилиниши	442
108	**Abdujalilova Muxlisaxon Abduxalil qizi** Umumiy o‘rta ta’lim maktabining 9-sinfida ehtimolliklar nazariyasini o‘qitilishi	445

109	**Xaydarova Dilorom Abduxamidovna** Mediata'lim – yoshlarni salbiy axborotlardan himoya qilishning muhim omili	448
110	**Xaydarova Dilorom Abduxamidovna** Pedagogika oliy ta'lim muassasalari talabalarining mediakompetentligini rivojlantirish muammosini yechish yo'llari	452
111	**Тошматов Шуҳратжон Абдуқосимович** Туркистон қишлоқ хўжалигида "ҳарбий коммунизм" сиёсати ва унинг оқибатлари	457
112	**Jasurbek Kurbanov** Issues of formation of intellectual-innovative competence in the new Uzbekistan education system	465